



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**OLIY TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARNING O'RNI
Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya
M A T E R I A L L A R I
1-kitob**

**РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
M A T E R I A L Y
Международной научной онлайн конференции
1-книга**

**ROLE OF INNOVATION AND DIGITAL TECHNOLOGY IN
IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION
M A T E R I A L S
of the international scientific online conference
Book 1**



NSPI.UZ

2021-yil 20-noyabr,
Navoiy shahri

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**OLIV TA‘LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARNING O‘RNI
Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya
M A T E R I A L L A R I
1-kitob**

**РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
M A T E P И A Л Ы
Международной научной онлайн конференции
1-книга**

**ROLE OF INNOVATION AND DIGITAL TECHNOLOGY IN
IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION
M A T E R I A L S
of the international scientific online conference
Book 1**

2021-yil 20-noyabr,
Navoiy shahri

Oliy ta'lim darajasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning natijaviy samaradorligini yanada oshirish, professor-o'qituvchilar va mutaxassis-olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot faoliyati asosida yaratilayotgan ilmiy-texnologik ishlanmalarning tegishli sohalarga operativ tatbig'ini ta'minlash ilmiy-innovatsion hamkorlikning asosiy tamoyilidir. Mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi 78-F-sonli farmoyishi asosida tasdiqlangan "Oliy ta'lim sifatini takomillashtirishda raqamli texnologiya va innovatsiyalarning o'rni" mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya materiallaridan iborat.

To'plamda Oliy ta'lim sifatini takomillashtirishda raqamli texnologiya va innovatsiyalarning ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarb masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan qiyosiy o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to'plamini tayyorlash uchun mas'ullar

Mas'ul muharrir: B.B.Sobirov, texnika fanlari doktori, professor.
NavDPI rektori

Ilmiy muharrir: N.O.Safarova, falsafa fanlari doktori, professor.
NavDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

Taqrizchilar: E.E.Karimov, tarix fanlari doktori, professor. Nyu York Xofstra universiteti professori (AQSh) YUNESKOning Butunjahon yodgorliklari hujjatli merosini himoya qilish qo'mitasi a'zosi.

Sh.O.Madayeva, falsafa fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti falsafa va mantiq kafedrasini mudiri,

Texnik muharrirlar: U.Q.Tilavova, M.X.Norqobilov

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

© Navoiy Davlat pedagogika instituti, 2021

**Navoiy viloyati hokimi, senator N.Tursunovning
Xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga**

TABRIK SO‘ZI

Hurmatli Xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilari!

Oliy ta’lim jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida faoliyat olib boruvchi ijtimoiy institut sifatida shu jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar va jarayonlarga o‘z vaqtida munosabat bildiradi, chunki, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarning rivojlanish darajasini, uning istiqbollarini ta’minlashda yuqori malakali mutaxassislar, ilm-fan vakillari yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev 2019 yil 24 mayda O‘zbekiston Respublikasi Milliy universitetida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ilm-fanning mamlakat rivojidadagi ahamiyatini “Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri hal qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi” so‘zlari bilan alohida ta’kidlagan edi.

Buning natijasi o‘laroq, oxirgi yillarda Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning uzoqni ko‘ra bilishi va bevosita tashabbuskorligi hamda faolligi tufayli O‘zbekistonimiz xalqaro hamkorlikning zamonaviy va raqobatbardosh ishtirokchisiga aylandi. Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2020 yil 2 martdagi PF-5953 Farmoni bilan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi” tasdiqlandi, ta’lim, ilm-fan, innovatsion hamkorlikka doir o‘nga yaqin qarorlar qabul qilindi va ularning ijrosi muvaffaqiyatli ta’minlanmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joiz ki insoniyat XXI asrdagi globallashuv jarayonlarining yanada shiddatlashuvi davriga qadam qo‘ydi. Xalqaro hamjamiyat o‘zining istiqbolini mamlakatlararo, millatlararo hamkorliksiz tasavvur eta olmasligi so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalarida va ilmiy asoslangan ko‘plab tadqiqotlarda o‘z aksini topdi. Tabiiyki, milliy oliy ta’lim tizimlari zamonaviy fan va texnika tomonidan ishlab chiqilayotgan va tobora takomillashib borayotgan “dunyo standartlari” atalmish talablarga muvofiqlashishga intiladi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini hozirgi jamiyatda muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun ta’lim xizmatlari bozorida va mehnat bozorida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirishga layoqatli bo‘lishlari, tez o‘zgarib borayotgan

sharoitlarga moslasha olishlari, shuningdek, ta'limda yanada yangi, samarali axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'zlashtirishlari lozim.

Bugun Navoiy davlat pedagogika institutida o'tkazilayotgan xalqaro onlayn konferensiyada xorijiy davlatlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari olimlarining ishtiroki yuqorida qayd qilingan vazifalarning mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi, xususan Navoiy davlat pedagogika instituti faoliyatida muvaffaqiyatli bajarilishiga muhim hissa qo'shishi, ilm-fan, texnologiyalar sohasidagi innovatsion hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi shubhasiz.

Xorijiy hamkorlar va O'zbekiston ilm-fani vakillarini Xalqaro konferensiyaning boshlanishi bilan samimiy qutlayman va uning yuqori ilmiy va tashkiliy darajada samarali o'tishini tilab qolaman!

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri,
Iqtisod fanlari doktori (DSc) A.Toshqulovning
Xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga
TABRIGI**

Hurmatli Xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilari!

Dunyoning turli mamlakatlaridan va O‘zbekistonimizning barcha mintaqalaridan Navoiy Davlat pedagogika institutida o‘tkazilayotgan Xalqaro konferensiyaga bevosita tashrif buyurish istagingiz, biroq koronavirus pandemiyasi sababli onlayn tarzdagi ishtirokingizni ta’lim va fanga fidoyiligingiz, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga e’tiboringiz va hurmatingiz belgisi sifatida qabul qilamiz! Har biringizni oliy ta’lim sohasining bilimdoni, uni yanada rivojlantirishda ishonchli va salohiyatli hamkor deb bilamiz.

Bugungi konferensiya o‘ta dolzarb va g‘oyat muhim mavzuga bag‘ishlangan, chunki innovatsion hamkorlik mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni professional darajada tahlil qilish, ularning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi; oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyatlar yaratilmoqda; agar 2017 yilgacha oliy ta’lim bilan qamrab olish 9-10 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 20 foizga yetdi, 2020 yilda bu ko‘rsatkich 25 foizni, 2021 yilda 35 foiz va kelajak strategiyada 60 foizni tashkil qilishi rejalashtirildi; bitiruvchilarga bir vaqtning o‘zida bir necha oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyati amaliyotga kiritildi; hududlar ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimi joriy qilinmoqda; xotin-qizlar uchun qo‘shimcha grantlar ajratish belgilandi; ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarida tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy-ishlab chiqarish, tajriba-ishlab chiqarish laboratoriyalari hamda ilmiy-innovatsion markazlar samarali faoliyat olib bormoqda. Alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Hindiston, Singapur, Malayziya singari rivojlangan mamlakatlarning nufuzli oliy o‘quv yurtlari filiallari faoliyat olib bormoqda. Hukumatlararo shartnomalar asosida xorijiy hamkorlarimiz safi Yaponiya, Belarus, Qozog‘iston, Misr, Ummon sultonligi, Ukraina, Turkmaniston, Ozarbayjon kabi mamlakatlar oliy o‘quv yurtlari hisobiga yanada kengaymoqda. SHuningdek, mamlakatimiz ta’lim

muassasalari AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, Belarus va boshqa mamlakatlar oliy o'quv yurtlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida faoliyatni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llagan holda o'quv-metodik jarayonni takomillashtirish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirish, ularning turli xalqaro ilmiy anjuman va simpoziumlarda ishtirok etishi, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish maqsadida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari Britaniya Kengashi, Gyote nomidagi institut, Koreya va Yaponiyaning hamkorlik bo'yicha agentliklari, yevropa Ittifoqining Tempus va Erasmus Mundus nomli ta'lim dasturlari, Hindiston va Malayziya Texnik hamkorlik dasturi, BMTning rivojlanish dasturi va boshqalar bilan bevosita aloqalar o'rnatgan.

Amalga oshirilayotgan islohotlardan maqsad hajm jihatidan o'sib borayotgan va mazmuni jihatidan har tomonlama sifat kasb etayotgan dunyo xo'jaligi tomonidan shakllantirilayotgan universal kadrlarni tayyorlashga ehtiyojlarni qondira oladigan darajadagi milliy oliy ta'lim tizimini shakllantirishdir. Bu esa o'z navbatida milliy oliy ta'lim tizimining mazmuni dunyo standartlari darajasiga muvofiqlashuvini taqozo etadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta'limdagi innovatsion hamkorlik bu sohaning sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirishning hal qiluvchi komponenti bo'lib qoladi. Bunda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari yangi texnologiyalarni yaratish negizida kelajakdagi rivojlanishning asosini shakllantirishi lozim. Bu esa o'z navbatida mamlakatning sara intellektual qatlamini tanlab olish va tayyorlashni talab qiladi. Innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tish sharoitida mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishidagi real ehtiyojlarga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tizimining pirovard maqsadi bo'lib qoladi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Butun dunyoning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy faoliyati qatorida oliy ta'lim sohasini ham misli ko'rilmagan ekstremal holatga solgan koronavirus pandemiyasi sharoitida mazkur xalqaro konferensiyada ishtirok etayotganingiz uchun Oliy va o'rta max'sus ta'lim vazirligi sizlarga chuqur ehtiromini izhor qiladi hamda ushbu anjuman innovatsion hamkorligimizning bardavomligiga xizmat qilishiga ishonch bildiradi.

OLIV TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Sobirov B.B., t.f.d., professor

Navoiy Davlat pedagogika instituti rektori, O'zbekiston.

Dunyodagi barcha sivilizatsiyalar tarixi, bashariyatning hozirgi, jumladan, iqtisodiy, texnik-texnologik, ijtimoiy, madaniy sohalardagi taraqqiyot darajasida erishgan barcha yutuqlarida ilm-fanning hissasi beqiyos. Raqamli jamiyat jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi mavjud shart-sharoitlar ilmiy va innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha sheriklik va hamkorlikning yaxlit tizimini shakllantirish hamda ilm-fanning eng so'nggi yutuqlarini ezgulikka, insoniyatning baxt-saodati uchun xizmat qilishga yo'naltirish davr talabidir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini, xususan, oliy ta'lim, ilm-fan sohasini jahon standartlari darajasiga olib chiqish yuzasidan so'nggi yillarda yurtimizda juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmi bo'laman, degan, yuragida o'ti bor jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklar yaratilmoqda". Ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lgan oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limning yanada rivojlantirish milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tgan O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ustuvorlikning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2020 yil 2 martdagi PF-5953 Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da, 2019 yil 30 avgustdagi "YOshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida o'z mavqei va o'rniga ega, Zarafshon vohasi ta'lim muassasalari uchun yuqori malakali pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlayotgan Navoiy davlat pedagogika institutida bugungi kunda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan olis, chekka va tog'li hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari uchun maqsadli qabul amalga oshirildi. Kadrlar buyurtmachi vazirlik, idora, korxonalar bilan birgalikda talabalarning ixtisoslikka oid bilim va amaliy ko'nikmalarini kuchaytirishga, bitiruvchilarda zamon talablariga mos amaliy fikrlash, tezkor tahlil, mustaqil yechim izlash, amaliy kreativlikni shakllantirishga qaratilgan 27 ta ta'lim yo'nalishlari va 18 ta magistratura mutaxassisliklar o'quv rejalari, fan dasturlari takomillashtirildi va o'quv jarayoniga tatbiq etildi. Institutda fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi yo'lga qo'yilmoqda.

Institutning veb saytiga (<http://nspi.uz/>) barcha ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklar bo'yicha o'qitilayotgan barcha fanlardan o'quv-uslubiy majmualar, darslik, o'quv qo'llanmalar, elektron dars ishlanmalar hamda videodarslar **youtube.uz**ga joylashtirib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan institutning Navoiy viloyati Tomdi tumanida Til o'qitish markazi tashkil qilindi. Ushbu markazda olis hududda yashayotgan yoshlarga o'zbek va ingliz tillarini bepul o'qitish yo'lga qo'yildi.

Institutda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 noyabrdagi qarori bilan institut tuzilmasida "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi" tashkil qilingan. 9 bo'limdan iborat ushbu muzeyda XIX asrning ikkinchi yarmidan to Mustaqillikning bugungi kunigacha bo'lgan eksponatlar joy olgan bo'lib, milliy istiqloлга erishish yo'lidagi tariximiz, insonlar taqdiri, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz aks ettirilgan.

Keyingi yillarda institutning xalqaro hamkorlik geografiyasi kengaydi. Hozirgi kunda AQSH, Rossiya, Belarus, Malayziya, Hindiston, Kanada, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Tojikiston kabi xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan o'quv-uslubiy, ilmiy-innovatsion hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 fevraldagi 56-F-sonli Farmoyishiga asosan, Navoiy Davlat pedagogika institutida tashkil qilinayotgan "Oliy ta'lim sifatini takomillashtirishda innovatsion hamkorlikning dolzarb masalalari" mavzusida Xalqaro konferensiya ham aynan ana shu xalqaro ilmiy-innovatsion hamkorlikning yorqin misolidir.

Navoiy Davlat pedagogika instituti qoshida 110 mingdan ortiq kitob fondiga ega bo'lgan zamonaviy tipdagi Axborot- resurs markazi faoliyat yuritadi.

Institutda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida "Higher education for employability" (Ish bilan ta'minlashda oliy

ta'limning ahamiyati) dasturi doirasida oliy ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan, byudjeti 200.000 funt sterling bo'lgan loyiha bajarilmoqda.

Institut kafedralarida 18 ta inovatsion guruh shakllantirilib, ular tomonidan hozirgi kunda viloyatdagi 36 ta korxonalar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Innovatsion guruhlariga jami 270 nafar xodimlar jalb qilingan. Innovatsion guruhlar tarkibiga 92 nafar professor-o'qituvchilar, 69 nafar korxonalar vakillari, 4 doktorant, 33 nafar magistrant va 72 nafar iqtidorli talabalar sohalaridagi muammolarni yechish bilan shug'ullanmoqda. O'zaro hamkorlik shartnomalari asosida 88 ta mavzudagi muammolar banki shakllantirilgan. O'zaro hamkorlik shartnomasiga asosan korxonalarda talabalarning bitiruv oldi, tanishuv va malakaviy amaliyotlari, 70 ta kurs ishi, 40 ta bitiruv malakaviy ishi, 30 ta magistrlik dissertatsiyasi, 7 ta doktorlik dissertatsiyasi va 3 ta xo'jalik shartnomalari bajarilmoqda.

Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus doirasida institutda 66 ta fan va kasbiy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu to'garaklarga institutning qariyb 60 % foiz talabasi qamrab olingan. Institutda "Intellekt", "Talabalar teatr studiyasi", "Quvnoqlar va zukkolar", "Notiqlik", "Nauka i kreativ" kabi o'nlab klublar, "Navobaxsh" va "Dutorchi qizlar" ansambli, "Navoiy" talaba-yoshlar teatr studiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilgan.

Jismoniy madaniyat va sport sohasida 13 ta sport to'garaklari, Institut sport klubi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish hamda oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqilgan va ijrosi ta'minlanmoqda.

Institutda ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, foydalanish, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish uchun dadil qadamlar tashlanmoqda.

Navoiy Davlat pedagogika institutini rivojlantirishning yaqin va o'rta istiqboldagi

ustuvor faoliyat yo‘nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta‘lim sifatini oshirish, zamonaviy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar, magistrlik, PhD va DSc dissertatsiyalari o‘rniga impakt-faktorli jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarni qabul qilishning ilg‘or xorijiy tajribasini keng joriy etish;

- oliy ta‘lim tizimida distansion (masofaviy) ta‘lim modelini ishlab chiqish, uning infrastrukturasi yaratish va bosqichma-bosqich joriy etish;

- ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalarni tijoratlashtirishda iqtisodiyotning barcha sektor korxonalarini bilan manfaatli aloqalarni o‘rnatish;

- innovatsion hamkorlik doirasida ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, kadrlar almashinuvini kengaytirish;

- ilmiy tadqiqotlar natijalarini yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilishiga erishish, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlarini oshirish;

- axborot almashinuvi, ma‘lumotlarni xalqaro ilmiy-texnik ma‘lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritish.

Konferensiyada ishtirok etayotgan xorijlik olim va mutaxassislarni hamda O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan tajribali olimlar va iqtidorli yoshlarni barcha yo‘nalishlarda innovatsion hamkorlikka chorlab qolamiz. Ezgulikka qaratilgan bunday hamkorlik institutimiz ilmiy-pedagogik jamoasiga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

ПОЗНАВАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА СУФИЗМА В ПРИЗМЕ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ

Абдуллаева Махбуба Нуруллаевна,
доктор философских наук, профессор,
Национальный университет Узбекистан, Ташкент

Суфизм предназначен не для особой части общества, ибо такой части попросту не существует, но для определенной способности, скрытой в людях. Суфизм не существует там, где люди не активизируют эту способность.
(Идрис Шах)

Суфизм многоаспектное, сложное, разнообразное проявление интеллектуальных способностей человека. Мы хотим обратить ваше внимание не на некоторые идеи в познавательной системе, которые привлекли наше внимание в призме современного философского видения мира.

История развития суфийских учений представляет большой интерес. Очевидно, причину можно объяснить тем, одной из основополагающих ее идей что «суфизм есть трансдисциплинарная философия, предназначенная для исправления определенных вещей, берущая свое начало в прошлом но полностью применима и к современному обществу»¹.

Суфизм основывается не на строго детерминированных началах, он содержит в себе «и «суровую» и «мягкую реальность, разлад и гармонию, яркий свет пробуждения и мягкую темноту стремления свет пробуждения и мягкую темноту стремления ко сну»². Эти идеи адекватны современным идеям философии основанных на нелинейном мышлении. Как, известно во всех суфийских концепциях проблема любви занимает центральное место.

Конечно, у суфиев любовь является одним из условий познания бога. Но вместе с тем, «любовь к богу ассоциируется у суфия с любовью к тому миру, который создан богом»³.

По Руми, единство интеллекта и интуиции, приводящие к познанию и развитию, к которым стремится суфизм основывается на любви.

«Суфии верят, что в каждом человеке скрыт некий элемент, который можно активизировать с помощью любви и который может помочь человеку достичь истинной реальности...»⁴.

В современной концепции аутопознания проблема – любви, лежащая в основе социального развития является основополагающей. «Без любви, без принятия других живых существ помимо нас, не существует социального прогресс ... биологически, без

¹ Идрис Шах. Суфизм. – М., 1994. –С52.

² Идрис Шах. Суфизм. –С.42.

³ Ходжа Ахмет Яссаул – основоположник тюркский ветви суфизма.

⁴ Идрис Шах. Суфизм. – М., 1994. –С194.

любви, без принятия других, не существует феномена социальности. Если мы все же живем вместе таким образом, то мы проживаем в атмосфере безразличия и отрицания под видом любви»⁵.

Проблема взаимоотношений, основанная на любви формирует пространство, в котором создаются условия для социального развития, конструктивного диалога, взаимопонимания и т.д. и очевидно, они являются фундаментальной основой цивилизационного развития человечества.

Внутренняя структура человека определяет все его действия в окружающем мире. Различие между истинным суфием и притворяющимся суфием состоит в том, что по духовному пути, «идти, исключение составляют те, кому это суждено от рождения (кашф, 4), и что тому, кто для этого не рожден, невозможно стать подлинным суфием»⁶.

Современный подход утверждает, что каждое живое существо обладает некоторой определенной исходной структурой. Эта структура определяет его взаимодействия с окружающим миром. В современных концепциях это положение научно обосновывается. Изменения, происходящие в живом существе определяет его структура «...изменение, проистекающие от взаимодействия живого существа и окружающей его среды, хотя вызываються возмущающим агентом, тем не менее определяются структурой самой возмущенной системы»⁷.

Значимость идеи о внутренней структуре, определяющей поведение, действие человека интерпретируются и суфизмом и сторонниками аутопоззии, в рамках своей познавательной системы.

Интересны идеи о соотношении добра и зла, хорошего и плохого и т.д.

Румий пишет, «пока не будет нехорошее (плохое), для хорошего нет возможности, «если нет причины делать плохое, нет причины отказываться от хорошего». Пока не будет нехорошее, для хорошего нет возможностей»⁸.

И как пример, можно привести слова Руми «если бы человек стал совершенно мудрым и полностью избавился от невежества, это мудрость разрушила бы его. Следовательно, невежество похвально, ибо оно поддерживает непрерывное существование. Чередясь с мудростью, невежество помогает ей, подобно тому, как день и ночь дополняют друг друга.

Сложные системы, образование сложных систем, переход от хаоса к порядку изучены основателями синергетики Г.Хакеном, И.Пригожиным, исследования сложных живых систем были осуществлены в работах У.Матурана и Ф.Варела, известное как концепция аутопоззиса. Синергетические исследования сложных систем показали, что в каждом хаоса есть определенная доля порядка.

Изучении работ суфистов в русле познавательной системы позволяет выявить интересные идеи созвучные современному миропониманию.

⁵ Матурана У., Варела Ф. Древо познания. –С.81.

⁶ Шиммель Аннемари. Мир исламского мистицизма. – М., 2012. – С.30.

⁷ Матурана У., Варела Ф. Древо познания. –С.27.

⁸ Румий Ж. Ичингдаги ичиндадур. –С.93.

МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ВА ТАФАККУР МУТАНОСИБЛИГИ

Ҳайдархон Юлдашходжаев т.ф.н.–
Мир Араб олий мадрасаси ректори

Кўплаб уламо ва тадқиқотчилар томонидан тасаввуфга турли хил таърифилар берилган. 15 асрда Шимолий Африкада яшаб ўтган фикҳ, муҳаддис, мутасаввиф, тасаввуфда зарруқия тариқатининг Шайх Аҳмад Зарруқ ушбу таърифлар икки мингдан ортиқ эканини таъкидлайди⁹. Жумладан Шахул-ислом Закариё ал-Ансорий (р.а.) тасаввуфни қуйидагича таърифлаган:

التصوف علم تعرف به أحوال تزكية النفوس، وتصفية الأخلاق وتعمير الظاهر والباطن
لنيل السعادة الأبدية

“Тасаввуф – абадий саодатга эришиш учун нафс поклиги, ахлоқ софлиги, зоҳир ва ботинни обод қилиш ҳолатлари ўрганиладиган илмдир”¹⁰.

Тариқат сўзи эса луғатда – “йўл”, “йўсин”, “услуг”, “таълимот” каби маъноларни англатади. Истилоҳий маънода кўпинча тасаввуф йўналишларига нисбатан қўлланилсада, баъзан тасаввуф, руҳий тарбия каби маъноларда ҳам учратиш мумкин. Аллома Саййид Шариф Журжоний таърифидан айти шу маъно кўзланганини кўришимиз мумкин:

“Тариқат – солиқ¹¹ларга хос юриш бўлиб, у бир қанча йўлларни босиб ўтиш ва юксак мақомларга қўтарилишдир”¹².

Маълумки, Пайғамбар алайҳиссалом даврларида ақоид, фикҳ ва бошқа шаръий илмлар қатори тариқат ёки тасаввуф ҳам алоҳида ажралиб чиққан эмасди. Ўша даврдаги мусулмонлар Расулulloҳ соллалллоҳу алайҳи ва салламнинг бевосита ўзларидан таълим олишарди.

Кейинчалик эса саҳобалар Қуръон ва суннат асосида керакли ҳукм ҳамда хулосаларни чиқариб олиб амал қилиб юрдилар. Ҳижрий бешинчи ва олтинчи асрларга келиб Шозилия, Қодирия, Мавлавия, Яссавийя, Нақшбандия каби машҳур тариқат йўналишлари ҳам шакллана бошланди. Тасаввуфга оид турли мўтабар асарлар таълиф қилиниб унинг назарий жиҳати бойитилган бўлса, пири комилларнинг ҳаёт йўллари, тақво ва илмда пешқадамликлари кўплаб муридлар учун амалий намуна вазифасини ўтади. Бундан айти шу асрларда тасаввуф ўз раванқи чўққисига чиққанини билиб олишимиз мумкин.

Ҳижрий еттинчи асрдан кейин кўплаб исломий билимлар қатори тасаввуфда ҳам ўзига хос таназул кузатилди. Замон ўтиши билан тасаввуфнинг сурати бузилиб Ислому таълимотларидан, шариат аҳкомларидан узоқлаша бошлади. Бунинг асосий сабаби таълим тарбиянинг заифлашиши, саводсизликни оммалашиб кетиши эди. Оқибатда баъзи тоифалар тасаввуфни даромад манбаига айлантириб олдилар. Бугунги кунга келиб баъзи бир ўзини тасаввуфдан санайдиган кишилар “тариқат – ҳақиқатдир, шариат эса зоҳирий илмдан бошқа нарса эмас” дейишгача бордилар.

Шундан келиб чиқиб уламолар тасаввуфни икки қисмга бўлганлар:

1. Сунний тасаввуф.

Барча назарий ва амалий жиҳатлари Қуръони карим ва суннати набавийга мувофиқ бўлгани учун “Сунний тасаввуф” номи билан юритилади. Кейинги уламолар уни “Руҳий тарбия” номи билан аташга одатланганлар.

2. Бидъий тасаввуф.

⁹ Қаранг: Шайх Аҳмад Зарруқ. Қавоид ат-тасаввуф. 14-бет. (https://ar.wikipedia.org/wiki/كتاب_التصوف)

¹⁰ Шахул-ислом Закариё ал-Ансорий. Ҳошияту аъла рисолатил-Қушайрия. 7-бет.

¹¹ Аллоҳ таоло томон юрувчи, тасаввуфга кирган шахс.

¹² Қаранг: Имом Абул Қосим Абдулкарим ал-Қушайрий. Ар-Рисала ал-қушайрийя. 312-бет. Дорул кутуб ал-илмийя. Байрут. 2001 й.

Бундан Пайғамбар алайҳиссалом ёки салафи солиҳларнинг тутган йўлларига зид бўлган тасаввуф кўзда тутилади. Баъзи тадқиқотчилар уни “фалсафий тасаввуф” деб ҳам номлаган.

Сунний тасаввуф ва унинг ислом динида тутган ўрни

Руҳий тарбияга муқаддас динимизда алоҳида эътибор берилган. Қуръони карим ва суннати набавийда бунга кўплаб далилларни келтириш мумкин. Уларда такво, қалбни поклаш, Аллоҳни доимо зикр қилиш каби амалларга қаттиқ тарғиб қилинган. Аллоҳ таоло “Шамс” сурасида:

“ҳақиқатан, уни (нафси) поклаган киши нажот топур. ва у (нафс)ни (гуноҳлар билан) кўмиб, хорлаган кимса эса (Аллоҳнинг раҳматидан) ноумид бўлур!”, – деган¹³.

Шариат бу – асос, тариқат воситадир. Бу иккиси ўзаро ҳамоҳанг, бир бирини тўлдирувчи нарсалардир. Ким уларнинг биринчисини маҳкам тутса, сўссиз иккинчисига ҳам юради. Уларнинг орасида умуман бир бирига қарама-қаршилик, зидият йўқ. Шунинг учун сўфийлар ўзларининг машҳур қоидаларида: “Шариатга зид бўлган ҳар бир ҳақиқат – зиндиклик¹⁴дир”, дейдилар. Бу борада буюк мужтаҳид олим Имом Молик раҳматуллоҳи алайҳ: “Ким сўфий бўлсаю, фикҳни ўрганмаган бўлса, у зиндик бўлибди. Ким фақиҳ бўла туриб, сўфий бўлмаса, у фосиқ бўлибди. Ким иккисининг орасини жамлаган бўлса муҳаккиқ бўлибди”, – деган¹⁵.

Бироқ барча замонларда ҳам ўзларини тасаввуфга боғлиқ деб билганлар томонидан шариат мезонларига тўлиқ амал қилмаслик ва ҳатто тариқат пирлари асослаб кетган таълимотни ҳам бузиш ҳолатлари учраб турган ва бу ҳол айни кунга қадар давом этиб келмоқда.

Бухоройи шарифнинг улуғ алломаларидан ҳам суфий ҳам тасаввуфшунос олим Абу Бакр Муҳаммад ибн Исҳоқ ал-Бухорий ал-Калободий (вафоти хижрий 380/милодий 990 йил) ўзининг “ат-Тааруф ли мазҳаби аҳл ат-тасаввуф” (яъни “Тасаввуф аҳли йўлини таништириш”) китобининг муқаддимасида шундай ёзади: “Ўзининг улуғлиги парда билан кўзлар уни англашидан тўсилган Аллоҳ таоло ҳамдлар бўлсин Дини динларнинг энг яхшиси бўлган, уммати умматларнинг энг яхшиси бўлган, шариати бекор бўлмайдиган, умматидан сўнг бошқа уммат келмайдиган, пайғамбарларнинг охиригиси Муҳаммад мустафога саловоту саломлар бўлсин.

Аллоҳ таоло унинг уммати орасидан поклар ва танларганлар, эзгу ишлар қилувчиларни чиқарди. Аллоҳдан уларга яхшилик етган эди, уларни такво калимасида собитқадам қилиб нафсларини дунёдан узган эди. Улар томонидан қилинган саъй-кўшишлар яхши натижа бериб, ўқиб ўрганиладиган яъни шариат илмларни ўзлаштирдилар. Бу илмдан холис бўлганликлари учун уларга мерос бўлиб ўтадиган – ладуний илм ҳам берилди. Қалблари покланиб ўткир фаросат билан тақдирландилар. Оёқлар мустаҳкам, забонлари пок бўлди. Илмлари нур таратди. Улар Аллоҳ таоло илми билан тушундилар, Аллоҳ томонга сайр қилдилар ва Ўзидан бошқа барча нарсадан юз ўгирдилар. Ларнинг нурлар Аллоҳ таоло билан ўрталаридаги ҳижоб-пардаларни ёндириб ташлади”.

Тасаввуф аҳлини сифатларини юқоридагидек келтириб Абу Бакр Калободий шундай яна шундай: “Пайғамбар алайҳиссалом даврларида улар “Аҳлис-суффалар” эдилар. У кишининг вафотларидан кейин улар умматнинг энг яхшилари бўлдилар. Бири иккинчисини ўзининг яхши амали билан тарғиб қилиб келди. Кейин аста-аста рағбат камайди, талаб-истак сусайди, ҳолат фақатгина саволлар ва жавоблар, китоблар ва рисоалардан иборат бўлиб қолди. (Ҳикматли сўзлар) маъноларни ўз эгаларигина

¹³ Қуръони карим, “Шамс” сураси, 9-10 оятлар.

¹⁴ иймонсизлик

¹⁵ Мулла Али ибн Муҳаммад Султон ал-қори ал-ҳанафий. Шарҳу айнил-илм. 1-жуз. 33-бет.

тушунадиган, одамларнинг қалби уларни сиғдира олмайдиган бўлди. Оқибатда маъно кетиб ёлғиз ном қолди. Ҳақиқат-моҳият йўқолиб тушунарсиз расм-русумлар пайдо бўлди. Таҳқиқ-илм ва тасдиқ безак бўлиб қолди. Тасаввуфни англаб етмайдиганлар унинг илмини даъва қиладиган бўлдилар. Ўзларида суфийлик сифати бўлмаганлар у билан безанадиган, одамларнинг кўзига шундай кўринишга уринадиган бўлдилар. Тасаввуфни тили билан иқрор қилиб турганлар амали билан уни инкор қилдилар. Зоҳиран уни баён қилувчиларда суфийлик кўринмади. Тасаввуфдан бўлмаган нарсалар унга киргизилди, тегишли бўлмаган унга ишлар нисбат берилди. Натижада тасаввуфнинг ҳақиқати ботилга чиқарилди, олимлари жоҳил деб аталди. Уни биладиган олимлар ўз билимларини ўзгалардан қизғандилар, тасаввуфни тўғри сифатлаб тушунтириб бера оладиганлар рашк юзасидан жим турдилар. Оқибатда қалблар ундан қочадиган, кўнгишлар юз ўтириб кетадиган бўлди. Илм ва унинг аҳли, баён ва амал кетди. Оқибатда жоҳиллар олим саналадиган бўлди, олимлар хор қилинди. Бу ишлар мени суфийлар тариқатини Аллоҳ таолонинг зоти борасидаги тавҳид илмида ва бошқа турли шубҳалар воқеъ бўлган ишлардаги асл сифатларини уларнинг мазҳабини билмайдиган одамларга тушунтириб беришни мақсад қилган ушбу китобимни ёзишга ундади.”¹⁶

Тасаввуф борасидаги яна бир мўътабар китоб “ар-Рисолатул Қушайрийя” муаллифи Имом Абдулкарим ибн Ҳавозин ал-Қушайрий суфийлар жамоаси муроат қилиб шундай ёзади: “Эй, Суфийлар жамоаси, Аллоҳ сизлардан рози бўлсин. Бу йўлдагиларни Ўзининг дўстларининг энг поклари қилди, уларни пайғамбарларидан кейин барча халқлардан афзал қилди, уларнинг қалбларини Ўз сирларининг конларига айлантирди, бу жамоани уммат орасида Ўз нурининг жилоси билан хослади. Улар халқнинг қутқарувчиларидирлар, ўзларининг барча ҳолларидан Аллоҳ таоло билан ҳақиқий алоқани боғлайдилар

Аллоҳ сизларни раҳмати ила сийласин, билиб қўйинглarki бу йўналишдаги муҳаққиқ олимларнинг кўпчилиги ўтиб кетишди. Бу замонимизга келиб суфийлардан асар-хотира қолди холос

Ҳидоятга бошлай оладиган шайхлар, пирлар ўтиб кетишди, иқтидо қилишга арзигулик ёшлар кам қолишди. Аллоҳга такво қилиш йўқолди, унинг бисоти ўраб олиб қўйилди, тамагирлик кучайиб унинг иплари мустаҳкамланди. Қалблардан шариатга бўлган ҳурмат кўтарилди. Динга озгина боғланишни катта нарса деб биладиган бўлишди. Ҳалол билан ҳаромни фарқламай қўйишди. Эхтиромни унутиб ҳашаматга берилиб таназзулга юз тутишди

Суфийман деганлар ўзларига берилган даражадан юқорироқни кўзлай бошладилар. Ўзларини Ҳаққа етишган, нимаики қилсалар Аллоҳнинг ҳукми билан, Қолдирилган ёки ортиқча қилган амаллари учун Аллоҳ таоло уларни жазоламайди ҳам, маломат ҳам қилмайди, уларга илоҳиёт сирларини кашф бўлган ва уларни уни маҳкам ушлаб олганлар, башарият қонуниятлари уларга жорий бўлмайди деб даъво қила бошладилар. Улар башариятдан узилиб илоҳиёт билан мангу қолганлар. Агар бир гап гапирсак бизнинг тимиздан Аллоҳ гапиради, қиладиган ишларимизни Аллоҳ таоло тасарруф қилади дейдиган бўлдилар.

Мана шундайлар айни кунимизда ҳам топилиб турибди. Улардан биттаси хусусида қисқача тўхталамиз.

Шўро давридаги даҳрийлик сиёсати барҳам топа бошлаганидан кейин Марказий Осиёда ҳам ўзини нақшбандия тариқати вакили сифатида кўрсатиб майдонга чиққанлар кўпая борди. Бундайлар ўзимизнинг Ўзбекистонимизда ҳам пайдо бўлди.

Бундай сохта тариқатчилар жамиятга ёт ғоялар тарқатиб, амалда ҳам нақшбандия тариқатининг шаънига доғ туширади, ҳам соф, тоза эътиқодли фуқароларимизни чалғитишга, шу тариқа уларни тўғри йўлдан адаштиришга сабаб бўлади.

¹⁶ Абу Бакр Калобозий. Китоб ат-Таарруф ли мазҳаби аҳл ат-тасаввуф. Қоҳира, 1994, 4,5-бетлар.

Ҳозирги пайтда кўшни Қозоғистонда ўзини “*нақшбандия пири*” деб кўрсатаётган Қурбонали Бакибуллаевич Аҳмедов олиб бораётган диний-тасаввуфий фаолият ҳам ҳаммамизни ташвишга солади.

У ўзини мамлакатимизда нақшбандия-муҷаддиция-хусайния тариқатининг раҳбари деб танитган марҳум Иброҳим эшон (Иброҳим Маматкулов, 1937 – 2009)нинг “*халфаси*” (ўринбосари) деб даъво қилиб чиқяпти. Муридлари томонидан: “*Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи ва салламнинг меросхўрлик вакилликнинг ваколотиға эғалик қилаётган комил пирдир, «Қутби олам» - «Оламнинг қутби», «Оламларнинг соҳиби».* Дунёда пирлар кўп, лекин оламнинг қутби, оламнинг эғаси – биттагина, фақат ёлғиз!

Якка бўлишининг боиси у – *Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи ва салламдан берилиб бораётган силсиланинг – «Олтин силсиланинг» охирғиси, яқунловчиси. Аллоҳ таоло оламни унинг юрағи билан идора қилади. У комил пирни квант физик, астраномик хисоблашлар бўйича россия олимлари аниқлаб ҳам қўйди. Бунақа маълумотларни интернетдан бемалол топса бўлади.*

Комил пирнинг олтин силсиласи яқунловчи бугин эканлиги тўғрисидаги дараклар Москвадан, Санк-петербурдан ва Алматадан чиққан Эзотерикалик китобларда, марказий Осиёдаги суфизмга алоқадор ўтган халқаро конференцияларнинг материалларида, силсила жадвалида келтирилган. Афсусланарлиси, олам тан олган комил пиримиз халқимизда расмий тарзда тан олинмаяпти. Қутби олам – оламнинг қутби, оламнинг эғаси комил пир, ҳозирги вақтда пирларнинг ватани, пирлар байроғини кўтарган буюк Тараз шаҳрида истиқомат қилади, – деб эътиқод қилиниш даражасига етди.

Энг ёмони, мамлакатимизнинг Тошкент, Андижон, Самарқан шаҳарлари, Тошкент вилоятининг Чирчиқ, Оҳангарон шаҳарларида шаҳрида Қурбонали Аҳмедовни нақшбандия тариқатининг “*пири муришиди*” сифатида кўриб, унга кўр-кўрона эргашаётган, тез-тез унинг зиёратига – суҳбатига бориб-келиб турадиган кишилар тоифаси ҳам пайдо бўлиб улгурди.

Тасаввуф тарихидан биламизки, аввал – шариат, кейин – тариқат ва сўнг – ҳақиқат. Тариқат асло шариатсиз амалга ошмайди. Шундай экан, тасаввуф шариатнинг бирор-бир талабига зид келишга ҳақли эмас. Ҳатто, ҳазрат Хожа Баҳоуддин Нақшбанднинг ўзлари: “*Суннат мутобаати риояти улуг ишдурки, ҳар киши бу тариқимиздан юз уурса (ўғирса), анга дин хатаридур*” (“Нақшбандия” журнали, 2014 йил, 1-сон, 29-бет), – деганлар.

Абу Язид Бистомий (р.а.) “Агар кароматлар берилиб, ҳаттоки осмонга кўтарилаётган кишини кўрсангиз, то унинг шариат буйруқлари ва қайтариқларига қай даражада риоя этаётганини кўрмагунингизча у билан алданиб қолманг”, деган.

Жунайд Бағдодий: “Ким Қуръонни ёд олмаса, ҳадисни ёзмаса, унга бу ишда (тариқатда) эргашилмас. Чунки бизнинг бу ишимиз Китоб ва Суннат ила боғлиқдир” деган.

Бошқа бир ривоятда эса:

“Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва салламнинг изларидан юрмаган киши учун барча йўллар берқдир” деган.

Хуллас, Қурбонали Аҳмедов ва унга ўхшаганларқатаётган ғоялар, жамият маънавий муҳитини лойқалатишга олиб келади. Бундай ғояларнинг юртимизга кириб келиши, хусусан, ёшларимиз онгини заҳарлашидан эҳтиёт бўлиш ҳар биримизнинг муҳим вазифамиздир. Бизларнинг буюк аждодларимиздан қолган бебаҳо илмий, маънавий, ирфоний меросимиз бор. Буни ҳеч қачон унутмаслигимиз ва унга содиқ бўлишимиз керак.

МАЛАКАЛИ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШДА ИННОВАЦИОН ҲАМКОРЛИКНИНГ ЎРНИ

проф. Мухиддинов Б.Ф., проф. Собиров Б.Б.
Навоий Давлат кончилик институти. Ўзбекистон.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 августдаги “Илмий ва инновацион фаолиятни интеграциялаш тизимининг самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ – 3899 қарори ва 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5544 сонли Фармонида фан, таълим ва ишлаб чиқариш билан инновацион корпоратив ҳамкорликни йўлга қўйиш олий таълим муассасаси фаолиятининг устивор йўналишларидан бири этиб белгиланган.

Бизнинг мамлакатимиз мустақилликка эришгунга қадар, собиқ иттифоқ даврида Ўзбекистонга асосий пахта етиштириш ва уни хомашё сифатида етказиб бериш вазифаси юклатилганлигидан, Республика кимё саноати шунга мослаштирилган эди.

Шунинг учун кимё саноати корхоналари биринчи навбатда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришини жадаллаштириш учун минерал ўғитларни ишлаб чиқаришга йўналтирилган. Бунда кимё саноати комплексларини асосий фондлари маънавий жиҳатдан эскирган бўлиб, у 1991-йилга келиб 51% ни ташкил этди. Бундан ташқари кимё саноати сезиларли даражада чет эл хом ашёсига боғлиқ эди, 70% га яқини олиб келинган, хусусан, фосфоритлар, каустик сода, хлорид кислота, хлор, холбуки республикада азотли ўғитлар ишлаб чиқариш бўйича етарлича захиралар мавжуд эди, шунинг учун, мустақил Ўзбекистон раҳбарияти томонидан кимё саноатининг такомиллаштириш, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш бўйича ва уни ишончли хом ашё базаси билан таъминлаш учун бир қатор муҳим чора тадбирлар қабул қилинди. Бундан ташқари, Ўзбекистоннинг мустақилликка эришган кунидан бошлаб соҳани малакали мутахассислар билан таъминлаш, замонавий технологияларни жалб қилиш ҳамда илғор дунёвий тажрибани барча ходимларга етказиш бўйича ҳам қатор муаммолар вужудга келганди.

Масалаларнинг ечими сифатида Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да ва “Таълим тўғрисида”ги қонунлар қабул қилинди. Қонунларда фан, таълим ва ишлаб чиқариш ҳамкорлигига алоҳида эътибор қаратилди. Шундан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарорларида ва Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан қабул қилинган ҳайъат қарорларида олий таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро манфаатли ҳамкорлигини ташкил этишнинг инновацион механизмларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш йўлида қатор ишлар ҳозирга қадар амалга оширилмоқда.

Айтиш мумкинки, мустақиллик йилларида Республиканинг кимё саноати сезиларли даражада ривожланди. Чорак аср мобайнида мамлакат раҳбарияти томонидан қабул қилинган қарорлар асосида соҳада янги ишлаб чиқариш корхоналари қурилди ва фойдаланишга топширилди. Бунга бир қатор мисоллар келтирамиз. 2001-йилда “Навоийзот” АЖда каустик сода, хлор, хлорид кислота, дезинфекцияловчи воситалар, Фарғона фуран бирикмлари кимё заводида – пахта целлюлозасининг хосилалари ишлаб чиқариш ўзлаштирилди. Кейинги йили “Фарғонаазот” АЖ хлор-магнийли дефолантлар ва натрий хлорати, 2003-йилдан бошлаб эса нитрат кислота ва аммиакли селитра ишлаб чиқарила бошланди. 2006-йилда замонавий технология ва ускуналар асосида Марказий Осиё минтақасида ягона бўлган кальцинирланган сода ишлаб чиқариш бўйича корхона - Қўнғирот сода заводи фойдаланишга топширилиши, ўз хом ашёси билан шиша, фармацевтика ва бошқа қўшма соҳалар таъминланди. Тубегатан калийли тузи кони

базасида 2010-йилда йилига қуввати 200 минг тонна бўлган Дехқонобод калийли ўғитлар заводини 1-навбатини қурулиши якунланди. 2014-йилда заводнинг қуввати 400 минг тоннага етказилди. Бу корхоналарнинг ҳар бири ҳам кимё соҳасини, ҳам иқтисодиётни умумий ривожланишида муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирги кунга келиб, замонавий инвестицион муҳит бугунги давр муваффақиятларга суяниб яшашни эмас, балки имкониятлардан имконлар топиб, фаолиятга танқидий нуқтаи назардан баҳо берган ҳолда одимлашни талаб этаётир. Шу маънода институт ички имкониятларини юзага чиқариш, назарий таълим ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш, шу билан бир қаторда институтнинг илмий-амалий потенциалини янада такомиллаштириш борасида тегишли ташкилотлар билан амалга оширилаётган самарали ҳамкорлик ишлари ҳам жуда катта ёрдам бермоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Кон-металлургия саноати учун юқори малакали мутахассислар тайёрлашни ташкил қилишни такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида»ги қарори асосида Навоий давлат кончилик институти ҳамда соҳанинг етук корхоналари ўртасидаги интеграцион жараёнларни кенг кўламда жорий этиш масаласини очиқ ойдин вазифа қилиб қўйган.

Биргина мисол сифатида шуни таъкидлаш жоизки, институтнинг мутахассислик кафедраларининг туғридан туғри ишлаб чиқариш объектида ўз филиалларини очиши олий таълимнинг техник соҳаси учун революцион характерга эга бўлди. Жумладан, “Навоийазот” АЖда ва Навоий электрокимё заводида “Кимёвий технология” кафедрасининг филиали очилиши, соҳадаги ўқув ва илмий тадқиқот ишлари олиб борилишига сезиларли туртки бўлди.

“Кимёвий технология” кафедраси билан инновацион ҳамкорлик юзасидан Навоийазот АЖ билан икки томонлама дастур ишлаб чиқилган бўлиб, унга кўра талаба ёшлар ҳам дуаль амалиёт тизимида ҳам режалаштирилган амалий машғулотларни бажариб боришида ҳамда дуал тизимидан ташқари белгиланган режа асосида иккинчи курс талабаларидан бошлаб, барча талабалар кафедра филиалига ташриф буюрадилар. Бу ерда уларга нафақат кафедра профессор-ўқитувчилари балки ишлаб чиқариш корхоналарининг малакали мутахассислари ўз билим ва кўникмаларини ўргатишади. Институтда эгалланган назарий билимлар, ташкил қилинган кафедра филиалида амалий машғулот ва бевосита тажриба ишлари билан мустаҳкамланади. Ҳар бир технологик жараён, асосий ҳамда ёрдамчи қурилмалар, энг асосийси техника хавфсизлиги қоидалари ишлаб чиқариш объектининг реал қурилмалари, макет ва техник ишланмалар билан тушинтирилади. Яратилган бу каби шароитлар ҳосили албатта мевасиз бўлмайди. Чунки талаба ёшлар кимё саноатидаги замонавий билимларни эгаллашлари билан бирга мавжуд муаммоларни ўзлари учун амалий лойиха сифатида олиб, ишлаб чиқариш вакиллари ҳамда “Кимёвий технология” кафедраси профессор-ўқитувчилар билан биргаликда уларга ечим излашади. Кафедрода имконияти бўлган замонавий лабораториялар эса куну-тун шу изланишлар йўлида хизмат қилади.

Демак, ишлаб чиқариш корхоналарида бевосита ташкил қилинган дуал ҳамда амалий машғулотлар жараёнида фан, таълим ва ишлаб чиқариш ҳамкорлигини янада ривожлантириш билан малакали мутахассислар тайёрлаш имкони яратилади.

Орттирилган тажрибалар шуни кўрсатадики, фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграция асосида олиб борилаётган ишлар соҳани малакали мутахассислар билан таъминлаш, ишлаб чиқариш сир-асрорларидан талаба ёшларни кенгроқ бохабар қилиш, мавжуд муаммоларни ечишда олий таълим ва саноат ҳамкорлигини чуқурлаштириш, яратилаётган ишланма ва ғояларни бевосита амалиётда синовдан ўтказиш, инновацион лойиҳаларни минтақа, республикада қолаверса дунё миқёсида коммерциализациялаш имконини беради.

RENESSANS DAVRIDA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI

Safarova N.O. f.f.d., prof. –

NavDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, Uzbekiston

Fan tarixida ilk bor algoritm algebraik masalalarni yechish uchun Muhammad al-Xorazmiy tomonidan qo'llanilgan. Algebraning elementlari qadimgi Misr, Bobil va YUnonistonda ma'lum bo'lgan bo'lsada, aynan al-Xorazmiy tufayli algebra alohida fan sohasi sifatida qaraladigan bo'ldi. Uning nomi bilan ketma-ketlik qoidalarining yig'indisi bog'liq bo'lib, unga ko'ra o'nli sanoq tizimi bo'yicha to'rt arifmetik amallardan biri bajarilishi nazarda tutiladi.

Qoidaga ko'ra, algoritmni tabiat, jamiyat va inson fikrlashida tabiiy va sun'iy jarayonlarning o'tishi¹⁷, deb ta'riflash mumkin. Algoritmning tamoyillari fanning barcha sohalariga kirib borgan va aniq hisoblarni talab etadigan algoritmlashtirish asosi bo'ladi. Bugungi kunda texnika, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'pgina sohalar unga asoslanadi.

Taraqqiyotning har bir bosqichiga tegishli jamiyat strukturasi hozirgi zamon o'tmish bilan determinatsiya qilingan imkoniyatlar makoni mavjud. Bizning vazifamiz sub'ektning bilish faoliyatining imkoniyatlar makonini hamda uning natijasi jamiyatning keyingi rivojiga ta'sir o'tkazishini ko'rsatishdir.

Ma'lumki, bilish – inson ongining yangi axborot bilan boyib borish jarayoni. Bilim esa fikrlash faoliyatining natijasi, inson faoliyatining regulativi (tartibga soluvchisi)dir. U texnika va texnologiyada o'zining amaliy ifodasini topadi, manbaning potensial imkoniyatlarini ishga soladi va hozirgacha inson tomonidan ishlatilgan barcha tabiiy boyliklar va o'tmishdagi barcha ishlab chiqarish kuchlaridan behad ustunlik qilib kelmoqda. Ideal sifatidagi bilim inson faoliyati davomida moddiylashtiriladi. SHu bilan birga, sub'ekt intellekti, bilimning mavjudlik shakllari axborotga yaqindan kirib borish – axborotni bilimga aylantirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Ushbu maqolada al-Xorazmiy ilmiy g'oyalari axborotning imkoniyatlar makonini yoritib berishda asos bo'ladi.

Zamonaviy fanning kibernetlashtirish, kompyuterlashtirish, axborotlashtirish tushunchalari algoritmlashtirishning asosini tashkil qiladi. "Algoritm" so'zi lotin transkripsiyasida "Al-Xorazmiy"ni anglatadi.

Al-Xorazmiyning to'rt arifmetik amal natijalarining tahlili (qo'shuv va ko'paytiruv, ayirish, bo'lish va cheksiz davriy kasrlar) fanning ilmiy apparatiga manfiy sonlarni, "chegara" va "chegaraviy o'tish" kabi yangi fundamental tushunchalarni kiritishni asoslaydi. Bu tushunchalar matematik tahlilning fundamental g'oyalari bo'lib, Leybnits va Nyuton differensial va integral hisobni aynan ulardan boshlaganlar. Turli tasnifdagi bilimlarning mavjud bo'lishiga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, u erkin va "ochiqdir"¹⁸.

Bilimning ana shu xususiyatlari asosida yangi bilim sohalarini ochiladi, fanlarning differensiallashuvi va integratsiyalashuvi sodir bo'ladi. SHu ma'noda, zamonaviy algebra matematikaning cheksiz sohasi hisoblanadi.

Biz hali modullar, kategoriyalar, gomologiya nazariyalariga to'qnash kelganimiz yo'q. Hozir ko'pgina chala nazariyalar umumiy algebraning umumiy sxemasiga joylashtirilgan. Algebra va matematik mantiq tutashgan joyda modullar nazariyasi vujudga keldi. Bugungi kunda zamonaviy algebraviy geometriya, algebraviy topologiya, algebraviy nazariyalar haqida gapirish mumkin. «Bu nazariyalarning rivojlanishi davom etmoqda va ushbu rivojlanishga O'zbekiston

¹⁷ Файзуллаев А.Ф. Современная алгоритмизация науки, техники и рыночных отношений // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. - Т., 2000. - С.92.

¹⁸ Кабулов В.К. Принципы и методы алгоритмизации // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация. - Т., 2000. -С.66.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uning «Ash-SHifo» asarida keng rivojlangan 3 ta katta sohada: metafizika, fizika va mantiqda ko'proq o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu sohalardan metafizika-ilohiyot, vujud va mavjudot, dunyoning boshlanishi, tuzilishi va tarkibi haqidagi muammolarni o'rganadi. Fizika sohasi - tabiatshunoslik masalalarini, jism, modda, ularning tuzilishi va tarkibini o'rganish bilan bog'liq masalalarini o'z ichiga oladi. Mantiq bo'lsa-bilish metodi, to'g'ri fikrlashni, aqliy bilish shakllarini o'rganadi.

Ibn Sino asarida umumiy falsafiy masalalarni 2ga bo'ladi. Ular: 1) nazariy va 2) amaliy masalalardan iborat bo'lib, o'z navbatida, ularning har biri qator ilm sohalarni o'z ichiga oladi. Uning vujud, mavjudot, borliq haqidagi ontologik ta'limotida u vujudni ikkiga: vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamda vujudi mumkinga ajratadi. Bunda vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamma narsalarning boshlang'ich - birinchi sababi, ya'ni tangridir. Vujudi mumkin esa shu vujudi vojibdan kelib chiquvchi boshqa barcha borliqdagi narsalardir. Vujudi vojib yakkalikni, vujudi mumkin ko'plikni ifodalaydi. Vujudi vojib o'z-o'zicha mavjud bo'lib, u azaliy; vujudi mumkin esa vujudi vojibdan paydo bo'ladi. Lekin bu paydo bo'lish birdaniga bo'lmay, balki asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich sabab-oqibat bog'lanish asosida kelib chiqadi. Bu kelib chiqish ematsiya asosida amalga oshadi.

U «Kitob ash-shifo» asarida shunday yozadi: «Zaruriy vujudan kelib chiqqan vujudlar undan uzoqlashgan sari mustaqil bo'la boradilar, lekin o'zlarining boshlang'ich sabablarining hislatlarini saqlab qoladilar va ular keyingi vujudlar uchun sabab bo'ladilar»

Ibn Sinoning yozishicha birinchi vujudning hislatlari undan kelib chiqadigan barcha vujudlarga o'tib boradi. Uning vujud haqidagi fikrlari, mavjudot shakllarining o'zaro bog'lanishlari, ularning hammasi dastlabki zaruriy vujudan kelib chiqishi haqidagi emanatsiya ta'limoti «Kitob ash-shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma» asarlarining metafizika bo'limlarida har tomonlama bayon etib berilgan.

Ibn Sinoning bu qarashlari panteistik ta'limot bo'lib, u O'rta asr SHarq mutafakkirlari falsafiy qarashlarining ko'pchiligiga xos bo'lgan ilg'or ta'limot hisoblanadi.

Ibn Sino o'z ta'limotidagi «vujudi mumkin»ni substansiya («javhar») va aksidensiya («oraz»)ga ajratadi. Substansiya, uningcha turli ko'rinishlarga ega bo'lib, u sodda va murakab substansiyalardir. Sodda substansiya boshlang'ich elementlar - olov, havo, suv va yerdan iborat bo'lib, shuningdek, modda, shakl, ruh va aql ham shu sodda substansiyaga kiradi. Jism, narsalar esa murakkab substansiyadir. Jism va narsalar modda va shaklning birligidan tashkil topib, ular tabiat: o'simlik, hayvonot, inson va boshqa shakllarda mavjuddir.

Ibn Sino falsafiy bilimlarni ikki qismga yoki bo'limga ajratadi. Ularning birinchisi - nazariy falsafa: ikkinchisi - amaliy falsafa. Nazariy falsafa - metafizika (buni u oliy fan, deydi), matematika (buni u o'rta fan, deydi) va tabiat haqidagi fanlar (buni u quyi fan, deydi)dan iborat. amaliy falsafa-siyosat, huquq, iqtisodiyot, ahloqshunoslikdan tashkil topadi.

Ibn Sino qarashicha, metafizika oliy ilm sifatida mutlaq vujudni, ya'ni «vujudi vojib»ni-Tangrini-yaratuvini o'rganish va bilishdan iborat ilohiyot haqidagi fandir.

Ibn Sino insonni tana va jondan tashkil topadi, deydi. Miya esa jonni boshqaruvchi markazdir. Uning fikricha, hasharotlar, o'simliklar, hayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch - jon («an-nafas»)ga egadir. Inson joni bunda eng oliy va yetuk jondir. SHuning uchun inson fikrlash hislatiga mavhum tushunchalarni o'zlashtirish, bilish mavjudotning mohiyatini tushunish, maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Inson aqli jonning oliy darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot mohiyatini bilishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi.

ИЛМ-МАЪРИФАТ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ

Манзила Бакиевна Курбанова

Бухоро давлат университети

manzila.kurbanova@mail.ru

АННОТАЦИЯ. Таълим тизими сифатини оширишда илм-маърифатнинг ўрни, ўзига хослиги ва бу соҳада рақамли иқтисодиётни қўллаш давр талаби эканлиги таҳлил этилган.

Калит сўзлар: илм-маърифат, рақамли иқтисодиёт, инновацион технологиялар, Wi-Fi, IT.

ABSTRAKT. In the following article the peculiarities, significance of the science, education and the application of the digital economy being the requirement of the time is discussed

Keywords: Science -education, digital economy, innovational technologies, Wi-fi, IT

Мамлакатимиз Президентининг мурожаати нафақат парламентга балки жамиятимизнинг барча қатламларига мансуб бўлган фуқороларга нисбатан мурожаат сифатида қабул этиб, ундаги барча соҳаларга қўйилган вазифаларни ўз вақтида, сифатли ва самарали бажариш жамиятимиз аъзоларидан бир бутун бўлиб ҳаракат қилишни тақозо қилади. 2020 йилнинг “Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб номланиши Ўзбекистонни ривожланиш тарихидаги илк инқилобий даврни бошланиши деб ҳисобласак, айни муддао бўлади. Президентимизнинг нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билим савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маънавият керак бўлиб, илм йўқ жойда қолоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади деб донишмандларча айтган сўзлари муқаддас китобимиз Қуръоннинг илк оятида ҳам “Ўқинг”, “Ўқинг” деб илму маърифатга алоҳида урғу берилганлиги ва “Илм”сўзининг 900 га яқин ўринда турли маъноларда келганлиги бу давлатнинг муҳимлигини аналатади. Шунинг учун Президентимиз ўз мурожаатида бекорга “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта кашшоқлик – бу билимсизликдир!” деб уқтириб ўтмади.

Ҳозирда тараққий этган давлатлар қаторига қўшилишимиз учун аввало илғор замонавий ахборот-коммуникация, интернет ҳамда рақамли технологиялар соҳасидаги

билимларни чуқур эгаллаш орқали юксалишнинг энг қисқа йўлидан боришимиз керак. Бунинг учун жамиятимизнинг барча қатламларида инновацион технологияларни қўллаш борасидаги саводхонликни узлуксиз равишда ошириб боришимиз зарур. Илму маърифатнинг натижадорлик кўрсаткичларига бевосита таъсир қилувчи кўп сонли технологиялардан асосийси рақамли иқтисодиёт технологиялари ҳисобланади. Ҳозирги кунда уни қисқача рақамли иқтисодиёт деб аталмоқда.

Бугунги кунда дунёда таълим бериш ва талим олиш долзарб масалалардан бирига айланди. Чунки, айнан сифатли таълим биз яшаб турган дунёни турли муаммолардан кутқаришда муҳим роль ўйнаши энди ҳеч кимга сир эмас. Шу туфайли давлатлар таълим соҳасига катта маблағ ажратмоқдалар. Бу борада мамлакатимизда ҳам салмоқли ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Шундай бўлишига қарамай, таълим тизимимизда ҳали ўз ечимини кутаётган қатор масалалар борки, уларни бартараф этмасдан замонавий сифатли таълим ҳақида гапириб бўлмайди. Хусусан, ахборот олиш ва фойдаланиш тезлиги жуда йириклашган ҳозирги даврда, фикримизча, таълим тизимига рақамли технологияларни жалб этмасдан таълим сифатини ошириш ва ижтимоий фаол ёшларни тарбиялаш мумкин эмас. Биз илгари таълим дастурларини анъанавий усулда маъруза шаклида олиб борганмиз. Бу ҳам йирик ҳажмли китоблар ва қўлланмалар орқали амалга оширилган. Бу ўз навбатида таълим сифатининг у қадар юқори бўлишини таъминламаган. Ўқувчилар турли қўшимча материалларни ўзлаштириш учун ҳам йирик ҳажмдаги адабиётлар ва катта қаппайган сумкаларни кўтариб юришга мажбур бўлган. Эндиликда таълимни рақамлаштириш жараёни бошланди. Бу эса таълим олувчига замонавий қулайликлар яратиб таълим олишни осонлаштирмоқда. Рақамли технологиялар жорий этилган таълим тизими востилари ролини мултимедиялар, кодоскоп, компьютер, ноутбук, интернетга уланган телевизорлар, телефон линиялар, смарт доска, проекторлар бажариб беради. Бугун улар билан таълим тизимининг куруллантирилиши ўқувчиларга дарс машғулотларини сифатли ўтилишини таъминлайди. Бугунги пандемия шароити таълим тизимида рақамли технологиялар қўлланилиши яхши самара беришини исботлади. Телевидение орқали бериб борилган онлайн дарслар рақамли таълимга ўтишнинг бир дебочаси сифатида қабул қилсак бўлади. Бу жараён ўқувчига уйдан чиқмай туриб ҳам таълим олиш мумкинлигини исботлаб берди. Рақамли таълимга ўтишнинг бошқа афзалликлари тўғрисида ҳам фикр юритадиган бўлсак уларга қуйидагиларни киритиш ўринлидир. Ўқувчилар хоҳлаган жойида ва хоҳлаган вақтида таълим олиш имконига эга бўлади;

-ўқувчилар мутахасис етишмайдиган узоқ қишлоқларда ҳам фанларни танлаш ва уйдан туриб таълим олиш имконига эга бўлади;

-интернетдан ахборот олиш ва ундан фойдаланиш маданияти шаклланади;

- таълим тизимини янги босқичга кўтаради;

- вақт ва маблағ сарфини кескин камайтиради;

-“рақамли дунё”да йўқолиб қолмаслик ва яхши иш топишда устунликларга эга бўлади.

Бугун мамлакатимизнинг барча ҳудудларида ҳам интернет тезлиги етарли эмас. Бу эса ўз навбатида рақамли таълим тизимига ўтишга тўсқинлик қилади. Буни бартараф этиш учун эса ҳукумат даражасидаги катта ишлар амалга ошириш талаб этилади. Президентимизнинг Олий Мажлисга мурожаатномаларида айни шу соҳада кўрсатмалар берилгани биз фикр юритаётган соҳада сезиларли юксалиш юз беришига ишонтиради.

Wi-Fi зоналар IT парклар очилиши рақамли таълим тизимини юксалишига хизмат қилади. Рақамли таълимнинг жорий этилиши ўқитувчилар орасида ишсизликни келтириб чиқариши эҳтимолини юзага келтиради, аммо буни ҳам бартараф этиш имкони мавжуд. Бунинг учун ўқитувчиларни рақамли технологиялар билан ишлаш қобилиятини ўстириш ва интернет орқали турли очиқ курслар ташкил этиш орқали бандлигини таъминлаш

мумкин. Бунда нафақат мамлакатимиздаги, балки, чет элдаги қатор таълим олувчиларни ҳам жараёнга жалб этиш имкони бўлади. Бу ўз навбатида мустақил маблағ топиш имконини берса, иккинчидан ўқитувчини ўз устида кўпроқ ишлаши ва рақобат туфайли таълим сифатини янада ортишига хизмат қилади. Ҳозирги вақтда бунга телеграм каналлари орқали амалга оширилаётган таълимни мисол сифатида келтириш мумкин. Бу каналлар орқали ўзлаштириш кўп вақт талаб этадиган билимлар қисқа муддатда етказиб берилмоқда.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, рақамли технологияларни таълим тизимига жорий этилиши мамлакат таълим тизимини модернизация қилишда катта роль ўйнайди. Замонавий таълимни ташкил этиш ва таълим самарадорлигини ортишига хизмат қилади. Шу билан бирга жаҳон ҳамжамиятида муҳим ўрин эгаллашимизни таъминлайди.

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI BARPO ETISHDA MA'NAVIYATNING ROLI VA AHAMIYATI

**Sayitmurodova Feruza NDPI Tarix fakulteti 2-“B” guruhi talabasi:
Ilmiy rahbar-f.f.d. N.O.Safarova**

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida 3-renessans poydevorini barpo etish, bu jarayonda ma’naviyatning tutgan o‘rni, ma’naviyatni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, turli zararli xurujlardan yoshlarni asrash, yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalash bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga qaratilgan.

Tayanch iboralar: Renaissance, ma’naviyat, kitobxonlik madaniyati, texnologik, ma’naviyat, ommaviy madaniyat xurujlari.

Annotation

This article is aimed at laying the foundation of the Renaissance in the Republic of Uzbekistan, the role of spirituality, protection of youth from various harmful attacks, education of a highly spiritual generation.

Keys words: Renaissance, spirituality, reading culture, technological spirituality, popular culture attacks.

Bugungi globallashuv davrida mamlakatlar taraqqiy etib borar ekan, o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi ham dalil qadamlar ila ilgari lab bormoqda. Albatta, bugungi kunga kelguncha, xususan, o‘zbek davlatchiligi shakllanib, qanchdan qancha istilolar, bosqinlarga qaramay, o‘zligini saqlab qolib, mustaqillik degan buyuk ne‘matni qo‘lga kiritib, hozirgi davrga mos va xos tarzda rivojlanuviga qadar, uzoq tarixiy bosqichni boshidan kechirdi. Bu tarixiy davrlar oralig‘ida o‘zbek yurti, xususan, O‘rta Osiyoning ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy yuksalishida I-II renessans davrlarining ahamiyati beqiyos. Shu o‘rinda aytib o‘tadigan bo‘lsak, “Renessans” so‘zi fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “uyg‘onish” degan ma‘noni anglatadi. Yurtimizda I va II renessans davrlari IX-XII va XIV-XV asrlarga to‘g‘ri keldi va bu davrlar haqiqatda jamiyat hayotining yangidan yuksak uyg‘onishida katta rol o‘ynadi.

Bu renessans jarayonlarida asosan, ma’naviy borliqning, xususan, kishilar ma’naviy ongining yuksalishi, bamisoli po‘rtanadek otilib chiqqan ikki davrli uyg‘onishga turtki bo‘ldi. Shu o‘rinda ma’naviyat tushunchasiga ta‘rif beradigan bo‘lsak, “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban uyg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch. Insonning barcha qarashlarining mezonidir”.¹ Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bergan bu ta‘rifidan shuni anglashimiz mumkinki, ma’naviyat ruh, aql, qalban uyg‘oqlik, iroda kabi tushunchalar

yig'indisidan iborat hisoblanadi. Germaniyalik olimlarning fikricha, "ruh", "iroda" kabi tushunchalar borliqning o'zagi sifatida ahamiyat kasb etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ma'naviyat nafaqat davlat, jamiyat yuksalishiga, balki, butun borliqning o'zgarishi, ilg'or qadamlar bilan ilgarilashiga sabab bo'ladi.

Qachon xalq ma'naviyatli bo'ladi, o'sadi? – Qachonki, uni tashkil etuvchi a'zolar, ya'ni, kishilar onggi ma'naviyatli, uning tarkibiga kiruvchi tushunchalar bilan sug'orilgan bo'lsa. Ulug' shoir bobomiz Alisher Navoiy "ma'no ahli" deganda, haqiqat yo'lga kirgan komil insonni nazarda tutganlar.

Ma'naviyatning uyg'onish davrlarining borishidagi rolini jahon tajribasidan foydalanib ham izohlash mumkin. Germaniya yoki Yaponiya kabi mamlakatlarni olib qarasa, ular qazilma boyliklari, yer-suvi bilan gullab yashnayotgani yo'q, ular xalqining ma'naviyati, ma'rifati va aql-idroki bilan XX asrda o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi. "O'z huquqini bilmagan, o'z qonunlari kuchini anglab yetmagan va tushunishni istamagan mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat tizimini yaxshi yo'lga qo'ymagan xalqning shon-shavkati oyoqosti bo'ladi, jahon hamjamiyatidagi o'rni yo'qoladi."²

Ma'naviyatning bir qancha tarkiblari mavjuddir. Ular: axloq, ma'naviy meros va qadriyatlar hisoblanadi.

Axloq – ma'naviyatning o'zagi bo'lib, uning ko'rinishi va shakllari xilma-xildir. Kamtarlik, halollik, saxiylik, poklik, insonparvarlik shular jumlasidandir.

Ma'naviy meros deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tayotgan ma'naviyat sohasidagi barcha narsalar tushuniladi. Eng avvalo, xalq og'zaki ijodi, xalqimiz yaratgan badiiy-estetik san'at namunalari, xalq teatri, musiqasi, qadriyat darajasiga ko'tarilgan urf-odatlar, rasm-rusmlar va boshqalar ma'naviy merosni tashkil etadi.

Qadriyatlar ham ma'naviyatning tarkibiy qismi bo'lib, xalq, millatimizning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, bayramlar, milliy taomlarimiz, urf-odat va marosimlarimiz milliy qadriyatlarimiz ifodasidir.

Ma'naviyat – butun borliq taraqqiyotining mahsulidir. Bu o'z navbatida, milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat va millat o'zligini anglamog'i kerakligini talab etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, amalga oshirilgan eng buyuk ishlardan biri ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizga munosib tubdan o'zgarganligi, xalq ma'naviyatini yuksaltirish uchun amalga oshirilgan muhim va samarali islohotlardir. Bunday islohotlar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

-Navro'z, Hayit singari milliy bayramlarimiz tiklanishi;

-Jahon fani rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan, xususan, I va II renessans davrlarida ma'naviy atmosferani yaratib, undan keyingi davr avlodlarini ham ma'naviyatiga o'z ta'sirini o'tkazib, yuksaltirayotgan buyuk bobokalonlarimiz – Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Ibn Sino, Beruniy, Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Yassaviy, shuningdek, tarixiy siymolarimiz va qahramonlarimiz: Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Tohir Malik nomlarining abadiylashtirilishi va ularning faoliyati, ijodiga haqqoniy baho berilishi;

-Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ma'naviyatni rivoji uchun amalga oshirilayotgan ishlari.

Sh.M.Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelgach, prezidentimizning barcha sohalarda amalga oshirgan islohotlari III renessans boshlanishi sifatida baholandi. Xalqaro valyuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagardning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar haqida to'xtalib, ularga O'zbekiston renessansi, yangi uyg'onish davrining boshlanishi sifatida baho bergani, ayniqsa, diqqatga sazovordir.³ Mamlakatimizda III renessans poydevorining qo'yilishi bevosita ma'naviyat bilan chambarchas bog'liq. Qachonki, xalq, xususan, yoshlar ma'naviyati yuksak bo'lsagina, yangi uyg'onishni amalga oshirishimiz mumkin. Buni chuqur anglagan muhtaram Prezidentimiz asosiy e'tiborni

ma'naviyatni rivojlantirish , xalqimizni ma'rifatli qilishga qaratdi. Jumladan, "Yosh kitobxon" tanlovi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan va mazkur tanlov kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan shuningdek, 2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yorqin namunasi hisoblanadi. Prezidentimiz tashabbsulari bilan O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi; O'zbekiston davlat filarmoniyasi; O'zbekiston davlat, san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi⁴. Bundan tashqari , Madaniyat vazirligi rahbarligida har yili 21-27-mart kunlari "Teatr tomoshalari haftaligi" o'tkaziladigan bo'ldi. Yuqorida ta'kidlangan ishlar va ular ijrosi albatta, e'tirof etishga sazovordir.

Barchamiz bilamizki, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish , bevosita ma'naviyatimizni o'sishiga olib keladi. Shu sababli, kitobxonlik madaniyatini mahalliy bo'g'implargacha yoyish, jumladan, chekka hududlarda ilmiy, diniy, badiiy bilim beradigan qimmatli kutubxonalarni tashkil etish:

-birinchidan, kitobxonlik madaniyatini rivojiga sabab bo'ladi;

-ikkinchidan, bu o'z navbatida, aholi va ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini kurtak yozishiga sabab bo'ladi;

-uchinchidan, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun bitta kitob o'qigan bola, ertaga televizor ko'rib turgan o'nta bolani boshqaradi".

Mazkur kutubxonalarni tashkil etish bilan bir qatorda, turli tanlovlarni tashkil qilish va ularda moddiy rag'batlantirishning joriy etilishi, kitobxonlik madaniyatini yanada oshishiga sabab bo'ladi.

Ma'naviyatni kamol topishi oiladan boshlanadi. Shunday ekan, eng dastlab, oilada shaxsiy kutubxona tashkil qilish kerak. Ota-ona shaxsiy kutubxonasidagi kitoblari orqali o'z farzandlari bilan kitobxonlik va ma'naviyat soatlarini tashkil etsa, yanada ijobiy natijalarga erishiladi.

Ma'naviyat – keng qamrovli tushuncha. Uning tarkibiga kiruvchi texnologik ma'naviyatni, ayniqsa, yoshlar qamrovida o'stirish, ya'ni kompyuter va boshqa axborot vositalaridan to'g'ri foydalanish, buning uchun o'quvchilarni boshlang'ich davrdan kompyuter va axborot olami bilan tanishtirib borish, qanday holda foydalanish to'g'riyu, qaysisi noto'g'ri ekanligini o'rgatish lozim. Shundagina yoshlarni turli xil zararli g'oyalardan ayirib, o'zlarining jirkanch maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. Aynan yoshlarimizda "Texnologik ma'naviyat" ni yuqoridagi yechimlar orqali yoshlarga singdirish, fikrimcha, ularni turli yot g'oyalardan asrash va milliy ma'naviyat ruhida kamol topishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Uchinchi renessans poydevori – yoshlar ekan, bu poydevorni yaratishda yoshlar ma'naviyatining o'rni beqiyosdir.

Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.⁵

Bugun biz yaratayotgan yangi uyg'onish davrining ikki ustuni mavjud bo'lib, birinchisi bozor tamoyillariga asoslanuvchi kuchli iqtisodiyot bo'lsa, ikkinchi ustuni-kuchli ma'naviyatdir. Shundan kelib chiqqan holda, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ma'naviyatni yuksaltirishni amalga oshirilayotgani islohotlarning bo'g'iniga aylantirdi va bu boradi amalga oshirilishi, samarali va keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviyat yuksak xalqni yengib bo'lmaydi. Zero, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008-yil
2. S.H.Nosirxo’jayev, M.F.Lafasov, S.A’zamxo’jayeva “Ma’naviyat asoslari” Toshkent, “Turon-Iqbol” 2016-yil
3. N.Jo’rayev, A.Zamonov “O‘zbekiston tarixi” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2018-yil
4. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Axborot xizmati “Milliy madaniyatni rivojlantirish yo‘lida” 2018-yil
5. Sh.M.Mirziyoyev “Ma’naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari” bo‘yicha videoselektordagi nutqi, 17-yanvar 2021-yil

“OLAMNING FIZIK MANZARASI” KONTEKSTIDA FIZIKANI FALSAFIY BILIMLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O‘QITISH


**U.R.Bekpo‘latov- f.f.f.d. (PhD), dotsent.
Navoiy davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston**

Annotation: In the article, the methodological foundations of teaching physics in integration with philosophical knowledge are revealed through the method of identifying the main characters of the “Universal landscape of the universe” in the “Physical landscape of the universe”. It also shows the gnoseological importance of philosophical knowledge in the development of the scientific worldview of students.

Ma’lumki, ta’limga qo‘yilgan zamonaviy talablardan bir bu – darslarni fanlarning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash vositasida o‘qitish hisoblanadi. Fizika fani o‘zining taraqqiyoti davomida falsafa fani bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lib kelgan va bu o‘z navbatida fizik va falsafiy bilimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda fizikani falsafiy bilimlar bilan bog‘lab o‘qitish dolzarblik kasb etmoqda. Chunki, falsafiy bilimlarga bog‘langan holda egallangan fizik bilimlar talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda, ularning kreativlik qobiliyatlarini ruyobga chiqarishda hamda olamni yaxlit tushunishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fizika fanini falsafa bilan bog‘lab o‘qitish mumkin bo‘lgan jihatlari juda ko‘p. Bizningcha, ushbu jihatlarning barchasini “Olamning fizik manzarasi” doirasida birlashtirgan holda o‘qitish maqsadga muvofiq. Olamning fizik manzarasi odatda fundamental g‘oyalalar, tushunchalar va fizika qonunlar tizimini anglatib, u fizikaviy dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini va zamonaviy fikrlash tarzini shakllantirish vazifalari fizika kursining tuzilishi va mazmuni nazariy umumlashtirishlarga mos kelishi sharti bilan hal qilinishi mumkin. Tarixiylik va mantiqiylikning birligi tamoyiliga ko‘ra, Olamning fizik manzarasi dastlabki falsafiy g‘oyalardan kelib chiqqan, o‘zida fundamental fizik tushunchalar, g‘oyalalar, qonunlarni qamrab olgan tabiatning integrallashgan tuzulmadir.

Olamning fizik manzarasi evolyutsiyasi jarayonida fizik bilimlar o‘zlarida asos bo‘luvchi ilmiy g‘oyalalar va fizik nazariyalarning shakllanishi, rivojlanishi hamda almashinuvi kabi qonuniy jarayonni qamrab oladi. Shuning uchun ham olamning fizik manzarasi evolyutsiyasini – fizik reallik haqidagi tasavvurlarning murakkab taraqqiyoti jarayoni sifatida tushunish ham mumkin. Olamning fizik manzarasi evolyutsiyasi kontseptsiyasining asosiy elementlari tuzilmasi 1–rasmda tasvirlangan.








1-rasm. Olamning fizik manzarasi evolyutsiyasi konseptsiyasining asosiy elementlari. OTFM – Olamning tabiiy-falsafiy manzarasi, OMM - Olamning mexanik manzarasi, OEMM - Olamning elektromagnit manzarasi, OKMM – Olamning kvant-maydon manzarasi.

Olamning fizik manzarasi evolyutsiyasi konseptsiyasining yuqorida tasvirlangan asosiy elementlarini fizik bilimlar rivoji va taraqqiyotining gnoseologik, epistemologik modelini sifatida ham tushunish mumkin.

Bundan tashqari, fizika kursidagi o'quv materiallarini quyidagicha (1-jadval) tizimlashtirish va umumlashtirish orqali – olamning umumilmiy va olamning fizik manzaralari o'zaro aloqalari kontseptsiyasini izohlash mumkin.

Olamning umumilmiy manzarasining asosiy belgilari.	Olamning fizik manzarasida olamning umumilmiy manzarasining asosiy belgilarini aniqlashtirish.
1. Olamning moddiy birligi (yaxlitligi).	<p>1)</p> <p>2) Materiyaning zarra – to'liq xossalarning yaxlitligi (birligi).</p>
2. Materiyaning turli shakllari va ko'rinishlarining ko'p xilligi hamda o'zaro aloqadorligi, bo'linmasligi.	<p>1) Materiyaning ko'rinish va shakllarining ko'p xilligi, modda va maydonning aloqadorligi va bir – birlariga aylanishi sifatida.</p> <p>2) Mikro – , makro – va megaolamdagi hodisalarning o'zaro aloqadorligi va nisbiy farqlari.</p>

3. Harakat – materiyaning mavjudlik usuli	<p>1) Materiya harakatining yo‘qolmasligi. 2) Materiya harakati fizik shakllarining bir – biriga o‘tishi va universalligi. 3) Materiyaning fizik, kimyoviy, biologik harakati shakllarining o‘zaro aloqasi.</p>
4. Fazo va vaqt – materiya mavjudligining umumiy shakllari.	<p>1) Fizikaviy hodisalarni fazo – vaqtli ta’riflarining universalligi. 2) Materiya xossalari va fazo – vaqt strukturalarining bo‘linmas (buzilmas) ko‘p xilligi. 3) Fizika qonunlarining fazo – vaqt intervalida invariantligi.</p>
5. O‘zaro ta’sir obyektlar taraqqiyoti va harakat shakllari manbai hamda barcha hodisalar va jismlar orasidagi aloqalarning umumiy shakli.	<p>1) Fundamental fizik o‘zaro ta’sirlarning universalligi</p>  <pre> graph TD A[Fundamental fizik o'zaro ta'sirlarning universalligi] --> B[Kuchli] A --> C[Elektromagnit] A --> D[Kuchsiz] A --> E[Gravitatsion] </pre> <p>2) O‘zaro ta’sir materiyaning, harakatning va axborotning tashishi bilan bog‘langan. 3) O‘zaro ta’sir maydon almashish xarakterini ifodalaydi. 4) $v \leq c$ – holatda o‘zaro ta’sir yaqin ta’sir hisoblanadi.</p>
6. Moddiy va ma’naviy olamdagi hodisalarning o‘zaro aloqadorligini obyektivligi va sababiy asoslanganligi determinizm hamda umumiy aloqadorlik sifatida.	<p>1) Dinamik va statistik qonuniyatlar o‘zaro bog‘liq va obyektiv xarakterlidir. 2) Barcha fizik hodisalar sababga egadir. 3) Determinizm shakllarining ko‘p xilligi</p>  <pre> graph TD A[Determinizm shakllarining ko'p xilligi] --> B[Laplas determinizm] A --> C[Kvant – mexanik determinizm] </pre>
7. Materiya va harakatning yo‘qolmasligi	<p>1) Universallik</p>  <pre> graph TD A[Universallik] --> B[Saqlanish qonunlari] A --> C[Simmetriya tamoyillari] A --> D[Elementar zarralarning bir – biriga o'zaro almashinishlari] </pre> <p>2) Invariantlilik</p>  <pre> graph TD A[Invariantlilik] --> B[Fundamental fizik kattaliklar] A --> C[Fizika qonunlari] </pre>
8. Bilishning obyektiv harakteri va moddiy olamni bilish muhimligi.	<p>1) Fizika qonunlari va nazariyalaridan keng ravishda fan, texnika, turmushda ... foydalanish. 2) Fizik hodisalarni tajribada qayta sodir etish. 3) Tabiat hodisalarini tushuntirish 4) Yangi hodisa va qonunlarni basharot qilish va kashf etish. 5) Fizikada muvofiqlik prinsipining o‘rinli ekanligi.</p>



Xulosa qilib aytganda, fizikani falsafiy bilimlar bilan integratsiyasi asosida o'qitish usulidan samarali foydalanish har tamonlama yetuk kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ИНСОН ЎЗ ТАҚДИРИНИНГ КИМЁГАРИ

Юнусова Г.С. БухМТИ доценти

Инсоният цивилизацияси бугунги даражага етгунига қадар ўтган катта тарихий давр мобайнида оламни билишга қизиқиш кучайиб бармоқда. Бунинг самараси ўлароқ “одамизот” (тур) инсон даражасига кўтарилишига илму – маърифат, фан – техника ва ахлоқий маданият алоҳида аҳамият касб этади. Чунки инсон борлиқни билишга интилар экан, у ўзини, ўзлигини англаб боради.

Нодир тафаккур дурдоналари қалб камолотини кўрсатса, буюк ихтиролар ва кашфиётлар моддий маданият мисолида алоҳида кўзга ташланади. Масалан, одамларнинг оғирини енгил, узоғини яқин қиладиган, инсоннинг моддий ва маънавий хордиқ чиқариши учун хизмат қиладиган бундай мўъжизалар олами қачонлардир бутун инсониятни ҳайратга солган бўлса бугунги кунга келиб улар оддий кундалик эҳтиёж манбаига айланиб бормоқда.

Кашфиётчи олимлар меҳнати уларнинг ихтироси жамиятга наф келтириши, фойдалилиги нуқтаи назаридан инобатга олиниб, эътироф этилади. Маълум фан соҳасида янгилик яратган олим ўз кашфиётидан албатта ижобий, яъни эзгу ниятларда қўлланилишини назарга олади. Лекин ҳамма вақт ҳам шу ният ўз йўналишида қўлланмайди. Масалан, буюк физик олими Альфред Бернхард Нобель (1833-1896й.) дунёда динамит ихтирочиси сифатида маълум ва машҳур. Лекин динамит ўз навбатида инсоният бошига қирғин барот келтирувчи атом бомбасининг ихтиро қилинишига сабаб бўлганлиги туфайли, Нобель ўз ихтиросидан норози эканлиги маълум бўлади. Ихтиролари туфайли каттагина бойликка эга бўлган олим ўз меросини миллати, ирқи, жинсидан қатъи назар бутун инсониятга буюк кашфиётлари учун мукофот тарзида берилишини васият қилиб қолдиради. Бугунги кунгача Нобель мукофоти фаннинг беш йўналишидаги улкан илмий ютуқлари учун ҳар йили 10 декабр (Нобель вафот этган кун) куни топширилади. Бу кашфиётлар албатта, ер юзидаги одамларга нафи тегиши, зарарсизлиги инобатга олиниши табиий. Лекин, шоир Эркин Воҳидов “атомни бунёд этиб ҳайрон ўзинг, ҳайрон ўзинг...”

дея таъкидлаганидек, бугунги кунда ер юзи аҳолисининг моддий ҳаёти манбаи саналган озиқ – овқатга бўлган эҳтиёжини қондириш мақсадида табиатан соф табиий турдаги мева, сабзавот ва полиз экинларида ўтказилаётган тажрибалар туфайли “Гени ўзгартирилган маҳсулот”ларнинг кундалик турмушимизда кўпайиб бораётганлиги ачинарли ҳол албатта.

“Бирлашган миллатлар ташкилоти тарқатган маълумотларга кўра 2050 – йилга бориб, ер юзидаги аҳоли сони 12 млрд, айрим ҳисоб-китобларга қараганда 14 млрд.га етиши кутилмоқда”⁴², бу эса ўз навбатида ер юзи аҳолиси ўртасида ичимлик суви ва озиқ-овқат маҳсулотлари етишмовчилиги муаммосини келтириб чиқаради. Муаллифнинг куюниб айтаётган бу фикрлари одамни мушоҳадага чорлайди. Ҳозирги кунда генинжинерия “ютуқлари” ҳаётимизнинг табиий манзарасини йўқотиб, сунъий мева-чева, сабзавотлардан тортиб то сунъий одам (клон)гача бўлаётган ихтиролар инсон табиий наслини йўқотишга қаратилган сиёсат эмасми?! Ваҳоланки, инсон ҳамма замонларда ҳам энг олий қадрият саналган. Мана шу қадрият ҳам бора-бора “Қизил китоб”га киритиладиган ноёб тур бўлмаслигига ким қафолат беради. “Пичоқни аввал ўзинга, оғримаса бировга ур” деган мақол бор. Бундай корчалонларнинг гуллаб бораётган тадбиркорликлари бир кун келиб ўзлари учун ҳам чоҳга айланмайдими?! “...гени ўзгартирилган картошкада инсектицид моддалар мавжудлиги учун ҳатто уни колорадо кўнғизи ҳам истеъмол қилмас экан. Акула гени билан чатиштириб етиштирилган помидор ёки сичқон гени қўшилган бодрингнинг ҳам миллионлаб одамларнинг давоси йўқ дардларга чалинаётганига сабаб бўлаётгани ҳам бор гап.”⁴³ Албатта инсон онги, тафаккури билан ихтиро қилинган бу кашфиёт сирини кўнғизки англаган экан, нега тирик ва уйғоқ онг соҳиби одамзот англаб етмайди? Бунинг сабаби Аллоҳ таоло энг буюк иқтидор бўлган ғайбни билиш ёхуд таомнинг шубҳали эканлигини сезадиган валийсифат зотларни ҳамма замонларда яратган эмас. Бугунги глобаллашув даврида инсон кечаги ҳатти-ҳаракатини эслай ололмай турган бир пайтда унинг озуқа сирини билмаслиги катта фожиа эмас, бизнинг фикримизча.

Ҳамма замонларда ҳам инсон қалби ва онги учун, унинг мафкурасини ўз йўналишларига солиш учун қилинган ҳаракатларнинг асл сабаби дунёга ҳукмронликни кўлга киритиш мақсади йўлидаги ҳатти-ҳаракатлар бўлса, бугунги “инсон моддий эҳтиёжларини қондириш” ниқоби остида қилинаётган бу ихтиролар охир-оқибат “асл инсон” зотини қалбакилаштиришга қаратилган бир ўйин деб тушуниш мумкин.

Инсон камолоти унинг илм-фанга, маданиятга интилиши билан эришиладиган чўққи экан, унинг моддий томони ҳам комилликка етишишида муҳим мезондир. Чунки, мумтоз таълимотлардан бўлган тасаввуфда луқманинг ҳалоллигига асосий эътибор қаратилган. Аксарият буюк мутасаввифлар, орифу фозиллар ўз қўли билан томорқасида етиштирган маҳсулотдан истеъмол қилган. Биргина олмани сўровсиз тишлагани учун афсус қилган Имоми Аъзамнинг оталари унинг эвазига боғбон рози бўлиши учун уч йил тинимсиз ерда ишлаб берганликлари тарихий ҳақиқатку. Ваҳоланки, баркамол авлод, комил инсон – буюк келажак соҳиби бўлиши учун соғлом авлод бўлиши мақсаднинг фундаменти ҳисобланади. Бугунги фан тараққиётида умрини узайтиришга интилишлар натижасида Россиялик бир гуруҳ олимлар томонидан “ёшлик эликсири”нинг яратилаётгани масаланинг бир томони бўлса, инсон моддий эҳтиёжларини қондириш учун маҳсулотлар ирсиятини ўзгартириш инсон умрини қискартиришга қаратилган амалий иш десак муболаға бўлмас.

Йирик компаниялар томонидан компьютер технологияларининг ҳаётимизга жадал равишда кириб келганлиги ютуқ бўлгани бир вақтда, ундаги вирусларнинг қайсидир “корчалонлар” томонидан ишлаб чиқилиши учун имкониятдир. Лекин дардини берган албатта давосини ҳам беради деганларидек, “антивирус” дастурларининг ишлаб чиқилиши

⁴² Сойибназаров.А. Генетик геноцид. XXI аср . сиёсий – ижтимоий газета. 2010 й. 8 апрел, 14(334) сон-Б7

⁴³ Ўша манба

учун заруриятдир. Худди шунингдек, генинженерияси мутахассислари ГЎМ маҳсулотлари туфайли семириш, ортиқча вазн касаллигига қарши оздирадиган дори-дармонлар ишлаб чиқилиши ҳам бизнеснинг ўзига хос замонавий кўриниши. Бунинг оқибатида озиқ-овқат маҳсулотларининг табиий сифатини йўқотиши туфайли турли бедаво касалликлар: наслсизлик, қон раки, туғма нуқсонли бўлиш ва ҳ.к.лар инсонни ўзи(истеъмолчи)га ўзини (ихтиро соҳиблари, корчалонлар) душман қилаётганлиги меҳр-оқибат, ўзаро тушуниш, ишонч каби туйғуларнинг йўқолаётганлигидан дарак беради.

Баъзида қарияларимиз, пиру бадавлат отахону онахонларимизнинг ўз даврида бу қадар тўкин-сочинлик бўлмаганини айтиб, шукроналар айтаётганини эшитганимизда биз ҳам замона тинчлигига шукрона айтамыз. Лекин инсоният ва унинг авлоди соғлигига хавф туғдириб тураётган бундай ҳолатга тушишига ҳам айнан инсоннинг ўзи сабабчи бўлаётганлиги афсуски бор гап. Агар чанг ва ғам бўлмаганида инсон минг йил умр кўриши мумкинлигини таъкидлаган Ибн Синодек буюк табиб, бизнинг ҳозирги ҳаётимизга раҳна солаётган, кўзга кўринмас, лекин катта куч-қудратга эга бўлган озиқ-овқатларимизнинг “ёвлашиб” боришини инобатга олмагандир.

Бразилиялик машҳур ёзувчи Пауло Коэло ўзининг “Алкимёгар” асарида алкимёгарларни уч тоифага бўлиб таснифлайди:”Биринчиси фақат мавҳумлик томон судралади, чунки ўз фанини ўзи билмайди. Кейингиси билади, лекин уларнинг алкимё тили қалбга эмас, ақлга йўл излайди. Учинчиси алкимё ҳақида умуман эшитмаган, аммо ўз ҳаётлари билан Ҳикмат тошини ярата олганлардир”⁴⁴. Ёзувчи таърифлаган бу алкимёгарлар инсон тақдирида ҳикмат ярата олганларидир. Аслида ҳар бир инсон ўз тақдирида “бахт эликсири”ни ярата олар экан у том маънодаги алкимёгардир. Чунки ер юзида бир-бирига ўхшаш, айнан иккита бир хил нарса ёки инсонлар бўлмаганидек, тақдирлар ҳам турличадир. Ўз тақдирлари йўлида бахт топиш билан бирга инсониятга наф келтира оладиган алкимёгарлар ҳақиқий инсонлар сирасига киради деб айтиш мумкин.

Юқоридаги фикрларимизни хулоса қилиб айтиш мумкинки, тараққиёт юксалиб боргани сайин одамларнинг янада яхшироқ яшашга интилиши табиий ҳол. Лекин инсонийлик фазилатини сақлаган ҳолда, одамларнинг бахтига зомин бўлмай, яхшилик яратишга интилиш асосий мақсади бўлса ана шу инсон мазмунли умр кечирган бўлади. Ҳазрат Навоий фикри билан айтганда:

Кони-ю ҳайвони агар худ набот,
Ҳар бири бир гавҳари олий сифот,
Барчасини гарчи латиф айладинг,
Барчадин инсонни шариф айладинг.

Навоий фикрига кўра, инсон жамиятга наф келтириши фазилатдир. Бошқаларга зиён-заҳмат етказадиган, жамият тинчлиги ва осойишталигини бузадиган, сийрати сувратига тўғри келмайдиганлар чин инсон эмас⁴⁵. Навоийни англаш борасида айтилган бу фикрлар замирида инсон учун бошқалар дардини тушуниш, ростгўйлик, адолатпарвар ва илму-зиёга доимий интилиши унинг камолоти учун хизмат қилса, майхўрлик, қиморбозлик, фаҳшга берилиш, йўлтўсарлик тубанликка етакловчи иллатлар сифатида қораланган. Ҳақ гап! Навоий даври билан ҳозирги кун ўртасида салкам етти асрлик фарқ бўлса-да, комил инсон ғояси – бугунги куннинг “интеллектуал салоҳияти юксак” сифатига мос келади. Интеллектуал салоҳият инсонни камолотини белгилар экан, уни тубанлик қилишга сарфламаслик керак. Зеро, инсон ҳамма замонларда ҳам буюк қудрат соҳиби деган шарафга эга.

⁴⁴ Пауло Коэло. Алкимёгар. Таржимон Азиз Саид. Тошкент, “Янги аср авлоди” нашриёти, 2013.- Б. 9.

⁴⁵ Муҳиддинов М. Барчадин инсонни шариф айладинг.// Халқ сўзи. 2010й. 2 апрел. –Б.4.

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ АСОСЛАРИ

Мадалиев А.А.- иқтисодиёт фанлари доктори
Ташкент давлат аграр университети, Ўзбекистон

Abstract: *The article presents research and data on the transformation of the country's education system and the search for the most convenient and effective methods of teaching, the elimination of corruption in the system.*

Key words: school, education, reading, science, textbook, level.

Мақтаб таълими барча учун бирдай аҳамият касб этиб, инсонни шаклланишини таъминлаб беради. Шунинг учун ҳар бир инсоннинг ҳаётини қуриши мактабдаги умумтаълимнинг самарасига боғлиқ бўлади. Олдинда миллат генафондини тиклаш, ота-боболарнинг илмий салоҳиятини эгаллаш, дунё ҳамжамиятидан муносиб ўрин эгаллаш вазифаси турган экан, фарзандлар тарбиясини бир зум ҳам сусайтиришга ҳаққимиз йўқ.

Дарсликлардаги ўнлаб ҳикоялар ёки шеърлар борки, уларни ўқиб, ёки ёдлаш билан ўқувчининг билим савиясини ошади деб бўлмайди. Дарсликларни варақласангиз узундан-узок шеърларни ёдлаш белгилаб қўйилган. Бундай шеърларни ёдлаш учун камида ўнлаб соат ва ҳатто ундан кўп вақт талаб қилинади. Ҳар икки кунда бундай вазифани такрорланиши ўқувчини чарчатиб қўяди. Шунингдек, ҳар куни 4-6 та фандан шунча вазифа олади. Бундай аҳволда бола қачон дам олади? Ўқувчига ҳеч қачон битта катта шеърни бир ҳафта ичида ёдлаб келиш вазифаси юкланмаслиги керак. Чунки бола уни ҳар куни ёдлаш учун ўзига тақсимот режасини тузиб ололмайди. Ёш болага узок муддатли топшириқ бериш ҳеч қачон ўзини оқламайди. Болаларни турли вазифалар билан кўмиб ташлаш – уларни билимли қилишга олиб келмайди, аксинча, уларда қийналиш, ҳориш, руҳий зўриқиш ва оқибатда бундай машаққатли машғулотлардан бешишга олиб келади. Боланинг кун тартибида дам олиш, ўйнаш, спорт билан шуғулланиш ҳам ҳисобга олинган бўлиши зарур. Ахир бола, бир куннинг ярмида мактабда ўқиса, қолган вақтда дарс тайёрлаш билан машғул бўлиши, бундан ташқари кун тартибига сиғдириб бўлмайдиган ортиқча вазифалар юклаб ташланса, бола бундай оғир вазифаларни уддалашга қандай чидаши мумкин? Бундай ҳолда, бола илмни севиб вояга етади, дейиш асло мумкинмас. Мактабда ўқиш бола ҳаётидаги энг оғриқли нуқтага айланиб қолади. Тасаввур қилиб кўринг, болани эркин ва холи қолиши учун суткада унга вақт қоляптими? Бу тўғрисида ким қайғуради?

Болаларга кўп нарсани ўқитиш билан арзимаган билимнигина ўргатиш ҳам мумкин. Ёки озгина ва созгина мазмунли ҳамда кўп маънони ўзида мужассам этган илм билан эса кўп нарсаларни ўргатиш мумкин. “Кўп нарсани билгандан кўра, яхшини озроқ билган афзалроқдир”, деган эди Ж.Ж. Руссо⁴⁶. Боланинг қолган вақти спорт ва бошқа маънавий-маданий машғулотлар билан шуғулланишга сарф этилиши, уни баркамол шахс бўлиб шаклланишига хизмат қилади.

Айни даврда тил ўрганиш долзарб масала бўлиб қолди. Масалан, инглиз боласи фақат ўз она тилини пухта билса кор қилади. Рус ва бошқа европалик бола ўз тили билан инглиз тилини билса бас. Бизнинг болалар эса ўз она тили билан биргаликда камида рус ва инглиз тилларини билишини ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Шунинг учун бошқа китобларда бериладиган шеърларни ёдлашни тил ўрганиш ҳисобига қисқартириш керак. Таълимда шеър ёдлаш вазифа қилиб қўйиладики, бу билан ўқувчи шеърни фақат ёдлайди

⁴⁶ Мадалиев А. Таълим ва тарбия уйғунлиги – комил инсонни тарбиялаш гарови. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011 й. –88.

Жан.Жак Руссо — франко-швейцар файласуфи, ёзувчи ва Маърифат даврининг мутафаккири. Шунингдек мусикачи, композитор ва ботаникашунос.

ва ёдлагани учун баҳо олади. Шеър дегани албатта, уни ёдлаш дегани эмас. Бу билан ўқувчи шеърнинг моҳияти ва мазмунига тўла тушуниб етади, дейиш қийин. Шу ўринда буюк сиймо Махмуд Замахшарийнинг ушбу сўзларини эсламоқ даркор: “Илм қоғозга ёзиш, чизиш билан эмас, балки ўқимоқ ва уқимоқ биландир”.

Шунингдек, бошқа табиий фанларда ҳам турли теорема, қонун ва формулаларни ёдлаш, ижтимоий фанлардан эса турли сана ва бошқа маълумотларни ёд олиш заруратлари мавжуд. Бир пайт ёки бир кунга ана шундай ҳажмдаги кўплаб вазифалар йиғилиб қолиши мумкин. Чунки ўқитувчилар алоҳида-алоҳида фаолият юритиб, ўқувчиларга бошқа ўқитувчилар томонидан ҳам оғир масалалар юкланишини ҳисобга олмайди.

Қадимги хитой файласуфи Ван Янминдан дўсти сўради:

—Китоб ўқигандан сўнг ҳеч нарса ёдда қолмаса нима қилмоқ керак? Ван Янмин деди:

—Уни тушунмоқ керак, ёдлаш шарт эмас. Тушунмоқ зарурияти ҳам иккинчи даражали нарса. Энг аввало китобнинг асосий моҳиятини англамоқ жоиз⁴⁷.

Дарс юкламалари ва унда вазифалар ҳажмини кўпайтириш билан таълим сифати яхшиланмайди. Ёки, дарс юкламаларини камайтириш, вазифаларни камайиши билан таълим сифати камайиб кетмайди. Яъни, таълимда вазифалар ҳажмини кўпайтириш билан эмас, қисқа ва маъноли вазифалар бериш билангина сифат ортади. Ҳеч қачон илмнинг барчасини қамраб олиб бўлмайди. Ёш авлоднинг генофондини сақлаш бўйича қайғуриш биринчи ўринда туриши керак. Энг муҳими, бола соғлом бўлса илм олишда ҳам меҳнат қилишда ҳам ўзини намоён эта олади. “Болани ақлли ва мулоҳазали қилмоқ учун уни бақувват ва соғлом ўстиринг: майли, у ишласин, тинмасин, югуриб-елсин, бақириб-чақирсин, иш қилиб доимий ҳаракатда бўлсин”, деган эди Ж.Ж. Руссо.

“Ўқиш меҳнатдир ва у меҳнатлигича қолиш керак, аммо жуда маънодор меҳнат бўлиши керак, токи ўқишга қизиқишни қандайдир кераксиз гаплар эмас, балки жиддий фикр туғдирсин”⁴⁸.

Ўқувчи синфига қараб, ҳар куни 4 – 6 соатга қадар, яъни, ярим кун мактабда дарс билан машғул бўлади. Қолган ярим кунда бола овқатланиши, дам олиши, спорт билан шуғулланиши ва уй вазифасини тайёрлаши керак. Агар ўқувчи ҳар бир фандан уй вазифаси олган бўлса, уларни бажариш учун ҳам камида шунча вақт зарур бўлади. Ҳатто айрим ҳолларда вазифалар қалашиб, бу вақт ҳам етишмай қолади.

Аксарият ҳолларда эса ўқитувчилар ўқувчиларга максимал даражада уй вазифаларини беришга ҳаракат қилишадикки, бу билан улар гўё яхши таълим бераётгандек. Бундай усулни салбий баҳолаш керак. Чунки бу билан биз ҳар қандай истеъдодли ва иқтидорли болани ҳам майиб-мажруҳ қилиб қўйишимиз ҳеч гап эмас. Бундай ҳолда саводдилар кўп бўлиши мумкин, аммо донишмандлар кам етишади. Шунинг учун дарсларни ўқитиш ва болалар ўзлаштиришини дарс вақтида амалга оширишни йўлга қўйиш керак. Бунда ўқувчи сабоқни ўрганиш чоғида тушунмаган нарсасини шу ондаёқ ўқитувчи кўмагида билиб олади. Бунинг учун синфдаги болалар сони камайтириб борилиши керак-ки, ўқитувчи дарс давомида ҳар бир ўқувчи билан индивидуал шуғулланиш имконига эга бўлсин. Ҳозирги ҳолатда эса дарслар болаларга умумий тарзда берилмоқда, ким тушунаяпти, ким тушунмаяпти, ёки ким дарс билан қандай шуғулланияпти, ўқитувчи ҳам кўп сонли синф ўқувчиларини тўлиқ машғуллот билан қамраб ололмайди. Шу боисдан бу ишларни охирига етказиш учун уй вазифаларига зўр берилади. Уйда дарс тайёрлаш 1 – 1,5 соатдан ошмаслиги лозим.

Болалар дарсдан ташқари бадий китоб, газета ва журналларни ҳам ўқиши, телевизор кўриши, кино, театр, стадион ҳамда бошқа кўнгил очар масканларга ташриф

⁴⁷ Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. – Т.: Янги аср авлоди. 2002. 231 б.

Ван Шоужен (тахаллуси Янмин) Хитойлик файласуф, сиёсатдон ва ҳарб билимдони.

⁴⁸ Ушинский К.Д. - рус педагоги, ёзувчи, Россияда илмий педагогиканинг асосчиси.

буюришлари ва ҳоказолар билан шуғулланиши ҳам лозим. Айниқса, бола ўйнаши, ўзига ёққан машғулотлар билан шуғулланиши керак. Бунда у ўзини эркин тутиши, ташвишсиз юриши боланинг руҳиятига, ўзини тутишига, ҳаётда мустақил қадам ташлашида муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, болалар оила юмушлари билан ҳам шуғулланиши зарур бўлади. Бу билан бола ёшлигиданоқ меҳнатга кўникма ҳосил қила бошлайди. Лекин, дарсларнинг кўплиги уларни бундай ишлар билан тўлақонли шуғулланишига монъелик қилади. Болалар дарс исканжасида қолиб кетмоқда. Улар мустақил тарзда китоб ўқимасдан, мустақил тарзда тафаккур, фикр ва мулоҳаза юритмасдан мустақил равишда ижод ва яратувчанлик ишларига қўл ура олмайди.

Таълимда энг муҳими – илм олиш. Машғулотларни мураккаблаштириш йўли билан таълим сифатини ошириб бўлмайди, бу мутлақо нотўғри ёндашув. Бунинг ортидан ёш болаларимиз қанчалар қийин аҳволда қолаётганлигини барча ҳис этиши керак. Ёш, ўсиб келаётган навниҳол фарзандларимизни аяшни ҳам унутмаслигимиз даркор.

Дарсликларни ўқиб ўрганиш, ундаги материалларнинг ўқувчи савиясини оширишга қанчалар муносиблиги, осон ва мураккаблик жиҳатлари тегишли илмий-тадқиқот муассасаларида муттасил ўрганиб борилишини йўлга қўйиш зарур. Дарсликларга имкон қадар шундай материаллар жойлаштириш керак-ки, ўқувчи улар орқали ҳаёт, яшаш, олам моҳиятини ўрганиб бориши зарур.

Тасаввуфда китоб муқаддас ҳисобланади. Чунки улар фақат маънолар манбаидан иборат. Шунинг учун ҳам дарсликлар ана шундай маъноли материаллардан ташкил топган компакт китоб бўлиши керак-ки, у ҳар қандай ёшнинг ҳам ҳаётдаги ҳамроҳига айлансин. Шу нарса ҳам ҳисобга олиниши керакки, айрим ёшлар турли вазият ва сабабларга кўра мактаб таълимидан сўнг ўқишни давом эттира олмайди. Бу билан улар ҳаётини асосан мактабдан олган сабоғи асосига қуради. Шунинг учун ҳам улар ҳар бир одам ҳаётида билиши зарур бўлган муҳим илм ва маълумотлардан имкон қадар мактаб партасида баҳраманд бўлиши керак. Ёшлиқда, мактабда эгалланган билим ҳам инсон ҳаётида қайсидир маънода ва миқёсда бир умр дастуриламал бўлади.

Коррупция аралашган жойда тараққиёт тўхтайдди. Афсуски, бундан ҳеч бир соҳа ҳоли эмас. Шунинг учун ҳар таълим борасида ҳам ихтисослашган “Халқ қабулхоналари”ни ташкил этилиши зарур. Шу йўл билан соҳада коррупцияга йўл қўймаслик, мавжудларини эса бартараф этиш имкониятлари вужудга келади. Айниқса, унинг таълимда намоён бўлиши катта хавф. Масалан, маорифда, мактабларда энг оддий танлов, олимпиада ва бошқа тадбирларда коррупциянинг аралашishi таълимни издан чиқаради. Педагогларга турли унвон ва бошқа рағбатларни амалга ошириш мутлақо адолат ва ҳақиқат асосида амалга оширилиши лозим. Бунда шаффофлик, очиқлик таъминланиши зарур.

Болаларга умумий ўрта таълим беришдан масъулиятлироқ вазифа йўк. Ҳолбуки, инсон мана шу даврида ҳаётига тамал тошини қўяди. Мактабдан етарли илм олмаган киши умр бўйи ҳам ана шу камчиликнинг ўрнини тўлғазолмай азият чекади. Таълим олишда йўл қўйилган озгина сусткашлик эса инсонни ҳаётдан орқада қолиб яшашга маҳкум этади. Лекин, албатта буни ёш болалар фарқига етмайди. Бунда катталарнинг, ота-оналарнинг, қолаверса ўқитувчи устозларнинг роли катта бўлиши керак. Иборали қилиб айтганда, улар болаларнинг қўлидан етаклаб, ғаму ғусса йўлига бурмасдан, бахту иқбол сари олиб борувчи равон йўлга солиб юбориши керак. Бундай йўл борлигини ёш болалар ҳали билишмайди. Олий ўқув юрти ва олий ўқув юртидан кейинги таълимнинг йўриғи бошқа. Бунга қадар ёшлар анча пишиган, ҳаёт йўлига тушиб олган бўлади. Улар келажак мўлжалини олиш учун анча кўникма ва тушунча ҳосил қилган бўлишади.

Шунинг учун айтиш мумкинки, умумий ўрта таълим барча таълимларнинг асосий ўзаги десак муболаға бўлмайди. Агар ўқувчи мактабдан сўнг ўқишни давом эттирмаса, унинг ҳаётида мактабда олган таълими асосий билим сифатида қолади. Бошқача ҳолатда

хам яъни, кимки олий ўқув юртида ўқишни давом эттирса, унда ихтисослик бўйича муайян фанларгина ўқитилиши унинг бошқа фанлар бўйича билими деярли мактаб даражасида сақланиб қолади.

Комил инсон ғоясига умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзодга хос энг юксак маънавий ва жисмоний баркамолликни мужассам этган, уни ҳамиша эзгуликка ундайдиган буюк куч сифатида қаралади. Бу нафақат алоҳида шахсларни, балки бутун-бутун халқлар ва мамлакатларни юксак тараққиёт сари етаклаган.

Адабиётлар

1. Мадалиев А. Таълим ва тарбия уйғунлиги – комил инсонни тарбиялаш гарови. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011 й. –88.
2. Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. – Т.: Янги аср авлоди. 2002. 231 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни, 2017 йил 3 январь.УБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ КУРАШИШ ИСИДА
4. <https://uchitel76.ru/mysli-k-d-ushinskogo-o-vospitanii/>

ТАЙНА КОРАНИЧЕСКИХ ИСТОРИЙ ИХ РЕЦЕПЦИЯ В ПОЭЗИИ Я.ПОЛОНСКОГО

Рахманова Альбина Ходжаевна-к.ф.н., доцент

Навоийский государственный педагогический институт, г. Навои, Узбекистан

E-mail: alya211@list.ru

Abstract: The article examines the transformation of the Koranic stories and images in the lyrics of Y. Polonsky, reveals the parallels between the Holy Book of Muslims and the poet's texts, presents the originality of perception and the specificity of the reflection of the Koran in the Russian text, reveals the peculiarities of translating the suras of the Koran into Russian.

Key words: Koran, Quranic stories, reception, specificity of Scripture, interpretation of images, Pushkin traditions.

Великий спор XX века между различными цивилизациями, способствовал развенчанию мифа об извечном конфликте культур Востока и Запада. Сегодня, на наш взгляд, человечество убеждается в том, что мир должен иметь единое духовное пространство, наличие в нем наций, культур, религий показатель его многомерности и глубины, и что, только сохраняя и уважая многообразие культур, мы сможем сохранить стабильность и существование всего человечества в целом.

Многоликость мира великолепно представлена и главными книгами человечества: Библией, Торой, Кораном. Коран – как священная Книга мусульман всегда являлся объектом пристального внимания в русской культуре. Экзотичность и неповторимость его культуры, особенности языка, уникальность образов, средоточие важнейших истин, всегда оставляли желание понять и признать его глубину и уникальность. Ислам, лежащий в основе арабоязычной культуры, был воспринят не просто как мировая религия, а как удивительный сплав норм и правил государства, философии и науки, являющиеся важнейшим элементом бытия. Неизвестность, загадочность, закрытость, в прямом и переносных смыслах, культуры арабов, вдохновляла многих. Желание дойти до сути таинственного, неизведанного и важного, привело многих к исследованию Великой книги мусульман - Корана, которых был не только важным предписанием жизни для всех мусульман, но и некоей важнейшей тайной, сакральной книгой о тайнах бытия, великой сокровищницей знаний, закодированной Божественным предопределением. Являясь первым и самым главным памятником арабской письменности, литературы, истории и религии, Коран являлся и ярким примером для достойного образа жизни всех мусульман.

Изысканная литература арабоязычного мира, астрономические и математические расчеты, потрясшие Европу, географические открытия, развитие науки и религии привели к еще большему интересу языка и образов священной книги.

Нужно отметить, что Пушкин один из первых в русской литературе обратился к поэзии Востока и его культуре. Его знаменитые «Подражания Корану» органично вписались в историю развития русской литературы и явились образцом не условно-стилизованной культуры, а глубоким исследованием специфического своеобразия арабской национальной культуры, во всей ее исторической конкретности.

Коранические истории Пушкина вызвали глубокий интерес русского общества к таинственному Востоку. Не стали исключением и многие поэты XIX века, чьими стихами очень часто пользовался Пушкин для своего журнала. Понимание и восприятие Востока поэтами пушкинской эпохи Л. Лукьяном Якубовичем, Яковом Полонским, Николаем Грековым, Михаилом Михайловым, Львом Кобылинским-Эллисом [4, 78] тоже пошло в русле пушкинских поисков правды и их произведения стали носить общее название «Из Корана», что само по себе указывало на то, что они написаны под непосредственным воздействием Корана.

Яков Полонский (1819-1898) – талантливый русский поэт, в чьем творчестве прозвучали коранические мотивы. Он создал много превосходных стихотворений, отличающихся точностью местного колорита, насыщенных фольклорными мотивами. О поэзии Полонского говорят, что она «загадочная», «таинственная». Сочетание будничного и фантастического делает его поэзию привлекательной и тонкой. В этом плане, его обращение к Священной Книге Коран это попытка понять и принять культуру, которая в реальной, обыденной жизни есть - неразгаданная тайна. Такие стихи поэта тянутся в бесконечность, эта лирика глубока и вечна в понимании Истины.

«Из Корана» Я. Полонский

Скажи строптивым, малодушным,
Коварно злым и непослушным,
Что в неразумии своем
Меня слепцы лишь не находят,
И не идут прямым путем,
А ощупью в потемках бродят.
Не спрячут их запоры башен,
Везде найдет их Азраил,
Придет незванный, бледен, страшен,
И изо всех ударит сил...
И вздрогнут каменные стены,
И подогнутся их колены.
Пророк! напomini маловерным,
Что я приду нелицемерным
Судом судить – и будет течь
Река огня в тот день, и будут
Их на цепях железных жечь...
Напomini им – да не забудут!

1840-1845

В данном стихотворении Я. Полонского звучат традиционные для коранического текста мотивы: вера в единого Бога, безверие людей и поиски истины, возложение пророческой миссии на Мухаммеда, напоминание о неизбежной смерти, изображение положения, в котором окажутся неверующие в Судный день. Попытаемся установить точки соприкосновения стихотворения и коранического текста:

Коран (перевод И.Крачковского)	Яков Полонский
«Скажи тем, которые не уверовали [Коран, Ат-Тагабун, 64:9-10]	«Скажи строптивым, малодушным // Коварно- злым и непослушным»
«Глухие, немые, слепые, - и они не возвращаются к Аллаху». [Коран, Аль-Бакара, 2:17-18]	«Что в неразумии своем // Меня слепы лишь не находят»
«И это – Моя дорога прямая; и следуйте же по ней и не следуйте другими путями, чтобы они не отделили вас от Его дороги. Это он завещал вам, - может быть, вы будете богобоязненны!» [Коран, Аль-Анам 6:153]	«И не идут прямым путем, А ошупью в потемках бродят»
«Где бы вы ни были, захватит вас смерть, если бы вы были даже в воздвигнутых башнях...» [Коран, Ан-Нисъа, 4:78];	«Не спрячут их заборы башен // Везде найдет их Азраил»
«Напоминай же, ведь ты – только напоминатель!» [Коран, Ал Гашия, 88:21];	«Пророк, напомни маловерным // Что Я приду нелицемерным Судом судить
«Мы ведь приготовили для неверующих цепи, узы и огонь» [Коран, Аль-инсон, 76:4]	и будет течь Река огня в тот день, и будут Их на цепях железных жечь

Данные Коранические суры приводит ряд свидетельств могущества Аллаха и его безграничного знания, все обозначенные истины направлены на тех, которые не уверовали в прежние времена и ослушались посланников своего Господа, за что понесли мучительное наказание. В сурах указывается на несостоятельность ложного утверждения неверных о том, что они не будут воскрешены, содержится призыв к людям уверовать в Аллаха, в его посланника и в Свет, ниспосланный ему, а также предостережение от Аллаха о Судном дне, в который людям будет ясно, что они обидели себя, не поверив и не приняв правды о Боге.

Яков Полонский использует структурно-стилистическую форму стиха священного Писания. Нужно отметить, что если Пушкин, очень часто в своих «Подражаниях Корану» использовал стилистическую формулу начала: «Клянусь», то Я.Полонский работает со словом: «Скажи» В Священном Писании очень часты употребления всякого рода обращений и одной из форм обращений, которые относятся к пророку Мухаммаду, в Коране начинаются со слова «Скажи» (5 из 114 сур открываются этим словом: 72, 109, 112, 113, 114). Анализируемое стихотворение Я.Полонского начинается с этого ключевого слова. Аллах говорит от первого лица, обращаясь к пророку Мухаммеду. Каждая строфа текста очень точно приближаясь к кораническому тексту, использует очень важные метафорические образы и понятия Священного Писания, открывая нам свет на традиционные образы Корана: не знающие веры и блуждающие в потемках слепцы, возведенные ими башни, непонятные истины, Азраил, ангел смерти, огонь Ада, железные цепи грешников, праведный Суд. Нужно отметить, что Священное Писание не упоминает имени важного, с религиозной точки зрения, ангела смерти Азраила. В **Коране** вместо этого имени употребляется **Малаяк аль-маут** - ангел смерти. Ангел смерти — один из самых близких к Аллаху ангелов. По приказу Аллаха он забирает души умерших. Я.Полонский близок не только к стилистике Священного Писания, он великолепно работает с образным рядом Коранических текстов, указывая на неверующих и пытаясь обратить их к свету истинной правды.

Я. Полонский прибегает к кораническим метафорам: «Что в неразумии своем // Меня слепы лишь не находят». Обращает на себя внимание и кораническое понятие «прямой

путь», использованное поэтом в строке «И не идут прямым путем». В Коране так обозначается верная, правильная дорога, которая приводит к Аллаху. Метафорическое выражение «А ощупью в потемках бродят», звучащее в последней строке первого отрывка стихотворения, созвучно со многими кораническими аятами. Ярким моментом текста становятся картины Судного дня, когда неверующие подвергаются наказанию Огнем и железом. Автор, безусловно, показывает свою осведомленность в Кораническом тексте, строгую продуманность картин, и невероятно тонкую осведомленность в понимании и уважительно-толерантном отношении к описываемым истинам. В стихотворение, состоящем из трех шестиштырей, Полонский создает текст, который указывает на величие Создателя, сотворившего природу. Автор, по всей видимости, хорошо знаком с тем, что Аллах в Коране выступает в качестве Единственного Творца, Создавшего всё сущее, включая человека, и то, чем он живёт. Он творит вещи своим приказом (повелевающим словом «Будь»). Аллах для людей — единственный подлинный царь и судья, воздающий людям за их добрые и греховные поступки.

Необходимо отметить, что Коран был источником поэтического вдохновения для многих поэтов пушкинской эпохи. Здесь налицо традиция вовлечения в художественное произведение коранического текста, отражение коранического повествования, трансформация ряда мотивов и образов Священного Писания Ислама, своеобразия которых показано в настоящей статье. Затрагивая главные темы Корана, русская литература ориентировалась на характерные для его поэтики жанрово-стилистические особенности, использовала присущий «небесной книге» мусульман риторические обороты для усиления художественной выразительности. Стихи Я.Полонского показывают, что многие его поэтические тексты, продолжают (вслед за Пушкиным) традицию освоения Корана и раскрытия его нарративного потенциала. Это позволяет нам сделать вывод, что Коран является «кодом» ко многим стихотворениям, которые обнаруживают новые связи русской классической словесности с Кораном.

Литература

1. Коран / пер. с араб. и коммент. акад. И.Ю. Крачковского. М.: Изд-во «Маджесс», 1990.
2. Пиотровский М.Б. Коранические истории. –М., 1991.
3. Полонский Я. Избранное. –М., 1999.
4. Гаврилов Ю.А, Шевченко А.Г. Взаимопроникновение культур. Коран в творчестве русских поэтов. –М.: Наука, 2006.

XUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA ILGARI SURILGAN KOMIL INSONGA XOS AXLOQIY SIFATLAR

D.A.Axatova –dots. NavDPI

X.A. Axatova- o`qit. NavDPI

Resume: This article discusses the mystical contradictions and spiritual and moral qualities of the perfect man and their significance today, put forward in the work "Futuvvatnomai Sultani" by Hussein Voiz Kashifi, a representative and theorist of the art of oratory, thinker, theologian

Barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni shakllantirishni orzu qilgan va bu yo'lda tinmay kurashgan, ma'naviy merosimiz tarixida katta iz qoldirgan allomalardan biri, Ikkinchi Renessans davrining yirik vakili Husayn Voiz Koshifiydir (1440 – 1505). U 1440 yilda Xuroson viloyatining Sabzavor shahrida tug'iladi. 1468 yilning oxirlarida Koshifiy Xirotda keladi va qolgan umrini asosan Xirotda Temuriylar rahnamoligida o'tkazadi. Kamoliddin Husayn - allomaning ism-sharifi, voiz (notiq) - laqabi, Koshifiy (kashf qilmoq, yaratmoq) - adabiy

taxallusidir.

Koshifiy notiqlik sanati namoyandasi va nazariyotchisi, mutafakkir, ilohiyotchi olim sifatida falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geologiya, tarix, kimyo va boshqalarga oid 200 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ulardan "Axloqi Karim", "Anvari Suxayliy", "Javohirnoma", "Sonlar haqida risola", "Iskandar oynasi". "Xotamtoy haqida risola" va odob - axloq haqidagi qarashlar ifodalangan "Axloqi Muxsiniy" va "Futuvvatnomai sultoniyy" asarlaridir⁴⁹. U asarlarini o'z davrining ilmiy tili - fors tilida yozgan bo'lib, undan ko'pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. Koshifiy Xuroson shaxarlarida va'z aytib, xulq-odob qoidalari, Qur'on va Hadis masalalarini sharxlab, xalq orasida xurmat-e'tibor qozongan.

Koshifiyning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar hozirgi kunimiz uchun ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun Koshifiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini keng o'rganish va yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Adibning «Futuvvatnomai Sultoniyy» asari javonmardlik ilmining qoida-nizomlarini ifoda etgan. Futuvvat (javnomardlik) ilmi ham tasavvuf - sufiylikka muvofiq kelib, insonni axloqan poklash, mehru shafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni targ'ib etgan. Bu jihatdan ilohiyot ishida dunyodan yuz o'giran, jismini ma'naviy kamolot yo'lida qurbon etgan darvesh bilan birodarlik, fidoyilik udumiga sodiq javonmardlarning maqsadlari mos edi. Tasavvufning tavba, sabr, qanoat, parhez kabi talablari futuvvatdatchilar tomonidan qabul qilinib, amaliy hayotiy qoidalarga aylantirganlar. Tasavvuf futuvvatda yuksak g'oyalarning amaliy-ijtimoiy tadbirini ko'rsa, futuvvat esa tasavvufda nazariy e'tiqodi asosini topgan.

So'fiylarni ham Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy» nomli asarida uch guruhga ajratgan: muoshirlar, mutarasmlar, muhaqqiqlar. Muoshirlar – tariqat ahlining muxlislari. Ular darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o'zlarini sherik deb biladilar. «Mutarasm» so'zining ma'nosi rasmiy rusumga ergashuvchi demak, ammo mutarasmlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinon hol talabgoridirlar va shu toifiga ixloslari tufayli fayzdan bahramanddirlar.

Muhaqqiqlar – Haqqa yetganlar, ularni oliy martabali so'fiylar deb ta'riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxi murshidlar shular ichidan yetishib chiqqan⁵⁰.

«Futuvvatnomai sultoniyy»da asosan javonmardlik qoida va yo'riqlari ko'rsatib berilgan. Odatda, Futuvvat sifatleri mavjud kishini fatiy deganlar. Fatiyning lug'aviy ma'nosi - yoshlik. Bu so'z yosh yigitga nisbat berilib aytiladi. Shu bilan birga majoziy ma'noda insoniy fazilatlar nuqtayi nazaridan kamolot chegarasini zabt etgan odamga - yoshlarga nisbatan qo'llangan. Umrini do'stlar xizmatiga bag'ishlash, faqat yaxshilikni o'ylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvoriga ega bo'lish, borini o'zgaralar bilan baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, piru-ustozlar, do'stu-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va batinan pok yurib, pokiza insonlar suhbatini qozonish - shunday sifatleri o'zida mujassaslashtirgan insonlarni javonmardlar, axiylar, yoxud fatiylar deb ataganlar. Qadimiy Xuroson, Mavorounnaxr shaxrida X asrdan boshlab, javonmardlik yoki futuvvatdatchilik harakati keng yoyilgan edi. Futuvvatdatchilar muayyan qoida talablarga rioya etar, ma'naviy va jismoniy yetuklikka intilar, qayerdagi bo'lmasinlar, nima ish bilan shug'ullanmasinlar mardlik va oliyjanoblik namunasini ko'rsatar, zulm va haqsizlikka qarshi kurashadilar. Ular nazarida dunyo boyligi emas, inson qadri ustun turgan. Oltin kumushni javonmardlar nazar-pisand qilmaganlar, balki uni ma'naviy taraqqiyot uchun bir vosita deb qaraganlar xolos. Arab sayyohi Ibn Batuta (XIII asr) "Safarnoma" kitobidida: "Men dunyoni kezib bunday odamlar (ya'ni javonmardlar)dan ko'ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko'rmadim... Ularni Iroqda shotir, Xurosonda sabbador, Mag'ribda (Andalusiyada) sukra deydilar. Ularga tobe joylarda adolat rasmi shunday rivojlanganki, ularni lashkarboshilari xonalarida oltin va kumush tangalar yerga sochilib yotadi va egasi

⁴⁹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil, 243 b

⁵⁰ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Mavorounnahr – "O'zbekiston", 2009. 6 b

topilmaguncha hech kim bu pullarga tegmaydi”⁵¹, -deb yozgan edi.

Javonmardlar jamoasiga qabul qilingan yosh yigit (“faytiy” degani ham javonmard degani ham yosh, mard yigit ma’nosini beradi) farzand deb uning beliga axd belbog’ini bog’lagan ustoz ota deb yuritilgan. Javonmardlar shu zaylda bir-birlarini aka-ukalari, birodarlari hisoblanganlar va birodar birodari uchun jonini berishga tayyor turgan. Yana bir arab olimi Ibn Havqal Movarounnahr javonmardlari haqida bunday hikoya etadi: “Movarounnahr xalqini javonmardligi shu darajadagi, go’yo barchasi bir xonadonda yashayotgandekdirlar. Birontasi boshqasining uyiga borsa, o’z uyiga kirgandek bo’ladi. Juda mehribon do’stdirlar va kechasi keladigan mehmonlardan xijil bo’lmaydilar, uni tanimasalar ham hech bir muzd-mukofot kutmay mehribonlik ko’rsatadilar”.

Javonmardlikning ruknlari (ustunlari) o’n ikkita bo’lgan: oltita zoxiriy, oltita botiniy. *Zoxiriy ruknlar:*

1. G’iybat, yolg’on, bo’xton, behuda so’zdan tilni tiyish.
2. Nojo’ya, nomaqbul so’zlardan quloqni berkitish.
3. Ko’rish nojoiz narsalardan ko’zni yumish.
4. Harom narsalardan qo’lni tortish.
5. Borish man qilingan joylardan oyoqni tortish.
6. Harom ovqatdan ogizni, zinodan a’zoni berkitish.

Botiniy ruknlar:

1. Saxovat.
2. Kamtarlik (tavoze’).
3. Qanoat.
4. Avf va marhamat.
5. Kibr va gururni tark etish.
6. G’ubr (ko’ngilni dunyo tashvishlaridan tozalanib, do’st (xudo) muhabbatining makoniga, ishq sultoni o’tiradigan taxtga aylanishi. Asarda keltirilishicha futuvvat sharti 71 ta bo’lib, uning 48 tasi vujudiy, 23 tasi azaliydir⁵².

Asardagi tariqat ahlining odobi haqidagi fasllar ham ahamiyatlidir. Unda tariqat ahlining ko’ngilini asrash, ko’z, quloq, til, og’iz, qo’l va farj (tanosil a’zosi)ni saqlash odobi, tariqat ardobi va ularning toifalari odobi, o’tirish odobi, suhbat odobi, mehmon kutish, yo’lda yurish, salom berish odobi, kasal ko’rishga borish, janoza, ta’ziyaga borish odoblari, kasb-kor, savdo-tijorat odoblari, ma’rakaga borish odoblari bayon etilib, turmush odobiga oid har bir hatti-harakatning uslubi ham o’z ichida bayon etilgan. So’ng turli kasb egalarining odobi, faoliyati ta’riflangan.

Xulosa qilib aytganda Husayn Voiz Koshifiyning nuqtai-nazariga ko’ra, komil inson o’zida eng oliy insoniy ma’naviy-axloqiy xislatlarni mujassam eta olgan, boshqalarga o’rnak bo’ladigan shaxs bo’lishi lozim. Bunday komil insonlarning sa’yi-harakatlari asosida ijtimoiy taraqqiyot yuz beradi, jamiyatda tinchlik va farovonlik qaror topadi. Asar barkamol shaxs va malakali mutaxassis tarbiyalash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotgan hozirgi davrda yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵¹ Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994 й. -3 б.

⁵² Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. Нашрга тайёрловчилар: М.Аминов, Ф.Ҳасанов. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2011, 19-20 б

TA'LIM - JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Pulatov Jaxongir Nazirovich,
Navoiy viloyati XTXQTMO hududiy markazi dotsenti,
falsafa fanari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada har qanday jamiyat barqaror taraqqiyotga erishishi uchun ta'lim asosiy omil ekanligiga oid taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, fan, jamiyat, barqaror taraqqiyot, innovatsiya, kreativlik.

Аннотация: в статье предлагаются предложения и рекомендации о том, что образование является ключевым фактором достижения устойчивого развития в любом обществе.

Ключевые слова: образование, наука, общество, устойчивое развитие, инновации, творчество.

Annotation: the article offers suggestions and recommendations that education is a key factor in achieving sustainable development in any society.

Keywords: education, science, society, sustainable development, innovation, creativity.

Jamiyat barqaror rivojlanishining asosini ilm-fan tashkil qiladi. Ilm-fanning ahamiyatiga o'zbek mutafakkirlari yuksak baho bergan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy⁵³ inson taraqqiyotga ilm orqali erishishini aytib o'tadi. U o'zining "Mineralogiya" asarida jamiyatda tinchlik va farovonlik vujudga kelishi ilm-fanning ravnaq topishiga bog'liq jarayon deb hisoblaydi.

Insonni baxtli va farovon yashashi uchun jamiyat ahlining ilm-fan bilan nechog'liq shug'ullanishiga XIV-XV asrlarda hukmronlik qilgan Amir Temur va temuriylar davrida alohida e'tibor qaratganligiga Vengriyalik mashhur sharqshunos G. Vamberining esdalik kundaligida: "Amir Temur faqat mahalliy mualliflarnigina rag'batlantirmay, balki o'z poytaxtiga chet el olimlari va shoirlarini ham jalb etdi hamda ularning hammasiga hotamtoylarcha mukofotlar hadya etar va o'z shaxsiy etibori va homiyligi bilan ularni qo'llab-quvvatlardi. Ana shu olimlarning ayrimlari Amir Temur saltanatida o'z vatanidagidan ko'proq ta'minlangan edi⁵⁴" deb yozib qoldirgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ilm har qanday davr, har qanday siyosiy tuzimni rivojlanishi uchun asosiy fundamental baza ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab ilm-fanga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1992 - yil 8 -iyulda "Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon e'lon qilinishi bunga yorqin misoldir.

Ta'lim olish huquqi insonning eng asosiy huquqlaridan biridir. Mazkur huquq inson rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hamdir. Ta'lim orqali insonlar o'zining turmushini yaxshilash, kerakli bilim va tajribalarni o'rganish imkoniga ega bo'ladi, ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zaif bo'lgan aholi qatlamlari o'zining moddiy ahvolini yaxshilashga erishadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'limni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar natijasida 7 yoshgacha bo'lgan bolalar sonidan kelib chiqib maktabgacha ta'lim muassasalari sonini ko'paytirishga, barcha bosqichdagi ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga, inson butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda jamiyatni tubdan isloh etish va yangilash borasida amalga oshirilayotgan siyosatning hal qiluvchi bo'g'ini sifatida ta'limga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Asosiy qomusimizning 41-moddasiga binoan: "Har kim bilim olish xuquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"⁵⁵ deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida barcha uchun jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi,

⁵³ Абу Райхон Беруний. Феруза (Жавоҳирлар ҳақида нақл ва ҳикоятлар).-Тошкент.: 1993.-Б.42

⁵⁴ Amir Temur jahon tarixida . -Toshkent:Sharq , 2001.- 181 b.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –16 b.

e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanishi huquqiy jihatdan belgilangan. Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq jarayon ekanligini anglamog'imiz lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va zamonaviy innovasion texnologiyalar orqali O'zbekistonni jahondagi eng rivojlangan nufuzli davlatlar darajasiga olib chiqish bo'yicha 100 ga yaqin farmon va qarorlar chiqarilmoqda. Xususan, 2019-yil 29-aprel kuni Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi 5712 - sonli farmoni qabul qilindi. Farmonni ijrosini ta'minlash natijasida:

- 2030- yilgacha ta'lim tizimimiz jahonning ilg'or 30 ta mamlakatlari qatoriga qo'shilishi;
- ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish;
- ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich individuallashtirish tamoyillarini joriy qilish;
- xalq ta'limi tizimiga innovasion texnologiyalar va loyihalarni joriy qilinishi inson taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir. Bugungi kunda eng foydali investesiya bu- ta'limga ajratilgan investesiyadir Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan bu kabi ijobiy ishlar yurtimizda yangi Renesans davrini boshlab berishga zamin yaratadi.

Sharq donishmandlari aytganidek, **"Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"**⁵⁶ deb naql qilganlar. Shu nuqtai nazardan biz zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida bilim olishni hayotiy ehtiyojimizga aylantirmog'imiz zarur.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, yetuk insonni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Bu bevosita yoshlarga oid davlat siyosatini butun choralar bilan takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonni rivojlantirish tendensiyalari informasion texnologiyalar va innovasion loyihalarga bevosita bog'liq jarayondir.

Respublikamizda barcha sohalarga informasion texnologiyalarni joriy qilish natijasida ilmiy texnik taraqqiyotning inqilobiy rivojlanishiga va inson bunyodkorlik salohiyatini mislsiz o'sishiga olib keldi. Bu jarayon raqamli iqtisodiy texnologiyalarni kundalik faoliyatimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyot – bu innovasion texnologiyalar, platformalar va yangicha biznes modellarini yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Raqamli iqtisodiyotning joriy etish natijasida:

- insonlarning farovon turmush darajasini sezilarli darajada oshirish;
- jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan salbiy illat ya'ni korrupsiyaga barham berish;
- to'lovlar uchun xarajatlarni kamaytirish ;
- ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaslik;
- tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olish;
- fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtirish;

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz>

- iqtisodiyotga legal mablag'lar oqimini oshirish, byudjet taqsimotining ochiqligi, soliqlarni o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'larni sarflanishining ta'minlanishi inson taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.; "O'zbekiston" 2017 y 20 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni 23.09.2020 y.
3. Sh.Mirziyoev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" T.; "O'zbekiston" 2017 yil 138 .
4. Sh.Mirziyoev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". T.; "O'zbekiston" 2017 yil 13 b.
5. Sh.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojatnomasi 2020 yil 24 yonvar . <http://uza.uz>

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ МАЪНАВИЙ ҲАЁТИДА МУҲИМ ЎРИН
ЭГАЛЛАГАН КАРМАНАЛИК АЛЛОМАЛАР МЕРОСИ
Кандахаров А.Х.-т.ф.б. (PhD), доцент. НавДПИ
Ўзбекистон**

***Annotation:** This article analyzes the historical heritage of karma mystical scholars and their monuments from a scientific-historical point of view, which was widespread in medieval Central Asia. The article also shows the role of the shrines of mystical scholars as historical objects of special importance in the years of independence.*

Ўзбек халқи бой миллий маънавий меросга эга бўлган халқдир. Ўзининг бой тарихи, узоқ ўтмиши, илмий ва маънавий мероси билан жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнига эга. Халқнинг тарихи қанча бой бўлса, маънавияти ҳам шунча мустаҳкам бўлади. Бу исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатдир. Чунки ҳар бир авлод, ҳар бир давр кишилари маънавият равнақиға ўз улушини қўшиб бораверади.

Истиклол йилларида кўхна тарихимиз, бой маданий-маънавий меросимиз, миллий давлатчилигимиз, урф-одат ва анъаналаримиз қайта тикланди, азиз-авлиёларимизнинг қаровсизликдан нураб, деярли йўқ бўлиб кетиш арафасига келиб қолган мақбаралари, масжид ва мадрасалар тубдан таъмирланди. Бугунги кунда меҳр-оқибат, бағрикенглик, ҳамжиҳатлик каби олижаноб фазилатлар, миллий ва умумбашарий қадриятларга ҳурмат, Ватан тақдири ва келажагига дахлдорлик туйғуси юрагимизнинг туб-тубидан ўрин олди.

Ўз маданиятимизни, маданий меросимизни қанчалик яхши билсак, оламда ўзимизни шунчалик яхши англаймиз, муайян миллатга, маданиятга мансублигимиздан шунчалик кўп ифтихор ҳис этамиз. Ўзбекистон республикаси Президенти Ш. Мирзиёев: "Ҳамма ўз тарихини улуғлайди. Лекин бизнинг мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ. Бу меросни чуқур ўрганишимиз, халқимизга, дунёга етказа билишимиз керак. Бу марказга келган одам тарихимиз ҳақида тўла тасаввурга эга бўлиши, катта маънавият олиб кетиши зарур"⁵⁷, -деб таъкидлаб ўтади.

Республикамиздаги қатор вилоятлар каби Навоий вилояти ҳудуди ҳам қадимий тарихга эга бўлиб, бу ерда ҳам тарихий ёдгорликлар, муқаддас қадамжолар кўп. Мир Саййид Баҳром, Шайх Хўжа Хусрав мақбаралари, Мирзачорбоғ тарихий ёдгорлиги, Работи Малик шулар жумласидандир. Вилоятдаги Кармана, Нурота, Қизилтепа, Хатирчи каби туманларида кўплаб тарихий ёдгорликлар жойлашган. Шу жумладан, Карманада ҳам кўплаб тарихий обидалар жойлашган бўлиб, уларнинг айримлари археологлар томонидан

⁵⁷ Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Ислон цивилизацияси марказини ташкил этишга бағишлаб ўтказилган йиғилишда сўзлаган нутқи. <https://president.uz/uz/2208>

ўрганилган. Хусусан, ўтган асрнинг 20-йилларида И.Умняков¹⁶⁰, А.Писарчик¹⁶¹ каби олимлар ўзларининг тадқиқотларида Работи Малик карвонсаройи ва Мир Саййид Баҳром мавзолейининг қурилиш даври, маданий қатламлари, уларнинг топографияси ва Бухоро хонлиги ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни масалаларига тўхталиб ўтган. Ушбу тадқиқотларни илмий аҳамиятини эътироф этган ҳолда бу ёдгорликларнинг қурилиши тарихи, кимлар томонидан бунёд этилганлиги масалалари муаллифлар эътиборидан четда қолганлигини таъкидлаб ўтиш зарур.

Карманадаги X-XI асрларга тегишли мавжуд савдо иншоотлари, работ ва карвосаройлар унинг Буюк Ипак йўли устида жойлашган муҳим савдо марказларидан бири бўлаганлигидан далолат беради. Шу сабабдан Карманага ўша даврларда Хитой чинниси, Булғор чарми бошқа ҳудудларга нисбатан илгарироқ келиб қолган⁵⁸. Буюк Ипак йўли ўз аҳамиятини йўқотганидан 500 йил ўтган, яъни 1990 йил сентябрь ойида ЮНЕСКОнинг қарори билан қадимги ипак йўли бўйича туристик маршрут ўтказилди. Унда юздан ортиқ мамлакат вакиллари қатнашиб, Карманада ҳам бўлдилар. ЮНЕСКО тадбири қатнашчиларининг Карманадан ўтиши, шаҳарнинг ипак йўлидаги катта савдо Маркази эканини исботлайди.

Қосим Шайх хонақоҳи. XVI аср маънавий ҳаётида ўчмас из қолдирган Қосим Шайх Азизоннинг бутун фаолияти эзгу ва ҳайирли ишларга қаратилган. Бухоро ҳукмдори Абдуллахон II нинг ҳазрат Қосим Шайхга бўлган ихлоси юзасидан 1558 йилда Карманада хонақоҳ барпо этган. Қосим Шайх бу хонақоҳда карманаликларга тасаввуф илмидан сабоқ берган.

Хонақоҳ гумбазли масжид ҳамда ўнта бир-бирига туташ бўлган хужралар ва айвондан иборат. Қосим Шайх масжиди ва у кишининг қабри атрофидаги хужраларда Кармана мадрасаларининг талабалари ўз устозларидан сабоқ олганликлари ҳам манбаларда айтиб ўтилади⁵⁹. Хонақоҳ тахминан 10 йил ичида қурилган. Унинг уч(шимол, жануб ва ғарб) томони кунгурадор қилиб безатилган қурилмадан иборат. Хонақоҳнинг эни ва бўйи 25 м ўлчамда бўлиб, ичида жами 6 та хона, ўртада катта намозхона, қибла тарафда меҳроб ўрнатилган. Хонақоҳнинг тўрт бурчагида тахминан 6х6 м ўлчамдаги ўнбурчак хужралар бор. Шарқ томонига қараб юрилса, 6х4 м ўлчамдаги чиллахонага кирилади. Бино ичида жами 5 та гумбаз бўлиб, ўртада ердан баландлиги 12 м бўлган катта гумбаз ва тўрт томонда ердан баландлиги 8 м бўлган гумбазлар мавжуд.

1910-1911 йилларда Бухоро амири Олимхон отаси амир Абдулаҳадхоннинг қабрини Қосим Шайх даҳмаси ёнига унга монанд қилиб қурдирган. Иккинчи хонақоҳ Қосим Шайх хонақоҳидан 300 йил кейинроқ қурилган бўлса-да, улар биргаликда яхлит, улкан бир ёдгорлик мажмуасини ташкил қилган.

Мустақиллик шарофати билан 1999 йил 27 майда Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Навоий вилояти Навоий шаҳри таркибида Кармана туманини ташкил этиш тўғрисида⁶⁰”ги Фармонида асосан Қосим Шайх ёдгорлик мажмуаси қайта таъмирланди ва обод масканлардан бирига айланди.

Мир Саййид Баҳром мақбараси. Мир саййид Баҳром X-XI асрларда яшаган етук уламо, дин арбоби, тақводор, кароматлар соҳиби, комилликка эришган авлиё бўлиб,

¹⁶⁰ Умняков И.И. К исторической топографии средневековой Бухары. Труды Туркестанского восточного института. Т.: 1925, -с.30.

¹⁶¹ Писарчик А. Памятники Кермине. Сообщения Института истории и теории архитектуры... Вып. 4 М.: 1945, - с.23-35.

⁵⁸ Ҳотамов А., Халилов Ш. Йиллар садоси. Т.: Адолат, 1995. –Б.11.

⁵⁹ Писарчик А. Памятники Кармине. Сообщения института истории и теории архитектуры. Выпуск 4. М.: 1945. –стр.30.

⁶⁰ Дўстлик байроғи, 1999 йил 2 июнь.

силсиласи бўйича пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломга бориб тақалади⁶¹. Унинг мақбараси Кармана шаҳри марказида жойлашган. У X-XI асрларга хос бўлиб, республика ҳисобидаги обидалар қаторига киради. Бино сомонийлар даврида бунёд этилган бўлиб, унинг ички қисми ўртасида Мир Саййид Баҳром дафн этилган. Қабр ёнида арабча битиклар ёзилган иккита қабр тоши ҳам сақланиб қолган. Мақбаранинг ғарб томонида табиий тепалик бўлган. Атрофи мазор бўлиб, уни Мир Саййид Баҳром мазори деб аташган. Ҳозирги кунда тепалик, мазор ва мачит бузилиб кетган. Мақбаранинг биринчи тадқиқотчиси А.К.Писарчик бўлган⁶².

Деггарон мажмуаси Кармана шаҳрининг 30 км ғарбидаги Ҳазора қишлоғи ёнида Мовароуннаҳрдаги энг қадимги масжидлардан биридир. Масжид маълумотларда келтирилишича, Бухоро шаҳридаги Исмоил Сомоний мақбарасидан ҳам қадимийроқдир. Адабиётшунос Н.Маллаев Деггарон масжидини XI аср обидаси деган фикрни билдириб: “Қорахонийлар ва хоразмшоҳлар ҳукмронлиги даврида қурилган бинолардан бирмунча кўпроқ ёдгорликлар сақланиб қолган. Булардан бири Ҳазора қишлоғидаги XI асрда қурилган масжиддир”⁶³, -деб айтиб ўтади.

Ёдгорлик зардуштийлар даври меъморчилиги услубида қурилган. У ташқи кўриниши жиҳатидан унчалик маҳобатли эмас. Тўрт деворли иморат устида тўққизта гумбаз жойлашган. Қатор устунларга таянадиган тош ёйлар ичкари қисмини кичик хоналарга ажратади. Маълумотларда айтилишича бу ерда хунармандлар, хусусан, ўтга чидамли қозон таёрловчилар яшаган. Шу боис уларни “Деггарон” – қозон қуёвчилар деб аташган⁶⁴. Шуниси эътиборлики, Ҳожагон Сулукининг машҳур суфийларидан бири Шайх Мавлоно Ориф Деггароний(1313-1376) шу қишлоқда туғилган ва шу ерда дафн этилган. Бу зот Нақшбандийа тариқатидаги Ҳожагон Сулукининг буюк намояндаси Баҳоуддин Нақшбанднинг устозларидан бири ҳисобланган⁶⁵.

Мустақиллик йилларида ушбу обида ҳам қайта таъмирланиб ободонлаштирилди.

Темир Шайх қадамжоси Карманадан тахминан 5-6 км ғарбда, Работи Маликка қараб боришда Бухоро йўлининг устида жойлашган. Ривоятларда келтирилишича, Темир Шайх Қосим Шайх Азизон авлодидан ҳисобланиб, улар деярли бир даврда яшаган. Темир Шайх эл ўртасида авлиёлелиги ва шайхлигидан ташқари зукко табиблиги билан ҳам ном чиқарганлиги тадқиқотчилар асарларида айтиб ўтилади⁶⁶. Темир Шайх мақбараси ғоятда илоҳийлаштирилган, унинг тепасида туғ кўтарилиб, унга одамнинг қўли ва бармоқлари тасвиридаги “Темир қўл” ўрнатилган. Бундай белгилар фақат Бухоро минтақаси авлиёларигагина хос бўлган. Темир Шайхнинг мақбарасининг жанубий томонида мухташам қурилган масжид бўлган. 1960 йилда Навоий ГРЭСи қурилиши муносабати билан у ердаги мазор ва масжид бузилиб, сағана ва мазорнинг бир қисми сақланиб, “Чўян Шайх⁶⁷” мазорига қўшилиб кетган. Тарихий манбаларда кўрсатилишича, XVI асрда Нурота воҳасида қурилган тўғон ўша даврдаги энг улкан ва анчагина мураккаб сув иншоотларидан бири бўлган. XVI аср ирригация техникасига мансуб бу ёдгорликни 1957 ва 1962 йилларда Я.Ғ.Ғуломов раҳбарлигидаги Мохондарё алхеологик экспедицияси текширган⁶⁸. Бу сув омборининг қолдиқлари ҳозирги Нурота тумани, Эски Оқчоб

⁶¹ Қаранг: Абу Тоҳирхожа. Самария. Форс тилидан Ш.Воҳидов, Б.Аминов таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, 2009. –Б.161.

⁶² Писарчик А. Памятники Кермине. СИИ и ТА. Вып.4, М.: 1945. –стр.23-35. Яна қаранг: Иноятов С., Хайитова О. Кармана тарих кўзгусида. Т.: Шарқ, 2006. –Б.169.

⁶³ Маллаев Н.Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: 1976. –Б.53.

⁶⁴ Иноятов С., Хайитова О. Кармана тарих кўзгусида. Т.: Шарқ, 2006. –Б.177.

⁶⁵ Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд. Т.: Абу матбуот-консалт, 2011. –Б.6.

⁶⁶ Қаранг: Ҳотамов А., Халилов Ш. Йиллар садоси. Т.: Адолат, 1995. –Б.25; Хотамов А., Бекниёзов Н. Кармана – қадимий диёр. Т.: Ўзбекистон, 2007. –Б.109.

⁶⁷ Чўян Шайх ҳам Ҳазрат Қосим Шайхнинг авлодларидан ҳисобланиб, у ҳам XVI асрда яшаб утган авлиёлардан бўлган. Қаранг: Хотамов А., Бекниёзов Н. Кармана – қадимий диёр. Т.: Ўзбекистон, 2007. –Б.111.

⁶⁸ Муҳаммаджонов А. Абдуллахон бандини текширганда... //Фан ва турмуш, 1963. №3-сон, -Б.23.

кишлоғидаги Бекларсой дарасида сақланиб қолган.

Юқоридаги маълумотлардан шу нарса аниқ бўладики, нафақат қадимий пойтахт шаҳарлар бўлмиш Самарқанд ва Бухорода, балки шулар билан бир қаторда мамлакатимизнинг бошқа вилоятларида ҳам тарихий обидалар ва муқаддас қадамжолар кўп бўлиб, бугунги кунда уларни ободонлаштириш ва қайта таъмирлаш масалалари га давлатимиз томонидан катта эътибор қаратилмоқда. Маданий меросни қайта кўриб чиқиш ва тиклаш соҳасида мустақил Ўзбекистон орттирган тажрибани кўриб ёш авлодда миллий ифтихор туйғусини шакллантириш вазифаси муваффақият билан бажарилаётгани тўғрисида хулоса чиқариш мумкин. Маданий меросни тиклаш, ёшларимизда буюк аждодларимизга, улар меросига нисбатан ифтихор туйғусида тарбиялаш масалалари мамлакатимиз олимлари олдида турган масалалардан бири бўлиб, улар ҳам бу муаммонинг ечими билан шуғулланиб, ҳозирда ҳам бу ишларини давом эттирмоқдалар.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖОРИЙ ЭТИШЛИШИНИНГ АҲАМИЯТИ

Абуев Х.О.- т.ф.б. (PhD), НавДПИ Ўзбекистон

Annotation: This article provides information on the use of information technology in education in Uzbekistan and its effective results.

keywords: globalization, society, information technology, education, education system, platform

Глобаллашув жараёнларини шиддат билан бориғшининг асосий омили бу илғор ахборот технологияларидир. Ижтимоий тараққиётнинг асосий кўриниши таълим тизими ва унга қаратилаётган эътибор билан белгиланади. Таълим – мамлакат тараққиётининг локомативи сифатида эътироф этиш мумкин. Ҳозирги ва келажак авлод самарали, инновацион технологияларга асосланган таълим тизимига муҳтож. Ана шуларни ҳисобга оладиган бўлсак, бугунги кунда таълим соҳасининг замонавий ўқитиш сифатини оширадиган, унинг долзарб эҳтиёжларини қондирадиган, янгича имкониятлар эшигини очадиган инновацион технологияларга бўлган талаб ошганлиги яққол кўзга ташланади.

Юқоридаги талабларни инобатга олиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 25 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида Таълим муассасаларида электрон таълимни жорий этиш Марказини ташкил этиш тўғрисида”ги 228-сон Қарори⁶⁹ асосида Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида “Таълим муассасарида электрон таълимни жорий этиш маркази” ташкил этилди.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда таълим ва таълим тизимини янада такомиллаштириш борасида амалий фаолият олиб борилмоқда. Айниқса бу яқин кунлардаги бутун жаҳон оммасини ташвишга солган падемия даврида таълим жараённини узвийлигини таъминлашда яққол кўринди.

Ушбу таълим соҳасида ахборот технологияларини жорий қилишга қатриллаётган асосий эътибор ҳар қандай шароитда таълим жараённини узвийлигини таъминлаш ва малакали кадрларни тайёрлашдан иборат.

Ахборот технологиялари қуйидаги педагогик мақсадларга эришиш учун ишлатилади:

- Шахсни таълимий ривожлантириш, ахборотлашган жамиятда иш жараёнига мустақил фаолият юритишга, билимларни қабул қилиш ва қайта ишлашга тайёрлаш;

⁶⁹ ⁶⁹ <https://www.lex.uz/acts/2036907> О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida Ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish Markazini tashkil etish to'g'risida"gi 228-son Qarori

- Шартли равишда замонавий ахборотлашган жамиятни ижтимоий буюртмасига мос йўналтириш;

- Ўқув жараёнининг барча босқичларини фаоллаштириш⁷⁰.

Таълимнинг асосий мақсади асосий буюртмачи ҳисобланган жамиятнинг эҳтиёжларини замон талабларига мос равишда яратиш бўлиб, бунда ахборот технологияларининг асосий вазифаси ушбу жараёни сифатли ва тез амалга оширишдан иборат бўлади. Шундай экан, таълим тизимининг барча босқичларида ахборот технологияларини қўллаш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Ўрта таълим ҳисобланган умумтаълим мактабларда ахборот технологияларин қўллаш борасида хорижлик тадқиқотчилар томонидан ўзига хос йўналишлари айтиб ўтилади.

Яъни, мактаб ўқув жараёнида ИТни қўллашнинг асосий йўналишлари:

- турли мақсадлар учун педагогик дастурий таъминот ишлаб чиқиш;
- ўқув веб-сайтларини ишлаб чиқиш;
- услубий ва дидактик материалларни ишлаб чиқиш;
- реал объектларни бошқаришни амалга ошириш (ўқув ботлари);
- виртуал моделлар ёрдамида компьютер тажрибаларини ташкил этиш ва ўтказиш;
- глобал ва маҳаллий тармоқларда ҳар хил турдаги ахборотни мақсадли қидиришни амалга ошириш, уни йиғиш, тўплаш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатиш;
- тажриба натижаларини қайта ишлаш;
- ўқувчиларнинг интеллектуал бўш вақтини ташкил этиш⁷¹.

Юқорида кўрсатилган ахборот технологияларини қўллашнинг асосий йўналишлари сифатида эътироф этилган вазифалар бугунги кунда мамлакатимиз таълим тизимининг барча соҳаларида кўришимиз мумкин. Мактаб таълим тизимида телеканаллар орқали теледарсларни ташкил этилиши, мактабларда мактаб таълим платформасини яратилганлиги нафақат таълим тизимини ривожлантириш ва талим сифатини ошириш, балки, ота-она ва мактаб мулоқотини узвийлигини таъминлашда ҳам муҳим восита бўлиб хизмат қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги фармонида биноан олий таълим муассасаларида масофавий таълим платформалари ишга туширилди.

Бундай платформалар, аввало, талабалар учун мутлақо янги форматда, яъни виртуал муҳитда таълим олиш имкониятини яратди. Ушбу тизим мамлакатимиз олий таълим муассасалари учун янгилик бўлгани сабабли қатор замонавий лойиҳаларни амалга ошириш зарурлигини кўрсатди. Шу боис, ушбу таълим платформасини яратиш жараёнида бир қатор ишлар амалга оширилди.

Биринчидан, барча олий таълим муассасаларининг масофавий ўқитиш платформаси яратилиб, вазирликнинг ягона порталига бирлаштирилди. Бу эса, ОТМларда масофавий ўқитиш сифатини таъминлаш жараёнини мониторинг қилиш, ўқув ресурсларидан ҳамкорликда фойдаланиш имкониятини берди.

Иккинчидан, ОТМларда ўқитилаётган 6 минг 102 та фан бўйича масофавий таълим ресурслари яратилди ва ҳар бир олий таълим муассасасининг масофавий ўқитиш платформасига жойлаштирилди.

Учинчидан, таълим йўналишлари бўйича ўқув режасидаги, барча талабалар учун умумий бўлган фанлар асосида тайёрланган видеоматериаллар киритилди. Очиқ таълим

⁷⁰ С.В. Кривоногов, В.А. Петров. Применение информационных технологий в обучении как средство повышения качества образования // Карелский научный журнал. 2015. № 3(12). – С. 15

⁷¹ А.А.Аксюхин, А.А. Вицен. Ж.В.Мекшенева Информационные технологии в образовании и науке // Современные наукоемкие технологии. – 2009. – № 11 – С. 50-52

ресурсларини яратиш учун TAS-IX тармоғида махсус видеопортал ишга туширилди. Ҳозирга қадар унга 400 дан ортиқ видеодарс жойланди.

Тўртинчидан, талабаларнинг илмий ва ўқув адабиётларига эҳтиёжини таъминлаш ҳамда китобхонлик маданиятини ошириш учун электрон кутубхона портали яратилди. Ундан 100 га яқин аудиокино, замонавий ва классик адабиёт намуналари жой олди.

Бешинчидан, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси билан ҳамкорликда куннинг муайян вақтида фанлар бўйича теледарслар ўтказиш тизими йўлга қўйилди.

Ушбу лойиҳаларни амалга ошириш ва ахборот-коммуникация технологиялари инфратузилмасини яхшилаш учун олий таълим муассасалари умумий қиймати 2 миллион 300 минг АҚШ доллари бўлган саксон бешта замонавий сервер қурилмаси билан таъминланди. Интернет тезлиги 1 Гбит/секундгача оширилди.

АҚШнинг Coursera ташкилоти билан ҳамкорликда Coursera платформасидаги жаҳоннинг етакчи олий таълим муассасалари ва ташкилотларининг 430 йўналиш бўйича уч минг саккиз турдаги ўқув курс ларидан бепул фойдаланиш имконияти яратилди. Ҳозир икки мингдан ортиқ профессор-ўқитувчи ва талаба платформада рўйхатдан ўтиб, ўқув курсларида онлайн таълим олмақда. Шунингдек, олий таълим муассасалари 195 та замонавий сервер, 9100 та компьютер қурилмаси ҳамда марказлашган маълумотлар маркази (Data-sentr) билан жиҳозланган. Тўққизта олий таълим муассасасида видео студия ҳамда 12 та ақлли аудитория ташкил этилган.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ахборот технологиялари асосида таълимни жорий қилиш таълим олиш имкониятлари кенгайтирди. Таълим тизимида халқаро муносабатлар ривож топди ва топмоқда. Бошқа давлатлар таълим тизимлари билан тажриба алмашиш, билимларни янги қарашлар ва назариялар асосида ривожлантиришда муҳит вужудга келди.

OTMLARDA FANLARNI O'QITISHDA RAQAMLI BILIMLAR VA AXBOROT – TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.

**Vohidova M.T.- f.f.n., dotsent. Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti,
Mirzaeva M.U.- magistr. Buhoro muhandislik-tehnologiya instituti**

Annotation The article describes the scientific basis for the use of digital technologies in the educational process in higher education, analyzes its advantages and disadvantages.

Talim jarayonida raqamli bilimlar va axbarot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuniga va sifatiga yetarli darajada ta'sirini ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari har doim o'qitish yoki umuman pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lib kelganligini ta'kidlash kerak. Shu bilan birga ta'lim jarayoning o'zi ham axborot jarayoni hisoblanadi. Faqatgina zamonaviy kompyuter texnologiyalarning paydo bo'lishi natijasida axborot texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni sezilarli darajada o'zgardi.

Bugungi kunda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biri bo'lib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi, balki ijtimoiy sohada odamlarga katta qulailiklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o'sishiga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi va ortiqcha harajatlarni kamaytiradi, yana bir muhim afzallik — korrupsiyaga chek qo'yadi.

Hozirgi davrda sivilizasiya rivojlanishining bosh tendensiyalaridan biri — shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ko'paiishi va shahar asosii iqtisodii draiverlarga aylanib kelishi. Tabiiiki, shu nuqtai nazardan shaharlarda istiqomat qiluchi aholi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilishi muhim vazifadir. Va shu tarzda raqamli texnologiyalar katta ko'mak beradi.

Raqamli texnologiyalar shaharlarni boshqarish tizimini yangi bosqichga ko'taradi: nafaqat vaqt va mablag'larni keskin sarflaydi, shu bilan birga keng aholini jamg'arishga imkon yaratadi. So'nggi yillarda dunyoda "Raqamli shahar" konsensiyasi ommalashmoqda — o'ta zamonaviy, yangi qiyofaga ega shahar. Agarda biz ham shaharlarimizni zamonaviy tendensiyalarga mos rivojlantirmoqchi bo'lsak, aholi va mehmonlarimiz uchun qulay shart-sharoit yaratmoqchi bo'lsak, mazkur masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Raqamlardan foidalanishga asoslangan hamda jorii etilgan texnologiyalarning so'zsiz foidasi bilan ahloqii, shahsii malumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar hodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqii jihatlarini bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq etiborga olinmoqda

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yusallishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yahshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi"⁷²

Ijtimoiy - gumanitar fanlarni o'qitish umuman ta'limda raqamli texnologiya va axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish ko'zda tutiladi.

Birinchiidan, har bir talaba jamiyatni kompyuterlashtirish sharoitida kerakli bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim. Bunda axborot jamiyatning taraqqiy etishida va rivojlanishida eng muhim faktorlaridan biri hisoblanadi. Har bir talaba bilim olish jarayonida tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida ro'y berayotgan o'zgarishlar ilmiy taraqqiyot va fan texnika yangiliklari to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishi va uni o'zlashtirishi lozim.

Ikkinchiidan, fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan asosiy jihati o'qitish samaradorligini keskin oshirish, o'quv -tarbiyaviy jarayoni zamon talabi darajasida tashkillashtirish vazifasini amalga oshirish lozim. Bu vazifani bajarilish talabalarni qanchalik bilim va malakalarga ega bo'lganligi bilan emas, balki o'quv jarayoni qanday tashkil etilganligi bilan o'lchanishi kerak. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni samarali o'qitish texnologiyasi o'quv va dasturiy vositalarni yaratishni talab etadi. Bu dasturiy vositalar o'qitish jarayoniga va berilayotgan bilimga qiziqishni oshirish va hamda bilim olishga bo'lgan intilishni qanoatlantirishi lozim. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalari vositalaridan o'quv dasturlari, multimedia texnologiyalari, masofadan o'qitish va internet tizimlari muhim o'rin tutadi. O'quv dasturlari ma'lum bir fan sohasiga yoki predmetga mo'ljallangan bo'lib, o'qitish jarayonida yoki talabalarni mustaqil bilim olishda foydalaniladi, albatta o'quv dasturlari o'zining tuzilishi va mazmuniga qarab bir nechta turlarga bo'linadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida o'quv dasturlarning o'rniga qarab foydalanish, o'quv jarayonini mukammallashtirish uchun zamin yaratadi.

XXI аср бошқа давлатлар сингари Ўзбекистоннинг ҳам олдида ечимини топиши зарур бўлган бир қатор муаммоларни қўйди. Бу муаммоларнинг ечими бевосита ёшлар тарбияси билан чамбарчас боғлиқдир. Шундай экан, бугунги кунда буюк давлатга муносиб баркамол авлодни тарбиялаш, уларни маънавий етук, жисмонан бақувват, маърифатли, юқори даражали замонавий мутахассис кадр қилиб тарбиялашда фаол иш олиб бориш лозим. Ҳар қандай мамлакатнинг эртанги куни, келажак тараққиёти биринчи ўринда ёшларнинг жисмоний ва маънавий камолоти билан ўлчанади. Аждодларимизнинг ўтмиши, миллий ва диний анъаналаримиз, маънавий қадриятларимизни ўрганиш, халқимизнинг миллий ўзлигини англаши, демократик, адолатли, ҳуқуқий давлат ривожиди фуқароларнинг, айниқса, ёш авлоднинг яхлит бир дунёқараши шаклланишида назарий пойдевор вазифасини бажаради. Бу ҳақда Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Тарихимиз, маданиятимиз динимизга алоқадор бир варақ кўлэзма бўлса ҳам, уларни тўплаб, халқимизни, ёшларимизни таништириш, бизнинг қандай буюк ва бетакрор меросимиз борлигини англашиш, фарзандларимизни шу улуг меросга муносиб этиб тарбиялашдан иборат”⁸⁵ – деб таъкидлаб ўтадилар.

Ёшларнинг маънавий юксалиш жараёнида унинг барча ҳуқуқий, сиёсий, ахлоқий, маданий ва мафкуравий тасаввурлари ижтимоий тузум ва тизимларнинг таъсири туфайли шаклланиб ва ривожланиб боради. Натижада ёшлардаги соғлом, нафис жисмоний қиёфа, юксак маънавий ҳис-туйғулар, миллий тафаккур ва тушунчалар бирлиги асосида миллатпарварлик таркиб топади. Ёшларнинг миллий тафаккури ва миллатпарварлиги уйғунлашиб маънавий баркамолликни вужудга келтиради. Ҳозирги даврда униб-ўсиб келаётган ёш авлодни ғоявий-мафкуравий жиҳатдан тарбиялаш долзарб масала эканлигига эътибор қаратиб, бу ҳақда биринчи Президентимиз Ислом Каримов шундай деган эди: “Биз ҳаётга катта орзу-умидлар билан кириб келаётган ёшларимизга бир ҳақиқатни, яъни, „Эй болам, сенинг Ватанинг битта - барчамизга азиз, бетакрор мана шу Ўзбекистон. Ота-боболарингнинг ҳоки шу ерда ётибди. Шу муқаддас замин сени дунёга келтирган, сен уни обод этишинг, ҳимоя қилишинг шарт. Нафақат сенинг ўз ҳаётинг, балки сенга умид кўзини тикиб турган ота-онанг, опа-сингилларинг, ёш гўдаклар, нуруний қарияларимизнинг ҳаёти ҳам ана шу бурчингни нечоғлик адо этишингга боғлиқ”⁸⁶.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаб ўтамизки мамлакатимизнинг бугунги кундаги ижтимоий-сиёсий, маънавий-маданий салоҳияти, иқтисодий ҳолати, халқимизнинг ақл-заковати ва иродаси, эл-юртимизнинг озод, фаровон, бахтли келажакни яратувчи соғлом,

⁸⁴ Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. Т.: „Ўзбекистон”, 2010. 63-64-бетлар.

⁸⁵ Мирзиёев Ш.М Ватанимиз тақдири ва келажакни йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. Т.: „Ўзбекистон”, 2018, 592-бет.

⁸⁶ Каримов И.А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва буқилмас иродасига боғлиқ // Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. 12-жид, - Тошкент: Ўзбекистон, 2004. 273-бет.

баркамол авлодни тарбиялашдек вазифани бажаришда имкониятлари бекиёсдир. Шундай экан, бугунги кунда буюк давлатга муносиб баркамол авлодни тарбиялаш, уларни маънавий етук, жисмонан бакуват, маърифатли, юқори даражали замонавий мутахассис кадр қилиб етиштиришда аждодларимиз томонидан яратилган бой илмий-маънавий мерос муҳим аҳамият касб этади ва биз бунинг устида фаол иш олиб боришимиз лозим.

ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА ВА АМАЛИЙ НАМУНАСИНING ИЖОБИЙ ТАЪСИРЛАРИ

Рўзимуротов Рамазон Хамза ўғли СамДУ талабаси
Илмий раҳбар: ф. ф. б. (PhD) доц. в.б Нумонова Д.У

REZYUME

In the course of the development of civil society, the role of parents is changing in the socio-political, economic and spiritual life, basic support for social and political life of activity women has been formed.

Key words: state, civil society, family, social activity.

Сийсий ва ижтимоий жараёнларнинг кенг кўламда ривожланишда тартиб қоидаларнинг уйғунлиги жамиятда маданият ва маърифатни, илм-фан, адабиёт ва санъатни ривожлантириш борасидаги амалий ишларда намоён бўлади. Шунингдек, фуқароларнинг юксак маданияти ва маърифатга эга бўлиши мамлакатнинг ҳар томонлама ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади. Бундай ўзаро алоқадорлик инсонларни миллат, жамият ва давлат ривожига энг муҳим жараёнлардан бири эканлиги жамиятимизни миллат, жамият ва давлат тараққиётининг бугунги босқичида ўз ифодасини топмоқда. Юртимизда амалга оширилаётган ишлар, таълим-тарбия ислохотлари, мамлакатимизнинг ривожланишига жуда катта эътибор қаратилган. Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев томонидан ишлаб чиқиляётган барча қонунлар ва кўрсатмалар замирида айнан бугун ҳамда келажакни юксак самардорлигини ҳисоби натижаларидан кўринмоқда. Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев ўзининг асарларининг 3-жилдида шундай деган: “Ҳаммамиз тушунамиз, “Меҳр-ҳаётнинг устуни” деган сўзларда чуқур маъно ва мазмун мужассам. Бу ҳақда гапирганда, муқаддас она, аёл зоти-чинакам меҳр булоғи, меҳр куёши, десак, ҳар томонлама тўғри бўлади. Шу куёш бор экан, меҳр-оқибат, эзгулик ва адолат, вафо ва садоқат каби буюк қадриятлар неча асрлардан буён безавол яшаб келмоқда⁸⁷”.

Айнан бугунги кунда мамлакатимизни келажакни учун, унда яшовчи ҳар бир фуқароларнинг билимли ва онгли равишда ҳаётга, жамиятда бўляётган туб ўзгаришлар, Ватанимизни чирой очиб, янада гўзалланиб боришида амалга ошириш лозим бўлган ҳаракатларни биргаликда, ҳамжиҳатликда амалга ошириб боришимиз зарурлигини ҳис қилишимиз муҳимдир.

“Ҳаддан ортик ғазаб ваҳшийлик кетиради ва бевақт қилинган лутф обрўни кетказди”.⁸⁸

Чунки, бугунги кунимиз ҳаракатлари келажакимизни белгилайди. Бугунги ёшларнинг ҳар томонлама ақлли, зукко ва уддабурон булишида, уларни боғча ёшиданок янада эътиборлироқ ҳолда таълим-тарбиясини мазмунли, аниқ бир мақсад, келажакда уни баркамол қилиб вояга етказишни ҳис қилган ҳолда ҳаракатларни амалга оўиришда шароитлар яратишнинг мукамаллигини ҳисобга олиш жуда зарур. Болаларни ақлий ривожланишида авваломбор биологик омиллар, уларнинг соғлом турмуш тарзи, ўсишда

⁸⁷ Шафкат Мирзиёев “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажакни фаровон бўлади” Тошкент - “Ўзбекистон”-2019.105-бет.

⁸⁸ Абу Райҳон Беруний “Шарқ донишмандлари ҳикматлари”- “Шарқ” нашриёти –Матбаа Акциядорлик Компанияси Бош Таҳририяти Тошкент –2006.- 189 бет.

зарур бўлган рацион озикланиш, тоза ҳаволарнинг таъсири, фикр доирасини, ақлини, маънавий юксаклигини, таълим-тарбиясини тўғри йўлга қўйилганлик даражаси юқори ҳолда бўлиши жуда зарурий ҳисобланади. Таълим-тарбия жараёнида кўз билан кўриши, эслаб қолиши, уларни ўзи анализ-синтез қилиши, айрим нарсаларга жуда эътиборли бўлиши, юксак самараларга олиб келади. Мактаб ёшида барча фикрлар такомиллашиб боради. Албатта, бугунги кунда таълим-тарбияга катта эътибор, ёшларни бадиий расмлар, кўрсатувлар, мантиқий асарларни эшитиши, ўқиши орқали ҳам жамиятда бўлаётган воқеа-ҳодисаларга беъэтибор эмаслигининг хатти-ҳаракатларида ҳам намоён қилмоқда⁸⁹. Ҳар қандай жамиятда туб ўзгаришларда тараққиёт мезонида дунё миқёсидаги янгиликларга тайёр туриш ва янгиликларни жамиятда қўлланилишида фуқароларнинг оиладаги инсоний муносабатларнинг барқарорлиги, тушуна бориши ҳамда фарзандларни билими, тафаккурини юқори ижобий натижаларга олиб келишида ота ва оналардаги билим савиясини миқдори ҳам катта ўринга эга. Чунки, оилада катталарни тушунчаси ҳамда бошқаруви келажак авлодни қадриятларимизни давомчиси сифатида билимдон, замонавий оилаларнинг мустақамлиги ҳар қандай жамиятни ривожланишига ўз хиссасини қўша олади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Шавкат Мирзиёев “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” Тошкент - “Ўзбекистон”-2019.105-бет.
2. Абу Райҳон Беруний “Шарқ донишмандлари ҳикматлари”- “Шарқ” нашриёти –Матбаа Акциядорлик Компанияси Бош Таҳририяти Тошкент –2006.- 189 бет.
3. Дилдор Нумонова. Баркамол авлодни тарбиялашда таълим-тарбиянинг роли.- Т.: Алишер Навоий, 2014.117-бет.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИ УМУМКАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Санаева С.Б.-PhD, в.б доц. НавДПИ
Ўзбекистон

Annotation. This article describes the importance of a competent approach to the educational process in the higher education system and the development of general professional competencies of students.

Дунёда шиддат билан одимлаб бораётган глобаллашув жараёни, давлат ва жамиятнинг ривожланиши илм-фан, техника ва технологиялар соҳасида эришилган ютуқлар, олий таълим тизимида фаолият юритаётган илмий кадрлар салоҳияти, уларнинг келажак истиқболлари, ижодкорлиги ва ташууббускорлиги билан боғлиқлигини ижтимоий ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда. Бугунги кунда, айниқса, таълим соҳасида ёшларимизнинг замонавий таълим олиши, миллий-маънавий қадриятларимизни чуқур ўрганиши, турли соҳаларда илмий тадқиқот ишларини олиб бориши, жаҳон тажрибаларини ўрганиши, хорижий илғор тажрибаларни амалиётга татбиқ этиши, замонавий илм ва техниканинг чўккиларига эришиши учун тўлиқ шароитлар яратилмоқда.

Бугунги кунда олий педагогик таълим муассасаларининг таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, таълимнинг илм-фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциясининг таъсирчан механизмларини ишлаб чиқиш, шунингдек амалиётга жорий этиш, ўз-ўзини тарбиялаш, индивидуаллаштириш ҳамда масофадан ўқитиш тизими билан боғлиқ воситаларини ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш, инновацион педагогик ва ахборот

⁸⁹ Дилдор Нумонова. Баркамол авлодни тарбиялашда таълим-тарбиянинг роли.- Т.: Алишер Навоий, 2014.117-бет.

технологиялари, тайёргарликнинг модул тизимидан фойдаланган ҳолда талабаларни таълим олишга йўналтиришни фаоллаштириш, халқнинг бой маънавий ва интеллектуал мероси, умуминсоний қадриятлар асосида таълимнинг инсонпарварликка йўналганлигини таъминлаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Олий педагогик таълим муассасаси талабаларининг инновацион, адаптацион шароитда ишлашени, тез ўзгарувчан шароитларга нисбатан қайишқоқ бўлишни замоннинг ўзи талаб этмоқда. Шу боис ҳам олий педагогик таълим муассасалари ўқув-тарбиявий жараёнида талабаларнинг умумқасбий компетенциясини замон талабларига жавоб бера оладиган даражада ривожлантириш, таълимни тубдан ислоҳ қилиш, мазкур тизимни янги сифат босқичига кўтариш давлатимизда олиб борилаётган таълим соҳасига қўйилган муҳим шартлардан саналади.

Олий таълим тизимида таълим-тарбия жараёнига компетенциявий ёндашувнинг янгилиги қуйидагилар билан асосланади:

- касбий тарбиянинг ўзига хослиги;
- тарбия назарияси ва амалиётида стереотиплардан воз кечиш;
- олий таълимнинг ўқув, аудиториядан ташқари, ижтимоий фаолияти тизимли таълим-тарбиянинг хилма-хил объект ва субъектларини яратиш;
- таълим-тарбиянинг анъанавий шакллари ва инновацион лойиҳавий технологияларни уйғунлаштириш;
- медиа воситалар ва технологиялардан максимал даражада фойдаланиш;
- натижавийлик кўрсаткичлари (компетенциялар) мажмуини ишлаб чиқиш ва уларни ҳар бир таълим олувчининг амалий фаолиятига татбиқ этиш.

Инсон ўз ҳаётида шахсий, ижтимоий, иқтисодий ва касбий муносабатларга киришиши, жамиятда ўз ўрнини эгаллаши, дуч келадиган муаммолар ечимини ҳал этиши, энг муҳими, ўз соҳаси, касби бўйича рақобатбардош бўлиши учун зарур бўлган таянч компетенцияларга эга бўлиши лозим.

Педагогик таълимда компетенцияларга асосланган ёндашувни амалга ошириш унинг асосий мақсадига эришишига кўмаклашади, бу – меҳнат бозорида рақобатбардош, ўз касбининг асосларини ва ёндош фаолият соҳаларини яхши биладиган, ўз мутахассислиги бўйича жаҳон стандартлари даражасида самарали ишлашга қодир, доимий касбий ва маънавий ўсишга, ижтимоий ва касбий ҳаракатчанликка тайёр малакали, ахлокли мутахассисларни тайёрлашга ёрдам беради.

Турли мезонлар асосида педагогика фанида таълим жараёнида **бўлажак ўқитувчиларда шакллантирилиши лозим бўлган асосий таянч компетенциялар** сифатида қуйидагилар санаб ўтилган:

- **Ҳаёт мазмуни ва қадриятларга доир компетенциялар.** Бу - умумий дунёқараш, ҳаётий мақсадларни тўғри шакллантириш, жамиятда ўз ўрнини топишга интилиш, онгли қарорлар қабул қилиш кабилар;
- **Умуммаданий компетенциялар.** Миллий ва умуминсоний маданият ҳақида тушунчага эга бўлиш, инсон ҳаётининг маънавий-ахлоқий асосларини билиш, ижтимоий ҳодисаларни, оилавий муносабатлар кўникмалари, фан ва диннинг инсон ҳаётидаги ўрнини англаш, маиший ҳаётга доир билимларни эгаллаш;
- **Ўқув жараёнига оид компетенциялар.** Шахснинг ўқиб-ўрганишга доир билимлари, мақсадни шакллантириш, режалаштириш, таҳлил, рефлексия, ностандарт вазиятларда ҳаракат қила олиш, мустақил билим эгаллаш, муаммоларни ечишнинг эвристик усулларидан воқиф бўлиш;
- **Ахборотлар билан ишлаш компетенцияси.** Замонавий инфорацион технологиялар ёрдамида керакли ахборотни мустақил излаш, топа олиш, таҳлил қилиш, маълумотларни сақлаш ва етказиш;

➤ **Коммуникатив компетенциялар.** Коммуникабеллик, мулоқотга тез киришувчан бўлиш, бир нечта тилларни эгаллаш, кичик ижтимоий гуруҳларда ишлаш, мулоқот ўрнатиш, мунозарада иштирок этиш, диалог кура олиш, турли ижтимоий ролларни бажара олиш;

➤ **Ижтимоий меҳнатга доир компетенциялар.** Ижтимоий ҳаёт ва меҳнат фаолиятига доир кўникмалар, жамият манфаати йўлида меҳнат қилиш, касб танлаш, касбий билим ва малакаларни тинимсиз ривожлантириш кўникмалари;

➤ **Шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш.** Ўзини жисмоний, эмоционал, маънавий ва интеллектуал ривожлантириш, муттасил илм ўрганиш, замонавий ҳаёт учун зарур бўлган ахлоқий ва ақлий билимларни эгаллаш, шахсий гигиенага риоя қилиш, ўз соғлиги ҳақида қайғуриш, тиббий маданият, шахс экологияси ҳамда ҳаёт ҳавфсизлиги асосларини билиш.⁹⁰

Таълим жараёнида талабаларда шакллантирилиши лозим бўлган таянч компетенциялар ҳар бир фан доирасида предметга оид компетенцияларни шакллантириш билан параллел равишда олиб борилиши мақсадга мувофиқдир.

Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим талабаларда мустақил тафаккур, фаол фуқаролик позицияси, ташаббускорлик, медиаресурслардан ўз фаолиятида оқилона фойдаланиш, соғлом рақобат ҳамда толерантликни шакллантиради ҳамда маънавий-ахлоқий, жисмоний, ақлий ҳислатларни камол топтиришга, жумладан, эзгуликни ҳимоя қилиш, тез ўзгарувчан, мураккаб дунёда ўз ўрнини топиш, алтруизм, дунёвий муаммоларни англаш, тўғри қарорлар қабул қила олиш, зарурий ҳаётий кўникмаларни эгаллаш, ўз хатти-ҳаракатлари, қарорлари учун жавобгарлик ҳисси, шахсий имкониятларини рўёбга чиқариш, ахборотларни қабул қилиш ва ажрата олиш, абстракт, ижодий, мантиқий тасаввурни кенгайтиришга хизмат қилади.

Жумладан, “Узлуксиз маънавий тарбия Концепцияси”да олий таълим муассасаларида талабаларни маънавий-ахлоқий тамойиллар асосида тарбиялашда инobatга олиниши лозим бўлган жиҳатлар сифатида қуйидагилар алоҳида ажратиб кўрсатилган:

ижтимоий-гуманитар фанлар, маънавий-маърифий тадбирлар орқали ўқувчи-ёшларда маънавий тарбия индикаторлари ва компетенцияларини шакллантиришга хизмат қилувчи билим, кўникма ва малакаларни таълим-тарбия мазмунига сингдириш ва уларни амалиётда қўллай олиш имконини берувчи амалий машқ, топшириқ ва педагогик вазиятлар билан бойитиш;

ўқувчи-ёшларда замонавий билимларни эгаллаш, медиа маданиятни ривожлантириш, илғор педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш, хорижий давлатлардаги илғор тажрибаларни ўрганишни рағбатлантириш;

касбий-маънавий кўникмаларни мустаҳкамлаш, ўзини-ўзи тарбиялашга ўргатиш; фаол фуқаролик позициясини кучайтириш;

илмий, маънавий-ахлоқий, сиёсий дунёқараш ва соғлом диний эътиқодни шакллантириш;

бахтли оилавий ҳаёт, фарзанд тарбияси учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш;

келажакка ишонч ва мамлакатда амалга оширилаётган ислохотларга дахлдорлик туйғусини кучайтириш.⁹¹

Айтиш ўринлики, олий педагогик таълим муассасаси талабаларининг умумкасбий

⁹⁰ <http://idum.uz/uz/archives/8179>

⁹¹ Узлуксиз маънавий тарбия Концепцияси. / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори

компетенциясини ривожлантириш бевосита таълим-тарбия жараёнини оқилона лойиҳалаш, технологик харитасини тузишнинг назарий методологик асосларини билишни ҳам тақозо қилади.

Замонавий шароитда компетенциявий илмий ёндашув касбий-педагогик таълимнинг замонавий талабларига жавоб берувчи инновацион тавсифга эга бўлиб, янги авлод фуқароларини шакллантиришда таълим ва тарбиянинг ролини оширишга хизмат қилади. Компетенциявий ёндашувни амалга оширишнинг моҳияти таълимни модернизациялашда (таълим ва тарбиянинг ўзаро биргаликдаги ҳаракати), унинг сифат жиҳатидан ўзгариши, тарбиянинг устувор йўналиши сифатида янги инсоний кадриятлар тизимини яратишда яққол намоён бўлади.

Олий таълим муассасаси талабаларининг умумкасбий компетенцияларини шакллантириш жараёнининг ўзига хосликларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- талабалар томонидан ҳар бир касб соҳиби бўлмиш фуқаро учун зарур бўлган умумкасбий (универсал) компетенцияларнинг айнан уйғунликда эгалланиши ва уларнинг шахс учун аҳамиятли янги фазилатларга айланиши;
- аудиторияда ва аудиториядан ташқари фаолиятнинг турли шаклларида (ўқув, ижодий, тадқиқий, амалий касбий йўналишдаги ёки ўхшаш соҳаларда) назарий билим кўникмалар, бўлғуси касбга ижобий мотивациянинг қарор топиши, мустаҳкамланиши;
- касбий аҳамиятга йўналтирилган фаолиятда (касбий, таълимий, ижтимоий, юридик, иқтисодий, ахборот ва ҳақозо) компетенцияларнинг ихтиёрий-индивидуал (талабанинг ёши, ҳаётининг ва иш тажрибаси, шахсий, жисмоний, ақлий, руҳий қобилиятлари ва имкониятлари инобатга олинган ҳолда) ўзлаштирилиши;
- муайян фаолият тури, шакли субъекти – талабанинг асосий фаол ижодий позицияси;
- компетенциялар шаклланиши натижаларининг кўргазмалилиги, ўзгариб бориши; шахс учун аҳамиятли муҳим сифат (устуворлик) ва миқдорий (ижтимоий, маданий) кўрсаткичларнинг уйғунлиги;
- талабалар ва ўқитувчиларнинг ҳаётининг фаолияти, уларнинг ҳамкорлик доираси – муҳити;
- амалиётнинг янги эҳтиёжларига оператив муносабатни қарор топтириш.⁹²

Умумкасбий компетенцияларнинг шаклланганлиги сифат кўрсаткичлари талабаларнинг аудиториядан ташқари мустақил (касбий, кўп қиррали меҳнат, ижтимоий) фаолиятида уларнинг янги сифатлари: мустақиллик, ижодкорлик, касбий етуклик, маъсулиятлилик кабиларда намоён бўлади ва уларни талабанинг ўзи, тенгдошлари, ўқитувчиларига кузатиш имконини тақдим этади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, олий педагогик таълим муассасалари ўқув-тарбиявий жараёнини бошқариш ҳамда лойиҳалаш орқали талабалар умумкасбий компетенцияларини ривожлантиришнинг шакл, метод ва воситаларини билиш, ўзлаштириш, амалда қўллаш, талабанинг индивидуал касбий-педагогик фаолият натижаларини квалиметрик таҳлил қила олиш, илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш долзарблик акс эттиради.

⁹² Санаева С.Б. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак педагогларни тарбиявий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Самарқанд, дисс. 2020.

РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНИДА ИНФОРМАЦИОН ЭТИКАНИНГ АҲАМИЯТИ

Тилавова У.Қ-НавДПИ, Ўзбекистон

Resume: This article discusses the importance of information ethics in the process of spiritual and moral change in today's digital society. As well as features related to the formation of information ethics in young people.

Бугун жаҳон мамлакатларининг барча соҳаларида рақамли технологиялардан фойдаланиш кўлами шиддат билан ривожланмоқда. Ҳаттоки, бугун жамиятларнинг тараққий этиш кўрсаткичи унинг тармоқларида рақамли технологияларнинг қай даражада жорий этилганлиги даражаси билан белгиланаётганлиги айна ҳақиқатдир. Пировардида, бундай жамиятларда аҳоли турмуш тарзи фаолиятининг осонлашуви, ижтимоий ва касбий муносабатларда аниқлик ва тезкорликнинг ошиши кузатилмоқда.

Дунё илм-фанида, эндиликда, рақамли технологияга асосланган замонавий жамиятларда ахлоқнинг янги таҳдидларини ижтимоий-фалсафий таҳлил этиш зарурати пайдо бўлди. Чунки, техника ва технологияга асосланган тараққиёт дунёнинг шаклини ўзгартириши билан бирга, уни сифат жиҳатдан ҳам янги босқичга олиб чиқди. Натижада, бу жараёнда нафақат ижтимоий-иқтисодий ва маданий меъёрларнинг ўзгариши, балки ахборотлаштириш туфайли инсоннинг тафаккури, унинг маънавий-ахлоқий талаблари ҳам ўзгариши кузатилмоқда. Бу эса, инсон билан боғлиқ бир қанча мунозарали масалаларни вужудга келтирмоқда. Бир томондан, замонавий жамиятнинг аъзоси ҳар қандай соҳада билимнинг янги қирраларини очиш йўлида инфорацион технологиялардан фойдаланган ҳолда, ўзининг ижодий салоҳиятини сафарбар этиб, янги ва чексиз ахборот манбаларини истеъмолчиларга тақдим этишга ҳаракат қилади. Бошқа томондан эса, бундай ахборот технологиялари инсоннинг маълум маънода ҳаёт мазмунини белгилаб берувчи асосий ахлоқий кадриятлари тизимини ҳам секинлик билан ўзгартира бошлайди. Шунинг учун, ҳозирги тезкор замонда рўй бераётган ҳар қандай салбий ўзгаришларга бардош бера оладиган янги маънавий-ахлоқий императивлар ва кадриятлар тизимини шакллантириш билан боғлиқ Информацион этика масаласини ўрганиш илмий-амалий аҳамиятга эга.

Мамлакатимизда, глобал ахборот майдонининг иштирокчиси сифатида, инфорацион этикани янада ривожлантириш, шунингдек, уни амалий жиҳатдан бойитиши мумкин бўлган воситаларни янада такомиллаштиришнинг янги усуллари ва ёндашувларини яратиш, энг муҳими, бугунги инфорацион жамиятнинг замонавий қиёфага эга бўлган аъзосига оқилона ахлоқий инфорацион фаолият юритиши учун ёрдам бериш заруратга айланди. Зотан, “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради. Зеро, бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари чуқур кириб бормоқда. Давлат ва жамият бошқаруви, ижтимоий соҳада ҳам рақамли технологияларни кенг жорий этиб, натижадорликни ошириш, бир сўз билан айтганда, одамлар турмушини кескин яхшилаш мумкин.”⁹³ Шу нуқтаи-назардан, инфорацион этикани фалсафий таҳлил қилиш эҳтиёжи вужудга келади, зеро, бу тушунча бугунги кун ёшларининг маънавий-ахлоқий қиёфасини шакллантиришда муҳим бўлган омил сифатида ўрганишни талаб этади. Хусусан:

Биринчидан, бугунги шиддатли замонда рақамли жамиятнинг янгича қиёфаси вужудга келди, бу эса унинг аъзоларидан ҳам маълум ўзгаришларни талаб этиши таббий, албатта. Лекин бу ўзгариш, инсонларнинг, айниқса, ёшларнинг маънавияти, ахлоқий дунёқараши билан боғлиқлиги масаланинг эътибор талаб этадиган жиҳатидир. Шу нуқтаи-

⁹³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 26 январь 2020

назардан қараганда, бу жараёнда ёшларнинг маънавий-ахлоқий қиёфасини шакллантирувчи муҳим омиллардан бири сифатида инфор­мацион этикани илмий-назарий ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

Иккинчидан, ҳозирда инфор­мацион фаолиятнинг асосий субъекти ҳисобланган ёшлар ўзини қизиқтирган масалаларда ота-она ёки устоз-мураббийга эмас, балки ҳақиқатлар билан бир қаторда уйдирмалар макони ҳисобланган Интернет тармоқларига му­рожаат қилаётганликлари айни ҳақиқатдир. Ҳаттоки, бугун ёшларимизни Интернет, телефон тарбияла­япти, десак муболаға бўлмайди. Бу эса дунёқарашида танқидий-тахлилий тафаккурнинг етишмаслиги нати­жасида оқ-қорани таниш кўникмасининг тўла шаклланмаганлиги, асл қадрият намуналарини тўғри баҳолай олмаганлиги оқибатида маълум зиддиятларни келтириб чиқармоқда. Бу борада уларга тўғри йўл кўрсатувчи омил сифатида Инфор­мацион этикани тадқиқ этиш ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан муҳим ҳисобланади.

Бугунги кунда ахборот технологиялари жамиятнинг барча соҳаларига чуқур кириб бормоқдаки, натижада янги интеллектуал маҳсулотлар яратилмоқда, ахборот эса инсониятнинг асосий глобал ресурсига айланмоқда. Жамиятда амалга оширилаётган рақамлаштириш жараёнлари ижтимоий муносабатлар субъектининг шахсий қарама-қарши хусусиятларини шакллантиришга нисбатан намоён бўлади. Бир томондан, сўнги ахборот технологияларига асосланган ижтимоий-маданий алоқа ва ахборот тармоқларига киритилган маълумотлардан эркин фойдаланиш шароитида инсон ўзини ўзи англаш ва ижодий қобилиятларини намоён этиш учун чексиз имкониятларга эга. Бошқа томондан, мазкур жараён ахборот технологияларининг шахс хулқ-атвор стереотиплари, қадрият йўналишлари, умуман ҳаёт тарзининг шаклланишига тажовузкор таъсирини кучайтиради, бунинг натижасида инсоннинг жамиятдан узоқлашуви кучайиши кўзга ташланади. Шу нуқтаи назардан, ахборот жамиятида ян­гича қиёфага эга бўлган шахсни ўрганиш, унинг маънавий-ахлоқий қадриятларини ахборотлаштириш жараёнлари билан мувофиқлаштиришнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш алоҳида аҳамиятга эга.

САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИНING МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

М.Х.Норқобилов –

Навоий давлат педагогика институти мустақил тадқиқотчиси

Дунё халқлари ижтимоий-маърифий ва ахлоқий қиёфасининг шаклланишида ўзларининг муносиб ҳиссини қўшган Марказий Осиёлик мутафаккирларнинг маънавий мероси ҳамда салоҳияти сабабидан жаҳон илмий жамоатчилиги халқимизга алоҳида эҳтиром кўрсатишади.

Ўзбекистон Республикасининг мустақилликка эришиши илмий билимларни ўрганишга, хусусан, фалсафа, тарих, маданият, дин, миллий урф-одатлар ва қадриятларимизни қайта тиклаш, муайян даврга нисбатан тўғри ва холис муносабатни шакллантириш, уларни ҳозирги замон нуқтаи назаридан туриб баҳолаш ва хулоса чиқариш, пировардида, илм-фан тараққиётидаги ижтимоий воқеликни англаш имкониятини берди. Бу эса, «буюк адиб ва мутафаккирларимизнинг нодир мероси, ибратли ҳаёти ва ижтимоий фаолиятини ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва тарғиб этиш, ёшларимизни ўзликни англаш, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳур­мат руҳида тарбиялаш зарур»⁹⁴ эканлигини ҳис этиш, халқимиз тафаккурида ҳамда тарихий жараёнда

⁹⁴ Мирзиёев Ш. “Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори //Халқ сўзи. 2018 йил,

рўй берган ҳодисаларни тўғри ва холис баҳолай олиш қобилиятининг юксалганлигидан далолат беради.

Амир Темур марказлашган давлат тепасига келиши биланок, Самарқанд шаҳридаги илм масканларида ўзининг тасарруфида бўлган вилоятлардан машҳур олиму-фузало, хунарманд ва маънавият вакилларида иборат бўлган маърифий жамоани шаклланишида саъй-ҳаракатлар олиб борган.



Самарқандга келган олимларга илм билан шуғулланишлари учун барча имконият ва қулайликлар яратилган эди. Саройда Амир Темур ташаббуси билан ташкил этилган илмий мунозара ва баҳсларда иштирок этиб, ғолиб чиққан олим ҳамда бошқа ижод ахиллари мунтазам рағбатлантирилиб борилган. Қолаверса, ташкил этилган илмий баҳсларда салоҳияти юқори бўлган олимлар янги очилган билим даргоҳларига таълим бериш учун мударрис сифатида юборилган.

Илм-фанга, маърифатга бўлган юксак эътибор боис, ўша даврдаги кўпгина олимлар Самарқандга бориб, ижодий фаолият билан шуғулланишни ўзлари учун шараф деб билишган. Мазкур ижодий муҳитда юзага келган омилларнинг барчаси ҳар қандай зиёга интилган инсонда илм эгаллашга бўлган иштиёқнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Оқибатда эса, «Самарқанд заминида фаолият кўрсатган Балхий ва Дамашкий, Бағдодий ва Марвазий, Тафтазоний ва Журжоний, Жазарий ва Шомий каби юзлаб мутафаккирларнинг номлари»⁹⁵ тарих сарварақларидан муносиб ўрин эгаллади.

Мутафаккирнинг ёшлигиданоқ илм олишга бўлган иштиёқи, қолаверса, илму-урфон тараққий этган ўрта аср марказий шаҳарларидаги илмий давралар, Тафтазоний илмий дунёқарашининг эрта шаклланишига сабаб бўлди. Хусусан, «ўз даврининг илм марказлари бўлган Самарқанд, Бухоро, Хоразм ва Сарахс каби шаҳарларда таниқли олимлардан таҳсил олиб, турли илмий мунозараларда иштирок этган»⁹⁶лиги Тафтазонийнинг илм ва ижод саҳнасига қўйган дастлабки қадамлари эди. Мазкур

12-май. <https://xs.uz/uzkr/post/buyuk-allomalar-adib-va-mutafakkirlarimiz-izhodij-merosini-keng-organish-va-targib-qilish-maqsadida-yoshlar-ortasida-kitobkhonlik-tanlovlarin-tashkil-etish-togrisida>

⁹⁵ Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигига бағишланган тантанли маросимда сўзлаган нутқи. 25.08.2007 йил. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ubaydulla-uvatov-alloma-taftazoniy-samarqandda>

⁹⁶ Юртимиз алломалари. -Т. Ниҳол нашриёти. 2014.-6.209.

ижтимоий воқелик ва муҳит сабабидан у илмнинг жуда кўп тармоқларида замонасининг пешқадамларидан бўлганлиги тарихий манбаларда қайд этилган.

Хусусан, ўзини мутакаллимларданлигини эътироф этган Саъдуддин Тафтазоний ҳаёти ва илмий фаолиятида диққатга сазовор жиҳатлар тўғрисида қуйидагиларни таъкидлаш ўринли деб ҳисоблаймиз.

Мутафаккир асарларида илгари сурилган ижтимоий-фалсафий ва маънавий-маърифий мавзудаги ғоялар қуйидагилардан иборат:

- Инсондаги ихтиёр эркинлиги ва ахлоқий меъёрлар таснифи;
- Холиқ ва махлуқлик муносабатлари, яъни Яратувчининг яратилмишлар тақдири хусусидаги қазо ва қадар масалалари;
- Билиш назариясида ақл ва ҳиссиётнинг диалектик бирлиги;
- Оламнинг илмий манзарасини яратишда онтологик ёндашув;
- Нақлий билимлар амалиётида рационал тафаккурнинг ўрни.

Тафтазонийнинг ёшлигиданоқ илмга бўлган рағбати боис, у ислом оламидаги энг ёш олимлар қаторидан ўрин эгаллади. Юқорида таъкидлаганимиз каби, мутафаккир 1338 йилда, айна ўспиринлик чоғида – 16 ёшидаёқ, «Шарҳ ат-тасриф ал-иззий» номли асарини ёзиб тугатган. Маълумотларга қараганда, «унинг илмий-маънавий меросига оид асарларининг сони 30 та»⁹⁷ни ташкил этади. Афсуски, мутафаккирнинг бизгача етиб келган асарларининг аксарияти форс ва араб тилларида ёзилган. Ҳалича ўзбек тилига тўлалигича таржима қилинмаган, чуқур тадқиқот ишлари олиб борилмаган, лекин ўйлаймизки, яқин йилларда бу иш амалга оширилади ва халқимизга тақдим қилиниб, маънавий меросдан баҳраманд бўлади. Бу соҳада олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларининг тараққиётига самарали ҳисса қўшади.

Мутафаккирнинг ижод жараёни билан боғлиқ маълумотларда келтирилишича, 1389 йилнинг охирида Тафтазоний ва Саид Шариф Журжоний ўртасида илмий мунозара бўлиб ўтади. Ўрта асар манбаларида машҳур бўлган мазкур илмий мунозара аксарият тарихчиларнинг асарларида баён этилган. Қуръони карим Бақара сурасининг дастлабки оятлари бўлган «Улаика ала ҳудам мир Роббиҳим», яъни, «Айнан улар Парвардигорлари томонидан (ато этилган) ҳидоят узра (барқарор)дирлар»⁹⁸ «мазмунидаги Қуръон жумлалари мунозаранинг асосий мавзуси бўлган. Аксарият тарихий манбаларда тафсилотлари келтирилган ва 1389 йилнинг қиш ойларида бўлиб ўтган мазкур мунозарага Нуъмуниддин Хоразмий исмли шахс ҳакамлик қилганлиги айтилади. Ушбу тарихий воқеа йиллар ўтсада, кейинги давр илмий давраларнинг эътибор марказида бўлган. Саъдуддин Тафтазоний ва Саид Шариф Журжоний ўртасидаги мазкур илмий дискурсни хулосавий қисмида сўзга чиққан Амир Темур: «агар уларнинг билимларини тенг деб ҳисобланганда ҳам, Саид Шариф исми улуғдир»⁹⁹, -дея Журжонийнинг ғалабасини эълон қилади. Манбаларда илмий мунозаранинг хулосавий қисмидан қаттиқ таъсирланган Тафтазоний 1390 йил 10 январиди вафот этганлиги айтилган.

Икки буюк мутафаккирнинг илмий баҳси Хофиз Таниш Бухорийнинг «Абдуллонома»¹⁰⁰ асарида ҳам юксак савияда баён этилган. Тадқиқотда давомида маълум бўлдики, муаллиф «Абдуллонома» асарида илмий мунозара иштирокчиларидан бири бўлган Мирзажон Шерозий ҳаёти орқали Тафтазоний ижтимоий қиёфасини шакллантиришни мақсад қилган.

Қолаверса, жадидлардан Аҳмад Заки Валидий Туркистонга илк бор ташриф

⁹⁷ Буюк юрт алломалари. Т. О‘zbekiston. 2018. –Б. 223

⁹⁸ Тарихимон ва изоҳлар муаллифи: Абдулазиз Мансур. Қуръони карим *маънолари таржимаси*. Бақара сураси, 5-оят. –Б.4. www.ziyouz.com кутубхонаси

⁹⁹ Муминзода Н. Логические основания теологии Са‘дуддин Тафтазани. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. Душанбе. 2020. –С.30

¹⁰⁰ Хофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома (Шарафномаи шохий). Иккинчи китоб. Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов таржимаси. Изоҳлар муаллифи: Б.Ахмедов. Т.: “Шарқ”.2000. -Б.139.

буюрганда унга Тафтазоний ва Саид Шариф Журжоний ўртасидаги илмий мунозарага оид китобни совға қилинганлиги ҳамда мазкур китоб Заки Ваалидий учун жуда кадрли эканлигини айтиб ўтади. Бундан маълум бўладики, калом фалсафасига вакилларининг ижтимоий қарашларига ижобий муносабатда бўлган «Аҳмад Заки Валидий ... Садиддин Тафтазоний билан Сайид Шариф Журжонийнинг мунозаралари»¹⁰¹ни юксак иштиёқ билан илмий тадқиқ қилган.

Мутафаккир асарларини тадқиқ қилиш натижасида ҳаётий хулоса чиқарган илм-фан намоёндалари тўғрисида гап борганда шуни айтиш жоизки, Шарқ алломалари орасида Тафтазонийнинг илмий меросидан таъсирланган ва ўзларининг келажакдаги ижтимоий-маънавий қиёфасини ҳамда ҳаёт йўлини яратган мутафаккирлар сон жиҳатдан талайгина. Хусусан, тарихчи олим Е.Э.Бертельс ўз тадқиқотларида форс-тожик адабиётининг буюк мумтоз шоири «Абдурахмон Жомий шеърят ва нутқ санъатини Саъдуддин Тафтазоний асарларидан ўрганган»¹⁰²лигини таъкидлайди.

Тадқиқотлар натижасида маълум бўлдики, Абдурахмон Жомий Тафтазонийнинг «Мухтасар ал-маъоний», «Мутававал» номли филологик мавзусидаги асарларидан таъсирланиб, тил ва нутқ соҳаларига қизиқиши ортиб боради. Шунингдек, Абдурахмон Жомий Тафтазонийнинг энг иқтидорли шогирларидан бири – «Шаҳобиддан Мухаммад Жожармий»¹⁰³дан морфология ва грамматика фанларидан таълим олганлиги, мутафаккир Тафтазонийнинг тил, адабиёт, шеърят, нутқ соҳасидаги билимлари ҳам юқори савияда шаклланганлигидан далолат беради. Тафтазоний ижтимоий-фалсафий ғоялари, маънавий-маърифий мулоҳазалари ва умуман олганда унинг илмий мероси, иқтидорли шогирдлари томонидан чуқур илмий изланишлар асосида давом эттирилди.

Хулоса қилиш мумкинки, Тафтазоний илк ислом фалсафаси ҳисобланган калом илми назарияси ва амалиётига мантикий хулосаларни тадбиқ этди. Илоҳиётшунослик тармоғининг ривожини йўлида рационал қарашларини тақдим этди. Мутафаккир тафаккурида умуминсоний кадрят ҳисобланган илмга интилиш, ақлни улуғлаш, оламни англаш, ахлоқий камолотга эришув, ижтимоий адолат каби ғоялари барча асарларида бирламчи омил сифатида илгари сурилган. Бу ғоялар Тафтазоний асарларининг бош мавзусини ташкил этади. Шунинг учун буюк мутафаккирнинг асарларини тадқиқ ва таҳлил қилиш бугунги кунда тадқиқотчилар олдида турган долзарб масала бўлиб қолмоқда.

РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗМА ПОДРОСТКОВ И ЕЁ КОРРЕКЦИЯ В ПРОЦЕССЕ ФИЗКУЛЬТУРНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ

доц.Нуруллаев А.К., к.п.н., доц. Я.Ч.Даниева,
ст.преп. Ахмедова С.А., преп.Туробов А.Х., НавГПИ, Узбекистан

Abstract: *the article discusses the development of a model of the state of the body of adolescents and its correction in the process of physical culture and wellness classes.*

Key words: *organism, occupation, physical culture, physical education, pedagogy, science, health.*

В последние годы появилось много данных о недостаточности функциональных возможностей, двигательных способностей и в резком ухудшении здоровья молодежи нашей страны. К настоящему времени проблема поиска оптимальной системы

¹⁰¹ Хўжаев М.И. Аҳмад Заки Валидийнинг диний-фалсафий таълимоти. 09.00.03 – Фалсафа тарихи. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.: 2019. –Б.17

¹⁰² Ўзбекистонда ижтимоий фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. Т. Ўзбекистон. 1995 йил. 132-бет.

¹⁰³ Гафурова З.А. Этическое учение Абдурахмана Джами. Диссертация. Специальность: 09.00.03 – История философии. Душанбе – 2019. –С.62.

педагогических воздействий, способных осуществлять укрепление, развитие и совершенствование общей физической культуры занимающихся в учебно-тренировочном процессе остается нерешенной, что обуславливает ее актуальность, представляет теоретический и практический интерес. Педагогическая коррекция физической и оздоровительной направленности учащихся средствами единоборств заключаются в разработке модели состояния организма подростков и её коррекции в процессе занятий, в разработке специальных программ, модулей, в методическом подходе к оценке коррекции ценностных ориентаций, а также в научном обосновании методики личностно - ориентированного подхода, учитывающего индивидуальные особенности и уровень гармоничности взглядов в поведении подростков, что вносит существенный вклад в теорию и методику общей педагогики и образования. (Х.И.Ибраимов, Ш.А.Абдуллаева, Н.О.Сафарова, Ф.А.Керимов, Т.С.Усмонхаджаев, Р.Д.Холмухаммедов, Ж.Акрамов, И.Турсуналиев, Д.Ж.Сафарова, К.Т.Шакиржаова, К.Д.Ярашов, Н.К.Светличная, Р.Маткаримов). Цель физического воспитания заключается в обеспечении такого уровня физического развития и физической подготовленности, которая способствует становлению и сохранению здоровья, успешному решению задач повседневной и спортивной жизни в усвоение учебной программы. Для повышения физической подготовленности занимающихся нужны новые методы и средства в области физического воспитания. Физическое воспитание учащихся, особенно в средних общеобразовательных школах в настоящее время привлекает внимание многих специалистов. Поэтому рациональная организация физического воспитания и использование нетрадиционных средств физического воспитания и спорта в целях укрепления здоровья и улучшение физических кондиций является актуальной задачей, как для теории, так и для практики физического воспитания. В этих условиях важно найти инновационные подходы, повышающие эффективность усвоения школьной программы без увеличения объема последней. Одним из таких методов в школьной программе могут быть средства единоборств. Внедрение единоборств в массовый спорт т.е. в физическую культуру создает благоприятные условия для развития интеллектуальных и двигательных качеств учащихся, возможность предупреждения опасной перегрузки учащихся, укрепления здоровья, все это и обуславливает её центральное место в системе физического воспитания общеобразовательной средней школы.

Стимуляция двигательной активности, сенсорных входов влияет на уровень активации коры больших полушарий через модулирующие системы мозга, фактически определяющий психофизическое состояние человека (Данилова Н.Н, 1998).

Воздействие различных режимов двигательной активности можно привести великое множество в повседневной жизни каждого человека. Например, ходьба, бег, плавание, единоборства, а также различные оздоровительные и спортивные программы, все они так или иначе воздействуют на организм занимающихся, изменяя его состояние. Спектральный состав этих воздействий необходимо контролировать и корректировать в зависимости от состояния организма занимающихся и уровня подготовленности.

В целом же стимуляцию ориентировочно-исследовательской активности можно рассматривать, не только как основу развития здорового образа жизни, но и как развитие творческого потенциала человека, но и как способ подавления депрессии, тревожности и агрессивности - основных факторов, препятствующих творческому самовыражению человека. Особенно эта методика хорошо развита в зарубежных странах и успешно применяется более чем в 200- учебных центрах и университетах США, Канады, Европы и Австралии. Разработанная программа показала высокую эффективность и за рубежом популярность этой методики стремительно растет, благодаря ее высокой эффективности, простоте, безопасности и безвредности для организма. В Узбекистане применяется лишь в элитных специализированных общеобразовательных школах на основе специальных

научных исследованиях, как основной метод физического развития. Традиционно принято считать, что средства физической регуляции и саморегуляции, направленные на формирование оптимального актуального состояния спортсмена делятся на три основные группы: 1) физические, 2) педагогические, 3) медико-биологические.

К первым относятся воздействия на двигательную сферу спортсмена преимущественно через мышечную релаксацию, а также специальных двигательных идеомоторных упражнений; сюда же относятся средства воздействий по принципу «биологической обратной связи». Ко второй - относятся средства саморегуляции, тренировки включающие релаксацию, визуализацию, варианты самовнушения - средства управления мотивацией спортсмена. К третьей формированию положительной самооценки у спортсменов вербальные воздействия тренера, а также упражнения с установками, реализующими у спортсмена оптимальное состояние боевой готовности. Нами была разработана программа единоборств в системе физического здоровья учащихся общеобразовательной средней школы. Программа для решения задач физической подготовки занимающихся включала в себя диагностику личностных характеристик учащихся, уровень физической подготовленности, а также позволяет определить устойчивость психических качеств, форму поведения, необходимую для сохранения имеющейся структуры мотивов или проявление темперамента в определенной социальной среде. Знание этих характеристик учащихся позволит найти возможные способы решения проблем физического воспитания вообще и лимитирующие результат, в частности. При оценке психофизиологических характеристик определяются разрешительные способности анализаторных систем, их устойчивость к различным сбивающим факторам и способность решать тактические задачи разного уровня. Согласно научной концепции российских специалистов высшей школы, при воздействии физических упражнений из единоборств происходит влияние не только на физическую, но и на психо-эмоциональную, духовную сферу человека (Бехтерева Н.П., Дронов А.А. Добровольская Т.А., Евсеенко, Ч.Т., Ильин В.И., Комисарова Л.Н., Кондратьев Ф.В., Левченко Л.Н., Медведева Е.А.). В педагогической среде появился такой термин, как «Атлетизм», т.е. красота тела, физическое и духовное здоровье, ценитель искусства. Идею о необходимости взаимодействия педагогики и психотерапии выдвинул немецкий психиатр А.Кронфельд. Исследования, проведенные Ч.Т. Иванковым, А.В. Сафошиным, Ю.Н. Тихомировым, С.А. Литвиновым показали, что использование единоборств как оздоровительного фактора вполне доступно для педагога. Назначение этого метода видится в обращении к сильным сторонам личности, во внутренней поддержке и восстановлении целостности личности. Педагогическое направление единоборств связано с укреплением психического здоровья учащихся, в выполнении коррекционных функций и имеет многоплановый характер.

Литература:

1. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании: Учеб. для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений /Е.А. Медведева, И.Ю. Левченко, Л.Н. Комисарова, Т.А. Добровольская. – М.: Изд. Центр «Академия», 2001.
2. Бехтерева Н.П. Нейрофизиологические аспекты психической деятельности человека. – Л: Медицина, 2004.
3. Евсеенко В.В. Факторы, влияющие на психическое здоровье учащихся / 1997.
4. Киселев М.Ю. Арттерапия: проблемы и перспективы. //Комплексная программа эстетического воспитания населения: пути разработки и реализации. Сборник научных трудов НИИ культуры. – М. 1990.
5. Кондратьев Ф.В. Социо-культурное влияние на содержание психопатологии //Соц. и клин. психиатр. 1994.
6. Лебедева Л.Д. Педагогические аспекты арттерапии. //Дидакт. - №1 (34). – 2010.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Мардонова Ф.Б., -и.о.доц.
НавГПИ. Узбекистан

Resume: This article tells about the use of information and digital educational resources in the educational process of modern school education.

Key words: information technology, educational resources, media resources, media and media technologies.

В век глобального информационного общества образование, знания, информация и коммуникация составляют основу развития и благополучия человеческой личности. Именно поэтому одним из приоритетных направлений информатизации общества является процесс информатизации образования, который предполагает широкое использование информационных технологий обучения.

Одной из главных задач школы – выпустить из своих стен гармонично развитую личность, которая не потеряется в информационном обществе. В современных условиях одной из главных задач образования является не просто получение учащимися определённой суммы знаний, а формирование у них умений и навыков самостоятельного приобретения знаний, их накопления и систематизации. Перед педагогами ставится новая задача: подготовить новое поколение к жизни в современных информационных условиях.

Современные школьники активно используют современные информационные технологии: гаджеты, сервисы Интернет, электронные учебники и т.д. Они воспитаны на аудио-видео продуктах, компьютерных играх и других элементах компьютерной культуры. Именно поэтому внедрение ИКТ, а в частности, мультимедийных технологий в структуру современного урока является одним из приоритетных направлений.

Именно поэтому необходимо использовать на уроках русского языка информационные технологии обучения. Задачи, стоящие перед учителем-словесником при применении ИКТ во многом отличаются от целей и задач других учителей-предметников. Учителю русского языка необходимо сформировать прочные орфографические и пунктуационные умения и навыки, обогатить словарный запас учащихся, научить их владеть нормами литературного языка.

Медиаобразование, как набор средств и методов обучения сегодня как никогда актуально, потому что в современном мире мультимедийные технологии занимают всё более значительное место, так как медиа-ресурсы, медиа-средства и медиа-технологии позволяют интегрировать и существенно обогатить возможности традиционных технических средств обучения и, тем самым, преобразить конструирование и проведение всех уроков. Поэтому вопрос внедрения их в структуру современного урока весьма актуален.

Работа учащихся в классе может быть организована:

- фронтально - просмотр видео фрагментов,
- индивидуально - выполнение практических работ,
- малыми группами - выполнение общего учебного проекта.

На уроках можно использовать готовые медиаресурсы, взятые из Интернета из коллекций ЦОРов. Цифровые образовательные ресурсы – это представленные в цифровой форме фотографии, видеофрагменты, статические и динамические модели, объекты виртуальной реальности и интерактивного моделирования, картографические материалы, звукозаписи, символные объекты и деловая графика, текстовые документы

и иные учебные материалы, необходимые для организации учебного процесса. ЦОР можно использовать:

- во время объяснения нового материала в качестве иллюстрации к рассказу (демонстрации);
- для закрепления нового материала с последующим устным опросом или работой с карточками;
- чтобы закрепить знания в процессе выполнения самостоятельной работы;
- чтобы проверить степень усвоения материала учащимися (с большой экономией времени);
- для домашних заданий, например, предложить ученику использовать информационные объекты в презентациях к сообщению (докладу, реферату, проекту);
- для того, чтобы научить учащихся извлекать необходимую информацию (справочные таблицы, схемы);

В наши дни огромный выбор ЦОР по русскому языку. Особое внимание заслуживают интерактивные тренажеры, с помощью которых происходит отработка умений и навыков, проверка знаний по отдельным частям урока, уроку целиком, теме. Результаты тестирования каждого обучающегося заносятся в дневник успеваемости и отслеживаются, что позволяет осуществлять в работе личностно-ориентированный подход.

Многие учителя на своих уроках используют мультимедийные презентации. Презентация даёт возможность учителю самостоятельно скомпоновать учебный материал, исходя из особенностей конкретного класса, темы, предмета, что позволяет построить урок так, чтобы добиться максимального учебного эффекта.

Используются презентации и на уроках русского языка, как электронное сопровождение урока, в которой могут быть отражены основные понятия, схемы, алгоритм применения орфографического или пунктуационного правила.

На уроках, посвященных жизни и творчеству писателя, истории создания произведения можно использовать видеофрагмент. Просматривая и прослушивая видеофрагмент, ученики должны записать основные моменты прослушанного. Некоторые важные моменты выделены в фильме. Их ребята также записывают. В Интернете есть готовые видеофрагменты, которые можно скачать или просмотреть прямо на уроке в режиме онлайн. Или же воспользоваться ссылками и гиперссылками среднесрочного планирования.

На уроках литературы можно предложить послушать произведения авторов русской литературы в исполнении мастеров художественного слова. Прослушивание таких аудиофайлов служит как эталонное прочтение, к которому следует стремиться.

Часто при изучении произведений осуществляются виртуальные заочные экскурсии по литературным местам как видео поддержку урока литературы. Используя авторские видеофильмы, ученики посещают Тарханы, Мелихово, пушкинскую Москву и другие места, связанные с именами русских писателей и поэтов.

В процессе обучения русскому языку учитель и ученик традиционно обращались и обращаются к различным источникам информации: энциклопедиям, словарям, справочникам, хрестоматиям и т.п. Основным её источником перестаёт быть традиционная библиотека, ей на смену пришли электронные словари, энциклопедии, базы данных, представленные в большом объёме не только на электронных носителях, но и в Интернете. Таким образом, при отборе учебного материала нужно соблюдать основные дидактические принципы: систематичности и последовательности, доступности, дифференцированного подхода, научности и др. При этом компьютер не заменяет учителя, а только дополняет его. Однако, как показала практика, используя

информационные технологии в учебном процессе, не стоит делать это эпизодически, бессистемно, иначе они не повлияют на результаты обучения.

Литература

1. Атабекова Е.П. Использование мультимедийных технологий на уроках русской литературы в 7 классе. Русский язык, литература, культура в школе и вузе, №5 (23) – 2008.
2. http://vio.fio.ru/vio_14/cd_site/Articles/art_1_7.htm
3. <http://ito.edu.ru/1998/2/KOROVKOV.html>
4. http://www.cavt.ru/proects/02/con_0209.shtml
5. http://www.psu.ru/news/2001/03/07_1.html

РАЗРАБОТКА ЭЛЕКТРОННОГО ПОСОБИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Казимова Г.Х.,-доцент., БухИТИ
Узбекистан

Abstract: This article describes the use of computer technology in teaching technical disciplines. The use of electronic teaching aids in the educational process contributes to the formation of research, search and independent activities of students. The article presents a developed electronic manual in the direction of "construction" in the lessons of the Russian language. The manual has an intuitive interface, easy navigation, tasks for student self-control.

Компьютерные технологии практически вошли во все области человеческой деятельности, в том числе в сферу образования. Обучение с использованием компьютерных технологий в настоящее время становится стандартом образования. Использование компьютерных технологий в преподавании технических дисциплин преобладает по сравнению с остальными дисциплинами.

Применение электронных учебных пособий в образовательном процессе способствует формированию научно-исследовательской, поисковой и самостоятельной деятельности студентов. [1]

Студенты, обучающиеся по техническим направлениям должны знать современные языки программирования. В настоящее время язык программирования является одним из самых рейтинговых языков. Он используется при выполнении студентами курсовых и выпускных квалификационных работ.

В данной статье представлено разработанное электронное пособие по направлению «строительство» на уроках русского языка . Пособие имеет интуитивно-понятный интерфейс, удобную навигацию, задания для самоконтроля обучаемого и т.п.

Структура электронного пособия выглядит следующим образом:

- теоретическая часть;
- самостоятельный практикум;
- тестирование;
- справочная часть;
- литература;
- глоссарий.

Теоретическая часть учебного пособия включает восемь глав по следующим темам:

1. Введение.
2. Основы строительства.
3. Классы. Объектно-ориентированное программирование.
4. Интерфейсы.
5. Делегаты, события.
6. Работа с потоками и файлами.
7. Сериализация.
8. Работа со строками.

Каждая глава включает несколько тем. Основной является следующие разделы: «Строительные материалы », «Железобетонные конструкции и изделия »,«Битумные и дегтевые вяжущие из пластмасс »,«строительные растворы », « Столярно- строительные изделия » и др..

В разделе «Тестовые задания» приведены тесты по всем главам. Тесты включают разные виды заданий: простой выбор - один правильный ответ из 4-6 ответов, сложный выбор из множества - два или три ответ из 6-10.

Контрольные вопросы приведены после каждой темы. Здесь также имеются задачи двух уровней для самостоятельного решения.

Раздел глоссарий содержит информацию по всем встречающимся в пособии терминам языка.

Пособие позволяет редактировать отображение текста в окнах. Для этого необходимо войти в меню «Вид», а потом в выпадающем списке выбрать пункт «Шрифт» либо «Масштаб текста».

Если выбрать пункт «Шрифт», то появляется выпадающий список, содержащий уже готовый набор часто используемых размеров шрифта, а также пункт «Настроить», вызывающий стандартное окно настройки шрифта, размера, начертания, цвета текста и видоизменения. [2]

При выборе пункта «Масштаб текста» можно изменять размер текста основного окна в процентном соотношении относительно используемого размера шрифта. Это же действие можно выполнить при помощи ползунка масштабирования, который расположен в нижней части окна пособия.

Для удобства работы в пособии предусмотрена возможность изменения размеров левого и правого окон.

Электронное учебное пособие может быть применено преподавателями при подготовке и проведении занятий по языкам программирования на уроках русского языка по всем техническим направлениям.

Использованная литература:

1. Хусаинов И.Г. Создание электронного учебного пособия по вычислительным сетям и системам // В сборнике: Информационно-телекоммуникационные системы и технологии материалы Всероссийской научно-практической конференции. 2017. - С. 194 - 19

2. Хейлсберг А., Торгерсен М., Вилтамут С. Язык программирования . Классика. Питер, 2015.- 784 с.

Электронные ресурсы

1.<https://ziyonet.uz>

2.<https://google.com>

МАХДУМИ АЪЗАМ ТАЪЛИМОТИДА ИНСОН ФАЛСАФАСИ

Зойиров Э.- доцент. Бухоро муҳандислик технологияси институти
Сирожова М.- магистрант. Бухоро муҳандислик технологияси институти,
Ўзбекистон

Resume: Maxdum Azam clarifies the issue : "Firstly, who is the human being? Why is it created? What is the purpose of creating it?" the body and soul. Maxdum Azam says that the human body has two types of souls. The first animal spirit is the second divine spirit. In his book *Risolai vujudiya*, Maxdum Azam emphasized the need for a constructive creator, such as the ability to solve human problems and to balance himself with the body and spirit, for the sake of the perfection of human comprehension.

Инсон барча фалсафий таълимотларнинг марказида турган тушунчадир. Инсон нимадан иборат? Инсон камолоти учун нима асосий деб файласуфлар қадимги даврдан баҳс юритадилар. Инсонни, бир томондан биологик мавжудот десалар, бошқа томондан биосоциал, учинчи томондан рухий, илохий мавжудот деб баҳо берганлар. Баъзи файласуфлар инсон камолоти учун асосий тана, жисмоний вужуддир деб, уни тарбиялашга эътибор берадилар. Бошқа тур файласуфлар танани умуман инкор этиб, инсон камолоти учун ёки ижтимоий муҳитни ёки руҳни асосий деб билладилар.

Нақшбандия таълимотини ривожлантирган ва уни назарий жиҳатдан маълум бир тизимга солган, қатор асарлар муаллифи бўлган Махдуми Аъзам ўзининг “Рисолаи вужудия” асарида бу масалага махсус эътибор берган.

Махдуми Аъзам аввало Инсон ким? Нега яралган? Уни яратишдан мақсад нима? каби масалаларни ёритиб, кейин тана ва руҳ алоқадорлигига тўхталаган.

Махдуми Аъзам инсон танасига икки хил руҳ борлигини айтади. Биринчи **хайвоний руҳ**, иккинчи **илохий руҳ**. Бу ҳақда манбада шундай ёзилган: “Дар дунё бача руҳи хайвониро дар ваҷ одам халқ кард ва ўро маркаби одам сохт. Одамро бар вай сарвар кард ва фиристодаш бар рўйи дунё то мулоҳаза кунад дар дунё. Бубинадқи дунё муносиби он аст, ки маҳбуби ҳақиқи дар вай жилва кунад, яъни баъзе жойҳоя, ки номуносиб бошад, яъни баланд – пасти дошта бошад муносиб созад”¹⁰⁴. Мазмуни: “Ҳақ таоло хайвоний руҳни одам учун яратди. Уни одамни маркаби (яъни, миниб юриш куроли) қилди. Одамни унга миндирди ва уни дунёга томон юборди токим, у мулоҳаза қилсинки, дунё ҳақиқий маҳбуб (Ҳақ) жилва қилишга арзийдими, қаерлар номуносиб бўлса паст - ми, баланд – ми уни тўғриласин”. Яъни инсон бу дунёдаги ишларни илохий сифатга мослаштириш учун яралаган. Бу ишларни бажариш учун унга маркаб, яъни миниб юриб, ундан фойдаланиш учун восита қилиб хайвоний руҳ яралаган.

Хайвоний руҳ маркабдир ва унинг сифати ейиш, ичишдир. Чунки, маркаб бировни кўтариб юриши учун ниманидир истеъмол қилиши лозим. Одам хайвоний руҳга миниб яхши ишларни амалга оширса **илохий руҳни** тажаллий этади ва сўз айтади.

Махдуми Аъзам ёзадики, “Канзо махфиё” ҳам шу маънодаки, Ҳақ айтадики, мен яширин хазина эдим. Истадимки бошқалар мени танисинлар. Шунинг учун халқни яратдим, токи мени танисинлар. Маълум бўладики, Ҳақнинг халқни яратишдан мақсади ўз жамолу жалолининг изҳоридир. Рисолада ёзиладики “Чун одамро фиристодем” берун жамоли хеш ба сахро ниҳодем. Ҳамчуноне, ки подшоҳони мажози вақте, ки хоҳанд, ки ба вилояте раванд, он шахро биёроянд ва чаҳорбоғҳо. Бад аз ин подшо биёяд ва худро жилва диҳад бар халқи он шахро диёр. Ҳамчунин Ҳақ субҳона ва таоло хост, ки худро дар дунё жилва диҳад аз **хоқ** таркиби ў сурате сохт ва он суратро одам ном ниҳад”¹⁰⁵. Мазмуни: “Одамни юбориб ўз жамолимизни сахрога чиқардик. Бу шунга ўхшайдики, мажозий

¹⁰⁴ Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йё вужудия. Қўлёзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан. -1в.

¹⁰⁵ Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йё вужудия. Қўлёзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан. -2 в.

подшоҳлар бирор вилоятга бормоқчи бўлсалар шаҳар ва боғларга оройиш берадилар. Шундан кейин подшоҳ ўзини ўша шаҳру диёрнинг халқига ўзини жилва этади. Худди шунингдек Ҳақ субҳона ва таоло бу оламда ўзини тажалли этмоқчи бўлди. Шунинг учун **тупроқдан** сурат ясади ва бу суратга одам деб ном қўйди.” Яъни, **одам асли илоҳий, танаси тупроқ ва ҳайвон руҳидан иборат**. Шундан кейин қуйидаги мисралар манбада келтирилган:

Сайёди азал, ки дона бар дом ниҳод,
Сайде биғирифту, одамаш ном ниҳод.
Ҳар некию бадие, ки меравад дар олам,
Худ мекунаду, баҳона бар он ниҳад ¹⁰⁶.

Мазмуни:

Азал овчиси домга донни қўйди,
Овни ушладию, унга одам деб ном қўйди.
Оламда нима яхшилик ва ёмонлик бўлса – гар,
Ўзи қиладию, уни баҳона сифатида қўйди.

Яъни, Ҳақ таоло ўз мақсад – муродига етиш, ўзини сиру асрорини жиллаш учун инсонга тупроқдан тана, танани ҳаракатланиши ва инсонга маркаб бўлиб хизмат қилиши учун ҳайвоний руҳ ва оламни илоҳийликка уйғун қилиш учун илоҳий руҳни киритди.

Инсон қалбини Ҳақ ўз тахтгоҳи ва иморати қилиб ясади. Ҳақ шу тахтни – инсон қалбига ўғирди. Ҳайвоний руҳни уни маркаби этди ва унга миниб юришни унга буюриб, дунёга юборди токи, ўзини дунёга жилва этса. Демак, инсон илоҳий хилқатдир ва у илоҳий Амр билан яралиб Оллоҳ жамол ва жалолени намойиш этиш ва уни билиш учун дунёга келган.

Асарда ёзиладики, Ҳақ таоло ўз арзини изҳор этганида, ер осмон ва тоғлар уни кўтаришга уялдилар. Фақатгина инсон Ҳақнинг бу омонатини сақлашга рози бўлди. Чунки, ҳайвоний руҳ унга маркаби қилиб берилган эди. Ейиш ва ухлашни бу маркаб сифати қилиб, одамга топширдилар, токи, у бу дунёда уни тарбият этсин. Токи у ҳақиқий подшоҳ (Ҳақ) суворийсига муносиб бўлсин. Дунёни унинг киштгоҳи – экинзорига айлантиради. Унинг арпа ва ўти каби овқатлари учун охур қилиб одамни яратди. Бирор бошқа мавжудотлар, одамдан ташқари бу шариф зотни кўтара олмадилар.

Махдуми Аъзам шунингдек, танани инсон камолоти учун восита деб ҳам қараган. Мутафаккир танани – вужуди мажози, фоний деб қарайди, лекин уни у керакли деб билади бўлмаса инсон юрмайди, ниятини амалга ошира олмайди. Дарҳақиқат, илм олиш учун мактаб, олийгоҳга ҳам бориш - келиш, бировга эзулик қилиб яхшилик қилиш, “Даст ба кор”ни амалга ошириш, “Хилват дар анжуман” учун ҳам тана **восита** сифатида зарур.

Демак, тана, бир томондан, восита, бошқа томондан маркаб, учинчи томондан ҳайвоний руҳ кириб олган махлуқот сифатида Махдуми Аъзам томонидан баҳо берилмоқда. Тана руҳ камолоти учун зарур деб, мутафаккир ёзади, мажозий подшоҳлар ўз тойчоқларига яхши қараш учун уни махсус кишиларга топшириб, егулик – ўт ва арпани тайёрлаб қўйганлари ва улар уни подшоҳга тайёрлаб қўйганлари каби тана ҳам инсонга шунинг учун берилади.

Ҳайвоний руҳ, ҳайвоний нафсни вужудга келтиради. Унга хос сифатлар – ейиш, ичиш, ётиш, шаҳвоний истакдир. Инсоний нафс –илоҳий руҳ асосида вужудга келади ва унга ибодат, эшитиш, кўриш калом айтиш кабилар хосдир.

Махдуми Аъзам инсоний руҳни одам эъзозлаши ва ҳар бир дамни қадрлаши лозим деб, қуйидаги мисраларни ёзган:

Сенга икки олам учун бир ўғит етарлидир,
Худосиз бўлган ҳар бир дамни ҳам ҳайда, йўқот.

¹⁰⁶ Ўша жойда. – 3в

Агар ҳозир (огоҳ) сен мўминсен,
Ғофил бўлсанг кофирсан
Ғофил бўлмаки, зулматда, абадий қоласан¹⁰⁷.

Демак Махдуми Аъзамнинг “Рисолаи вужудия” асари фалсафада инсон муаммосини тўғри ечиш ва тана ва руҳга меъёрда муносабатда бўлиш каби ижобий бунёдкор ғояни баркамол инсон тарбияси учун фойдаланишга зарур манбалардан биридир.

МАХДУМИ АЪЗАМНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ТАБИАТ ВА ИНСОН УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАСИ.

**Зойиров Э.- доцент. Бухоро муҳандислик технологияси институти
Ўзбекистон**

Резюми: The author also introduced the idea of Makhdumi A'zam on the notion of "tiller of the soul" teachings of Sufism is perfect personality, and understanding, of mutual belonging and the differences between the two sophisticated concepts.

Комил инсон ғояси жуда қадим илдизларга эга. Тасаввуф таълимоти бу масалани жуда чуқур ва кенг, ҳар томонлама таҳлил этганлар. Тасаввуф таълимотлари учун бу назария эмас, балки амалий масала бўлган ва тариқатларда инсонни камолотга етиш йўли ва услублари ихтиро этилган.

Махдуми Аъзам ўзларининг қатор рисоаларида инсон ва унинг камолоти масаласига муурожаат қилиб, уларни тасаввуфий нуқтаи назардан изоҳлаган.

Биз ҳали илмий жамоатчиликка маълум бўлмаган, илк маротиба таржима ва таҳлил бўлаётган Махдуми Аъзамнинг “Рисолаи вужудия”¹⁰⁸ номли тасаввуфий – фалсафий асари асосида, у томондан комил инсон тушунчасини ўрнига “вужуд деҳқони” иборасини ишлатилганлигини гувоҳи бўлдик. Демак, у киши “вужуд деҳқони” деган канцепциянинг асосчисидир. Чунки, бу фикрни Махдуми Аъзам тарихда биринчи маротаба қўллаган. Ундан олдинги мутафаккирлар, шунга яқин фикрлар айтган бўлсалар-да, лекин “вужуд деҳқони” демаган. Масалан, Муҳаммад Порсонинг “Рисолаи қудсия”да келтирилган маълумотига асослансак, Баҳоуддин Нақшбанд вужудни поклашни тупроқни хас-хашаклардан тозалаб, юмшатиб, уруғ экишга тайёр ҳолатга келтириш билан тенглаштирган. Лекин у киши ҳам “Вужуд деҳқони” деган тушунчани ишлатмаганлар. Айнан Махдум Аъзам комил инсон тушунчаси ўрнига Ўрта Осиё халқи учун яқин, тушунарли ва англаб етишга осон бўлган **“Вужуд деҳқони”** деган иборани биринчи маротиба ишлатган. Аввало Махдуми Аъзам вужудни ўзига таъриф берган ва кейин ким “вужуд деҳқони” эканлиги ва бу даражага етиш воситалари ҳақида сўз юритган.

Хўш, Махдуми Аъзам кимни ўз вужудини деҳқони деб ҳисоблаган? Ўрта Осиёда **деҳқон** жуда улуғланган, қадрланган, ўз меҳнати билан ризқини топиб еб, қолганларни ҳам ризқини мўл – кўл бўлишга асосий хизмати бўладиган, тупроқ кимёгари, қўлида тупроқ олтинга айланадиган киши сифатида эъзозланган. Ҳақиқий деҳқон ҳеч қачон оч ҳам қолмаган, бировга муҳтож ҳам бўлмаган. У Оллоҳга таваккул қилиб, тинмай меҳнат қилган ва хотиржам яшаган. Ўз вужудини билган, уни бошқара оладиган, ундаги нафсоний истакларни илохий сифатларга айлантира олган деҳқон каби ҳар бир ҳужайрасини ҳосилдор қилган шахс вужуд деҳқони дейилган.¹⁰⁹

Дарҳақиқат, Махдуми Аъзам айтгани каби ўз вужудининг деҳқони бўлган киши комил инсондир ва бутун оламдаги хотиржамлик, ҳамжиҳатлик ундандир.

Махдуми Аъзам “Рисолаи вужудия” асарида ёзадики, ҳар бир туғиладиган мавжудот

¹⁰⁷ Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йё вужудия. Қўлёзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан. -7 в.

¹⁰⁸ Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йё вужудия. Қўлёзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан. -15 в.

¹⁰⁹ Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йё вужудия. Қўлёзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан. -15 в.

ўз ҳақиқатига эга. Ҳар бир тупрокни ўзига хос кимёвий таркиби, ҳосилдорлиги, юмшоқлиги умуман салоҳияти мавжуд. Қора тупроқ, унумли тупроқ, ҳосилдор тупроқ, шўр тупроқ деймиз. Худди шундай туғилган тифлнинг танасида ҳам унинг ҳақиқий салоҳияти яширин. Тифл улғайиб, болалик, ўсмирлик даврида илм олади, касбу – ҳунарни эгаллайди.¹¹⁰ Шу жараёнда танаси – вужуди унга хизмат қилади, мактабга бориб келиши, қўл – оёқ, кўз – кулоқ – барча узвлар ёрдамида камолотга ета бошлайди. Ақл – идрок, фаҳм – фаросатли бўлади. Йиллар ўтиб у олим, заргар, савдогар, тадбиркор бўлади. Натижада тупроққа пахта, бугдой, зиғир, картошка экиб ҳосил олганда бу пахта ери, бу бугдойзор, бу зиғир ва картошка яхши ҳосил берадиган ер дегани каби, у олим, у заргар, у тижоратчи, у тадбиркор деб инсонни улуғлай бошлайдилар.

Махдуми Аъзам вужудни фано, йўқлик ҳолатига етказиш деганда инсон танасини тўла инкор қилмайдилар. Тана инсон камолоти учун восита, маркаб (туя, от каби миниб юришга хизмат қилувчи) эканлигини таъкидлайди. Танага ҳайвоний, илоҳий руҳ киритилган. Ейиш, ухлаш, шаҳват ва аммора нафс истаклари ҳайвоний руҳнинг қувватидир.

Шунинг учун уларни меъёрга солиб маркаб, яшаш воситаси бўлган вужудан камолот учун фойдаланиш зарур – дейди. Чунки меҳнат қилиш, бировга эзгулик қилиш, бировни ҳожатини чиқариш, “Даст ба кору, дил ба ёр” га амал қилиш учун ҳам тана зарур.

Ер етилганида, хасу-хошоклардан пок этиб, юмшатиладан уруғ сепилгани каби инсон ўзидаги барча тааллуқолардан узилиб, илоҳий нурларни қабул этишга қобил, тайёр бўлса, зикр уруғлари сепилади.

“Вужуд дехқони” ботиний уруғни инсон тана ва руҳиятига экувчи мукамал шахсдир.

“Аммо ҳар бир нарсанинг зкиб камол топишига мураббийнинг, яъни тарбиячининг бўлиши шартдир, токи мураббий унга яхши қарамас экан у нарса ўз камолига етмайди. Яна шуни билгинки, дунёдаги жами нарсаларнинг мураббийси инсондур”.¹¹¹

Масалан бир киши қовун экмоқчи бўлса, у яхши ер ва сув топиб ерни суғориши ва бир неча кун дам бериши керак, сўнг яхшилаб ерни ҳайдаши керак, токи тупроқ қанча юмшаса, қовун ширин ва лаззатли бўлади. Кейин эса яхши ариқ тортиши керак, чунки қовуннинг катталиги ва ширинлиги сувнинг яхши ичганлигидадир. Ундан сўнг уруғ экин ва ерга жуда эҳтиёт бўлсин, у шубҳа ва ҳалоллардан ҳоли бўлсин, агар бу нарсалар аралашса, ҳосили яхши бўлмайди. Ҳар бир уруғни, донни, дарахтни эккунча ҳушёр, огоҳ ва таҳоратда бўлсин, токи агар огоҳсан, мўминсан, агар ғофилсан, кофирсан” - дейди шайх.

Асарнинг бугунги кундаги аҳамияти долзарб бўлиб, соғлом авлодни тарбиялашда уларни ҳомиладан бошлаб, туғилиши ва вояга етишигача бўлган даврда, луқмаи ҳалол билан ўстиришга даъват қилади. Махдуми Аъзам нафақат қовун ёки дарахт, балки инсоннинг баркамол бўлиб ўсишида луқмаи ҳалол, яхши тарбия ва яхши мураббий лозимлигини уқтиради.

Махдуми Аъзам айни вақтда муридларни куз шабадаси сингари дарахтларнинг япроғини хазон қилиб уларни ғафлат томон етакловчи ноқобил ”пирлар”нинг беҳосият нафасларидан огоҳ бўлиш лозимлигини уқтиради. Мутасаввиф ҳар бир жамиятнинг келажагини унинг қўйнида ўсиб, улғаяётган ёшларнинг етарли ва тўлиқ парвариш олишга боғлиқ деган ғояни илгари сурганлар. Бу масалада лоқайдлик қилиш ёки эътиборсиз бўлишнинг оқибати ҳалокат эканлигидан огоҳ этганлар.

Яратилиш эътибори билан инсон гарчи ҳамма нарсадан кейинда бўлса-да, моҳият, салоҳият жиҳатидан баридан олдинда – юксакда туради. Зеро, инсон – оламнинг руҳи. Олам гўзалликларининг меҳваридир.

¹¹⁰ Ўша асарда.- 16 в.

¹¹¹ Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йэ вужудия. Қўлёзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан. -18в.

ЎҚУВЧИЛАРДА КОММУНИКАТИВ-КОГНИТИВ КОМПЕТЕНЦИЯ ШАКЛЛАТИРИШДА ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Булекбаева Ш.Б.-п.ф.б.ф.д.(PhD), НавДПИ
Ўзбекистон

Rezume The article outlines the importance of the use of advanced innovative pedagogical technologies popular and distinct with their efficiency in the formation communicative and cognitive competencies of students studying in educational institutions with the direction of Turkic languages. It also serves as guidance for the language instructors teaching in HE, secondary specialized and secondary education sectors to design and develop their lessons which meet the requirements of modern educational standards.

“Инновацион педагогик технология” атамаси бугунги таълим мазмунида кўп учрайдиган асосий терминлардан бирига айланди.

Буюк Британия Стардклайд университетининг халқаро лойиҳалари директори Ян Смит: “Маъруза давомида 250 иштирокчидан энг кўп сабоқни мен ўзим оламан, чунки ўзгаларни ўқитиш билим олишнинг энг яхши усулидир”, – дея таъкидлайди [1,110].

“Методика “Қайси йўл билан ўқишда талаб этилган натижага эришиш мумкин?” деган саволга жавоб берса, технология “Уни қандай қилиб қафолатлаш мумкин?” деган саволни ўртага ташлайди [2,12-22].

С.Н.Лисенкованинг “жадаллаштириб ўқитиш”, андижонлик ижодкор ўқитувчи М.Абдурасуловнинг “педагогик ҳамкорлик”, самарқандлик П.Каримовнинг “мантикий тестлар”, У.Қўчқоровнинг “таълимий мусобақалар”, қозоғистонлик Ж.Бейсенбаеванинг “босқичма-босқич ўқитиш” (“сатылай оқыту немесе жүйелі оқыту”), “иждодий изланиш” (“шығармашылық ізденіс”) технологиялари сўнгги йиллар таълим тизимида самарадорлиги билан ажралиб туради.

Ўқитувчи таълимга коммуникатив-когнитив ёндашиш учун дарснинг техник ва технологик жиҳатини тўғри ташкил этиши ва модулли ўқитиш технологиясини қўллаши муҳимдир.

Зеро, “модуллаштириш, бу – илмий билиш методи, моделлар, нусхалар орқали тушунишни осонлаштиришга хизмат қиладиган, соддалаштирувчи ва схемалаштирувчи билимлар тизимидир [3,3].

Профессор Р.Сафарова тўғри қайд этганидек, “...дарсликдан ўқув материални излаш, дарсликка киритилган турли рукнлар устида ишлаш, бошқа қўлланмалар билан таништириш – билимлар мустаҳкамлигининг қафолатидир [4,255].

Мамлакатимиз давлат сиёсатида таълимни тубдан ислоҳ қилиш, унинг демократик моделини яратиш – ахборот ва технологиялар асри бўлган ХХІ асрда долзарб стратегик масалалардан биридир. Таълимнинг қуйидаги замонавий моделларини қўллаш кўзланган мақсадга эришишда яхши самара беради, деган хулосага келдик:

- таълимнинг шахсга йўналтирилган демократик модели;
- масофадан ўқитиш, телевизион ўқувлар модели;
- таълимнинг янги ахборотлашган модели;
- таълимнинг коммуникатив модели.

Туркий тилли таълим масканларида Тил таълими дарсларида ўқувчиларнинг нутқий кўникмаларини ривожлантириш учун мустақил фикрлаш билан боғлиқ иждодий фаолиятини шакллантиришда таълимнинг коммуникатив моделига асосий эътибор қаратилади.

Ўқувчиларда дарслик ва бошқа манбалар ёрдамида ўзлари эгаллаши кўзда тутилган

билим, малака ва кўникмаларни ўзлари шакллантиришига эришиш мақсадида ўрганилаётган материал юзасидан рейд ташкил қилиш орқали билимнинг ишончилигини исботлашга, коммуникатив-когнитив компетенция шакллантиришга қаратилган, муаллиф тарафидан ишлаб чиқилган “Рейдер” технологияси асосида дарсга креатив ёндашишнинг кичик модулларида фойдаланиш мумкин. Масалан, 6-синфда “Сонларнинг имлоси” мавзусини ўрганиш учун ўқувчилар 3та гуруҳга бўлинади. Уларга қуйидаги вазифалар топширилади:

1-гуруҳ: синф хоналари эшикларидаги сонларнинг ёзилишини (5-синф);

2-гуруҳ: синфларга рейдга чиқиб, ўқувчилар дафтарлари муковасидаги сонларнинг ёзилишини;

3-гуруҳ: маънавиятхонасига рейдга чиқиб, матбуот материалларидаги сонларнинг ёзилишини ўрганиб чиқади ватўплаган материалларини дарсликбилан таққослаб, ўзларининг хулосаларини баён қилади.

Қозоқ тилининг орфографик қондасига кўра, *аср, йил, ой, сана отларигатини*ш белгиси қўйилмайди (2018 йил, 15 май). Ўзбек тилида тартиб сонлар араб рақами билан ифодаланса, чизикча қўйилади, рим рақами билан ифодаланса, чизикча қўйилмайди (21-уй, V синф).

Нутқий кўникмаларни ўқувчиларнинг бир неча дарс мобайнида олган билимларини мустаҳкамлаш жараёнида амалга ошириш мумкин. 5-синф “Қазақ тілі” дарслигида лексикани ўргатишга оид машқ ва топшириқларнинг мазмуни ҳам интерактив усулларда миллий истиқлол ғояларини сингдиришга қаратилган. Масалан:

- ҳафта кунларига тегишли расм-русум, иримлар – мустақил иш, мунозара;
- мақолларни бўлимларга ажратиш – кичик гуруҳларда ишлаш;
- гуруҳларга бўлиниб мақолларни давом эттириш – “йўқотдим, топдим” ўйин-мусобақаси, гуруҳларда ишлаш;
- тарқатма материалларасосида мавзуни ўрганиш – мустақил иш усулларига мос келади.

Дарсни ранг-баранг шаклларда уюштириш ва вақтдан унумли фойдаланиш учун машқ ва топшириқлар ўқувчиларни машғулотларга креатив ёндашишига, ўз устида мустақил ишлашга, она тилида ўрганилган материалларни давлат тили билан қиёслаб олишга йўналтириши, коммуникатив-когнитив усулларда миллий истиқлол ғояларини сингдиришга қаратилиши мақсадга мувофиқ. Масалан:

- матнда номлари келтирилган жойлар номини ота-онангиздан сўраб, харитадан топинг;
- фикрингизни 5-6та гап орқали оғзаки ёки ёзма тарзда ифодаланг;
- матндаги нотаниш сўзлар маъносини луғатдан аниқланг;
- расмга қараб, матн тузинг ва унга ном қўйинг;
- фикрни давом эттиринг ва иншо ёзинг;
- метаграммаларни ечинг ва ҳоказо.

Дарсликда берилган машқларнинг шарти билан чекланиб қолмай, ўқувчиларни мустақил иш юритишга, муайян хулосага келишига йўналтирадиган шартлар билан ранг-баранглаштириш мумкинлиги исботланди. Масалан 5-синфда лексикологиядан “Сўз ва унинг маъноси” мавзусига доир коммуникатив-когнитив компетенцияларни шакллантиришда қуйидагича усулларни қўллаш мумкин:

1-топшириқ. Маънодошини топинг.

- катга
- кўп
- сабр
- вақт
- барака

2-топширик. Ўзбек-қозоқ халқ мақолларини давом эттиринг.

Сув ичадиган кудукқа

Эгилганга егил, бошинг ерга теккунча.....

Бировга чоҳ қазима.....

3-топширик. “Сўздан иборагача”.



4-топширик. Луғат тузиш.

Қабирға – девор

Керемет – каромат

Биик – баланд

5-топширик. Матн мазмунини шарҳланг.

...*Otlar balandlik, tepalikka intilib,oyoqlarini g'urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko'rkam tutadi. Shu sayrdan, tabiatninggo'zalligidan safo tuygan bu aqlli jonivorlarning tiniq ko'zlaridaxushnudlik ifodasini ko'raman. Naqadar go'zal jonivor bular...Sevaman, ko'ngildan, chindan sevaman otlarni!* (Oybek)

6-топширик: “Табрикнома ёзиш”. Таянч сўзлар: *хурматли, мухтарам, бебаҳо ўғитлар, меҳр-оқибат, чин дилдан, сизнинг ҳаёт йўлингиз.*

Ўқувчи таълим жараёнининг фаол иштирокчиси бўлиши учун турли инновацион технологияларни қўллаш ўқитувчининг педагогик технологияни қай даражада ўзлаштиргани ва уларни қай даражада қўллай олиш маҳоратини исботлайди.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Фан, 2000. – 110-б.

2. Бозорова С. Таълим тизимида ўқитиш технологияси моҳияти // Узлуксиз таълим. – Т., 2006. – № 2. – Б. 12–

3. Узоқова С. Таълимнинг узвийлиги ва моделлаштириш // Узлуксиз таълим. – Т., 2007. – № 1. – Б. 4.

4. Сафарова Р., Мусаев У., Мусаев П., Юсупова Ф., Нуржанова Р. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. – Т.: Фан, 2005. – 255 б.

РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ

Дуланов Ботир Эрқулович,

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги
Давлат бошқаруви академияси мустақил изланувчиси

E-mail: bek.us@mail.ru

Бугунги кунда замонавий ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) кескин суръатда ривожланиб бораётган даврда ундан таълим тизимида самарали фойдаланиш фойдадан холи бўлмайди, албатта. Ҳозирда таълим тизимини ривожлантириш борасида дастурий таъминот ишлаб чиқувчи компаниялар томонидан кўплаб дастурий маҳсулотлар ишлаб чиқарилмоқда.

БМТнинг Барқарор ривожланишининг 4-мақсади сифатли таълимга бағишланган

бўлиб унда бу соҳани ривожлантириш борасида тавсиялар ишлаб чиқилган. Бу бўйича 2015 йилнинг 21-22 декабр кунлари UNESCO раҳнамолигида Хитойда бўлиб ўтган анжуманда алоҳида “Рақамлаштириш имкониятлардан фойдаланиб, таълимда ўзгариш яшаш” мавзусидаги АКТ бўйича халқаро конференцияда Циндао декларацияси қабул қилинган. Унда таълим сифатини оширишда АКТга катта эътибор берилган. Жумладан, таълим тизимида: 1) рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятини ошириш; 2) очиқ таълим ресурсларини ривожлантириш; 3) таълимда онлайн ўқитиш инновацияларидан фойдаланиш ва уларни татбиқ этиш; 4) сифатни таъминлаш ва онлайн таълимни қамраб олиш.

Бундан кўриниб турибдики, АКТ соҳаси жаҳон ҳамжамияти томонидан ҳам қўллаб-қувватланмоқда.

Демак, ҳар бир давлат бу соҳага катта эътибор қаратиши лозим. Энди бу соҳани ривожлантириш борасида фойдаланиб келинаётган оммабоп бўлган LMS (Learning Management System) – тизимлари шқув жараёнларини бошқариш учун жуда қулай ҳисобланади.

Жумладан, ҳозирда Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) - Модулли объектга йўналтирилган динамик таълим муҳити қўлланилиб келинмоқда. Ҳозирда у сайтдан фойдаланилувчи сайтлар сони 151 000 тага етган.

МООС (Massive Open Online Course) - Оммавий очиқ онлайн ўқув курслари. Ҳозирги вақтда ушбу курслар янада оммалашиб бормоқда. Ҳозирги вақтда МООСдан дунёга машҳур бўлган компания ва университетлар фойдаланиб келишмоқда. Жумладан, Стэнфорд университети, Массачусет технология институти, Пенсильвания университети, Мичиган университети, Гарвард университети, Хан Академияси (Khan Academy), Бостон университети, Codecademy, Таълимда ахборот технологиялари бўйича ЮНЕСКО институти, ИНТУИТ, HTML Academy, TED компанияси, Openlearn, Futurelearn, Academic Earth, Udemy, Coursera, EdX, Udacity каби жаҳонга машҳур кўплаб ташкилотлар ўз фаолиятини олиб боришда МООС платформасидан фойдаланади.

МООСнинг ўзига хос жиҳатлари қуйидагилар: 1) очиқлик – МООС платформаси Интернет орқали 24x7x365 форматда ҳеч қандай чегарасиз фаолият олиб боради; 2) мультимедиялилиқ – МООС аудио, видео, интерактив видео, 3D-дунё ва кўплаб замонавий технологиялардан фойдаланади; 3) интерактивлик – МООС фойдаланувчиларнинг контент билан ўзаро муносабатини таъминлайди, уларнинг ўқитувчи (тьютор) билан мулоқот қилишини амалга оширади; 4) бепул/шартли бепул (баъзи етказиб берувчилар фақат сертификат учун ҳақ олади); 5) дунёнинг энг машҳур университетларида таълим олиш (Гарвард университети, Массачусетс технология институти, Буюк Британиянинг очиқ университети, Москва давлат университети, Иқтисодиёт олий мактаби, МЕСИ, МИПТ ва бошқалар).

“Coursera” платформаси “ ҳам дунёдаги энг яхши онлайн курслардан, онлайн ва бепул” ўтишни таклиф қилади¹¹². “EdX” платформаси ҳам оммавий очиқ онлайн таълимнинг энг йирик платформаларидан бири саналади¹¹³. HTML Academy, Универсариум ва Uniweb платформалари. Хан Академияси - таълимни онлайн режимда олиб боровчи жаҳондаги улкан бепул таълим сайти. Академияга америкалик тадбиркор ва ўқитувчи Салмон Хан томонидан 2006 йилда асос солинган. Салмон Хан Бангладешда хиндистонлик иммигрантлар оиласида туғилган. Салмон Хан дунёга машҳур олий таълим муассасалари Массачусетс технология институти (МТИ) ҳамда Гарвард бизнес мактабларини тугатган ва инвестиция фондида ишлаган¹¹⁴.

¹¹² <https://www.coursera.org> - Coursera платформаси расмий сайти

¹¹³ <https://www.edx.org/> - EdX платформаси расмий веб-сайти.

¹¹⁴ <https://www.khanacademy.org/> - Хан Академияси поратли.

Moodle масофавий ўқитиш жараёнини тўла кўллаб-қувватлаш учун кенг доирадаги имкониятлари, ўқув материаллари турли усулларда берилиши, билимларни текшириш ва ўзлаштиришнинг назорат қилинишини алоҳида таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқ.

Moodleда 20 турдаги интерактив ўқув материаллари мавжуд бўлиб, уларнинг сони ошиб бормоқда. Курс яратувчиси тизимнинг бундай имкониятидан фойдаланган ҳолда ўқитиладиган фанни фойдаланувчиларга интерактив кўринишда тақдим этиш имкониятини яратади.

Ҳозирги технологиялар жадаллик билан ривожланиб бораётган вақтда ривожланган давлатлар давлат бошқарувида кадрлар тайёрлашда рақамли технологиялардан самарали фойдаланиб келинмоқда. Айниқса, давлат бошқарув кадрларини тайёрлаш, захирасини шакллантириш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш ҳамда уларни жой-жойига қўйишда мериократия усулидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун, албатта давлат хизматчиларининг базаси шакллантирилиши, доимий равишда янгидан янги иқтидорли ёш кадрлар маълумотлари билан тўлдириб борилиши ва давлат бошқарув тизими учун кадрлар захирасини шакллантирилиб борилиши долзарб саналади.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ҳозирги АКТ ривожланган вақтда ҳар бир таълим муассасини масофавий таълим технологияларисиз тасаввур этиб бўлмайди. Буни йўлга қўйиш орқали биз қуйидаги имкониятларга эга бўламиз: 1) масофадан мулоқот қилиш; 2) ОТМлар ахборот-ресурс марказидаги китоблардан фойдаланиш; 3) ҳар бир курс бўйича маълумотларнинг доимий равишда янгиланиб бориши; 4) баҳолашнинг очиқлиги ва шаффофлиги;

5) мотивация; 6) битирувчилар билан доимий алоқа; 7) ўтилган дарсларни видео лавҳаларидан фойдаланиш; 8) ихтиёрий вақтда фойдаланиш; 9) ишдан узилмаган ҳолда курсларда қатнашиш; 10) ёш ва йўналиш бўйича чегаранинг мавжуд эмаслиги; 11) вебинар машғулотлар; 12) ўз билимини текшириш; 13) қоғозни тежаш; 15) онлайн тестларни ўтказиш ва ҳоказо.

Ҳозирги кунда талабалар ўқув жараёнида ахборот тизими орқали онлайн равишда ўзлаштириш кўрсаткичини, давоматини, дарс жадвалини, ўқув курслари материалларини, онлайн тестларни, вазифаларни, онлайн вебинарда иштирок этиши, топшириқлар ва тестларнинг “дедлайн” вақтларини кўриб бориши мумкин. Шунингдек, ўз фаолияти доирасида эришган ютуқлари бўйича олган давлат мукофотлари ва сертификатларини киритиб бориши мумкин. Давлат ташкилоти эса ўз ходимини ўзлаштириши ва давоматини масофадан турган ҳолда кузатиб бориши мумкин. ОТМ профессор-ўқитувчилари эса ўз курси доирасида материлларни қўйиб боради, тингловчиларни баҳолайди ва улар билан онлайн равишда мулоқот олиб боради. Бу орқали тингловчиларда ҳозирги вақтда бутун дунёда ривожланиб бораётган “машинали ўқитиш” тизимига ўтиш бўйича кўникмалар шаклланиб боради.

Ҳозирги вақтда ОТМларда ўзаро интеграция қилган ҳолда ўқув жараёнининг бутунлай “Smart Learning” кўринишга ўтказиш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

Жанубий Кореялик ҳамкорлар билан биргаликда масофавий таълим портали учун нафақат видеоконтентлар ишлаб чиқилмоқда, балки қуйидаги функционал имкониятлар ҳам такомиллаштирилмоқда:

- ОТМга ташриф буюрувчилар саҳифаси;
- Ташриф буюрувчилар учун махсус RFID карточкалар;
- RFID карточкалар орқали давоматни онлайн олиб бориш;
- масофадан туриб китобларга буюртма бериш;
- онлайн дарс жадвали;
- профессор-ўқитувчи шахсий иш режаси ва унинг мониторинги;
- буюртмачи билан онлайн алоқа ва бошқалар.

Келажакда бу тизимларни такомиллаштирган ҳолда уни “Электрон ҳукумат”

тизимининг ахборот тизими комплекси билан рақамли интеграциясини таъминлаш орқали Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга катта ҳисса қўшиш мумкин. Бундай ишни амалга оширишда албатта давлат ташкилотлардан катта эътибор ва қўллаб-қувватлаш талаб қилинади. Бу орқали биз давлат иқтисодиётига катта ҳисса қўшган бўламиз. Чунки давлат ташкилотларидаги ҳар бир лавозимга ўз соҳасини биладиган раҳбар кадрлар келишига имкон яратилади.

Шунингдек, ахборот тизимида нафақат давлат хизматчилари фойдаланишлари, балки фуқаролар учун ҳам ўз соҳаларидан келиб чиққан ҳолда очик рўйхатдан ўтиш орқали ўз билим ва кўникмаларини шакллантириш имкониятларини ишлаб чиқиш лозим. Бу орқали ўз билим ва кўникмаларига ишонган иқтидорли ёшларни ва оддий фуқароларни давлат бошқаруви соҳасига жалб қилиш имконига эга бўламиз. Бундай тизим ҳозирда Жанубий Корея, Сингапурда ўзини оқлаб келмоқда.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЁШЛАРДА «ВАТАН» ГОЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Сативалдиев Пулат – НавДПИ Ижтимоий
фанлар кафедраси тадқиқотчиси**

Ватан инсон, фуқаро учун ягона ва бетакрор эканлиги ҳақида фикримизни давом эттирар эканмиз, Ватанпарварлик эътиқодини шакллантиришнинг энг муҳим асосларидан бири ёшларда Ватан ва унинг моҳияти, инсон ҳаёти ва фаолияти учун аҳамияти ҳақида тушунча ҳосил қилишлик бугунги қалтис даврнинг бош муаммоларидан биридир. Ёшларда Ватан ҳақида шаклландиган дастлабки тасаввур, тушунча тарбия жараёнида аста-секин эътиқодга, иймонга айланади ва натижада уларнинг ички руҳиятида чуқур томир отиб, фаолиятига мақсад ва йўналиш берувчи маънавий замин бўлиб қолади.

Ватан ҳақидаги тушунчани фақат ўтмиш фактлари билангина эмас, балки мамлакатнинг келажаги, истиқболи вазифалари билан ҳам боғлаб шакллантиришга аҳамият бермоқ керак. Ўзбекистон қудратли бўлса, юртимизда тинчлик, осойишталик, ахиллик, бирдамлик ҳукмронлик қилсагина, ёшларда юрт келажаги буюк давлат бўла олиши мумкинлигига чуқур ишонч ва англаш шаклланади. Бундай туйғу уларни миллий манфаатлар йўлида халол, фидокорона меҳнат қилишга ундайди. Ёшлар инсон учун Ватан битта эканлигини, Ўзбекистон дунёдаги барча ўзбекларнинг бошини қовуштирадиган, кадр-қиммати, манфаатларини ҳимоя қиладиган, порлоқ истиқболни таъминлай оладиган ягона мамлакат эканлигини билмоғи ва кадрламоғи керак¹¹⁵.

Ўз ватанининг кадр-қимматини, имконияти ва шароитларини, ёрқин истиқболини тўла билиб, келажакка умид ва ишонч билан боришга қодир бўлган кишиларгина ҳақиқий ватанпарвар бўла оладилар. Барча фуқаролар Ўзбекистон келажаги буюк давлат эканини чуқур англаб етишлари, ҳозирги объектив қийинчиликлар ва ҳатто моддий тақчилликлар таъсирида тушкунлик кайфиятига берилмасликлари, келажакка мустаҳкам ишонч ва иродага таяниб боришлари лозим. Олдиндан тула анланган мақсад инсонга умид, куч-қувват бағишлайдики, бу эса миллатпарварлик, халқчиллик эътиқодининг маънавий асосларидандир.

Ватаннинг бугуни ва келажаги билан боғланган фаолиятнинг каттаю кичиги бўлмайди. Гап инсон ҳаётининг ҳар бир дақиқасида, босган қадами, қилган ишию айтган сўзларида ватан тимсоли ўзининг бурчи ва масъулиятини

¹¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2003. 3-бет.

унутмаслигидадир. Биз ватандан қанча йироқ бўлсак, у қалбимизда янада чуқурроқ ўрин ола беради. Машҳур форс шоири М.Салмон Соважий ёзганидек: «Ватанга нафи йўқ яшалган ҳар кун,

Инсон ҳаётини қилур бемазмун». Куча, маҳалла ва хонадонларимиз обод бўлсин деб кўчат экилса, бирор ер ифлос бўлса уни ачиниб, куйиб-пишиб тозаланса, ёмон ишларга кўл урганларни яхши сўз билан тўғри йўлга солинса, соғлом оилавий муносабатлар ҳақида жиддий ўйланса, бутун билим ва тажрибани ёшларга меҳр билан ўргатиб, улар тарбияланса ва техниканинг энг илғор ютуқлари ҳаётга тадбиқ этилса, ишбилармонлик, тадбиркорлик йўлидан бориб, яхши, сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқарилса, атроф-муҳитга эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлинса ва бу жараёнларда шахсан иштирок этилса булар ҳам ватанпарварликдир. Шу муносабат билан айрим юртдош тижоратчилар хорижга бориб, нокаслик, пасткашлик қилиши бутун ўзбек халқига иснод келтиради. Бирор-бир арзимаган фойда учун ватаннинг, миллатнинг шаънига доғ туририш - иймонсизликдир. Аксинча тадбиркорлик, хўжалик юритиш Россиялик файласуф С.Булгаков наздида «Мутлоқ ахлоқлилик томон боришдир»¹¹⁶. Ҳақиқий ватанпарварлик теран маънавиятга таянишдир, деган фикрнинг мазмуни ҳам шу маънони ифодалайди.

Ёшларга қаратилган сиёсат ёки тадбирларда аниқ мисолларга таяниб совет тузуми давридан қолган сиёсий, ижтимоий, иқтисодий муносабатларни, маънавий ҳаёт соҳаларидаги оғир меросни ҳам ёшларга аниқ, далиллаб кўрсатиш лозим. Бу мерос иқтисодий муносабатларнинг барча жабҳалари бир ёқлама ривожланиб, «фақат ишлаб чиқариш ва маҳсулот айрибошлашга қаратилганлиги»¹¹⁷, бу борада «ўзбек халқи социал таркиби» бунёдкорликка қодир эмас деган тамгаларни бартараф этиш учун миллий мерос ва кадриятларини, она тилимизни холисона ўрганиш, ривожлантириш кераклиги, халқнинг эса фидокорона меҳнат қилиш лозимлигини, мамлакатимиз танлаб олган «ўзига хос тараққиёт йули» нинг авфзалликларини кундалик ҳаётдан олинган мисоллар асосида ёритмоқ керак. Бу ҳам ёшларнинг келажакка бўлган ишончи ва эътиқодини кучайтиради.

Мустақил Ўзбекистонда шаклланаётган ватанпарварлик бу борадаги тарихий анъаналардан, мавҳум сиёсий шиорга айланиб қолган совет ватанпарварлигидан фарқ қилади. Бу - тараққиёт тақдирини ўз қўлига олган, она юртининг бой имкониятларидан истиқлол ва истиқбол манфаатларини кўзлаб оқилона фойдаланиш йўлига ўтган, миллий бирлик, бирдамлик, тенглик ва тенг ҳуқуқлилик борасидаги кайфиятларга таяниб, миллий ўзлигини таний бошлаган халқнинг маънавий фазилатидир.

Мамлакат аҳолисининг асосий қисмини ташкил этувчи ўзбекларнинг шу табарруқ, ота-боболаридан мерос бўлиб қолган заминдан бошқа ватани йўқ. Ўзбекистон ўз номи билан ўзбекларнинг она юрти. Ўзбеклар шу она диёрни севади, унинг тарихи, тақдирига бефарқ, қарай олмайди. Бу - ўзбек миллий ватанпарварлигининг маънавий, ижтимоий илдизларидир. Шу ватан бой, барқарор, халқлари ахил бўлиб, ифтиқодий, сиёсий-ижтимоий, маънавий жиҳатдан камол топиши дунёдаги барча ўзбекларнинг манфаатларига мос келади.

Ўзбекистонда яшаётган барча халқлар, гарчанд уларнинг ўз ватанлари бўлса ҳам, мустақил республикамизда вазият барқарор бўлиб, ижтимоий, иқтисодий, маданий тараққиёт суръатлари тезлашишдан манфаатдордирлар. Республикамизда яшаётган бошқа халқлар вакилларининг мамлакатимиз тараққиётига, ижтимоий-сиёсий

¹¹⁶ Қаралсин: //Свободная мысль - XXI, №8, 2005, С.170.

¹¹⁷ Қаралсин: В.С.Соловьев. Экономический вопрос с нравственной точки зрения. Соч., Т.1, -М., 1990; Н.Бердяев. Философия неравенства. - Л., 1991; П.Струве. Интеллигенция и народное хозяйство. - М., 1991; Н.Хомский. Прибыль на людях. - М., 1999.

барқарорлик сақланишига қўшган ва қўшаётган ҳиссаси ортиб бормоқда. Бу эса ўзбекистонликлар ватанпарварлиги умуммиллий керак бўлса трансмиллий маънавиятга ҳам айланганини кўрсатади. «Туркистон - умумий уйимиз», деган ғояга асосланган «ватан ғояси» ҳам мазкур минтақада яшовчи халқлар ўртасидаги бирдамлик, ҳамкорлик ва ҳамжиҳатликни мустаҳкамловчи маънавий, мафкуравий омилдир. Умумий уйимиз бўлган Ушбу қадимий, шон-шухратга тўла замин барчамизнинг минглаб йиллар давомида шаклланган умумий ватанимиз ҳамдир. Она юрт тарихини билиш - ватанпарварлик эътиқоди шаклланишининг омилидир.

Ёш авлодда «Ватан фалсафаси» ни таркиб топдириш ҳақида сўз борар экан, тарих фанининг, унга асосланган тарихий онг ва хотира ўтган даврларнинг саҳифаси, ифодасигина эмас, балки кишиларнинг маънавияти, иймони ва эътиқоди, рухий кайфиятига кучли таъсир этувчи маънавий омил эканлигини унитиш жоиз эмас. Она ватан тарихини ҳолисона билиш, ўтмишни тўғри англашгина эмас, балки «аждоғлар тажрибасини ҳисобга олиб, мустақил ривожлантиришнинг янги имкониятларини топишга йўқ очиш»¹¹⁸ ҳамдир. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистон халқлари тарихининг қуйидаги саҳифаларни кенг ёритишга таълим-тарбия ишлари жараёнида катта эътибор бериш зарур. Турон, Туркистон инсон авлоди шаклланган илк манзиллардан бири эканлиги (Тешик тош Селунғур топилмалари ҳақидаги маълумотлар):

«Ватаннинг эътиқод даражасига кўтарилишига таъсир этадиган қадриятлар жумласига шубҳасиз она тили, миллий, диний байрамлар, маросимлар, болажонлик, оилапарварлик, ота-онага, қўни-қўшнига, маҳалла-қуйга, оқсоқолларга ҳурмат, меҳр-мурувватлилик, раҳм-шавқатлилик, инсонпарварлик, ҳалоллик, иймонлилик, эътиқодлилик, юртимизнинг гўзал табиатида илҳом олишлик, уни сақлаш маданиятига эга бўлиш каби бошқа қадриятлар киради. Булар - умуминсоний маънавий қадриятлар ҳамдир. Мамлакатимизда кенг нишонланаётган миллий байрамларимиз Мустақиллик куни, Конституция куни ва бошқа тантаналар ҳамватанпарварлик эътиқоди мустаҳкамланишига бевосита таъсир этади.

Умуминсоний қадриятларни билиш ва ҳурмат қилиш миллат маънавий камолотининг асосий омилларидандир. Одамлардаги «Ватан ғояси» нисбат сўз юритар эканмиз, унинг умуминсоний интилишлар билан уйғунлашиб бориши, қолаверса миллат равнақида янги бир пиллапоя эканлигини алоҳида таъкидлаш лозим. «Инсон шундагина ҳақиқий инсонга айланадики, - деб ёзади А.Панарин, - қачонки у бу ёруғ дунёда ким эканлиги, бурчи ва вазифаси нималиги ҳақида ўйласа»¹¹⁹. Бу ёруғ дунёда инсоннинг ўзи ҳақида ўйлаши унинг дунё ҳамжамияти олдидаги бурчини ҳис этиши демакдир. Агарки, ушбу қоидадан келиб чиқадиган бўлсак, мустақиллик даврида Ўзбекистонда собир бўлган оламшумул ўзгаришларни дунё билан ҳамнафасликнинг ўзига хос кўриниши деб баҳолаш даражасига чиқиш алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Она-Ватанга бўлган чуқур ҳурмат ҳисси ҳар бир шахс ўзининг миллат олдидаги бурч ва масъулиятини тўла, тўғри англашдир. Жамият тараққиёти натижасида инсон камолоти, яшаши ва меҳнат қилиши учун имкониятлар кенгайди. Жамиятда яшаш унинг имкониятларидан ўз мақсадларида фойдаланишгина эмас, балки муайян ҳуқуқий, ахлоқий мезонларга риоя қилиш ҳамдир, ватанга наф келтиришдир. Ва табиий ҳолда, «бурч» ва «масъулият» тушунчасига тўқнаш келади.

¹¹⁸ Қаралсин: Э.Ртвеладзе. Позитивные и негативные аспекты новейших исследований истории Центральной Азии. // Материалы региональной международной конференции. С. 127-133.

¹¹⁹ Қаралсин: А.Панарин. Смысл истории. // Вопросы философии, №9, 1999.

ХОРАЗМ ТАСАВВУФ АЛЛОМАЛАРИНИНГ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ УЙЎТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ УСЛУБИЯТЛАРИ

Ходжаниязов С.У.- доцент., УрДУ Ўзбекистон

Annotation: This article researches pedagogical methods of development of students' creative thinking in the process of studying the heritage of the Khorezmian Sufi thinkers.

Сўфийлик таълимотида ахлоқий тарбия марказий ўринни эгаллайди. XIII аср охири ва IX аср бошларида сўфийлик таълимоти пайдо бўлди ва бутун мусулмон мамлакатлари, жумладан Ўрта Осиёда кенг тарқалди. Сўфийлик назариясига кўра, дунё, бутун олам худонинг тажаллисидир. Сўфийликнинг амалий қисми ахлоқий меъёрлар ва хулқ–атвор қоидаларнинг муайян тизимидан иборат. “Шуни аниқ билиб олдимки,- дейди Ал Жазарий яна,- Аллоҳнинг йўлини сулук этганлар фақат сўфийлардир. Уларнинг ҳаёт тарзлари энг тўғри ҳаёт тарзидир. Ахлоқлари энг гўзал ахлоқдир.”¹²⁰

Таълимотдаги ахлоқий меъёр ва қоидалар худбинлик ва шахсий манфаатлардан ўзини тийишни талаб этади. Сўфийликнинг қоидаси: камбағаллик–унинг безаги, сабр–тоқат унинг нақши, қаноат қилиш–унинг оти, ишонч–унинг қадр–қимматидан иборат. Нажмитдин Кубро рубоий жанрида ҳам баракали ижод қилган. Шоир уз рубоийларида ирфоний фикр-

ларни чуқур акс эттириш билан бирга ахлоқ–одоб, инсонпарварлик, маърифатдустлик ғояларини ҳам анча теран тасвирлаган¹²¹.

Гар тоати худ нак,и кунам бар ноне,

В-он нон них,ам пеши саге бар хоне

В-он саг соли гурусна дар зиндоне.

Аз нанг бар он нон наниҳад дандоне.

(Агар тоатимни бир нонга накш этиб, дастурхонга солиб бир кучук олдиға қўйсам ўша ит йил бўйи зиндонда оч ётган бўлса ҳам, номусдан у нонга тишини ҳам тегизмайди)¹²².

Сўфийлар фикрлаш, ўйлаш йўли билан Худони билишга ҳаракат қилмайдилар, балки ахлоқий комилликка эришиш ёрдамида ўз қалблари, табиатлари ва жисмларини нопокликлардан поклашга интиладилар. Сўфийликка бўлган интилиш инсонни комиллик ахлоқ ҳаққа етишиш, унга муҳаббат, тавба, сабр, қаноат, шижоат, тўғрилиқ, эҳсон, ростўйлик, самимийлик, нафсни тийиш ва ундан ғолиб келиш ҳар қандай инсоннинг қалбини чиркин иллатлардан тозалайди. Шу нуқтаи назардан олганда, суфийлик ахлоқи бугунги куннинг талабларига ҳам жавоб беради. Ҳикматлардаги ахлоқий қарашлар бугунги кундаги ахлоқий меъёрларга замин тайёрлайди. Улар бугунги кунда ҳам ўз тарбиявий аҳамиятини йўқотгани йўқ. Зеро, нафсни тийиш бугунги кунда ҳам жамиятдаги барча иллатларга, ахлоқсизликларга барҳам бера олади. Шу боисдан ҳам Г.С. Юнусова тўғри таъкидлаганидек, “Кубравияда нафс қалбий касалликларга сабаб бўладиган, инсонни турли машғулотлар билан чалғитадиган иллат деб қарайдилар. Нафсни кучайтирувчи ёмон ахлоқдан ва ҳайвоний орзуларни йўқотиш учун лафзи жалолни, яъни Аллоҳ лафзини зикр қилишга, "зикри муфрид" дейилади”¹²³.

Ахлоқли бўлиш муайян оқилликни тақозо этади. Бу ғоя буюк суфий мутафаккиримиз Хожа Аҳмад Яссавийнинг

¹²⁰ Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо Ал Жазарий. Тасаввуф сирлари.- Тошкент: Моваоуннахр, 1999. 27- б.

¹²¹ Қаранг: Комилов Н., Тасаввуф (1-китоб), Т., 1999. -151-188 бетлар.

¹²² Ҳомиджон Ҳомидий Тасаввуф алломалари. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.127.

¹²³ Юнусова Г.С. Абдулқодир Гийлоний маънавий меросида инсон моҳиятининг фалсафий таҳлили. Фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд – 2019. –Б.21.

Маърифатни минбарига минмагунча,
Шариатни ишларини билса бўлмас.
Шариатни ишларини адо қилмай,
Тариқатни майдониға кирса бўлмас. –

деган ҳикматли мисраларида жуда яхши ифодаланган.¹²⁴

Тасавуф вакиллари нафсни тарбиялаш орқали инсон ахлоқий камолотга эришиш мумкинлигини исботлашга ҳаракат қилганлар. Хусайн Воиз Кошифий бу ҳақида шундай ёзади: “Биринчидан тасаввуф тахлия, яъни ҳоли бўлмоқ, қалбни бўшатмоқ ва яхши мақталган ахлоқдир, дейдилар иккинчидан, тасаввуфни руҳни ағёр-бегонадан тозалашдир, деб айтадилар. Учинчидан, тасаввуф ҳузуъ, яъни нафсни жиловлаш, ҳокисорлик ва жонсипорлик намунасини кўрсатишдир дейдилар. Тўртинчидан, тасаввуф даъвони тарк этиш ва маъноларни халқдан яширишдир дегувчилар бор. Яъни, киши то даъводан кечмаса, маънога етмас ва то ўз маъноларини яшрин тутмаса, тасаввуфдан баҳра олмайди”.¹²⁵ Ушбу таърифдан ҳам кўриниб турибдики, ахлоқий камолот йўлни танлаган инсон нафсни ва қалбни дунёдаги ўткинчи майллардан тозалаши лозим.

Сулаймон Боқирғоний, Нажмиддин Кубро, Паҳловон Маҳмуд ва бошқа шу каби тасаввуф алломалари маънавий-ахлоқий қарашларини ўрганиш бўйича талабалар дарсларда нафақат ўз билимларини оширишлари, балки ижодий фикрлаш қобилиятларини уйғотишлари ва ривожлантира олишлари ҳам мумкин. Эссе, реферат ишлари ёзиш ва конференция дарслари бунда жуда муҳим аҳамият касб этади.

Эссе муайян масала юзасидан кишининг ўз индивидуал муносабатини билдириб ёзадиган ишидир. Эссе мактабда ўқиш вақтида ўз она тилимизда “иншо” номини олган ёзма иш бўлиб, олий ўқув даргоҳларида ва кишининг ундан кейинги ижодий тараққиётида анча юқори савияни талаб қиладиган ижодий изланиш самараси ўлароқ вужудга келади ва у бадиий-публицистик, фалсафий, хусусий-илмий ва б.шаклларда майдонга чиқади.

Олий таълим даргоҳларида одатда эссе турли мақсадларни кўзлаб ёзилиши мумкин: ўқув машғулотларида қўллаш мақсадида ёзиладиган эсселар. Улардан талаба классик типдаги семинарларнинг саволларини ёритишда ва муҳокамасида доклад сифатида фойдаланиши мумкин: Академик эсселар. Бундай эсселар эксперт (текширувчи) вазифасини бажарувчи ўқитувчининг ўқиши учун, унга ўз билим ва мустақил фикрларини намоиш этиш мақсадида ёзилади: баҳсли ва аргументли (далилланадиган) эсселар. Бундай эсселар муаммоли масалалар муносабати билан, уларни ечишга уриниш мақсадида ёзилади. Бунда муаллиф ўз фикрини олдинга суради ва уни асослаш учун ўз аргументларини келтиради.

Кўриниб турганидек, кейинги хилдаги эсселар анча юқори савбия ва илмий изланиш қобилиятини тақозо этади. Аввалги икки типдаги эсселар эса кейингисининг шаклланиши учун тайёргарлик босқичлари вазифасини ўтайди. Охирги тип эссени, агар у яхши саввида бўлса, илмий мақола деб аташ ҳам мумкин.

Далилланадиган эсселарнинг структураси одатда камида 4 қисмдан ташкил топади:

- А) Кириш қисми.
- Б) Далиллар намоиши (презентацияси).
- В) Эътирозга тайёрликни ифодаловчи фикрлар.
- Г) Хулоса.

Эссенинг кириш қисмида баҳс объектининг мазмуни ёритилади ва муаллифнинг ўз ечими олдинга сурилади. Иккинчи (Б) қисмида муаллиф ўз фикрларини далиллайдиган аргументларни келтиради. Учинчи қисмида ушбу далилларга қарши фикрлар бўлиши мумкинлигини ҳисобга оладиган материал қўшимча қилинади. Кейин тегишли хулоса чиқарилади.

¹²⁴ Аҳмад Ясавий. Девони ҳикмат. – Тошкент., 1992. – Б.108.

¹²⁵ Хусайн Воиз Кошифий Футувватномаи Султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. 18 –бет.

“Реферат” ибораси лотинча “refero” – маълум қилар эканман маъносини ифодалайди. Ҳозирги даврда рефератив иш деганда одатда белгиланган мавзу бўйича тегишли адабиётларда эълон қилинган илмий ишлар қисқача мазмунининг ёзма ёки оғзаки баён этилиши назарда тутилади. Рефератни ёзган ёки оғзаки баён этган шахс референт дейилади. Рефератив ишлар, эсселар каби, ёзилиш мақсадига кўра бирқанча типга ажралади: ўқув жараёнида ишлатиладиган, ўқув материални ўзлаштиришга хизмат қиладиган рефератлар; бажарилган илмий иш (масалан, номзодлик, докторлик ишлари) муҳокамаси учун мўлжалланган рефератлар. Ўқув жараёнида ишлатиладиган рефератлардан фарқли ўлароқ илмий иш рефератида тадқиқотчининг ўз тадқиқоти мавзуси бўйича илмий ишларнинг таҳлиллари ва хулосалари, ўзи олдинга сурадиган янги ғоялари, кашфиётлари бўлиши керак; илмий анжуманларда қатнашиш учун тайёрланадиган рефератлар. Бу рефератлар илмий мақоланинг қисқача мазмунини ифодалайди ва муаллифга катта илмий анжуманда (илмий конференцияда) ўз ғояларини қисқача эълон қилиш имконини беради. Улар одатда “реферат” деб эмас, “тезис” деб аталади ва “конференция тезислари” сифатида чоп этилади. “Тезис” тушунчаси лотинчада “фикр” маъносини ифодалайди. Бундай тезисда муаллиф (конференция докладчиси) ўз фикр ва даъволарининг, тадқиқотида олдинча сураётган ғояларининг қисқача мазмунини баён этади; муайян сиёсий муаммо ёки муаммоларни ёритиш учун мўлжалланган рефератлар. Кейинги хилдаги рефератлар долзарб сиёсий муаммоларни кенг муҳокама қилиш, умумхалқ овозини эшитиш, яъни референдумлар ўтказиш мақсадида тайёрланади. Масалан, Ўзбекистон ўз мустақиллигига эришганида янги Конституциянинг қабул қилиниши учун референдум ўтказилган. Референдум материаллари (реферати) матбуотда чоп этилган эди. Бизга, яъни “Тасаввуф ахлоқшунослиги” курси учун кераклиси биринчи типдаги рефератлар, албатта. Лекин, бу борадаги ишлар ҳозирча қоникарли, деб бўлмайди. Зеро, баъзи ҳолларда талабалар реферат деб, исталган китобларидан исталган қисмини тахминан ва тушунмаган ҳолда кўчириб келадилар. Ваҳоланки, ўқув жараёнидаги рефератлар талабани келгуси илмий ишларга: аввало бакалаврнинг битирув ишига, кейин магистрант ва фан номзоди диссертациясига ҳамда республика ва халқаро конференцияларга етказувчи энг дастлабки ва муҳим поғона вазифасини ўташи керак.

МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ

Бердиева Гулмира Аминовна - Бухоро муҳандислик-технология институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси, тарих фанлари номзоди. Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада бугунги тезкор давр талабаларни ҳам қисқа муддатда ва асосли маълумотлар билан қуроллантириш, улар томонидан турли фан асосларини пухта ўзлаштирилиши учун зарур шарт-шароитларни яратишни тақозо этмоқдалиги такидланади. Муаммоли вазият ва ўқув муаммоси муаммоли ўқитишнинг асосий тушунчалари ҳисобланади.

Annotation: The article emphasizes that today's fast-paced world requires students to be equipped with short-term and reliable information, to create the necessary conditions for them to master the basics of various disciplines. Problem-based learning and learning problem are key concepts of problem-based learning.

Глобаллашув шароитида таълим шахсни ҳар томонлама вояга етказиш, унда комиллик ва малакали мутахассисга хос сифатларни шакллантиришда муҳим ўрин тутди. Бугунги тезкор давр талабаларни ҳам қисқа муддатда ва асосли маълумотлар билан қуроллантириш, улар томонидан турли фан асосларини пухта ўзлаштирилиши учун зарур шарт-шароитларни яратишни тақозо этмоқда. Бугунги кунда шахсга йўналтирилган

таълимнинг асосий вазифаси мутахассисларнинг дунёни ижодий ўзгартириш методологиясини ўзлаштиришда деб билади. Ижод жараёни энг аввало янгиликни очишни ўз ичига олади: янги объектлар, янги билимлар, янги муаммолар, уларни ечишнинг янги методлари. Агар машғулот вазифалари ўқувчилар учун билимларни мустаҳкамлаш ва кўникмаларни шакллантириш учун берилган бўлса, муаммоли вазифалар – бу ечимнинг янги усулини топиш демакдир. Таълимнинг келажаги муаммоли ўқитишнинг истиқболлари билан кучли боғланган бўлиб, муаммоли ўқитишнинг мақсади кенгдир: нафақат илмий билишнинг натижаларини, балки бу натижаларни олиш жараёнининг йўллари ҳам ўрганишдир. У ўз ичига ўқувчининг ўрганиш мустақиллигини шакллантириш ва унинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришни олади.

Муаммоли ўқитиш – бу ўқитувчи билан диалог воситасида билимларни ўзлаштиришни таъминлайдиган ўқитиш тури ҳисобланади.

Муаммоли вазият ва ўқув муаммоси муаммоли ўқитишнинг асосий тушунчалари ҳисобланади. Ўқув муаммоси ўзлаштириш жараёнининг мантиқий-психологик зиддиятлигининг акси сифатида тушунилиб, ақлий қидирувининг йўналишини белгилайди, номаълумнинг моҳиятини ўрганишга қизиқиш уйғотади ва янги тушунча ёки янги усулни ўзлаштиришга олиб келади. Ўқув муаммосининг икки асосий функцияси мавжуд:

1. Ақлий қидирув йўналишини, яъни ўқувчининг муаммо ечимини топиш фаолиятини аниқлаш.

2. Ўқувчининг янги билимларни ўзлаштириш бўйича билиш қобилиятларини, қизиқишини, фаолият мотивларини шакллантириш.

Ўқитувчи учун муҳим восита ўқувчининг билиш фаолиятини бошқариш, унинг фикрлаш қобилиятларини шакллантириш ҳисобланади.

Муаммоли вазият – муаммоли ўқитишни ташкил этиш воситасидир, бу ўқишнинг ўрганиш заруриятини чақирадиган ва янги билим ва кўникмаларни фаол ўзлаштириш учун ички шароитларни яратиб берувчи фикрлашнинг бошланғич моментиدير.

Муаммоли вазият турлича бўлиши мумкин.

-Номаълум таркиби бўйича муаммоли вазиятлар кўйидагиларга бўлинади: мақсад номаълум; фаолият объекти номаълум; фаолият усули номаълум; фаолият бажарилиши шароитлари номаълум.

-Ахборот номувофиклиги бўйича: можаро; таклиф; рад этиш; жавоб бермаслиги; ноаниқлиги.

-Методик хусусиятлар бўйича: атайлаб қилинмаган; мақсадли; муаммоли ифодалаш; эвристик суҳбат; муаммоли демонстрация; ўйинли муаммоли вазиятлар; тадқиқот лаборатория иши; муаммоли фронтал эксперимент; ҳаёлий муаммоли эксперимент; вазифаларни муаммоли ҳал этиш; муаммоли вазиятлар.

Муаммоли ўқитишнинг замонавий назариясида муаммоли вазиятларнинг икки тури фарқланади: психологик ва педагогик. Биринчиси ўқувчиларнинг фаолиятига боғлиқ, иккинчиси ўқув жараёнини ташкил этишни ифодалайди.

Педагогик муаммоли вазият билиш объектининг янгилиги, муҳимлиги, чиройи ва бошқа ажратувчи жиҳатларини таъкидлайдиган фаоллаштирувчи ҳаракатлар, ўқитувчи саволлари ёрдамида амалга оширилади. Психологик муаммоли вазиятни ҳосил қилиш алоҳида индивидуал амалга оширилади. Жуда қийин ва жуда осон бўлмаган ўрганиш вазифаси ўқувчи учун муаммони пайдо қилмайди. Муаммоли вазият ўқитиш жараёнининг барча босқичларида: тушунтириш; мустаҳкамлаш; назоратда амалга оширилиши мумкин.

Ўқитувчи муаммоли вазиятни ҳосил қилади, ўқувчиларни уни ечишга йўналтиради, ечимни топишни ташкил қилади. Шундай тарзда ўқувчи ўзининг ўқиши позициясига туради ва натижада янги билимлар орттиради, янги ҳаракат усулларини ўзлаштиради.

Муаммоли вазият ўқитувчи томонидан алоҳида методик усулларни қўллаш орқали ҳосил қилинади:

- ўқитувчи ўқувчиларни зиддиятга олиб келади ва уларнинг ўзларига ечимини топишни таклиф қилади;
- амалий фаолиятнинг зиддиятларини тўкнаштиради;
- айнан битта саволга турли нуқтаи назарларни келтиради;
- синфга ҳодисани турли позициялардан кўриб чиқишни таклиф қилади;
- ўқувчиларни таққослаш, умумийлаштириш, вазиятдан чиқиш, далилларни солиштиришга ундайди;
- конкрет саволларни (умумийлаштиришга, асослашга, конкретлашга, фикрлаш мантиғига) кўяди;
- муаммоли назарий ва амалий вазифаларни белгилайди;
- етарсиз ёки ортиқча бошланғич маълумотли; саволни қўйишда ноаниқликли; зид маълумотли; атайлаб қўйилган хатоликли; чегараланган вақтли; психик инерцияни енгишга ва бошқ. муаммоли вазифаларни кўяди.

Муаммоли технологияни амалга ошириш учун қўйидагилар керак:

- энг актуал, муҳим вазифаларни танлаб олиш;
- ўқув ишининг турли кўринишларида муаммоли ўқитиш хусусиятларини аниқлаш;
- муаммоли ўқитишнинг оптимал системасини тузиш, ўқув ва методик қўлланма ва йўриқномаларни яратиш;
- ўқитувчининг ўқувчи фаол ўрганиш фаолиятини чақирадиган шахсий ёндашуви ва маҳорати.

Муаммоли ўқитиш барча шароитларда ҳам бир хил самарали бўла олмайди. Амалиёт шуни кўрсатадики, муаммоли ўқитиш жараёни ўқувчиларнинг ҳам интеллектуал қийинчиликларининг, ҳам янги билимларни ўзлаштириш ёки янги вазиятда аввалгиларини қўллашда ўрганиш фаоллиги ва мустақиллигининг турли даражаларини келтириб чиқаради.

Ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлиги характеридан келиб чиққан ҳолда муаммоли ўқитишнинг тўрт тури ажратилади:

- номустақил фаоллик даражаси – ўқувчилар томонидан ўқитувчи тушунтиришини қабул қилиш, муаммоли вазият шароитида ақлий фаолият намунасини ўзлаштириш, ўқувчи томонидан ишлаб чиқариш характеридаги мустақил ишларни, машқларни бажариш, оғзаки қайтариш;

- ярим мустақил фаоллик даражаси аввалги билимларнинг янги вазиятда қўлланилиши ва ўқувчиларнинг ўқитувчи томонидан қўйилган муаммони ечиш йўлини кидириш билан характерланади;

- мустақил фаоллик даражаси – репродуктив-кидирув турдаги ишни бажариш, бунда ўқувчи дарслик тексти бўйича бажаради, янги вазиятда аввалги билимларни қўллайди, қийинчилиги ўрта даражадаги масалаларни тузади, ечади, ўқитувчининг кичик ёрдами билан гипотезаларни исботлайди ва ҳок. ;

- ижодий фаоллик даражаси – ижодий фараз, мантиқий анализ ва тахминни талаб қиладиган мустақил ишларни бажариш, ўқув муаммоси ечимининг янги усулини, мустақил исботни топиш, мустақил хулоса ва умумлаштиришлар, ихтиролар.

Бу кўрсаткичлар ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланиш даражасини характерлайди ва ўқитувчи томонидан ўқувчининг ўқув жараёнидаги тараққиёти кўрсаткичлари, қайтар ахборотнинг асосий моҳияти сифатида қўлланилиши мумкин.

ОБУЧАЮЩИЕ ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИННОВАЦИОННЫЕ СПОСОБЫ УЛУЧШЕНИЯ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ

Ашрапов Р. - Ст. преп. НГПИ
Узбекистан

Annotation: In this article, the author reveals the essence and usefulness of educational game technologies that bring tangible benefits to participants in such a "live" game. He offers his own innovative project that develops students' thinking, concentrated attention, creativity, competitiveness, mental stability.


Основная задача современного образования – это гармоничное развитие молодежи, будущих строителей Нового Узбекистана, способных эффективно решать самые сложные задачи, предъявляемые жизнью. Умение решать задачи приходит в процессе целенаправленного и непрерывного труда, как со стороны опытного педагога, дающего знания, так и со стороны компетентного студента, принимающего эти знания. Педагог оперирует многими педагогическими технологиями, раскрывающие скрытый творческий потенциал и способности студентов, и к одним из таких приоритетных технологий обязательно следует отнести обучающие, игровые приложения.

Выбор игровых технологий обусловлен, прежде всего, содержанием учебного материала и целями обучения, которые применительно к гуманитарным дисциплинам отличаются тем, что предполагают не только развитие умений и навыков, необходимые в быстро развивающемся обществе, но в первую очередь тем, что такие методы включают студента в изучаемую ситуацию, побуждают к активным действиям, развивают творческое мышление, мотивируют к новым знаниям.

Раскроем некоторые аспекты методики осуществления игры «Филькина грамота», созданный автором данной статьи и используемой нами при изучении русского языка для групп с нерусским языком обучения.

В игре «Филькина грамота» необходимо набрать наибольшее количество очков, угадывая устоявшиеся словосочетания. Именно устойчивые словосочетания (крылатые выражения) являются новизной, ноу хау, отличающей эту интеллектуальную игру от других. Игрокам предлагаются, например, следующие выражения – «тришкин кафтан», «зелен виноград», «приятного аппетита», «Бермудский треугольник», «бабье лето», «адамово яблоко», «геометрическая прогрессия», «вечный двигатель» и так далее. Игра состоит из трех туров. В каждом туре предъявляются выражения определенной сложности. В первом туре (легкий уровень) на экране показывается первое выражение.

Например, АД ЯБ Рядом с предлагаемым выражением дается подсказка – **КАДЫК**. Цена предъявляемого задания в первом туре - 200 очков. Трех играющим участникам необходимо в короткий момент найти искомое выражение. Если это не удастся за определенное время – 15 секунд, то на экране появляется вторая подсказка, но цена задания понижается до 100 очков. Участники стоят за своими стойками. Если участник знает правильный ответ, он нажимает на кнопку и загорается лампочка на его стойке, и ведущий обращается к нему. В случае неправильного ответа, игрок пропускает два хода. Цель игры – посредством правильного угадывания словосочетаний набрать как можно больше очков.



Такие обучающие игры устроены так, что в процессе игры студенты не устают, а наоборот, поднимается азарт, повышается интерес, концентрируется внимание, повышается словарный запас. Такие «умные» игры мотивируют к получению новых знаний. И самое главное, эти игры не на время.

Надо сказать, что в обычных играх-стрелялках, помимо появления агрессивности, у игроков начинает болеть сердце, так как во всех этих играх время всегда ограничено, и играющий, торопясь, боясь не успеть выполнить задание (убить какое-то количество людей), «сажает» свое сердце. Сердцебиение должно учащаться только во время быстрой ходьбы или бега, а здесь, сердце напрягается, когда игрок сидит, что приводит к преждевременной болезни сердца.

Двадцать первый век – век бурного развития информационных и компьютерных технологий. Современный мир – это мир нанотехнологий. И с этим фактом надо просто смириться. Поэтому, педагогам важно идти в ногу со временем, а иногда даже впереди.

ИНСОНШУНОСЛИК ИЛМИДА ЎЗЛИК МОҲИЯТИГА НАЗАР **Кодирова Муаттар, БухМТИ Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси**

Тасаввуфшунос олим Нажмиддин Комилов эса ўзининг “Тасаввуф” китобида Азизиддин Насафий маънавий мероси таҳлили асосида қуйидагиларни эътироф этади: “Одам – илоҳий оламнинг ажралмас қисми, илоҳий оламдаги илм ва ҳикмат унда бор. Инсонни Илоҳ олами билан боғлайдиган жавҳар – рухдир. Агар илоҳ оламини билмоқчи бўлсангиз, инсонни, яъни ўзингини ўрганинг, ўзингизни танинг. Инсоннинг қалби, руҳи, кўнглини билиш, кашф этиш сифатлари, мўъжиза – кароматлари, илму ҳикмати ва, ҳатто, зотини ҳам кашф этиш мумкин. Демак, Худони англаш, таниш инсонни англаш ва таниш орқали кечади. “Кимки ўзини таниса, Раббисин танийди”, - деган ҳадиснинг маъноси ана шу. Азизиддин Насафий, Абу Ҳамид Ғаззолий, Жалолоддин Румий бу ҳадисни мудом зикр этганлар”¹²⁶. Олимнинг ушбу таҳлили шундан дарак берадики, инсон руҳи ўз аслини таниса у ўз соҳибини камолотга етаклайди. Бу хусусда файласуф “Платон анамнезисига кўра, инсон илоҳий билимга эга. Бу билимга инсоннинг руҳи у туғилмасдан олдин ошно бўлади, инсон туғилгач, илоҳий билимларни унутади. Инсоннинг кейинги барча ҳаракатлари ана шу илоҳий билимни қайта тиклашга қаратилгандир. Шу тариқа Платон анамнезисида пессимизмдан оптимизмга ўтади”¹²⁷. Бу ғоя тасаввуф таълимотида инсон

¹²⁶ Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009. –Б.25.

¹²⁷ Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. –Т.: Ношир, 2008. –Б. 125.

руҳи шаффоф кўринишда, яъни пок ва улуғ бўлиб, танамизга киргандан кейин у хиралашади, демак у аста-секин ўзлигидан йироқлашади. Бунга сабаб инсоннинг ўз вужуди ва руҳига номуносиб ишларни қилиши туфайли юзага келади.

Баҳовуддин Нақшбанднинг “Сафар дар ватан” рашҳаси орқали инсон ўзлигини англаши мумкинлиги ғоясини изоҳлаш мумкин. Яъни инсон камолотга эришишида сафар қилмоқнинг аҳамияти катта. Лекин Баҳовуддин Нақшбанд ушбу сафарни инсон ўз танасида қилиши лозимлигини таъкидлаганлар. Яъни ўзини мукаммал ўрганмоғи ва шунга мувофиқ ўз вужуди, борлиги ва руҳиятига муносиб иш тутмоғи лозим деган ғояни илгари суради. Шундай инсонларгина Қодирия тариқатидаги “Машғуллик ила фориғлик” ва Нақшбандиядаги “Даст ба кору дил ба Ёр” тамойилида иш тутади. Ушбу ғояларнинг туб моҳиятини англасак инсон танаси моддий неъмат яратиш билан банд бўлган ҳолда қалба Оллоҳ ёди бўлиши даркор. “Машғуллик ила фориғлик” ва “Даст ба кору дил ба Ёр” шиорлари мазмун – моҳиятига теранроқ назар ташлайдиган бўлсак, бу тиланчилик, боқимандалик ёхуд гадоёлик қилишдан кўра ҳалол меҳнат қилиб, ўзи ва оиласини ҳалол луқма билан парвариш қилиши афзаллиги ғояси илгари сурилади. Яъни меҳнат қилган, хунари ёки бирор касб орқали рўзгорини обод қилган киши ҳеч қачон бировга тобеъ, қарам бўлмайди. Ўзини иқтисодини яхшилайти ва риёкорликка бормайди. Бундай инсонлар иқтисодий ўз-ўзини англаган ва ўз куч қудрати билан жамиятнинг фаол фуқароси сифатида ўз ўрнини топган бўлади.

Инсон борлигининг аслини моддий ва руҳий олам борлигининг бирикуви ташкил этади. Буни “Жамъ этувчи борлик” деб атаган Абдулқодир Гийлонийдек мутасаввиф инсон камолотида “Машғуллик ила фориғлик” тамойилида иш тутишнинг аҳамияти беқиёслигини таъкидлаганлар. Гийлонийнинг фикрига кўра инсонда бутун борликда бўлган ҳамма маҳлуқот мавжуддир. Шунинг учун у инсонни шундай таърифлайди: “Инсон Ҳақнинг ойнаси бўлиб, ҳам жамол, ҳам жалол сифатини акс эттирмакда. Бутун коинот яратилаётганда (бу ойна) тўплангандир. Яна бу ҳикматга манба бўлиб, “жамъ этувчи борлик” ва “улуғ олам” номи инсонга берилди”¹²⁸.

Ушбу таърифларни бериш билан Гийлоний инсон борлиги бутун борлиқнинг кичрайтирилган нусхаси деган ғояни илгари суради. Инсоннинг асл сирини шундаки, унинг танаси, зоҳири кичик оламдай кўринса, лекин ботини, руҳий томони илоҳий сир бўлиб, инсон бутун борлиқни ўзида акс эттиради. Шунинг учун ҳам инсон бутун борлиқни билиш учун авалло ўзининг икки жиҳатини ҳам чуқур ўрганиши лозим.

Бунинг моҳияти шундаки, инсон танаси тўрт моддий унсурдан ташкил топган. Булар: тупроқ, сув, ҳаво, олов бўлиб, шу унсур инсон миқдосини белгилайди. Агар миқдос сифатида тўғри келмайдиган озуқа ёки моддийлик таъсир этса, унда инсон бирор касаллик ёхуд инқирозга юз тутиши мумкин. Ҳозирги замон тиббиётида табиблар авалло бемор танасини ва миқдосини чуқур таҳлил этиб кейин унга керакли дори дармон бериб муолажа қилишади. Лекин иккинчи жиҳати, яъни инсон руҳияти масаласига келганда, ҳар қандай одам ҳаётда тақдирида битилган тўғри йўлни топиб бора олмайди. Бунга сабаб ўз руҳий оламидан беҳабар инсонлар қалб амрини, унинг буйруғини тўғри англай олмайди. Ҳозирги глобаллашув даври жадаллиги шуни тақозо этадики, инсон танасидаги кичкина ва кўзга кўринмас шундай куч борки бугунги фан тили билан уни Нано олам деб аталади. Бу шундай кичик зарра ки у атом, нейтрон ва протондан ҳам кичик. Мана шу кўзга кўринмас зарра инсон организмда юз берадиган турли ҳолатларда катта рол ўйнайди. Бу – ахборот ташувчи генлар. Яъни биз табиатимизда, руҳиятимизда шундай ўзгариш ёхуд ўзига хослик кўзга ташланадики, у на ота – онамизда ё бобо – бувимизни табиатида учрамаган. Агар яхшилаб суриштирилса етти пушт олдинги катта бобомиз феъл-атворимизда, касб-корида умуман ҳаёт чизиғида шундай ўзига хосликни кўриш мумкин. Демак, бизнинг ноқислик

¹²⁸ Шайх Сайид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубод. – Т.: Мовороуннаҳр, 2005. – Б. 97.

томонимиз шундаки ўзлигимизни билмаймиз. Ўзимиз англамаган равишда қандайдир мураккаб ишга қўл уриб, яхши натижага эришсак – бу ноёб иқтидоримиз борлигидан ғурурланамиз ёхуд бирор қалтис хатога йўл қўйиб, кейин афсусланиб қолсак, бундай ҳолат бизнинг оила аъзоларида бўлган эмас-ку деган иддаога ўтамиз. Ваҳоланки, бу бизнинг моддий ва руҳий оламимизда биз туғилмасимиздан олдин мавжуд бўлган ахборот ташувчи генлар хизматидир. Халқ тилида буни “суяк суриши” ёки “қонида бор” тарзида ифодаланади. Аслида бу тушунча илмий тилда тарихий хотира билан ҳам ифодаланса маъкул.

Бу хусусда Озод Мўминнинг “Ваҳдат-ул ҳақойиқ” асарида ҳар бир инсон зиммасига юклатилган вазифа хусусида ибратли воқеа баён қилинган. Унга кўра бир одам узоқ сафарга отланганида унинг ҳамроҳи бўлган бошқа бир киши маълум бекатларни босиб ўтганидан кейин ўз кийимларини гадой кийимига алмаштириб, купеда яна ўз жойига қайтиб келиб ўтиради. Уни танимаган ҳамроҳи ўз шеригини қидира бошлайди, лекин поезд йўлга тушган вақтда ҳам ҳамроҳи қайтиб келмайди. Буни сезган гадой кийимидаги ҳалиги инсон шеригига ўзини таништиради. Бундан ҳайратланган ҳамроҳ бунинг сабаби нимада эканлигини сўраганда, ҳалиги киши бир неча йиллардан буён фақат меҳнат таътили берилган вақтда ўз юртига бориб, ота-боболари шуғулланган шу касбни бажариб келишини айтади. Бундан бир неча йиллар аввал у қаттиқ касалликка чалиниб, унга ҳеч бир табиб ёки шифокор даво топа олмайди. Шунда унинг етти пуштини суриштирилганда, уларнинг бобокалонлари гадойлик вазифасини адо этганлар. Ваҳоланки, тиланчиликни ҳам ҳар хил одамлар бажара олмайди, чунки гадой уйга келганда ҳар хил бало-офатларни арзимас садақа эвазига олиб кетар экан. Бу инсон ўзлигини англагани сабаб шу касбни йилида бир марта адо этар экан.

Демак, ўз-ўзини англаш жараёни шу қадар мураккабки, у оламни, жамият ва унинг аъзоларини билиш орқали ўзини билиши, англаши мумкин экан. Бу ҳақда Абдулқодир Гийлоний ҳам қуйидаги фикрни баён этганлар: “Аллоҳ таоло бир қудсий ҳадисда шундай буюрмоқда: “Эй одам фарзанди, албатта мен бир махфий кон эдим, бас, ўзимни ошкор этиб танилайин деб ирода қилдим ва бутун халқни яратдим”. Бундан маълум бўлмоқдаки, Аллоҳ таоло инсонни маърифат учун яратди”¹²⁹.

Инсон сирлар макони экан, у ўзида “улуғ олам”ни акс эттиради. Мана шу оламни билиш орқали у ўзини билади, англайди. Яъни билиш объекти ҳам, субъекти ҳам инсондир. Мана шу ўринда шеърят мулкининг султони ҳазрат Навоийнинг қуйидаги фикрини келтириш жоиз:

Ўз вужудингни тафаккур айлагил,
Ҳар на истарсан ўзингдан истагил.

Дарҳақиқат, инсон энг аввало ўз вужуди ёхуд ўзлигини билмас экан у жамиятда ўз ўрнини топа олмайди, жамиятнинг бошқа аъзолари билан тўғри муомала – муносабатда бўла олмайди. Ҳадиси шарифда “Ўзингга раво кўрганни ўзгага раво кўрмагунингча чин мўмин бўла олмайсан” деган ғоя беҳудага илгари сурилмаган. Мана шу тамойилни ҳаёт дастури эта олсаккина ҳақиқий инсон даражасига етишимиз мумкин.

Бу хусусда Абу Ҳомид Ғаззолийда шундай фикр бор: “Ўзгалар санга қандай муносабатда бўлишини хоҳласанг, ўзинг ҳам уларга шундай муносабатда бўл”. Ҳақиқатан ҳам, инсон ўзлигини топа олса бутун жонли мавжудотга нисбатан тўғри муомалада, адолатпарвар ва виждони уйғоқ киши сифатида танилади ва бундай инсонлар жамиятда ҳукмрон қонунларга бўйсунди.

Инсон мана шу жиҳатлари билан жамиятда яшар экан у фуқаро сифатида шу жамиятнинг қонунларига итоат қилиши зарурдир.

Умумий хулоса сифатида қуйидагиларни тавсия этмоқчи эдик:

¹²⁹ Шайх Сайид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. – Т.: Мовороуннаҳр, 2005. – Б. 42.

- Файласуфлар Фалес, Сукрот ва Анри Пуанкаре қарашларидан келиб чиқиб, инсон энг аввало ўзини **психологик** жиҳатдан билиши керак;
- Шарқ фалсафаси намоёндалари Жалолиддин Румий, Фаридуддин Аттор, Азизиддин Насафий қарашлари асосида **теологик** жиҳатдан, яъни ўз руҳий оламининг илоҳий оламнинг бир бўлаги эканлигини билиши керак;
- Мутасаввуфлар Абдулқодир Гийлоний ва Баҳовуддин Нақшбандлар таълимоти асосидаги тавсияларга биноан инсон ўзининг тана ва руҳи диалектикасини яъни **биологик** – **психологик** жиҳатини билиши керак;
- “Даст ба кору дилба Ёр” ва “Машғуллик ила фориғлик” асосида инсон ўзини **иқтисодий** жиҳатдан англаган бўлиши;
- Ўз насл-насабини, етти пушт зотини кимлигини англаса – **генетик** жиҳатдан англаган бўлади;
- Жамиятда фаол бўлиши нуктаи назардан инсон ўзини **социологик** жиҳатдан англаши;
- Инсон жамиятда буюк қадрият сифатида **аксиологик** жиҳатдан ўзини англаган бўлиши;
- Ўзлигини англаган инсон – **ҳуқуқий** нормаларга амал қилиши лозим ва ҳуқуқий жиҳатдан ўзлигини англаши лозим.

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА АБУ НАСР ФАРОБИЙ МАЪНАВИЙ МЕРОСИ МИЛЛИЙ ВА УМУМБАШАРИЙ ҚАДРИЯТ СИФАТИДА

НавДШИ, ижтимоий фанлар катта уқитувчи Турובה Ш.Б

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада таълим- тарбия жараёнида қомусий аллома Абу Наср Фаробийнинг маънавий мероси миллий ва умуминсоний қадрият сифатида талқин этилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье истолковывается жизнь и духовное наследие ученого-энциклопедиста Ал Фараби как общенациональная и общечеловеческая ценность в образовательном процессе.

RESUME

This article interprets the life and spiritual heritage of the encyclopedic scholar Al Farabi as a national and universal value in the educational process.

“Буюк тарихда ҳеч нарса исиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларда намоён бўлади. Шунинг учун ҳам у кудратлидир. Тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан-авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устивор йўналишларидан биридир. Янги таҳдидлар, жумладан, ”оммавий маданият” хавфи ва боқимандалик кайфияти пайдо бўлаётган, одоб-ахлоқ қадриятларининг йўқолиш хавфи юзага келаётган ҳозирги глобаллашув шароитида бу ғоят муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу сабабли, менинг фикримча, инсон маънавий олами, халқлар маданиятини белгилайдиган манбаларни асраб-авайлаш ва бойитиш бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир”¹³⁰

Дарҳақиқат, XXI-аср, ахборот-технологиялари даврида, жамиятнинг тараққиёт даражаси ўсмоқда. Виртуаллашган жамиятда инсон, унинг онги, ахлоқий ва маънавий қадриятлари ўз аҳамиятини йўқотаётганини гувоҳи бўлмоқдамиз. Ижтимоий ҳаётнинг глобаллашиб, маданиятлар, цивилизациялар ўртасидаги мулоқотлар тезлашуви даврида, миллий ўзлик ва миллий ғурурни йўқотмасликнинг муҳим шarti, аждодларимиздан мерос бўлиб келаётган миллий маданиятимиз қадриятларининг моҳиятини англаш, ёш авлод онги

¹³⁰ Ш Мирзиёев “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз” Т.Узбекистон 2017 1-жилд 29- бет

тафаккурига сингдиришдан иборат. XXI аср табиат ва жамиятда туб ўзгариш, янгилик ва ислохотлар даври сифатида ижтимоий-тарихий тараққиёт солномасида муҳим ўрин эгаллашига шак-шубҳа йўқ. Ислохотларни моҳиятини таҳлил қиладиган бўлсак, бугун ёшлар тарбияси ва комил инсон масаласида янгича ёндошувни йўлга қўйилганлигига гувоҳ бўламиз. Бу таълим-тарбия тизимининг уйғунлиги, уларни бир-бири билан узвий боғлиқлигидадир. Айни вақтда маънавий камолот кўплаб муаммоларни бартараф этишнинг калити сифатида майдонга чиқмоқда. Бу борада Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг қуйидаги фикрлари долзарб аҳамиятга эга: “Олдимизга қўйган улкан вазифаларни амалга оширишда биз учун куч-қудрат манбаи бўладиган миллий ғояни ривожлантиришимиз зарур. Хусусан, миллий ўзлигимизни англаш, Ватанимизнинг қадимий ва бой тарихини ўрганиш, бу борада илмий-тадқиқот ишларини кучайтириш, гуманитар соҳа олимлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашимиз лозим. Ўтмишга берилган баҳо албатта холисона, энг муҳими, турли мафкуравий қарашлардан холи бўлиши зарур.”¹³¹ Юртимиз қадимдан илм-фан ва маданиятнинг ўчоғи бўлиб келган. Хусусан, заминимизда камол топган Марказий Осиё халқлари илмий-маънавий мероси бугунги кунда қимматли хазина бўлиб хизмат қилади. Улар олиб борган илмий изланишларда инсон руҳиятининг маънавий юксакликка интилиши, тинчлик-фаровонлик, миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик, яратувчанлик, юрт ободлиги каби эзгу ғоялар мужассам. Дарҳақиқат, бизнинг маданиятимиз умуминсоният хазинасини бойитган улкан хазина бўлиб, Самарқанд, Бухоро, Хива шаҳарлари фақат олимлар ва санъат ихлосмандлари учунгина эмас, балки тарих ҳамда маданий меросимиз билан қизиқувчилар учун ҳам зиёратгоҳга айланган. Ватанимизнинг нафақат Шарқ, балки умумжаҳон цивилизацияси бешиқларидан бири бўлгани халқаро миқёсда кенг тан олинмоқда. Бу қадимий ҳамда табаррук заминда буюк алломалар, фозилу фузалолар, олиму уламолар етишиб чиққан. Диний ва дунёвий илмларнинг асослари мана шу заминда яратилган, сайқал топган. Энг қадимги тошёзувлар, битиклардан тортиб, кутубхоналаримиз хазинасида сақланаётган нодир қўлёзмалар, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, психология, тиббиёт, математика, физика, кимё, астрономия, меъморчилик, деҳқончиликка оид ўн минглаб асарлар бизнинг бекиёс маънавий бойлигимиз, ифтихоримиздир. Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг илмий, тарихий ва фалсафий мероси, уларнинг замонавий илм-фанлар шаклланиши ҳамда ривожланишига қўшган улкан ҳиссасига оид масалаларни эътироф этмоғимиз мақсадга мувофиқ.

Жумладан, илк ўрта аср Яқин ва Ўрта Шарқда маданият, илм-маърифатнинг раванк топган даври сифатида ал-Киндий, ар-Розий, Абу Наср Фаробий, Ибн Сино, Ибн Рўшд сингари буюк алломаларни етиштириб чиқарди. Улар яратган таълимотлар, илғор ғоялар, аста-секин Европа уйғониш даврига ўз таъсирини ўтказганлиги ҳеч кимга сир эмас. Шу даврнинг буюк мутафаккирларидан бири, ўз замонасининг ижтимоий-фалсафий тафаккури тараққиётига улкан ҳисса қўшган қомусий олим - Абу Наср Фаробий табиий-илмий ва ижтимоий билимларнинг барча соҳаларини ўз ичига олувчи 160дан ортиқ рисола яратган. Фаробий яшаган давр жамият иқтисодий, сиёсий, маънавий ҳаётида катта воқеаларга бой бўлиб, жумладан Яқин Шарқда феодал муносабатларнинг ривожланиши ишлаб чиқариш кучларининг ўсиши, ҳунармандчилик, шаҳар маданий ҳаётидаги юксалиш, халифаликнинг турли ҳудудлари ўртасида шунингдек ҳиндистон, Византия, Хитой, Африка, Ўрта Ер денгизи қирғоқ шаҳарлари билан ташқи савдонинг кучайишига олиб келди. Айниқса, бу даврда маънавий соҳада Ўрта Осиё, ҳиндистон, Юнонистон ва бошқа мамлакатлар халқлари антик илмий ва маданий анъаналарни қайта тиклаш ва

¹³¹ <https://president.uz/uz/lists/view/2228>. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

уларни феодал жамияти эҳтиёжлари заминидан янада ривожлантириш, иккинчи томондан мусулмон руҳонийларининг феодал тузумни турли йуллар билан мустаҳкамлашга қаратилган ҳаракатлари билан кўмаклашишининг гувоҳи бўламиз. Фаробий яратган асарлардаги ижтимоий-фалсафий ғоялари мағзида айнан юқорида таъкидланган даврнинг туб зиддиятлари, ютуқ ва камчиликлари, ижобий ва салбий томонлари том маънода ўз ифодасини топган. Фаробий Яқин ва Ўрта Шарқда биринчилардан бўлиб, ижтимоий зиддиятлар асосида емирилиб бораётган феодал жамиятнинг сиёсий ва ахлоқий ҳолатини фалсафий нуқтаи назардан таҳлил қилишга ҳаракат қилади. . Абу Наср Форобий ўз замонаси илмларининг барча соҳасини мукаммал билган ва бу илмлар ривожига катта ҳисса қўшганлиги, юнон фалсафасини шарҳлаб, дунёга кенг танитгани туфайли Шарқ мамлакатларида унинг номи улуғланиб, “Ал-муаллим ас-соний” –“Иккинчи муаллим” (Аристотелдан кейин), “Шарқ Арастузи” деб юритилган. Ўрта асрнинг бир қанча илмий ютуқлари, умуман Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатларида тараққийпарвар ижтимоий-фалсафий тафаккур ривожининг номи билан боғлиқ. Абу Наср Форобийнинг табиий-илмий фанлар ҳақидаги қарашлари “Илмларнинг келиб чиқиши ва таснифи” асарида батафсил ёритилган. Китобда ўрта асрда маълум бўлган 30 дан ортиқ фаннинг таърифи, аҳамияти кўрсатиб берилади. Шу нарса диққатга сазоворки, Абу Наср Форобий табиий ва ижтимоий фанларни вазифасидан келиб чиқиб тўғри фарқлаган. Унинг талқинича, математика, табиатшунослик, метафизика фанлари инсон ақлини билимлар билан бойитиш учун хизмат қилса, грамматика, мантиқ, шеърят каби илмлар фанлардан тўғри фойдаланишни, билимларни бошқаларга тўғри тушунтириш, яъни ақлий тарбия учун хизмат қилган. Сиёсат, ахлоқ, таълим-тарбияга оид билимлар эса кишиларнинг жамоаларга бирлашувини, ижтимоий ҳаётга тегишли қоидаларни ўргатади. Форобий ўзининг ижтимоий масалаларга бағишланган бир неча рисоаларида бугуннинг энг долзарб муаммолари: мустақил дунёқарашга эга бўлган мукаммал шахсни тарбиялаш, жамиятни маънавий томондан такомиллаштириш, миллатлараро бағрикенглик, ҳамжиҳатлик, тинчлик ва барқарорлик, ижтимоий адолат, қонун устиворлиги, таълим – тарбия тизимини ислоҳ қилиш, ҳалоллик, поклик, адолатлилик ва бошқа шу каби улуғвор сифатларга эътибор қаратади. Жумладан, Буюк мутафаккир ўзининг “Фозил одамлар шаҳри” асарида шаҳарларни “саховатли” ва “саховатсиз” шаҳарларга ажратиш йули билан бу шаҳарларга хос зиддиятларни кўрсатиб, адолатли ва адолатсиз жамиятлар мисолида эзгуликлар ва яхшиликлар ҳамда уларнинг зидди бўлган килувчи ёвузликлар инсоният бахт-саодатга эришувига тўсқинлик қилиши ҳақида тўхталиб ўтади. Фаробий “саховатли” шаҳар ва унда яшовчи фуқаролар ҳақида тўхталар экан: “Чинакам бахтга эришиш учун қилинадиган ишларда кишилар бир-бирларига ёрдам бериш ниятида бирлашган шаҳар саховатли шаҳардир ва бахтга эришиш ниятида қўшнилар бир-бирига кўмаклашадиган жамият саховатли жамиятдир” дейди¹³² Фаробий бу асарда фозиллар шаҳрининг адолатли бошқаруви ва унда яшовчи фуқароларнинг бахт-саодатга эришувида асосий омил фозиллар шаҳри ҳокимига хос бўлган фазилатлар ҳақида тўхталар экан куйидаги ўн икки фазилатни кўрсатиб ўтади: **Биринчидан**, Фозиллар шаҳри ҳокими аввало тўрт мучали соғлом бўлиб, ўзига юкланган вазифаларни бажаришида бирор аъзосидаги нуқсон ҳалал бермаслиги лозим, аксинча, у соғ-саломатлиги туфайли бу вазифаларни осон бажариши лозим. **Иккинчидан**, бундай шаҳар ҳокими табитан нозик фаросатли бўлиб , суҳбатдошининг сўзларини, фикрларини тез тушуниб, тез илғаб олиши, шу соҳада умумий аҳвол қандайлигини равшан тасаввур қила олиши зарур. **Учинчидан**, у англаган, кўрган, эшитган, идрок этган нарсаларни хотирасида тўла-тўқис сақлаб қолиши, барча тафсилотларини унутмаслиги зарур. **Тўртинчидан**, у зехни ўткир , зукко бўлиб, ҳар қандай нарсанинг билинар-билинамас аломатларини ва у аломатлари нимани англатишини

¹³² И. Жумабоев “ Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари” Т. “Ўзбекистон” 1980й 1016

тез билиб , сезиб олиши зарур. **Бешинчидан**, у фикрини равшан тушунтира олиш мақсадида, чиройли сўзлар билан ифодалай олиши зарур. **Олтинчидан**, у устозлардан таълим олишга, билим, маърифатга ҳавасли бўлиши, ўқиш, ўрганиш жараёнида сира чарчамайдиган бўлиши зарур. **Еттинчи**, таом ейишда, ичимликда, аёлларга яқинлик қилишда очофат емас, аксинча, узини тия оладиган бўлиши, (қимор ёки бошқа) ўйинлардан завқ, ҳузур олишдан узоқ бўлиши зарур. **Саккизинчи**, у ҳақ ва ҳақиқатни, одил ва ҳақгуй одамларни севадиган, ёлғонни ва ёлғончиларни ёмон кўрадиган бўлиши зарур. **Тўккизинчи**, у ўз қадрини билувчи ва номус-ориятли одам бўлиши, пасткашликлардан юқори турувчи, туғма олийҳиммат бўлиши, улуғ, олий ишларга интилиши зарур.

Ўнинчи, бу дунё молларига, динор ва дирхамларга кизикмайдиган бўлиши зарур. **Ўн биринчи**, табиатан адолатпарвар бўлиб, одил одамларни севадиган, истибод ва жабр-зулмни, мустабид ва золимларни ёмон кўрувчи, ўз одамларига ҳам, бегоналарга ҳам ҳақиқат қилувчи, барчани адолатга чақирувчи, ноҳақ жабрланганларга мадад берувчи, барчага яхшиликни ва ўзи суйган гўзалликларни раво кўрувчи бўлиши зарур. Ўзи ҳақ иш олдида ўжарлик қилмай, одил иш тутгани ҳолда ҳар қандай ҳақсизлик ва разолатларга муросасиз бўлиши зарур. **Ўн иккинчи**, ўзи зарур деб ҳисоблаган чора-тадбирларни амалга оширишда қатъиятли, саботли, журъатли, жасур бўлиши, кўрқоқлик ва манмансирашларга йул қўймаслиги зарур. Мана шу барча хислатларнинг бир кишида жамланиши амри маҳол, зеро бундай туғма қобилият соҳиби бўлган одамлар жуда кам учрайди ва улар нодир инсонлардир. Мабодо фозиллар шаҳрида шундай баркамол инсон топилиб қолса, унда юқоридаги фикрлардан олтитаси, ёки бештаси камол топганида ҳам, у ақл ва заковатда беназрлиги туфайли фозиллар шаҳрига раҳбарлик қила олади, дейди мутафаккир. Фаробий шаҳар ҳокимларига хос фазилатлар хақидаги фикрини давом еттирар экан, жуда ёшлиқдан қобилиятларини тарбиялашга ишора қилади. Бу фикрлар бугунги кунда таълим-тарбия, жисмоний ва маънавий баркамоллик, унда оила, укув муассасалари ва маҳалла ҳамкорлиги масалаларига ҳамоҳанг.

Алломанинг бу фикрлари бугунги кунда жамият бошқарувида конун устуворлиги тамойилларига ҳамоҳанглиги билан кимматли юулиб, айникса ушиб келаётган ёш авлод, қолаверса жамият бошқарувини уз олдида мақсад қилган булажак раҳбар ҳодимларга маънавий озука булиб ҳизмат қилади.

Фаробий “саховат”ли шаҳарлар аҳолисига “саховатсиз” шаҳарларда яшайдиган кишиларни қарама-қарши қўядики, бундай кишилар айш-ишратни ўз ҳаётий мақсадларига айлантириб, ана шу айш-ишрат деб, ҳар қандай пасткашликка ва ярамас кирдикорларга қўл урушлари мумкин. Жоҳиллар шаҳрининг аҳолиси, бахт-саодатга интилмайдди, бахт-саодат нималигини билмайдди ҳам. Чунки, жаҳолатдаги одамлар ҳеч қачон бахт топмаган ва бахт-саодатга ишонмайдди ҳам. Фаровонликка келсак, жаҳолатдаги одамлар баъзилар назарида бахту-давлат бўлиб кўринадиган ўткинчи, юзаки нарсаларни, мол-дунёни, жисмоний лаззатларни, хирсу-шавкатни, обру, амал, шон-шуҳратни ҳақиқий бахт, фаровонлик деб уйлайдилар. Шу неъматлардан ҳар бири жаҳолатдаги одамлар назарида ҳаётдан мақсад , бахт-саодат бўлиб кўринишини таъкидлаб шундай дейди: “... Жоҳиллар шаҳрининг бир қанча турлари бор. Шулардан бири зарурий эҳтиёжлар шаҳридир. Бундай шаҳар аҳолиси фақат бадан учун зарур бўлган нарсалар: озиқ-овқат, ичимлик, кийим-кечак, тураржой , жинсий алоқа ҳамда шуларга эришиш учун бир-бирларига ёрдам бериш билангина чекланадиган одамлардир”¹³³

Мутафаккир фикрига кўра, барча нарсанинг калити жумладан фаровонлик ва бахтга эришишнинг асоси ҳам илм-маърифат бўлиб, шу асосда жамиятдаги ҳар қандай ёвуз

¹³³ Абу Наср Фаробий „Фозил одамлар шаҳри” Т.А . Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 1993 й 161-162 б.

иллатларни йук қилиш мумкинлиги таъкидланади. Юқорида таъкидланганидек, маънавий таҳдидлар ва ахборот хуружлари кучайган бугунги глобаллашув жараёнида ёшларни мафкуравий иммунитетини шакллантириш, уларда миллий ўзликни англаш туйғусини такомиллаштириш давр талаби бўлиб, Марказий Осиё халқлари илмий- маънавий меросидан ўрин олган бу ноёб қадриятлар ҳуқуқий демократик жамият тамойилларига ҳамоҳанглиги билан қимматли бўлиб барқамол авлод тарбиясида ватан равнақи, мамлакат осойишталиги, жамият барқарорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

ABU NASR FAROBIYNING IJTIMOIIY- FALSAFIY QARASHLARIDA GUMANIZM MASALASI

Ashurov Sh.Sh. – O'zbekiston, NavDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrası

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматриваются социальные взгляды Фараби, одного из великих мыслителей Востока. Его идеи о гуманизме, справедливости, мудрости и справедливости в государственном управлении были философски проанализированы.

ANNOTATION

This article discusses the social views of Farabi, one of the great thinkers of the East. His ideas about humanism, justice, wisdom and justice in public administration were philosophically analyzed.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek xalqi boy ma'naviy-madaniy qadriyatlarga va buyuk allomalarga ega bo'lgan millatdir. Insoniyat paydo bo'libdiki, tinch – totuv hayot kechirish, birdamlik va hamjihatlikda yashash barcha zamonlarda barcha uchun birdek muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimiz va mutasavvufklarimizning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ham bag'rikenglik va birdamlik g'oyalari asosiy o'rinni egallagan. Hozirgi kundagi tahlikali zamonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, millatlararo tinch-totuv yashash va hamjihatlikda faoliyat yuritish uchun butun insoniyatning ma'naviy mulkiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosining o'rne beqiyosdir. Prezidentimiz SH.Mirziyoev ta'kidlaganidek: “ Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olim-u ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz – avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi” .

Shunday buyuk allomalarimizdan biri Abu Nasr Farobiydir. Farobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida “Muallim us - soniy”-“Ikkinchi muallim”, “Sharq Arastusi” deb yuritilgan. Farobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlarini batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. “Muallim us-soniy” nomi bilan shuhrat qozongan mashhur mutafakkir olim, qomusiy alloma Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida gumanizm, adolat, donishmandlik, davlat boshqaruvida odillik kabi fazilatlarini juda ulug'lagan. Uning mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida yuqorida keltirilgan fazilatlar xususida ko'p so'z yuritilgan. Farobiyning fikriga ko'ra, fozillar shahri hokimi o'zida 12 ta

xislatni mujassam etishi lozim. Shulardan o'n birinchisi adolatparvar, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga

murosasoz bo'lishi zarur, deb ta'kidlagan. Insonlarni sevish, ularning haq-huquqlarini adolat yuzasidan himoya qilish va eng muhimi murosasoz bo'lish kabi xususiyatlar bag'rikenglik, birdamlik va totuvlikning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Farobiy o'zining ushbu asarida insonlarning baxt-saodatga erishuvi bevosita o'ziga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi, ya'ni insonning o'tkir aql-zakovat sohibi ekanligi, dunyoqarashining kengligi, unda fahm-farosatning ustunligi va nafsiga erk bermagan holda o'zida insoniylik fazilatlarini shakllantirishi baxt-saodatga erishuvining kalitidir degan fakrlarni ta'kidlaydi. Fozillar shahriga zid bo'lgan amalparastlar, hokimiyatparastlar shahri kishilarini Farobiy shunday tasvirlaydi: “Bunday shahar aholisi barcha xalqlar ularga bo'ysunishini, o'zlari hech kimga bo'ysunmaslikni xohlaydilar. Ularning fikri-zikri g'alabalar nashidasini surishga qaratilgandir”. Bu o'rinda mutafakkir insondagi xudbinlik,

adolatsizlik va boshqa xalqlar tinchligiga raxna soladigan kishilarni tanqid qilgan va bu insonlarning baxt-saodatga erishuvidagi eng zararli illat ekanligini ham ta'kidlab o'tgan. U shunday yozadi: “Fozil jamiyat va fozil shahar shunday bo'ladiki, shu shaharning aholisidan bo'lgan har biro dam kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar.... Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi.” Farobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podshoh, rahbarlarga ham ma'lum talablar qo'yadi. U xalq haqida doimo g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruhi o'zlarida muhim olti xislatni ifodalashlari kerak, ya'ni adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi kerak.

“Aholilarning diniy e'tiqodlari xurofiy, xato dunyoqarashlarga asoslangan shaharlarni jaholatdagi yoki adashgan shaharlar deymiz”. Mutafakkir “Fozil odamlar shahri” asarining 34-bobini shunday jumlar bilan boshlagan va ba'zi mavjudotlar o'z-o'zini himoya qilish, o'z zotini yo'qolib ketishdan asrash uchun boshqa o'ziga qarshi bo'lgan mavjudotlar bilan kurashishga intiladilar deb ta'kidlaydi. Shuningdek, ko'p hayvonlar o'zlariga zarar yetkazmasada atrofidagi boshqa hayvonlarga tashlanib, ularni yo'q qilishni xohlaydilar. Bu bilan esa ular yagona hukmronlik tomon intiladi degan fikrlari ham ushbu asarda ilgari surilgan. Allomaning hayvonlar misolida keltirgan ushbu fikrlari bugungi kunda bir-birining tinchligiga, xotirjamligiga rahna solayotgan insonlarga, xalqlarga ham tegishlidir. Chunki tinchlik va osoyishtalikda yashayotgan insonlar hayotiga rahna solish, besabab qon to'kilishiga sabab bo'lish hamda xalqlar orasida turli diniy ixtiloflarni qo'zg'atish gunohdir. Xalqlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, o'zaro totuv va hamjihatlikda yashash lozimligi g'oyalarga Farobiy o'z asarlarida ko'p to'xtalgan.

Mutafakkir insonlarni o'zaro hamjihatlik va totuvlikda yashashga da'vat etgan holda ular o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'qligini, insoniyatning bir-biriga zarar yetkazishi yoki tinchligini buzishga qaratilgan turli g'oyalarning ilgari surishi zamirida o'zaro manfaat yotishini ta'kidlab o'tgan. Ba'zi insonlar o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa odamlarni ular bilan birlashishga majbur qilib, atrofidagilarni o'ziga bo'ysundirib, o'ziga yetarli miqdorda xayrixohlarni to'playdi. Ba'zi toifa odamlar esa mehr-oqibat, o'zaro do'stlik va tolerantlik nuqtai nazaridan birlashib, to'qlikda va farovonlikda yashaydi. Ikkinchi toifadagi kishilar birinchi toifa kishilariga nisbatan kuchliroq, baxtliroq va yoqimliroqdir, deydi Farobiy. “Yana ba'zilar o'ylashicha, odamlar o'rtasidagi bog'lanish robitalari shu odamlarning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiylikiga asoslanadi. Har bir xalq o'ziga xos mana shunday xususiyatlarga ega. Shu tufayli har har bir xalq vakillari boshqa xalq vakillariga aralashib, qo'shilib ketmasligi kerak. Chunki, turli xalqlar xuddi ana shu xususiyati bilan farqlanib turadi”. Xullas, Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar atrofida bo'ladigan munozaralarda muhim ahamiyat kasb etadi.

MARKAZIY OSIYO XALQLARI MADANIY UYG'ONISHINING sIVILIZATSION AHAMIYATI

Rasulov Rustam– NavDPI magistratura 2-bosqich talabasi

Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi bu madaniy yuksalish VIII-IX asrlarda arab xalqlarida yuz bergan madaniy yuksalish kabi bu hudud xalqlari hayotida ham sodir bo'lgan o'ziga xos uyg'onish davri edi.

Ushbu uyg'onish, avvalo, bu xalqlar hayotida shu paytgacha ularda hech qachon yuz bermagan yangi siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalish bo'lib, u ayni shu davrda bu xalqlarning mustaqillikka erishuvi tufayli ro'y bergan edi. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlaridan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar insoniyat sivilizatsiyasi tarixida o'ziga xos, betakror so'nmas iz qoldirishadi va o'zilaridan keyingi XIV-XVI asr Amir Temur davri madaniy yuksalishi yangi uyg'onshining hamda yevropa uyg'onishining vujudga kelishida juda katta rol o'ynadilar. SHuning uchun bu davr Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy yuksalishini haqli ravishda biz O'rta asrlar SHarq madaniy yuksalishining ilk Uyg'onish davri, deb ayta olamiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy uyg'onishi o'zining siyosiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy jihatidan ham, hududiy geografik jihatdan ham, makon va vaqt jihatidan ham, arab uyg'onishi va yevropa uyg'onishidan tubdan farq qiladi. Bu uyg'onish davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida o'ziga xos, betakror madaniy yuksalish bo'lishi bilan, bu hudud xalqlarining o'zligini anglashi, o'z mustaqiligini qo'lga kiritishi, o'zlarining milliy mustaqil davlatlarini tuzishlari bilan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy yuksalishlari bilan, buyuk ensiklopedist daholarni yetishtirishlari bilan insoniyat madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi. Lekin ikki asrdan ortiqroq davom etgan bu davr yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning, ularda hokimiyatni boshqargan mahalliy feodallarning o'zaro noittifoqligi, hokimiyat uchun, shon-shuhrat uchun, boylik uchun olib borgan urushlari, nizolari tufayli XIII asrning boshlarida o'z nihoyasini topadi. Markaziy Osiyo xalqlari XIII asrning 20-yillarida mo'g'illar tomonidan istilo qilinishi tufayli o'z mustaqilliklarini yo'qotadi va mo'g'illar asoratiga tushib qoladi. Natijada, Markaziy Osiyo xalqlarining ilk Uyg'onish davrida erishgan hamma yutuqlari, madaniy yuksalishi mo'g'illar tomonidan yer bilan yakson qilinadi, o'zlari talanadi, qiriladi, butun boyliklari tortib olinadi, butun o'lka mo'g'illarning mustamlakasiga aylanadi. Bu holat deyarli bir yarim asr davom etib, nihoyat, XIV asrning 70-yillariga kelganda, Amir Temur tomonidan mo'g'illar asoratiga uzil-kesil zarba berilishi va mustaqil Amir Temur davlatlarining Temur imperiyasining vujudga kelishi bilan barham topadi. Amir Temur va temuriylar mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotidagi yangi uyg'onish davri edi. (Bu keyingi mavzuda yoritiladi).

IX-XII asrlarda insoniyat sivilizatsiyasiga o'zlarning munosib hissalarini qo'shgan Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) dir. Al-Xorazmiy dunyo faniga juda katta hissa qo'shgan vatandoshimizdir. U algebra fanining asoschisidir. «Algebra» so'zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fil-hisob al-jabr va al-muqobala» asarining nomidan olingan «al-jabr»ning lotincha yozilishidir. Uning arifmetikaga oid risolasi hozir biz foydalanadigan o'nlik qatorlar tizimi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, keyinchalik butun yevropa va dunyoga tarqaladi. Al-Xorazmiyning geografiyaga oid asari kiyingi davrlarda bir qancha geografik asarlarning yaratilishiga zamin bo'ladi. Uning astronomiyaga oid «Zij» asari SHarqda ham, yevropada ham astronomik bilimlarining rivojlanishiga yo'l ochib beradi.

Bular: 1) «Al jabr va al muqobala hisobi haqida kitob» (algebra o'ld); 2) «Hind hisobi haqida kitob»(arifmetikaga o'ld); 3) «Kitob surat al-arz» (geografiyaga o'ld); 4) «zij» (astronomiyaga o'ld); 5) «Usturlob bilaan ishlash haqida kitob», 6) «Usturlob yasash haqida kitob», 7) «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», 8) «Kitob ar-ruhoma», 9) «Kitob at-ta'rix», 10) «YAhudiylarining taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola». Al-Xorazmiyning

bu asarlari u yashagan feodal tuzumining amaliy talablariga javob sifatida vujudga keladi. Rivojlanib kelayotgan feodal tuzumi taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davr ilm-fan taraqqiyotining asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi. Bu davrdagi qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya va boshqa ilm sohalarini taraqqiy ettirish zarur edi. o'z davrining ilg'or olimi bo'lgan al-Xorazmiy bu bilim sohalarining amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lgan holda o'zining arifmetikaga oid asarida shunday yozgan edi: «Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitobni taklif qildim, chunki meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchash, kanallar o'tkazishda geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir. Olimning «Al-Xorazmiy» nomi lotin tilida «algoritmus» deb atalib, hozir bu ibora hisoblash sohasida «algoritm» degan holda fanda chuqur o'rtnashib qoldi. Al-Xorazmiyning tabiatshunoslik fanlariga oid 20 dan ortiq asarlari bo'lib, ulardan bizgacha faqat 10 tasi yetib kelgan.

ЖАМИЯТНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ТИЗИМИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ТАҲЛИЛИ

**Тилавова Г.Қ.-кат.ўқит. Учқудуқ саноат техникуми
Ўзбекистон**

***Resume:** This article describes the peculiarities of the formation of the spiritual and moral image of young people in the digital society, and highlights the features that require attention in this process.*

Эндиликда, рақамли технологияга асосланган замонавий жамиятларда ахлоқнинг янги таҳдидларини ижтимоий таҳлил этиш зарурати пайдо бўлди. Бунда нафақат ижтимоий-иқтисодий ва маданий меъёрларнинг ўзгариши, балки жамиятни ахборотлаштириш туфайли инсоннинг тафаккури, унинг маънавий-ахлоқий талаблари ҳам ўзгариши инobatга олиниши мақсадга мувофиқдир. Шунингдек, ҳозирги тезкор замонда рўй бераётган ҳар қандай салбий ўзгаришларга бардош бера оладиган янги маънавий-ахлоқий императивлар ва қадриятлар тизимини шакллантириш масаласи ўта долзарбдир.

Таъкидлаш ўринлики, ҳозирги замон динамикаси шунчалик мураккаб ва ноаниқки, инсон ўзида мавжуд бўлган ҳар қандай ахборот воситаларининг аниқ ва ишончли кучига қарамасдан, қабул қилинаётган ахборотни саралаш, таҳлил қилиш ва қарор қабул қилишда муайян қийинчиликларга дуч келмоқда.

Информацион фаолият субъектлари ҳатти-ҳаракатида устунлик қилаётган ахлоқий императивларнинг бузилиши, маънавий қадриятларнинг ўзгариши, маъсулиятсизлик, худбинлик, шуҳратпарастлик каби иллатларнинг барчаси инсонлараро муносабатлардаги зиддиятларнинг кучайишига сабаб бўлиши мумкин. Аслини олганда ахлоқ муаамоси ҳар қандай замон ва маконда ҳам ўта долзарб ҳисобланган, лекин бугунги замонавий жамиятларда бу масала ҳар қачонгидан ҳам долзарб ва ривожланиш нуктаи-назаридан ўта тезкорлиги билан фарқланади.

Бугунги замонавий жамиятда шахснинг маънавий-ахлоқий шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хослиги ва мураккаблиги бир қатор омиллар билан белгиланаётганлигини айтиш мумкин:

Биринчидан, глобаллашув жараёнлари ва шунингдек, мамлакатларнинг информацион жамият босқичига ўтиши билан, бу, бир томондан, шахснинг қадрият йўналишларини интеграциялашувига, иккинчи томондан, уларни ўзининг соф миллий минталитетидан узоқлашишига сабаб бўлди.

Иккинчидан, ижтимоийлашувнинг асосий институтлари, айниқса, ёш авлодни тарбиялашда масъул энг асосий бўғин ҳисобланган оила ва мактабнинг янги стратегиялар ҳосил қилган жамиятнинг шиддатли ўзгарувчанлигига мослашиш учун янги стратегиялар ишлаб чиқишига мажбур бўлди. Ва, бу авлодлараро урф-одатлар ва ижтимоий-маданий қадриятларни маълум маънода инқирозга олиб келди.

Учинчидан, шахс маънавий-ахлоқий қиёфасини шаклланишида оммавий ахборот воситалари, виртуал муҳит таъсирининг ортиши, шунингдек, уларнинг ижтимоийлашув функцияларининг аҳамиятига асосланган маданиятнинг рақамли турига ўтишни тезлаштирди.

Тўртинчидан, ахборот технологияларини жамият ҳаётининг барча соҳаларида-сиёсий, иқтисодий, ижтимоий-маданий соҳаларда кенгайиб бориши билан белгиланади.

Маънавият ва ахлоқ-бу шахснинг жамиятдаги қадриятлар йўналишлари тизимини шакллантирадиган ва натижада унинг хулқ-атвори ва шахслараро ўзаро алоқаларни белгилаб тартибга соладиган асосий ва устувор фазилатлардир. Тадқиқотлар давомида инсоннинг маънавий-ахлоқий қиёфасининг ривожланиш даражаси жамиятни ўзгартириш динамикаси ва йўналишини белгилайдиган тузилиш эканлиги аниқланган. Турли давр ва маданиятларда ахлоқ тўғрисидаги қарашлар, бу маълум бир даврда ушбу ижтимоий тизимларга хос бўлган қадриятлар, идеаллар ва меъёрларга боғлиқ бўлади.

Бинобарин, рақамли жамиятнинг шаклланиши ва тобора ривожланиши муносабати билан янги ва ўзгарувчан ижтимоий воқеликнинг хусусиятларига мос келадиган ва эндиликда кенг омма томонидан қўллаб-қувватланаётган ахлоқийликдан ҳоли бўлиш концепциясига қарши тура оладиган янги маънавий ва ахлоқий императивларни шакллантириш зарурати пайдо бўлди. Бунга асосий сабаб эса, Ахборот асрида инсон онгида ахлоқий ва маънавий қадриятларга нисбатан ҳурмат ўрнини ахборотни тезкор идрок этиш, катта ҳажмдаги маълумотни таҳлил қилиш ва қайта ишлаш, ахборот-коммуникация технологияларини ўзлаштириш, ахборот билан ишлаш усуллари ва технологияси каби кўникмаларга тайёрлаш муаммоси марказий муаммога айланиб бормоқда.

Шуни таъкидлаш керакки, инсоннинг маънавий ва ахлоқий шаклланиши ва ривожланиши иерархик равишда содир бўлади. Бир босқичдан иккинчисига ўтишда шахсга турли хил ижтимоий институтлар таъсир қилади, улар орасида тизимни ташкил этувчи энг муҳим вазифа оила томонидан амалга оширилади. Айнан оилада энг дастлабки қадриятлар шакллантирилади, уларнинг проекциялари шахслараро муносабатларда янада аниқроқ ўз ифодасини топади. Ҳаммасидан ҳам оила маданий ва тарихий меросга эга бўлиб, у билан танишиш ва қабул қилиш шахснинг "Ватан", "уй", деб белгиланган қадриятлар маконида яшашини белгилайди.

Маънавий ва ахлоқий ривожланишнинг кейинги босқичини шакллантириш маърифат ва таълим билан боғлиқ. Замонавий технологиялар туфайли дунё ўзгариб бормоқда ва нафақат инсоннинг ўзини намоён этишида, балки унинг воқеликни англаш жараёнида ҳам ўзига хосликлар кузатилмоқда. Зотан, бундай ўзгаришлар замонида ахборот маконининг маънавий-ахлоқий қоидаларини академик тушунишдан ташқари, жамият ва инсон ўзи яшайдиган янги муҳит (жисмоний муҳит эмас) тўғрисида хабардор бўлишига ёрдам бериш учун ахлоқнинг амалий моҳиятини кучайтириш зарур. Ушбу муаммони ҳал қилишда таълим тизими етакчи ўринни эгаллайди.

ПРОБЛЕМЫ ВЫПОЛНЕНИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПО ТЕХНОЛОГИИ Б.БЛУМА

Шахназарова Дилфуза Нарпулатовна
преподаватель кафедры «Русского языка и литературы» НавГПИ

Категория взаимодействия учителя и ученика является одной из основополагающих в педагогике. Наиболее активно эта категория исследуется в связи с задачей анализа структуры воспитательных взаимодействий и на уроках русской литературы. Приоритет развития и формирования личности в сфере современного образования требует обновленной педагогики этого процесса – педагогических основ. Прежде всего, в этом нуждаются общеобразовательные школы – им необходима соответствующая учебно-методическая помощь, в первую очередь, учителям русской литературы.

Велика возможность школьного предмета – литературы в развитии, формировании и совершенствовании личности современного подрастающего поколения. Ни один предмет не может сравниться с эмоциональным воздействием на учащихся в той мере, в какой это доступно литературе и монографическим учебным материалам. В учебниках характеризуется личность писателей, помещаются их портреты. Однако тесты о личности писателей разбросаны и скупы, а портреты несут чисто иллюстративную функцию. Что и побудило нас на вербально-образное изучение – приятие личности писателей во взаимосвязи с текстовым материалом учебника – в целях усиления впечатления и более глубоких знаний учащихся о личности, богатом внутреннем мире писателя, в гармонии с внешним обликом. Но главным представляется перевод текстового учебно-литературного материала, во взаимосвязи с художественным образом писателей, на высокий уровень суждений учащихся – духовного, нравственного, идейного и мировоззренческого характера, обуславливающих всестороннее воспитание и целостное развитие учащихся.

Усвоение учебного материала по русской литературе, представляя сложный неоднородный процесс, включает взаимообусловленные этапы и характеризуется рядом особенностей, которые наиболее явно проявляются в формировании и развитии навыков, которые включаются в процесс развития обучающегося, формируются в ходе собственной деятельности обучаемого, связана с определением оптимальных условий, обеспечивающих формирование умения анализировать и создавать намеренно структурированный текст на основе усвоения студентами учебного материала, его категориальных признаков.

Изучение состояния конкретно интересующего нас вопроса в практике общеобразовательных школ показало, что портретный жанр изобразительного искусства используется, однако в большинстве случаев в наглядно-иллюстративных целях. Имеющиеся попытки педагогически действенного, научно-методического подхода не дают положительных результатов в более глубоком познании учащимися личности писателей, поскольку этот процесс не опирается на научно аргументированные педагогические основы, новые технологии, инновационную методику, современное – новое педагогическое мышление.

В нашей педагогической, исследовательски-направленной практике, определяются педагогические основы использования портретного жанра изобразительного искусства в процессе внеклассного изучения литературы, важнейшими из которых считаем следующие: методолого-педагогическую установку; учет возрастных особенностей учащихся; цель и задачи; выделение содержания учебного материала во взаимосвязи и соотносённости с конкретно-портретным художественным образом писателя; система данного учебного процесса; педагогические принципы; требования к отбору портретов писателей; подготовка учащихся; процесс, его технология и методика; условия,

оптимизирующие данный процесс; результатов.

Методолого-педагогические положения (установки):

- изучение литературного материала во взаимосвязи с изобразительным (в их комплексе) – важный фактор всестороннего развития личности обучающихся;

- изучение учебно-литературного материала во взаимосвязи с изобразительным искусством требует новой технологии, оптимальных методов и приемов, соответствующих уровню современных педагогических задач.

Использование портретного жанра изобразительного искусства на уроках литературы, во взаимосвязи с текстом учебника, - средство более глубокого изучения личности писателя, фактор воспитательного воздействия на личность учащихся, особенно подростков.

Таким образом, на уроках литературы при выполнении учебных заданий, происходит восприятие изучаемого художественного текста, в соответствии с таксономией Бенжамина Блума, а именно, учащиеся учатся неординарно мыслить, оригинально рассуждать, что реализуется на основе определенной складывающейся или уже сложившейся мировоззренческой позиции учащегося. На этапах осмысления художественного текста у учащихся развиваются самостоятельное суждение, логико-аналитический подход к изучаемым явлениям, обогащение мировоззренческих ориентаций, формирование своих принципов, определение круга ценностей.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абдуллаева Ш.А. Педагогика.-Ташкент: Фан ватехнологиялар, 2014.-С.12.
2. Кларин В.М. Педагогическая технология в учебном процессе. Москва. Сентябрь-2011.10-116с.
3. Levi Stross. The Taxonomy of Educational objective in Continental Europe-Universities Chikago.-2010-P.234
4. www.pedagog.uz

ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИНИНГ ИННОВАЦОН ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТИДА ТИЗИМЛИ-МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН СИФАТЛАР

Ш. У. Бобоназаров-НавДПИ, Ўзбекистон

RESUME The scientific article describes the improvement of the quality and effectiveness of education through the systematic modeling of pedagogical activity of the modern teacher, with the professional qualities of the teacher and the requirements for it.

Keywords. Model, modeling, constructiveness, system-modeling, pedagogical technologist, innovation, quality

Ҳар бир жамиятнинг келажаги унинг ажралмас қисми ва ҳаётини зарурати бўлган таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Бугунги кунда булажак мутахассисларни тайёрлаш тизимини интенсивлаш омиллари сифатида информатика методлари, янги инновацион технология ва интернет хизмат тизимларидан касбий фаолиятда тугри фойдаланишнинг методологик ва методик билим, куникмалар мажмуаси билан куруллантириш лозим. Бу албатта ўқитувчи – педагоглар зиммасига катта масъулият юклаши билан бир қаторда соҳага юксак малакали кадрлар етказиб беришни тақоза этмоқда. Бундан шуни англаш мумкинки, таълим тарбияга мутасадди бўлган педагог ходимларнинг ўзлари ҳам билим ва салоҳият соҳиби бўлмоғи зарур.

Мамлакатимизда истиқлолнинг дастлабки йилларидан бошлаб таълим-тарбия тизимини жадал ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, ёшларнинг жаҳон андозаларига мос шароитларда замонавий билим ва касб-хунарларни эгаллашлари, жисмоний ва маънавий жиҳатдан етук инсонлар бўлиб вояга етишларини таъминлаш,

уларнинг қобилият ва истеъдоди, интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариш, ёшларимиз қалбида она юртга садоқат ва фидойилик туйғуларини камол топтириш борасида улкан ишлар амалга оширилмоқда.

Таълим ислохотларининг замонавий босқичи жамиятда юз бераётган янгиланишларнинг тезкорлиги, таълим муассаларига қўйилаётган янги, янада юкори талабларга тезроқ мослашиш билан боғлиқ долзарб вазифаларни илгари сурмоқда. Албатта, замоннинг шиддат билан жадаллашувига мослашган ҳолда одимлаш бугунги кун талабидир. Шиддат билан ўсиб, ўзгариб бораётган ҳозирги кунимизда турли-туман иқтисодий, сиёсий, мафкуравий муаммолар ва таҳдидларни фақат ва яна фақат илму-марифат орқалигина енгиб ўтишимиз мумкин булади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев такидлаганларидек “Яна бир муаммони ҳал этиш ўта муҳим ҳисобланади: бу педагоглар ва профессор-ўқитувчилар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий қадриятларини шакллантириш жараёнларига фаол қўмак берадиган муҳитни яратиш зарур”

Таълим жараёнини тизимли моделлаштириш методологик функция бажаради. У талабанинг психик ривожланиш қонуниятлари, ўқув жараёнининг ривожланиш хусусиятлари ва педагогик бошқарув усулларининг тадқиқот воситаси сифатида майдонга чиқади..

Моделлашган таълим технологияларни ишлаб чиқиш тартиби қуйидаги кетма-кетликдаги босқичларни ўз ичига олади: аналитик, концептуал, мақсадли мазмунли ва жараёнли. Аналитик босқичида ўқув предмети бўйича давлат таълим стандартлари, ёш авлодни ҳар тамонлама ривожлантиришга йўналтирилган таълим мазмуни ва ташкилий шакллари танлаш назарда тутилади. Концептуал босқичда эса таълим тизими босқичларида назарда тутилган асосий ғоялар ифодаланган хулосалар ҳисобга олинса, мақсадли босқичида таълим муассасасининг узоқ муддатга мўлжалланган мақсади, шунингдек, таълим соҳалари ва шу блокдаги ўқув предметининг ифодаланиш мақсади ҳисобга олинади. Педагогик технологияларни ишлаб чиқишнинг мазмунли босқичида таълим соҳалари, шунингдек, шу блок тизимидаги ўқув предметлари мазмуни танлаш тамойиллари мезонлари аниқланади.

Тизимли-моделлаштирилган фаолиятда замонавий ўқитувчининг асосий вазифалари:

- жамият талабларига жавоб берадиган истиқболдаги тараққиётга, мамлакатнинг иқтисодий ва социал тараққиётига, замонавий фан, техника, технология ва маданият ютуқларига асосланган ҳолда математика ўқитувчисини тайёрлашни ташкил этиш ва уни мунтазам такомиллаштириш;

- ёшларни миллий истиқлол мафкураси, умуминсоний қадриятларни билиш асосида, мустақиллик идеалларига садоқат, ватанга, оилага, ўраб олган табиатга муҳаббат руҳида тарбиялаш;

- ахлоқий, маданий ва илмий қадриятларни сақлаш ҳамда уларни бойитиш;
- шахснинг интеллектуал, маданий ва ахлоқий ривожланиш талабларини қондириш;
- ўқув жараёнига янги педагогик ва ахборот технологияларини, таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашувининг жорий механизмларини киритиб бориш.

Демак, хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки -ахборот коммуникация технологияларидан таълим жараёнида фойдаланилганда таълим-тарбия ишларининг самарадорлиги ошади, ва баркамол авлод ва етук мутахассисларни тарбиялашда ахборот коммуникация технологиялари муҳим омил булиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.М.Мирзиёев Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

2. Ш.М.Мирзиёев “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Тошкент 2017, 45-бет.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология / Учебн.пособие для студентов высш.пед.учеб.заведений. – Ростов-на-Дону: РГУ, 1997. – 287с
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000
- 5.S.S. Bo‘latov “Yoshlarga hunar o‘rgatishning milliy an‘naviy asoslari” metodik tavsiya T.RUMM.1993y
- 6.N. Oydinov “Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari” T. O‘qituvchi 1997
- 7.R. Xasanov “Maktabda tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi” T. Fan. 2004 y

IMOM AL – BUXORIY – HADIS ILMINING SULTONI

Hamroyeva S., Shirinova F.- NavDPI O‘zbekiston

Resume: This article analyzes the life and collected hadiths of Imam al-Bukhari, the Sultan of the science of hadith, and argues that hadiths are a source of goodness in the heart of the younger generation.

Key words: Al-Bukhari, enlightenment, Islam, religion, etiquette, hadith, science, heritage.

Tarixga nazar tashlasak, IX – XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy va ma‘naviy yuksalish ko‘zga tashlanadi. Buning asosiy omillari esa quyidagilar bo‘lib, ular alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

1. IX – XII asrlarda arab xalifaligidan qutilib, yerli mustaqil davlatlarning vujudga kelgani;
2. Yagona din – islom tufayli katta hudud – Yaqin va O‘rta Sharqdagi turli xalqlar, mamalkatlar o‘rtasidagi aloqalarning rivoj topishi, madaniyat, ma‘naviyatda ma‘lum umumiylik vujudga kela borgani;
3. Oldingi “Ipak yo‘li” ahamiyatining oshishi, mamlakatlararo savdo – sotiqning, hunarmandchilikning ko‘paygani, shahrlarning rivoji;
4. Jahon madaniyati avval erishgan yutuqlar, xususan, qadimgi yunon, hind, eron madaniyati, ilm – fani yutuqlari inkor etilmay, aksincha, vorislik davom qilgani, undan keng foydalanilganidir.

Yuqoridagi omillar asosida rivojlangan IX – XII asrlardagi Movarounnahr va Xuroson madaniyati yutuqlari musulmon Sharqi, jahon madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Bu davr X – XII asrlar shuhrati butun madaniy olamga yoyilgan Muhammad ibn Muso Xorazmiyning “Al jabr va Al – Muqobila”, Muhammad Farg‘oniyning “Astronomiya asoslari”, Abu Nasr Farobiyning “Ilmlar tasnifi”, “Fozil shahar aholisi fikrlarining asoslari haqida”, “Musiqqa haqida kitob”, “Musiqqa” risolasi, Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Astronomiya kalitlari”, “Ma’sud qonuni” kabi o‘lmas asarlari yaratildi.

Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda islom ta’limotining, hadis ilmining takomili yo‘lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo‘ldi.

Bu borada ayniqsa “Hadis ilmida amir al – mo‘miniyn” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Imom al – Buxoriy (Muhammad ibn Ismoil al – Buxoriy – 810 – 870 – yillarda yashab ijod qilgan) alohida e’tiborga molik buyuk olimdir. Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al – Mag‘iyra ibn Bardazheb al – Juafiy al – Buxoriy bo‘lib, hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13 – kuni (810 yil 20 iyul) da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa olimlardan farqli tomoni shundaki, al – Buxoriy tug‘ilgan sana aniq ko‘rsatilishiga sabab shuki uning otasi Ismoil o‘z davrining ilmi odamlaridan bo‘lib, o‘g‘lining tug‘ilgan kunini o‘z qo‘li bilan yozib ketgan qog‘oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va uning aniqligiga shubha

yo‘q.

Imom al – Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, islom ta‘limotiga oid yigirmadan ortiq asar yozdi. Ulardan “Al – jome’ as – sahih”, “Al – adad al – mufrad”, “At – ta’rix as sag‘iy”, “At – ta’rix al avso‘t”, “Kitob al ilal” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu asarlar ichida eng muhimi “Al – jome’ as – sahih” asaridir.

Alloma ibn Sallohning ta‘kidlashicha, “al – Buxoriyning bu bebaho asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat”¹³⁴. Hadis to‘plashdek sharaflil va ulug‘ ishni birinchi bo‘lib, al – Buxoriy boshlab bergan bo‘lib, keyinchalik qator olimlar va mutafakkirlar unga taqlid qilib hadislar to‘plamini yaratdilar. Al Buxoriyning “Al – jome’ as – sahih” asari yaratilganiga 1200 yildan ortiq vaqt o‘tdi. U hozirgacha islom ta‘limotida Qur‘ondan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan muhim manba hisoblanadi.

Imom al – Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar nafaqat islom qoidalarini o‘zida aks ettiradi, balki ular mehr – muhabbat, saxiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota – ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim – yesirlarga muruvvat, faqirlarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halolikka da‘vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o‘zni tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyat ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo‘l – yo‘riqlar, pand – nasihat va o‘gitlar aks ettirilgan.

Shu narsani qayd etish lozimki, Imom al – Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal xulq – atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi, himmatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al – Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd etilgan. Buxoroda al – Buxoriyni hamma hurmat qilgan, lekin hasadgo‘ylarning uni ko‘rolmasliklari natijasida Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az – Zuhaliy bilan al – Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib “Al – jome’ as – sahih”, “At – ta’rix” kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin al – Buxoriy “Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi”¹³⁵, degan javobni aytadi. Amirga bu javob yoqmay, fitnachilarning gapiga kirib, al – Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al – Buxoriy Samarqandga qarab yo‘l oladi va bir muncha muddat Xartang qishlog‘ida o‘z shogirdlari va qarindosh – urug‘larinikida yashagandan keyin og‘ir kasalga chalinib, hijriy 256 yil (milodiy 870 yil) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Xullas, “O‘rta asrlarda yashagan ko‘pgina olimlar ilm – fanning turli sohalariga oid dunyoviy fanlar bilan birga diniy ilmlar rivojiga ham katta e‘tibor berganlar. Zotan, diniy ilmlar jamiyat taraqqiyotida, insonlarning kamol topishi va ularning dunyoqarashining shakllanishida alohida rol o‘ynagan”.¹³⁶ Xuddi shuningdek, al – Buxoriy ta‘limoti, u qoldirgan boy meros, oltinlarga bergusiz u to‘plagan hadislar ham asrlar osha avlodlar qalbiga ezgulik urug‘larining unishida xizmat qiladi.

¹³⁴ Ma‘naviyat yulduzlari. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T. 2001. 67 – bet.

¹³⁵ “Imom Al – Buxoriy saboqlari” jurnali 2004 yil, 1 – son.

¹³⁶ F. Sulaymonova. “Sharq va G‘arb”. Toshkent. “O‘zbekiston”. 1997. 6 – bet.

PEDAGOGIK INNOVATSION TA'LIM KLASTERINI RIVOJLANTIRISH ZAMON TALABI

Narmanov A.X.-doktorant

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Toshkent, O'zbekiston

Annotation: The article presents the possibilities of forming a pedagogical cluster. Approaches to the formation of the development of the pedagogical cluster, the main stages of its formation are described.

Keywords: cluster integration of educational organizations; cluster approach; management system of participants' activities, mechanisms of interaction of participants of cluster integration, cluster integration, professional competence.

Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, klaster yondashuvidan faol foydalanish ta'limni rivojlantirish samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Maykl Porter tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, klaster - bu ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi va har birini to'ldiruvchi jug'rofiy jihatdan bir-biriga bog'langan kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar) va tegishli tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat organlari, infratuzilmani belgilovchi kompaniyalar) guruhidir. boshqa [1]. Klaster nazariyasini rivojlantirishga bag'ishlangan ishlarni tahlil qilib, [2; 3; 6], klasterda munosabatlarni o'rnatuvchi quyidagi asosiy elementlarni aniqlash mumkin: geografik asosda kontsentratsiya; mutaxassislik; ko'plab ishtirokchilar; hamkorlik va raqobat; tanqidiy massa; klasterning hayot aylanishi; innovatsionlik.

Ta'lim tizimi uchun klasterli o'zaro hamkorlik shakllarini joriy etishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- oliy ta'limni isloh qilishning jadal sur'atlari, bunda qisqa vaqt ichida yangi sharoitlarga moslashish ta'lim faoliyatining barcha sub'ektlarining umumiy maqsad va manfaatlar asosida faol o'zaro ta'siri bilangina mumkin bo'ladi, bunga aniq foydalanish orqali erishish mumkin. tarmoq shovqini;
- ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablarning o'sishi, bu ta'lim xizmatining o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lib, har bir holatda (har bir talabaga nisbatan) shaxsan yo'naltirilgan. Shunday qilib, yuqori sifatli ta'lim natijasiga erishish ko'p jihatdan ta'lim faoliyati sub'ektlari sonining ko'payishiga bog'liq, chunki bitta ta'lim tashkiloti doirasida insonning barcha ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish mumkin emas;
- alohida ta'lim tashkilotining cheklangan resurslari, bu belgilangan ta'lim maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlarini toraytiradi, tarmoq (klaster) o'zaro ta'siri resurslarni almashish imkonini beradi, samarali hamkorlikdagi ta'lim faoliyati uchun sharoit yaratadi [1; 2; 4; 5; 6].

Bugungi kunda ta'lim klasteri deganda ta'lim va boshqaruv tuzilmalarini yagona organizmga birlashtirgan norasmiy markaz (universitet) mavjud bo'lgan ta'lim faoliyati tizimi tushuniladi [3]. Ta'lim klasterlarini yaratishning asosiy vazifasi kasb-hunar ta'limi, ta'lim tashkilotlari va sanoat korxonlari o'rtasidagi hamkorlikning jozibadorligini oshirishdan iborat. Ushbu vazifani hal qilish mumkin:

- birinchidan, kasb-hunar ta'limida sohaga innovatsion texnologiyalar transferining multiplikativ ta'siriga ko'maklashuvchi klaster doirasidagi o'zaro aloqalarni ta'minlash orqali;
- ikkinchidan, telekommunikatsiya infratuzilmasi va ixtisoslashtirilgan xizmatlar sifatini oshirish, texnologiya va bilim sohasidagi raqobat samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish orqali klaster doirasida ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish.

Shunga ko'ra, pedagogik klaster umumiy maqsadlarga va klaster o'zaro hamkorligi ishtirokchilarining manfaatlarini muvozanatli ifodalashga asoslangan sheriklik bilan birlashtirilgan umumiy va kasbiy ta'limning o'zaro bog'langan ta'lim tashkilotlari majmuidir.

Pedagogik klaster bugungi kunda ixtiyoriy hamkorlik, rivojlangan kommunikatsiyalar va ijtimoiy sheriklikka asoslangan yangi turdagi o'zaro munosabatlarning muhim tizimi sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, mintaqaviy ta'lim tizimining pedagogik (ta'lim) klasteridan farqi shundaki, klaster ta'lim muassasalarini ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va pedagogik (ta'lim) klasterini shakllantirish munosabatlari bilan bog'langan yagona tizimga iqtisodiy jihatdan samaraliroq integratsiyani ta'minlaydi. Hamjamiyat, shuningdek, boshqa manfaatdor tomonlarning rivojlanayotgan innovatsion ta'lim tizimlariga integratsiyasi. Funktsional jihatdan, mintaqaviy pedagogik (ta'lim) klaster ta'lim sohasida innovatsiyalarni yaratish jarayonida faol ishtirok etadi, biroq shakllanish bosqichida tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalari paydo bo'ladi va ularning faoliyati boshlanishi bilan ularning boshqa turlari (axborot texnologiyalari, pedagogik va boshqalar).

Pedagogik klasterning rivojlanishi o'zaro ta'sir, integratsiya, korporatizm, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tashkil etish va ijtimoiy moslashish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tamoyillar asosida pedagogik (ta'lim) klaster a'zolarining o'zaro hamkorligini tashkil etish pedagogik kasbiy ta'limning uzluksizligi va ko'p bosqichli xarakterini ta'minlaydi. Ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, pedagogik ta'lim klasterining barcha sub'ektlari manfaatlarini hisobga olgan holda kasbiy pedagogik ta'lim mazmunini tanlash va tizimlashtirishga ko'maklashadi, ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining kasbiy o'sishini rag'batlantiradi; ta'lim tashkilotlariga turli malakali pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha kafolatlangan pullik buyurtma berish, eksperimental o'quv bazasini rivojlantirish, berilayotgan ta'lim darajasini oshirish va diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Ta'lim tashkilotlari pedagogik klaster tarkibiga yuqori sifatli kasbiy ta'lim, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ishlab chiqilgan innovatsiyalarni tatbiq etishda qo'llab-quvvatlash, ta'lim sohasi uchun pedagog kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini rivojlantirishga hissa qo'shuvchi muhim elementlar sifatida kiradi. Pedagogik klaster faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatorida pedagogik klaster ishtirokchilarining resurs bazalarida talabalar, bakalavrlar, bakalavriat va magistrantlarning uzluksiz o'zaro amaliyotini tashkil etish, pedagogik klaster ishtirokchilarining resurs bazasida kafedralarning qo'shma yig'ilishlarini tashkil etishni alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kunda viloyatda pedagogik ta'limni rivojlantirish, qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim sifatini mustaqil baholashda ishtirok etish, klaster doirasida tahliliy ishlarni tashkil etish, birlashgan hududlarda kasbga yo'naltirish faoliyati sifatini oshirish dolzar, masalalardan hisoblanadi.

Turlari va shakllari jihatidan kasbga yo'naltirish faoliyati juda xilma-xildir: ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari kengashlari va metodik komissiyalari ishida, nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlarining hududiy yig'ilishlarida, ta'lim tashkilotlarida uchrashuvlar, ta'lim tashkilotlari, kollejar bitiruvchilari bilan uchrashuvlar o'tkazish, davra suhbatlari o'tkazish, pedagogik klaster ishtirokchilari faoliyatiga oid eksklyuziv dasturlar taqdimoti, o'quvchilar va talabalar uchun muloqot klublari tashkil etish, ta'lim tashkilotlari vakillari uchun fakultativ kurslarga tashrif buyurish – pedagogik klaster mehnatining o'ziga xosligi va afzalliklarini ochib berish, o'quvchilarni olimpiadalarda, pedagogik ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishga, pedagogik klaster a'zolari – tashkilotlardagi yoshlar ilmiy jamiyatlari faoliyatiga jalb etish maqsadida pedagogik klaster ishtirokchilari.

Pedagogik klaster doirasidagi o'quv-uslubiy hamkorlik deganda biz pedagogik klaster tarkibiga kiruvchi ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonini dasturiy ta'minot va o'quv-uslubiy ta'minotning talab qilinadigan sifatiga erishish bo'yicha maqsadli hamkor harakatlar majmuini tushunamiz. ijodiy tadqiqot guruhlarini tashkil etish orqali talabalarni ushbu sharoitda tayyorlash usullarini birgalikda takomillashtirish sifatida va klasterdagi oliy ta'lim muassasalari kafedralari professor-o'qituvchilari, tayanch ta'lim muassasalari o'qituvchilari, ta'lim boshqaruvi organlari vakillari. Faoliyatning ushbu sohasi doirasida klasterli o'zaro hamkorlik ishtirokchilarining ishchi o'quv rejalari va dasturlarini muvofiqlashtirish, pedagogik kadrlar tayyorlash profillari bo'yicha

fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqishda o'zaro yordam ko'rsatish, o'quv qo'llanmalarini birgalikda ishlab chiqish, Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ishlab chiqilgan materiallarni ekspertizadan o'tkazish va yakunlash, elektron versiyalarini yaratish va o'qitish metodikasi bo'yicha ishtirokchilarning veb-saytlarida materiallarni joylashtirish yo'nalishlariga mos keladigan tavsiyalar.

Ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishi bir hududda joylashgan innovatsion jarayon ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi faollashganda tezlashadi. Pedagogik klaster elementlarining hududiy yaqinligi innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasida axborot konsentratsiyasini va uning almashinish tezligini oshiradi. Axborot almashinuvi ehtiyojlar xususiyatlarining o'zgarishi haqida ma'lumot almashishni va ularga tezroq va adekvat javob berishni osonlashtiradi. Pedagogik klasterni yaratishdan maqsad ta'lim muassasalarining klaster o'zaro hamkorligi ishtirokchilarining yuqori innovatsion faolligini ta'minlaydigan yagona tizimga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash bilan bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Gnatishina E.A. Klaster yondashuvi asosida ishlab chiqarish sohasi kadrlari va kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini uyg'unlashtirish // Ta'lim va fan. 2011 yil. № 10. 40-bet.

2. Mokronosov A. G., Vershinin A. A. Hududning kadrlar salohiyatini ilg'or rivojlantirish modelini shakllantirish // Ta'lim va fan. 2014 yil. 8-son. S. 19-28.

Proskurina T.L. Ta'lim klasteri mintaqaviy innovatsion strategiya sifatida // Ta'lim texnologiyalari. 2011. No 3. S. 53-54.

4. Silkina NV, Vaganova NO Universitet majmuasi tarkibida o'rta va oliy kasb-hunar ta'limi xodimlarining pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari // Ta'lim va fan. 2013 yil. No 4. 30-bet.

ryen Vos. Sharqiy Yevropa malakaviy asoslari ta'lim sohasidagi islohotlarni boshqaradi. // Ta'lim va fan. 2014. No 6. P. 149-157.

6. Yevropadagi mintaqaviy klasterlar. Evropa kichik va o'rta korxonalari observatoriyasi. Lyuksemburg: Yevropa hamjamiyatlarining rasmiy nashrlari idorasi. 2002. No 3. 15-bet.

КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИНГ ТАЪЛИМДАГИ АҲАМИЯТИ

Нажиева С.Н.-

СамДЧТИ педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада ёшларга тўғри таълим бериш, ўқитиш ва таълим олиш тизимлари ўзаро алоқада бўлган кредит-модулнинг таркиби, тузилиши ва фаолияти кредит-модуль асосида ўқитиш жараёнининг хусусиятларининг аҳамияти ҳақида фикрлар баён этилган.

Калит сўз: Таълим, тизим, кредит-модуль, билим, дарс, ўқув, муассаса, ўқитувчи, маҳорат, қизиқиш, ижод, кадр, қобилият, мотивация, мустақил, талаба.

Кредит-модуль педагогик технология талабалар тушуниши ва қабул қилиши лозим бўлган бир қатор мақсадлар асосига қурилади, акс ҳолда қуйидаги унсурлардан иборат ўқув фаолияти жараёнининг яхлитлиги бузилади: талабалар томонидан мақсаднинг қабул қилиниши; янги материални қабул қилишга тайёргарлик кўриш; амалий ўқув фаолияти; мазмуннинг таҳлили; далилларини асослаш; таълим натижаларини хулосалаш; янги мақсадларни белгилаш.

Қатор мақсадларни шакллантириш модулли таълим технологиясининг ўзига хос хусусиятидир. Технологиянинг ўзининг энг муҳим мақсадларидан бири – ҳар бир талаба учун қулай иш суръатини яратишдир. Ҳар бир ўқувчи ўқишда ўз имкониятларини аниқлаш ва ўқитувчи томонидан тақлиф этилган материални ўрганиш даражаларига мослашиш имкониятига эга бўлади. Ўқитувчи ва талабанинг биргаликдаги фаолиятини режалаштириш тамойилини қўллаш катта тарбиявий аҳамиятга эга.

Талабаларни топшириқларни ўз вақтида бажаришга ўргатиш уларни масъулият билан ўрганишга ўргатиш демакдир. Режалаштириш ғояси ўқитиш мақсадлари миқёсида ва модулли дастурлар, модуллар ва ўқув элементларини ўқув материали мазмуни даражасида амалга оширилади. Ҳар бир ўқув курси ҳар бир ўқув дастурида мавжуд бўлган, назарий ўқув материали мазмунининг модуллари - блоклар ва ўқув малакалари ва кўникмалари алгоритмик кўрсатмалари блокларидан иборат ўқув модуллари (мавзулари)ни ўз ичига олади.

Тизимнинг барча унсурларини бирлаштирувчи функционал тугун турига кўра модулларни лойиҳалаш уни ўқув жараёнининг бирликлари сифатида ажратиш имконини беради. Ўқитиш ва таълим олиш тизимлари ўзаро алоқада бўлган модулнинг таркиби, тузилиши ва фаолияти модуль асосида ўқитиш жараёнининг хусусиятларини тўлиқ ифодалайди. Бу – модулни ишлаб чиқишда ўқитувчи ҳисобга олиши керак бўлган яна бир хусусият: модулли дастур ўқитиш ва ўзаро таъсирда бўлиш тизими сифатида ишлаши керак.

Таълим технологияси ўқув жараёнини оптималлаштириш, ўқувчиларнинг билиш ва шахсий фаолияти соҳасини ривожлантиришда ўқув жараёни яхлитлигини таъминлаш имконини беради. Модулли таълим технологиясининг мақсади талабаларнинг мустақиллигини ривожлантириш, индивидуал ўқиш имкониятларини ҳисобга олиб ишлаш қобилиятига кўмаклашишдан иборат. Технологиянинг интенсив табиати таълим жараёнини оптималлаштириш, яъни камроқ куч, вақт ва маблағ сарфлаб энг яхши натижага эришишни тақозо этади. Мазмун ўқув қўлланма матни орқали эмас, балки сиқик кўринишда, ўқув воситаларидан фойдаланган ҳолда, талабалар учун ишлаш қулай бўлган шаклда келтирилиб, мақбул, қулай турли даражаларга оид бўлиши керак .

Модулли ўқитиш технологияси ўқитувчига синовдан ўтган замонавий усул ва методлардан кенг фойдаланиш имконини беради. Модулли ўқитиш технологиясидаги тайёргарлик босқичи ўқитувчи бу технологиядан биринчи марта фойдаланаётган бўлса, кўп куч талаб этилади, шунинг учун ўқитувчининг касбий маданияти кейинги иш жараёнида табиий равишда юқори технологик даражага етади.

Ўқув фанларини модулли қуриш ўқув жараёнини тартибга солиш, ўқувчилар мустақиллигини ошириш ва шахснинг юқори даражадаги малакага эришиш учун кўмаклашиши умум эътироф этилган. Шунинг учун кўпгина ўрта ва олий ўқув юртлари ва махсус ўқув юртлари ўқув жараёнини модулли, семестр-модулли, муаммоли-модулли асосда ташкил этиб, бунинг учун тегишли таълим технологиялари яратилади.

Ҳар бир таълим технологияси уни рўёбга чиқариш жараёнида ўз афзалликлари ва камчиликларига эга. Модулли ўқитиш ғоясининг ўзини ўрганишга ўтиш “педагогик назария”, “дидактик назария”, “ўқитиш методикаси”, “педагогик технология” (“ўқитиш технологияси”) каби тушунчалар билан босқичма-босқич танишиш имконини берди.

Модулли таълим технологияси интенсив таълим технологияларидан бири бўлиб, замонавий таълим жараёнида кенг қўлланади. Модулли таълим технологияси моҳияти ўқувчилар томонидан тугалланган ахборот блоклари - модулларни кетма-кет ўзлаштиришдан иборат. Алоҳида ўзаро боғланган модулларга бўлинган ўқув ахбороти таълим олувчиларнинг янги билимларни ўзлаштириш жараёнини оптималлаштириш, предметли таълим тизимида ўрганиладиган ўқув материалдан кераксиз ахборот блокларини чиқариб ташлаш, олинган назарий билим ва амалий кўникмаларни ўзаро боғлашни таъминлашга қаратилган.

Модулли таълим технологияси ҳар бир талаба шахсининг психологик хусусиятларига, тавсия этилган ўқув дастури билан талабаларнинг мустақил ишлашига қаратилган бўлиб, унда белгиланган дидактик мақсадларга эришиш учун ҳаракатлар мақсадли дастури, маълумотлар базаси ва услубий кўрсатмалар мавжуд. Модулли ўқитиш технологияси таълим жараёнини муайян соҳа мутахассисларини тайёрлаш талабларига

мувофиқ бошқаришни таъминлайди, бу эса ёш мутахассиснинг маълум касбий фаолият турига мослашишга кетадиган вақтни камайтиради.

Педагогнинг касбий ва шахсий фазилатлари ҳам педагогика соҳасида ишлаш учун зарур бўлиб, улар олий таълимда ўқув жараёнини ташкил этишнинг асосий шартидир.

Адабиётлар рўйхати

1. Зиёмухаммадов Б. Педагогик маҳорат асослари.-Т.:2009. Б-92.
2. Коменский Я.А. Буюк дидактика.- Т.: 2006. Б. 48-52.
3. Салахутдинова М. Ижод психологияси.-Самарқанд-2010. Б. 20
4. Зиёмухаммадов Б. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма.– Т.: «Турон-Иқбол». 2006. – 112 б.

BO‘LG‘USI TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH

Fayzullayeva Z.A –magistr, NavDPI

Ilmiy rahbar: Abdullayev A.X. dots. NavDPI, O‘zbekiston.

Summary: The article presents information about the formation of professional training and innovative activities of future teachers in the field of fine arts at the lessons of fine arts in higher educational institutions.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar oliy ta’lim tizimini ham cheklab o’tmadi. Aynan bu tizimda e’tibor qaratish ham doimgidan ham o’ta muhimdir. Chunki, ta’lim sifatini oshirish, oliy o’quv yurtlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oliy ta’limda qamrovni tobora oshirish kabi ishlar diyorumizning dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi 3 yil davomida mamlakatimizda ta’limni boshqarish hamda rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muammolarini tizimli-innovatsion yondashuv bilan hal etishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar qilinmoqda. Ana shunday hujjatlardan biri 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi¹³⁷ 2909-sonli qarorida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish hamda OTMLar moddiy texnik bazasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi¹³⁸ qarori ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Kadrlar tayyorlashdagi muhim qadam sanalmish mazkur hujjat oliy ta’lim tizimini rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilishiga asos bo’ldi. Jumladan, qarorda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga to’siq bo’lib kelayotgan bir qator muammolar, bugungi kunda uchrayotgan og’riqli nuqtalarni bartaraf etish choralari belgilab berildi.

Qolaversa, “Harakatlar strategiyasi”da ham kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan yangilash, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishga doir muhim masalalar haqida ham ko’rsatmalar belgilab berilgan¹³⁹.

¹³⁷ Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida 2017 yil, 20-aprel.

¹³⁸ Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida PQ-3775-son 2018-yil 5-iyun.

¹³⁹ 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.T .: 2017yil.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan tashkil etish zamon talabi hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan bo'lg'usi pedagoglar kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan holda zamon talablariga mos bilimlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim tizimida mavjud talablar san'atshunoslik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun tashkil etilayotgan tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, bo'lg'usi rassom-pedagoglarni, mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ularda kasbiy kompetensiyalar:

- Mutaxassislikka oid bilimlar bilan qurollantirish;
- ilmiy-texnikaviy bilimlarga ega bo'lish;
- axborot kommunikatsion texnologiyalar;
- innovatsiyalardan mustaqil, ijodiy yondoshgan holda foydalanish;
- maqsad sari qat'iy harakat qilish;
- Istiqbolli rejalarni, vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Talabalarda kasbiy bilimlarni shakllantirish barcha faoliyatlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlarni uzviy olib brogan holda uzluksizligini ta'minlash ham muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarida o'quv jarayonini tashkil etishda:

- Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- ularni didaktik jihatdan ta'minlash;
- o'quv-uslubiy majmualarni sifatini, yaroqlilik jihatini oshirish;
- ta'lim jarayonida AKT va global tarmoqdan oqilona foydalanish;
- axborot resurslarini yangi adabiyotlar avlodi bilan boyitish va o'quv adabiyotlaridan foydalanish jarayonini yanada rivojlantirish;
- sohaga oid xorijiy tajriba va yangiliklar bilan doimiy tanishtirib bo'rish talabalarni kelgusi pedagogik faoliyatga innovatsion jihatdan tayyorlashning me'zonlarini belgilaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, oliy ta'lim tizimini, xususan, tasviriy san'at yo'nalishini modernizatsiyalash "modern" ing. – zamonaviy, ilg'or, yangilangan, tezkor o'sish ma'nolarini bildirib, ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi. O'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondoshuvni talab qiladi. Shuning uchun tasviriy san'atdan bilim berish jarayonida innovatsion yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar zamonaviy ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning ta'minlanganligiga bog'liq. Bu jarayonda ilg'or tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotda qo'llash, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quv jarayonini takomillashtirishni talab etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarini tashkil etishning samarali shakllaridan biri ma'ruza hisoblanib, u quyidagi ko'rinishlarda tashkil qilinishi mumkin:

- Muammoli ma'ruza;
- Ma'ruza –seminar;
- Virtualtexnologik ma'ruza;
- Virtual ma'ruza;
- Binar ma'ruza;
- Kirish ma'ruzasi;
- Ma'ruza –konfirensiya;
- Axborotli ma'ruza;
- Bahs-munozarali ma'ruza;
- Sharhlovchi ma'ruza;
- Online ma'ruza.

Nazariy mashg'ulotlarda terning, videotrening, vebinarlar, internet konferensiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli o'qitish metodlari, inerfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafikli orgazaynerlar, AKTdan foydalanish ehtiyoji amalga oshiriladi.

Tasviriy san'atning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida interfaol metodlardan, taqdimotlardan, amaliy namunalardan, dastgohlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni interfaol ta'lim shakllaridan foydalangan holda ham tashkil etish mumkin. Interfaol-so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "inter"- o'zaro va "akt"- harakat qilishni bildirib¹⁴⁰, bunday o'zaro harakat turlariga "talaba-o'qituvchi", "talaba-talaba", "talabalar-talabalar" yani individual, juftlida, guruh-guruh va jamoaviy maqsadli birgalikda ishlash turlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Birgalikda, o'zaro faol o'qitish jarayonida ta'lim beruvchi o'quv faoliyatini faol ishtirokchisi bo'lib, ta'lim oluvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. O'qitishning bu turi bilish faoliyatining asosiy shakllaridan bo'lib, ta'lim oluvchi ob'ektdan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanadi va o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Interfaol o'qitishda hayotiy vaziyatlar modellashtiriladi, rolli o'yinlar shaklida tashkil etiladi, muammolar hamkorlida ko'rib chiqiladi. Bu jarayon talabalarda faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, balki, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshirishga ham yordam beradi.

Bunda talabalar, bo'lg'usi pedagoglar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishlarida fundamental asos bo'ladi:

- O'quv jarayoni faol sub'ekti bo'lishga;
- o'quv faoliyatining asosiy maqsaddan ko'zlangan natijalariga erishish;
- mustaqil fikrlash usullarini o'rganish;
- amaliy masalalarni ijodiy hal etishga;
- mustaqil harakat qilishga;
- o'quv topshiriqlarini mustaqil va birgalikda bajarishga;
- mustaqil fikr bildirishga;
- shaxsiy bilish mahorati ko'nikmalarini shakllantirish uchun zamin, fundament hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil, 20-aprel.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-3775-son 2018-yil 5-iyun.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
4. Xonboboyev X.O. Tasviriy san'atni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.T.: Молодой ученый. — 2016. — №3.1. — С. 22-23.
5. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya.T.: 2015 yil.
6. Mirsoliyeva M.Ibragimova G. Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat T.: 2015 yil.

¹⁴⁰ Xonboboyev X.O. Tasviriy san'atni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.T.: Молодой ученый. — 2016. — №3.1. — С. 22-23..

OLIV TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA, MILLATLARARO MADANIY MUNOSABATLARNI TUTGAN O'RNI.

Sh.Sh.Ashurov-

NavDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

АННОТАЦИЯ. В этой статье основное внимание уделяется сущности, содержанию и форме выражения ценностей. А также, анализу вопросов, связанных ценностями. Людей в древности всегда интересовала окружающая среда, события и явления, и их ценности.

ANNOTATION. In this article? The focus is on the essence content and form of expression. And also, analyzes the issues related to values. People in antiquity have always been interested in the environment, and their values.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligini va suverenitetini mustahkamlash. O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahli qushnichilik muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Harakatlar strategiyasining yuqoridagi bosqichi bo'yicha respublikamizda ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Bir qancha qushni davvlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni qolaversa, madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalminal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

Fuqarolar totuvligi barqarorligini, turli millatlar vakillari o'rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga, vatandoshlarimiz ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga, mamlakatimizning jamiyat turli sohalaridagi yutuqlari mazmun va mohiyati targ'ibotiga, shuningdek, ushbu yo'nalishda bajarilayotgan ishlarni va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlatdir. Bunday davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun millatlararo totuvlik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. O'tgan qisqa davr ichida mazkur yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi va millatlararo totuvlikni rivojlantirishga keng zamin yaratildi. Fuqarolik jamiyati o'z navbatida, turli etnik nizolar, ziddiyatli vaziyatlar, to'qnashuvlar yuki ostida qolgan hozirgi davrda, bir tomondan, insoniyat o'zining bir butunligini, ikkinchi tomondan, alohida olingan har bir jamiyat ichki birlik, totuvlik va hamkorlik bo'lgandagina mavjud muammolarni hal qilish, yangilari paydo bo'lishining oldini olish va taraqqiyotni ta'minlash mumkinligini

tobora chuqur anglab bormoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda ijtimoiy bag'rikenglik muhitini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. "Millatlararo totuvlik" ("tolerant") atamasining lug'aviy ma'nosi lotincha "chidamoq" so'zidan olingan. Tolerantlik biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Diniy bag'rikenglik vijdon erkinligi va ma'naviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yo dinga hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Madaniy bag'rikenglik o'zga tilde yaratilgan san'at va madaniyat boyliklaridan o'z madaniyatini ustun ko'rmaslik, ulardagi ma'no va go'zallikni tan olish, o'zga madaniyatlardan nimanidir o'rganishni bildiradi. Madaniy bag'rikenglik turli millatga mansub ziyolilarni bir-biriga ruhan yaqinlashtiradi. O'zidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga yordam beradi. Etnomadaniy hamkorlik yagona mamlakatda yashovchi turli millatga mansub xalqlarning muayyan mafkura asosida qo'lni qo'lga berib ishlashi, bir maqsad yo'lida faoliyat olib borishini bildiradi. "Millatlararo totuvlik" ("tolerantlik") deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib "bag'rikenlik" chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Bugungi kunda chuqur ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy mazmun kasb etgan ushbu tushuncha ko'pchilik tomonidan tan olingan, ilmiy ta'rifi ishlab chiqilgan. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da bag'rikenglik tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Bag'rikenglik-bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik – turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenlik – tinchlikka erishishni musharraf qiluvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir". "Bag'rikenglik" tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha tolerare, ya'ni "chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nosi anglatgan bu so'z, asosan birin sonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsada, etimologik tahlil uning tom ma'nosini doim ham ochib beravermaydi. Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995 yil 16-noyabrda BMTning YUNESKO bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilingan. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da "tolerant" ya'ni "bag'rikenglik" tushunchasiga berilgan ta'riflarni keltirib o'tmoqchimiz:

Bag'rikenglik–yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik–eng avvalo, insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Bag'rikenglik–inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

So'nggi yillarda millatlararo munosabatlarni amalga oshirishda sezilarli eng muhim yozuvlar, umumiy yo'nalishini inson omillar ma'naviy ehtiyojini qondirish muhim omil odamlar harakatlar sifatida insoniy va axloqiy qadriyatlarining o'rni ko'paydi. Bu, birinchi navbatda,

shaxsning turlituman rivojlanishi uchun shaxslararo muloqotning o'ziga xos ahamiyatiga, uning shaxsiyat tarkibida axloqiy tamoyillarning o'sishi bilan bog'liq. Xalqaro hamkorlik, millatlararo totuvlik inson munosabatlarini ma'naviy-axloqiy mexanizmini rivojlantirish va mustahkamlash uchun bir asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek madaniyatining tajribasi turli etnik guruhlar va ularning shaxsiy vakillari o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy jihatdan belgilanadigan qimmatli va foydali an'analari bilan boy. Shu munosabat bilan, u vatanparvarlik va internatsionalizm tushunchalar xalqaro hamkorlik bugungi yoshlar madaniyati, xususan shakllantirishda birinchilardan ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki Oliy maktab, xalqaro munosabatlar muammolarni hal qilish uchun haqiqiy ishga tushiriladi. Shuning uchun, ko'p millatli muassasada bo'lajak mutaxassislar tayyorlash o'ziga xosligini hisobga olib, ish va hayotning turli jihatlarini ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Uning ijtimoiy va milliy tarkibi, milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, kadrlar tayyorlash va ta'lim holda shakllantirish uchun kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Oliy ta'limda, jumladan, ta'lim mazmunan yangilash barcha bosqichlarida maktab islohoti davrida talabalarining millatlararo o'zaro madaniyatini tarbiyalash, tarixiy ildizlariga, ilg'or an'analar, xalqning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni tiklash tamoyili amalga oshirish, talabaning shaxsiyat tuzilmasida ushbu hodisani shakllantirish Vatan tarixi haqida bilmasdan o'ylab topilmaydi. Bizning bilimlarimizni kengaytirish va chuqurlashtirish istagi nafaqat har bir ravshan shaxsga xos bo'lgan ta'lim sohasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, balki uning ma'naviy madaniyatining o'sishi haqida ham dalolat beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ta'lim intizomlari mazmunini atrofdagi hayotga, bugungi kunning haqiqatiga va ehtiyojlariga maksimal yaqinlashishini nazarda tutadi. Bu oliy maktabda ma'rifiy ishlar sifati ongli va ongsiz ruhiy jarayonlarning butun kompleksi, ichki muhiti orqali ta'sir barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalar uchun, asosan odamlar, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanish albatta bog'liq ekanligi ma'lum. Kelajak mutaxassisning shaxsini shakllantirish bilan bir qatorda uning madaniy madaniyatini rivojlantirish orqali millatlararo munosabatlar, o'z qav yurtida keying avlod hayoti muayyan darajada aniqlanadi. Shuning uchun, oliy ta'lim muassasalarida talabalar tayyorlash bugungi kun darajasiga xalqaro hamkorlik madaniyatini o'zlashtirish, barkamollik, yangilash va jamiyatni demokratlashtirish masalalarini hal qilish, kelajak avlodlar qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq. Hozirgi kunda globallashuv jarayoni aynan madaniyatlararo kommunikatsiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Natijada davlat va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalari kuchaymoqda; xorijiy investitsiya, kapital va tovaralar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga keltirmoqda; ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi kuzatilmoqda; turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi kuchaymoqda; sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlari ortib bormoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik, erkinlik shu bilan bir qatorda bag'rikenglik tuyg'isini ham berdi. Ushbu tuyg'u chet davlatlar bilan halqaro aloqalarni kuchaytirish hamdado'stlik, birodarlik kabi faxrli so'zni muhrlashga ham zamin yaratdi. O'zbekiston chet davlatlar bilan qat'iy ravishda yaqin munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda. Bu esa diniy va etnik ziddiyatlar o'ta murakkab xalqaro muammolarga aylanib borayotgan hozirgi davrda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, bugungi kun intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda madaniyatlararo, millatlararo kommunikatsiyani bag'rikenglik tamoyillarini ularning ongiga singdirishga e'tibor berish muhimdir. O'zbekiston turli millat va elat vakillarining umumiy uyidir. Bu, bizningcha, boylik va taraqqiyotning muhim manbaidir.

IX-XII АСРЛАРДА ИСЛОМ ИЛМЛАРИ ТАМАДДУНИГА ҲИССА ҚЎШГАН БУЮК АЛЛОМАЛАР ВА УЛАРНИНГ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДАГИ ЎРНИ

Шоназаров Ў.- ўқит. НавДПИ Ўзбекистон

Annotation: Thanks to the contributions of our ancestors to world science, a number of sciences have reached a new stage of development.

Attention to religious and secular sciences is one of the unique qualities of our ancestors. Our learned ancestors, who lived with the dream of an educated generation at a time of Arab invasion, savage looting and execution, destruction of the country, impoverishment of the people, socio-political instability, deserve our immense pride.

Аждодларимиз илмий тафаккур борасида жаҳон илм-фанига қўшган ҳиссалари туфайли қатор фанлар янги ривожланиш босқичига кўтарилди.

Диний ва дунёвий илмларга эътибор аждодларимизнинг беназир фазилатларидан биридир. Арабларнинг мамлакатимизга бостириб келиши, аҳолининг ваҳшиёна таланиши ва қатл қилиниши, мамлакат вайрон қилиниши, халқнинг қашшоқлашуви, ижтимоий – сиёсий беқарорлик ҳукм сурган бир даврда саводхон авлод орзуси билан яшаган аллома аждодларимиз беадад фахримизга лойиқдир.

Тарихий манбалардан маълумки, ўлкамизга арабларнинг юриши ҳижрий 46, мелодий 666 йилдан бошланди ва Қутайба ибн Муслимнинг фаолияти билан ислом дини халқимиз маънавий ҳаётининг ажралмас қисмига айлантирилди ва кейинги маълумотларга кўра 720-730 йилларда бизда ислом дини тўла қабул қилинди.

Ислом маънавияти ривожланишида ўз асарлари билан катта ҳисса қўшган уламолар асосан Марказий Осиёдан эди. Ислом тарихида дастлабки мадрасалар Бухоро, Самарқанд, Насаф, Шош, Марғилон шаҳарларида очилган. Бу билим юртларида дунёвий илмлар ҳам ўргатилган. Улар XI асрдан бошлаб етакчи ўқув юртига айланган. Ўрта Осиёнинг барча йирик шаҳарларида мадрасалар бўлган. Бу мадрасаларнинг айримларида тиббиёт, аруз илми, фалсафа, география ва бошқа фанлар ўргатилган.

Ислом динида «Исламун хува илмун»- Ислом илмдир, «Мавтул олимин – мавтул оламин» - олимнинг ўлими – оламнинг ўлими ва бошқа ҳадисларда илмга даъват асосий таълимотлардандир.

Ислом динига оид асарлари билан ном қозонган Абул Қосим Маҳмуд ибн Умар ибн Муҳаммад аз-Замахшарий (1075-1144)¹⁴¹ «Жоруллох»-«Аллоҳнинг қўшниси», «Бутун дунёсининг устози», «Хоразм фаҳри» номлари билан улуғланган. У араб тили, адабиёт, география, тафсири, ҳадис ва фикҳга оид 60 дан ортиқ асар яратган. Бизгача 20 га яқини етиб келган. Энг машҳур асари Куръон тафсирига бағшланган «Ал-Кашшоф ан ҳақоик ит-танзийл ва уйун-ил-ақовийл фи вужух ит-тавийл», яна «Ал-Муфасссал», «Атвоқу-з-заҳаб», «Мақомат», «Рабиъу-л-аброр ва нусусу-л-ахёр», «Муқаддимату-л-адаб», «Ал-фоик фи ғариби-л-ҳадис», «Асосу-л-болоға» кабиларни кўрсатиш мумкин.

Замахшарий фикрича инсон камолотидаги асосий пойдевор илмдир. Хусусан, у «илмли бўл ёки илмга таяниб иш тутадиган бўл, лоақал илмни тинглаб эшитадиган бўл, бироқ тўртинчиси бўлма, чунки касодга учраб ҳалок бўласан» деб ёзади.

Илмсизлик иллат бўлиб, олим фикрича, илмли кишилар жамиятда пешқадам бўлишлари керак. Унингча осмону фалакнинг зийнати юлдузлар бўлганидек, еру заминнинг кўркамлиги олимлар биландир. Яна, унинг ёзишича «Ловуллаб ёнаётган оловни сув ўчиргани каби нодон одамлардан чиқаётган алангани ҳақиму оқил одамлар сўндирдилар»¹⁴².

У ўзининг «Атвоқу-з-заҳаб фи-л-мавўиз ва-л-хутаб» асарида инсонларни эзгулик ва хайрли ишларга ундайди. «Инсоннинг асл отаси унинг адабидир. Тақво - парҳезкорлик эса инсоннинг асл

¹⁴¹ Замахшарий ҳақидаги маълумотлар Зоҳиджон Исломовнинг «Ислом маданияти ривожланишида аждодларимиз меросининг аҳамияти» номли мақоласидан олинди.

¹⁴² М.Замахшарий. Нозик иборалар. Т.; камалак. 1992 59-бет.

онасидир. Ўзингни шу икки меҳрибон мураббий бағрига топишир ва улардан зинҳор айрилма. Шундагина сени тангри таоло ўзининг неъматлари билан сероб қилади ҳамда ҳаётинг файзу баракотли бўлади»,- деб ёзади олим.

Замахшарий «Мақомат» асарида шундай ёзади: «Энг бахтсиз одам ким дейилса, мен айтардимки, у мол-дунёсини сақлаб, эҳтиёт қилувчи, кадр-қийматини паймол қилишсада, бойлиги бут бўлишини истовчи кишидир. Энг бахтли одам шуки, у хушсуҳбат ва файз-футуҳли бўлиб, ўз омборчисига доимо бойлигидан, хазиначисига доим муҳтожларга ёрдам кўрсатишни амр қиладиган, ўз нафси ҳавоси жўш урганда жим бўл, деб босиб кўядиган, нафсонияти енгиллик қилганда уни енгиб мақтов ва таҳсинга сазавор бўладиган кишидир»¹⁴³. Олим дўст танлашда янглишмаслик, қўлидан яхшилик келса аввало ўз яқинларига кўрсатиш, ҳалол ва пок бўлишга чақиради.

Исломот таълимотида ҳадислар катта аҳамиятга эга. Исломот тарихида улуғланиб, буюк муҳаддис номига сазавор бўлган олти мутафаккаирдан учтаси Мавороуннаҳрдандир. Бу олти муҳаддислар орасида биронта араб йўқ.

Диний илмлар вужудга келган объектив эҳтиёжлар туфайли ривожланди. Хусусан, пайгамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.) замонларида нозил бўлган муташабиҳ, яъни маънолари тушунарсиз оятлар ҳақида у кишига саволлар билан мурожаат қилар эдилар. Бу оятлар ҳақида баҳс кўпинча ихтилофлар келиб чиқишига сабаб бўлар эди. Жалолиддин ас-Суютий «Савнул мантик» асарида шундай гувоҳлик беради: «Ихтилофлар авж ола бошлагач Расулуллоҳ (с.а.в.) қалбларга шак-шубҳа тушишига сабаб бўлаётган муташабиҳ оятлар ҳақида баҳс юритишни кескин таъқиқлаб қўйганлар». Шу тариқа одамларда калом илмига мойиллик пайдо бўлган.

Исломот илоҳиёти илми бўлган калом VIII асрда араб халифалигида пайдо бўлди.¹⁴⁴ Калом илмига хос бўлган услуб ва мавзулар мажмуи биринчи марта ал-Жаъд ибн Дирҳам (742 й. қатл этилган) ижодида учрайди. Унинг шогирди Жаҳм ибн Савфон ас-Самарқандий (745 й. қатл этилган) устозининг ғоясини давом эттирди.

Насафлик аллома Абул Муъин ан-Насафий ўзининг «Табсират ал-адилла ала тариқати Абу Мансур ал-Мотуридий» номли асарида Мовароуннаҳрда яшаб ижод қилган олимлар ҳақида диққатга сазовор маълумотлар беради. Бу асарда мутакаллим алломалар Абу Бақр ибн Исҳоқ ибн Сабих ал-Жузжоний, Аш-Шайх Абу Наср Аҳмад ибн ал-Аббос ибн ал-Хусайн ал-Иёдий ҳақида маълумотлар келтирилади.

Асарда ёзилишича, бухоролик машҳур олим Абу Хафс ал-Кабир ал-Бухорийнинг (832/1429 й.в.э.) невараси, Мавороуннаҳр ва Хуросонда садр ал-фуқаҳо унвонига эга бўлган олим Абу Хафс ал-Ажалий ал-Бухорий шундай деган: «Абу Ҳанифанинг мазҳаби тўғри йўл эканлигига ... бир исбот шуки, ушбу мазҳабда Абу Аҳмад ал-Иёдий эътиқод қилган. Чунки Абу Аҳмад ал-Иёдий ботил мазҳабга эътиқод қилиши мумкин эмас эди». Насафий яна қатор мовароуннаҳрлик уламолар ҳақида ўз асарида маълумотлар берган. Хусусан, кодий Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Асломот ибн Муслам ибн Абдуллоҳ ибн Муғийра, «Маъолим аддин», «Китоб ал-ийтисом» ва «Китоб радд ала ал-карромия» асарларининг муаллифи Абу Бақр Муҳаммад ибн ал-Яман ас-Самарқандий ва бошқалар диққатга сазовордир.

Лекин Насафий Абу Мансур ал-Мотуридий ҳақида алоҳида бир эҳтиром билан шундай ёзади: «Биз юқорида зикр қилган олимларнинг барчаси бўлмаганда ҳам, Абу Мансур ал-Мотуридий уларнинг барчасининг ўрнига кифоя қилар эди. У шундай зотки, илм уммонининг энг қаърига шўнғиб, ундан дуру-гавҳарларни олиб чиқди ва диний ҳужжатларни ўзининг фасоҳати, мислсиз заковати билан зийнатлади. Шунинг учун у вафот этганда, аш-Шайх Абул Қосим ас-Самарқандий унинг қабри устига «Ушбу қабр илмларни нафасларигача қамраб олган, уни тарқатишда кўп захматлар чеккан, у қолдирган мерос кўп мадҳ қилинган ва ўзининг умр дарахтидан кўшлаб мевалар тера олган улуғ зотнинг қабридир», деб ёзишларини буюрган эди».

¹⁴³ М.Замахшарий.Мақомат.Қоҳира.1896.14-бет.

¹⁴⁴ Мутакаллимлар ва Мотуридий ҳақидаги маълумотлар, Саидмуҳтор Оқиловнинг «Абу Мансур ал-Мотуридийнинг Мовароуннаҳрда ақида илмининг ривожигаги ўрни» мақоласидан олинди.

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ulug'berdiyeva D.Q-o'qit.NavDPI
Oripova.D.J-talaba.NavDPI, O'zbekiston

Annotation: The digitization of all areas of higher education, including the role of digital technologies in the integration of preschool education, the features and opportunities of preschool education, the importance of digital technologies in preschool education, their rational and effective use. This article highlights the role and importance of innovation and digital technologies in the development of preschool education.

Bugungi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatori raqamli davrga o'tmoqda va bu bilan bog'liq o'zgarishlar ishlab chiqarish sohaslarida, savdo va boshqa sohalarda aniq ko'rinmoqda. Hozirgi kunda hayotimizning asosiy qismini texnologiya vositalari bilan o'tkazyapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va boshqa vositalar. Axborot vositalaridan barcha toifadagi fuqarolar hayotiga-yosh bolardan tortib, nafaqaxo'rlargacha kirib borganligi-axborot texnologiyalarning zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikr shakllanadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, o'rganilgan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga ko'proq ma'lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'limdagi o'rni va rolini anglash zarurati maktabgacha ta'lim metodikasi va didaktikasi sohaslaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o'z aksini topishi kerak.

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamli texnologiyalarga tez kirib borishi axborot makonida taqdim etilayotgan ko'p narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos yaratmoqda. Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- yangi turdagi o'quv vositalarini yaratish yaratish: elektron darsliklar, elektron topshiriqlar bazasi;
- sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'quv jarayoniga tadbiiq qilish;
- mavjud o'quv materiallarini, shu jumladan ma'ruzalar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini elektron muhitni yaratish.

Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarining aksariyat qismida ta'limni raqamlashtirish jarayonining dastlabki qismi amalga oshirilmoqda. Bu o'quvchilarning o'quv materiallariga kirishini yengillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan o'quv yuklarni kamaytirish, o'quv intizomi va o'quv jarayoni mazmuni ustidan nazoratini osonlashtirishga imkon beradi.

Mamlakatimiz uchun ta'limni raqamlashtirishning asosiy tahdidi global ta'limni raqamlashtirishning asosiy tahdidi global ta'lim muhitining asosini topishdir. Ushbu tahdid bir necha omillar natijasida amalga oshirilishi mumkin: jahon bozoriga kirishning kechikishi; mahsulot sifati yetarli emasligi; til to'sig'i; maktabgacha ta'lim tizimi mutaxassislarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichining pastligi; til bilish ko'rsatkichining pastligidir. Hozirgi rus va ingliz tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan rivojlantiruvchi interaktiv tizimlar, kompyuter o'yinlari, multimedia maxsulotlari juda ko'p, tilni bilgan kishi esa ulardan bema'lol foydalanishi mumkin.

Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimining innovatsion pilot loyihalarini texnik amalga oshirish va sinovdan o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi organni yaratishdir. Shuningdek, raqamli innovatsion texnologiyalar, veb-platformalar, dasturiy mahsulotlar va axborot tizimlarini joriy qilish, strategik tahlil va sohani yanada rivojlantirishni rejalashtirish kerak.

Maktabgacha ta'lim tizimi ayni kunlarda rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'lim tizimida ham o'z o'rni

va ahamiyatini topib bormoqda. Yangicha ta'lim tizimi, yangicha yondashuv, yangicha qarashlar va o'zgarishlar ta'lim sifatini oshirishga va tarbiyalanuvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga va dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilardan zamon talabi bo'lmish texnologiyalar, yangicha pedagogik qarashlar, interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llay bilishlari lozimligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tizimida yangicha yondashuvning yaqqol dalili misolida ta'lim tizimiga STEAM tizimning kirib kelishidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu tarbiyalanuvchilarga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Haqiqatdan bolalarning o'z hohish istaklariga muvofiq bilim olishga yo'naltirish uning bu boradagi qiziqishlarini yanada kuchaytiradi. Ularnig o'rganishga bo'lgan harakatlari qiziqishlari bilan chambarchas bog'lanishi ta'limda samarali natijalarni beradi. Bu borada tarbiyachi pedagoglarning pedagogik mahorati ham muhim o'rin egallaydi. Tarbiyachi bolalarni majburlashi emas balki yo'naltirishi, qiziqtirishi lozim. Bunday yo'naltirish bolaning boshqa sohalarga ham qiziqishini orttiradi va ma'lumot bazasini kengaytiradi. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tizimida yangicha yondashuvlar har tomonlama qulay va samarali bo'lishi bola hayotida o'z o'rnini topishga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xaliqova. U.M Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернайка 13-2 С 78-79
2. Rasulov. T.X, Rasulov. X.P O'zgarishi chegaralangan funksiyalar bo'limini o'qitishga doir metodik tavsiyalar. Scientific progress. 2:1,559-567 betlar.
3. Maktabgacha pedagogika. F.R Qodirova. Sh.Q. Toshpo'latova. N.M. Kayumova. M.N.A'zamova.

RAQALMI IQTISODIYOT DAVRIDA TALABALARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNI

Ermatova G.P.- katta o'qit. NavDPI
Bobojonova N.-talaba. NavDPI

Summary: This article discusses the role of psychological knowledge in the formation of professional competence in higher education systems.

Bugungi kunda jamiyatimiz barcha kasb egalari oldiga qo'yayotgan eng muhim vazifalardan bini- malakali mutaxassis sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda atrofidaqilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalorida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir.

Shu jumladan inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash va ularni o'z iqtidorlarini to'laqonli namoyish etishni talab etmoqda.

Bu xususida birinchi Prezidentimiz quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Psixologiya-fani biz uchun eng zarur sohalardan biri. Psixologiyani o'rganish, hayotni, insonni o'rganish degani.

Rahbarlik qilmoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganishingiz kerak.¹⁴⁵

Darhaqiqat, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib biz ta'lim tizimlarida, shu jumladan, oliy ta'lim tizimlarida psixologiya fanlarini o'qitishda individual yondoshish haqida bir oz fikr yuritmoqchimiz.

Zeroki murafakkirlarimiz biri Bahouddin Haqshband ta'lim beruvchi ustozning vazifasi-ta'lim bermoqlik ekanligi va u ta'lim berish uchun o'z shogirdlari mehr qo'ygan barcha narsalarni va ularning noto'g'ri fikrlarini e'tiborga olmog'i joizligi va misol tariqasida ustoz buxoroliklar bilan Buxoro tilida, bag'dodliklar bilan Bag'dod tilida so'zlashmog'i kerakligini o'qitirib o'tganlar¹⁴⁶.

Bundan tashqari mutafakkir olimimiz Abu Ali Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekanlar, ta'limning quyidagi tomonlariga rioya etish zarurligini ta'kidlaganlar:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayl, qiziqish va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.¹⁴⁷

Oliy ta'lim tizimlarida psixologiya fanlarini o'qitishning asosiy maqsadi — talabaiar tomonidan psixik faoliyatning umumiy nazariyalar, bilimlar ularning psixologiyadagi amaliy baholari xususan, yosh va pedagogik, ijtimoiy sohalarni o'rganishlarining asosini tashkil etishi kerak. Psixologiya fanining zamonaviy yutuqlarini o'zlashtirish talabaga undan awal qanday qarashlar va nazariyalar yuzaga kelgani va qay darajada ular ilmiy taraqqiyotiga yordam berishiga, barchasiga ongli ravishda yondashishga imkon beradi.

Psixologiya fanlaridan umumiy psixologiyani o'rganish psixologiya tizimidagi boshqa o'quv kurslarini o'zlashtirishda asosiy poydevor hisoblanadi, chunki umumiy bilimlarsiz fan xususiyatlarni tushunib olish qiyin. Shundan kelib chiqib, ma'ruza o'qishda va adabiyotlar bilan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda talaba uchun har bir yangi ilmiy qoidani hayotda kuzatiladigan psixologik hodisalar bilan tushuntirish, balki ular ishlarini qanday tushuntirilganligi va zamonaviy umumiy psixologiyada qanday tushuntirilishi bilan ham taqqoslash zarurdir. Ma'ruza mavzulari fanning rang-barangligi, bo'limlar mazmunida psixologiyaning asosiy muammolarini to'planishi, bir-biri bilan bog'liq tushunchalar tizimi sifatida bayon etilishi mumkin bo'lishi uchun bir nechta katta bo'limlarga jamlanganligi maqsadga muvofiq bo'lardi. Shunga muvofiq amaliy va seminar mashg'ulotlaridan kiritilishi mumkin bo'lgan tafsilotlari haqida ma'ruzalarda batafsil gapirib o'tish kerak bo'lmaydi. Misol uchun idrok etish psixik jarayonlarning har biriga batafsil tavsifnoma berib o'tish zaruriyati bo'lmaydi, lekin ularning faoliyati davomida ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar va bog'liqliklariga talabalarni e'tiborini qaratish ularning vazifalarini ko'rsatish berish lozim.

Shu jumladan talabalarning kasbiy xususiyatlarni hisobga olish kerak. Masalan, oliy ta'limning filologiya fakultetida tafakkur va xayolning ijodiyotdagi o'rni haqida, matematika fakultetida o'quvchilarning matematik qobiliyatlari, borasida nazariy asoslarini chuqurroq o'rganish va bo'lajak o'qituvchilarni bolalarda matematik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish metodikasi bilan qurollantirishi zarur hisoblanadi.

Beriladigan soatlar soniga qarab ma'ruza kurslar bo'yicha turli variantlarda bo'limlarga ajratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, umumiy psixologiyaning hamma muammolari beshta, oltita

¹⁴⁵ Karimov I.A. Inson uning huquqi va erkinliklari oily qadriyat. T.: 2006. 121-bet

¹⁴⁶ Haqiqat manzaralari.100 mumtoz faylasuf / Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.-T.: Yangi asr avlodi, 2013.-235-bet.

¹⁴⁷ Xaydarov F., N.Xalilova "Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi". "Aloqachi" 2007.-10-bet

yoki yetita ma'ruza bo'limlarga ajratilgan bolishi mumkin. Bu berilgan soatlar soni va o'qituvchining fikriga bog'liq bo'ladi.

Quyidagicha variantlarni kuzatishimiz mumkin:

1. Psixologiyaga kirish, shaxsning idrok etish jarayoni, shaxsning emotsional-irodaviy sohasi, shaxsning psixologik xususiyatlari.

2. Umumiy psixologiya fan sifatida, uning obykti va predmeti faoliyat psixologiyasi, shaxs psixologiyasi va idroki, emotsional irodaviy sohasi, xarakteri va temperamenti, shaxsning qobiliyatlari va yo'nalganligi.

3. Psixologiya fan sifatida va uning asosiy sohalari faoliyat psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, shaxs faoliyatida idrok etish jarayonlari, faoliyatda emotsiya va idrokning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya psixologiyasi muammolari, munosabatlar psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi.

O'qituvchi nimaga asosiy e'tiborni kuchaytirishni xohlashiga qarab ularning har biriga turli miqdorda soatlar ajratilishi mumkin. Misol uchun, bo'lajak ishlab chiqarish tashkilotchilari va jamoa rahbarlari uchun faoliyat psixologiyasi va shaxslararo munosabatlar psixologiyasining muammolarini yaxshiroq bilib olishlari, bo'lajak o'qituvchilarda esa shaxs psixologiyasi va uning rivojlanishi, ta'lim va tarbiya psixologiyasini bilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida ma'ruzachi rejalashtirilgan savollarini yechimini topishi kerak. Shu bilan birga nazariy xususiyatdagi ma'ruzalardan farqli ravishda ular talabalarda psixologik hodisalarni o'rganish va qayta o'zgartirish uchun amalda nazariy bilimlardan foydalanish mahoratini shakllantirishga hamda shu bilan ularni amaliy vaziyatlarda psixologik to'g'ri yoi tutishga o'rgatishga qaratiladi.

Albatta, ma'ruzada bo'lgani kabi mashg'ulotlarda ham o'qituvchi o'qitishning faol metodlaridan foydalanishga harakat qiladi va talabalarni ilmiy va amaliy muammolarni tahlil qilib, psixologik kategoriyalar bilan fikrlashga o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsad ma'ruzalarda bo'lgani kabi (muammoli bayon etish uchun) talabalarning mustaqil va amaliy mashg'ulotlarida (seminar laboratoriyalar) o'quv topshirig'i sifatida muammoli savollar hamda vazifalar yordamida erishish mumkin.

Bu savol — masalalar shunday tuzilishi kerakki, ular talabalarni fanning asosiy muammolari haqida mulohaza yuritishga yo'naltirsin; birinchidan, psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganib, bilib olishga; ikkinchidan, hayotiy vaziyatlarda psixikaning haqiqiy ko'rinishlari mos ravishda ularni tushunishga; uchinchidan, fanda ularni idrok etish tarixiy mantiqiy jarayon sifatida mustahkamlantirsin.

Shunday qilib, oily ta'lim tizimlarida psixologiya fanlarini o'qitishda:

- birinchidan, fanning xususiyati;
- ikkinchidan, har bir fakultet va yo`nalishning kasbiy xususiyati;
- uchinchidan, esa talabalarning qiziqishlari va umumiy xususiyatlari hisobga olinsa bo`ljak pedagoglarning kasbiy kompetentliklarini samarali tashkil etgan bo`lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» Toshkent. «Ma'naviyat» 2008.
2. Karimov I.A. Inson uning huquqi va erkinliklari oily qadriyat. T.: 2006.
3. Xaydarov F., N.Xalilova “Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi”. “Aloqachi” 2007.
4. Haqiqat manzaralari.100 mumtoz faylasuf / Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar.- T.: Yangi asr avlodi, 2013.-235-bet.

MA`RIFAT VA ZAMONAVIY TA`LIM MUNOSABATI

Farmanov S- Magistr. NSPI Uzbekistan

Annotation: This article describes the role of education in raising enlightenment and spirituality, the views of great people on this issue.

Keywords: enlightenment, spirituality, book, education, perfection, personality.

Barchamizga ayonki har qanday kasallikni davolashdan ko'ra uni oldini olish yoki unga qarshi imunitetni shakillantirish samaraliroqdir. Shu sababdan biz kabi yoshlarni ona yurtga bo'lgan muhabbat, necha ming yillik boy tariximiz, ajdodlarimiz e'tiqodi va shu bilan birga muqaddas dinimizga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, ongu-tafakkurimizda turli munofiqliklar, har xil aqidalarga qarshi himoya qobig'ini bir so'z bilan aytganda mafkuraviy imunitetni hosil qilish, kuchaytirish zarurdir. Toki biz yoshlar o'zligimizni yo'qotmagan holda chuqur dunyoqarashga ega bo'lgan, zamon bilan ham nafas, komil inson bo'lib yetishaylik. Shundagina biz aqidaparastlarning har qanday da'vatiga, milliy g'ururimizni bukadigan, odob axloq tushunchalarini rad etadigan, eng muhimi jamiyatimiz uchun mutlaqo begona g'oyalar bizga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Bu haqida so'z ketganda ma'naviy hayotimizga xavf soladigan illatlardan biri loqaydlik to'g'risida to'xtalishni joiz. Bizga ma'lumki beparvo, e'tiborsiz kishilarni bir qarashda aniqlash mushkuldir. Bunday kishilar dushmanlarimizdan ham xavfliroqki, ularning loqaydligi tufayli oramizda yurib, jamiyatimizga qarshi g'arazli niyatini amalga oshirish payida bo'lgan kimsalarga katta imkoniyat va qulaylik yaratib beradilar. Katta hayotiy tajribaga ega faylasuflardan biri ana shunday haqiqatni o'z fikrlarida bayon qilgan: "Dushmanlaringdan qo'rqma - nari borsa, ular seni o'ldirishadi. Do'stlaringdan qo'rqma - nari borsa, ular senga xiyonat qilishadi. Befarq odamlardan qo'rq - ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvoligi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi"¹⁴⁸.

Har birimiz hayotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday haqiqatni ongimizga singdirishimiz va buni kelajak avlodlarga yetkazishimiz, ularni hayot to'siqlarini yengishda chidamli, matonatli qilib tarbiyalash har birimizning insoniy burchimizdir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi"¹⁴⁹. Darhaqiqat kitob bizning ongu tafakkurimizni, dunyoqarashimizni o'zgartiradigan, ma'naviy saviyamizni yuksaltiradigan eng ta'sirchan vositadir. Chunki kitob o'z do'stining dilini og'ritmaydi, yuragini esa siqmaydi. Uning suhbatidan bizga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani boshqalardan topa olmaymiz. Men bejizga kitob haqida so'z ochmadim. Hozirda mamlakatimizda biz yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, aholini kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki kitob ma'rifatga eltuvchi manba bo'lib, jaholatning kushandasidir. O'tgan asrimizning boshlariga nazar solsak tashlasak bizning istiqlol yo'lidagi ma'rifatchi - mutafakkirlarimizdan Ishoqxon Ibrat, M. Behbudiy, A.Fitrat, A.Avlomiy, H.Niyoziy, A.Qodiriy, U.Nosir va boshqa koplak ajdodlarimiz o'zlarining qator kitoblari, asarlari orqali jaholatga qarshi bosh ko'tarishga da'vat etib, bu yo'lda bor kuch va g'ayratini ayamaganlar. Ammo o'sha davrdagi sobiq tuzum xalqimizni o'ziga butunlay tobe qilish maqsadida bizning ma'naviy me'rosimizni toptadilar, hatto o'z davrining ziyoli, mutafakkir kishilarni nohaq qatl qilishgacha bordilar. Shulardan A.Qodiriyning suhdagi nutqidan: "So'zim oxirida odil sudlardan so'rayman: garchi men turli bo'hton shaxsiyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg'on bo'lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko'zlarining ko'ngil uchun bo'lsa ham menga eng oily bo'lg'on jazoni bera ko'ringiz. Ko'nglida shamsi g'uborati, teskarichilik maqsadi bo'lmag'on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha

¹⁴⁸ Q.Yo'ldoshev. Adabiyot. Darslik. T.2007. 74 b.

¹⁴⁹Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard vajasur xaqimiz bilan birga quramiz. T. 2017.

ma`naviy o`lim bilan o`ldirildim. Endi jismoniy o`lim menga qo`rqinch emasdir. Odil suddlardan men shuni kutaman va so`rayman”.¹⁵⁰ shuni anglash mumkinki insofli, nomusli va haqgo`ylik fazilatlariga ega bo`lgan adibimiz uchun jismoniy o`limdan ko`ra, ma`naviy o`lim dahshatliroqdir.

Yana bir jaded namoyondalaridan biri H.H.Niyoziy ilimsizlik tufayli qoloqlik botqog`iga botgan xalqimizga, dard bilan murojat qiladi:

Turgil, darddan jisingni sog`la, Turkiston,
Donish o`tiga bag`ring dog`la, Turkiston.

Nodonlik uyqusida yotish, o`z g`arib ahvoliga beparvolik, taraqqiyotning omili bo`lmish ilmga intilmaslik og`ir dard ekanligini takidlaydi. Mana shu holat uni:

Yig`la, yig`la, Turkiston, yig`la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig`la, Turkiston.¹⁵¹

- deya nola chekishga majbur qiladi. Shonli o`tmishiga ega xalqimiz o`sha davrda qanchalik og`ir ahvolga tushib qolgan edi. Ollohga behad shukurlar bo`lsinki, bunday musibatli zamonga bardosh berib, bugungi havas qilsa arzigulik kunlarga yetdi. Muhtarm, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`biri bilan aytganda: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman. Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajadimiz ham albatta bo`ladi”¹⁵² - deb qayd etishlari har bir yosh avlod qalbida ajdodlar merosiga bo`lgan hurmat va ehtiromni chuqur his qilishga, teran anglashga muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda ozod va obod yurtda yashayotganimiz uchun ota – bobolarimizdan behad minnatdor bo`lishimiz, ular boshlagan yo`lini biz yoshlar davom ettirishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, milliy mafkuramizni anglashga to`sqinlik qilgan, o`z manfaatlari yo`lida turli tazyiqlar bilan xalqimizning ong-u tafakkurini zaharlashga uringan kimsalarning nomunosib umidlari bugungi istiqloqlning farahbaxsh kunlariga kelib puchga aylandi. Ayni vaqtda, jamiyatimizda mustaqil fikriga ega, turli ma`naviy xurujlarga qarshi tura oladigan, irodali, fidoyi va vatanparvar yosh avlodni tarbiyalash har qachongidan ham zarurdir.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ТАДБИРКОРЛИКНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Хотамова Г.Қ. НавДПИ катта ўқитувчи, Ўзбекистон

“Рақамли иқтисодиётсиз мамлакат иқтисодиётининг келажаги йўқ”

Ш. М. Мирзиёев

Бугунги замонда рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологиялари тараққиётга эришишнинг муҳим шартларидан биридир. Рақамли технологиялар нафақат давлат ва жамият бошқарувини такомиллаштиради ва ижтимоий соҳада одамларга катта қулайликлар яратади. Бундан ташқари рақамли технологиялар ижобий иқтисодий ўсишга замин яратади: маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, коррупцияга чек қўяди.

Ижтимоий-иқтисодий соҳанинг барча соҳаларига, жумладан, тадбиркорликка рақамли технологияларни кенг жорий этиш энг муҳим вазифалардан биридир.

Маълумки, рақамли иқтисодиёт рақамли технологияларга асосланган иқтисодий фаолият бўлиб, иқтисодий тармоқларда рақамли технологияларни ривожлантириш ҳисобига меҳнат унумдорлиги ва маҳсулотнинг рақобатбардошлигига, харажатларнинг камайишига, янги иш ўринлари яратишга олиб келади.

2025 йилга келиб дунёда рақамли иқтисодиётнинг улуши 23 трлн. АҚШ долларига етади.

¹⁵⁰ В. Qosimov. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti. T. 2008.

¹⁵¹ В. Qosimov. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti. T. 2008.

¹⁵² Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard vajasur haqimiz bilan birga quramiz. T. 2017.

Унинг жаҳон ЯИМ даги улуши ҳозирги 17.1 фоиздан 24.3 фоизга ўсади, булутли технологиялардан фойдаланувчи корхоналар сони 58% га , сунъий интеллект- 85%, рақамли катта ҳажмдаги маълумотлар-80% га ошади. Тармоқ стандартлари : 5G стандартидаги уяли тармоқларнинг маълумот алмашиш тезлиги 20 Gbit/s га етади, бу 4G стандарт тармоқларидан 4 баробар юқори кўрсаткичга эга.

Кичик бизнеснинг ривожланиши бозорни истеъмол товарлари ва хизматлари билан тўлдиришга, тармоқ ва ҳудудий монополизмга барҳам беришга, рақобат муҳитининг вужудга келиши ва кенгайишига, илмий-техника натижаларини ишлаб чиқаришга ва уни жорий этишга, мамлакат экспорт салоҳиятини юксалишига ижобий таъсир кўрсатади.

Бугунги кунда эса тадбиркорлик назариясини ривожлантиришнинг таваккалчилик, инновация, бошқарув қобилятида шахсий сифатларининг намоён бўлиши ва таҳлилий босқичлари ажратилмоқда.

Таниқли соҳа олимларининг олиб борган тадқиқотлари шуни кўрсатадики, тадбиркорнинг ўз фаолияти соҳасида олиб борадиган ишлари кўп қиррали бўлиб, бу бозор сиёсатининг ўзгариши билан ёки корxonанинг ички ва ташқи омиллари таъсирида аниқланади. Тадбиркорнинг асосий мақсади манфаат (фойда) кўриш билан бир қаторда, бозорда самарали фаолият юритишни таъминлайдиган ишларни амалга оширишдир. Бунинг учун тадбиркорликни бошқариш ва унга кўмак берувчи замонавий менежмент усулларига асосланган механизмни яратиш ва ундан унумли фойдаланишни таъминлаш тақозо этилади.

Шу боис ҳам замонавий менежментда тадбиркорлик фаолияти сифатлари қуйидаги ишбилармонлик тамойилларга асосланиши тавсия этилади:

- бозорнинг “тўйинганлик” даражасини таҳлиллаш орқали иқтисодий хўжалик тизими ўрнини белгилаш;
- хусусий ишлаб чиқариш тузилмасини яратиш;
- мажмуий маркетинг ҳисоб-китобларини амалга ошириш;
- тадбиркорлик лойиҳасини амалга оширишда оқилона раҳбарлик;
- инновацион рақобат ва башоратлаш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, тадбиркорлик борасида рақамли иқтисодиёт соҳасида хорижий тажрибаларни ўрганиш ва уларни миллий иқтисодиётга татбиқ этиш лозим. Кадрларни рақамли иқтисодиётни ривожлантиришдаги иштирокини молиялаштириш ва бу ини юқори даравжада рағбатлантириш тизимини яратиш муҳим аҳамият касб этади.

ИЖОДКОР ҲАЁТ ЙЎЛИНИ ЁРИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

**Убайдуллаев Н.Х.,-Алишер Навоий номидаги ТошДўТА ҳузуридаги ДТИЮАЎ
ва МОМ Самарқанд вилояти ҳудудий бўлинмаси ўқитувчиси**

Annotation: The study of genres existing in classical and modern Uzbek literature at various stages of the education system, the study of their specific features for students and young people and, thus, the formation of their sense of respect for our spiritual heritage, the literary heritage created by our ancestors, instilling interest in their study is one of the topical issues. To date, the scientific and methodological foundations of teaching literature in higher educational institutions based on innovative technologies have been developed.

Keywords: *innovation, technology, methodology, literature, education, teaching tactics, traditional education, non-traditional teaching, interactive methods.*

Таълим босқичларида фақат бадиий асарнинг ўзини эмас, балки уларга боғлиқ равишда адабий-назарий тушунчаларни ҳам ўрганиш заруриятини ва йўл-йўриқларни кўрсатиш, адабиёт дарсларини ташкил этиш, адабиётдан дарсдан ташқари ва мустақил ишларни ташкил этиш, уларнинг оғзаки ва ёзма нутқларини ўстириш йўллари кўрсатиш

билан кифояланмасдан илми толибларнинг ўз устиларида мунтазам ишлаш, мустақил ижодий ишларни ташкил этиш йўлларини кўрсатиши билан ҳам муҳимдир¹⁵³.

Шунинг учун ҳам бадий матнларни ўрганишда, айниқса, автобиографик характердаги асарларни тадқиқ этишда янги қарашлар, *инновацион тафаккур*, педагогик ёндашув самарали йўл ҳисобланади. «Адабиёт ўқитиш усули педагогика фанининг узвий қисми бўлиб, бадий адабиётни тадқиқ этади, адабиёт ўқитиш шартлари ва усулларини илмий асосда ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш, аудиторияда ва уйда ўқиш, шунингдек, дарс ва дарсдан ташқари машғулотларнинг шакли ва усулларини ишлаб чиқиш билан шуғулланади. Унинг асосини бадий асарни таълим ва тарбиянинг муҳим воситаси сифатида ўрганиш, эстетик тарбиялаш жараёни ташкил қилади. Шу жараёнда ўқитувчи ёзувчи яратган бадий образларнинг аҳамиятини ўқувчилар онгига сингдиради, бадий образнинг моҳиятини очади, ўқувчиларнинг маънавий дунёсини бойитади»¹⁵⁴.

Адабиётшунос олим Д.Қуроновнинг ёзувчилар ҳаёти ва ижодини ўрганишда автобиографик битикларнинг ўрни ҳақида билдирган фикрлари эътиборга молик: «Кўпинча эл ичида ижодкорлар тўғрисидаги турли-туман миш-мишларга, узунқулок гапларга дуч келинадик, гоҳо уларнинг бир-бирига тамомила зидлигию ақл бовар қилмас даражада ажабтовурлигидан шошиб қолади киши. Албатта, бу нав миш-мишлар эл наздида катта обрў-эътибор топган кишилар ҳаётига қизиқишнинг зўрлигидан юзага келади»¹⁵⁵.

Кейинги йилларда олий даргоҳлар ва умумтаълим мактабларининг “Адабиёт” дарсликларида автобиографик маълумотларни беришда талаба-ўқувчиларнинг ёшини, мавзунини қай даражада идрок қилиши, тушуниш даражасини ҳисобга олинганлиги сезилади. Айниқса, ўқувчиларга шоир ёки ёзувчи ҳаёти ҳақида фақат сана ва рақамлар асосида маълумот берилмай, кўшимча маълумотларга асосланиш мавзуга бўлган қизиқишни ошириши педагогик жиҳатдан тўғри эканлигини кўрсатмоқда. Бугуни кунда “Адабиёт” дарсликларида шоир ва ёзувчилар ҳаётига доир маълумотларни беришда асосан ўша ижодкорнинг ўзи томонидан айтилган фикрларга, уларнинг ўз ёшлиги тўғрисидаги ҳикоялари ҳамда унга замондош бўлган, унинг ҳаёти ва ижоди билан яқиндан таниш бўлган кишиларнинг хотираларидан фойдаланишга аҳамият берилмоқда. Адабиётшунос олим Баҳодир Каримов «Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур» номли илмий монографиясида «Бадий асар ва биографик маълумот» салавҳаси остида ёзилган қайдларида ижодкор таржимаи ҳолига қуйидагича таъриф беради: «Ёзувчи биографияси эса қайсидир йўсинда унинг асарларида ўз ифодасини топади. Ва қайсидир даражада санъат асарининг оригиналлигини таъмин этади. Ёзувчи ҳаётидаги ўзгаришлар, руҳий кечинмалар, дунёқарашидаги силкинишлар фонида бадий асарни талқин қилиш ўзининг ижобий самарасини беради, албатта»¹⁵⁶.

Шу вақтгача *анъанавий таълим*да ўқувчиларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатиб келинганлиги маълум. Бундай усул ўқувчиларда мустақил фикрлаш, ишлаш, ижодий изланиш, ташаббус кўрсатиш қобилиятларини ривожлантиришга катта имкон бермаслиги аниқ.

Эндиликда фан, техника ва инновацион технологияларнинг ривожланиши натижасида ўқув-тарбия жараёнида *интерфаол усуллар (инновацион педагогик ва ахборот технологиялари)*дан фойдаланиб, таълимнинг самарадорлигини кўтаришга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Таълим тизимида *замонавий технологиялар* қўлланилган машғулотлар эгалланаётган билимларни ўқувчилар

¹⁵³Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.-Б.9.

¹⁵⁴Зуннунов А., Ҳотамов И., Эсонов Ж., Иброҳимов А.Адабиёт ўқитиш методикаси –Т.:Ўқитувчи, 1992. -Б.10.

¹⁵⁵Қуронов Д. «Адабиёт надири» ёки Чўлпоннинг мангу саволи. //Адабий-танқидий мақолалар. –Т.:Zarqalam, 2006,- Б.40-41.

¹⁵⁶Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография.–Т.:Академнашр, 2014.-Б.183-184.

томонидан ўзлари кидириб топишлари, мустақил ўрганиб, уларни таҳлил қилишлари, ўз билимларини баҳолашлари, тўғри хулосалар чиқаришга қаратилган. Ўқитувчи бу жараёнда шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига, шунингдек, эркин фикрлаб синфдошлари билан ўзаро ҳамкорликда ишлаш ва ҳаракат қилишларига шароит яратади, шу билан бир қаторда, бошқарувчилик, йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Бундай ўқув-тарбия жараёнида ўқувчи марказий иштирокчига айланади.

Педагог-олимларнинг кўп йиллар давомида таълим тизимида: *Нега ўқитамиз? Нимани ўқитамиз? Қандай ўқитамиз?* саволларига жавоб излаш билан бир қаторда *Қандай қилиб самарали ва натижалли ўқитиш мумкин?* - деган саволга ҳам жавоб кидирдилар.

Бу эса, олим ва амалиётчиларни ўқув жараёнини **технологиялаштиришга**, яъни ўқитишни ишлаб чиқаришга оид аниқ кафолатланган натижа берадиган **технологик жараёнга** айлантиришга уриниб кўриш мумкин, деган фикрга олиб келди.

Бундай фикрнинг туғилиши *педагогика фанида янги педагогик технология йўналишини* юзага келтирди¹⁵⁷.

Резюме» технологияси

«Резюме» – [fr.resume < resumer – қисқача баён қилмоқ]. Ёзилган, айтилган ёки ўқилган матн мазмунининг қисқача баёнидир. Бу технология мураккаб, кўп тармоқли, мумкин қадар муаммоли мавзуларни ўрганишга қаратилган. Технологиянинг моҳияти шундан иборатки, бунда бир йўла мавзунинг турли тармоқлари бўйича ахборот берилади. Айни пайтда уларнинг ҳар бири алоҳида нуқталардан муҳокама этилади. Масалан, ижобий ва салбий томонлари, афзаллик ва камчиликлари, фойда ва зарарлари белгиланади.

3.1- жадвал.

Ижодкорларнинг таржимаи ҳолини баён қилишда анъанавий таълим усулидан фойдаланиш	
Афзалликлари	Камчиликлари
<ul style="list-style-type: none"> ✚ Вақт тежалади ✚ Хотира мустаҳкамланади 	<ul style="list-style-type: none"> ✚ Нутқий салоҳият пасаяди ✚ Фикрлаш йўқолади ✚ Ижодкорлик сусаяди ✚ Кўр-кўрона ёдлаш ҳеч қандай самара бермайди ✚ Ўқувчига қисқа вақтда меъёрдан кўпроқ маълумот берилади
<p>Хулоса: Анъанавий таълим усулидан фойдаланиш мантикий ва танкидий фикрлаш қобилиятини чеклайди.</p>	

3.2-жадвал.

Ижодкорларнинг ҳаёт йўлини ёритишда ноанъанавий таълим усулидан фойдаланиш	
Афзалликлари	Камчиликлари

¹⁵⁷ Ишмухамедов Р., Юлдошев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.–Т.: «Nihol» нашриёти, 2013. –Б.9.

<ul style="list-style-type: none"> ✚ Ўқувчининг нутқий маҳорати ошади ✚ Мустақил фикрлаш қобилияти шаклланади ✚ Визуал кўриш орқали дунёқараши кенгаяди ✚ Кузатиш ва таҳлил қилишни ўрганади ✚ Ўзларида пайдо бўлган таассуротларни умумлаштиради ✚ Ижодий қобилиятни ўстиради 	<ul style="list-style-type: none"> ✚ Эркинлик берилади ✚ Қаттиқ қўл бўлиш қораланади
<p>Хулоса: Ноанъанавий таълим усулидан фойдаланиш ижодкорлик сари кўйилган кадамдир.</p>	

Ўзувчининг ҳаёт йўлини баён этишда *инновацион технологиялардан* унумли фойдаланиш лозим. Негаки, замон шиддат билан ўзгариб бормоқда. Фан-техника тараққий этар экан, ўқитиш тактикаси ва техникаси ҳам ўзгариб боради. Расмли кўргазмалар куроллар ўрнини ведио-визуал лавҳалар эгалламоқда. Ҳар хил тарқатма материаллар орқали бажариладиган ишларни компьютер техникаси бажармоқда. Маъруза жараёнида ўқитувчи ўзувчининг асарлари ҳақидаги маълумотлар ва тарихий кўлёзма манбаларни ведиопроекторлар орқали намойиш қилмоқда. Дарсларни мана шу тартиб ва тизимда ташкил этиш илми толибларда ўзувчи шахсига, унинг ижодига нисбатан қизиқиш, муҳаббат ҳиссини ўстиради, асосий мавзу сифатида ўрганиладиган асарни пухта ўзлаштириш учун замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.-Б.9.
2. Зуннунов А., Хотамов И., Эсонов Ж., Иброҳимов А.Адабиёт ўқитиш методикаси – Т.:Ўқитувчи, 1992. -Б.10.
3. Қурононов Д. «Адабиёт надир» ёки Чўлпоннинг мангу саволи. //Адабий-танқидий мақолалар. –Т.:Zarqalam, 2006,-Б.40-41.
4. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур: илмий монография.– Т.:Академнашр, 2014.-Б.183-184.
5. Ишмухамедов Р., Юлдошев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.–Т.: «Nihol» нашриёти, 2013. –Б.9.

MADANIY ME`ROSIMIZNING SIVILIZATSION MOHIYATI.

Jalolov Sh.Ch.-NavDPI, Uzbekiston

Annotation: This article is mainly about the work done in our country to protect, study and use our cultural heritage, which is a national treasure of the people of Uzbekistan.

Keywords: cultural heritage, “Boysun cultural environment”, “Shashmaqom music”

Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an‘analari” nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga, Usmon Qur‘oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi.

Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish

markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun mas'ul organning tashkiliy-shtat tuzilmasi sohada davlat nazoratini samarali tashkil etish imkonini bermayapti. Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo nihoyatda boy tarixga va madaniy merosga ega bo'lgan insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biridir. Mintaqaning "Buyuk ipak yo'li"ning markazida joylashganligi, va unda yashovchixalqlar Sharq va G'arb o'rtasidagi xalqaro savdo, ilmiy-fan yutuqlari va madaniyatlarining almashinuvini ta'minlovchi o'ziga xos muhim bog'lovchi rolini amalga oshirgan. Mintaqaning beshta mamlakati - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'z tarixi, madaniyati va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida ko'p uzviy o'xshashliklarga ega bo'lib, tarixan yagona ilm-fan va madaniy makon sifatida shakllangan. Shu o'rinda, umummintaqaviy ustuvor manfaatlarga asoslangan "Markaziy Osiyo-jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" mavzusida xalqaro anjumanni o'tkazish mintaqa davlatlari aholisi o'rtasida yakdillik ruhini kuchaytiradi va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo'shnichilikning bardavomligini ta'minlashga g'oyat muhim hissa qo'shadi. Shu bilan bir qatorda,

O'zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari jahon sivilizatsiyasiga qo'shayotgan ulkan hissalarini qayta e'tirof etishga imkon beradi. Qolaversa, xalqaro miqyosdagi ilm-fan vakillarining Markaziy Osiyo xalqlari boy ilmiy va madaniy meroslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoning madaniy va tarixiy meroslarini qayta tiklash va ommalashtirishda xalqaro hamjamiyatning ishtirokini yanada faollashtirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga mazkur xalqaro nufuzdagi tadbir mintaqamiz xalqlarining madaniy taraqqiyotiga qo'shgan mislsiz hissasi haqida keng qamrovli fikr bildirish uchun o'ziga xos maydon vazifasini o'taydi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, keyingi yillarda yurtimizda tashkil etilayotgan nufuzli xalqaro konferensiyalar, forumlar, madaniy tadbirlar

O'zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki dunyoning zamonaviy madaniy-ma'rifiy markazlaridan biriga aylanib borayotganini anglatadi. Mazkur xalqaro forumning yana bir muhim jihati O'zbekistonning qadimiy Xiva shahri turizm brendini yanada rivojlantirishga va turistik oqimning ko'payishiga xizmat qiladi. Shubhasiz, davlatimiz Rahbarining ushbu tashabbusini Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdagi amaliy qadamlardan biri sifatida baholash mumkin

Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlari hozirgi kungacha O'zbekistonda fundamental tarzda o'rganilmasdan qolmoqda. Uning asarlarini, xususan, davlat tilida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida, ommalashtirish ham talabga javob bermaydi. Jahonda XI asrni Beruniy asri deb e'tirof etilgan bir sharoitda bugun mamlakatimizda mavjud imkoniyatlardan foydalanilgan holda Beruniyning bizga qoldirgan ilmiy va falsafiy merosini keng tashviqot-targ'ibot qilish, yoshlarimizning ilmga bo'lgan qiziqishi oshishiga, ularda buyuk bobomiz kabi o'z Vatanini jon- dildan, unga talpinib yashash tuyg'ularini shakllantirishga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishi ta'kidlandi.

Tarixchilar, faylasuflar, tilshunos va adabiyotshunoslar, xullas barcha ijtimoiy fan vakillari bir yoqadan bosh chiqarib, o'zaro hamjihatlikda tarixiy obidalar va madaniyatimizni tiklash yo'lida fidoyilik ko'rsatishi lozimdir..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduxoliqov S Madaniyat tarixi va uning asosiy masalalari T. Fan 1992
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil

BIOLOGIYA DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGI.

Kanatbayeva T.S- b.f.f.d. (PhD), NavDPI, O‘zbekiston

Annotation: The organization of biology lessons on the basis of innovative technologies increases the interest of students in science and organizes the ability to work independently in groups, to share knowledge and problems. At the same time, gifted and talented children will be able to be active in groups and demonstrate their knowledge and skills.

Keywords: innovative technologies, national training program, state educational standards, independent work in groups.

O‘zbekiston Respublikasining “ta’lim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayorlash milliy dasturi” da har bir fanni o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash orqali uzluksiz ta’lim samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor berilgan. Har bir fan uchun innovatsion texnologiyalarni, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib qo‘llash uslubiyotini ishlab chiqish har bir pedagogning asosiy vazifasidir.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida umumiy ta’lim fanlari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo‘llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tizimlarga bo‘lgan ehtiyoj yaqqol ko‘zga tashlandi.

Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo‘lib, u narsa va xodisalar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga yo‘nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa xodisalar to‘g‘risida to‘liq va chuqur bilim olishga qaratilgan. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Biologiya fani juda sertarmoq bo‘lib, uning har bir bo‘limlarini o‘rganishda o‘zicha bir mavzuga xos bo‘lgan, xar xil qiziqarli dars texnologiyalarini yaratish mumkin.

Biologiya darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkillashtirish o‘quvchilarning fanga bulgan qiziqishlarin orttiradi va guruhlarda mustaqil ishlab, o‘rganiladigan bilim, muammoni birgalikda egalashni tashkil etadi. Bu texnologiyadan foydalanishining afzalligi o‘quvchilar ko‘proq bir-biri bilan fikr almashadilar, munozara qiladilar, bir-birini o‘qitadi va oldiga qo‘ygan savolga umumiy xulosa qilish bilan javob beradilar. Bunda iqtidorlik va qobiliyatli bolalar guruhlarda faol bo‘lib, o‘z bilimlarini, mahoratini namoyish qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ma‘lumki, biologiyani o‘qitishda mavzu matnida ustunlik qiluvchi tushunchalarga ko‘ra, morfologik, anatomik, fiziologik, sistematik, ekologik, embriologik, sitologik mazmundagi darslarga ajratiladi. Darslarning bunday guruhlarga ajratilishi o‘quvchilarda tushunchalarni shakllantirish va ko‘nikmalarni tarkib toptirish jarayonini uyg‘unlashtirish va ularni uzviy ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar boshqa turdagi mashg‘ulotlardan ko‘p sondagi o‘quvchilarning ishtirok etishi bilan farqlanadi. Ommaviy mashg‘ulotlar o‘zining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyasi bilan o‘quvchilarning jamoasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy mashg‘ulotlar mobaynida har-bir o‘quvchi o‘zining mustaqil fikrini bayon etishiga, o‘z fikrini himoya qila olishga, aqliy teranlikka erishadi. Shu sababli biologiya o‘qituvchisi ommaviy mashg‘ulotlarni talab darajasida tashkil etilishiga e‘tiborini qaratishi lozim. O‘qituvchining

innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi asosida amalga oshiriladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. O'qitilayotgan darslarga qanchalik ko'p yangilik kiritilsa u shuncha qiziqarli va mazmunli o'tadi. Har-bir o'tilayotgan mavzuni turli xil innovatsion texnologiyalar asosida tashkillashtirishimiz mumkin. Masalan: Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish darslarida "Atmosfera va uning ifloslash sabablari" mavzusini o'qitishda bumerang treningi metodidan foydalanib quyidagicha dars tashkillashtirishimiz mumkin. Bunda talabalar kichik guruhlar bo'linadi va materiallar tarqatiladi. Har bir guruh o'z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar o'rtasida savol-javob ketadi va javoblar muhokama qilinadi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi:

Birinchi guruh vazifasi.

1. Atmosfera qatlamiga tarifi beringlar.
2. Atmosferaning ifloslanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Atmosferaning tarkibiga nimalar kiradi?

Ikkinchi guruh vazifasi.

1. O'zbekistonda atmosfera havosini muhofaza qilish borasida qanday ishlar qilinmoqda?
2. Atmosferaning tabiatdagi ahamiyati qanday?
3. Atmosfera ifloslanish yo'llari va manbalari

Uchinchi guruh vazifasi.

1. Atmosfera tarkibidagi gazlarni aytib bering.
2. Kislotali yomg'irlarning qanday salbiy ta'siri bor?
3. Atmosferava uning tirik organizmlarga ta'siri qanday?

Xulosa qilib aytganda Bumerang treningi metodidan foydalanishning samaradorligi shundaki bu metod o'quvchilarning o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga, izlanishga, guruhlarda ishlashga o'rgatadi va darslarning qiziqarli, yuqori samorodorli bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan, bugungu kunning asosiy muammolaridan biri bo'lgan zamonaviy innavasion pedagogik texnologiyalardan o'rinli va unumli foydalanish har bir fan o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir.

Shuning uchun biz o'qituvchilar, o'tiladigan har bir mavzuni zamon talabiga mos ravishda tashkil etishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Tolipova. "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar". Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 2014
2. Tolipova J. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. T. 2013.
3. <http://www.ziyonet.uz>.

ZOOLOGIYA DARSLARIN O'QITISHDA INNAVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kanatbayeva T.S- b.f.f.d. (PhD)

Xamzayeva U.Q-1V-kurs talabasi NavDPI, O'zbekiston

Annotation: Nowadays, the process of learning students is not based on one technology in one lesson or lesson to cover a new topic, but on the specifics of each stage of the lesson. Depending on the content of the new lesson, the scope covered, and the use of visual aids and tools, the teacher may use a variety of didactic handouts.

Keywords: learning process, lesson effectiveness, innovation, didactic handouts, development of creative approach, assignments.

Hozirgi kunda mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan turli o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni talab qilmoqda. Bunga javoban, biz pedagog xodimlar yuksak ma'naviy-

axloqiy talablarga javob beradigan, har tomonlama yetuk, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda o'z mehnatlarimizni ayamassligimiz, pedagogik faoliyatimizga doimiy ijodiy yondoshmog'imiz lozim. Bu borada "Ta'lim to'g'risida" qonunda "Pedagog xodimlar o'zlarining kasb ko'nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart" deb ko'rsatib o'tilgan. Bu esa bizdan o'z ustimizda tinimsiz ish olib borishimizni talab etadi.

Hozirgi kunda innavasion texnologiyalardan foydalanib dars o'tish xar bir darsning bir-biridan qiziqarli o'tish imkoniyatini beradi. Natijada o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashadi, talabalarning bilish yanada faollashadi hamda dars samaradorligi ortadi.

Xar bir darsning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, darsda turli innavasion texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bunday dars o'tish jarayonida o'qituvchining o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi. Bu talab esa darsning samaradorligini, uning sifatli bo'lishini, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, birinchi galda maktab o'quv mashg'ulotlarini mustahkam egallab olishlarining manbaidir. Xar bir pedagogning ishga ijodiy yondashishini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki dars jarayoni har yili bir xil ko'rinish, bir xil andoza, bir xil tipda emas, balki har yili har-xil usul va uslublardan qo'llagan holda tashkil etilishi lozim.

Yangi darsning mazmuni, egallagan qamrovi, unda ko'rgazmali qo'llanmalar va vositalarning ishlatilishiga qarab o'qituvchi turli didaktik tarqatma materiallarni qo'llashi mumkin. Tarqatma materiallarni, testlarni, diagrammalarni, ko'rgazmali qurolarni tayyorlash va ular bilan dars o'tish o'qituvchilardan ko'p vaqt va mahorat talab qilishi bilan birga o'quvchida ham zarur bilimlar bo'lishini taqazzo etadi. Tarqatma materiallarni tayyorlashda o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyati, aqliy darajasi, bajara olish qobiliyatini ham e'tiborga olishi zarur. Chunki o'quvchilar qanchalik bilimli va zukko bo'lsalar darsda shuncha faol qatnashadilar va darsga qiziqishlari yanada ortib boradi.

Biologiya ta'limida ham boshqa ta'lim yo'nalishlaridagi kabi tarqatma materiallarning har xil turlaridan foydalanish mumkin. Quyida esa o'sha tarqatma materiallarning turlarining ayrimlariga qisqa ta'rif berilgan.

Birinchi navbatda eng ko'p qo'llaniladigan tarqatma material turlaridan kartochkalar. Kartochkalarni botanika, zoologiya va biologiya yoki bo'lmasa alohida biror mavzu yuzasidan tayyorlash mumkin. Masalan; Ko'p hujayralilar kenja sinfi vakillarining tana tuzilishi mavzusi o'tilganda:

1. Ko'p hujayralilarning kelib chiqishi va sistematikasi
2. Ko'p hujayrali hayvonlar hayot kechirishning asosiy xususiyatlari.
3. G'ovak tanalilar tipi.
4. G'ovaktanlilarning tuzilishi va rivojlanishi

Kartochkalardan foydalanishning bu usuli o'quvchilarning mavzuni qanchalik o'rganganligini va ularning bilim darajasini aniqlash uchun katta yordam beradi.

Kartochkalardan foydalanishning yana bir turi topshiriq-kartochkalardan va didaktik testlardan foydalanish. Topshiriq- kartochkalar tarqatiladigan materiallar turlaridan biri bo'lib, o'qitish jarayonini aktivlashtirishda, o'quvchilar bilimini samaraliroq hisobga olishda o'qituvchiga yordam beradi. U darsda so'raladigan o'quvchilar sonini ko'paytirishga imkon tug'diradi. Didaktik testlar esa har xil yo'sinda tekshirishlarga, yozma ishlarga va o'qitish natijalarini nazorat qilishning og'zaki shakllariga o'xshaydi va eksperimental tadqiqotlarning natijalarini baholash uchun xizmat qiladi. Testli tarqatmalar o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning boshqa usullaridan o'zining aniqligi va obektivligi, shuningdek bilim darajasini o'lchash uchun qulayligi bilan farqlanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, didaktik tarqatma savollar odatda o'zining to'liq ifodalanishida javobning ko'p elementlarini va hatto og'zaki talqin yoki so'zlar guruhini o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchini aqliy zo'riqishdan qutqaradi.

Xulosa qilib aytganda innavasion texnologiyalardan foydalanish, o'qituvchi rahbarligida turli usul va uslublardan yordamida o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalari bilan qurollantirishda

hamda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda o'zining samarali natijalarini ko'rsatadi va nuqtai nazar va bilish xarakterlarini bajarishga rahbatlantirish yo'li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. J.Tolipova. "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar". Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 2014
5. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. T. 2012.
6. Tolipova J. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. T. 2013.
7. <http://www.ziyonet.uz>.

«ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИЛЛЮСТРАЦИЙ УЧЕБНИКОВ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ»

Изатуллаева М.А.-преподаватель ТГПУим.Низами

Русский язык является одним из важнейших и основополагающих предметов в процессе обучения на первой ступени среднего специального образования. Умения и навыки в области усвоения русского языка (речь, чтение, письмо) являются необходимым условием и средством интеллектуального и личностного развития учащихся. Важной составляющей в развитии учебных навыков и умений является развитие у учащихся интереса к этому предмету, сделать его как можно более разнообразным, целенаправленным и увлекательным.

Как отмечал Президент Ш.Мирзиёев: «продолжить совершенствование системы развития науки и непрерывного образования, отвечающего требованиям времени. Воспитание и образование начинаются с колыбели, как говорит наш народ. Ведь только просвещение дает гармоничное развитие личности и обществу. Поэтому государственная политика в сфере образования должна основываться на его непрерывности, на протяжении всей жизни человека, начиная с детского сада»¹⁵⁸.

На первой ступени среднего специального образования учащиеся совершают переход от игровой деятельности к учебной деятельности.

Основываясь на этой особенности, именно дидактические игры будут способствовать привлечению внимания учащихся к предмету, развить у них интерес, заинтересованность в получении знаний.

Посредством использования дидактических игр на уроке у учащихся развиваются психологические процессы, формируется учебная мотивация, а изучаемый материал усваивается, запоминается и воспринимается лучше. Согласно исследованиям современных психологов (Л.С. Выготский, П.Я. Гальперин, А.Н. Леонтьева, А.Р. Лурия, и др.) поэтапное формирование умственных действий на материале обучения осуществляется наиболее оптимально посредством включения игровой деятельности в образовательный процесс.

Таким образом, можно предположить, что применение дидактических игр в процессе изучения русского языка будет способствовать не только формированию мотивации и интереса к учению, но и значительно повысит качество самого обучения, что окажет позитивное воздействие на качество и полученных знаний.

Реформирование отечественной системы образования на современном этапе ее развития характеризуется значительным расширением фонда учебников и учебных пособий. Выходят новые, альтернативные издания учебников, в том числе по русскому языку, поэтому проблема иллюстрирования учебников приобретает особую значимость. В дидактике исследованы многие вопросы, связанные с теорией учебника. Так, определена роль учебника в учебно-воспитательном процессе и место учебника в системе средств

¹⁵⁸ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. 28 декабря 2018 года. <https://president.uz/ru/lists/view/2228>

обучения (Ю. К. Бабанский, В. П. Беспалько, Д. Д. Зуев, И. Я. Лернер, М. Н. Скаткин, С. Г. Шаповаленко, Н. М. Шахмаев и др.), охарактеризованы общедидактические функции учебника (В. Г. Бейлинсон, В. В. Краевский, К. П. Товпинец, Н. И. Тупальский и др.), выявлены основные структурные компоненты и сформулированы требования к ним (Я. А. Микк, А. М. Сохор и др.). Предложены классификации иллюстративного материала (ИМ) по разным основаниям (А. А. Вагин, Н. А. Гончарова, А. И. Зильберштейн, Д. Д. Зуев, В. Н. Ляхов, А. В. Попков, В. И. Рывчин), раскрыты особенности восприятия учебного текста (С. М. Бондаренко, Г. Г. Граник и др.), В последние годы усилилось внимание к учебникам языкового цикла (И. Л. Бим, К. З. Закирьянов, Н. Б. Экба и др.), появились публикации, связанные с учебниками родного языка (В. В. Бабайцева, Г. Г. Граник, Л. М. Зельманова, Т. А. Ладыженская, Л. П. Федоренко и др.).

Между тем русский язык занимает особое место, являясь одновременно и предметом изучения, и средством обучения культурологии страны, изучаемого языка. Одной из важнейших задач преподавания русского языка является формирование коммуникативных умений. Естественно, что эта специфика данного учебного предмета предопределяет и специфику иллюстративной методики.

Таким образом, необходимость повышения эффективности процесса обучения русскому языку и совершенствования учебников русского языка, в том числе иллюстративные материалы, с одной стороны, отсутствие научно обоснованных требований к отбору иллюстративных материалов для учебника русского языка и методике его использования, составляют проблему исследования и определяют актуальность выбранной темы "Методические основы отбора иллюстративного материала для учебников русского языка".

Современный учебник призван системно, доступно излагать основы научных знаний, помогать ученику в усвоении учебного материала, воспитывать ученика желание учиться и заниматься самообразованием. Поэтому в учебнике должны быть представлены и проблемные ситуации, и дополнительные сведения, и разнообразные вопросы и задания, и, наконец, иллюстрации.

Термин «иллюстрация» происходит от латинского слова «*illustration*»- освещение, наглядное изображение. Принципы наглядности предполагает демонстрацию учащимся иллюстративных пособий: плакатов, карт, репродукций и др.

Термин «иллюстрация» в «Словаре методических терминов» (авторы Э. Г. Азимов и А. И. Щукин) трактуется следующим образом: «Визуальное средство обучения, компонент содержания учебника или урока, средство наглядности (рисунки, фотографии, таблицы, схемы и т.п.), поясняющие или дополняющие какой-либо текст....».

Как правило, в существующих учебных пособиях привычными являются иллюстрации в учебниках естественнонаучного цикла, истории, литературы. Учебники по русскому языку – независимо от их авторов и издателей – не изобилуют столь необходимым и востребованным средством наглядности.

Чаще всего ученикам предлагаются чёрно-белые фотографии с изображением видных учёных-лингвистов или же схемы и таблицы, структурирующие тот или иной материал. Цветными являются репродукции картин, предлагаемых для уроков развития речи. Качество этих репродукций далеко от совершенства, цветовая гамма оставляет желать лучшего, поэтому учителя всегда были вынуждены или искать слайды или скачивать из Интернета изображения с приемлемым качеством.

«Использование наглядности в обучении - это не просто желание, но аксиома. Недаром китайцы говорят: "Лучше видеть один раз, чем сто раз услышать". Этот принцип был основным в учебнике выдающегося учителя Я. А. Коменского «Мир чувственных вещей в картинках» («*Orbis sensualium pictus*»), написанные еще в 1650-1654 гг. По словам известного психолога Дейла Карнеги «Главное-визуальное впечатление». И это потому,

что «*Нервы, ведущие от глаза к мозгу, в 20 раз толще, чем те, что ведут от уха к мозгу*» (Carnegie, 2004)¹⁵⁹».

В 2005 году вышел в свет учебно-методический комплекс «Русский язык», авторами которого являются С. И. Львова и В. В. Львов.

Практически сразу после знакомства с новым учебником и учителя, и методисты назвали учебно-методический комплекс «учебником нового поколения», так как в нём органично сочетаются и внешнее оформление и внутреннее содержание, в том числе и иллюстрирование.

Именно иллюстративные пособия предоставляют возможность развивать у учащихся произвольность таких процессов, как внимание и память. Игровые задания положительно влияют на развитие смекалки, находчивости, сообразительности. Многие игры требуют не только умственных, но и волевых усилий: организованности, выдержки, умения соблюдать правила игры. Важным аспектом является, органическое сочетание игры с серьезным, напряженным трудом, чтобы игра не отвлекала от учения, а, наоборот, способствовала интенсификации умственной работы.

Исследования известных психологов (Л.С. Выготского, А.Н. Леонтьева, А.Р. Лурия, П.Я. Гальперина и др.) свидетельствуют, что закономерности формирования умственных действий на материале обучения обнаруживаются преимущественно в игровой деятельности учащихся на уроке. В ней своеобразными путями осуществляется поэтапное формирование психических процессов: сенсорных процессов, абстракции и обобщения, произвольного запоминания, припоминания и т.д. «Поэтапная обработка» умственных действий и понятий в игре обычно происходит случайно. Но при соответствующих методах педагогического руководства в дидактических целях этот процесс может быть упорядочен.

В своей профессиональной деятельности педагогу постоянно приходится сталкиваться с огромным количеством разнообразных видов учебной литературы. И молодому преподавателю, малознакомому с существующей учебной литературой по предмету очень трудно выбрать именно тот учебник, который станет лучшим помощником.

Для того чтобы квалифицированно разобраться в огромной массе произведений печати, быстро найти необходимую книгу или какое-либо другое издание, недостаточно классифицировать литературу по содержанию, отраслям знания. Важно также уметь ориентироваться в видах изданий.

Особенно важно ориентироваться в видах изданий литературы по структуре, целевому назначению и характеру информации.

В основе деления литературы на виды изданий лежат различия в задачах и целях изданий, а также различия в возможностях использования книг и брошюр читателями. Более подробно рассмотрим виды изданий учебной литературы. Каждая книга имеет определённую цель (задачу). Например, целевое назначение учебника по педагогике – помочь учащимся овладеть этим предметом, словарь – помочь быстро отыскать нужные сведения о том или ином слове. Определяя целевое назначение учебников, можно легко убедиться, что целевое назначение отражает отношение книги к решению конкретных учебно – воспитательных задач. Целевое назначение всех учебников одинаково – помочь учащимся в овладении предметом. Задача автора – собрать и изложить материал так, чтобы книга полностью отвечала поставленной цели.

Дидактические иллюстрации в учебно-воспитательном процессе очень велики: при этом дидактические иллюстрация является мощным средством повышения эффективности обучения. Картинки, таблицы, фото позволяют качественно изменить контроль за

¹⁵⁹ N.A. Pakshina, E.V. Gostyaeva. Applications of Classic Didactic Principles to Creating of Modern E-learning Tools. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1474667015316268>

деятельностью учащихся, обеспечивая при этом гибкость управления учебным процессом.

С помощью игр учащийся может очутиться в самом разном окружении, требующем от него творческого подхода и расширит круг интересов. Дидактическая иллюстрация в учебниках по русскому языку повышает мотивацию участников, даёт эмоциональный толчок к последующей поисковой активности учеников, побуждает их к конкретным действиям. Думаю, что в обучении дидактических играх каждый вносит свой вклад в общий результат групповой работы, процесс обучения становится более осмысленным и увлекательным. Кроме того, дидактические игры в учебниках формируют способность мыслить неординарно, по-своему видеть проблемную ситуацию, выход из неё; обосновывать свои позиции, свои жизненные ценности; развивают такие черты, как умение выслушивать иную точку зрения, умение сотрудничать, вступать в партнерское общение, проявляя при этом толерантность по отношению к своим оппонентам, доброжелательность к участникам процесса совместного нахождения путей взаимопонимания, поиск истины.

При обучении дидактических игр педагог выполняет функцию помощника в работе, одного из источников информации; центральное место в его деятельности должен занимать не отдельный учащийся как индивид, а группа взаимодействующих учащихся, которые стимулируют и активизируют друг друга. Ученик не только показывает понимание изучаемого явления, но и решает задачи. Вскрывая причинно-следственные связи между ними, уметь связать изучаемый материал с практикой. При этом для самостоятельной творческой деятельности учащихся учителю необходимо ограничиться лишь направляющим воздействием. Исходя из того, что любой ученик стремится к успеху. Для создания ситуации успеха на учебном занятии необходимо придерживаться следующих правил:

- все ученики способны усвоить материал, овладеть умениями и навыками;
- ученики должны знать, что учитель верит в них;
- учитель должен поощрять познавательную активность, делать акцент на понимание, а не на механическое запоминание. Ни в коем случае не давать знания в готовом виде. А использовать дидактический подход в обучении: например, предлагать учащимся продолжить мысль, сделать по аналогии, включить ассоциативное мышление-одним словом, создать для ребят ситуацию успеха, чтобы способствовать развитию интеллектуальной, творческой, предметно-практической сфер, то есть становлению личности в целом;
- систематическое проведение уроков с использованием иллюстративных материалов даёт возможность сделать вывод о том, что задача всестороннего развития учащихся успешно решается.

Список литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан. 2019. ЗРУ-527 — Национальная база данных законодательства, 06.03.2019 г.
2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 29 августа 1997 года.
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 июля 2012 года «Об утверждении положения о среднем специальном, профессиональном образовании в Республике Узбекистан».
4. **Указ Президента Республики Узбекистан от 25.01.2018 г. УП-5313 «О мерах по коренному совершенствованию системы общего среднего, среднего специального и профессионального образования».**
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 20 марта 2009 года № 80 «О программе дальнейшего издания учебников и учебных пособий для средних специальных, профессиональных образовательных учреждений на 2009 — 2013 годы».

6. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. 28 декабря 2018 года. <https://president.uz/ru/lists/view/2228>
7. Всесторонне развитое поколение – основа великого будущего, созидательный труд народа – основа благополучной жизни, дружба и сотрудничество – гарантия процветания. Доклад Президента Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном 26-летию принятия Конституции Республики Узбекистан. 08.12.2018 г.
8. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии, посвященной Международному женскому дню. 07.03.2019 г.
9. Захаров М.М. Дидактические игры на уроках русского языка -М.: Издательство Приор, 2010.
10. Новиков М.А. Дидактические игры на уроках русского языка -СПб: Питер, 2005.
11. Джураева З.Р. Русский язык. Учебник для учащихся групп с нерусским языком обучения академических лицеев и профессиональных колледжей. – изд. 5-е, доп.-Т.: «Sharq», 2013.
12. Учебно-методический комплекс по русскому языку под редакцией проф. Бабайцевой В.В. и практика его использования. <https://nsportal.ru/shkola/russkiy-yazyk/library/2014/12/18/uchebno-metodicheskiy-kompleks-po-russkomu-yazyku-pod>
13. N.A. Pakshina, E.V. Gostyaeva. Applications of Classic Didactic Principles to Creating of Modern E-learning Tools. (Arzamas Polytechnic Institute of R. E. Alekseev Nizhny Novgorod State Technical University, 19, Kalinina Str., Arzamas, 607220, Russia. E-mail: Nataliapakshina@mail.ru) <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1474667015316268>
14. Гольцова Н.Г., Шамшин И.В. Русский язык в таблицах. 10-11 классы. -2-е изд. –М.: ООО «ГИД «Русское слово-РС», 2007.
15. www.gow.uz
16. www.edu.uz
17. www.ziyonet.uz
18. www.oqituvchi.uz
19. www.uzmu.uz
20. www.sciencedirect.com
21. www.scopus.com

INNOVATION TA'LIM - TARBIYA SOHASIDA PEDAGOGIK MAHORATNING AHAMIYATI

Matchanova M.B.- JizPI., O'zbekiston

ANNOTATION. This article discusses the importance of pedagogical skills in the field of innovative education, the art of pedagogical teaching, pedagogical communication, the creation of an innovative system in the field of education, the art of lesson organization.

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z-o'zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo'ladilar. SHunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. SHunga ko'ra, mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-

tarbiya sohasida innovatsion tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhim omillardan biridir. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan tamoyilga asoslangan holda, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifadir. Ma'lumki har bir pedagog, albatta, unga davlat jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar asosida pedagogik kasbning xususiyatlari, madaniyatlari va vazifalarini yuqori darajada tushungan holda ilmiy va ilmiy-uslubiy izlanishlar natijasida ixtisoslik fanlarini sobit qadamlik bilan to'la-to'kis egallab, bu fanlarni yuqori darajada talabalar ongiga singdira olish usul va uslublardan foydalangan holdagina bu sharafli kasbning bilimdoniga aylanishi mumkin. CHindan ham, dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib boradigan, o'ta murakkab bir davrda yashaydigan yoshlarni kelajakka tayyorlab, sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga etkazish ta'lim-tarbiya sohasi va pedagog mehnatining tub mohiyatini tashkil etadi. SHu ma'noda, bugungi kun pedagogi universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni, o'z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. Albatta, pedagog- o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fanning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassisdir. **«Tarbiyachi o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va har doim u o'zining nimani hohlaganligini va nimani hohlamasligini bilishi zarur. Agar tarbiyachi buni bilmasa, u kimni tarbiyalay oladi»,- deydi A.S. Makarenko.** Pedagoglik san'ati, ayniqsa, darslarda o'qitishni bilishdan iborat. Tajribali pedagog tinglovchilarning dasturiy materialni dars paytida o'zlashtirishlariga erishadi. Uning uchun uy ishi bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va kengaytirish usulidan iborat. Pedagog mahoratining asosiy ko'rsatgichilaridan biri-**talabalarni faollashtirish**, ularning qobiliyatlarini, mustaqilligini va talabchanligini o'stirishdan iborat. Pedagogik mahoratning keyingi tashkil etuvchisi-bu tarbiyaviy ishni o'qitish jarayonida samarador o'tkaza olishi, talabalarda yuqori ma'naviyat vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mustaqillikni shakllantirishdan iborat. Pedagogik mahoratning asosiy belgilaridan biri o'qituvchi pedagogik texnikasining yuqori darajasi hisoblanadi. Pedagogik texnikaning egallanganlik darajasi pedagogik qobiliyatning tashkiliy qismidan iborat bo'lib, u pedagogika, psixologiya va alohida amaliy tayyorlanganlik bo'yicha chuqur bo'lishini talab qiladi. Pedagogik texnikaning tashkiliy qismi- pedagogning talabalar e'tibori va o'zining e'tiborini boshqara olishidan iborat.

SHuni ta'kidlash kerakki, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat rivojining yuqori darajasini ifodalab, pedagogik texnologiyalarning egallanganligini, shu bilan birga u pedagog shaxsining to'la ifodasini, uning tajribasi, xalqparvarligi va kasbiy holatini ko'rsatadi. Pedagogning mahorati bu pedagogik jarayonning yuqori sifatlarini aniqlovchi shaxsiy ish sifatleri va shaxsiy xususiyatlarining sintezidan, ya'ni yig'indisidan iborat. SHunday qilib, pedagogik mahoratning barcha tomonlarini hisobga olib uni quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq:

-Pedagogik mahorat, avvalo, pedagogning (muallimning) maxsus kasbiy salohiyatiga bog'lik bo'lganidan fanlarni o'qitish jarayonida ularning shakllari (ma'ruza, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari)dan qat'i nazar pedagog talabalarda zaruriy bilim darajasini shakllantiradi va uni egallash qobiliyatlarini rivojlantirib, fanga hurmatni uyg'otish asosida ularni tarbiyalash jarayonini boshqarishdan iborat.

O'qituvchining pedagogik mahorati quyidagi asosiy qismlardan tashkil topishi mumkin:

Pedagog o'z fikrini, iloji boricha, sodda, ravon va etarlicha to'lalikka tinglovchiga etkaza olishi va boshqa omillarga bog'lik bo'lgan o'qitish ishlarini bajarishi zarur; Darsni tashkil qilishda tinglovchining bilim darajasi, ularning taqdim etilayotgan bilimlarni qabul qila olish mahorati va intilishini hisobga olgan holda ma'ruza, seminar va h.z. tayyorlangan bo'lishi va nihoyat o'qituvchining talabalarni o'zi bilan bir xilda intilib borishini- bir fazada ishlashini tashkil

eta olishi; O'qitish metodlari va usullarini har tomonlama egallagan bo'lishi; Pedagogning salohiyati o'tilayotgan fan yo'nalishida ishni aniq va samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan pedagogik talabga javob berishi, fanning tarkibiga kiruvchi maxsus bo'limlar yuqori darajada egallangan bo'lishi va o'z harakatlariga javobgarlikni bilishi; Pedagog o'z darsi davomida talabalarda o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan qoniqish hosil qilishiga erisha olishi va o'zi tuzgan dars rejasining tug'riligi haqida ishonch hosil qilib o'z ustida yanada yaxshiroq ishlashga intilishi; Pedagog mahoratni egallashi uchun tarbiya berish qonunlarini, tamoyillarini va ularning tarkibiy qismlarini bilishi zarur, ya'ni har bir aniq holat uchun o'qitish metodini tanlash, jarayoni berilgan daraja va sifatida loyihalashni bilishi; Pedagogning har qanday sharoitda ham talabalarning etarli tarbiyalanganlik darajasi, rivojlanishi va zaruriy bilimlariga ega bo'lishiga erishishi; Pedagog talabani har qanday savolga javob topishi, unda qoniqish hosil qilishi zarur. Bunga erishish uchun pedagog o'z fanini chuqur bilishi uning rivojlanish istiqbolini ko'ra bilishi kerak; Pedagogning dars o'tish san'ati o'tilayotgan mavzuni undan oldingi va uyga berilgan mavzular bilan bog'langan holda talabalarning faolligini oshirish orqali chukur o'zlashtirishga erisha olishi; Pedagogning o'quv jarayonida samarali tarbiyaviy ish olib borishi, yuqori ma'naviyat va vatanparvarlik tuyg'ulari, hamda mehnatsevarlikni shakllantira olishi zarur; Talabalarni o'tilayotgan mavzuga jalb qilib, ularning faolligini oshirish va qobiliyatlarini mustahkamlash asosida ularni ilmiy jihatdan rivojlantirishga erisha olishi; Pedagogning vazifasi o'quv jarayonida ijobiy tuyg'ularni yaratish yo'lini topishi va talabalar bilan birgalikda fikr yuritib va o'quv muammosining echimini izlashda muvaffaqqiyatga erishsalar, unda pedagog darsni to'g'ri tashkil qilgan, deb baholash mumkin; Pedagog tomonidan o'tkaziladigan har bir mashg'ulot talabalardan tahlilni, materialni qismlarga ajrata olishni, taqqoslash asosida ular orasidagi bog'liklikni hosil qilishga o'rgatish va boshqalardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

SHunday qilib, pedagogik mahorat - o'qituvchining shaxsiy madaniyati, katta nazariy va amaliy bilimlar egasi ekanligi, o'qitish va tarbiyalash usullaridan mohirona foydalana olishi-pedagogikaviy texnika, ya'ni fanni o'rgatishda aniq mantiqiy tartibni, ketma-ketlikni, o'zaro va fanlar orasidagi bog'lanishlar tizimining bir butunligini saqlagan holda talabalarda zamonaviy fan va texnika taraqqiyotidan mohirona foydalana olish, fikrlash qobiliyati va isbot, hamda talabalar tafakkurini rivojlantirishdan iborat.

Demak, yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun pedagog tinmay va uzluksiz ravishda o'z malakasini oshirish ustida ishlashi, o'zgalarning foydali maslahatlari, o'tmishdagi buyuk allomalarning o'qitish mahoratlari hamda ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tahlili asosida olib boriladigan mahoratga erishish mumkin. Bu maqsadlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga erishishning hozirgi davrdagi birdan-bir yo'li zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali va mohirona foydalanishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ziyomuxammedov B.Abdullaeva Sh. Ilgor pedagogik texnologiya.T.,Abu Ali ibn Sino, 2001y.
- 2.A.X.Qosimov,F.A.Xolikova Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiyalar.T. 2004y.
- 3.D.N.Axatova Dars o'tishda YaPT usullaridan foydalanish. T.2004y.

BOTANIKA FANI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ravshanova M.X.- NavDPI
Yuldasheva M.B.- NavDPI O'zbekiston

Abstract The article provides information on the importance of using pedagogical information technologies in the educational process to improve the efficiency of botany, as well as on the role of students in the deep study of the subject.

Keywords: pedagogical information technology, botany, program, lectures.

Hozirgi kunda talabalarning sifatli bilim olishlarida darslarning o'zgacha usullarga asoslanib olib borilishi muhim rol, o'ynaydi. Chunki, hozirgi zamon yoshlarini an'anaviy usullardagi mashg'ulotlar ko'p ham qiziqtiravermaydi. Buning bir qator o'ziga yarasha sabablari mavjud bo'lib, bular quyidagilarda namoyon bo'ladi.

- Ijtimoiy hayotimizga turli axborot texnologiyalarning kirib kelganligi.
 - Turli sohalarning raqamli texnologiyalarga o'tganligi;
 - Internet tarmog'ida axborot ko'lamining rang barangligi va ko'pligi.
 - "Aqilli" uyali aloqa qurilmalarining takomillashgan, turli funksiyalarga boyligi hamda unlardan foydalanish imkoniytlarining kengligi, qulayligi.
 - Fanga oid adabiyotlarning electron nusxalarini topish va foydalanish ancha osonligi
- Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarning fanlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini va qiziqishlarini oshirishda zamon talablarini inobatga olgan holda ta'lim – tarbiya ishlarini olib borish o'qituvchining oldiga qo'ygan maqsadga erishishda muhim rol o'ynaydi.
- Botanika fanlari ("O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi", "O'simliklar sistematikasi", "O'simliklar fiziologiyasi") bo'yicha tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, fanni o'rganishga bo'lgan e'tiborini oshirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda eng avvalo, fanga oid o'quv materiallarini multimediali va interfaol ko'rinishda taqdim etish muhim sanaladi.

Botanika (o'simliklar sistematikasi) fanidan Biologiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi II kurslarda "Magnoliyatoifa bo'limi" mavzusidagi ma'ruza mashg'uloti "tajriba" va "nazorat" guruhlariga ajratib olib borildi. Mashg'ulotni olib borishda har qaysi guruhga alohida o'qitish usullari qo'llanildi. Bu jarayon quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

1-jadval:

"Magnoliyatoifa bo'limi" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining guruhlarda olib borilishi

Darsning bir – biridan farqli xususiyatlari	II kurs "B" – Nazorat guruhi	II kurs "G" – Tajriba guruhi
Darsda foydalanilgan ta'lim texnologiyasi turi	An'anaviy ta'lim texnologiyasiga asoslangan ma'ruza mashg'uloti.	Modulli ta'lim texnologiyasining AKT ga asoslangan ma'ruza mashg'uloti
Darsda foydalanilgan jihozlar	Darslik, plakatlar, doska, bo'r, bukletlar.	Darslik, kompyuter, video proyektor, internet tarmog'iga bog'langan monitor.
Talabalar bilimni aniqlashdagi nazorat shakli	ISpring, Easy Quizzy dasturlarida yaratilgan I, II va III darajali test savollari	ISpring, Easy Quizzy dasturlarida yaratilgan I, II va III darajali test savollari

Mashg'ulotdan ikki kun o'tib talabalarning "Magnoliyatoifa bo'limi" mavzusi yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash maqsadida ISpring, Easy Quizzy dasturlarida yaratilgan I, II va III darajali test savollari olindi. Talabalarga berilgan savollar soni 25 ta bo'lib, ishlash uchun 40 daqiqa vaqt berilgan. Ushbu dasturdagi test natijalari belgilangan vaqt tugashi bilan chiqadi.

Tanlab olingan ikkita ya'ni tajriba va nazorat guruhlarida olingan natijalar (2-jadval) quyidagicha bo'ldi.

2-jadval:

Talabalarning “Magnoliyatoifa bo`limi” mavzusi yuzasidan olgan bilimlarining natijalari

Tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishining II kurs “G” guruhi	Tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya o`qitish metodikasi” ta`lim yo`nalishining II kurs “B” guruhi
“TAJRIBA” guruhi	“NAZORAT” guruhi
28 nafar talabadan “5” baho – 15 ta “4” baho – 10 ta “3” baho – 3 ta	28 nafar talabadan “5” baho – 10 ta “4” baho – 12 ta “3” baho – 6 ta
O`rtacha baho: 4,4	O`rtacha baho: 4,1

Bu natijalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ikkala parallel guruhlarda bir mavzuda faqat turlicha yondashuvda ya`ni an`anaviy va pedagogik axborot texnologiyalaridan foydalanish, dars samaradorligi va talabalar bilim darajasiga turlicha ta`sir ko`rsatdi.

Pedagogik axborot texnologiyalaridan foydalanib o`tilgan darsning an`anaviy dars shaklidan ancha ustun kelganligini yuqoridagi natijalar ko`rsatib turibdi.

Tajriba sinfida qo`llanilgan kompyuter vositalari hamda audio, video materiallardan foydalanilgani, ko`rgazmalilikning ko`pligi talabalarda darsga bo`lgan e`tiborini oshirib, mavzuni chuqurroq o`zlashtirishiga imkoniyat bergan. Oradan ikki kun vaqt o`tishiga qaramay mavzuni xotirada saqlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, mashg`ulotlarni pedagogik axborot texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etish talabalarning botanika fanidan chuqur bilim olishlariga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Mustafayev S. M. “Botanika” T., “O`zbekiston”, 2002 y
2. Pratorov O., Shamsuvaliyeva L. va boshq. “Botanika”, T., “Ta`lim nashriyoti”, 2010 y.
3. Tolipova J. O., G`ofurov A. T. “Biologiya o`qitish metodikasi” T., Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. TDPU. 2007 y.
4. Tolipova J. O. “Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalar” T., “Cho`lpon” 2011 y.

PEDAGOGIK OLIY TA`LIMDA ZARRALAR FIZIKASI AMALIY MASHG`ULOTLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN MAZMUNI

Madaliyev A.M.- o`qit. Qo`qonDPI, O`zbekiston

Razume: The emergence of the universe, the theory of the big bang, and the solution of other puzzles of interest to humanity have been the focus of scientists around the world. For this purpose, large research centers (Fermilab, DEZI, YECA, CERN) are working. Elementary particles and the processes under their influence were selected as the object of study. So it follows that particle physics is a major branch of science today. It is, of course, the educator's responsibility to pass on particle physics to the next generation and to pass on information about them. Therefore, we believe that it is necessary to pay special attention to the teaching of particle physics in pedagogical universities and to improve its content.

Elementar zarralar fizikasi bo`limining yaxshi o`zlashtirilishi ma`ruza mashg`ulotlarida olinadigan nazariy bilimlarning amaliy mashg`ulotlar davomida mustahkamlanishiga bog`liq. Nazariy bilimlar ma`ruza mashg`ulotlarida tushunarlidek bo`lib tuyuladi. Lekin amaliy mashg`ulotlarda berilgan nazariy bilimlar turli jarayonlarni tahlil qilish natijasida yanada mustahkamlanadi. Elementar zarralar fizikasida masalalarning asosiy qismini zarralarning parchalanish yoki o`zaro ta`sir jarayonlarini tahlil qilish tashkil qiladi. Albatta bu jarayonlar

o‘zaro ta’sir turiga qarab energiya, impuls, impuls momenti hamda spin, izotopik spin, g‘alilik, maftunkorlik kabi kvant sonlarining saqlanish yoki saqlanmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Talabalar bu jarayonlarni yaxshi tahlil qila bilishlari hamda ularda ma’lum darajada ko‘nikmalar shakllanishi kerak. Agar nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlanmasa talabalar bilim va tasavvurlarining yuzaki bo‘lishiga olib keladi.

Elementar zarralar fizikasi pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika mutaxassisligi talabalari uchun umumiy fizikaning “Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi” bo‘limida o‘qitiladi. Umumiy fizikadan amaliy mashg‘ulotlar asosan masalalar yechish ko‘rinishida o‘tkaziladi.

O‘rganishlarimiz natijasida respublikamiz pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanidan pedagogik kadrlarni tayyorlashda elementar zarralar fizikasi bo‘limidan amaliy mashg‘ulotlarning mazmunini ularning bo‘lajak kasbiy faoliyatiga hamda zamon talablari asosida takomillashtirish atroflicha o‘rganilmaganligini va bu sohada yechimini kutayotgan muammolar yetarlicha ekanligi ayon bo‘ldi.

Bu soxada yurtimizda, xorijda hamda MDH davlatlarida olib borilgan ishlar atroflicha o‘rganilib tahlil qilindi. Aniqlangan muammo yuzasidan tadqiqot olib borish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika fani bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlashda zarralar fizikasi amaliy mashg‘ulotlarining hozirgi mazmuni, uning mavzulari bayonini o‘rganib chiqish va ularni tahlil qilish;

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika fani bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlashda zarralar fizikasi amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish muammosini o‘rganish;

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika fani bo‘yicha pedagog kadrlarni tayyorlashda zarralar fizikasi amaliy mashg‘ulotlari mazmunini takomillashtirish hamda hozirgi zamon fan yutuqlarini hisobga olgan holda uning o‘qitish metodikasini takomillashtirish;

pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyat malakalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy masalalar hamda eksperimental ishlanmalarga asoslangan metodikani joriy etish mexanizmini takomillashtirish.

Belgilangan vazifalar asosida tadqiqot ishlari olib borildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida pedagogik oliy ta’limda zarralar fizikasini amaliy mashg‘ulotlarining mazmunini yangi tipdagi masalalar kiritish, mavzuga doir savollar auditoriyasini kengaytirish, nostandart testlar va topshiriqlar hamda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida takomillashtirildi.

Tadqiqot ishi bo‘yicha tajriba – sinov ishlari yurtimizdagi 3 ta pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazildi. Olingan natijalarning hisob – kitob ishlariga asoslangan holda tajriba-sinov ishi muvaffaqiyatli yakunlandi degan xulosaga keldik. Demak, biz tavsiya etgan zarralar fizikasidan amaliy mashg‘ulotlarning takomillashtirilgan mazmuni va uni tashkil etish hamda o‘tkazish metodikasi uning takomillashtirilishidan avvalgi mazmun va an’anaviy olib borilgan o‘qitish metodikasiga nisbatan samarali ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar

[1]. Nasriddinov K.R., Madaliyev A.M. Amaliy mashg‘ulotlarda zarralar fizikasi bo‘limini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Academic research in educational sciences. 2021. Vol. 2, Issue 3. 42-46 p.

[2]. Насриддинов К.Р., Насриддинов Д.К. Замонавий тадқиқотларнинг хусусиятлари, ривожланиш йўналишлари ва уларнинг дунёқараш шаклланишидаги ўрни. ТДПУ илмий ахборотлари. –Тошкент, 2016. -№3. 2-5 б.

[3]. Nasriddinov K.R., Madaliyev A.M. Zamonaviy tadqiqotlarning xususiyatlari, taraqqiyot yo‘nalishlari va dunyoqarash shakllanishidagi o‘rni. Международной научной конференции “Тенденции развития физики конденсированных сред”. – Фергана, 2021. 500 – 504 с.

[4]. Nasriddinov K.R., Madaliyev A.M. Umumiy fizika. Elementar zarralar fizikasi asoslari. – Toshkent, Ishonchli hamkor. – 2021. - 128 b.

TA'LIMDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOSINI O'RGANISHNING ILMIIY-USLUBIY ASOSLARI

F.R.Xudjaqulova –o'qit. NDPI, O'zbekiston

Annotation. This article studied the philosophical aspects of the formation of the national ideological consciousness of young people on the basis of the analysis of the content of events and processes occurring in society at the new stage of the development of Uzbekistan.

Jahonda tezkor kechayotgan globallashuv jarayonlari dunyo aholisining ikki milliarddan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlarning ta'lim olishlari, o'zlarining noyob istedodlarini yuzaga chiqarishlari, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaytlashlari, xalqlar o'rtasida tinchlikni saqlash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Natijada, ko'pgina yoshlar tabiat sirlarini o'rganish, texnika va texnologiyalarning yangi avlodlarini yaratish borasida salmoqli kashfiyotlarni amalga oshirib mashhurlik rutbasiga erishmoqdalar.

Yangilanayotgan O'zbekiston o'z oldiga bugun shunchaki rivojlanishni emas, balki jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida eng kuchli davlatlar qatoridan o'rin olishni asosiy marra qilib qo'ygan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shartligi, bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib borayotganligiga alohida e'tibor qaratdi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishi, biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishishimiz zarurligi, shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi besh yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida belgilab berildi. Chunki raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, eng og'ir illatlardan biri – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy soha rivojlanishiga xizmat qilishi qatorida odamlar turmushini keskin yaxshilashi mumkinligini o'tgan qisqa fursat ko'rsatib berdi.

Oliy ta'lim o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. AKT — bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterlar va ma'lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim

samaradorligining muhim omili bo'lmog'da. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Umuman, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmog'da. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, unung samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramog'da. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapdi.

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.

Jalilov M.B.-2-kurs Magistrant, NavDPI

Jalilova M.E.- 3-kurs talabasi, SamDU

Qalandarov R.- 2-kurs talabasi, NavDPI, O'zbekiston

Annatation: Today, the rapid development of science, technology and industry requires the staff of the education system to raise the quality of education to a new level, imposing higher responsibilities and responsibilities on every employee of the system, especially teachers.

Keywords. Innovation, interactive methods, information and communication technologies, innovation, meteorological approach, periodicity criteria.

Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ta'lim ustuvorligi, ta'lim mazmuni va tuzilishi o'zgarog'da, yangi standartlar joriy etilmog'da, ta'lim sifati rivojlanishning yangi, yanada yuqori bosqichiga ko'tarilmog'da. Davlatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari" uchun mustaqillik yillarida xalq ta'limi tizimida barcha shart-sharoitlar yaratilmog'da, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi amalga oshirilmog'da, ta'lim tizimida innovatsion faollikning jadallashuvi kuzatilmog'da.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishini ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifati mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak masuliyat va vazifalarni yuklaydi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiiq etish o'qituvchilarning innovatsion faoliyatidan boshlanadi. Chunki o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonining yetakchisi, tashkilotchisi bo'lib, uning innovatsion madaniyati, tashabbuskorligi,

ijodiy faolligi, innovatorlikka bo'lgan intilishi ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. «Innovatsiya» so'zi lotin tilidagi «inovatis» (in-ichiga, novus-yangi, yangilik) so'zidan olingan bo'lib, tarjima qilganda «yangilik kiritish, ijobiy o'zgarish, yangilanish» degan ma'nolarni anglatadi.

Innovatsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan, biron bir sohada aniq maqsadga qaratilgan hamda amaliy tatbiq etishga yo'naltirilgan yuqori samaradorlikka ega yangilik hisoblanadi. Pedagogik innovatsiya deyilganda samarali natijaga erishish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangiliklar, ijobiy o'zgarishlar kiritish tushuniladi.

Pedagogik innovatsiyalar ilmiy maktablarda, ta'lim amaliyotida hamda olim va pedagoglarning ijodiy faoliyati natijasida vujudga keladi. Innovatsiya har tomonlama puxta rejalashtirilgan, o'quv jarayoniga maqsadli kiritilayotgan yangi talimiy amaliyot (yangi tartib, uslub, metod, metodologiya, texnologiya va boshqalar) hisoblanadi. Innovatsiyaning o'ziga xos xususiyati quyidagilar hisoblanadi: - innovatsiyalar doimo dolzarb muammoning yangi yechimini o'z ichiga oladi; - ulardan foydalanish yangi sifatli natijalarni olish imkonini beradi; - innovatsiyalarni tatbiq etish tizimdagi barcha komponentlarning sifatiiy o'zgarishlariga olib keladi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganidek 'biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilishimiz zarur'.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak masuliyat va vazifalarni yuklaydi. Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'quvchilarni Vatanimizni sevadigan, o'z bilimi va istedodiga suyanadigan hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ravishda puxta bilim oladigan, O'zbekistonning qudratli davlat bo'lishiga o'z hissasini qo'shadigan, har tomonlama barkamol, sog'om qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar eng avvalo samarali darslar orqali amalga oshiriladi.

Taraqqiyot o'z shiddati bilan hayot tizimga kirib kelayotgan bir paytda murakkab texnika va texnologiyalar farzandlarimiz ongu-shuuridan ham mustahkam o'rin egallamoqda. Bunday vaziyatda o'quvchiga biror yangi bilim berish, uni o'qish va izlanishga o'rgatish uchun o'qituvchidan juda katta mahorat talab qilinmoqda. Tabiiyki, bu jarayon kasbini sevgan ardoqlagan, o'zini hurmat qilgan har bir pedagogni izlanishga, yangidan-yangi pedagogik usul va uslublar, texnologiyalarni o'rganishga, kashf qilishga undamoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayoni dolzarbligini bilan bir qatorda juda mashaqqatli jarayondir. Ushbu soha kishidan xushyorlik va o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. XXI-asr axborot texnologiyalari asrida har bir o'qituvchi yangicha bilim va dunyoqarashga ega bo'lishi va o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarga aynan shundan kelib chiqib zamonaviy ilm fan yutuqlaridan keng foydalangan holda innovatsion texnologiyalardan va turli xil inter faol metodlardan foydalanib, darsni qiziqarli va samarador tashkil qilishi nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi Toshkent 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni yangi tahrir. Toshkent O'zbekiston 2020
3. Sh. M. Mirziyayev 'milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent o'zbekiston 2017
4. I. A. Karimov 'yuksak ma'naviyat yengilmas kuch' Toshkent Ma'naviyat 2008.
5. H. Shokirova 'ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni'. Toshkent yangi asr avlodi 2013.
6. Misirov A. 'Ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviylashtirish' Toshkent 2017-yil 22-maydagi maqolasidan.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МИНТАҚА ХАЛҚЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИ

Набиева Д. – НавДПИ, Ўзбекистон

Announcement: the role of man in the formation of the spiritual worldview in the works Chingiz Aitmatov. He focused on the fact that he used genres such as folk tales, legends, and fairy tales in his works.

Keywords: ancestors, legend, fairy tale, legend image, mangrov

Адабиётимизнинг олдида қўйилган асосий мақсад сўз сеҳри ила инсонларни эзгуликка чорлашдир. Айниқса, бадиий адабиётда халқнинг ижтимоий ҳаёти, маънавий-ахлоқий турмушини тасвирлашда, ҳозирги кунда ёш авлодни руҳан соғлом, комил инсон бўлиб етишишида аجدодлар мероси ва ўрни ниҳоятда аҳамиятлидир. Мухтарм, Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда: “Бизнинг ҳавас қилса арзийдиган буюк тарихимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган улуғ аجدодларимиз бор. Ҳавас қилса арзийдиган бекиёс бойликларимиз бор. Ва мен ишонаман. Худо хоҳласа, ҳавас қилса арзийдиган буюк келажадимиз ҳам албатта бўлади”¹⁶⁰ - деб қайд этишлари ҳар бир ёш авлод қалбида аجدодлар меросига бўлган ҳурмат ва эҳтиромни чуқур ҳис қилишга, теран англашга муҳим аҳамият касб этади.

Жаҳоншумул асарлари билан башарият тамаддунига салмоқли ҳисса қўшиб, минтақамиз халқларининг маънавий камолотини жаҳон оммасига намоён қилган адиб Чингиз Айтматов ўз асарларида афсона, эртак ва ривоят каби жанрлардан салмоқли фойдаланган. Айниқса, “Асрга татиғулик кун” романида ривоятлар ҳар бир образ билан қўшилиб, образ тасвирини янада кенгроқ ёритиш учун хизмат қилган. Романда келтирилган “Найман она қабристонини” ҳақидаги ривоят орқали меҳнаткаш халқнинг ўтмишда нақадар оғир ҳаёт кечирганлиги Найман она ва унинг ўғли манқурт Жўломонлар эпизодида ғоятда ҳаяжонли тасвирланган.

Чингиз Айтматов ривоятдаги воқеани ўша даврдаги “замонавий манқуртлик” муаммоси билан боғлайди. Сариўзакнинг ана шундай манқуртга айлантирилган йигитларидан бири Найман онанинг ўғли Жўломон Дўнанбойев бўлган. У ўтмишини хотирлаш у ёқда турсин, ҳатто ўзини кутқаргани келган тукқан онасини ҳам танимайди, на уруғини, на отасининг номини эслайди. Бу етмагандек, жунгжанглардан бири билан ўз онасини отиб ўлдиради. Манқуртлар ҳақидаги ривоят “Асрга татиғулик кун” романининг замонавий аҳамиятини белгиловчи энг муҳим қисм ҳисобланади. Манқуртлар ҳақидаги ривоят “Асрга татиғулик кун” романининг буткул замонавий аҳамиятини белгиловчи энг муҳим қисм ва ромanning буткул мазмунига сингиб кетган етакчи ғоялардан бирининг манбаидир.

Адибнинг “Оқ кема” қиссасини ривоят, эртак, афсона билан қоришиб вужудга келган мукамал асарлардан деб ҳисоблаш мумкин. Ёзувчи “Асрга татиғулик кун”, “Қиёмат” романларида қўллаган бадиий ривоятнавислик маҳоратини “Оқ кема” асарида ҳам зўр маҳорат билан кўрсата билди. Қиссада асосий бўғинга қўйилган “Она буғу” ҳақидаги ривоят асардаги барча эпизодларни ўз атрофига бирлаштирган ҳолда воқеалар ривожини ташкил этган. “Она буғу” ҳақидаги воқеа асарда эртак деб юритилган бўлса-да, аслида мозийдан, тарихдан, яъни қирғиз халқига мансуб бир қабиланинг қирғин қилиниши ҳақида сўзлайди. Шу маънода биз буни жанр ва мазмун жиҳатдан таҳлил қиладиган бўлсак, ривоят жанрига яқинлигини кўришимиз мумкин. Эртакда кўпроқ фантастика устунлик қилса, ривоятда эса узоқ ўтмишда юз берган воқеалар ярим ҳақиқат, ярим ҳаётий уйдирмага асосланганлиги билан ажралиб туради.

“Оқ кема” қиссаси етти қисмдан иборат бўлиб, унинг тўртинчи қисми бевосита

¹⁶⁰ Мирзиёев Ш. М. “Буюк келажақимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз”.. Тошкент. Ўзбекистон. 2017, 486-б.

“Шохдор Она Буғу” ҳикоясига бағишланган ушбу ривоятдаги Шохдор она буғи уч маънони ифода этади: *биринчидан*, у ҳам табиий ҳаёт, яъни табиат ҳодисасидир, *иккинчидан*, у халқ эртагининг афсонавий қаҳрамони; *учинчидан* эса у халқ эстетик идеалининг бир ифодасидир яъни нафосат ва гўзаллик рамзидир¹⁶¹.

Ёзувчи ана шу Она буғу образи атрофидаги қарама-қаршиликларни асарнинг бош ғояси сифатида танлаган. Асардаги Бола, Мўмин чол, Қўлибек образлари орқали ҳалоллик, меҳнатсеварлик, покизалик, миллий кадриятларга ҳурмат, меҳр-мурувват сингари туйғуларни Ўразкул образидаги шафқатсизлик, очкўзлик, ҳунрезлик ва манманлик каби иллатларга қарши ифодалашга эришган. Бола ниҳоятда покиза самимий ва беғубор. Унга бу фазилатлар бобоси Мўмин чолдан ўтган бўлса ажабмас. Бола қанчалик ҳаракат қилмасин, унинг қалбидаги беғуборлик ҳақиқий ҳаётдаги адолатсизлик ва разилликларга қарши кураша олмайди. Қиссанинг аянчли томони шундаки, асар, бола ўзи орзу қилган оқ кемаси яъни эртаклари билан чексиз уммон қаърига ғарқ бўлиши билан яқунланади.

“Оқ кема” қиссасида ёзувчи бир томондан миллий кадриятларни юқори ўринга қўйган бўлса, иккинчи томондан табиатни муҳофаза қилиш муаммоларини ҳам “Она буғу” ривояти орқали қаламга олади.

Хулоса қилиб айтганда, “Оқ кема” қиссаси фалсафий мазмунга эга бўлган, ҳаёт ҳақиқати қисқа ва лўнда тасвирланган, композицион қурилиши халқ оғзаки поэтик намуналаридан ташкил топган асар ҳисобланади.

Санъат асарларининг кучини, қимматини белгилайдиган мезонлардан бири кенг китобхонлар оммасидир. “Агар сенинг асаринг китобхонларни ҳаяжонлантирса, бу бахтдир” – дейди ёзувчи Чингиз Айтматов. Буюк истеъдод соҳиби ўзи шундай бахтга мушарраф бўлди ва жаҳон адабиётининг йирик сиймоси бўлиб танилди. Эндиликда йигирманчи асрнинг иккинчи ярми ва бугунги кун адабиётида Чингиз Айтматов мактабида сабоқ олмаган, унга таассуб қилмаган ёш ёзувчилар топилмаса керак. Айни вақтда Чингиз Айтматовнинг асарлари кириб бормаган бирон-бир хонадон ёки адибнинг асарларини ўқимаган китобхон бўлмаса керак. Адабиётшунос ва таржимон И.Ғофуровнинг образли сўзлари билан айтганда Чингиз Айтматов “дунёнинг ҳамма ёғидан кўриниб турган тоғ. Бу чўққини ҳамма кўради, ҳамма билади”¹⁶².

Китоб мутолааси маданияти оммалашган бир вақтда буюк ёзувчи Чингиз Айтматов асарлари инсоннинг маънавий дунёқарашини шаклланишида ўз таъси-кучи билан, халқ дурдонаси ҳисобланиш табиий.

BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA XARAKTERLI USUL VA SHAKLLAR

Usmonov Sh.T.- katta o'qit. NavDPI
Usmonov A.A.-o'qit. NavDPI, Ozbekiston

Annotation: In this article, we can see that the pedagogical process that is taking place in the preschool organization today produces effective results by using visual, practical, and speech methods to teach educators where they live, observe nature, or work in the embrace of nature using different forms of organizing children's activities.

Yurtimizda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'lim sohasiga ko'rsatayotgan e'tibori juda ham katta. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha har bir viloyat va tumanlarda maktabgacha ta'lim muassasaari faoliyati yanada rivojlanmoqda. Shu yaqin kunlarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalar moddiy texnika bazasini

¹⁶¹ Рашидов А. Чингиз Айтматовнинг бадиий олами. Тошкент 2008.

¹⁶² Жбанова Н. Чингиз Айтматовнинг фалсафий мушоҳадалари. Тил ва адабиёт таълими, 1998 йил, 3-сон

mustahkamlash, Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi yana bir necha qarorlarni imzoladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 2017–2021 yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir belgilab berilgan beshta yo'nalishdagi ustuvor vazifalarning to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilganligi hammamizga ma'lum. Bu yo'nalishda bolalarni ekologik tarbiyalash, aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham ustuvor vazifalar etib belgilangan.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida kechayotgan pedagogik jarayonda bolalar faoliyatini tashkil etishning turli xil shakllaridan foydalanib kelinmoqda. Mashg'ulot, ekskursiya bolalar kichik-kichik guruhlari bilan o'tkaziladi. Yashab turgan joy, tabiatni kuzatish, yoki tabiat quchog'ida mehnat qilishni kichik guruhlar bilan yoki yakka tartibda tashkil qilish samarali natija beradi. Jumladan, o'rgatish jarayonida har xil usullardan foydalanish (ko'rgazmali, amaliy, so'zlashuv) maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'rgatish usullari. Tarbiyachi va bolalarning faoliyat ko'rsatish usullari. Bunda bilish, o'rganish, hamda atrofdagi o'rab turgan olamga nisbatan bo'lgan tarbiya shakllantiriladi.

Ko'rgazmali usullarni kuzatish, rasmlarni ko'zdan kechirish, modellashtirish, kinofil'm, diafil'm, deapozitivlarni ko'rsatish kabi tadbirlar kiradi. Ko'rgazmali usullar maktab yoshidagi bolada tabiat to'g'risidagi aniq tasavvurni shakllantirishga yordam beradi.

Amaliy usullar. Bu usul, asosan, o'yindan iborat. O'yin davomida o'tkaziladigan elementar tajribalar va ushbu usulni modellashtirish yordamida tarbiyachi tabiatda sodir bo'ladigan hodisalar va alohdda olingan predmetlar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro aloqani o'rnatish yo'li orqali bolalarda vujudga kelgan tasavvurni aniqlashtirishga yordam beradi.

So'zlashish usuli. Bu usul o'z ichiga tarbiyachi va bolalarning xikoyalar aytib berishini, tabiat to'g'risidagi badiiy asarlarni o'qish, tirik organizmlarni o'zaro bir-biri bilan aloqada bo'lshpi to'g'risida suhbatlar tashkil qilishdan iboratdir, So'zlashish usulidan bolalardagi tabiatga nisbatan ijobiy xis-tuyg'uni shakllanishiga yordam beradi.

Bolalarni ekologik tarbiyalash jarayonida ishlatiladigan turdm xil usuyajarni jamlagan holda, bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan xolda olib borish kerak.

Kerakli usullarni tanlab olish va ulardan jamlangan holda foydalanish, turli yoshdagi bolgsharni imkoniyatlari, rivojlanish darajasi ularni oldiga qo'yilgan tarbiyalash va bilim berish bilan bog'liq bo'lgai vazifalarni bajarish xarakteri orqali aniqlanadi. Bola bilishi kerak bo'lgan tabiat ob'ektlari va tabiat hodisalarining xilma-xilligi xam o'z navbatida turli hil usullardan foydayaanishni taqate etadi. Masalan, qurbaqa, itbaliq, dumli qurbaqani hayot kechirish tarzi uning xarakatlarini kuzatmasdan turib bilib bo'lmaydi, xuddi shunday uyda o'sadigan o'simliklarni hayot kechirish tarzi, ularni parvarish qilish, ularga suv quyish, tagini yumshatish kabi xarakatlarni kuzatish orqali, qor va muz xossalari esa ular bilan turli xil tajriba va o'yinlar o'tkazish orqali kuzatiladi.

Yovvoyi hayvonlar to'g'risvdagi bilim bldiiy adabiyotlarni o'qish, tarbiyachi hikoyalari. yumshoq va yelimli o'yinchoqlar, yovvoyi hayvonlarning rangli rasmlarini ko'rsatish yordamida shakllanadi. Tarbiyachya o'z hikoyalarida yovvoyi xayvonlar qanday qilib o'zlari yamdayotgan muhigga moslashishlari to'g'risida to'xtalib o'tishlari shart.

Tabiatni, atrofdagi olamni bilishda katta e'tibor kuzatishga qaratiladi, chunki kuzatish ekologik tarbiyaning asosiy usuli hisoblanadi.

Kuzatishdan maqsad - bu predmetlarning ichki va tashqi tuzilmalari, sifati va hossalari, o'zgarish sabablari (o'simlik va jonivorlar), mavsumiy o'zgarishlarni aniqlash va o'rganib borishdir.

Oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyachi bolalarni qabul qilish xususiyatini

yanada faollashtirish maqsadida turli xil o'yinlarni o'ylab topadi va ulardan foydalanadi. Masalan, boyaalarga savollar beradi, ma'lum bir predmetni o'rganib chiqishni taklif qiladi, ob'ektlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ma'lum bir ob'ektlarning tabiat hodisalari bilan aloqasini aniqlay beradi.

Bolalarni ekologik tarbiyalashda qo'llaniladigan kuzatish usuli asosiy usul hisoblanadi. Bu usuldan samarali foydalanishning ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli bo'lgan bilimlar xarakteri bilan bog'likdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning to'plagan bilimlari asosan tabiat ob'ektlari, hodisalarni obrazli qilib qabul qilish, ya'ni tasavvur qilishdan iboratdir. Tasavvur qanchalik rangli va aniq bo'lsa, bola qiynalmasdan o'z tasavvurlaridan amaliyotda foydalanadi. Buning uchun bolalarni tez-tez tabiat quchog'iga olib chiqish, undagi hodisalarini kuzatish, ularning o'rtasidati o'zaro aloqalarni o'rganish kerak.

Kuzatish maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiatni turli xil ko'rinishlari rango-rangligini tabiiy sharoitda o'rganish imkoniyatini beradi. Tabiatda kechadigan ko'pgina hodisalar va o'zgarishlarni kuzatish unchalik ko'p bilim talab qilmaydi. Tabiatda uchraydigan o'zaro bog'lanish va munosabatlar tabiatni tushunishga uni bilishga yordam beradi.

Kuzatishlarni tartiblashtirilgan tarzda va doimo tabiat bilan yaqindan tanishish ishlarini olib borish, bolani kuzatish, qiziqish, ba'zi bir hodisalarni kelib chiqish sabablarini aniqlash kabi harakatlarga undaydi. Natijada, bolada diqqat bilan kuzatish, razm solish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida bolalarning aqliy tarbiyasini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tabiatni kuzatish estetik va ekologik taassurotlarni bitmas-tuganmas manbai hisoblanadi va bolalar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyachi tomonidan kuzatishning turli xil usullari qo'llaniladi. Masalan: bog'chalarda turli xil o'simlik va jonivorlar, jonsiz tabiat ob'ektlari, turli xil ob'ektlarni aniqlash uchun kuzatishni o'rganish usulidan foydalaniladi. Bu usul o'z navbatida bolalarda tabiat to'g'risida yorqin, jonli tasavvurlarning to'planishiga sabab bo'ladi.

Bolada tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, o'simlik va jonivorlarning o'sishi va rivojlanishi to'g'risidagi taassurotlarning shakllanishiga yordam beruvchi kuzatishlardan ham foydalaniladi.

Kuzatish davomida butun-butun hodisalarni alohida belgilari yordamida aniqlash zarur. Masalan, rangiga qarab meva pishganmi yoki hommi: uy o'simliklari rangining o'zgarishi: yerga tushgan urug'ga qarab, qaysi daraxt mevasi ekanligini aniqlash. Yoz va kuz fasllarida bolalarga mevali daraxtlarning mevalarini ko'rsatish maqsadida oromgohlarga borish, ekskursiyalar uyushtirish natijasida, ular qish faslida tol, terak, chinor, akatsiya, safora kabi daraxtlarning barg va mevalari tushib ketganligiga qaramasdan, mevaga qarab qaysi daraxtga mansub ekanligini aniqlay oladilar.

Kuzatishlar yakka tartibda yoki 3-6 kishidan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan, ba'zida butun guruh bilan o'tkaziladi. Kuzatishga bunday yondoshish tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan maqsadga bog'liqdir. Mashg'ulotlarda jonivor va o'simliklar, kattalarning qilayotgan mehnatlarini kuzatish mumkin. Bu vaqtda bolalar bilan ishlash kichik guruhlar yoki frontal tarzda tashkil qilinadi. Ekskursiyalar kichik guruhlar yoki yakka tartibda tashkil qilinadi.

Kuzatishlarning har bir turi tarbiyachi tomonidan o'ziga xos tarzda boshqarilib turiladi. Turli xildagi kuzatishlarni olib borish uchun quyidagi talablarni bajarish kerak.

1. Kuzatishning maqsad va vazifasi aniq bo'lishi kerak. Har bir holat uchun belgilangan vazifani bilish, o'rganish xarakteriga ega bo'lishi, bolani o'ylashga, eslashga, oldiga qo'yilgan savolga javob izlashga undashi lozim. 2. Har bir kuzatish turi uchun tarbiyachi tomonidan unchalik katta bo'lmagan bilim darajasi tanlab olinadi. Tabiat ob'ektlari to'g'risidagi tasavvurlar tabiat ob'ektlari bilan tez-tez uchrashib turish natijasida bola ongida asta-sekinlik bilan shakllanadi.

Har bir alohida olingan kuzatish bolani yangi bilim olishga, bor tasavvurlarni esa yanada chuqurlashtirishga va kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

3. Kuzatishni tashkil qilishda o'zaro aloqalarni ta'minlaydigan tartiblashtarishdan foydalanishni ko'zda tutish lozim. Natijada, bolalarda ularni o'rab turgan tabiat to'g'risida chuqur va to'liq tasavvur shakllanadi.

4. Kuzatish bolalarning ongi va so'zlashish faolligini oshirishga yordam berishi kerak. Aqliy faollikni oshirish xilma-xil yo'llar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, bolalar oldiga aniq va yechimi qulay masala qo'yish, kuzatish bo'yicha bola to'plagan tajribasidan foydalanish, kuzatish

natijalarini gapirib berish, bir ob'ektni boshqa bir ob'ekt bilan taqqoslash, turli xil darajadagi murakkab savollarni o'rta tashlash va h.k. Ko'pgina munozarali, muammoli va ekologik mazmunga ega bo'lgan savollar bilan bolaning ongi, tafakkurini qo'zg'atish kerak.

5. Kuzatishlar bolalarni tabiatga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytarishi, tabiatda kechadigan o'zaro bog'liqlik to'g'risida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga undaydi.

6. Kuzatish jarayonida to'plangan bilim doimo mustahkamlanib, to'ldirilib, yanada chuqurlashtirilib borishi va boshqa usul, ish shakllari yordamida tartiblashtirilishi, umumlashtirilishi kerak. Bunday shakllarga tarbiyachining hikoyalari, tabiat to'g'risida badiiy kitoblarni o'qish, rasm chizish, har xil shakllarni yasash, tabiat kalendarini olib borish, ko'rgan, kuzatganlar to'g'risida davra suhbatlar o'tkazish kiradi.

Har bir alohida olib borilgan kuzatishlar natijasida bolalarda tabiatning u yoki bu ob'ekt to'g'risida elementar tasavvurlarning shakllanishi, tabiatga nisbayagan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish hissini paydo qiladi.

Ma'lum bir kuzatish jarayonini olib borishda tarbiyachi ushbu kuzatishni uslubiyot tomonidan to'g'ri tashkil qilishi kerak. Kuzatish olib borilayotgan davrda tinch vaziyatni saqlash, qafasdagi qushni bolalar uchun ko'rinadigan joyga osish, akvariumni qulay joyga qo'yish. ular to'g'risida gapirib berilayotgan vaqtda ushbu predmetlar so'zlovchi uchun ham kuzatuvchi uchun ham qulay vaziyatda joylashgan bo'lishi shart.

Shuningdek, o'z navbatida bolalarda olib borilayotgan kuzatishga nisbatan qiziqish mavjud bo'lishi kerak. Ushbu qiziqishni uyg'ota bilish yo'llari xilma-xildir. Masalan, akvariumdagi baliqlarning harakatini kuzatishdan oldin, tarbiyachi bolalarga akvariumni yuvish, uni baliq solishga tayyorlash ishida qatnashish, jonli quyovni ko'rsatishdan avval quyovga beriladigan sabzavotlarni tozalash, to'g'rashni taklif qiladi. Bundan tashhari gapirib bermoqchi bo'lgan hayvon tirigini ko'rsatish, uning to'g'risida topishmoq, maqollar aytib berish orqali bolalardagi qiziqish kuchaytiriladi.

Kuzatish olib borish jarayonida tarbiyachi tomonidan bolalar dunyoqarashini kengaytirib borish, bolalarni bilish, o'rganish asosan, 3 bosqichdan iboratdir

Birinchi bosqichda tarbiyalanuvchilar gapirilayotgan ob'ekt to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bolalarga kuzatilayotgan ob'ektni to'liq ko'rib chiqish uchun vaqt beriladi. Kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga ob'ektni yaxshiroq kuzatish uchun uning tashqi belgilarini ajratish, bir-biri bilan taqqoslash, o'xshash va farq qiluvchi belgilarini topish, o'zining shu ob'ektga nisbatan munosabatini ifodalovchi savollar bilan murojaat qiladi.

Ikkinchi bosqichda tarbiyachi bolalarning yoshiga qarab qabul qilish imkoniyati turlicha ekanligidan kelib chiqqan holda, ob'ekt belgilari, sifati, hossalari aniqlovchi. ma'lum bir jonivorning hulqi, hayot kechirish tarzi, o'simliklar holati va boshqa holatlarni o'rganish va kuzatish bilan bog'liq bo'lgan usullardan foydalanadi: bir organizmning ikkinchi organizm bilan o'zaro aloqasini (zarpechak daraxt tanasiga chirmashdi. laylak tumshug'ida qurbaqani ushlab turibdi, daraxt shoxida qo'ng'iz o'tiribdi) aniqlaydi.

Tarbiyachi bolalarga turli xil savollar beradi, topishmoqlar aytadi, oldilarida turgan predmetni yaxshiroq kuzatishni taklif qiladi, ularni bir-biri bilan taqqoslashga undaydi. O'simlik va hayvonot dunyosining tashqi xususiyatlari, bir organizm ikkinchi organizm hisobiga yashashini ochib beruvchi, mehnat bilan bog'liq harakatlar, o'yinlar, she'lar, badiiy asarlardan parchalar o'qishdan keng foydalanadi.

Bu harakatlar o'z navbatida bolalarda kuzatilayotgan ob'ektga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Kuzatish jarayonida hayvonlar harakatini kuzatish orqali bolalar sharoitga yarasha hayvonlarning xulqlari ham o'zgarib borishi bilan tanishadilar. O'simliklarni kuzatish, o'simlikning eng ajralib turuvchi qismini (guli, barg, shox) ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Undan so'ng navbat bilan tashqi tuzilishi (balandligi, shakli, ustki qismi) ko'zdan kechiriladi. SHunday qilib, tarbiyachi bolalarni kuzatishni sistemali ravishda olib borishga o'rgatadi.

Uchinchi bosqichda olib borilgan kuzatishlarga yakun yasaladi. To'plangan natija, bilimlar umumlashtiriladi. Agar kuzatish ishlari sistemali ravishda olib borilsa, bolalarda bilim olish, o'rganish va odatlarning umumiy tizimi shakllanadi va bu o'z navbatida bolalarni tabiat ob'ektlariga, o'zlarini o'rab turgan olamga yaxshi munosabatda bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T.; 2001.
2. "Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya" F. Yusupova "O'qituvchi" 1999
3. "Igrovaya ekologiya" Z.S. SHabalina Yaroslavl.
4. "Ekologik ta'lim tarbiya" A. Ismoilov, R. Ahadov Toshkent "O'qituvchi" 1997 yil.

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTIDA INNOVATSION YONDASHUV

Raxmatova.G.T.-NavDPI

Valiyeva.N.B.- talaba, NavDPI, O'zbekiston

Annotation: One of the priorities of the reform and development of preschool education in our country. The main task of our state is to train qualified personnel in preschool education. This article is about an innovative approach to the development of preschool education in Uzbekistan

Markaziy Osiyo boy tarix va madaniy ilmiy merosga ega bo'lgan sivilizatsiyaning eng qadimgi beshigidir. Markaziy Osiyo savdo va madaniyat yo'llari chorrahasida joylashgan zamin bo'lib ma'rifat, ilm-fan, ta'lim, bilim, e'tiqod hunarmandchilik markazlari bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda har qanday rivojlangan davlatning rivojlanish asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Bugungi kunda biz davlatimiz va jamiyatimiz hayotini barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonda yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu ertangi kun kelajak demakdir. Biz ertangi kunimiz, kelajagimizni maktabgacha ta'limdan mustahkamlab borsakgina ertangi kunimizga poydevor qurgan bo'lamiz.

Yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasini isloh etishni eng quyi pog'onadan, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishdan boshlab e'tibor berilayotgani tahsinga sazovordir. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan davlatlar faoliyatini o'rganib, shu tajribalarni yurtimizda qo'llab ijobiy natijaga erishayotganimiz ulkan yutuqlarimizdan biridir. Bugungi kunda jahon hamjamiyati maktabgacha yoshdagi bolalarning yetuk, barkamol, aqlan va jismonan sog'lom, ruhan kuchli, ma'nan boy bo'lib o'sishlari uchun keng shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasasi hamda maktablardagi O'quv-tarbiya jarayoni bolalarning iste'dodi va layoqatini har tomonlama kamol toptirish, shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonlarning natijasiga erishish esa maktabgacha ta'lim tizimida xilma-xil metodlarni qo'llashdan iboratdir. Bunday natijaga erishish uchun yuqori malakali o'z kasbini ustasi bo'lgan pedagog tarbiyachilar zimmasidadir.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Shu sababdan ham bolalarning bilimli, yetuk shaxslar bo'lib shakllanishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi eng asosiy o'rinda turadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni intellektual,

axloqiy, jismoniy tomonlama tarbiyalash, yurtimizning milliy qadriyatlari bilan tanishtirish, bolalarni maktabga barkamol qilib tarbiyalash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xil to'garaklar, ma'naviyat, ekologiya xonalari, kichik muzey va kutubxonalar tashkil etish kabilar maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalarni Vatanga, millatga mehr-muhabbat tuyg'ulari, bilimga, san'atga, kitobga umuman olganda ularning ertangi kunda yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga ishtiyoi aynan maktabgacha ta'lim davrida shakllanadi.

Muhtaram Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarish, yosh avlodni barkamol, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qonun doirasida ko'zda tutilgan sifatli o'quv-metodik va didaktik materiallar va turli xil badiiy adabiyotlarishlab chiqish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun turli xildagi qo'llanmalarni turli tillarda nashrdan chiqarishni rivjlantirish bolalarni yetuk barkamol bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning har tomonlama tarbiyasida, shakllanishida axloqiy sifatlarini shakllantirish oiladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Joriy 2021-yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha maktabgacha ta'lim xizmatlarining sifatini va hammabopligini ta'minlash maqsadida qator hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj qarovchisi yo'q ayollarning farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli navbat asosida qabul qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 319-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, "ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ustunlik bilan qabul qilinishi huquqiga ega bolalar ro'yxatiga ya'ni imtiyozli ro'yxatga kiritildi.

Davlat-xususiy sheriklik shaklidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishni yanada takomillashtirish va shu sohaga xususiy sektorni kengroq jalb etish orqali maktabgacha ta'lim tizimini yanada yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qarorlari qabul qilindi:

"Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 12-apreldagi PQ-5071-sonli qarori;

"Hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 26-maydagi PQ-5125-sonli qarori;

¹⁶³"Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-sonli qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan 53 ta tumanlarda 2021-2022-yillar:

- 2 mingta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilib, buning hisobiga 50 ming nafar tarbiyalanuvchu uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- Umumiy quvvati 11,2 ming o'rindan ziyod bo'lgan 100 ta davlat-xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yiladi;
- Quvvati 7,5 ming o'ringa teng bo'lgan 50 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti quriladi.
- Qolaversa, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarmog'ini kengaytirish hisobiga ularning soni 20 mingtaga yetkaziladi va 7,5 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Ushbu qonunlarga nazar solar ekanmiz yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasiga va yosh bolajonlarga berilayotgan ulkan e'tiborga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda ushbu sohaga berilayotgan e'tibor tahsinga loyiqdir. Bugungi 2021-yilning birinchi yarim yilligida respublikamizda 1062 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari bulardan, 61 ta davlat, 7 ta xususiy,

¹⁶³"Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-sonli

968 ta oilaviy va davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi 26 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yilishi natijasida bolalarning maktabgacha ta'lim qamrovini 1,5 foizga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Uzshbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 foizga nisbatan ko'pdir.

Bugun ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuq va taraqqiyot aynan maktabgacha ta'lim sohasidan boshlanmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalda qo'llab natijasiga erishayotganimiz bu bizning ulkan yutuq'imiz hisoblanadi. Zero, yosh avlod ertangi kun bunyodkoridir. Ertangi kunimiz yosh avlodning qo'lida ertangi kunimizni mustahkam poydevorini qurishni bugungi kundan maktabgacha talim yoshidan boshlab berishimiz kerak. Maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar, ushbu sohaga xizmat qiladigan barcha tashkilotlar va ularda bo'layotgan o'zgarishlar ongli ravishda fidoiyligi, mehnati bilan o'z hissasini qo'shmog'i, maktabgacha talim yo'nalishida ta'lim olayotgan biz yosh talabalar, bo'lajak pedagog-tarbiyachilar bilimli, malakali, o'z kasbini mohir ustasi bo'lib yetishishimiz zarur va shartdir. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://mdo.uz>
2. Maktabgacha ta'lim faoliyatini takomillashtirish: innovatsiya va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.
3. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-sonli qarori
4. "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-sonli qaror

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA VIZUAL TA'LIM USULLARINING SAMARADORLIGI.

Kubayeva M.B.- o'qit. NavDPI, O'zbekiston

Annotation. This article discusses the effectiveness of visual teaching methods in environmental education for children in preschool education.

Keywords: Child, Visual learning, methods, illustration, multimedia, posters, diagrams, pictures, graphics, diagrams, portraits, maps, models, television, computer, interactive.

Ekologik ta'lim muammosi turli uslubiy tavsiyalarda etarlicha yoritilgan. Maqsadlar, vazifalar, printsiplar, vositalar, shakllar va usullar, shuningdek ekologik ta'lim- tarbiyaning mazmuni belgilanadi. Bularning barchasi sizga tanish. Biz maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishga zarur deb o'ylaymiz. Mana shu usullardan biri bu vizual ta'lim usullaridir.

Vizual o'qitish usullari - ob'ektiv dunyo, jarayonlar va hodisalarni tabiiy shaklda yoki turli xil tasvirlar, reproduksiya, diagrammalar va boshqalarni ishlatib, ramziy aks ettirish bilan bolalarni vizual va hissiy jihatdan tanishtirishdir.

Vizual o'qitish usullarini shartli ravishda ikkita katta guruhga bo'lish mumkin: tasvirlash usuli va namoyish qilish usuli:

- illyustratsiya usuli bolalarga ko'rgazmali yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi: plakatlar, jadvallar, rasmlar, rasmlar va boshqalar.
- namoyish qilish usuli odatda qurilmalarni namoyish qilish, tajribalar, taqdimotlar, videofilmlar va hk.

Vizual vositalarni illyustratsion va namoyishiy qismlarga ajratish shartli hisoblanadi. Bu vizuallashtirishning ba'zi vositalarini ham illyustratsion, ham namoyishkorona kiritish

imkoniyatini istisno etmaydi. Masalan, multimedia installyatsiyasi orqali illyustratsiyalarni ko'rsatish. O'quv jarayoniga yangi texnik vositalarni (televizor, kompyuter, interaktiv doska) joriy etilishi vizual o'qitish usullari imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ilyustratsiya usuli bolalarga tasvirlangan materiallar, qo'llanmalar: rasmlar, plakatlar, diagrammalar, rasmlar, grafikalar, diagrammalar, portretlar, xaritalar, maketlar, atlaslar, taxtadagi ma'lumotlar tasvirlari va boshqalarni namoyish qilishni ta'minlaydi.

Namoyish usuli haqiqiy qurilmalar yoki ularning modellari, turli xil mexanizmlar, texnik inshootlarning ishlashini, tajribalarni o'rnatishda va tajribalar o'tkazishda, jarayonlarni (har xil kelib chiqishi) namoyish etishda, tarkibiy xususiyatlarini, materiallarning xususiyatlarini, kolleksiyalarni (minerallar, badiiy mahsulotlar, rasmlar, namunalar) namoyish etishdan iborat materiallar va boshqalar).

Usulning samaradorligi uni namoyish qilishda to'g'ridan-to'g'ri natijalarni o'lchash, jarayonlarning borishini o'zgartirish, mexanizmlarning parametrlarini o'rnatish, materiallar, ob'ektlarning tuzilmalari va boshqalarni hisobga olish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan talabalarning faol ishtiroki bilan erishiladi.

Ko'rinishidan, ekskursiyalarni namoyish qilish uslubining o'zgarishi deb hisoblash kerak. Ekskursiyadan yangi material bilan tanishish, uni chuqur o'rganish yoki o'rganilgan narsalarni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Ekskursiya namoyish qilish usuli sifatida haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektlarni, jarayonlarni, texnologiyalarni (o'simlik, zavod, ob-havo stantsiyasi, konstruktorlik byurosi, sinov stendlari, laboratoriyalar va boshqalar) o'rganishni, flora yoki faunani o'rganishni (o'rmon, dala, ferma, hayvonot bog'i, terrarium, akvarium, delfinarium va boshqalar).

Namoyish usuli ma'lumotlarning hajmli kompleksini, ko'p o'lchovli idrokini ta'minlaydi, o'quvchilarda barcha idrok tizimlarining rivojlanishiga, ayniqsa o'quv materialini assimilyatsiya qilish sifatini oshiradigan vizual-sensorli hissa qo'shadi; ham nazariy, ham amaliy ko'nikma va malakalarni egallash; bilim va tadqiqot faoliyati uchun kognitiv faollik va motivatsiyani rivojlantiradi. Ommabop donolik shunday deydi: "Yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rish yaxshiroqdir".

Shunga qaramay, namoyish qilish usuli so'z bilan mohirona birlashtirilishi kerak: o'rganilayotgan narsalarga e'tiborni qaratish, asosiy narsaga, ob'ektning xususiyatini tavsiflash, uning turli qirralarini ko'rsatish; namoyishning maqsadi, nimani ko'zdan kechirish kerakligini tushuntirish, kuzatuv ob'ektlarini ajratib ko'rsatish va ehtimol tegishli namoyish qilib, asosiy namoyish oldidan yoki unga hamroh bo'lgan ba'zi tarqatma materiallardan foydalanish.

Usul samaradorligiga erishiladi:

1. Ko'rsatilgan narsalarning mazmunini ochish uchun talabalarning tushuntirishlarini jalb qilish, qiyosiy tahlilni o'tkazish, xulosalar, takliflarni shakllantirish, o'z pozitsiyasini, ko'rgan narsalariga munosabatini taqdim etish, o'rganilayotgan faktlar, hodisalar, jarayonlar, ob'ektlarda "yashirin", "yangi" tarkibni izlash.

2. To'g'ri tanlash, ya'ni. namoyish etilgan materialni dars mazmuni, uning hajmi, namoyish etilgan birliklar soni, o'rganilayotgan materialning dars tarkibidagi o'rni va vaqti, namoyish holati bilan muvofiqlashtirish; talabalarga mustaqil uy vazifalarini bajarish jarayonida kerakli vizualizatsiyani topishga va tanlashga o'rgatish.

3. Ko'rsatilgan materialning yosh va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarni uni o'zlashtirishga psixologik tayyorligiga muvofiqligi.

Bolalarga ekologik tarbiya berishni samaraliroq qilish uchun vizual usullardan foydalanishda bir nechta shartlarni bajarish kerak:

- Ko'rgazmali qurollarning mazmuni bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak.
- Mashg'ulot faqat vizual metodlarga asoslanmasligi kerak. Bir darsda ko'rgazmali qurollarning haddan tashqari to'yinganligi idrok samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, ravshanlikning etishmasligi darsni zerikarli va qiziqarsiz qiladi. Hamma narsa me'yorida bo'lishi kerak.

- Ko'rsatilgan narsalar (rasmlar, diagrammalar) barcha bolalar uchun ko'rinishi kerak. Kichik o'lchamdagi ob'ektlarni namoyish qilish uchun proektsiyalarni, optik kattalashtirishni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Har qanday vizual vositalardan foydalanish, albatta, muayyan maqsadlarni ko'zlashi kerak.
- Ko'rgazmali qurolni tuzish uchun talabalarni ma'lumot izlashga jalb qilish mumkin va zarur.
- Agar tarbiyachi ko'rgazmali materiallardan foydalanishni rejalashtirayotgan bo'lsa, unda dars davomida bu haqda unutmang.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bizning vazifamiz bolaga har bir tirik organizmni yashash huquqiga ega bo'lgan o'z-o'zini qadrlaydigan, noyob mavjudot sifatida qarashga o'rgatishdir. Agar biz maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ekologik tarbiyaning asosini shakllantirishda ta'limning vizual texnologiyalaridan foydalansak, eng yaxshi natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan dabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. Vazirlar mahkamasining 802-son qarori. 2020-yil 22 dekabr.
3. Tuxtayev A.S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining tablari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2001.
4. Namatov A.N. Ekologiya / Asosiy atama va iboralarning izoxli lug'ati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.

ЁШЛАР ОНГИДА МИЛЛИЙ ҒУРУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ ИЛМИЙ –МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

НавДШИ, ижтимоий фанлар катта уқитувчи Турובה Ш.Б

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ёшлар онгида миллий ғурурни шакллантиришда Абу Райҳон Беруний илмий –маънавий меросининг ўрни ва аҳамияти масалаларини ёритиб беришга эътибор қаратилган .

RESUME

This article focuses on the role and importance of Abu Rayhan Beruni's scientific and spiritual heritage in the formation of national pride in the minds of young people.

Ҳозирги мураккаб ахборотлашган жамият босқичида ўсиб келаётган ёш авлодни маънавий ахлоқий қиёфасини шакллантириш таълим-тарбия тизимининг энг долзарб масаласи ҳисобланади. Маънавий таҳдидлар ва ахборот хуружлари кучайган бир пайтда ёшларнинг маънавий-ахлоқий қиёфасини шакллантиришнинг бир қанча асос ва омиллари, усул ҳамда воситалари мавжуддир. Асрлар давомида шаклланган ва аждодларимиз томонидан сайқалланиб келинган миллий қадриятларимиз – ёшлар маънавий қиёфасини шакллантиришнинг энг муҳим омилдир. Ёш авлод онгига ватанпарварлик, миллатпарварлик, меҳр-оқибат, ор-номус, шаън, кадр қиммат, аждодлар меросига ҳурмат, миллий ғурур, ифтихор, ўзликни англаш тушунчаларини сингдиришга катта аҳамият берилади. Миллий ўзликни англаш, миллий ғурур фахр, ифтихор тушунчалари билан уйғунлашган бўлиб, миллат мавжудлигининг муҳим белгиларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида бу ҳақда шундай дейилади: “Олдимизга қўйган улкан вазифаларни амалга оширишда биз учун куч-қудрат манбаи бўладиган миллий ғояни ривожлантиришимиз зарур. Хусусан, миллий ўзлигимизни англаш, Ватанимизнинг қадимий ва бой тарихини ўрганиш, бу борада илмий-тадқиқот ишларини кучайтириш, гуманитар соҳа олимлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашимиз лозим. Ўтмишга берилган баҳо албатта холисона, энг муҳими, турли мафкуравий қарашлардан холи бўлиши зарур.”¹⁶⁴ Зеро ҳар қандай шахс миллий ўзликни англаш орқали ўзи яшаётган Ватанининг порлоқ истиқболини таъминлаш учун қандай имкониятлар мавжудлигини ҳис қилади ва улар билан чексиз фахрланиш орқали мавжуд интеллектуал салоҳиятлардан оқилона, изчил, самарали фойдаланиш йўлларини ахтаради ҳамда тинимсиз изланишлар, илм олиш, меҳнат қилиш орқали ўз ўрнида мамлакат, миллат равнақига, унинг юксалишига муносиб ҳисса қўшиб боради. Инсон доимо илм олиш ва изланишда бўлиши лозим. Жамиятимизда ёшлар онгида илм олишга бўлган иштиёқни шакллантиришимиз лозим. Жаҳон маданиятига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшган буюк мутафаккирларнинг ибратли ҳаёт йўли, улкан маданий меросини талабалар онгига чуқур сингдириш, бу борада мустақил изланишга йўналтириш, қўшимча адабиётлардан фойдаланиш йўлларини ўргатиш ватанпарварлик миллий ғурур, фахр ҳиссини тарбиялаш билан биргаликда эркин тафаккурли ижодкор шахсни шакллантиришга кўмак беради. Ана шундай улкан хазиналардан бири буюк аллома, қомусий олим, Абу Райҳон Берунийнинг ҳаёт йўли, улкан маънавий мероси, бугунги кунда ёшлар маънавиятини юксалтиришда ноёб ибрат мактаби сифатида муҳим аҳамиятга эга. Буюк мутафаккир ҳаёти ва фаолиятининг қайси қиррасига назар ташламайлик, ўзига хосликни, яъни фақатгина Берунийга хос улуғворлик, чексиз инсоний фазилатларнинг уммонидан баҳраманд бўламиз. Илм - маънавит бешиги, илм олиш инсоний фазилат бўлса, бутун умрини илмга, инсоният тафаккурини бойитишга бахш этган қомусий аллома жуда ёшлик чоғиданоқ замонасида мавжуд илмларнинг ҳар бирини кунт ва иштиёқ билан эгаллаб, уларни уларни ривожлантиришга улкан ҳисса қўшган ноёб истеъдод соҳиби бўлган. “Ёшлигимданок – деб ҳикоя қилади, Беруний – табиатимда билим олишга бўлган иштиёқ ҳаддан ташқари зўр эди. Бунинг учун шу нарсани ҳикоя қилишим кифоя: юртимизда бир юнон келиб қолган эди. Мен унга ҳар хил донлар, уруғлар, мевалар, ўсимликлар ва бошқа нарсаларни келтириб, унинг тилида бу нарсалар қандай аталишини сўраб ёзиб олардим.”¹⁶⁵ Берунийдаги тил ўрганишга бўлган иштиёқ ва қобилиятни унинг араб, форс, сўғдий, сурёний, юнон тилларида битилган асарлари, айниқса, ёши қирқ беш ёшдан ошганида яратган “Ҳиндистон” асарини яратиш учун қадимги ҳинд тили санскритни мукаммал ўрганганлиги ифодалаб турибди. Бу асар қадимги ҳинд халқининг тарихи, маданиятини тиббиётини ўрганишда ҳамон ягона манба бўлиб хизмат қилмоқда. Бундан ташқари, Берунийшунос олим, профессор Убайдулла Каримов, Беруний биргина доричиликка оид “Сайдана” асарида дори моддаларининг номларини ўттиз бир тил ва лаҳжада келтирганлигини, бу эса унинг жуда кўп тиллардан хабардор эканлигини кўрсатади деб таъкидлайди. Беруний ўн олти ёшлик чоғида ўзи яратган асбоблар ёрдамида астрономик кузатув ишларини олиб борган. Буюк аллома дунёнинг энг мукаммал харитасини чизган, ер шарининг шакли глобусни яратган, бундан ташқари бошқа дунёлар мавжудлиги тўғрисидаги тахмини унинг энг катта илмий ютуқларидан бири эди. Берунийнинг дастлабки йирик асари “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асари бўлиб, унда юнон - рум, Эрон, Сўғд, Хоразм, христиан, яҳудий, араб ва бошқа халқларнинг тарихи ва маданиятига оид қимматли маълумотлар ўрин олган.

¹⁶⁴ <https://president.uz/uz/lists/view/2228>. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

¹⁶⁵ Абдусодиқ Ирисов. Абу Райҳон Беруний “Ҳикматлар.” Ёшгвардия” 1973 й. 6-бет

Беруний астрономия, математика, география, геодезия, минералогия, картография, доришунослик, сохаларида мукаммал асарлар ёзиш билан бирга адабиётшунос, луғатшунос, таржимон ва шоир бўлган. бир юз элликдан ортиқ асар яратган бўлиб, бу асарларнинг етмиштаси астрономия, йигирматаси математика, ўн иккитаси география ва геодезия, тўрттаси картография, учтаси об-ҳавони билиш масалалари, учтаси минералогия, бири физика, бири доришунослик, ўн беши тарих ва этнография, тўрттаси фалсафа, ўн саккизтаси адабиётга оид бўлган, афсуски улардан ўттизтаси бизгача етиб келган. Ҳар бир асар ҳажм жиҳатдан турлича яъни айримлари кичик рисолалар бўлиб, кўпчилиги тўрт юз-беш юз бетли, ҳатто минг бетли китоблардан иборат бўлган. “У доимо илмлар эшигини очар, кўли қаламдан, кўзи китобга қарашдан, кўнгли фикрлашдан сира бўшамаган. Фақат йилда икки бор наврўз (янги йил) ва Меҳржон (ҳосил йиғув байрами) кунларида тирикчилик учун етарли овқат ва бироз кийим-кечак тайёрлаб олишгагина бўшар экан. Йилнинг бошқа кунларида таҳсил билан банд бўлар экан”.¹⁶⁶ Берунийнинг тарих олдидаги хизматлари беқиёс бўлиб, бунинг замирида умрнинг ҳар лаҳзаси нечоғлик ғанимат бўлиб, ундан самарали фойдаланиш эса улугворлик калити эканлигининг гувоҳи бўламиз. Юқорида таъкидланганидек, аждодлар мероси чексиз маънавий уммон бўлиб, улари ўрганиш, ҳаётга тадбиқ этиш ҳар биримизнинг шарафли бурчимиз бўлмоғи лозим. Бу ноёб қадриятлар ёшларимизни илм-маърифатли, юксак маънавиятли бўлишга ундаш билан бирга, улар онгида аждодлар руҳига ҳурмат-эҳтиром, улар билан фахрланиш, ҳамда муносиб ворис бўлишга, бугунги ахборотлашган жамиятда миллий мафқурани кучайтиришга хизмат қилади.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA EPIK ASARLARNING O'RNI

Norboyeva Ch.- talaba, NavDPI

Ilmiy rahbar: dots, f.f.f.d.N.Tursunova, O'zbekiston

Annotation: This article analyzes the descriptive expressions used in Said Ahmad's works. The art of "Qora ko'z majnun" is revealed.

Key words: figurative expression, story, prose, religion, devotion.

Mamalakatimizda juda keng islohotlar olib borilmoqda. Jumladan ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Harakatlar strategiyasi" ni 2017- yil 7- fevralda tashkil qilgan bo'lib. Unda 5 ta ustuvor yo'nalish bo'lib 4- yo'nalish ijtimoiy soha - modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi dasturlar mavjuddir. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan hozirgi kunda adabiyotga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Adabiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar, olimlar, shoirlar, yozuvchilarning hayot faoliyatlari hamda ularning yozgan asarlari, qilgan ilmiy ishlari tatbiq qilinyapti.

Keng kitobxonlar ko'nglidan jmunosib joy olgan O'zbekiston Xalq Yozuvchisi Said Ahmad asarlari mustaqillik yillarining ayni damlarida sevib o'qilmoqda. Ijodkor yaratgan asarlarning soddaligi, ravon, va qalbga manzur bo'ladigan jihatlari bilan boshqa yozuvchilar asarlardan tubdan farq qiladi. Shunday asarlar sirasiga kiradigan “Qorako'z Majnun” asarini tahlil qiladigan bo'lsak, asarda badiiy san'atlardan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Asar syujetida badiiy san'atning peyzaj tasviri yetakchilik qiladi. Said Ahmad - Tabiatdagi lirik va yumoristika xislat yoki yozuvchining tasvir uslubiga, asariga shundaygina ko'chadi. Uning ijodiga nazar tashlagandan bir - biri bilan bog'liq ikki uslubiy yo'nalishni ko'rishimiz mumkin. Said Ahmad ham lirik, ham yumorist yozuvchi Ijodkor hikoyalarda joyib bir xususiyat tabiat tasviridir. Yozuvchimiz "Qorako'z Majnun" hikoyasida tabiatni quyidagicha tasvirlaydi. "Sentabr

¹⁶⁶ Абдусодиқ Ирисов Абу Райҳон Беруний “Ҳикматлар.” Ёшгвардия” 1973 й -бет

oyoqlab suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan, piyolami choynak qopqog'i, qoshiq shunday ko'rinib turar edi. Qirg'oqlar zah tortib ekin, tekin suv so'ramay qo'ygan palla. Qo'shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari onalarning yalinib yolvorishi eshilib turibdi¹⁶⁷. Hikoya jarayonlari kuzning ilk kunlarida bo'lib o'tadi. Ushbu hikoya tili sodda, tushunarli, hech qanday murakkab bo'yoqlarsiz yoritilgan, ammo bir muncha o'ylantiradigan tarzda ifodalangan. "Qorako'z Majnun" asari o'ziga xos mahorat va ta'sirchanlik bilan yozilgan. Asar qahramoni bo'lmish Saodat aya juda ham ajoyib ayol bo'lganlarini¹⁶⁷. Yozuvchimiz ayolning yoshlik davrlarni tasvirlashda bilib olishimiz mumkin. "Saodat aya juda chiroyli qiz bo'lib, sochlari taqimini o'pard. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi, yarmini qismlab turib, bu yog'ini tarardi"¹⁶⁸ - deydi Said Ahmad. Saodat ayaning mana shunday mustahkam, qalin sochlarini yillar davomidagi tashvishli onlari, farzand dog'i ayani qaritib qo'ygan edi. Saodat ayaning armiya xizmatiga ketgan va haligacha daragi topilmagan Bo'rixon ismli o'g'li bo'lib, Vatan ozodligi uchun urushga kirgan, keyinchalik esa o'zga din vakili bo'lgan ayolni sevib qolib, o'z dinidan osonlikcha qaytagan, o'zligini unutilgan personajdir. Insonning dindan chiqishi, o'z ona tilini unutilishi, ma'naviy o'lim bilan barobar. Garchi Bo'rivoy tirik qolgan bo'lsada, aslida o'lib bo'lgan edi. Xo'sh Said Ahmad bu bilan nima demoqchi. Insonlarning ma'nan o'limi uning jismonan o'limidan ayanchliroq ekanligi menimcha ogohlantirib qo'ymoqchi. Ona timsoli esa g'oyat ta'sirchan tarvirlangan ayniqsa, uning o'limi juda ta'sirli inson o'zligini, Vatanini, tilini, oilasini yo'qotsa ham yashayveradi. Ona farzandidan kechishi bejiz emas, ayniqsa, o'zbek ayollari uchun shuncha kutagan farzandi. Ona bag'riga sog'omon keladi-ku, lekin Bo'rivoy iymoni bilan birga Vatanini, tilini, oilasini, O'zbek o'g'lioni ekanligini unutilgan edi. Shu o'rinda Qorako'z Majnun laqabli itga to'xtalsak, Saodat aya og'ir xastalikka chalinib kasalxonada bir necha kunlar yotib qolganda, farzandlari bazan xabar olmay qolganda, shu it muzga bag'rini berib ruhiy madad beradi¹⁶⁹. Farzandlardan ko'ra olmagan mehrni shu itdan oladi. U jonzod, lekin uning ishi insonning ishidan ulug'roq bo'ldi, Saodat ayaga yupanch bo'ldi, sodiq bo'ldi. Hatto o'limidan keyin ham Saodat ayani qidirdi. Farzand onasiga itchalik qaray olmasligi juda ayanchli voqea zero insonning insonligini yo'qotish fojia¹⁶⁹.

Xulosa qilib aytganda. Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" asarida haqiqiy o'zbek ayolini matonatli, sabrli, mehribon, chidam-bardoshni ko'ra olishimiz mumkin. Hikoya juda ham ta'sirli bo'lib, insonlarni bir - biriga mehrliroq bo'lishiga, o'z tili, dinini oyoqosti qilmasdan, bu dunyoda yashab o'tishga chaqiradi. Nahotki insonlar bir it egasiga qilgan mehr - shafqatni, bir birlaridan ayasalar¹⁷⁰. Hikoyada yozuvchi juda ham og'riqli mulohazali holatlarni qalamga olib, o'quvchiga aynan tutgandek tasvirlab bergan. Kitobxon qalbida yetib boradigan xalqona tilda tasvirlab berilgan.

ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТНИНГ ТЕХНОЛОГЛАШТИРИЛГАН АХБОРОТ МАКОНИ

Раджапов О. Б.- докторант, УрДУ, Ўзбекистон

Annotation: This article discusses the culture of intelligence, the technological information space of modern society, the formation of human intellectual culture, the basic fundamental features of man, post-industrial society, intellectual elite, social strata.

Инсоннинг зиёлилик маданияти асосан унинг мустақил фикрга эгаллиги, иш фаолияти ва яшаш тарзи билан белгиланади. Шунинг учун ҳам инсонни зиёлилик маданияти нафақат уни жисмоний ва маънавий фазилатлари, балки унинг турмуш тарзи, моддий фаровонлиги

¹⁶⁷ Xurshid Davron elektron kutubxonasi. Taqriz. Navro'za Olimjonova

¹⁶⁸ Ahmad.S. Qorako'z majnun.-Т.: "O'zbekiston", 2001.

¹⁶⁹Xurshid Davron elektron kutubxonasi. Taqriz. Ozoda Shuhratovna

¹⁷⁰ U.Normatov.Toshkent: O'zbekiston. 2013 y. 236-bet.

билан ҳам боғлиқдир. Инсон ўзининг зиёлилик маданияти орқали воқеликни қай даражада акс эттириши ва у тўғрисида фикр мулоҳазаларини чуқурлаштириш асосида тобора ўз-ўзини чуқурроқ ва аниқроқ кашф этиб боради. Яъни инсонни “зиёлилик маданияти” биринчи навбатда унинг ўзлигини англашга қаратилагн бўлади. Инсоннинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етуқлиги асосан зиёлилик маданияти даражаси билан белгиланади. Бу жараён эса инсонни ўзлигини билишга бўлган интилиш давомида тўплаган кундалик ва илмий даражасидан келиб чиқадиган назарий билимлар ва амалий тажрибалари билан боғлиқдир. Шунингдек бу жараёнда ҳар бир инсонни зиёлилик маданияти даражаси ўзининг муҳим хусусиятлари билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Чунки баъзи бир инсонларнинг касби, мутахассислиги, ихтисослик даражаси ва турмуш тарзи бир-бирига яқин бўлганлиги билан уларни зиёлилик маданияти турли даражада намоён бўлади.

Замонавий жамиятнинг техноглаштирилган ахборот макони инсон интеллектуал маданиятини шакллантиришга таъсир қилувчи бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга: “сиёсий даражадаги вакиллари маслаҳатчи, эксперт ёки технократ сифатида қатнашадиган” интеллектуал синфнинг пайдо бўлиши; стратегик манба мақомига эга бўлган назарий билимларнинг позициясини мустаҳкамлаш; компьютер асосида интеллектуал муҳит маконини яратиш; инсоннинг асосий фундаментал хусусиятларини мустаҳкамлаш, масалан, ақл, фаолиятни ишлаб чиқариш, ижодкорлик ва эркинликка интилиш; интеллектуал элитанинг пайдо бўлиши, инсоннинг янги маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантириш: ҳаракатчанлик, юқори профессионализм, фаолиятни ўзгартириш қобилияти ва янги касбларни эгаллаш имконияти; инсон табиатининг “ноосфера” йўналиши бўйича ўзгариши; коллектив онгнинг янги шаклланинг пайдо бўлиши, одамларни ўрганиш ва бирлаштириш демакдир¹⁷¹. Зиёлилар синфининг, юқори малакали мутахассисларнинг пайдо бўлиши, юқори сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқарувчилари янги ҳодиса - авлодларнинг маънавий, интеллектуал ва бадиий тажрибаларини жамлайдиган элита маданияти пайдо бўлишига олиб келади. Постиндустриал жамият концепцияси муаллифи Д.Белл таъкидлаганидек, “постиндустриал жамиятни тадбиркорлик қобилиятлари орқали мерос қилиб олинган ёки сотиб олинган мулкка эмас, балки таълим натижасида олинган малакаларга асосланган янги элита характерлайди”. Интеллектуал элита вакиллари қуйидаги сифатлари билан ажралиб туради: юқори интеллектуал қобилиятлар; сифатли таълимнинг юқори даражаси; дунёқараш шаклланинг кенлиги ва кўп қирралилиги (саноат давридаги ихтисослашувдан фарқли ўлароқ); янги билимларни яратиш мақсадида ҳаёт давомида ўрганиш қобилияти ва тайёрлиги; жинси ва ёшига қараб эмас, балки шахсий қобилиятига қараб, ҳаракатчанлик, шу жумладан вертикал; иш жойига боғланишдан мустақилликдир¹⁷².

Э. Тоффлер “интеллектуал элита” тушунчаси ўрнига ўзи ўхшаш илмий хусусиятларга эга бўлган илмий муомалага киритган “билиш” тушунчасидан фойдаланади¹⁷³. Баъзи тадқиқотчилар, шу жумладан М.Г.Бреслер ахборот ва интеллектуал маҳсулотни яратувчиси бўлган зиёлилар (когнитаристлар) синфи билан бир қаторда жамиятнинг юқори қатламини - интеллектуал, ахборот маҳсулотлари ва ахборот-коммуникация

¹⁷¹ Историческое знание и интеллектуальная культура. Материалы научной коференции, 4-6 декабря 2001 г. (часть 2) Отв.ред. Л.П. Репина. М. РАН, Институт всеобщей истории, Общество интеллектуальной истории. 2001. – 92 с.; Шишков А.М. Средневековая интеллектуальная культура. Учебное пособие г.Москва Издатель Савин С.А. 2003. - 592 с.; Шестаков Вячеслав. Интеллектуальная история Кембриджа. Тираж 500 экз. М. Российский институт культурологи 2004. - 203 с.

¹⁷² Белл Даниел. Грядущее постиндустриальное общество. 2-е изд., испр. и доп. Пер. с англ. под ред. д-ра эконом наук В.Л. Иноземцева. Москва Academia 2004. - 786с.

¹⁷³ Тоффлер Элвин. Метаморфозы власти: Знание, богатство и сила на пороге XXI века. М. АСТ 2004. - 669с.

тармоқлари эгаларини ҳам ажратиб кўрсатиб ўтади¹⁷⁴. Шунингдек, баъзи олимлар жамиятнинг қуйи қатламини - ахборот ва интеллектуал маҳсулотлар истеъмолчиларини алоҳида ажратиб талқин қиладилар. Ушбу ёндашув билан юқори даражадаги идрок жамоасига ва қуйи синфга вертикал таъсир чизиғи билан қатъий иерархик ижтимоий тузилма шакллантирилади. Чунки интеллектуал маҳсулотни яратувчилар, биринчи навбатда, юқори синф томонидан жорий этилган истеъмол қийматлари тизимини деярли тақсимламайдилар ва иккинчидан, шахсий танлов асосида улар ўзларининг натижаларини ўтказиши ёки ўтказмаслиги ҳам мумкин. Таклиф этилаётган қатъий иерархик ижтимоий тузилма саноат даврига хос бўлиб, амалда барча қаттиқ тузилмаларни йўқ қилишга мойил бўлган, бошқа тармоқ тузилишига йўл очиб берадиган ахборот жамиятининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирмайди, бу эса жамиятнинг интеллектуал ва ахборот маконига кўпроқ мос келади. Интеллектуал муҳит маконини яратиш, ақлий меҳнатни ташкил этишнинг тармоқ тамойилини амалга оширишга имкон беради.

Инсоният тараққиётининг ҳозирги даврида юз бераётган кескин ўзгаришлар, янгиликлар, инсоният онгининг маҳсули натижаси бўлмиш катта-катта ихтиролар сифат жиҳатидан янги ва нисбатан мураккаб бўлган вазифаларни қўймоқда. Бунда кишиларда зиёилик маданиятининг ривожланиш даражаси, унинг ақлий имкониятлари регулятори, маънавий-ахлоқий жиҳатлар алоҳида аҳамият касб этади. Бугунги кунга келиб илмий адабиётларнинг комплекс ўрганилиши ва таҳлил этилиши шуни кўрсатмоқдаки, мазкур муаммо ХХ аср бошларидан жуда кенг кўламда ўрганилиб келинмоқда.

Инсоннинг зиёилик маданияти асосан унинг мустақил фикрга эгаллиги, иш фаолияти ва яшаш тарзи билан белгиланади. Шунинг учун ҳам инсонни зиёилик маданияти нафақат уни жисмоний ва маънавий фазилатлари, балки унинг турмуш тарзи, моддий фаровонлиги билан ҳам боғлиқдир. Инсон ўзининг зиёилик маданияти орқали воқеликни қай даражада акс эттириши ва у тўғрисида фикр мулоҳазаларини чуқурлаштириш асосида тобора ўз-ўзини чуқурроқ ва аниқроқ кашф этиб боради. Яъни инсонни “зиёилик маданияти” биринчи навбатда унинг ўзлигини англашга қаратилагн бўлади. Инсоннинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан етуклиги асосан зиёилик маданияти даражаси билан белгиланади. Бу жараён эса инсонни ўзлигини билишга бўлган интилиш давомида тўплаган кундалик ва илмий даражасидан келиб чиқадиган назарий билимлар ва амалий тажрибалари билан боғлиқдир. Шунингдек бу жараёнда ҳар бир инсонни зиёилик маданияти даражаси ўзининг муҳим хусусиятлари билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Чунки баъзи бир инсонларнинг касби, мутахассислиги, ихтисослик даражаси ва турмуш тарзи бир-бирига яқин бўлганлиги билан уларни зиёилик маданияти турли даражада намоён бўлади. Инсоният цивилизацияси тарихи шундан далолат берадики, жамият ҳамма замонларда зиёиликни юксак даражада ўзида мужассамлаштирган, буюк истеъдод ва қобилият эгаларига эҳтиёж сезиб келган. Жамиятнинг идеали сифатида олий ибрат намунаси бўлган кишилар ва уларнинг сермазмун фаолияти ҳамма вақт ижтимоий-тарбиявий аҳамият касб этган. Ўзбекистон халқлари тарихида узоқ давр мобайнида таълим-тарбия ва маданий кадриятларнинг эҳтиёткорона сақланиб, эъзозланиб, доимо муҳофаза қилиниб, кўпайтирилиб зиёли инсонларни тарбиялашда юксак маънавий омил бўлиб келганлиги ва келинаётганлигининг боиси ана шунда.

Ватанимиз ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлидан бормоқда. Мамлакатимиз мустақилликка эришганидан буён ўтган йиллар халқимиз ва ёш давлатимиз учун улкан синов ва янгиликлар даври бўлди. Бу даврда миллий кадриятларимизни қайта тиклаш билан биргаликда, келажак авлодни зиёилик маданиятини янада юксалтиришга, шунингдек, баркамол авлодни замонавий фаннинг илғор ғоялари билан тарбиялашга катта эътибор берилди. Шу боисдан, бугунги кундаги

¹⁷⁴ Бреслер М.Г. Специфика формирования информационного общества в современной России : диссертация ... кандидата философских наук.- Уфа, 2010.- 165 с.

илмий-техника инқилоби ҳосиласи бўлмиш ахборотлар, яъни ғоялар тўқнашуви натижаси ўлароқ, халқимиз тафаккурида юз берувчи турли хил ўзгаришларнинг кескин салбий оқибатлари, яъни хилма-хил мафкуравий таҳдидлар ва бунинг натижасида ҳосил бўлувчи тафаккур инерцияси ва маргинализмидан ҳимоялаш, қолаверса, шахс ва жамият зиёлилик маданиятини муқобил юксалтиришнинг муҳим усул ва воситаларини ишлаб чиқиш, ўзига хос механизмларни шакллантириш долзарб вазифалардан биридир.

Энг муҳими, бу вазифаларни амалга оширишда мавжуд илмий салоҳиятимизга, шунингдек, ўтмишимизда ва бугунги кунда мавжуд бўлган турли хил қарашларга муносабатимизни белгилаб олишимиз, халқимизни маънавий салоҳиятини оширишнинг энг нозик ва энг зарур жиҳатларидан биридир. Бу жиҳатларни ҳолисона таҳлил ва тадқиқ этмай туриб мамлакатимизда шахс ва жамият маданиятини муқобил ривожлантириш мутлақо мумкин эмас. Негаки, зиёлилик маданиятини юксалтириш муаммосига объектив нуқтаи назардан ёндошиш, унинг ривожланиш қонуниятларини тадқиқ этиш, шахс ва жамият зиёлилик маданиятини шакллантиришдаги энг асосий вазифалардан биридир. Бу эса, ўз навбатида, вояга етиб келаётган ёш авлод, қолаверса мутахассис-кадрларни комил инсон сифатида тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА О'QITISHNING SAMARALI YO'LLARIDAN BIRI – ONLAYN TA'LIMDIR

О'тамуродова Ш.М.-NavDPI, О'zbekiston

Annotation: This article presents the useful aspects of finding and playing computer games that are relevant to the topics set out in the “path of knowledge” varativ program, developed for the state program “first step” and mandatory preschool preparation courses for children from the age of 6 to 7 years, and the requirements for the correct selection of online courses.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yangi bilimlarni o'zlashtirishning eng ilg'or turi – o'yindir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati doim yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham bolalar ta'limini o'yinlar orqali tashkil etish nafaqat foydali, balki qiziqarli bo'lishi ham kerak. Tarbiyachi ijodiy o'yinlar va kompyuterli ta'limiy o'yinlarni topib mashg'ulotlarni mazmunli, sifatli olib borishda innovatsion-kreativ yondashuv zarurati tug'iladi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tarbiyachilarga metodik yordam berish maqsadida xorijiy mamlakatlar va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish sohasidagi yetakchi kompaniyalar bilan tajriba almashishga katta e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi 2018-yildan buyon bu sohada Rossiyaning “Noviy Disk” kompaniyasi bilan namkorlikni yo'lga qo'ygan. “Noviy Disk”(yangi disk) kompaniyasi - ta'lim sohasidagi yetakchi kompaniya bo'lib, bolalar uchun nodir ta'lim qo'llanmalari hamda rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish, nashr qilish, mahalliy lashtirish va tarqatish bilan bilan shug'ullanadigan rus kompaniyasi, 1997-yilda tashkil etilgan va ofisi Moskvada joylashgan[1]. Bu kompaniya mijozlarni elektron-onlayn o'qitish va Rossiya ta'lim muassasalarining interaktiv ta'lim resurslari bilan ta'minlash sohasidagi etakchilardan biri bo'lib, bolalar rivojlanishi uchun dasturlarini ishlab chiqdi, jumladan, “Sehrli o'yinchoqlar”, “O'ylashni o'rganish”, “Jiddiy darslar”, “Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ajoyib darslik” kabi o'qitish dasturlarini ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq etib kelmoqda. Kompaniya masofaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiquvchilar orasida eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. 2008-yilda "New Disc" kompaniyasi kompyuter o'yinlari ishlab chiquvchilarining konferensiyasi ko'rgazmasida eng yaxshi lokalizator(ishlab chiquvchi va yetkazib beruvchi tarmoq) sifatida e'tirof etilgan. Yana «Новый Диск» kompaniyasi 2008-yili kompyuter o'yinlarini ishlab chiquvchilar konferensiyasida “Eng yaxshi nashriyot kompaniyasi” nominatsiyasini qo'lga kiritgan.

“Noviy Disk” kompaniyasi bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berishni maqsad qilib olgan

bo'lib, ular ishlab chiqargan dastur, ilova va barcha bolalar o'yinlari yaxshi natija berib kelmoqda.

Kompyuter o'yinlarini ota-onalar ham yaxshi ekanligini tushunib yetishlari kerak. Ota-onalar nazarida kompyuter o'yinlari yomon, bolalarga yomon ta'sir qiladi.-degan tushunchalar paydo bo'lib qolgan. Bu tushuncha nisbatan to'g'ridir, ehtimol, lekin kompyuter o'yinlari orasidan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "Ilk qadam" davlat dasturi va 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni majburiy maktabgacha tayyorlov kurslari uchun ishlab chiqilgan "Ilm yo'li" variativ dasturida belgilangan mavzularga mos kompyuter o'yinlarni topib o'ynatish maqsadga muvofiq. Shu bois, tarbiyachilar va ota-onalar ham bolalarning sifatli ta'lim olishlari uchun birdek mas'uliyat bilan yondoshib, kompyuter o'yinlarini ishlab chiraruvchi yetakchi kompaniyalarning onlayn kurslari va kompyuterli o'yinlarini olishlari kerak.

-Maktabgacha ta'lim-tarbiyada onlayn ta'limning afzalliklari: 6-7 yoshdagi bolalar bilim jihatidan ham, psixologiya va ijtimoiy moslashuvchanligi nuqtai nazaridan ham maktabga tayyor bo'lishi kerak. To'g'ri yondashilsa, kompyuter bu masalada ajoyib yordamchi bo'la oladi.

-O'qishga qiziqishni oshirish: Bolalarni yorqin va interfaol animatsiyalar, multfilmlarning tanish qahramonlari o'ziga qiziqtiradi, buning evaziga rivojlantiruvchi vazifalarni bajarishga qiziqish ham ortadi.

- Tadrijiy (darajama-daraja, asta-sekin ilgarilash, yuqorilash, yuksalish)[2] fikrlashni rivojlantirish: Bolalar ekranda vazifa to'g'ri bajarilgani yoki yo'qligini birdaniga ko'ra olganligi uchun ularda dastlab o'ylash, keyin bajarish algoritmi(ko'rsatma va harakatlar ketma-ketligini bajarish)[3] shakllanadi. Muvaffaqiyat qozonish istagi maktabgacha yoshdagi bolada xatolarni tahlil qilishga turtki uyg'otadi, keyingi maktab hayotida bilimlarni o'zlashtirish negizida yotadigan mantiqiy fikrlash va tadrijiylik rivojlanadi.

-Tadqiqot ko'nikmasi shakllanadi: Bola bilimni samarali o'zlashtirishi uchun tadqiq olib borish ishini ham o'rganishi kerak. Kompyuter dasturlari do'stona muhit va axborotni soddadan murakkabga tomon taqdim eta olishi bilan ota-onalarning eng yaxshi yordamchilaridir. Maktabgacha yoshdagi bola sinab ko'rish, tekshirish, aniqlashtirish, xulosa chiqarish, o'z harakatlarini tuzatishni o'rganadi.

-Bolaning ruhiy rivojlanishi: Maktabgacha ta'limda kompyuter dasturlari vositasida muvaffaqiyatga erishish, shuningdek, bolaning ijtimoiylashuviga ham ko'maklashadi. Garchi vazifalarni bajarishda bola tengdoshlari bilan o'zaro muomalada bo'lmasa-da, vazifani bajarishda muvaffaqiyatga erishish va bilim darajasini oshirish o'ziga ishonchni rivojlantiradi, o'zini baholash, atrof-dagilar bilan o'z taassurotlari va natijalarini o'rtoqlashish istagini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolani onlayn kursini to'g'ri tanlash talablari:

➤ Onlayn-kurs O'zbekiston maktabgacha ta'lim dasturlari "Ilk qadam" davlat dasturi va 6-7 yosli bolalarni maktabga 1 yillik majburiy tayyorlash bo'yicha "Ilm yo'li" variativ dasturlarida belgilangan, O'zbekiston Respublikasining erta yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha Davlat talablariga muvofiq talablar va tarkibiy me'yorlariga mos kelishi kerak.

➤ Onlayn-kurs vazifalari yosh imkoniyatlari va maktabgacha yoshdagi bolaning o'ziga xosliklariga muvofiq bo'lishi, mavzulari o'zaro bog'liq bo'lishi va oson tushinarli bo'lishi darkor.

➤ Har bir vazifani bajarishga, maktabga tayyorlov guruhlarida axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish me'yorlariga muvofiq, kuniga 15-20 daqiqa vaqt ajratiladi.

➤ Kurs vazifasi turli darajadagi murakkablikda bo'lishi hamda har bir maktabgacha yoshdagi bolaning o'zigagina xos jihatlari va talablarini inobatga olishi kerak.

➤ Mashg'ulotlar hayotning turli sohalari va jabhalariga doir bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi, yaxshiroq o'zlashtirishi uchun maktabgacha yoshdagi bolaning atrof-muhitida kuzatiladigan holatlar misol tariqasida keltirilishi zarur.

- Ranglar to‘plami neytral tusda bo‘lishi, bezashda bolaning ko‘rish tizimini toliqtiradigan yorqin yoki aksincha ranglardan foydalanish tavsiya etilmaydi.
- Ta‘lim onlayn dasturi bolaning temperamenti va bilimlarni o‘zlashtirish tezligiga doir o‘ziga xos qobiliyatlarini ham inobatga olishi kerak. Shuning uchun vaqtga ishlash istisno qilinadi. U o‘ziga qulay bo‘lgan sur‘atda, taranglikni his qilmasdan ishlashi lozim.
- Dastur qayta aloqaga ega bo‘lishi, ya‘ni xatolar va javoblarning to‘g‘ri variantlarini ham ko‘rsatishi kerak. Bu maktabgacha yoshdagi bolani dastur bilan ishlashida ruhiy qulaylik bilan ta‘minlaydi va o‘ziga mos baholashni shakllantiradi.

Onlayn-kursning matnli vazifalari mutaxassis tomonidan o‘qilishi talab etiladi, chunki aksar maktabgacha yoshdagi bolalar o‘qishni bilmaydi. Shuningdek, 6-7 yoshli bola uchun ekran orqali o‘qish ko‘rish a‘zolari uchun qo‘shimcha zo‘riqishdir.

“Roboborik bilan o‘quvchi bo‘l!” - bu “Noviy Disk” kompaniyasining 6-7 yoshdagi bolalar uchun onlayn mashg‘ulotlari bo‘lib, maktabga samarali tayyorlanishga mos keladi va 4 ta yo‘nalish: «Atrof olam», «Matematika», «Nutq rivojlanishi, savodxonlik va o‘qish asoslari», «Musiqiy va tasviriy san‘at bilan tanishuv» bo‘yicha rivojlantiruvchi topshiriqlarni taklif etadi.

“Roboborik bilan o‘quvchi bo‘l!” mashg‘ulotlar dasturidagi vazifalar «Ilk qadam» davlat ta‘lim dasturida nazarda tutilgan maqsad va natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mavzuli rejalashtirish va mashg‘ulotlar tarkibi onlayn kursning maktabgacha yoshdagi bolani uyda tayyorlash uchun ajoyib qo‘shimcha yordamchi bo‘la oladi.

Atrof olam bo‘yicha vazifalar lug‘at boyligini boyitish, dunyoqarashni kengaytirish va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Maktabgacha yoshdagi bola mashg‘ulotlarni o‘tar ekan, kasblar va faoliyat turlari, shuningdek, hayvonot va o‘simliklar olamiga doir dastlabki bilimlarni o‘zlashtiradi.

Matematika bo‘yicha vazifalar arifmetika haqida boshlang‘ich ma‘lumotlarni oladi, geometriya bo‘yicha dastlabki bilimlarga ega bo‘ladi, yil hisobini va matematik hisob-kitoblarni o‘rgatadi.

Nutqni rivojlantirish, savodxonlik va mutolaa bo‘yicha topshiriqlar harflar va tovushlar, so‘zlarni hosil qilishni o‘rganishga yo‘naltirilgan. Maktabga tayyorlanayotgan bolakay har bir mashg‘ulotda yangi harflar, ularning boshqa harflar bilan uyg‘unlikdagi turli talaffuzi bilan tanishadi.

Musiqiy va tasviriy san‘at bilan tanishish bo‘yicha vazifalar maktab yoshidagi bolani rasm solish, dunyo xalqlari raqslari, qadimgi haykallar, teatrlar va asbob-uskunalar bilan tanishtiradi.

Maktabgacha ta‘lim bu bola tug‘ilganidan to 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olar ekan, maktabgacha ta‘limning vazifasi maktab ta‘limiga bolani sifatli tayyorlab berishdan iborat bo‘ladi. Hozirgi davrda 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda kompyuterli o‘yinlarning ahamiyati foydasi beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ru.wikipedia.org
2. www.ziyouz.com kutubxonasi O‘zbek tilining izohli lug‘ati “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti

KEYS-STADY TEXNOLOGIYASIDAN YADRO FIZIKASI AMALIY MASHG‘ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA FOYDALANISH

R.V.Qosimjonov.- Qo‘qon DPI, O‘zbekiston

Abstract: This article analyzes the development of practical training in nuclear physics and the similarity of issues in nuclear physics with issues in the field of nuclear chemistry.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta‘minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami

va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.[1]

Bugungi ta'limning zamonaviy tizimida har bir talabaga puxta bilim berish va olgan bilimlarini mustahkamlashga ko'mak beruvchi turli xildagi texnologiyalar qo'llanilib kelinmoqda. Bu jarayonlar natijasiga ko'ra, talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki biror bir berilgan topshiriq yuzasidan mustaqil fikrlash va bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirishdan iborat. Shu sababli bugungi kunda ta'lim tizimida muammoli ta'limdan foydalanish, muammoli ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, so'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari orasida muhim o'rin egallagan "Keys-stady" texnologiyasini qo'llash keng tarqalmoqda.

Ko'pgina pedagogik tajribalar natijalari fanlarni (fizika va astronomiya) o'qitish jarayonida foydalanilayotgan ilg'or pedagogik yondoshuvlarni qo'llash orqali talabalarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga erishish mumkinligini tasdiqlamoqda. O'qitishda shunday zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri keys texnologiyasi hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida keng foydalanilayotgan keys asosidagi vaziyatli o'qitish negizida yangi yondoshuv yotadi [2].

Keys-stady ta'lim texnologiyasi qo'yiladigan maqsad - mohiyatiga qarab quyidagi didaktik tamoyillarning ketma-ketligiga asoslanadi:

1. Har bir talabaga individual yondashuv, uning ehtiyojlarini va ta'limiy uslubini inobatga olish. Bu tamoyil ta'lim jarayonini tashkil etmasdan avval talabalar haqida maksimal axborotni olishni nazarda tutadi.

2. Ta'limda maksimal darajada erkinlik berish (o'qituvchilarni tanlash imkoniyati, fanlarni tanlash imkoniyati, topshiriqlar va ularni yechish uslublarini erkin tanlash imkoniyatining mavjudligi).

3. Talabalarni topshiriqlarni yechishda zarur bo'lgan ko'rgazmali materiallar bilan yetarli miqdorda ta'minlash (ilmiy maqolalar, video va audio tasmlar, u yoki bu mahsulotlar).

4. Asosiy muammolar atrofida jipslashtirilgan nazariy materialni ratsional uzatish.

5. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi faol hamkorlik munosabatlari. Talaba istalgan vaqtda o'qituvchiga savol bilan murojaat qilishi mumkin.

6. Talaba shaxsining kuchli jihatlarini rivojlantirishga urg'u berish.[3]

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizualish; keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarning dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash.

4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va taqdimot	asoslash, yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.
---	--

Yadro fizikasi bo'limidan amaliy ma'shg'ulotlarni o'tish jaroyonida quyidagi keyslardan foydalanilsa bizningcha darsning samaradorni oshirishga hizmat qiladi.

1-Keys. Radiativlik nima va uning qanday turlarini bilasiz?

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija
Radiativlik nima va uning qanday turlari bor?	1.Radiativlik hodisasi va uning turlarini eslash kerak. 2.Radiativlik kim tomonidan va qanday kashf etilganini eslash kerak. 3.Radiativ nurlanishning tarkibi qanday ekanligini eslash kerak. 4.Radiativ oila va oilaning turlariga mansubligini fikrlash kerak. 5.Yuqoridagilar asosida xulosa qilish kerak.	Talabalar radiativlik hodisasi va uning tabiiy va sun'iy turlari haqida mustaqil fikrlay boshlashadi.

2-Keys. Nima sababdan yadroning yagona modeli mavjud emas?

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija
Yadroning bir nechta modellari bo'lishiga qaramay, nega yagona modeli mavjud emas?	1. Yadroning tomchi modelini eslash kerak. 2. Yadroning Fermi-gaz modelini eslash kerak. 3.Yadroning qobiq modelini eslash kerak. 4.Yadroning boshqa modellarini eslash kerak. 5. Yuqoridagilar asosida xulosa qilish kerak.	Talabalar yadroning tomchi modeli, qobiq modeli, Fermi-gaz modeli va boshqa modellarini bilgan holda, uning yagona modeli mavjud emasligini bilib olishadi.

Xulosa o'rnida aytganda ushbu metod keng ta'limiy imkoniyatlarga ega bo'lib, bilimlarni, ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq va o'z navbatida ta'limning yuqori samaradorligiga erishishga imkon beradi, o'quvchilarning o'zaro muloqot jarayonida o'zida yangi shaxsiy va o'zaro kirishuvchanlik, kasbiy fazilatlarini kashf etishi va ularni yanada rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyayev. Oliy majlisga murojaatnoma. Toshkent - 2020 yil 29-dekabr.

2. Abduqodirov A., Karimov Q., Yuldoshev I. Aniq fanlarni o'qitishda keys texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 263 b.
3. Nasriddinov K.R. Fizikafanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari. –T.: TDPU, 2019. -138 b.

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNI JALB ETILISHINING MUAMMOLARI**
Quvonov S.Z., Amirqulova D.B.- 2-kurs magistratura yo'nalishi talabalari
NavDPI, O'zbekiston

ANNOTATION:Undoubtedly, information technology has long been used in Russian and foreign education. However, it should be noted that traditional education and new information technologies are closely cooperating, which indicates that in the future it will accelerate the integration of information technology into education. Therefore, recommendations are given on the example of the social sciences and humanities.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. Shuning uchun bugungi kun ta'limida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hamda vositalarining qanday va qay tartibda qo'llash bo'yicha muammolarga duch kelinmoqda.

Muammoning asosiy qo'yidagi farqli va muammoli tomonlarini ko'rsatish mumkin.

- O'z mutaxassisligining bilimdoni bo'lgan ustozlarning AKT savodxonligining yetarli darajada emasligi.
- AKT savodxonligi yetarli bo'lgan vaziyatlarda esa ta'lim beruvchida, o'zining yo'nalishidagi bilimlarning yetishmasligi.
- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda esa milliy maxsus va sodda dasturiy ta'minotlarning yo'qligi.

Shubhasiz axborot texnologiyalari uzoq vaqtdan beri rus va xorijiy ta'limda qo'llanilgan. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, turli xil ommaviy axborot vositalarida axborot-vakillik tizimi ishlab chiqilmoqda, ularda an'anaviy ta'lim va yangi axborot texnologiyalari yaqindan hamkorlik qilmoqda, bu esa uning kelajakda axborot texnologiyalarining ta'limga intigrasalshuvini jadallashuvidan dalolatdir.


Albatta bugungi kun o'qituvchisining AKT savodxonligini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar qilinmoqda. Ammo harakatlarimizni davomli va ta'limning zamonaviy tasirchan usullarini joriy etish bilan birga olib boorish lozim bo'ladi.

Yo'qoridagi aytib o'tilgan uchta muammoni ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda, milliy maxsus va sodda dasturiy ta'minotlarni yaratish tezkor va samarali yechimi sifatida ko'rilmogda. Bu esa ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bilan ijtimoiy-gumanitar fanlarni birlashtiruvchi bir tuzilmaga ehtiyoj to'g'dirmogda. Bu tuzilmani faoliyati samarasi sohaga taalluqli bilimlarni ta'lim beruvchi dasturiy shakllarga keltirishdan iborat bo'ladi. (1-rasm tarix va geografiya fanlari misolida). Tarix fanlarini o'qitish misolida ko'rganimizda tarixni chuqur bilgan AKT ustasi yoki AKTni chuqur biladigan tarix bilimdonlarini tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta'limning barcha sohalarida ta'limni oluvchining ta'savvurni boyitish ta'lim beruvchining

birlamchi hamda eng muhim vazifasi hisoblanadi. Zero «Oʻrtacha oʻqituvchi mavzuni gapirib beradi, yaxshi oʻqituvchi tushuntiradi, zoʻr oʻqituvchi mavzuni koʻrsatib beradi, buyuk oʻqituvchi esa oʻquvchilarini mavzuga qiziqitirib, ilhomlantiradi»

Xulosa oʻrnida yoʻqoridagi kabi taklif etilayotgan (1-rasm) sodda dasturiy taʼminotlar ushbu taʼsavvurni uygʻotishga oʻzining beqiyos hissasini qoʻshish mumkin boʻladi. Hamda yuqoridagi qoʻyilgan birinchi va ikkinchi muammolarning davriy yechimi boʻlib xizmat qilishi mumkin boʻladi. Qolaversa tarix faning eng dolzarb savollari (Kim? Nima? Qachon? Qayerda?)ga javob beruvchi vosita boʻlib xizmat qiladi. Agarda bu kabi loyihalar istiqbolli davom ettirilsa iqtisod va geografiya fanlarida foydalanishimiz mumkin boʻlgan vertual dunyoning siyosiy, iqtisodiy, geografik, iqlim, oʻsimlik va hayvonot dunyosi haqida maʼlumotlar bera oladigan darajaga olib chiqish mumkin boʻladi. Bu kabi loyihalarni amalga oshirishda dasrurchi va tarixchilarni hamkorlikga chaqirgan boʻlardim.



БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ражабов А.Ш.-БухДУ, Ўзбекистон

«Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!»

Ш. М. Мирзиёев

Annotation: The article analyzes the role and importance of the use of modern teaching methods in the educational process in all educational institutions and the education of a perfect developed person.

Тарихий жараёнда юз бераётган ижтимоий-иқтисодий ҳамда ижтимоий-сиёсий ривожланишига кенг кўламдаги инновацион технологиялар, фан, маданият соҳасидаги ўзгаришлар, ахлоқ, эстетика, санъатнинг бошқа турларидаги номутаносибликлар чуқур таъсир кўрсатишни давом этмоқда. Бундай таъсирлардан таълим соҳаси ҳам четда қолмаяпти. Ҳозирги тараққиёт даври ва ундан кейин ҳам моддий бойликнинг билим, тажриба, кўникма, соғлиқ жисмоний ривожланишнинг даражасига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Бинобарин, ҳар бир жамият тараққиётини таъминлашда илм-фан ва маданият муҳим ўрин тутди. Жаҳондаги илғор мамлакатлар тажрибаси бунга яққол мисол бўла олади. Зеро таълим-тарбияга устувор аҳамият бериш мамлакат ва халқнинг истиқболини белгилаб беради. Бугунги кунда мамлакатимизда таълим тизимини ривожлантириш, уни жаҳон стандартлари даражасига кўтариш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган. Шунини фахр билан эътироф этиш керакки таълим соҳасидаги кенг кўламдаги ислохотларни амалга оширишдан кўзланга мақсад фаол, мустақил, масъулиятли аниқ ҳаётий мақсад ҳамда мустақил фикрга эга, шунингдек мавжуд мураккаб шароитда ҳаёт муаммоларини ҳал этишга қодир баркамол шахсни тарбиялашдан иборатдир. Жамиятда амалга оширилаётган ижтимоий шу жумладан таълим ислохотлари натижасида ёш авлоднинг интеллектуал салоҳият, юксак ақл-заковатига, таълим-тарбия тизимини жаҳон андозаси асосида ривожлантиришда инновацион технологияларни таълим жараёнига киритишда баркамол шахсни миллий ва умуминсоний тамойилларга асосланиб шакллантиришдан иборат. Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнлар таълим тизимидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотларни ўзлаштириш ва ўзлаштирилган билимларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир тезкор қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган баркамол шахслар жамият учун сув ва ҳаводек зарур. Бугунги кунда барча таълим муассасаларида таълим-тарбия жараёнида замонавий ўқитиш усулларидан фойдаланиш ва уни баркамол шахсни тарбиялашдаги ўрни ва аҳамияти бекиёсдир. Бундан кўзланган асосий мақсад талабаларни мустақил ва эркин фикрлаш, уларнинг билим ва малакаларини ошириш, ўз устида мустақил ишлашга ўргатишдан иборат. Мамлакатимизда қабул қилинган таълим тўғрисидаги қонун асосида инновацион технологиялар ва интерфаол усуллардан самарали фойдаланиш уларни таълим тизимининг барча соҳаларида жорий этиб баркамол шахсни ҳар томонлама етук мутахассис сифатида тарбиялаш бугунги кундаги энг долзарб масалалардан биридир. Баркамол шахсни тарбиялашда инновацион технологиялар ўқитувчи ва талаба фаолиятида янгилик, ўзгартиришлар киритиш уни амалга оширишда асосан интерфаол усуллардан самарали фойдаланишга боғлиқдир.

Таълим жараёни шундай қуриладики, унда барча таълим олувчилар англаш жараёнига фаол жалб қилиниб, уларга ўзларининг билим ва кўникмаларини қайта текшириш, тушуниш ва сезиш имконияти берилади. Талабаларнинг (ўқувчи) биргаликдаги ўқув материалларини англаш фаолияти, уларга бу жараёнда ўзларининг билим ва ғоялари билан ўртоқлашиш, индивидуал ҳиссасини қўшиш имконини беради. Бу жараён бир-бирини ўзаро қўллаб-қувватлаш, тушуниш муҳитида содир бўлади, бу уларга нафақат янги билимларни эгаллаш, балки уларнинг англаш, идрок этиш фаолиятини ривожлантиради ҳамда мулоқот, ҳамкорликнинг янада юқори поғонасига кўтаради. Интерфаол таълим – бу англаш фаолиятининг махсус шакли саналади. Интерфаол сўзи- инглизча сўздан олинган бўлиб, ўзаро ҳаракат қилмоқ ёки ким биландир суҳбат, мулоқот, ҳамкорликни билдиради. Ўқитишнинг интерфаол усуллари – билиш ва коммуникатив фаолиятни ташкил этишнинг махсус шакли бўлиб, унда таълим олувчилар билиш жараёнига жалб қилинган бўладилар, улар биладиган ва ўйлаётган нарсаларини тушуниш ва фикрлаш имкониятига эга бўладилар, улар биладиган ва ўйлаётган нарсаларини тушуниш ва фикрлаш имкониятига эга бўладилар. Ҳозирги кунда интерфаол таълим технологияларидан оммавийлари қуйидагилар саналади:

1. **интерфаол методлар** (“Кейс-стади”, “Блиц-сўров”, “Моделлаштириш”, “Ижодий иш”, “Муносабат”, “Режа”, “Сухбат”, “Мусобақа-беллашув” ва б.);
2. **стратегиялар** (“Ақлий хужум”, “Бумеранг”, “Галерея”, “Зиг-заг”, “Зинама-зина”, “Музёрап”, “Ротация”, “Т-жадвал” ва ҳ.к.);
3. **график органайзерлар** (“Балиқ скелети”, “БББ”, “Концептуал жадвал”, “Венн диаграммаси”, “Нилуфар гули”, “Инсерт”, “Кластер”, “Нима учун?”, “Қандай?”) ва бошқалар.

Юқорида биз кўриб чикган интерфаол усуллар баркамол шахсни тарбиялашда муҳим ўрин тутди. Негаки инновацион технологиялар ва интерфаол усуллар ҳар бир шахсни юксак ақл-заковатли, интеллектуал салоҳиятли етук шахс сифатида кашф этиш муқаррардир. Хулоса сифатида шуни таъкидлаш лозимки, интерфаол таълим технологиялари таълим сифатини яхшилаш, самарадорлигини ошириш, ўқитувчи, талаба, талабалар гуруҳи, шунингдек, жамоа ўртасида ўзаро ҳамкорликни қарор топтириш, ғоявий ва руҳий бирликка эришиш, ягона мақсад сари интилиш, ҳар бир таълим олувчининг ички имкониятларини рўёбга чиқариш, шахс сифатида намоён бўлиши учун зарур шарт-шароит ҳамда муҳитни яратишда катта имкониятларга эга.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA MILLIY O‘YINLARNING AHAMIYATI

Safarov U.- talaba. NavDPI, O‘zbekiston

Ilmiy rahbar: p.f.n. A.Q.Nurullayev

***Abstract:** The article reflects the importance of folk games in the lessons of physical culture and physical education of schoolchildren, which include the following main tasks: strengthening and development of students' health, their physical development; development and improvement of physical qualities; formation of skills of correct behavior in moments of movement and in moments of movement.*

***Key words:** physical education, sports, national games, lesson, student, student, health improvement.*

Hozirgi davrda o‘quvchi-yoshlarning jismoniy jihatdan chiniqtirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi asosiy dolzarb masalalardan biridir. Maktab o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi: O‘quvchilarning sog‘lig‘ini, jismoniy rivojlanishi mustahkamlash va o‘stirish; Jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish; Harakatsiz vaqtlarda va harakat paytlarida gavdani to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini shakllantirish; Mehnat va Vatan mudofasiga tayyorlashni amalga oshirish; Jismoniy tarbiya va sport bilan sistemali shug‘ullanishga odatlantirish va bunga doimiy qiziqish o‘yg‘otish; Buning uchun butun jismoniy tarbiya sistemasi, ya’ni jismoniy tarbiya darslari o‘quv kun rejimidagi jismoniy tarbiya tadbirlari (jismoniy daqiqalar, darslardan oldin ertalabki gigiyenik qilish, tanaffus vaqtlarida o‘tkaziladigan mashq va o‘yinlar), darsdan tashqari jismoniy tarbiya ishlarining hammasi birgalikda ta’sir etgan taqdirdagina bu vazifalar ko‘ngildagidek amalga oshirish mumkin. O‘tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini sanitariya-gigiyena sharoitlariga qat’iy rioya qilgan holda olib borish kerak. Maktab o‘qituvchisi o‘quv ishlarini rejalashtirishda o‘quv dasturidagi vazifalarni o‘z vaqtida muvofaqiyatli ado etish uchun, uni to‘g‘ri, sharoitga qarab talab darajasi asosida rejalashtirish kerak, albatta.

Jismoniy mashqlarning ayrim turlarini ular o‘rgatiladigan darslar orasida o‘tilishi katta bo‘lmaydigan qilib rejalashtirish kerak. Har bir darsda odatdagi saflanish va umumrivojlantiruvchi mashqlardan tashqari, yugurish, sakrash, uloqtirish, muvozanat saqlash, osilish, akrobatik va raqs harakatlari, sport o‘yinnlari mashqlarini, kurash, kuch sinash mashqlarini qo‘shib olib borish kerak bo‘ladi. Bunday mashqlarni maktablarda sport asbob-

uskunolari va sport saroylari bo'lmasa ham amalga oshirish mumkin. Buning uchun jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularni harakat qobiliyatlarini jismoniy sifatlarini o'stirish uchun ko'proq harakatli o'yinlardan foydalanilsa bo'ladi. Bunda tezlik chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik, kuchlilik sifatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar olinadi. Masalan: «Oq terakmi-ko'k terak», «Kim o'zar», «Qor bobo», «Sichqon --mushuk», «Durra tushdi», «Arqon tortishuv», «Eshak mindi», «Eshakdan sakrash», «Har kim o'z bayrog'iga», «Sakrovchilar», «Otdan qulatish», «Xo'rozlar jangi» va boshqalar. Quyi va yuqori sinf o'quvchilariga ham maktab dasturida berilgan sport turlaridan tashqari bolani o'z tana og'irligi bilan bajariladigan mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: Bolani yon tomonga, orqa tomonga gavdasini engashtirish, burish, ikki oyoqda o'tqazib turg'azish, yerga qo'lga tayanib yotgan holda qo'lni bukib to'g'rilashi, joyida uzunlikka sakrash (oldinga orqaga, yon tomonga) mashqlarini bajarish (15-25 marta). O'tiladigan darslar o'quvchilarning har birini individual xususiyatlariga, jismoniy rivojlanganligiga va jismoniy tayyorgarligiga qarab o'tkazilishi lozim

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilgan holda quyidagilarni amalga oshirish lozimdir:

1. Jismoniy tarbiya va sportning asosiy yo'nalishlari zaminida yangi o'quv dasturini tayyorlash zaruriyati bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.
2. Maktab o'quvchilarining asosiy vazifalarini hal qilishda barcha shart-sharoitlarni yaratib berish dardor.
3. Jismoniy tarbiya darslarida ko'proq halq milliy harakatli o'yinlaridan foydalanish kerak.
4. Yuqori sinf o'quvchilariga gimnastika, akrobatika mashqlarini yanada yaxshiroq o'rgatishni yo'lga qo'yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 1001 o'yin. Toshkent «O'qituvchi» 2003. T.S .Usmonxujayev.

XALQ PEDAGOGIKASI ORQALI YOSH AVLODNI MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Sharipova N.R.- o'qit. NavDPI, O'zbekiston

Annotation:The article views on the formation of moral, ecological, patriotic, labor qualities through the oral creativity of the people in the education of the younger generation.

“Ma'lumki yosh avlodni tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayor-mamot masalasiga aylanib bormoqda”

Sh.M.Mirziyoyev

Bolalik – bu hayotning boshlanishi va uni ko'tarilayotgan quyoshning pushti tongi bilan solishtirish mumkin. Farzandni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi, axloqiy, ekologik va vatanparvarlik ta'limining asoslarini diversifikatsiya qilish va rivojlantirishda ulkan va bebaho yordam ko'rsatiladi.

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'langanligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Zero, ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar bo'lmay, ular hamma vaqt zo'r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Ana shu buloq singari jo'shqin, ummondek tubsiz, bebaho xazina bo'lmish ertak o'zining g'oyaviy mazmuni, badiiy qudrati bilan hamisha mehnat ahlini o'ziga maftun etib kelgan. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun katta va kichikka, savodli va savodsiz kishiga tez yetib boradi. Ular orqali insonning ijtimoiy axloq normalari ham shakllanadi. Ba'zan bu axloqiy normalar masal tarzida,

allegorik ravishda ifodalanib kelgan. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan.

Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko'rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo'ladilar. Kichkintoy bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'ladi. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odob axloq to'g'risida bo'lgani ma'qul.

Bu davr bolalariga „Chivinboy“, „Qizg'anchiq it“, „Tuyaqush bilan qoplon“, „Maqtanchoq quyon“, „Rostgo'y bola“, „Arilarning g'azabi“, „Tulki bilan turna“, „Sholg'om“, „Qumursqa“, „Kaptar sovg'asi“ kabi ertaklarni o'qib berish foydalidir. Bog'cha tarbiyachilari va ota-onalar zimmasidagi eng muhim ishlardan biri kichkintoylarni mehnatga muhabbatruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab mehnatga o'rgatish, kichkinaligidanoq unga bir yumush berib, ishga odatlantirish lozim. Unga buyuriladigan ish ahamiyatsiz, hatto „ish“ deyishga loyiq bo'lmasa ham, uning natijasi muhimdir. Oqibatda bolada yoshligidan mehnatni sevish, uddaburonlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar shakllana boradi. Bola bog'chaga borganda hayotda mehnatsiz yashab bo'lmasligini ma'lum darajada idrok etgani ma'qul.

Rus xalq ertagi „Sholg'om“ bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o'rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo uning ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli.

Ertakda boboning sholg'om ekishi va yirik sholg'omni ko'plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo'q. Ammo unda kichkintoylarga ibrat bo'ladigan jihatlar ko'p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg'omga ishlov beradi, ter to'kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug'lanadi.

Ikkinchidan, bola atrofida gilar bilan ahil, do'st bo'lib ulg'ayishi kerak. Kimki do'stlar bilan, jamoa bilan hamfikir, hamkor bo'lib o'ssa, o'ziga ham, o'zgalarga ham yaxshi. Ertakdagi kattakon sholg'omni yerdan tortib, sug'urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertakning uchinchi jihati shuki, u maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiatni sevishga, jonivorlarni asrash, avaylashga da'vat etadi. Kichkintoylar kuchuk, mushuk, hatto sichqonni ham boqish, asrash-avaylash lozim ekanligini chuqurroq his qiladilar. Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro ahillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishga juda qiziqadilar. Hayvonot olamida ham do'stga mehribonchilik, g'amxo'rlik mavjudligi „Arslon bilan it“, „Echki, qo'y va bo'rilar“ kabi ertaklar orqali beriladi. „Tuyaqush bilan qoplon“ ertagida hayvonlar o'rtasida bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko'maklashish g'oyasi yotadi. Maktabgacha tarbiya muassalarida tarbiyachilar bunday g'oyalarni mashg'ulotlar o'tish orqali o'rgatishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatining axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda samarali vosita ertakdir. Bundan yuz yil muqaddam rus pedagogikasi pedagogik vosita, usul sifatida nafaqat ertaklar haqida gapirdi. Ertaklar bolalarni axloqiy tarbiyalash uchun boy materialdir.

Buyuk rus o'qituvchisi V.A. Suxomlinskiy "ertak go'zallikdan ajralmas, estetik hissiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadi", deb nazariy jihatdan asoslanadi va tasdiqlaydi, bunda ruhning olijanobligi, odamning baxtsizliklariga, qayg'ulariga, azob-uqubatlariga befarq bo'lish mumkin emas. Ertaklar tufayli bola dunyoni nafaqat aqli, balki qalbi bilan ham o'rganadi. Uning fikricha, ertak- bu vatanga muhabbatni tarbiyalashning muborak va almashtirib bo'lmaydigan manbai. Rus etnopedagogikasi asoschisi G. N. Volkov, bola shaxsini shakllantirishdagi ertakning rolini tahlil qilib, "ming yillar davomida xalq tomonidan to'plangan ruhiy ozuqa insoniyatga juda uzoq vaqt xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, u doimo o'sib boradi va yanada kuchliroq bo'ladi. Bu insoniyatning o'lmasligi. Bu ta'limning abadiyligi, insoniyatning ma'naviy va axloqiy taraqqiyot

sari intilishining abadiyligini anglatadi”¹⁷⁵.

Bolalarni hayvonat dunyosi bilan tanishtirish uchun ertaklardan foydalanish kerak: “Tovuq- kichkina qush”, “Tar gobi”, “Tulki va quyon”, “Tulki opa va kulrang bo‘ri”. Ushbu ertaklarda bolalar hayvonlar va qushlar haqidagi bilimlarni boyitadilar.¹⁷⁶ Ko‘pincha bolaligidan, u yoki boshqa hayvonlarning tasviri odamga hayoti davomida hamroh bo‘ladi. Ko‘pincha dramatik o‘yinlar ertaklarga asoslangan. Ertaklardagi qahramonlarning tasvirlari eng aniq tasvirlangan, ular bolalarni jo‘shqinlik va harakatlarga aniq turtki bilan jalb qiladi, harakatlar bir birini aniq o‘rnini egallaydi va maktabgacha tarbiyachilar ularni bajonidil takrorlaydi. “Uch cho‘chqacha”, “Bo‘g‘irsoq”, “Uch ayiq” va boshqa bolalar ertaklari osongina dramatik tarzda namoyish etiladi.

Ko‘plab ertaklar haqiqat g‘olibligiga, yomonlikni yaxshilik ustidan g‘alaba qozonishga bo‘lgan ishonchni ilhomlantiradi. Ertaklarning optimizmi ayniqsa bolalarga yoqadi va ushbu vositaning ta‘limiy ahamiyatini oshiradi. Syujet, tasvirlar va o‘yin-kulgularning jozibasi ertaklarni juda samarali pedagogik vositaga aylantiradi. Ertaklarda voqealar, tashqi to‘qnashuvlar va kurashlar sxemasi juda murakkab. Ushbu holat fitnani qiziqarli qiladi va bolalarning e‘tiborini o‘ziga jalb qiladi. Shu sababli, ertak bolalarning aqliy xususiyatlarini, ayniqsa diqqat-e‘tiborining beqarorligi va harakatchanligini hisobga oladi deb aytish qonuniydir. Bolalar ertaklarni rollarga kirib ijro qilishlarida rollarni taqsimlashni ularning o‘zlariga qo‘yib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bolalar o‘zlari yoqtirgan qahramon rolini o‘ynagisi keladi. Ertaklarni ijro qilish bolalar nutqini o‘stiradi va sahnada o‘zini tutishni o‘rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg‘ulotlarida ertaklardan foydalanish bolalarning tarbiyasiga, uning karakteriga ijobiy ta‘sir qiladi. Nafaqat bog‘chalarda, balki uylarda ham otanalar, bobo-buvilar o‘z farzandlariga ertaklar so‘zlab bersa, uning ma‘nosini bolaga uqtirishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M.A., Rahmatullayeva D.R.. “O‘yin mashg‘ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish”. Toshkent 2016-yil.
2. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. T.O‘qituvchi, 2002 yil 290 bet
3. Qodirova F.R., Qodirova R.M.. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. Toshkent 2004-yil.
4. www.ertak.uz
5. www.saviya.uz
6. www.dedale.ru/uz

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASH ORQALI MASHG‘ULOTLAR SIFATINI OSHIRISH

**Raxmatova.G.T.-o‘qituvchi, NavDPI
Ostonova.X.G‘-talaba, NavDPI, O‘zbekiston**

Annotation: This article discusses how the use of digital technology and innovation in preschool education can improve the quality of instruction, as well as how to make learning fun and effective through a variety of slides, presentations, and videos. The use of innovations in education increases children's participation and they become more involved in the learning process.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llash orqali mashg‘ulotlarni sifatini oshirish bilan birgalikda ularni bolalarga tushunarli tarzda yetkazib

¹⁷⁵ Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. T.O‘qituvchi, 2002 yil 290 bet

¹⁷⁶Qodirova F.R., Qodirova R.M.. “Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. Toshkent 2004-yil.

berish muhim. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga noan'anaviy tarzda mashg'ulotlarni tashkil etishda bolalarga ham raqamli texnologiyalar bilan yangi-yangi bilimlarni puxta berishimiz mumkun. Pedagog-tarbiyachilar raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni mashg'ulotlar jarayonida ulardan foydalanishi mashg'ulotlar sifatiga keskin ta'sir ko'rsatadi va mashg'ulotlarning samaradorligini yanada oshiradi. Bugungi zamonda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biri bo'lib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi balki ijtimoiy sohada ham

odamlarga katta qulayliklar yaratib kelmoqda. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi ya'ni mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga va yana bir muhim afzalligi shundan iboratdirki, korrupsiyaga chek qo'yadi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa sifatida ham ko'rsatib o'tilgan edi. Raqamli texnologiyalar shaharlarni boshqarish tizimini yangi bosqichga ko'taradi ya'ni nafaqat vaqt va mablag'larni keskin sarflaydi, shu bilan birga keng aholini jamg'arishga imkon beradi. Hozirgi kunga kelib dunyoda ta'lim berish va ta'lim olish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki aynan sifatli ta'lim biz yashab turgan dunyoni turli muammolardan qutqarishda muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli davlatlar ta'lim sohasiga katta mablag'lar va investitsiyalar ajratmoqda. Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan jihozlar bilan ta'minlangan mashg'ulotlar o'tkazadigan xonalar bilan ta'minlanishi zarur. Maktabgacha ta'limda o'zbek tilidagi maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarining juda kam. Shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlari axborot kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanmaganligini ham raqamli texnologiyalardan foydalanishni ortga surmoqda.¹⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni hamda ¹⁷⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabr PQ-4884 sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa mafaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022 yil 1 yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilab qo'yilgan. Shuningdek,¹⁷⁹O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonunining 53-moddasida ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilab qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajriba joriy etishni taminlash, maktabgacha ta'lim sohasida eng yangi zamonaviy innovatsion metodikalarni olib kirish va ulardan samarali foydalanish, sog'lom barkamol va har tomonlama kamol topgan bolani voyaga yetkazish mamlakatimizning oliy maqsadlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Pedagog-tarbiyachilarning kreativ g'oyalari orqali mashg'ulotlarni qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitishi va

¹⁷⁷ "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6108-son 2020-yil 6-noyabr

¹⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabr PQ-4884 sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"

¹⁷⁹ O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595

yangi bilimlarni bolalarga qiziqarli tarzda o'tishlari mumkun. Bunda tarbiyachilardan ijodkorlik va izlanuvchanlik talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha pedagogika. F.R Qodirova. Sh.Q. Toshpo'latova. N.M.Kayumova. M.N.A'zamova.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni. 16.12.2019.
3. "Maktabgacha ta'lim sohasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi 605-son 19.07.2019 qarori.
4. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6108-son 2020-yil 6-noyabr
5. "Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884. 2020-yil 6-noyabr.

ЯССАВИЯ ТАРИҚАТИ – ТАСАВВУФ ФАЛСАФАСИГА ҚЎШИЛГАН БЕБАҲО ҲИССА

**Ражабов А.Ш.- БухДУ
Бердиев Д.Н. – талаба, БухДУ Ўзбекистон**

Annotation: The section "Philosophical views of Central Asian thinkers analyzes the role and importance of additional education in the development of mysticism and its development in the development of a mature person.

*“Бисмиллоҳ деб баён айлаб ҳикмат айтиб,
Толибларга дурри гуҳар сочдим маъно”.*
Аҳмад Яссавий.

Ёшлар тарбияси, ёшларни, илмли, билимли ҳар томонлама етук қилиб вояга етказиш барча замонларда долзарб вазифа ҳисобланган. Айниқса, мустақиллик йилларида бизнинг юртимизда ёшлар тарбиясига эътибор кучайди. Президентимизнинг 2021 йилни “Ёшларни қўллаб қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш” деб эълон қилиниши баркамол авлод тарбияси йулида қўйилган яна бир муҳим қадам бўлди. Баркамол авлод эса барча билимларнинг умумий маълумотларига эга бўлмоғлари муҳим. Бунинг учун эса барча фанларни ўқитишда янги педагогик технологиялардан самарали фойдаланиш, инновацион технологияларни дарсларда қўллаш муҳимдир. Жумладан “Фалсафа тарихи ва назарияси” фанида “Ўрта Осиё мутафаккирларининг фалсафий қарашлари” бобида тасаввуф ва ундаги тараққиётлари тўғрисида қўшимча билим бериш ижобий аҳамиятга эга. Ушбу маънода Яссавия тариқати ва унинг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти бекиёсдир. Хожа Аҳмад Яссавий туркий тасаввуф шеърятининг етук намоёниси. Тасаввуф таълимотида алоҳида ўзига хос йўл – тариқат яратган аллома, уни дунёга машҳур қилган “Ҳикматлар девони” асари бўлиб ҳисобланади. Алломанинг ҳикматлари инсон руҳини мусаффолашишига, инсонга ўзлигини англашга кенг имконият эшигини очади. Уни ҳақни танишга, маънавий юксакликка ундайди. Қўллаб тасаввуфшунос олимлар Яссавий ижодини, бошқа тасаввуф аҳллари ижодини таҳлил ва тадқиқ этишда унинг ҳикматларига мурожаат қилишади. Тасаввуфшунос олим Иброҳим Ҳаққул Аҳмад Яссавийнинг “Ҳикматлар” китобида ёзган сўзбошисида: “Яссавий юксак Рух донишманди, унинг руҳий олами мураккаб ва зиддиятли бўлиб, булар аллома ижодиётида бутун теранлиги билан акс етган”¹, - деб Яссавий қарашларига юқори баҳо беради. Дарҳақиқат “муҳаббат майидан” маст сўфий билан муқаддас рух ошиқлари мохиятан ягона маслакдирлар. Девони Хикматда ёзилишича, Яссавий руҳи ҳали у туғилмасдан, дунёга келмасдан олдинроқ Илоҳга ошиқ еди. Ривоят қилинишича хазрати Пайғамбар алайҳиссалом Мероҷ тунидан кўкда фақр

хайкалини кўрдилар. У хайкал нур шаклида кўринган. Бу менинг руҳим еди деб ёзади, Аҳмад Яссавий: Меровж узра ҳақ Мустафо руҳим кўрди. Аҳмад Яссавийнинг таъкидлашича ўша руҳ Аҳмад онасининг қорнида хомила сифатида пайдо бўлган кунидан унинг вужудига кирган еди. Ҳамда унинг танаси билан бирга яшади. Аллоҳ ушбу руҳни Аҳмад танасига киритмасдан аввалроқ баркамол қилиб, ошиқлик хиссини жо қилиб яратган еди. Унинг кўзи ёшли, боши егик, қадди ҳилол еди. Бошқача айтадиган бўлсак бу руҳ тоат ибодатга мойил, комил мусулмоннинг руҳи еди. Шу боис ҳам бу руҳ танага кирган заҳоти, жисм билан келишолмай, ўз аслига қараб инлтилди:

“Тўққиз ою тўққиз кунда ерга тушдим.

Тўққиз соат туролмадим кўкка учдум”².

Зеро, бу руҳнинг Ватани Тангри ҳузури, жабарут оламидир. Руҳнинг ватани Аллоҳнинг ҳузури экан, у аршу самоларни сайр қилиш имконига ега, ҳаққа роз айта олади, жисмоний талаблар, яъни ҳирсу-ҳавас, ҳасад ва манманлик, лаззатпарастлик тимсоли бўлган нафс билан жанг бошлайди. Нафс эса дунё демақдир. Шу боис Аҳмад Яссавийнинг шеърлятида нафсга нафрат кучли ифодаланган. Деярли барча сўфийлар нафсни барча қабихликларнинг манбаи деб талқин этишади. Зеро инсон зотини бузиб, хароб этган, энг қабих ишларни қилишга йуллаган нарса унинг нафсидир. Солиҳ инсон аввало нафсини енгади. Солиҳ инсон изтиробларга сабр қилиб, худо ёдида яшаб, зикру тоатни қанда қилмай, қалбни илоҳий нурга тўлдириб боради. Ҳожа Аҳмад Яссавий ўзининг пурмаъни ҳикматлари билан нафақат Ўрта Осиё балким бутун Шарқ, қолаверса, бутун дунё маънавий ахлоқий ва маърифий хазинасини бойитди.

Етук тасаввуфшунос олим Иброҳим Ҳаққул “Аҳмад Яссавий учун саодат ва ҳақиқат ашёвий нарсаларга эга бўлишмас. Булар ҳатто мақсад ҳам эмас.

¹ Аҳмад Яссавий Ҳикматлар. Т.; 1991 Б.5

² Аҳмад Яссавий Ҳикматлар. Т.; 1991 Б.15

Унингча ҳақиқат юракда. Ҳақиқат руҳ, борлиқ, олам билан руҳан уйғунликка киришиш – олий саодат. Саодат маърифат нурларидан онг ва динни тиниқлаштириш “¹, деб ёзганида Аҳмад Яссавий ҳақида айни ҳақиқатни айтди. Ҳақиқатда ўзини ишққа ҳаққа бағишлаган инсонпарвар шоир еди. Амад Яссавийнинг ҳикматларини мутолаа қилганда ҳақиқатни юракдан ҳис этасан, маърифатга, ишққа ошно бўласан, у баён қилган маърифат нурларидан онгу – шуруринг мусаффолашади. Замонамизнинг етук тасаввуфшунос олимларидан яна бири Нажмиддин Комилов алломанинг ижодини, халқчиллигини, ғоялари инсонпарварлик тамойиллари билан йўғрилганлигини, шоир ижодининг қамрови кенглигини алоҳида қайд этади: “Яссавий энг халқчил, энг инсонпарвар шоирларимиздандир, фақат бу улуғ авлиёнинг нияти ва мақсадини тўғри англаб, тўғри тушунтириш керак. Унинг фикр андозаси кенг қамровли, бепоён”². Дарҳақиқат, Яссавий инсонларни муҳаббат воситасида бирлаштиришини, одамларда чин инсоний фазилятларни қарор топтириш учун кайғурди. Яссавий ғоялари бизнинг давримизда, миллий истиқлол ғоясини кишилар онгига сингдиришда комил инсонни тарбиялашга хизмат қилмоқда. Ва бундан кейин ҳам келажак авлод учун ушбу ғоялар нур йўли, ҳидоят йўли сифатида хизмат қилади.

¹ Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърлят. Т: 1991. Б.58

TA'LIM SAMORADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVASTIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING URNI

G.T.Khodjamkulova, Konimex tumani XTB 22-maktab

Annotation: This article covers ways to develop educational efficiency based on the use of innovative and digital technologies in educational institutions of the country, the analysis of their capabilities. There are also educational technologies aimed at the introduction of innovative technologies in higher education.

Bugungi kunda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart.

Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarining modernizatsiyalanishi, fan-texnika sohasidagi innovatsion g'oyalarni bevosita ishlab chiqarish sohasiga joriy etish zaruriyatining kelib chiqishi maktab va Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini yanada kengroq joriy etishni va ulardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Bu borada biologiya, kimyo fanlardan mashg'ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalardan foydalanish, shubhasiz ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Chunki, AKT katta imkoniyatlarga ega bo'lib, o'quvchining o'quv muhiti bilan aloqadorligini o'rnatish orqali o'quv ob'ektlarini yoki texnologik jarayonlarni boshqarish imkoniyatini beradi. Masalan "Infuzoriya tufelkaning tuzilishi" mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda videofilmlardan foydalanilsa bu juda yaxshi natija beradi.

Mavzuga oid videofilmlarni o'quvchilar ko'rgach ularda sodda hayvonlar haqida tasavvur hosil bo'ladi. Chunki sodda hayvonlarni faqat mikroskop orqali ko'rishimiz mumkin. Tasavvurga ega bo'lgan o'quvchilar endi mustaqil o'ylay boshlaydilar va ularda bilim, malaka yanada rivojlanadi. Mustaqil ishlagan o'quvchida ijodkorlik yanada rivojlanadi bu esa oliy maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Demak, darsda o'quv kinofilmlari, videofilmlar, slaydlar, prezentatsiyali darslardan foydalanishning ahamiyati katta. Bu ko'rgazma vositalari asosiy ba'zan qo'shimcha axborot manbai kabi didaktik vazifani bajaradi. O'quvchilarda o'rganilayotgan ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, joylashishi, harakati, moslanishlari haqida tasavvur hosil bo'ladi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar keng qamrovli, mustahkam bo'ladi. O'quvchilarning aqliy faoliyati jalb etiladi, ob'ekt, hodisa va voqealarni taqqoslash, bilimlarni konkretlashtirish, umumlashtirish, tizimga solish orqali ilmiy dunyoqarashi kengayadi. O'quvchilarda hayvonot olamiga nisbatan ongli munosabat, ekologik madaniyatni tarkib toptirish imkoniyatini beradi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, o'quvchilarning yoshiga mos tanlangan metodlar mazmun va bilim sifatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. O'qitish jarayonida tabiiy va tirik ob'ektlar, tasviriy ko'rgazma, ekran vositalari, EHM ning ko'rgazmali dasturlari, multimedialarni namoyish qilish metodlaridan foydalanish sifat va samaradorlikni oshirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga chuqur

kirib kelgan, Internetdan foydalanish keng ommalashgan davrda pedagogning samarali natijalarga erishishga, pedagogning o'z ilg'or g'oyalarini minglab, millionlab ta'lim oluvchilar, hamkasblar tajriba almashishiga, jamoatchilikning fikr-mulohazalarini o'rganishiga imkon yaratadi.

Shunday ekan biz innovastion va raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda o'quvchi va talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishishimiz katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. J.Tolipova .”Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar”. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 2014
3. <http://www.ziyonet.uz>.

TA'LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH xxz

Begmanova G.-o'qit. NavDPI O'zbekiston

Resume: This article discusses the use of innovative technologies to improve the quality and effectiveness of education in the education system.

Key words: Innovative technology, pedagogical technology, information technology, education, non-traditional education.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, talabalarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchilarning bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, iqtidori, iste'dodi va madaniyatiga hamda dars jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olish faolligiga bog'liq bo'lib, respublikamizda yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalari tizimi yaratilib, uning asosiy vazifasi ta'lim tizimidagi ta'lim mazmuni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdan iborat bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlashning ma'no – mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida 2017 yil 29 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 2909 – sonli qarori¹⁸⁰, 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF – 5847 – sonli Farmoni qabul qilinib, oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning bir qancha eng muhim vazifalari belgilandi.

Yuqoridagi qabul qilingan hujjatlarda ta'lim tizimida noan'anaviy ta'limni, innovatsion texnologiyalarni, ta'lim – tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishning mohiyati va ahamiyati haqida batafsil yo'l – yo'riqlar ko'rsatilgan. Ayniqsa, oliy ta'limda kredit – modul tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini baholashni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy – axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, mehnat bozori kon'yunkturasi talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion ilm – fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo'lgan professor –

¹⁸⁰ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ–2909-сонли «Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.// [Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси](http://www.lex.uz), <http://www.lex.uz>

o'qituvchilar bilan ta'minlash, ta'lim muassasalarini xalqaro indeks va reytinglarga kiritish, yoshlarni o'quv yurtlariga qabul qilish qamrovini oshirish, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.¹⁸¹

Noan'anaviy ta'limning samaradorligi shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib o'quv – tarbiyaviy jarayonini amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham u rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim – tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bir qancha qulayliklar yaratiladi. Shu narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, ayni paytda, axborot olish ko'lami har qachongidan ham kengroq bo'lib, yetarli darajada ko'payib bormoqda. Demak, yurtimizda fan-texnika rivojlangani sayin, axborot olish imkoniyati ham oshib boradi. Talabalarga talab doirasida ma'lumotlarni etkazib berishda, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish zarur. O'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda yangi axborot texnologiyalaridan, shu jumladan innovatsion texnologiyalardan o'z vaqtida va unumli foydalanishning istiqbolli tomonlari ko'zga tashlanmoqda. Sir emaski, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni har tomonlama etuk shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Prezidentimizning va hukumatimizning kabul kilayotgan me'yoriy hujjatlarida malakali pedagogik kadrlar tayyorlash hamda o'rta ta'lim muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi qaror va farmonlari o'qituvchi-kadrlarning ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi, interfaol uslublarni o'quv jarayoniga joriy etishda muhim omil bo'lmoqda. Ana shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarga zamonaviy bilim berish va ularda amaliy ko'nikmani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy axborot texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ta'lim sifatini oshirishda quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada bo'ladi.

«Zinama-zina» texnologiyasi talabalarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Talabalar bu texnologiya orqali guruhlarda ishlashga o'rganadilar, o'tilgan mavzuni sub'ekt o'qitish orqali mustahkamlaydilar.

“Baliq skeleti” texnologiyasi orqali talabalar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda talabalar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga echilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi

“Venn diagrammasi” o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

“Didaktik o'yinli texnologiyalar” talabalarining bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olish borishdan iborat. Didaktik o'yinlar musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o'qituvchi didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yo'llari, o'yin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini aniqlab oladi.

Didaktik o'yin darslari ta'lim va tarbiya berish, talabalar faoliyatini yo'naltirish, kasbga yo'naltirish, talabalarining muloqat va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsini rivojlantirish vazifasini bajaradi. Didaktik o'yinli darslarni

¹⁸¹ <https://devedu.uz/article>. Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar vas ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi.

mazmuniga ko‘ra sahnalashtirilgan rolli o‘yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o‘yinlari, konferensiya va o‘yin mashqli darslarga ajratish mumkin.

Xullas, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o‘tilgan darsda talabalar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllanadi. Bu ta’lim sohasida katta yutuqlarga olib keladi, uning uzluksizligini, ketma – ketligini va dunyo ta’lim tizimiga integratsiyasini ta’minlaydi, sifatli ta’lim va mutaxassis kadrlar tayyorlashni yaxshilaydi.

ВНУТРЕННИЙ МОНОЛОГ КАК СРЕДСТВО РАСКРЫТИЯ ДУШЕВНОГО СОСТОЯНИЯ ГЕРОЯ (М. Ю. ЛЕРМОНТОВ «ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ»).
ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ДАННОЙ ТЕМЫ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В ШКОЛЕ.

Бегматова Ф.-Магистрант 1 курса НавГПИ
Научный руководитель: доц. Рахманова А.Х.

Annotation: This article considers the method of internal monologue as a means of revealing the state of mind of the literary hero, identified its functions, the role of digital technology in the study of this topic in the literature classes at school. Besides, there is a brief analysis of psychologism in the works of M. Lermontov and the significance of the inner monologue in his novel “A Hero of Our Time” is revealed.

Keywords: inner monologue, introspection, indirect speech, speech contamination, psychology, psychological portrait, psychological analysis, psychological landscape, digital technologies.

Часто при изучении творчества поэтов и писателей мы сталкиваемся с таким понятием, как внутренний монолог. В «Словаре литературоведческих терминов» С. П. Белокурова ему даётся следующее определение: «Внутренний монолог - художественный приём психологизма: воспроизведение речи действующего лица, обращённой к самому себе и не произнесённой вслух. Он отражает душевное состояние персонажа как поток чувств, образов, воспоминаний, в котором могут отсутствовать логика, смысловая и синтаксическая упорядоченность».¹⁸² Монолог внутренний и монолог произнесённый - это далеко не одно и то же: первому характерна психологическая глубина, максимальная открытость и честность, ведь именно через мысли человек проявляет свою истинную сущность. Внутренний монолог у писателей-реалистов был методом выявления существенного в человеке, а именно того, что скрыто от людских глаз.

М. М. Бахтин, выдающийся литературовед, филолог, теоретик искусства, определяет внутренний монолог как «результат взаимодействия и взаимопроникновения речи автора и речи персонажа (чужой речи)».¹⁸³ Средства и способы раскрытия внутреннего мира персонажа литературного произведения переплетаются с его интроспекцией - самонаблюдением, направленным на фиксацию эмоций, чувств, ощущений, а также хода мыслей. Интроспекцию автор представляет читателям при помощи такого приёма изложения, как несобственно-прямая речь, важной чертой которой Бахтин считал «двуголосость».¹⁸⁴ При передаче чужой речи, которая исходит непосредственно от самого персонажа, автор не может быть целиком оттеснён, в результате чего получается наложение одного голоса на другой, некая речевая контаминация. Внутренний монолог

¹⁸² С. П. Белокурова. Словарь литературоведческих терминов/Санкт-Петербург: Паритет, 2006. - с. 32.

¹⁸³ Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979. - с. 118.

¹⁸⁴ Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. М.: Худ. лит., 1975. - с.117.

является одной из разновидностей несобственно-прямой речи и определяется как единственная состоятельная форма выражения потока сознания персонажа.

В творчестве М. Ю. Лермонтова, гениального русского поэта первой половины XIX-века, прозаика, драматурга, художника, психологизм занимает значительное место. Исповедь, то есть собственный рассказ героя о своих мыслях, чувствах, переживаниях, является одним из способов психологического анализа в произведениях писателя. *“История души человеческой, хотя бы самой мелкой души, едва ли не любопытнее и не полезнее истории целого народа, особенно когда она следствие наблюдений ума зрелого над самим собою...”*¹⁸⁵ - пишет Лермонтов в «Предисловии» к «Журналу Печорина», и это есть определение основной темы самого произведения - первого в русской прозе социально-психологического романа «Герой нашего времени».

Приём внутреннего монолога помогает автору раскрыть характер Григория Печорина, главного героя романа, сознание и мир души которого являются объектом изображения в произведении. Все свои чувства, мысли, переживания, анализ собственных и чужих поступков Печорин описывает в дневнике, или «Журнале», как его называет сам Лермонтов. Так почему же Печорин предпочитает «рассказывать» всё самое сокровенное, что есть в его душе, бумаге? Почему наш герой по-настоящему раскрывается не в диалогах с людьми, а именно в «общении» с этим дневником? Автор говорит нам, что таким образом Печорин пытается разгадать самого себя, понять, кто он есть на самом деле: *“Я давно уж живу не сердцем, а головою. Я взвешиваю, разбираю свои собственные страсти и поступки с строгим любопытством, но без участия. Во мне два человека: один живёт в полном смысле этого слова, другой мыслит и судит себя”*.¹⁸⁶

Благодаря приёму внутреннего монолога мы видим, что Печорин, несмотря на своё скептическое отношение к жизни, человек глубоко чувствующий, страдающий: *“Я был готов любить весь мир, - меня никто не понял: и я выучился ненавидеть. Моя бесцветная молодость протекала в борьбе с собой и светом; лучшие мои чувства, боясь насмешки, я хоронил в глубине сердца: они там и умерли...”*¹⁸⁷ Душа Печорина «испорчена» светом, вся его жизнь - расплата за собственные поступки. Полна противоречивости его личность, к тому же, она невероятно сложна. Григорий Александрович часто задавался вопросом своего появления на свет, не понимал, для какой цели родился. Он считал, что «играет роль топора в руках судьбы», то есть его назначение - «казнить» всех тех людей, с которыми ему доводилось встречаться в жизни. Печорин рассуждает об этом настолько иронично, что можно подумать: он гордится тем, сколько судеб разрушил. Но нет, он очень страдал от этого, он презирал самого себя...

По мере проникновения в мысли нашего героя, мы начинаем понимать, что он такой человек, к которому мы не должны чувствовать ненависть. Очутившись в глубинах души Печорина, каждый из нас невольно начинает сопереживать ему и даже испытывать к нему чувство жалости. К этому читателей подводит приём внутреннего монолога, который в сочетании с такими формами психологизма, как психологический портрет, психологический анализ, психологический пейзаж, помогает понять истинную сущность героя, пропустить через себя все то, что так сильно его мучит.

Одна из самых эффективных цифровых технологий, применяемых на уроках литературы в школе, - это презентации Microsoft PowerPoint. Мультимедийные проекты способны долго удерживать внимание учащихся, так как содержат в себе яркие изображения, звук, динамику. Такие непростые для детского и подросткового возраста темы, как представленная нами выше, требуют детального разбора со стороны учащегося. Презентации же облегчают процесс восприятия и анализа новой информации, развивают

¹⁸⁵ Лермонтов М. Ю. Стихотворения; Поэмы; Маскарад; Герой нашего времени. - М.: Худож. Лит. 1984. - с. 398.

¹⁸⁶ Лермонтов М. Ю. Стихотворения; Поэмы; Маскарад; Герой нашего времени. - М.: Худож. Лит. 1984. - с. 467.

¹⁸⁷ Лермонтов М. Ю. Стихотворения; Поэмы; Маскарад; Герой нашего времени. - М.: Худож. Лит. 1984. - с. 442.

творческое мышление детей.

Список литературы:

1. Лермонтов М. Ю. Стихотворения; Поэмы; Маскарад; Герой нашего времени. - М.: Худож. Лит. 1984. - 492 с.
2. Удодов Б. Т. Роман М. Ю. Лермонтова «Герой нашего времени». М.: Просвещение, 1989. - 191 с.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979. - 421 с.
4. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. М.: Худ. лит., 1975. - 500 с.
5. С. П. Белокурова. Словарь литературоведческих терминов. Санкт-Петербург: Паритет, 2006. - 314 с.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI Voxidova L.Ġ. -Karmana tumani 18-maktab. O'zbekiston

Annotation. This article is in primary education physical education to improve the health of children describes the methods of organization in areas.

Ma'lumki, buyuk davlatni faqat so'g'lom millat so'g'lom avlodgina qura oladi. Bugungi kunda biz o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom bo'lib ulg'ayishida jiddiy o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz. Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash hamda o'qitish shart-sharoitlari ularning salomatligini shakllantirishda o'rni katta. Gigiyenik jihatdan to'laqonli yashash muhiti maktablarimizning obodligi hamda sanitar holati bilan belgilanadi.

Jismoniy salomatlik: organizmda o'z-o'zini boshqarishning mukammalligi, fiziologik jarayonlarning uyg'unligi, atrof-muhitga maksimal darajadagi moslashuv; psixik salomatlik: yuksak ong, rivojlangan tafakkur, yaratuvchanlik faoliyatiga chorlovchi katta ichki vama'naviy kuch, umumiy ruhiy xotirjamlik maqomi, muvofiq ahloqiy reaksiyaga asoslangan psixik sohaning holati. ijtimoiy salomatlik: bu har bir kishi uchun jamiyatning, shuningdek, atrof-muhitning sog'lomligi; ma'naviy salomatlik- bu hayot faoliyatidagi motivatsion hamda ehtiyojxaborot sohasi xususiyatlarining majmuasi bo'lib, uning asosini jamiyatdagi shaxsning qadriyatlar, axloqiy yo'nalish va motivlari tizimi belgilaydi.

Ma'naviy salomatlik – qadriyat va etiqodlar tizimi. “Salomatlik” tushuncha-sini ta'riflashda ham individual, ham ijtimoiy tavsiflardan foydalaniladi. Shaxsga nisbatan u organizmning tashqi muhit sharoitiga moslashishi sifatini aks ettiradi va inson hamda yashash joyi orasidagi o'zaro munosabatlar jarayonining yakuni bo'lib maydonga chiqadi.

Salomatlikning tarkibiy qismlarini bunday ajratish ma'lum darajada shartli, lekin u bir tomondan shaxs faoliyatining turlicha namoyon bo'lishi orasidagi munosabatlarning ko'p o'lchamliligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan inson hayot faoliyatining alohida yashash uslubini tashkil etishga yo'naltirilgan har xil tomonlarini yanada to'laroq tavsiflab berish uchun imkon yaratadi. Inson salomatligi, birinchi navbatda hayot uslubiga bog'liq. Bu uslub har bir insonning faqat o'ziga xos, u quyidagilar bilan belgilanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy omillar;
- tarixiy omillar;
- milliy va diniy an'analar, e'tiqodlar;
- shaxsiy moyilliklar.

Sog'lom turmush tarzi insonning salomatlik uchun optimal bo'lgan sharoitlarda kasbiy, ijtimoiy, oilaviy hamda maishiy vazifalarini bajarishiga yordam beradigan hamma narsani birlashtiradi va shaxsning individual hamda ijtimoiy salomatlikni saqlash va

mustahkamlashga intilishlari yoʻnalishini belgilaydi.

Sogʻlom turmush tarzi – bu:

- qulay ijtimoiy muhit;
- psixik-axloqiy bekamu koʻstlik;
- optimal harakatlanish rejimi (harakatlanish madaniyati);
- organizmni chiniqtirish;
- toʻgʻri ovqatlanish;
- shaxsiy orastalik (gigiyena);
- zararli odatlardan (chekish, alkogolli ichimlik, giyohvand moddalar isteʼmol qilish) voz kechish;
- ijobiy hissiyotlar.

Salomatlikni mustahkamlash texnologiyalar - shaxsiy yoʻnaltirilgan yondashuv asosida amaliyotga tadbiiq etiladi. Shaxsiy rivojlantiruvchi vaziyatlar asosida amalga oshirilgan ekan, ular shunday hayot uchun muhimomillar sirasiga kiradiki, ular tufayli oʻquvchilar birga yashash va samaralihatkorlik qilishga oʻrganadilar. Oʻquvchining muloqot va faoliyat sohasini asta-sekin kengaytirib borish, oʻz-oʻzini boshqarishni (tashqi nazoratdan ichki oʻz-oʻzini nazorat qilishga) rivojlantirish, tarbiyalash va oʻz-oʻzini tarbiyalash, oʻz salomatligi, boshqa kishilarning hayoti va salomatligi uchun javobgarligini shakllantirish asosida oʻzlikni anglash va faol hayotiy nuqtai nazarni shakllantirish orqali egallanadigan salomatlikni ehtiyotlash tajribasini yuzaga keltirish, ijobiy munosabatlar madaniyatini egallashda oʻquvchining faol ishtirok etishi koʻzda tutiladi.

Salomatlikni ehtiyotlash pedagogikasi taʼlim va tarbiya orasidagi munosabatlarni oʻzgacha tartibga soladi, tarbiyani bolaning salomatligini saqlash va uni oshirishga yoʻnaltirilgan, insonni yuzaga keltiruvchi va hayotni taʼminlovchi jarayonlar doirasiga olib kiradi. Salomatlikni mustahkamlash pedagogic texnologiyalar bolaning axloqiy va estetik hissiyotlari, faoliyatidagi ehtiyojlari, kishilar, tabiat, sanʼat bilan muloqotning dastlabki tajribasini egallash kabi qobiliyatlarini rivojini taʼminlashi kerak. Salomatlikni shakllantiruvchi taʼlim texnologiyalari-oʻquvchilarda salomatlik madaniyatini, uni saqlash va mustahkamlashga koʻmaklashadigan shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga, salomatlikni qadriyat deb tushunish, sogʻlom turmush tarzi yuritish ehtiyojini shakllantirishga yoʻnaltirilgan dastur va usullardir.

uchinchi jildi: oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da’vo, iqrar bo‘lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo‘lish,

pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, valiylik, majbur qilish, homiylik, bosqinchilik xususidagi masalalarga;

to'rtinchi jildi: shafe'lik, meros taqsimlash, dehqonchilik va bog'dorchilik xususidagi shartnoma, qurbonlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq va qo'riq erlarni o'zlashtirish xususida, ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalarga bag'ishlangan.

Boy tarixiy tajribani o'zida mujassamlashtirgan ushbu shariat huquqlari asrlar davomida kishilar o'rtasidagi munosobatlarda insonparvarlik, adolat barqaror bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu qoidalar hozirgi kunda ham insonlarda yaxshi xislatlar shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini keltirish o'rindir. Xususan, unda tijorat ishlarida adolat, to'g'rilik, halollik, insonparvarlik qoidalariga rioya qilish nihoyatda zarur ekani qayd qilinadi. Bu ishda birovning haqiga xiyonat qilish, kishilarni aldash gunohi azim sifatida ta'riflanadi. Shuning uchun ham "Al-Hidoya" asari islom olamida eng mo'tabar huquqiy qo'llanma sifatida sakkiz asrdan buyon Hind yarim oroli, Turkiya va Arab mamlakatlari uchun eng ishonarli manbalardan biri vazifasini o'tab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda ham islom shiati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi hamda ushbu asar musulmon dunyosida shariat hukmlari zaminida yuksak ma'naviy-insoniy fazilatlarni shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat etdi va etmoqda.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Акрамова Н.Я. – преподаватель кафедры Русского языка и литературы

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности применения инновационных педагогических технологий в учебном процессе. Дается оценка этапов инновационного развития учебного процесса.

This article discusses the features of the using innovative pedagogical technologies in the educational process. An assessment of the stages of innovative development of the educational process is given.

Ключевые слова: инновации, инновационная образовательная технология, активные и интерактивные формы.

Использование в педагогической деятельности различных образовательных технологий позволяет преподавателям повысить мотивацию обучающихся, профессионально-практическую направленность занятий, а, следовательно, добиваться гарантированных запланированных результатов в своей профессионально-педагогической деятельности. В настоящий момент педагоги применяют самые различные педагогические инновации. Этот процесс сопровождается существенными изменениями в педагогической теории и практике учебно-воспитательного процесса. Содержание образования обогащается новыми процессуальными умениями, развитием способностей, оперированием информацией, творческим решением проблем науки.

Инновации характерны для любой профессиональной деятельности человека и поэтому естественно становятся предметом изучения, анализа и внедрения. В настоящее время современное общество предъявляет новые требования к личности специалиста в любой сфере деятельности. Он должен обладать такими качествами, как мобильность, конкурентоспособность, компетентность, готовность к постоянному профессионально-личностному развитию, к самообразованию и саморазвитию. Кроме того, ему необходимо иметь инновационный тип мышления, обладать творческой индивидуальностью, быстро

адаптироваться к изменяющимся условиям работы. Говоря об инновационных подходах к образованию, необходимо остановиться на таких понятиях, как «педагогическая технология», «инновация», «инновационная образовательная технология», «инновации в образовании». Внедрение инновационных технологий в образовательный процесс будет способствовать повышению эффективности образования, следовательно, более качественную подготовку будущих специалистов.

В развивающихся образовательных системах инновационные процессы реализуются в следующих направлениях: формирование нового содержания образования, разработка и внедрение новых педагогических технологий, создание новых видов учебных заведений.

Выделяют следующие направления инновационных педагогических технологий:

1. Инновационное содержание, способствующее развитию компетенций, общей и профессиональной культуры всех субъектов образования (педагогов и обучающихся).

2. Активные и интерактивные формы, методы, средства обучения и воспитания, направленные на развитие компетенций и эффективное взаимодействие всех субъектов образования.

3. Способы внедрения инновационных технологий в образовательный процесс на основе гуманистической, информационной, технологической, организационной и коммуникационной составляющей.

Эти направления включают в себя инновационные образовательные технологии, что предполагает повышение качества и содержания образовательного процесса.

Педагогическая технология — это система проектирования и практического применения адекватных данной технологии педагогических закономерностей, целей, принципов, содержания, форм, методов и средств обучения и воспитания, гарантирующих достаточно высокий уровень их эффективности. Процесс разработки педагогической технологии предполагает проектирование содержания дисциплины, форм организации учебного процесса, выбор методов и средств обучения.

К инновационным технологиям обучения относят:

- Интерактивные технологии обучения: В психологической теории обучения интерактивным называется обучение, основывающееся на психологии человеческих взаимоотношений. Технологии интерактивного обучения рассматриваются как способы усвоения знаний, формирования умений и навыков в процессе взаимоотношений и взаимодействий педагога и обучаемого как субъектов учебной деятельности. Сущность их состоит в том, что они опираются не только на процессы восприятия, памяти, внимания, но, прежде всего, на творческое, продуктивное мышление, поведение, общение.

- Технологии проектного обучения: Технология проектного обучения рассматривается как гибкая модель организации учебного процесса в системе среднего профессионального образования, ориентированная на творческую самореализацию личности обучающегося путем развития его интеллектуальных и физических возможностей, волевых качеств и творческих способностей в процессе создания новых товаров и услуг.

- Компьютерные технологии обучения — это процессы сбора, переработки, хранения и передачи информации обучающемуся посредством компьютера. На современном этапе во многих профессиональных учебных заведениях разрабатываются и используются как отдельные программные продукты учебного назначения, так и автоматизированные обучающие системы по различным учебным дисциплинам. Данный метод предполагает овладение технологией презентации различных творческих работ (отчетов, обзоров, рефератов, докладов на профессионально ориентированные темы).

Инновации в образовательной деятельности — это использование новых знаний, приёмов, подходов, технологий и методов активного и интерактивного обучения.

Внедрение в образовательный процесс современных инновационных педагогических технологий позволяет отработать глубину и прочность знаний у обучающихся, закрепить умения и навыки в различных областях деятельности, а также развивать технологическое мышление, умения самостоятельно планировать свою учебную, самообразовательную деятельность.

Таким образом, применение инновационных педагогических технологий эффективно отражается на качестве образовательного процесса. Данные технологии способствуют повышению уровня усвоения знаний, учат студентов творчески мыслить, применять теорию на практике, развивают самостоятельность мышления, умение принимать оптимальные в условиях определенной ситуации решения. Использование разнообразных инновационных педагогических технологий и приемов активного обучения пробуждает у студентов интерес к самой учебно-познавательной деятельности, что позволяет создать атмосферу мотивированного, творческого обучения и одновременно решать целый комплекс учебных, воспитательных, развивающих задач. Кроме того, инновации должны стать основным инструментом улучшения качества образования в современном образовательном учреждении.

Литература:

1. Инновационные педагогические технологии: Учебно-методическое пособие / Сост. Т.П. Ильевич. – Тирасполь, 2016. – 100 с.
2. Латыпова, Р.Ф. Проектная деятельность учащихся как средство развития творческих способностей [Электронный ресурс] //www.nsportal.ru
3. Гурьянова, А.В. Компетентностный подход в образовании [Электронный ресурс] //Режим доступа <http://naukarus.com>

ТАСАВВУФГА ОИД МУҲИМ МАНБА

Гуламова М.- таянч докторант. БухДУ. Ўзбекистон

Annotation: The following article is dedicated to the philosophical analysis of the treatise “Faslul khitab” of the prominent representative of the tariqat of Naqshbandiyya sufi scholar, Khoja Muhammad Porso .

Key words: Sufism, contemplation, science, honesty, mature man, moral maturity, soul health, tarikat, student, spiritual maturity.

Тасаввуфдаги нақшбандия тариқатининг йирик вакили , назарийтчиси ва тарғиботчиси Муҳаммад ибн Муҳаммадт ибн Маҳмуд ал-Ҳофиз ал-Бухорийнинг (1348-1420) манбаларда ёзилишича 20 дан ортиқ асарлари мавжуд.

“**Фаслу-л-хитоб би вусул-л-аҳбоб**” (“**Дўстлар васлига етишда хал қилувчи қарор**”) асари унинг сермахсул ижодининг ўзига хос ўринга эга бўлган асарларидан биридир.. Шу билан бирга у айна шу асари орқали ислом оламида ва Ғарб дунёсида маълум ва машҳурдир. Асар жуда катта ҳажмга эга бўлиб, 494 та масалага бағишланган. Мазкур манба ислом уламулари орасида ўз вақтида қўлланма сифатида фойдаланилган. Хожа Муҳаммад Порсога тегишли бу нодир асар мутасаввифнинг бутун умри давомида ўзлаштирган билим ва тажрибалари, ўз хулосалари, шариат ва тариқатда муаммоларга сабаб бўлган мазҳабий баҳс ва мунозаралар, нақшбандийликнинг ирфоний, ваҳдату-л-вужуд таълимотининг турли муаммоларига, Қуръоний оятлар, ҳадислар устида бўлган ихтилоф ва тушунмовчиликларни бартараф қилишга бағишланганлиги билан эътиборга моликдир. Немис шарқшунос олими Юрген Пауль бу асарни қомусий¹⁹⁵ асарлар қаторига киритади. Бу нодир асарнинг қўлёзма нусхаларидан бири “Нақшбандия тариқати музейи”

¹⁹⁵ Хисматулин А.А. Суфизм в Центральнй Азии. Санг-Петербург, 2001. –С. 119.

фондида сақланади. Китоб 1443 йилда кўчирилганлиги тўғрисида маълумот бор. Бундан билиш мумкинки, муаллиф вафотидан йигирма йил ўтиб ушбу қўлёзма кўчирилган. Ундан ташқари ЎЗРФА ШИ қўлёзмалар фондида ҳам ушбу асарнинг нусхаларидан бири № 3133, 4335 рақамлари остида сақланади. Китоб кириш ва хотимадан ташқари 8 фаслдан иборат. Фасллар алоҳида келтирилган: Асар Қуръон илмларига доир муаммонинг ечими билан бошланади. Ундан сўнг “Дар баёни улуми суфия ва шарҳе калимоти он”, (“Сўфийлик илмлари ва уларнинг сўзларининг шарҳи баёни”), “ас-Сирот ал-Мустақим” (“Тўғри йўл”). “Рўё ва маърифат”, “Мўжизот ва каромот”, “Уқубот” (“Оқибатлар”), “Дар баёни аҳли маломат” (“Маломатийлар ҳақида”), “Фазойили аҳли байт ва хулафо”, (“Аҳли байт ва халифаларнинг фазилатлари ҳақида”), “Дар баёни аҳволи ақтоб”, (“Қутбларнинг аҳволи баёни”), каби фасллардан иборат бўлиб хотима қисми Хожагонлар одоби ва шамойили Ҳамадонийга бағишланган. Мазкур асарнинг Эронда чоп этилган нашри 817 бетни ташкил этади. Биздаги қўлёзма эса 675 бетдан иборат.

Асарда тафсир илми бўйича 12 та манба, ҳадис илми бўйича 12 та манба, фикҳ ва усул бўйича 22 та манба, калом илми бўйича 13 та манба, тасаввуф ва ирфон бўйича 29 та манба, тарих ва тасаввуф тарихи бўйича 9 та манба, ҳадис ва тасаввуф улугларига оид 9 та манба, ахлоқ ва одобга оид 6 та манба, сийра ва шамойилга оид 4 та манба, луғат ва маъношунослик бўйича 4 та манба, фалсафий-таълимий шеърият бўйича 3 та манбадан, шунингдек 3 та муқаддас китобдан фойдаланилган. Демак, “Фасл ул-хитоб”да мурожаат қилинган ёки фойдаланилган манбалар турли илм соҳаларига ажратиб таснифланса, каттагина феҳрист ҳосил бўлар экан”¹⁹⁶. Шунингдек унда 120 ортиқ муаллифлар асарларига мурожаат қилинган. Хожа Муҳаммад Порсонинг тасавуфий-фалсафий концепцияси ушбу асарда ёрқин кўзга ташланади.

Хожа Муҳаммад Порсо “Фаслу-л-хитоб” асари Қуръони Каримнинг “Оли Имрон” сураси 7-оятти хусусидаги фикр ва унинг тафсири борасидаги масалалари билан бошланади. Шу ўринда асарнинг кириш қисми “тафсир ва таъвил” тушунчаларига бағишланган. Қуръон оятларининг дастлабки шарҳловчиси Муҳаммад пайғамбар ҳисобланади Хожа Муҳаммад Порсо фикрига кўра, илмида собитлар илмнинг олий даражасига етган кишилардир. Улар илмда собит бўлганлари учун кўп нарсдан бохабар бўладилар ва шу боисдан ҳам муташобих оятларга иймон келтирдик, барчаси яъни оятларнинг муҳками ҳам муташобихи ҳам “Парвардигоримиз хузуридан дир” дейдилар. Дарҳақиқат, зўр олимлар ўзларининг илмий чегараларини аниқ тушуниб етадилар, Аллоҳнинг илми чегарасиз эканини яхши биладилар. Ҳамда ўрни келганда ҳеч иккиланмай, ўзларининг ожиз жойларини эътироф қиладилар. Аммо ҳақиқий илмдан бебаҳра, чаласавод кишилар эса, ўзлари билган озгина нарсани дунёдаги бор илм- шу, деб тушунадилар ва ундан бошқа ҳамма нарсани инкор этиб, ўзини ҳам, ўзгаларни ҳам оввора қиладилар. Шу маънода Хожа Муҳаммад Порсо “Илм ар-Росихун” ни (“Илми амали бўлган кишиларни шу тушунча билан ифодалаганлар”) шундай таърифлайди: “Илмида собитқадамлар улар илми амали бўлган олим ва ўз илмида тўрт нарсага эришганлардир: бу ўзи ва Аллоҳ ўртасида тақвога, ўзи ва халқ орасида тавозеъга, ўзи ва дунё ўртасида зухдга ҳамда ўзи ва нафси ўртасида мужоҳадотга эришганлардир”¹⁹⁷.

Пайғамбар Муҳаммад вафотидан сўнг исломдаги шийа ва сунний бўлинишлар, турли фирқа ва оқимларнинг вужудга келиши ўз ўрнида исломий илмлардаги баъзи муаммоларни ҳам келтириб чиқарган эди. Айниқса, Қуръон оятларини шарҳлаш турли даврларда ижтимоий-сиёсий ва этник жараёнларда ўзаро бир-биридан фарқ қилади. Бу масалаларда Хожа Муҳаммад Порсо яшаган давр ҳам, Мовароуннаҳр ҳам бундан мустасно

¹⁹⁶Холмўминов ж. Хожа Муҳаммад Порсо ва унинг фасл-ул-хитоб асари. Бунёд-Э андишэ-йэ Эслоний. -Техрон. 2001. 177-195. б.

¹⁹⁷Хожа Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Таржима Н.Б. –Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42. 1443.-Б.3.

эмас. Муфассирлар турли миллий кадриятларга мансуб муаллифлар эдилар. Улар Миср, Хуросон, Ҳиндистон, Испания ва Мовароуннаҳр ўлкаларига мансуб бўлишган. Тафсирга бўлган турли хилдаги ёндашув ва ундаги турли йўналишларнинг ривожига бевосита ўз даври ғоялари билан чамбарчас боғлиқдир.

Ислом таълимотида тафсир катта аҳамият касб этиб келган. Машҳур муфассир Ибн Касир ўзининг “Тафсири Ибн Касир” китобида тафсирнинг тўрт тури борлигини қайд этган. Унинг фикрига кўра, “тушуниш узрли бўлмаган тафсир”, “араблар ўзи тушунадиган тафсир”, “Илму-росихинлар (илмида собитқадамлар) тушунадиган тафсир”, “Аллоҳдан бошқа ҳеч ким тушунмайдиган тафсир” турлари мажуд¹⁹⁸.

Юқорида таъкидланганидек, Хожа Муҳаммад Порсо таъвил ва тафсир тушунчаларини куйидагича изоҳлайди: “ва қийла ат-тафсир кашфу зоҳири калом ва ат-таъвил кашфу ботинихи”¹⁹⁹ “яъни, айтадиларки, тафсир сўзнинг зоҳирини кашф қилиш ёки очиш, таъвил эса сўзнинг ички маъносини кашф этиш, ойдинлаштиришдир. “Мазкур фикрларни аллома тушунарли бўлиши учун ўша даврга хос жиҳатдан форс тилида соддароқ тушунтиришга ҳаракат қилади: “тафсир равшан қардани рўйи суҳанастан ва таъвил пайдо қардани мағзи суҳанастан”²⁰⁰, Демак, “тафсир сўзнинг юзаки маъносини ойдинлаштириш, таъвил эса сўзнинг мағзи, ички маъно, моҳиятини очиш” дир. Хожа Муҳаммад Порсо “Фаслу-л-хитоб” асарини ёзишда форс ва араб тилларидан кенг фойдаланган баъзи сўзлар эски тожик тилида истефода этилган. Араб тили қийинроқ бўлганлиги сабабли керакли ўринларда форс тилида изоҳ беришдан мақсад гапнинг моҳияти ва мазмунини аниқ ва теранроқ очиб бериб ўқувчига енгиллик яратишдан иборат бўлган дейиш мумкин.

Демак, Тафсир бу сўз маъноси шундай-яъни Қуръондаги жумлаларни-Аллоҳ шуни қасд қилган деб, қатъий айтишлиқдир. Агар шу гапга қатъий далил бўлса-тўғри тафсир бўлади. Агар далил бўлмаса раъйига кўра тафсир қилган бўлади. Таъвил эса кўпгина эҳтимолларнинг ичидан бирини танлаб, қатъийлик билан кўрсатмасликдир. Шунинг учун ҳам таъвилда кўпқиррали маънолар бўлиб, унга қатъий деб, бўлмайди. Таъвил Қуръонни рационалистик ва рамзий, мажозий услуб ёрдамида изоҳлаш ёки шарҳлаш. Таъвил атамаси Қуръондан олинган бўлиб, муфассирлар шарҳига кўра у саккиз марта туш таъбирида “таъбири ар-руйа” да Юсуф сурасида тўққиз марта учрайди.

“Фаслу-л-хитоб” Жалил Мисгарнажод томонидан ўрганилган ва 2002 йилда Эронда қайта нашр қилинган.

Хожа Муҳаммад Порсо нақшбандия тариқатининг вакили ва йирик назариётчиси ва Баҳоуддин Нақшбанднинг ҳаёти унинг ғоя ва қарашларини кенг жамоатчиликка етиб келишига имконият яратган буюк алломадир.

ТАЛАБАЛАРДА ФУҚАРОЛИК ВА УМУММАДАНИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ **Қандахаров Қ.Ҳ.- тадқиқотчи, НавДПИ Ўзбекистон**

Annotation: this article analyzes the issues such as the analysis of pedagogical and psychological aspects of the processes of using electronic environment in the development of civil and general-purpose competences in students on the basis of innovative approaches, the use of electronic environment in the development of civil and general-purpose competences in students,

¹⁹⁸ Ибн Касир. Тафсири Ибн Касир. Таржима (Б. Н.). I. жилд. – Миср, Искандария, 1995.-Б.327.

¹⁹⁹ Хожа Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Таржима Н.Б. –Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42. 1443.-Б.7.

²⁰⁰ Хожа Муҳаммад Порсо. Фаслу-л-хитоб. Қўлёзма. Таржима Н.Б. –Бухоро: Когон, нақшбандия тариқати музейи фонди. Инв.42. 1443.-Б.7.

improvement of the quality and effectiveness of professional training. Also, the process of using the electronic environment for the development of civil compensations in students by optimizing the requirements of universal competency to the requirements of social order has been discussed.

Калим сўзлар: ҳуқуқий онг, ҳуқуқий маданият, фуқаролик позицияси, компетентлик, қадриятлар, оммавий маданият

Ўзбекистон Республикасида ўз ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда мажбуриятларини нафақат яхши билувчи, бу ҳуқуқ ва эркинликларини амалга ошира оладиган ва ўз мажбуриятларига виждонан ёндашадиган, бошқаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳурмат қила оладиган, юксак ҳуқуқий маданиятли, фаол фуқаролик позициясига эга бўлган ёшлардан ташкил топган жамиятни шакллантириш давлат сиёсати даражасидаги масалалар сирасига киради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони билан тасдиқланган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси мамлакатнинг давлат ва жамият ривожланиши истиқболлини стратегик режалаштириш тизимига сифат жиҳатидан янги ёндашувларни бошлаб берди. Ҳаракатлар стратегиясининг иккинчи устувор йўналишининг 4 бандида “...аҳолининг ҳуқуқий маданияти ва онгини юксалтириш” [1. 4;], асосий устувор йўналиш сифатида қаралган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” [2. 12;] номли маърузасида ёшларни фуқаролик жамиятида яшашга тайёрлаш, уларда фаол ижтимоий фуқаролик позициясини ривожлантириш, умумий маданиятини шакллантириш вазифаси белгилаб берилди.

“Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонида ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда, энг аввало, ҳуқуқий таълим ва тарбия борасидаги ишлар тизимли ва узвий олиб борилмаётгани танқид қилинди. Яъни, “Ёшларнинг ҳуқуқий тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи омилларга нисбатан фуқаролик компетенцияларини шакллантириш, ҳар бир шахсда қонунларга ва одоб-ахлоқ қоидаларига ҳурмат, миллий қадриятларга садоқат, ҳуқуқбузарликларга нисбатан муросасизлик ҳиссини уйғотиш ишига комплекс тарзда ёндашилмади” [3. 6;]. Президент фармонида «Юксак ҳуқуқий маданият — мамлакат тараққиёти кафолати» деган концептуал ғоя асосида “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш” Концепцияси ишлаб чиқилди. Унда: “Аҳолининг барча қатламлари ҳуқуқий саводхонликка эришиши, мустаҳкам иродали, ўз ҳуқуқларини билладиган ва қонунларни ҳурмат қиладиган, ҳуқуқий билимларини кундалик ҳаётда қўллай оладиган, фаол фуқаролик позициясига эга бўлган ва ҳуқуқбузарликка нисбатан муросасиз муносабатда бўладиган фуқароларни тарбиялашнинг кенг қамровли мунтазам тизимини яратиш Концепциянинг асосий мақсадидир [3. 6;]” – дейилган. Бу эса олий таълим муассасаларида фаол фуқаролик позициясига ва ҳуқуқий маданиятни шакллантиришда ўқув дарслар давомида янги педагогик технологияларда фойдаланиш имкониятларини илмий тадқиқ қилиб, янги, замонавий шакллари яратиш, ушбу жараённинг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилиш, модернизациялаштириш ва такомиллаштириш чора-тадбирларини ишлаб чиқишни талаб қилмоқда.

Ижтимоий фаол фуқаролик компетенция-давлат ва жамиятда содир бўлаётган воқеа ва ҳодисаларга даҳлдор бўлиш, бу жараёнларда фаол иштирок этиш, ўзининг фуқаролик ҳуқуқ ва бурчларини аниқ билиш, уларга риоя қилиш, умуммаданий кўникмаларни намоён эта олиш, ҳуқуқий маданиятга эга бўлиш демақдир.

Талабаларда фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш бугунги куннинг долзарб масалалари сирасига киради, чунки, бугунги кунда бир қатор деструктив гуруҳлар бутун дунё мамлакатлари худудларида фаолият юритиб, бу давлатлар сиёсий, ижтимоий-маданий, маърифий ҳаётида бир қанча муаммолар туғдириб келмоқда. Маълумотларга кўра, йилдан-йил амалга оширилаётган террорчилик ҳаракатлари сони ортиб бормоқда, биргина 2018 йили дунёда 15,3 минг марта теракт содир этилган; ер юзида ҳар 40 сонияда бир киши ўз жонига қасд қилади, суицид туфайли ҳар йили деярли бир миллион инсон ҳаётдан кўз юмади[4. 3;].

Мамлакатимизда кейинги йилларда ижтимоий, маънавий, сиёсий ва иқтисодий соҳаларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар, дунёдаги глобал ўзгаришлар давлат ҳамда жамият олдига ҳал қилиниши лозим бўлган бир қатор вазифаларни қўймоқда. Деструктив ахборот оқимининг кўпаяётганлиги, маънавий-ахлоқий кадриятларнинг ўзгараётганлиги Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш борасида индивидуал, гуруҳий ва жамият даражасида тегишли ишлар олиб борилишини тақозо этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 2019 йил 12 мартдаги ҳал қилув қарорига кўра, интернет жаҳон ахборот тармоғидаги 40 номдаги ўзбек тилида юритилаётган профиль, канал ва саҳифалар экстремистик ва террористик деб топилганлиги ҳам мазкур муаммони ҳал этишнинг заруриятидан дарак бериб турибди. Давлат раҳбари Ш.Мирзиёев “Албатта, биз мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарни эгаллаган, мустаҳкам ҳаётий позицияга эга бўлган ёшларни тарбиялаш бўйича катта ишларни амалга оширмоқдамиз. Аммо ҳолисона тан олиб айтадиган бўлсак, бугунги кунда бутун дунёда аҳолининг, биринчи навбатда, ёшларнинг онги ва қалбини эгаллаш учун қандай кескин кураш бораётганини, диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, “оммавий маданият” каби таҳдидлар кучаяётганини ҳисобга оладиган бўлсак, фарзандларимиз тарбияси, маънавий-маърифий соҳадаги ишларимизни бир зум ҳам сусайтирмасдан, аксинча, уларни янги босқичга кўтаришимиз зарур[5. 17;]” дея таъкидлаб, талабаларда фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш борасида амалга оширилиши лозим бўлган вазифаларни белгилаб берди.

Ўзбекистон Республикасининг барқарорлигига, аниқроғи унинг ижтимоий, маънавий юксалишига салбий таъсир кўрсатаётган деструктив диний, экстремистик ва террористик оқимлар, гуруҳлар фаолиятини назарий-амалий таҳлил этиб, фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш, ғоя тушунчаларининг генезиси, моҳият ва мазмунига мавжуд илмий назарияларга суянган ҳолда таъриф бериш, таснифлаш, талабаларда фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш учун муайян ижтимоий-психологик асосни яратиш, такомиллаштириш ҳозирги кунда педагогика фани олдида турган муҳим вазифалардандир. Мазкур масала, яъни талабаларда фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш ижтимоий-педагогик хусусиятларини ўрганиш муаммоси алоҳида тадқиқот объекти бўлмаган. Ҳозирги вақтда деструктив ғоялар ва гуруҳларнинг вужудга келиш сабаблари, фаолият доираси кенгайишининг ижтимоий-педагогик тадқиқи долзарб назарий ва амалий аҳамият касб этади

Талабаларда фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантиришда электрон муҳитидан фойдаланиш технологиясини такомиллаштириш натижасида қуйидагиларни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим:

Замонавий илмий-техник тараққиёт, фан ва ишлаб чиқаришнинг интеграциялашуви ахборот-коммуникацион технология имкониятларидан кенг фойдаланишни тақозо этмоқда. Шундай долзарблик касб этувчи ижтимоий ҳодиса талабаларда фуқаролик ва умуммаданий компетенцияларни ривожлантиришда электрон муҳитидан фойдаланиш технологиясини такомиллаштириш эҳтиёжини туғдирмоқда, чунки бўлажак мутахассисларнинг касб фаолиятида фуқаролик даҳлдорлиги, миллий

ва умумбашарий кадрятлардан хабардор бўлиши уларнинг юксак салоҳиятли кадрлар бўлиб етишиб чиқиши гаровидир.

Бўлажак мутахассиларнинг келгусидаги касбий компетентлиги уларнинг фаол фуқаро сифатида намоён бўлишида, мамлакат тараққиёти, илму фан ривожига саъй-ҳаракатида яққол кўзга кўринади. Шу сабабли, уни ривожлантиришнинг илмий тизими самарадорлигини ошириш бўйича тадқиқотларни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилиши лозим.

Фаол фуқаролик позициясига эга бўлиш –халқимизнинг асрлар давомида яратиб келган анъаналари, одоб-ахлоқ меъёрлари, турмуш тарзи, юксак маънавияти, моддий ва маънавий бойликлари, тарихий мероси, урф-одатлари, барча тарихий ютуқлари ва сабоқларига чексиз ҳурмат-эътибор билан муносабатда бўлиш тушунилади. Ахборот-коммуникацион технологиялари ва электрон таълим муҳити ривожланиши билан, видеоконференция, ижтимоий тармоқ ва дискуссион форумлар каби воситалардан фойдаланган ҳолда, таълим субъектлари билан фаол ўзаро ҳамкорликда таълим жараёнини ташкил этиш имкониятларини кенгайтириш, уларнинг амалий фаолияти давомида татбиқ эта олиш, шунингдек, ўз давлати олдидаги бурч ва мажбуриятларини англаган ҳолда, уларни тўлиқ амалга оширишда умуммаданий компетенцияларни ривожлантириш зарур.

АДАБИЁТЛАР:

[1]. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони.

[2]. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” номли маърузаси.

[3]. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2019 й., 06/19/5618/2452-сон)

[4].

http://www.who.int/mental_health/prevention/suicide_rates/en/index.html; <https://www.janes.com>; <http://www.xs.uz/uzkr/post>

[5]. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017.

ИҚТИСОДИЙ-ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИЯ ФАНИ ВА ТАЪЛИМИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ Қодиров А.А.- таянч докторант, БухДУ

Annotation: This article focuses on the development of economic and social geography and education in Uzbekistan

Keywords: history of science, economic and social geography, International Geographical Alliance, Geographical Awakening, Geographical Education Commission, Sustainable Development, International Charter of Geographical Education.

Жаҳон миқёсида кечаётган янги шароитдаги туб ўзгаришлар барча соҳалар қатори илм-фан соҳаларининг ривожланишига ҳам кучли таъсир кўрсатмоқда. Бу ҳолат география фанининг икки муҳим тармоғидан бири бўлган иқтисодий - ижтимоий география фани ва таълимнинг ривожланишида ҳам ўз аксини топмоқда. Чунки, ушбу фан бевосита ҳудудий иқтисодий - ижтимоий муносабатларни, аниқроқ қилиб айтганда ишлаб чиқариш кучларининг ҳудудий жиҳатларини таҳлил ва ташхис этади. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, бозор иқтисодиёти муносабатлари шароитида иқтисодий - ижтимоий география ўзининг туб моҳиятига эришади. Сабаби бундай шароит ҳамма вақт чуқур иқтисодий

хамда географик фикрлашни, юкори даражадаги самарадорликни тақозо этади ва ишлаб чиқаришни худудий ташкил этиш ҳам худди шундай мақсадни кўзлайди.

Кейинги вақтларда "Географик уйғониш" деб аталадиган тушунча жаҳон таълим маконида кузатилмоқда. 1871 йилдан буён мавжуд бўлган Халқаро Географик Иттифоқ ва унинг таркибига кирувчи Географик Таълим Комиссияси ўз фаолиятининг устувор вазифаси сифатида бошланғич синфларда географик таълимнинг аҳамияти ҳақидаги ғояларни халқаро миқёсда актуаллаштиришни белгилаб олди.

1992 йилда Халқаро Географик Иттифоқ томонидан қабул қилинган Географик таълимнинг халқаро хартияси "таълим олиш ҳуқуқи юкори даражадаги географик таълим олиш ҳуқуқини ҳам ўз ичига олади", деб таъкидлагани алоҳида эътиборни тортади. ЮНЕСКОнинг XXI аср таълими бўйича тавсияларида география фани фалсафа, тарих ва чет тиллари билан бир қаторда тўртта умуминсоний билим соҳалари қаторига киритилган.

Барқарор ривожланиш учун географик таълим тўғрисида Лусерн декларациясида таълимнинг барча даражаларида ва дунёнинг барча минтақаларида география ўқув дастурларига барқарор ривожланиш парадигмасини киритиш таклиф қилинган, чунки атроф - муҳит, сув ресурслари, қишлоқларнинг ривожланиши, барқарор истеъмол, барқарор туризм, маданиятлараро тушуниш, маданий хилма-хиллик, иқлим ўзгариши, табиий офатларнинг кенгайиши, биологик хилма - хиллик ва бозор иқтисодиёти географик ўлчовга эга. Бу ҳол юкорида санаб ўтилган мавзуларни географик аспектда ўрганилиши долзарблигидан далолат беради.

Ўз асарларида машҳур олим, географ Н.Н.Баранский географиянинг фан сифатида шаклланиш жараёнини синчковлик билан ўрганиш зарурлигини ва бу фанни янада ривожлантиришнинг асосий шартлари ва йўллари белгилаш зарурлиги ҳақида ёзган эди. Мазкур масала бўйича фикр билдирган яна бир рус олими В.В.Полинов эса илм-фан тарихини ўрганишнинг мутлақ зарурлиги ҳақида ёзиб, бундай тадқиқотлар нафақат фаннинг босиб ўтган йўлни ёритади, балки кейинги тадқиқотлар йўналишини ҳам аниқлашни осонлаштиради деб айтган эди.

Шу нуқтаи назардан қараганда, мамлакатимизда иқтисодий ва ижтимоий география фанининг география фанлари тизимида шаклланиш ва ривожланиш жараёнини ўрганиш ҳам ўзига хос назарий ва амалий аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда иқтисодий ва ижтимоий география фанининг ривожланиш жараёнини турли даврларда турлича кечганлигини кўриш мумкин. Бунга турли хил табиий, ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий омиллар таъсир кўрсатган. Мазкур омилларнинг ҳар бири ўзига хос аҳамиятга эга. Ҳар қандай фаннинг вужудга келиши ва ривожланиши кўп ҳолларда ушбу мамлакат ёки худудда бундай билимларга бўлган талаб, эҳтиёж ва айниқса эътиборнинг қай даражада эканлиги билан белгиланади.

Маълумки Ўрта Осиёда география, хусусан иқтисодий ва ижтимоий географиянинг тараққиётида республикаimizдаги илмий тадқиқот муассасалари ҳамда бу ерда фаолият олиб борган олимлар томонидан асос солинган илмий мактабларнинг ҳиссаси жуда катта бўлган. Ушбу ҳолатлар мамлакатимизда иқтисодий ва ижтимоий географиянинг шаклланиш ва ривожланиш тарихини атрофлича ўрганиш, таҳлил ва ташхис қилиш, мавжуд муаммоларини аниқлаш ҳамда мазкур фаннинг келажакдаги стратегик йўналишларини белгилашда муҳим эканлигини кўрсатади.

Ўзбекистонда ушбу мавзуга оид масалаларни ўрганишга қаратилган илк тадқиқотлар XX асрнинг иккинчи ярмида пайдо бўла бошлаган. Мазкур мавзуга яқин масалалар, дастлаб, Ўрта Осиё ва унга туташ худудлар мисолида географик билимларнинг ривожланиш тарихи Х.Х.Ҳасанов, А.А.Азатьян, Р.Л. Югай, Р.У. Рахимбеков, З.Н.Донцова, А.Очилов, У.Обидов, О.Бўриев, К.И.Гадоев ва бошқалар томонидан, иқтисодий - ижтимоий география фани тараққиётининг айрим масалалари эса З.М.Акрамов, О.Б.Отамирзаев, А.С.Солиев, Ш.А. Азимов, М.И.Назаров, З.Н.Тожиева, В.Н.Федорко,

Ш.Б.Қурбонов, Ф.Т.Ражабов каби олимлар томонидан турлича илмий ёндашувлар асосида ўрганилган.

Бирок, шу пайтгача, иқтисодий-ижтимоий география фанининг шаклланиш ва ривожланиш жараёнини мамлакатимиз ҳудуди доирасида ўрганиш, уни алоҳида даврларга ажратган ҳолда таҳлил қилиш, фаннинг келажакдаги ривожланиш истиқболларини баҳолаш масалалари алоҳида тадқиқот объекти сифатида кўриб чиқилмаган. Бундан ташқари республикамизда география фани шаклланиши ва ривожланишига улкан ҳисса қўшган олимларнинг бой илмий меросини тарғиб қилиш, уларни миллий кадрият даражасида келажак авлодларга етказиш борасида қилиниши лозим бўлган ишлар талайгина.

Ҳозирги даврда иқтисодий ва ижтимоий география фани олдида турган муҳим вазифалар сифатида мазкур фан тармоқларини ривожлантириш, йирик масштабли социал географик тадқиқотларни олиб бориш, иқтисодий ва ижтимоий географиянинг хорижий мамлакатларда ривожланишини ўрганиш, иқтисодий - ижтимоий география фани ва таълимнинг ривожланишидаги муаммолар аниқлаш, уларнинг ечимига оид илмий ва амалий аҳамиятга эга асосли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш, географиянинг барча йўналишларига тегишли бўлган ўзига хос вазифаси, яъни илмий тадқиқотларнинг натижаларини амалиётга тадбиғини кучайтириш, ушбу фаннинг келажакдаги ривожланиш истиқболларини баҳолаш кабиларни киритиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Махамадалиев Р.Ю., Назаров М.И., Қодиров А.А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси илмий мактаби. // Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетининг илмий мактаблари. -Тошкент, 2008. -Б 243-249
2. Солиев А., Абдалова З., Маматқулов Н. Ўзбекистонда иқтисодий ва социал географиянинг ривожланиши. // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 18-2-жилд. –Тошкент, 1997. – Б. 33-38.
3. Қодиров А.А. Ўзбекистонда иқтисодий географиянинг шаклланиши. // Иқтидорли талабалар ва ёш олимларнинг республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент - 2007. - Б. 50-51.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛМИЙ-МАДАНИЙ МЕЪРОСЛАРИНИ ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШДАГИ ЎРНИ

Гадоев И.Н.-НавДПИ, Ўзбекистон

Annotation - This article discusses the scientific and cultural progress of the peoples of Central Asia, their aspirations for spirituality and enlightenment, and their results. The scientific and cultural heritage of the peoples of Central Asia and their culture is discussed. Science emphasizes the important role of man in glorifying the human mind, trusting it, propagating it, spreading enlightenment, and leading society and the community to goodness. Morality, etiquette, and manners are known to be the main goals of human education.

Keywords: Man, science, culture, historical and cultural heritage, national, economics, socio-cultural, medical and astronomy, geography and mathematics, geodesy and architecture, diplomacy

Бугунги кунда буюк ипак йўли чоррахасида жойлашган Марказий ва Жанубий Осиё давлатлари узоқ асрлар давомида халқлар ва цивилизациялар ўртасида фаол мулоқотга хизмат қилди.

Минтақаларнинг ўзаро яқин ҳамкорлиги натижасида янги билим ва фалсафий қарашлар, тиббиёт ва астрономия, география ва математика, геодезия ва меъморчилик,

дипломатия санъати ва давлат бошқаруви соҳасидаги ютуқлар, юксак маданий ва маънавий-маърифий кадриятлар кенг ёйилди.

Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Аҳмад ал-Фарғоний Абу Наср Форобий, Юсуф Хос Ҳожиб, Маҳмуд Кошғарий, Маҳмуд Замахшарий, имом Бухорий, имом Термизий, имом Мотурудий, Абул Муин Насафий каби буюк аждодларимиз серқирра истеъдод соҳиблари бўлишлари билан бир қаторда, ўз фанлари бўйича бутун оламга устозлик мақомига эришдилар. Мазкур давр дунё тараққиётининг юксалиш тамойилларини белгилаб берди, десак муболаға бўлмайди. Бунинг ёрқин исботи – Хоразмда барпо этилган Маъмун академиясидир. Даҳо мутафаккирларни ўз бағрига тўплаган бу олий даргоҳ нафақат ўз минтақаси, балки бутун дунё учун акселератор вазифасини ўтагани ҳақиқат²⁰¹.

Бундан ташқари Хуросон ва Мовароуннаҳр, Ғазнавийлар, Темурийлар, Бобурийлар ва бошқа давлатлар инсоният тарихида чуқур из қолдирган. Бу давлатларнинг ўзига хос илмий-маданий мерослари мавжуд бўлиб ҳозирги кунгача биз бу маданий меъросларни ўрганиб келмоқдамиз.

Улар инсоният илмий ва фалсафий тафаккурининг бўлғуси ривожини бир неча аср олдиндан белгилаб бердилар. Миллий адабиётларимиз мумтоз намояндаларининг номлари бугунги кунда бутун дунёга маълум ва машҳурдир. Биринчи навбатда бу Хусрав Дехлавий, Алишер Навоий, Абдурахмон Жомий, Муҳаммад Ҳайдар, Махтумқули, Мирзо Ғолиб, Чингиз Айтматов ижодига дахлдордир.

Ўзбекистон халқининг кўп асрлик бой тарихига назар ташлар эканмиз, унда азалдан илм-маърифатга алоҳида эътибор қаратилиб келганлигини кузатишимиз мумкин. Ўша даврларда жамиятда илм-фан, санъат ва маданиятнинг юксалиши, буюк сиймоларнинг ўз ижодида эришган ютуқлари жаҳон тараққиётининг ривожига қўшган ҳиссаси барчамизни бирдек фахрланишимизга асос бўлади.

Барчамизга тарихдан яхши маълумки, диёримиздаги биринчи уйғониш даври - Сомонийлар даврига тўғри келиб, ушбу даврда буюк аждодларимизнинг яратган илмий-фалсафий асарлари ва оламшумул кашфиётлари ислом цивилизациясига асос солган. Уйғониш даврининг иккинчи даври эса – Амир Темур ва Темурийлар даврига тўғри келиб, нафақат Мовароуннаҳр, балки бутун Марказий Осиё ўлкалари ўз тараққиётининг янги поғонасига кўтарилди²⁰².

Улуғ аждодларимиз ақлу заковати улар тайёрлаган буюмлар, ҳунармандчилик, бунёдкорлик, каштадўзлик, китобат санъатида ҳам яққол намоён бўлган. Халқимизнинг бундай бой тарихий-маданий мероси асрлар давомида авлоддан-авлодга ўтиб келаётганлиги эса барчамизда чексиз ғурур уйғотади. Бинобарин, ушбу анъана ҳозирги пайтда ҳам алоҳида эъзозланмоқда.²⁰³

Бугунги кунда Ўзбекистонда янги уйғониш даври бошланди. Макур ҳолатни бугунги кунда мамлакатимизда, шиддат билан ривожланаётган ҳаётимизда рўй бераётган юксалиш жараёнлари ўзини барча соҳаларда намоён этмоқда. Мустақилликка эришган йилларимизнинг илк даврида биз ўзимизнинг миллий ўзлигимизни англаш, бой тарихий-маънавий ҳамда илмий меросимизнинг асл мазмун-моҳияти мағзини чақиш ва уни рўёбга чиқаришга интилдик. Ҳозирги кунда миллий руҳ ва умуминсоний кадриятлар ижтимоий тафаккур – мамлакатимиз барқарор ривожланишининг мустаҳкам пойдеворига айланмоқда.

²⁰¹ Иброҳим Абдурахмонов Инновацион ривожланиш вазири, академик “Ренессанс нима, у қандай тарихий шароитларда юзага чиқди ва бутун инсониятга нималарни тухфа қилди” мақоласи

²⁰² М. М. Хайруллаев академик “Тахминан шу даврлардан бошлаб Марказий Осиёда шаҳарлар ва шаҳар маданияти” мақоласидан

²⁰³ Мақсуд Жонихоновнинг “Халқ сўзи”газетасидаги “Ўзбекистон маданий мероси — жаҳон ҳамжамияти эътиборида” мақоласидан

Имом Бухорий, Бурҳониддин Марғиноний, Ҳаким ат-Термизий, Маҳмуд Замахшарий, Баҳоуддин Нақшбанд, Алишер Навоий сингари аждодларимиз номи эса нафақат ислом олами, балки жаҳон цивилизацияси тарихига зарҳал ҳарфлар билан битилган²⁰⁴. Шу сабабли ҳам давлат раҳбари ўз нутқида илм-фанга бўлган юксак эътибор ва таълимга тўхталиб, “Вақт ўтиб, болаларимиз ҳам Улуғбек, Ибн Сино, Беруний бўлади, мен бунга албатта ишонаман” деб таъкидладилар.

Охирги йилларда давлатимиз раҳбарининг бевосита ташаббуси билан илм-фан, таълим ва ишлаб чиқаришни ўзаро боғлайдиган мустаҳкам механизм босқичма-босқич ишлаб чиқилиб, жорий этилмоқда.

Ўзбекистон маданий меросини ўрганиш, асраш ва оммалаштириш бўйича 2021 йил 13–21 сентябрь кунлари “Ўзбекистон маданий мероси – Янги Ренессанс асоси” мавзусидаги халқаро анжуман Ўзбекистоннинг бир қанча шаҳарлари – Тошкент, Хива ва Нукусда анъанавий тадбирга айланган маданий мерос ҳафталигининг бир қатор ёрқин тадбирлари ўтказилди. Ўзбекистон маданий мероси ҳафталигининг асосий воқеаси “Ўзбекистон маданий мероси жаҳон тўпламларида” туркумидан 40 та янги китоб-альбом тақдимотини амалга оширдилар²⁰⁵.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, мамлакатимизда илм-маърифатга берилаётган алоҳида эътиборнинг замирида чуқур маъно бор. Илм-маърифат – бу янги уйғониш даврининг пойдевори. Илм-фан ривожланар экан, нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий-маданий соҳанинг ҳам тараққиёти кафолатланади, мазкур кафолат эса ўзида янги ренессанс даврини ифода этишига ҳечам шубҳа йўқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Иброҳим Абдураҳмонов академик “Ренессанс нима, у қандай тарихий шароитларда юзага чиқди ва бутун инсониятга нималарни тухфа қилди” мақоласидан
2. М. М. Хайруллаев академик “Тахминан шу даврлардан бошлаб Марказий Осиёда шаҳарлар ва шаҳар маданияти” мақоласидан
3. Мақсуд Жониҳоновнинг “Халқ сўзи”газетасидаги “Ўзбекистон маданий мероси —жаҳон ҳамжамияти эътиборида” мақоласидан
4. Ватан тарихи “IX–XII асрларда Ўрта Осиё маданиятининг юксалиши” китобидан.
5. Мухтасар Тоимамаатованинг “Ўзбекистон маданий мероси – Янги Ренессанс асоси” “Маданият” газетасидаги мақоласидан

РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Мансурова М. Ю.- главный специалист Навоийского областного отделения
Республиканского центра духовности и просвещения**

Resume: This article examines the specifics of the principles of governance in the spiritual heritage of Central Asia, the specifics of the study of the scientific heritage of Central Asia in the current process of globalization. The importance of axiology in management, the content of our historical, scientific heritage, the concept of management in the works of our scientists, as well as the enrichment of our spiritual values with world scientific achievements, the study of our historical and cultural heritage is a task that is strongly related to.

С первых лет независимости воспитание зрелого и гармонично развитого человека

²⁰⁴ Ватан тарихи “IX–XII асрларда Ўрта Осиё маданиятининг юксалиши” китобидан

²⁰⁵ Мухтасар Тоимамаатованинг “Ўзбекистон маданий мероси – Янги Ренессанс асоси” “Маданият” газетасидаги мақоласидан

является актуальной задачей в нашей стране. В этом смысле сегодня в практической работе особое внимание уделяется воспитанию подрастающего поколения в духе твердых убеждений и взглядов на жизнь, развитию национальных и общечеловеческих ценностей, способных противостоять чуждым нашему менталитету пагубным социальным порокам.

В качестве логического продолжения этого благородного дела в нашей стране в короткие сроки были проведены большие реформы. Глава нашего государства Шавкат Мирзиёев уделяет особое внимание признанию и развитию духовного наследия нашего народа.

В частности, полностью отреставрированы мавзолеи Имама Термези в Сурхандарьинской области, Абу Муин Насафи в Кашкадарьинской области, святыня Нурата в Навоийской области и другие памятники.

Международный исследовательский центр Имама Бухари в Самарканде, Исследовательский центр Имама Термизи в Сурхандарье, Изучение хадисов в Исследовательском центре Имама Бухари в Самарканде, теология в Центре Имама Мотуриди, Школа фикха в Маргинаниском научном центре в Фергане, суфизм в Центре Бахауддина Накшбанда в Бухаре, Кашкадарье При Центре Абу Муин Насафи открыта школа акида.

Исполняющий обязанности Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев 2016 г.

На 43-м заседании Совета министров иностранных дел Организации исламского сотрудничества, которое прошло в Ташкенте 18-19 октября, он выступил с инициативой создания специального отдела Исламской организации по образованию, науке и культуре - ИСЕСКО.

Было отмечено, что данная инициатива послужит привитию исламского просвещения в умы молодежи, изучению и популяризации многогранного научного, духовного, религиозного и просветительского наследия наших великих предков, внесших уникальный вклад в человеческую цивилизацию.

Сегодня в ответ на это предложение в Международной исламской академии появился специальный отдел Исламской организации по образованию, науке и культуре - ISESCO.

Считаем целесообразным дальнейшее развитие следующих направлений:

- защитить нашу молодежь от угрозы необъективной информации, наносящей вред их духовному и нравственному развитию;

- Широкое освещение атмосферы толерантности в творчестве мыслителей Центральной Азии;

- содержать в чистоте священную религию ислама, защищать ее от различных злонамеренных нападков и клеветы, клеветы и клеветы, правильно разъяснять ее суть подрастающему поколению.

- дать обоснованные научные опровержения идеологических претензий, пропагандируемых экстремистскими движениями, используя труды наших великих ученых в области религии;

- Подчеркивать великие цели произведений мыслителей в жизни общества, великое творчество, стоящее за ним, воспитание гармонично развитого поколения, распространять среди широкой публики разработки, направленные на популяризацию их произведений;

- Регулярно публиковать и распространять содержание научных работ по исламу, пропагандирующих идеи добра и мира.

Эффективно также эффективное использование наследия мыслителей Центральной Азии в формировании у молодежи объективного мировоззрения религии. В результате их уникальное духовное наследие повысит их интерес к науке, обучая нашу молодежь.

Действительно, во взглядах восточных мыслителей изучаются такие вопросы, как

духовность, совершенство, мораль и здоровый образ жизни, и эти качества также очевидны в исламе, особенно в его источниках, Коране и хадисах.

В философии Востока, в культурном наследии мыслителей Центральной Азии, вопросы духовности, формирования совершенного человека, просвещения, морали и этики всегда были в центре внимания. По словам академика М. Хайруллаева, «Признание нравственности, этикета и поведения как одна из целей человеческого образования, открывающая человеку путь к справедливости, росту, духовности, созданию возможностей, зрелости ума, нравственности, духовности, Создание совершенного человека, человечность, служение Родине, народу, дружба между людьми, взаимопомощь, призыв о помощи »являются ведущими аспектами культуры народов нашей страны.

Философские основы и онтология духовности отражаются, прежде всего, в классических примерах общественного мышления, в светских и религиозных взглядах наших людей, в их отношении к окружающему миру.

Общечеловеческие ценности фактически формируются как синтез, продукт этого культурного наследия. Первое прошлое человечества, первые материальные и духовные, культурные центры сформировались на Востоке и заложили основу для дальнейшего развития человечества.

Образцовая жизнь национальных героев, таких как Алпомиш, Шашмаком, Спитамен, Джалолиддин Мангуберди, Амир Темур, отражающая уникальный восточный образ жизни, мышление и мировоззрение нашего народа, их отношение к жизни и действительности, наполняет наши духовные ценности. понимания.

Универсальные идеи мыслителей Великого Востока: светские открытия Хорезми и научные и социально-нравственные взгляды Беруни, передовые идеи Фароби о справедливом обществе, зрелых людях, учение Ибн Сины в области духовного богословия и медицины, философия Алишера Навои о Наблюдения за совершенным человеком, знания Улугбека о нуджуме, универсальные идеи, выдвинутые в газелях Бабура и Машраба, деятельность джадидских просветителей начала прошлого века, таких как Абдулла Кодир, Абдулхамид Чолпон, Абдурауф Фитрат, Мухаммадшариф Софизода, также помогают нам узнать об этом. основы нашей духовности.

Светские, научные, религиозные и духовные взгляды древних людей нашей страны отражены в первом письменном источнике - Авесте. «Зороастризм - это прогрессивная монотеистическая доктрина, направленная против верований, обожествляющих силы природы, существовавших в первобытные времена Центральной Азии. Он осуждает кровопролитие, человеческие жертвы, военные конфликты, вторжения и нападения и поощряет сидячий, мирный образ жизни, работу, сельское хозяйство и животноводство.

Духовно-общечеловеческие взгляды мыслителей Центральной Азии:

- а) внутренние исторические и культурные традиции, исследования в регионе;
- б) зарубежные исторические, культурные и международные связи;
- в) на религиозные эксперименты влияют антологические, филогенетические и этногенетические особенности человеческой расы в духовных исследованиях.

Несомненно, эти факторы в определенной степени повлияли на духовное наследие мыслителей. Таким образом, интернационализация человечества - это не открытие двадцатого века, она основана на общечеловеческих духовных ценностях, сформированных в ходе длительного исторического и культурного развития. Отказ от этих ценностей или пренебрежение ими заставили некоторые этнические группы оставаться в узкой национальной оболочке.

Поэтому обогащение наших духовных ценностей достижениями мировой науки, изучение нашего исторического и культурного наследия, которое помогает нам глубже понять себя, - это взаимосвязанные задачи. В процессе построения нового общества необходимо уметь правильно оценивать духовные ценности, отличать настоящие

ценности от ложных или исторически устаревших, исчерпавших свой творческий потенциал и положительный потенциал.

Основными принципами научно обоснованного подхода к национальным ценностям и культурному наследию являются гуманность, патриотизм, популизм и прогресс. Каждый из этих критериев олицетворяет национализм и универсальность. Хотя они универсальны по своей природе, они удовлетворяют и обслуживают потребности конкретных народов в каждый исторический период. Следовательно, универсальность в их основе возникает благодаря выражению национальных потребностей в конкретной национальной форме и адаптации их содержания к ним. Эти критерии не только национальные и универсальные, но и исторические.

Глава нашего государства отметил, что вопросы всестороннего развития Узбекистана, повышения уровня жизни и качества жизни нашего народа неразрывно связаны с повсеместным внедрением науки, высоких технологий и современных инновационных разработок. Было отмечено, что с этой целью создано Министерство инновационного развития Республики Узбекистан. «Наша щедрая земля богата подземными и наземными ресурсами, человеческими ресурсами, образованным и высококвалифицированным персоналом. Но, к сожалению, мы не можем эффективно и результативно использовать такой огромный потенциал», - сказал Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев. Ведь всестороннее развитие Узбекистана, повышение уровня и качества жизни нашего народа - главная цель справедливого общества. Так что то, что веками сбывалась мечта нашего народа, наших великих мыслителей, - это подарок нашей независимости. Следует отметить, что предмет науки о гражданстве, как отмечается в социально-политических, правовых и образовательных учениях мыслителей Восточного Возрождения, или исследованиях, в основном касается текущих вопросов, связанных с государственностью, этикой и образованием. В частности, проблемы образования подчинены задачам политической организации государства, а педагогические инструменты признаны важным фактором достижения истинного счастья, верховенства закона, а также правовой культуры.

ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ «ЛОВИ ОШИБКУ!»

**Маъмурова Ф.Н.–магистрант 1 курса. НавГПИ
Узбекистан**

Annotation: in this article, a universal method of the pedagogical technology «Catch a mistake!» Is considered, interesting tasks have been developed.

В настоящее время в педагогический лексикон прочно вошло понятие педагогической технологии. Технология – это совокупность приемов, применяемых в каком-либо деле, мастерстве, искусстве (толковый словарь). Активные приемы обучения не только помогают побудить учащихся к активной мыслительной и практической деятельности во время учебного процесса, но и способствуют формированию положительной учебной мотивации, раскрывают и развивают творческие способности, с большей эффективностью помогают усваивать учебный материал.

Для каждого этапа урока нами используются активные приемы, которые имеют эффективную помощь не только для учителя, но и для учащихся.

Чтобы, повысить интерес учащихся к изучаемой теме, при изучении имен прилагательных на уроках русского языка в 6 классе можно применять педагогические технологии, использовать эффективные, интерактивные методы обучения, предполагающие взаимодействие не только между учителем и учащимися, но и между

учениками в процессе обучения. В данной статье мы бы хотели рассмотреть приём «Лови ошибку!», который можно использовать для подведения итогов при обобщении темы «Имя прилагательное».

«Лови ошибку» – универсальный приём, активизирующий внимание учащихся. Формирует умение анализировать информацию; применять знания в нестандартной ситуации; критически оценивать полученную информацию. Учитель предлагает учащимся информацию, содержащую неизвестное количество ошибок. Учащиеся ищут ошибку группой или индивидуально, спорят, совещаются. Придя к определенному мнению, группа выбирает спикера. Спикер передает результаты учителю или оглашает задание и результат его решения перед всем классом. Чтобы обсуждение не затянулось, заранее определите на него время.

Впервые идея была описана в книге А.А. Гина «Приемы педагогической техники».²⁰⁶ При объяснении нового материала или желая заострить внимание учащихся на проблемном месте в задании, педагог намеренно допускает ошибку (одну или несколько). Можно заранее оповестить учеников о ее наличии. Обнаружив неточность, учащиеся вносят коррективы, оглашают правильный вариант.

На уроках русского языка в 6 классе при изучении морфологического разбора имени прилагательного можно использовать приём «Лови ошибку».

Задание 1. Проверьте и определите ошибки.

- 1) *Малиновое* (из малины) *варенье*. *Малиновое* – качественное прилагательное.
- 2) *Малиновый* (цвета малины) *берет*. *Малиновый* – относительное прилагательное. Имеет формы степеней сравнения.
 - 3) *Двухэтажный дом*. *Двухэтажный* – относительное прилагательное, имеет краткую форму и степени сравнения.
 - 4) *Стальной* (из стали) *нож*. *Стальной* – качественное прилагательное. Имеет краткую форму и степени сравнения.
 - 5) *Стальные* (крепкие) *мышцы*. *Стальные* – относительное прилагательное.

Предлагаемый приём может использоваться не только на уроках русского языка, но и на других учебных предметах.

Задание 2. Проверьте и определите ошибки.

- 1) *Морозное утро*. *Морозное* – притяжательное прилагательное.
- 2) *Утренняя зарядка*. *Утренняя* – качественное прилагательное. Имеет формы степеней сравнения.
 - 3) *Двухэтажный дом*. *Двухэтажный* – относительное прилагательное, имеет краткую форму и степени сравнения.
 - 4) *Каменное сердце*. *Каменное* – относительное прилагательное.
 - 5) *Медвежья походка*. *Медвежья* – притяжательное прилагательное.

Задание 3. Прочитайте и определите ошибки в образовании формы существительных во множественном числе. (Тема «Число имени существительного»)

Столи, тетради, машины, рыбные консерва, настенные час, сладкая хурмы, холодное молока, точные весы, острая ножница.

Преимущества приема «Лови ошибку» состоят в том, что развивает аналитические способности, воздействует на эмоциональную сферу учащихся, способствует более прочному усвоению учебного материала.

Использованная литература

1. Зеленина В.И. Русский язык: Учебник для 6 класса школ общего среднего образования с русским языком обучения. – Т.: «Шарк», 2017. – 200 с.
2. Сальникова Т.П. Педагогические технологии: Учебное пособие /М.:ТЦ Сфера, 2005.

²⁰⁶ <http://pedsovet.su/>

«МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ ДЕЛОВЫХ ИГР НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО МОРФОЛОГИИ РУССКОГО ЯЗЫКА».

Саидова М.Р.- доц. БухГУ

Курбанова Ж. У.- студентка БухГУБ Узбекистан

Annotation: In the methods of teaching the morphology of the Russian language to students of non - linguistic bachelor 's courses , it is indicated: the complexity of teaching the morphology of the Russian language. Therefore, it is advisable to use didactic games in morphology classes, which contribute not only to the activation of mental activity, but also to improving the quality of knowledge.

В современном динамично развивающемся информационном обществе нужны даже не столько сами знания, сколько умения добывать их и умения самостоятельно применять добытые знания в реальной жизни, во всевозможных реальных ситуациях.

Рассмотрев традиционные и нетрадиционные методы и приемы решения трудных вопросов морфологии на практических занятиях по русскому языку, мы пришли к выводу, что преимущества обучающих возможностей деловой игры как метода активного обучения в сравнении с традиционными играми состоят в следующем: высокая включенность участников, комплексные измерения, низкие затраты, большой охват, развивающий эффект, эффект образования команды, скорость получения результатов.

Деловые игры классифицируются по разным параметрам. Так, по функции игры делятся на учебные, производственные, исследовательские; по методологии проведения – на инновационные, имитационные, организационно-деятельностные, организационно-коммуникативные, по характеру коммуникации – интерактивные и неинтерактивные, по инструментам игры – традиционные и компьютерные, по форме – очные и заочные, по степени свободы действий – жесткие и мягкие.

В методах обучения морфологии русского языка студентов неязыковых направлений бакалавриата указывается: сложность обучения морфологии русского языка состоит в том, что для овладения грамматическими понятиями необходим определенный уровень развития абстрактного мышления, который требует специальных упражнений, направленных на формирование определенных умственных умений и комплекса лингвистических представлений. Поэтому на занятиях по морфологии целесообразно использовать дидактические игры, которые способствуют не только активизации мыслительной деятельности, но и повышению качества знаний. Игра – один из приёмов преодоления пассивности.

Мы представили опыт применения деловых игр при изучении грамматической темы «Дательный падеж. Творительный падеж» на практических занятиях по курсу «Русский язык» для направлений 5330300-Физика и 5330100-Математика. Выбор данного методического приема развития устной и письменной речи представляется одним из эффективных способов обеспечения высокого качества знаний, развития умственных и творческих способностей, познавательной, а главное самостоятельной и групповой деятельности студентов. Кроме того, он хорошо увязывается с лексической темой данного занятия: «Распорядок дня».

В ходе занятия студенты знакомятся с Таблицей 1 «Ориентировочный ежедневный распорядок дня студента», поочередно читая вслух и комментируя каждое действие.

Затем составляют синквейн по тексту таблицы.

Важное место занимает работа в группах с разной степенью сложности.

Деловые игры предлагаем использовать в процессе закрепления нового материала.

«**Лото из слов**». Обучающимся предоставляются карточки со словами в косвенных падежах (15–20 слов; отбирается актуальная для профессионально ориентированного

обучения, в данном случае обучения математиков и физиков). Преподавателем зачитываются слова со средней скоростью в произвольной последовательности. Задача обучающихся — отметить в своем списке словоформы в следующем порядке: 1. существительные в дательном падеже; 2. существительные в творительном падеже; 3. прилагательные в дательном падеже; 4. прилагательные в творительном падеже; 5. местоимения в дательном падеже; 6. местоимения в творительном падеже.

Подобная игра активизирует не только грамматические навыки студентов, но и обогащает их лексическую базу.

«**Придумай предложение**». Для повторения названий падежей русского языка студентам предлагается составить предложение так, чтобы каждая первая буква слова в этом предложении соответствовала первой букве названия одного падежа (именительный, родительный, дательный, винительный, творительный, предложный). Например: «Иван Рубил Дрова, Варвара Топила Печку». При оценивании учитывается не только скорость составления предложения, но и его смысл.

После повторения падежей местоимений можно провести деловую игру «**Корректор**». Студенты делятся на 5 отделов («Отдел писем», «Отдел новостей», «Отдел информации», «Отдел рекламы», «Отдел корректоров»). Роль корректоров играют учащиеся, которые лучше всех усвоили материал. Каждый отдел получает свое задание, на выполнение которого отводится 15 минут. Например, в «Отдел писем» пришло зашифрованное письмо (опущены все местоимения). Надо их подобрать. В пользование «Отдела новостей» предоставлен компьютер, справочные материалы. Их задачей было найти полезную информацию о местоимениях. «Отдел рекламы» получает задание придумать слоганы об особенностях этой части речи, оформить на листке бумаги. Корректоры проверяют и комментируют выполнение заданий. Разнообразие видов деятельности активизирует всех студентов группы.

Таким образом, опыт показывает, что деловая игра как имитация реальной деятельности в искусственно созданных условиях, помогает осуществлять развитие творческих способностей студентов, взаимопомощь и взаимообучение, совершенствование качества знаний при комплексном их применении.

Литература:

1. Абрамова Г.С. Деловые игры: теория и организация. – М: ИНФРА-М, 2018. – 189 с.
2. Балыхина Т.М. «Методика преподавания русского языка как неродного». – М.: Издательство РУДН, 2007. – 185 с.
3. Габрусевич С.А. От деловой игры - к профессиональному творчеству: учеб. метод. пособие. - Минск: Университет, 1989. - 125 с.
4. Красовский Ю.Д. Мир деловой игры. - М.: Экономика, 1989. - 175 с.

СПОРТЧИЛАР ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ИЛМИЙ ТАЪМИНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ

Мустафоев Ё.Х.,- катта ўқитувчи., НавДШИ Ўзбекистон

***Annotation:** In this article, the problems and feeds of the pedagogical and psychological scientific provision of athletes ' training are widely covered. Athletes are focused on the development and implementation of new technologies of optimal training.*

***Keywords:** sport, athlete, Physical Culture, preparation, technique, tactics, pedagogy, psychology.*

Мустақиллик буюк ютуқларимиз ҳамда эзгу анъаналаримизни тиклаш ва уларга ҳаёт ато этишнинг янги имкониятларни очди. Эришилаётган юксак спорт натижаларини йирик

халқаро мусобақаларда рақобатнинг кучайиши машғулот ва мусобақа юкламаларини мунтазам ўсиб бориши, ўзбек спорти географиясининг тобора кенгайиши ҳозирги босқичда юқори малакали спортчиларни тайёрлаш илмий – усулий асосини такомиллаштириш заруратини белгилайди. Юқори натижалар спортни алоҳида шахсий ва умуман миллатга хос ирсий қобиляти, жамиятнинг даражаси ҳамда ижтимоий тузилишини мезони бўлиб хизмат қилиши керак. Тайёргарлик технологияларини ҳар томонлама такомиллаштириш йўллари тўғрисидаги илмий қарашларнинг янги тизимини яратиш ва амалга ошириш ҳисобига юқори малакали спортчиларни тайёрлаш назарияси ҳамда усулиятини янгилаш лозим. Ҳозирги замонда спорт ютуқларига эришишнинг шартли юқори малакали спортчилар тайёрлашни мақбуллаштиришнинг янги технологияларини ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширишдан иборат.

Олимпиядагача бўлган даврда мамлакатнинг терма жамоаларига номзодлар қаторини ёш иқтидорли спортчилар захираси билан тўлдириб бориш керак. Яқин захирадаги спортчиларни аниқлаш чоғида, спортчининг келгуси спорт натижалари, ёшлараро халқаро мусобақалардаги муваффақиятли қатнашиш кўрсаткичларига эътибор берилади. Яқин захирани баҳолашда спортчининг ёши, машғулот ва беллашувлар стажи, модел кўрсаткичларига мувофиқлиги каби кўрсаткичларга эътибор қаратилади.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан кейинги йилларда Президентимиз Ш.М.Мирзиёев спортни ривожлантириш ва унинг оммавийлигини ошириш тўғрисида катта ғамхўрлик қилмоқда.

Бу борада спорт тараққиётининг бугунги босқичида биз шундай хусусиятларни кўрамизки, улар спортчини тайёрлаш жараёнига жиддий таъсир кўрсатадилар ва тренер билан спортчи олдига янгидан-янги мураккаб вазифа ва топшириқларни қўядилар бу вазифа ва топшириқларни эса, ўз навбатида, машқ жараёнини ташкил қилишнинг энг муносиб шакл ва усулларини излаб топишга мажбур этади:

-Бугунги спортчилар эришган юксак кўрсаткичлар даражасини янада юксалтириш учун, оламни энг юқори малакали спортчилар тайёрлаш услубини, шунингдек, спортчини тайёрлашда узок йиллардан бери қўлланилиб келаётган бугунги ташкилий-методик усулни ҳам батамом такомиллаштириш талаб қилинади;

-Энг йирик спорт мусобақаларида эришилган ютуқларнинг натижалари тобора ошиб бораётгани сабабли, мусобақа курашлари ниҳоятда кескинлашиб кетди. Бу ҳол спортчиларнинг техник ва амалий маҳоратини самарадорлиги, барқарорлиги ва устуворлигига, уларнинг кетма-кет бўлиб турадиган маъсулиятли стартлар шароитида ахлоқий иродавий ва руҳий тайёргарлигига бўлган талабни бениҳоя оширади;

-Юксак малакали спортчилар махсус жисмоний тайёргарликнинг шу қадар юксак чўққисига чиққанларки, энди ундан юқорироққа кўтарилиш энг оғир ва энг мураккаб вазифа бўлиб қолди, шунга кўра, махсус жисмоний тайёргарлик самарадорлигини ошириш захираларини қидириш ва шу билан бирга, умуман, машқ жараёни тизимида янгича усул ва услублар зарур бўлиб қолди.

-Машқ юкламаларининг ҳажми шу қадар катталашиб, оғирлашиб кетдики, уни йиллик цикл доирасида, ҳар бир босқичи ичига оқилона сингдириш масаласи кўндаланг қилиб қўйилди. Шу билан бирга унга машғулот самарадорлигини оширишнинг бирдан бир усули деб эътироф этилган муносабатда бўлиш зарурати туғилди. Шунга кўра биринчидан, турлича имтиёзли йўналишларда бўлган юкламалар ўртасидаги энг кўп фойда берадиган нисбатини, иккинчидан, машқларни ташкил қилишнинг янги усулларини қидириш зарурати вужудга келди, зеро бундай машқлар спортчида энергия захирасининг сарфланиши ва қайта тикланиши ўртасидаги аниқ муносабатга суянган ҳолда, унинг организм фаолиятидаги мосланиш имкониятларини тўла амалга ошириш учун энг мақбул шароитни кўзда тутди.

Машқнинг методик масалаларини ҳал қилишда фаннинг вазифаси ошди юқори малакали спортчиларни тайёрлаб етказиш, спортчи организмидаги ҳаётни таъминловчи функционал услубларга тўла қонли таъсир кўрсатиш ва бундай услубларни ўта юксак фаолият даражасига кўтариш билан бевосита боғлиқдирки, эндиликда спортчини замонавий усулда тайёрлаб етказишнинг ўта мураккаб муаммоларини илмий-методик маълумотларсиз, фақат соғлом ақл ва ҳиссиётга суянган ҳолда ҳал қилиб бўлмайди.

Илмий техник жараёни ва илғор тажрибаларни амалиётга киритиш спортчиларни тайёрлаш натижаларини аниқлайди. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, спорт рекордларининг доимий равишда ўсиши, юқори малакали спортчиларни ёки бутун жамоанининг ютуқларини илмий асослашда, тайёргарликни ташкил қилиш шаклига, қизиқарли услубий ечимларни ҳаётга киритиш, спорт фани ютуқларини, шунингдек, кўпчилик аралаш фанларнинг ўрни йилдан йилга ўсмоқда.

Шу сабабли, спорт ютуқларининг илмий-техник жараёнини спорт фани тайёргалигининг бир қисми деб ҳисобланади. Бу ишга бошқа соҳа мутахассисларини: педагоглар, психологлар, биохимиклар, физиологлар, инженерлар, математиклар, врачларни жалб қилиш спортчилар тайёргарлигини оширишга ёрдам беради. Бу эса, Республикада (КНГ) мажмуали илмий гуруҳни ташкил қилишни асосий вазифа қилиб кўяди. Буларнинг вазифасига: мураббий ва спортчиларга масалаҳат бериш, амалиётга замонавий илмий техника ва ютуқларни киритиш, ватанимиздаги ва хориждаги аралаш соҳаларни спорт фанига киритиш спорт натижаларини оширишга олиб келишга ёрдамлашиш.

Спортчи тайёргарлигини илмий таъминлашда юқорида кўрсатилган бешта фаолият турларини машғулот турларига ва тайёргарлик даврларига киритиш, спортчилар имкониятини оширади ҳамда янги ютуқларга эришишга олиб келади.

Адабиётлар рўйхати.

1. Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар // Рисола. –Т., 2000. – 127 б.
2. Эльконин Д. Б. Психология игры. – М.: Владос, 1999. – 360 с.
3. Ўзбек педагогикаси антологияси. Тузувчилар: Ҳошимов К., Очил С, –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 461 б.

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЭФТАЛЛАР ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ, ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТ

Бувақов Н.- таянч докторант. ЎЗР ФА Ўзбекистон

***Annotation:** This article reveals issues such as the socio-political and cultural life of the Hephthalite state, which was formed in early medieval Central Asia, as well as the ethnic composition of its population, based on historical sources. The article also analyzes the lexical meaning of the word "Hephthalus", the origin, culture and economy of the Hephthalites through the works of historians.*

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда ўзбек халқи ва унинг давлатчилиги тарихи муаммолари устида қатор тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Ҳозирда Марказий Осиё худудининг географик яхлитлиги, тарихий воқеаларнинг унда жойлашган барча давлатлар ва халқларга дахлдорлиги, улар этномаданий умумийлик асосида яратилган маданий ва маънавий мероснинг ворислари эканлигини англаб етиш даври келди. Буни амалга ошириш учун аввало тарихнинг шундай даврларини мансубликка берилмасдан ҳолисона ўрганиш, тадқиқ этиш лозим. Тарихимизнинг шундай саҳифаларидан бири эфталлар давридир.

Маълумки, бугунги Ўзбекистон худудида мавжуд бўлган ўз замонасининг буюк

давлатлари Қанғ ва Кушон подшоликларининг милодий аср бошларида бошланган инқирози шимолдан кўчманчи туркий қабилаларнинг хужуми натижасида янада кучайди. Дастлаб, хионийлар, тохарлар ва улар билан бирга кириб келган кичик этнослар ва эфталлар бунга ёрқин мисол бўла олади. Бу туркий қабилалар ҳудудида ўз давлатларига асос солдилар. Улардан айниқса ўлка ҳудудида юз йилдан ортиқ вақт давомида ўз ҳукумронлигига эга бўлган эфталларнинг ўрни алоҳида ҳамиятга эгадир.

Таъкидлаш керакки, эфталлар даврида туркийлар ва маҳаллий аҳоли ўртасидаги муносабатлар асосида бу даврдаги давлатчилик ҳолати ва эволюцияси холис, илмий асосланган, манбаларга суянган ҳолда очиқ берилган махсус тадқиқотлар мавжуд эмас.

Бироқ, бу даврни чуқур ўрганиш, атрофлича таҳлил этиш ва воқеаларга объектив баҳо бериш ўзбек халқи ва унинг давлатчилиги тарихида муҳим босқичи бўлган ушбу даврдаги кўплаб қарама-қаршиликларни бартараф этиш билан бир қаторда ХХІ аср бошларида вужудга келган ҳудудий ва этник мансублик каби муаммоли масалаларнинг ечимини топишга ҳам ёрдам беради.

Маълумки, эфталлар турли номлар остида манбаларда тилга олиб ўтилган. Масалан, арманча "хептал", "ҳетал", "тетал"; юнонча - "эфтал", "Абдел", "эфтал", "Оқ овлар"; Сурий - "эпталит", арабча - "баланд", "ҳетал"; ўрта форсча - "хептал" ва "хептал". Зардуштий манбаларида улар баъзан "пёз", ҳинд манбаларида "хула" кўринишида учрайди; араб манбаларида эфталлар "ҳайталлар" деб аталган бўлса-да, баъзида улар "турклар" деб номланади ва арман манбаларида уларни кушонлар билан таништиришади. Хитой манбаларида эфталлар "е-да", "е-диен", "идан", "э-та-лито" каби учрайди.²⁰⁷ Юқорида санаб ўтилган барча вариантлардан, тарих фанида уларнинг номи энг кўп ишлатилгани - "эфталлар"дир.²⁰⁸

Яна бир жиҳат эфталларнинг кимлар авлоди эканлиги бўйича турлича қарашларнинг бугунги кунда ҳам мавжудлигидир. Албатта, бу ҳолнинг аниқланишуви этник жараёнларга ҳам анчагина ойдинлик киритади. Чунончи, арман тарихчиси Себеос, Сосоний ҳукмдори Перозни мағлуб этган теталлар (эфталлар)ни туркларга тенглаштириб, "Хурмузд II нинг онаси турклардан эди" деган маълумот беради ва туркларни маскут (массагет)ларга алоқадор, - деб кўрсатади.²⁰⁹ Антик давр тарихчиси Прокопий Кесарийский ҳам эфталлар - "оқ хуннлар" ҳақида: "...улар (эфталлар) бошқа хунн халқлари каби кўчманчи эмаслар, аммо азалдан ҳосилдор ерларда ўтрокдурлар... Бир подшо томонидан бошқарилади ва қонуний давлатчилигига эгадурлар. Ўзаро ва қўшнилари билан румликлар ва форслардан кам бўлмаган адолатга риоя қиладилар" - деб, ёзган эди.²¹⁰ VI асрнинг Византия тарихчиси Прокопий Кесарийский шундай ёзган эди: "эфталлар - бу хуннларнинг одамлари дейилган, аммо улар биз билладиган хуннлар билан аралашмайдилар ва улар билан алоқа қилмайдилар, чунки улар билан чегара ҳудуди йўқ ва улар яқинида яшамайди. Улар бошқа хунну халқлари сингари кўчманчи эмаслар, аммо узоқ вақтдан бери яхши ерга жойлашиб келишган. Шунинг учун улар форс қўшинидан ташқари римликларга ҳужум қилмайдилар. Улар танаси оқ, ташқи кўриниши хунук бўлмаган, уларникига ўхшаш ҳаёт тарзи бўлмаган ва худди шу подшоҳ томонидан бошқарилган ва ҳуқуқий давлатчиликка эга бўлганлар каби, ўзлари ва қўшнилари ўртасида адолатни сақлайдиган бирон бир ҳайвон турига эга бўлмаган хуннлардан. Римликлар ва форслардан

²⁰⁷ Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: "O'qituvchi", 2001. 42 b.

²⁰⁸ Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь Энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. Ташкент, 1999. С. 271.

²⁰⁹ Камолиддин. Ш.С. Камолиддин Ш.С. К вопросу о происхождении Саманидов // Archivum Eurasiae Medii Aevi, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008

²¹⁰ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, "ART-FLEX" 2010. Б. 149.

кўра ёмонроқдир.”²¹¹ Шундай қилиб, Прокопий Кесарийский, эфталлар, гарчи хунн халқи бўлишига қарамай, ташқи маълумотларда улардан фарқ қилишини айтади. VI асрнинг яна бир Византия тарихчиси Миринский Агатий қисқача ёзади: “эфталлар - бу хунн халқидир”. Эфталлар ҳақида маълумот қолдирган ўрта эроний тилидаги “Баҳман яшт” асарида: “босқинчилар (эфталлар) турклар ёки қизил хионийлар” эди, - деб келтиради. Бу маълумот ҳам эфталларнинг этник мансублиги хусусида айрим аниқликларни беради.²¹²

Эфталлар тили масаласида изланиш олиб борган В.Б. Хеннинг ва В.А. Лившиц каби олимлар тангалар таҳлили орқали Тохаристон эфталлари тилини бактрия тилига таққослаганлар. Аммо бирор-бир манба эфталларни эроний тилли эканлигини тасдиқламайди. Фақат уларни юечжиларга боғлиқ жиҳатлари “Бей ши” солномасида таъкидланади холос. Унда: “улар (еда - эфталлар) гагюй (уйғурларнинг) бир тармоғи бўлиб, урф-одатлари, бир қанча жиҳатлари билан турк (тукю) ларга ўхшаш”, - деган хулосалар мавжуд.²¹³ Қолаверса, VII асрда хитойлик муаллифи Вей Чие ўзининг “Си-фан-чи” асарида шундай таъкидлайди: “Маълумотлар узоқ мамлакатлардан келади, ва чет тиллар бузилиш ва тушунмовчиликларга дуч келмоқда, айниқса бу жуда узоқ вақт давом этадиган ҳолатларга тегишли. Шундай қилиб, биз аниқ бир нарсани билмаймиз. Шу сабабли, эфталларнинг келиб чиқиши ҳақидаги саволни ҳал қилиб бўлмайди”²¹⁴. Яна бир масала эфталларнинг “оқ” ва “қизил” ранглари орқали талқин қилинишидир. В.А. Лившиц Афросиёб деворий суратларидаги шахсларни “оқ хионлар” ва “қизил хионлар”, - деб мулоҳаза билдиради. Бундай бўлиниш қизил хунн ва оқ хунн тармоқлари, кейинчалик ҳам сарик ва қора туркаш, оқ, сарик, қора қипчоқ, сарик уйғур каби бўлинишлар аслида туркий халқларда сақланган. У ҳам эфталларнинг илк аجدодлари туркийлар билан бир қавмга мансублигини тасдиқлайди. А. Отахўжаевнинг таъкидлашича, Суғддаги эфталлар тили суғдийлашиб борган. Чунки манбаларда эфталларга нисбатан қўлланилган номланишлар мазмуни X аср муаррихи Баълабий фикрича, бухороликлар тилида ҳаятила-ҳайтал - “кучли одам” маъносида келтирилган.²¹⁵ Таъкидлаш лозимки, этник жараёнлар учун эътиборли жиҳати хионий, кидарий ва эфталларнинг келиб чиқиши бир тармоқдан эканлигида эди. Шу боис, улар ўртасида минтақадаги ҳокимият алмашуви тўқнашувларсиз рўй берган. Бу ҳол минтақадаги этник симбиоз жараёнларига ҳам замин ҳозирлаган. Хионийларнинг марҳумларни оловда ёқиб, сўнг суякларини кумуш идишга солиб кўмиш одати Хоразмдаги Канғқалъа ва Кўҳна Увайс шаҳар манзилгоҳларидаги топилмалар билан айнанлиги, уларнинг келиб чиқишини Орол бўйларидаги сак-массагет субстратидаги хунн-турк таъсирида шаклланган деган фараз мавжуд.²¹⁶ Худди шу каби А.Н. Бернштам ҳам ўрта ва қуйи Сирдарё ҳамда Амударёнинг этакларини эфталлар шаклланган ҳудудлар деб кўрсатади.²¹⁷ Чунончи, эфталлар давлати қайсидир маънода Қанғ давлатининг вориси ҳам эди. Чунки эфталлар давлати аҳолисининг этник таркиби Қанғ давлати этник таркиби

²¹¹ Гафуров Б.Г. Таджики Древнейшая, древни и средневековая история. М., Изд-во восточной лит-ры. 1972. С. 206.

²¹² Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, “ART-FLEX” 2010. Б. 150.

²¹³ Хўжаев А, Айтбаев А., Қўлдошев Ш., Джуманиёзова. Ф. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида. – Тошкент: 2016. Б–87./Отахўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // O‘zbekiston tarixi - Тошкент, 2009. - № 1. - Б. 150.

²¹⁴ Ильясов Дж. Некоторые замечания к проблеме эфталлов // Transoxiana. История и культура. Сб. статей. Ташкент. 2004 С.117

²¹⁵ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, “ART-FLEX” 2010. Б. 150.

²¹⁶ Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. T.: “O‘qituvchi”, 2001. 42 b./ qarang – Madarimov A. Fuzailova G. Manbashunoslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008. 131 b.

²¹⁷ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, “ART-FLEX” 2010. Б. 150.

билан бир хил бўлган.²¹⁸ Эфталлар ҳам Қанғ каби минтақа вилоятлари маъмурий бошқарувни ташқи назорат асосида амалга оширган. Қолаверса, Карим Шониёзов ҳам ўз тадқиқотларида ушбу маълумотларни тасдиқлайди.²¹⁹ Шуни қўшимча такидлаш лозимки, эфталлар Ўзбекистон ҳудудларига тўсатдан кириб келиб қолганлари йўқ, албатта. Бунгача ҳам улар ҳудуд аҳолиси билан айниқса Қанғ давлати билан яқиндан алоқа қилган. Демак, юқоридаги этнослар Ўрта Осиё этник муҳити учун бегона эмаслигини ва улар бундан олдин ҳам бу ҳудуд аҳолиси билан алоқа қилиб келганлигини, этник аралашув олдин ҳам кучли бўлмаса-да, мавжуд бўлганлигини кўрсатади.

Хуллас, V аср ўрталаридан Ўрта Осиё тарихида Византия тарихчиси Феофан келтирган Эфталон бошчилигидаги эфталлар даври бошланди.²²⁰ Бунгача ҳам Ўзбекистон ҳудудида туркийлар ва маҳаллий аҳолининг аралашуви жараёни мавжуд эди. Лекин, бу ҳақидаги маълумотлар жуда саёз. Шундай бўлса-да, Эрон ва Византия тарихчилари асарлари орқали ўша вақтдаги сиёсий вазият ва этник таркиб ҳақида кўплаб маълумотларга ойдинликлар киритиш мумкин. Чунончи, Марказий Осиёда ҳукмронлик учун рақобат натижасида Сосонийлар Ўрта Осиёни бир неча бор босиб олиб, уни бўйсундирдилар. Ёки, Аммианус Марселлинуслик (330 - 400) ёзишича, Сосоний Шаҳоншоҳ Шопур II (309 - 379) куч ва пулининг катта қисмини ўша вақтда Ўзбекистон ҳудудида ҳам мавжуд бўлган хионлар, геланлар ва эвусенлар (Юсенс) қабилалари билан конли урушларга сарфлашга мажбур бўлган эди.²²¹ Шопур II, давлатининг шимолий-шарқий чеккасида яшаган хионларнинг қайта ҳужумларидан қўрқиб, иттифоқ шартномаси тузгандан кейин пойтахтга қайтди. Қолаверса, кейинчалик хионлар ва сосонийлар ўртасида янги иттифоқ тузилади. Иттифоқчилик мажбуриятларига кўра, 359 йилда хионлар Амида²²² шаҳрини қамал қилишда, Шопур II Рим императори Константин II билан уруш пайтида (337 - 361 йил, танафбус билан) қатнашдилар. Ушбу урушни қамалда бўлган Амидиан Марселинус яхши ёритган. "Хионлар шаҳарнинг жанубий дарвозаларига ҳужум қилишди. Уларни хионлар шоҳи Грумбат бошқарди. Унинг ўғли Амида деворлари остида вафот этди".²²³

Бу вақтда Ўзбекистон ҳудудида Кушон ва Қанғ подшоликлари мавжуд эди. К. Шониёзов ўз тадқиқотларида Сирдарё бўйларида қанғлар V асрда ҳам ўз қудратини сақлаб келганлар, деб ёзади.²²⁴ Бу вақтда эса жанубда кушонлар сосонийлар билан рақобатда эди. Масалан, 60-йилларнинг охири - 70-йилларнинг ўрталарида Шопур II "Кушанлар" билан икки марта жанг қилди. Биринчи урушда "Кушон подшоси" бошлаган Шопур II қўшинини шахсан ўзи бошқарган, аммо бу уларга ёрдам бермади. Кушонлар ғалаба қозонади.²²⁵ Шопур II қасос олиш учун бошлаган иккинчи 374 (375) йилда бўлиб ўтган уруш ҳам форсийлар учун биринчи каби мағлубият билан яқунланди. " ушбу воқеа, - деб ёзади К. Тревер, ва ундаги кучлар аъъанавий равишда Кушон деб аташни давом эттирадиган хионларга тааллуқли бўлиши керак ва замондошлари кушонлар ва хионларни жуда катта фарқ қилмайдилар, деб маълумот берган. Улар орасида унчалик катта фарқ мавжуд эмас эди ". В.Г. Луконин Шопур II 60-йилларнинг охирларида бошлаган кушонлар билан аниқ курашганига ишонди ва Кушон подшолигини йўқ қилган катта кампания ва хионларнинг иттифоқчиси эди, деб маълумот беради.²²⁶ Нима бўлса-да, ушбу маълумотлардан англаш

²¹⁸ Shoniyozov K. Qang davlati va qanglilar. (O'zbek xalqining siyosiy va etnik tarixidan) T.: "Fan", 1990. 54-55-betlar.

²¹⁹ Shoniyozov K. Qang davlati va qanglilar. (O'zbek xalqining siyosiy va etnik tarixidan) T.: "Fan", 1990. 23-24-betlar.

²²⁰ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. T.: "Sharq", 2010. 109 b.

²²¹ Луконин В.Г. Древний и раннесредневековый Иран. Очерки истории культуры. М., 1987. С. 228

²²² Hozirgi Turkiyaning Diyarbekir shahri

²²³ Аммиан Марцеллин. Римская история, СПб, ВЕДС, 1996, С. 166

²²⁴ Shoniyozov K. Qang davlati va qanglilar. (O'zbek xalqining siyosiy va etnik tarixidan) T.: "Fan", 1990. 55 b.

²²⁵ Тревер К.В. Кушаны, хиопиты и эфталы по армянским источникам IV-VII вв.//Советская археология. 1954. Вып. XXI. С. 133.

²²⁶ Луконин В.Г. Сасанидская держава в III - V вв. // История древнего мира. Упадок древних обществ. М., 1989.

мумкинки, эфталларнинг кириб келиши жараёнида Ўзбекистоннинг шимолий худудларида Қанғ давлати ва жанубий қисмларида Кушон подшолиги ва уларга дастлаб ёрдамчи бўлган хион, гелан, эвусен ва бошқа туркий қабилалар мавжуд бўлишган. Эътиборлиси, бундай туркий қабилалар худудга уруш билан кириб келишмаган. Улар тинч йўл билан замона талаби асосида кириб келиб, маҳаллий аҳоли билан ассимиляция жараёни содир бўлган. Шу сабабли кейинчалик ҳокимиятни эгаллашга келганида кийинчиликсиз, оғир жангларсиз эгаллаган. Умумий ҳолда айта оламизки, эфталларнинг ҳам кириб келиши ва ҳокимиятни эгаллашига ана шу аҳолининг этник таркиби ўз таъсирини ўтказмай қўймаган.

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ДАВЛАТЧИЛИГИ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТ

Бувақов Н.- таянч докторант. ЎЗР ФА Ўзбекистон

***Annotation:** This article analyzes data on issues of statehood and socio-political life, domestic and foreign policy in early medieval Central Asia. The article also reveals the ethnic composition and cultural processes of the population in the V-VI centuries through the works of many historians.*

V-VI асрда Сосонийлар ўз давлатларининг шимолий-шарқий чегараларида давом этадиган доимий урушлар Копет-тоғ этакларида ва Мурғоб водийсида бир қатор қалъалар ва бошқа мудофаа иншоотларини қуришга мажбур қилди. Бунга хионларнинг ўрнини эгаллаган янги душман эфталларнинг тазйиклари сабаб бўлган. Масалан, Ат-Табарийнинг маълумотларидан биз 457- йилда Гардижистон, Токаристон, Балх, Бадахшон эфтал подшоҳи Ахшунварга (Вахшунвар)²²⁷ бўйсунганлигини²²⁸ биламиз. Шу ўринда эфтал подшоҳи номига тўхталиб ўтсак, В.А., Лившицнинг сўзларига кўра, бу исм сўғд тилидан (яъни Шарқий Эрон тилларидан бири) ўгирилганда, "қиролликни ҳимоя қилиш" сифатида талқин этилади. Бу ном Маҳмуд Кошғарийнинг асаридаги (XI аср) Ахшундарга ўхшайди. А. Вамбери бу номнинг этимологиясини Акшонгар (Аксонгар) деб тушунтиради, бу туркий тилда "оқ лочин" деган маънони англатади.²²⁹ В.М. Массоннинг фикрига кўра, эфталан номи тахтнинг номи эди. Парфия подшоҳлари Аршаклар деб аталгани сингари, ҳукмдорнинг номига қўшилган.²³⁰ Бернштамнинг таъкидлашича, эфтал қироли Хушнаваз (Кушнаваз) номи, ёки қадимги шаклда "Кушна-вар" иккита қабиладан ташкил топган, маҳаллий - кушон ва янги келган - Авар исмларининг акс эттирган иккита сўздан иборат эди.²³¹ Яъни, эфталлар ва маҳаллий аҳолининг қоришуви натижасида бу ном юзга келган. Шунингдек Б.Х. Кармишева Вахшивор номини таҳлил қилиб Сурхондарё водийси чегаралари яқинида жойлашган ерда илгари Ҳазрат Вахшивор - Санкт-Вахшивор деб номланган Суфий Оллаёр мозори номини эфтал қироли номи билан ўхшашлигини кўрсатади.²³² Агар мана шу таърифларга диққат билан эътибор қарасак қадимдан ҳукмдор

Кн. III. С. 258.

²²⁷ Эфталлар давлатини бошқарган ҳукмдорлар: Оқ Сивар (420-470); Эфталон / Ифталонос (470-496); Тўраман (496-510); Мехриқора (510-540); Ғатпора / Ғатфарн (540-556) лар 510 йилгача Самарқанддан, сўнгра Панжобдаги Саркот шаҳридан бошқарганлар. Қаранг: Отахўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // *Ўзбекистон тарихи* - Тошкент, 2009. - № 1. - Б. 150./ Тургун Алмас. Уйғуры. Кн. 2. - С. 164-165.

²²⁸ Сударева М. Происход Эфталов. Тошкент., 2012. С 11.

²²⁹ Вамбери Г. История Бочары или Трансоксанин с; древнейших времен до настоящего. СПб., 1873. С. 80.

²³⁰ Массон М.Е. Распространение монетных находок ... М.: Наука С, 221 -222

²³¹ Бернштам АЛ. Очерк истории гуннов. Л., 1951. С. 190

²³² Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., «Наука», 1976. С. 135

номини аташ ҳам аҳолининг этник мансублилигига боғлиқ бўлган ҳолда эфталлар давридаги омукталашув жараёнига анча ойдинлик киритади.

Манбалардаги маълумотлардан қолаверса, бугунги кундаги тадқиқотлардан англаш мумкинки, эфталлар тезда бутун Марказий Осиё ҳудудини эгаллаб бу эрда ўз давлатини тузмаганлар. Бу жараён секинлик билан борган. Улар дастлаб Фарғонада Давон давлатига хотима берганлар.²³³ Шундан сўнг Қанғ давлатига ўз таъсири ўтказа бошлаганлар. Хатто эфталлат Хитойнинг Вей шу хроникасида айтилишича, 455 йилда Вей империясига биринчи элчиларини юборади.²³⁴ Кейинчалик эфталлар Хитойга бир неча марта элчиларни юборган²³⁵.

Шундан сўнг эфталлар Марказий Осиёнинг марказий ҳудудларини эгаллашга киришади. А. Отахўжаевнинг ёзишича, эфталларнинг Суғд ҳудудини эгаллаши 467-470 ва 480 йиллар оралиғи билан белгиланади. Бундан ташқари, 509 йили Хитойдаги Суде (Суғд) элчилигининг алмашувини ҳокимият эфталлар қўлига ўтганлиги²³⁶ ҳам мисол бўла олади.²³⁷ Шундан сўнг эфталлар 479 - 510 йилларда Тохаристонга юриш қилганлар.²³⁸ Натижада V асрнинг 2-ярми ва VI аср бошларида Ўрта Осиё, Шарқий Туркистон, Хуросон ва Шимолий Ҳиндистонни бирлаштирган эфталлар давлати ташкил топган²³⁹.

Эфталлар Марказий Осиёни эгаллаганидан сўнг маҳаллий аҳоли билан аралашуви жараёни янада кучаяди. Бу ҳолат бўйича ёзма манбалардан ҳам кўплаб маълумотлар олиш мумкин. Улар асосан Эрон тарихига доир манбалардир. Бу манбалар сосонийлар ва эфталлар ўртасидаги низоли вазиятлар ҳақида ҳикоя қилади. Чунончи, сосонлар ва эфталлар ўртасидаги ҳарбий тўқнашувлар, айниқса, 459 - 484 йилларда ҳукмронлик қилган Шохоншоҳ Пероз (Фируз - Ўрта асрлар арабча форс тилида "Ғолибона" деб таржима қилинган) даврига тўғри келади.²⁴⁰

457 йилда Яздегерд II вафотидан сўнг унинг икки ўғли ўртасида тахт учун кураш бошланди. Ҳормизд (Ҳормизд) катта мансабга эга бўлган подшоҳга айланди ва отаси ўрнига "шоҳоншоҳ" унвонига эга бўлади. Натижада унинг укаси Пероз, эфталлардан ёрдам олиш умидида қочиб келади.²⁴¹ Фирдавсийнинг сўзларига кўра, эфтал қироли Фаганиш Перозга Термиз ва Вашгирд²⁴² евазига 30 минг кишилик армия билан ёрдам берган. Эфтал отрядининг ёрдами билан Пероз 459 йилда укасини ағдариб ташлайди, икки йиллик курашдан сўнг шоҳоншоҳга айланди. 459 йилда Пероз эфтал қироли Вахшунвар билан иттифоқ шартномасини тузди.²⁴³ Бу шартнома шартларида Эрон эфталларга кидарийларга қарши курашда ҳам ёрдам бериши керак эди. Бу амалга ошди. Мағлуб бўлган Кидаранинг ўғли Ҳиндистонга кетиб, 470 йил Ҳиндистонда давлатни куради.²⁴⁴ Лекин Динаварийнинг сўзларига кўра, тез орада икки ўртада уруш келиб чиқади. Бунга сабаб эфталларнинг зулмидан норози бўлган Тохаристон аҳолиси ёрдам учун Перозга мурожаат қилган.²⁴⁵

²³³ Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. T.: "Sharq", 2010. 81 b. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. - T.: Universitet, 1999. - 33 b

²³⁴ Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T.: "Yangi asr avlodi", 2014. 226 b.

²³⁵ Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 74 b.

²³⁶ Маршак Б.И. К вопросу о восточных противниках Ирана в V в. - С. 65; Enoki K. On the Nationality of the Ephthalites // Memoires of the Reserch Departament o the Toyo Bunko (oriental Library). - Tokyo, 1959. - № 18. - P. 1-58./ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, "ART-FLEX" 2010. Б. 149.

²³⁷ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // O'zbekiston tarixi - Тошкент, 2009. - № 1. - Б. 149.

²³⁸ Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T.: "Yangi asr avlodi", 2014. 226 b.

²³⁹ Eshov B. J. Odilov A.A. o'sha asar. T.: "Yangi asr avlodi", 2014. 227 b.

²⁴⁰ Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 75 b.

²⁴¹ Azamat Ziyo o'sha asar. T.: "Sharq", 2001. 75 b.

²⁴² Vashgird - Amudaryoning o'rta qismidagi Vaxsh va Kofiringan daryolari o'rtasidagi viloyat va shahar

²⁴³ Фирдоуси. Шахнаме. М. 1989. Т. VI. С. 6 – 7

²⁴⁴ Вязигин С. А. Эфталы // История Туркменской ССР. Ашхабад, АН Туркменской ССР, 1957г.

²⁴⁵ Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: "O'qituvchi", 2001. 42 b.

Пероснинг эфталларга қарши биринчи юриши баъзи манбаларга кўра 475 йилда, бошқаларида эса 482 йилда бўлиб ўтган ва мағлубиятга учраган. Пероз эфталлар томонидан уларнинг айёрлиги туфайли қўлга олинган. Зено томонидан берилган (474 - 491) катта микдордаги олтин эвазига озодликка эришган.²⁴⁶

479 йилда Пероз шартномани бузиб, яна эфталларга қарши уруш эълон қилади. Аммо яна мағлубиятга учрайди ва яна 30 хачирга ортилган кумуш эвазига озодликка чиқади.²⁴⁷ 484 йилда амалга оширилган сўнгги юришишда ўзи ҳам ҳалок бўлади.²⁴⁸ Албатта шу ўринда таъкидлаш лозимки, эфталлар сосонийлар устидан кетма-кет уч маротаба ғалабага ўз қўшинлари кучи билан эришганлари йўқ. Бу ўринда А. Отахўжаев такидлаганидек, “Уларга Суғд каби ҳайрихоҳ ўлкаларнинг катта иқтисодий таянчи ҳам зарур эди”²⁴⁹, - маҳаллий аҳолининг ҳам ёрдами катта бўлди. Аммо бу ҳамжихатлик нафақат сиёсий ёки иқтисодий жабҳада, балки этномаданий жараёнларда ҳам акс этади. Чунончи, бу вақтгача балки ундан кейин ҳам эфталлар маҳаллий аҳоли орасида ўтроклашиб, маҳаллий аҳоли маданиятини қабул қила бошлаганлар. Аввал ҳам айтганимиздек, бунга биринчи асос эфталларнинг қўллаган маҳаллий бошқарув усулида намоён бўлган бўлса, кейинчалик ижтимоий маданий ҳаётида ҳам янада кўрина бошлайди. Чунончи, улар маҳаллий аҳолидан зардуштийлик динини қабул қила бошлайди. Буни А. Отахўжаев “Шоҳнома”даги эфталлар шоҳи номининг Фағанич - Файини (суғдий Пъинъй) - “илоҳий ҳукмдор”²⁵⁰ маъносини англатишидан ҳам билса бўлди, -деб исботлашга уринади.²⁵¹ Шунингдек, эфталлар даврида маҳаллий ҳокимликлар бошқаруви ўзларига бериб қўйилган бўлса-да, вилоят ҳокимлари туркийлардан эди.²⁵² Бу ҳам омухталашув жараёнининг ижтимоий ҳаётдаги ўзига хос кўриниши бўлди.

Эрондаги ўзаро урушлар натижасида Кавад (кубод) эфталлар хузурига қочиб келади ва ёрдам сўрайди. Натижада 496 йилда эфталлар подшоси Кавадга ўз кизини беради ва қўшин билан ҳокимиятни эгаллашга юборади. Бу вақтда ҳокимият тепасида бўлган акаси бу ҳақда эшитиб, қочиб кетди. Кавад тахтни қайта эгаллайди.

Бу даврда Каваднинг Византия билан муносабатлари кескинлашади. Бунинг сабаби, Кесарий Прокопийнинг сўзларига кўра, Византия императори Анастасия I (491 - 518) эфталларга йиллик солиқ тўлаши учун Кавадга қарз беришдан бош тортган. Кавад ҳарбий ҳаракатлар бошлаб, эфталлардан ёрдам сўрайди. Шундай қилиб, Каваднинг 502 йилда Византияга қарши юришида эфтал қўшинлари иттифоқчилар сифатида жалб қилинади.²⁵³ Эфталлар Телла, Харран ва Эдессада бўлган жангларда қатнашдилар. Прокопий Кесарийскийнинг сўзларига кўра, Византия қўшинлари олдинга ўтиб, "саккиз юзта эфталлар билан тўқнашган, бу форс қўшинининг илғор отрядидир".²⁵⁴ 506 йилга келиб Кавад учун Византияга қарши юриши муваффақиятли якунланди. Сулҳ тузилди.²⁵⁵

²⁴⁶ Гумилев Л.Н. Эфталы - горцы или ... С. 97.

²⁴⁷ Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Sharq", 2001. 76 b.

²⁴⁸ Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T.: "Yangi asr avlodi", 2014. 226 b.

²⁴⁹ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, "ART-FLEX" 2010. Б. 149.

²⁵⁰ Лившиц В.А., Кауфман К.В., Дьяконов И.М. О древней согдийской письменности Бухары // ВДІ. - 1954. С. 157./ қаранг - Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, "ART-FLEX" 2010. Б. 149.

²⁵¹ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, "ART-FLEX" 2010. Б. 149.

²⁵² Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: "Universitet", 2007. 236 b.

²⁵³ Камолитдин. Ш.С. Камолитдин Ш.С. К вопросу о происхождении Саманидов // Archivum Eurasiae Medii Aevi, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008

²⁵⁴ А.Н. Бернштам. Очерк истории гуннов. Л.: 1951. С 189.

²⁵⁵ Камолитдин. Ш.С. Камолитдин Ш.С. К вопросу о происхождении Саманидов // Archivum Eurasiae Medii Aevi, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008

Эътиборлиси, ушбу юришларда эфталлар давлатидан борганлар орасида нафақат эфталларнинг ўзи балки, маҳаллий суғдийлар ва бошқа кичик этнослар ҳам мавжуд бўлган. Бу ҳолат ҳам бу вақтда эфталлар маҳаллий этнослар билан ассимиляцияга кучли киришганлигини кўрсатади. Албатта, таъкидлаш жойизки, бу воқеалар ва эфталларнинг Марказий Осиёни тўлиқ эгаллаши орасидаги фарқ эллик йилга ҳам етмайди. Бу омукталашув жараёнининг анчагина илгари бошланганлигини, қолаверса, маҳаллий аҳолининг бу жараёнларга мослашиб қолганлигини кўрсатади.

Буни кейинги воқеалар ҳам кўрсатади. Масалан, Эрон шоҳи Хусрав I Ануширвон мамлакатини кўчманчи туркий қабилаларнинг бостириб киришидан сақлаш мақсадида ўзининг чегара ерларини туркий қабилаларнинг ўзларига кўриқчилик учун топширган. Масалан, ал-Масудий маълумотида кўра, у Кавказ тоғларида ғайридинларга қарши Боб ал-Абвоб (Дарбанд) қалъаси ва узунлиги 40 фарсах (1 фарсах– тахминан 6 – 7 км) бўлган девор курдириб, унинг дарвозаларини кўриқлаш учун хазар, алан, ас-сарир (савир) ва туркларнинг турли тоифаларига мансуб бўлган қабилаларни жойлаштирган. Чегара ерларнинг ҳокимлари лавозимида асосан эроний бўлмаган халқлар вакиллари (хионитлар, эфталлар, хазарлар, турклар, дайлабийлар, арманлар, грузинлар ва бошқалар) тайинланган. Улар “чегара посбони” маъносини англатувчи юксак марзбон унвонига эга бўлиб, сосонийлар саройида олий ҳарбий табақа қаторига киритилган Хусрав I Ануширвоннинг энг яқин одамларидан бири Катуйф исмли эфтал бўлган.²⁵⁶ Бу маълумотлар икки жиҳатни ўзида намоён қилади. Биринчиси, туркийлар шу даражада Марказий Осиёнинг (Ўзбекистон ҳудудлари тўлиқ) ички қисмларига кириб бора олган ва эътиборлиси Эронга нисбатан бу тазйиқлар доимо бўлган. Иккинчиси, Марказий Осиёнинг жанубига туркийларнинг кириб келиб ўтроқ аҳоли билан аралашувида ўзлари билмаган ҳолда Эрон подшоҳларининг ўзлари ҳам йўл қўйиб берганлар. Зеро, таклиф қилинган туркий саркардалар ўз уруғи-аъзолари билан келар ва ҳуқумдор уларга катта-катта ер мулклар ҳадя қилар эди. Бу ҳолат Турк хоқонлиги даврида ҳам давом этади.

552 йилда шимолда Бумин Турк хоқонлигига асос солди.²⁵⁷ Ғарбга юришга бошчилик қилган Истами хоқон эфталларга қарши Эрон сосонийлари ҳуқумдори Хусрав I билан иттифоқ тузди. Истами бошчилигидаги туркийлар 563-567 йилларда эфталларга кучли зарба бериб, уларнинг ҳудудларини тортиб олди.²⁵⁸ Манбаларда, туркларнинг бу муаффақиятига Эрон сосонийларининг ёрдамида катта бўлганлиги ёзилади. Тўғри, Эрон шоҳи Хусрав I Анишервон (531-579) Истамига кўёв бўлиши билан бу икки давлат ўртасида иттифоқ юзага келади²⁵⁹ ва шу сабабли турклар 563 йилда Парак²⁶⁰га ҳужум қилганида, сосонийлар эфталларга қарши иккинчи фронтни ташкил қилиб, Балхга ҳужум қилган эдилар. Лекин, бу ерда яна бир омил борки, буни таъкидлаб ўтмасликнинг иложи йўқ. У ҳам бўлса маҳаллий суғдийлар масаласи. Албатта савол туғилади, бу ерда Суғдийларнинг қандай таъсири мавжуд? Маълумки, бу даврда ипак Византияда олтин ва қимматбаҳо тошлар билан бир хил баҳоланар эди.²⁶¹ Византия эса ушбу қимматбаҳо товарни Европага экспорт қилар эди. Аҳамиятлиси, ана шу товарнинг Византияга борадиган йўли Эрон, ундан олдин эфталлар ва то Хитойгача туркий қабилалар истиқомат қиладиган даштдан ўтар эди. Ипак савдосида энг кўп фойда оладиганлардан бири воситачи суғд савдогарлари

²⁵⁶ Камолитдин. Ш.С. Камолитдин Ш.С. К вопросу о происхождении Саманидов // Archivum Eurasiae Medii Aevi, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008

²⁵⁷ Д. А. Алимова, Э. В. Ртвеладзе. Узбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар) Т.: “Шарк”, 2001. 44 б. / Насимхон Р. Турк хоқонлиги. Тошкент: Халқ мероси, 1993. 14-15- бетлар/ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 25

²⁵⁸ Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. 235 b.

²⁵⁹ Azamat Ziyov O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 81-82-betlar

²⁶⁰ Hozirgi Chirchiq

²⁶¹ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 49

эди. Чунончи, туркийлар эфталлар давлатига бостириб келганида маҳаллий аҳолининг қаршилиги суи бўлганлиги ҳам айнан шу билан изоҳланади. Ҳақиқатдан ҳам Гумилёв тақидлаганидек, кучайиб, Хитойга тазйик ўтказа олган туркутлар улардан жуда кўп миқдорда ипакни тўлов сифатида ундиради.²⁶² Бу ипакнинг барчасини табиийки улар ишлата олмас ва шу сабабли сотар эдилар. Агар туркийлар худудни эгалласа маҳаллий суғдий савдогарлар бу ипакка эгалик қиларди.²⁶³ Қолаверса, туркларнинг кириб келиши, улкан худуда ягона давлат вужудга келишига, ягона тўловларнинг жорий этилишидан ташқари, олдин Суғд савдогарлари учун ҳафли бўлган савдо йўлларидаги таланчиликнинг олди ҳам олинди. Чунончи, бу ҳақида Гумилёв қуйидагиларни ёзади: “Эфталлар мағлуб этилгач, суғдлар туркут хонининг фуқаросига айланишди. Улар азалдан Шарқда ҳам, Ғарбда ҳам эпчил тижоратчи ва воситачи сифатида машҳур бўлишган. Эфтал хўжайинлари ўрнига туркутнинг келишидан улар фақат ютуққа эга бўлдилар: энди уларга Осиёнинг марказий ўлкалари эшиклари ланг очилди, йўл хавотири йўқолди. Суғдлар ипак тижоратини кенгайтиришдан қанчалик манфаатдор бўлсалар, ўзларидаги ортиқча ипакни сотиш имконига эга бўлган туркутлар ҳам шунчалар манфаатдор эдилар.”²⁶⁴

Маҳаллий аҳолининг эфталлар давлатининг Турк хоқонлиги томонидан эгалланишига ёрдам кўрсатишининг яна бир сабаби олдиндан юз бериб келган туркий ҳамда маҳаллий аҳолининг ўзаро аралашуви натижаси бўлади. Чунончи, туркийлар босқинигача ҳам содир бўлган ассимиляция жараёнларига аҳоли деярли мослашиб қолган эди. Шу сабабли, яъни кириб келган туркийлар мутлақо нотаниш душман сифатида кутиб олинмади. Кўшимча сифатида айтиш лозимки, кўчманчи ҳаёт инсонларнинг жанговор қобилияти ва руҳининг юқори бўлишга сабаб бўлади. Эфталлар гарчи туркий бўлса-да, кейин кириб келган туркийлардан енгилди. Бунга сабаб бўлган яна бир омил ана шу эфталларнинг қарийб юз йилдан ортиқ вақт давомидаги маҳаллий аҳоли билан аралашуви натижасида уларда ҳам ўтроқ аҳоли сингари жанговорлик руҳининг сусайганлиги эди. Хуллас, шу тариқа туркийлар томонидан эфталлар давлати осонгина забт этилди.

Шу тариқа эфталлар даврида Ўрта Осиёда, чунончи Ўзбекистон халқлари тарихида, туркийлар ва маҳаллий аҳолининг миграцион, интеграцион жараёнлари кучайиб, ассимиляциялашув даври бошланди. Бунда биринчи Турк хоқонлиги яратган кенг сиёсий, иқтисодий ва маданий имкониятлар турли халқларнинг ўзаро тенг манфаатли алоқалари минтақадаги туркий ва шарқий эроний тилли этносларнинг симбиози натижасида юксак даражадаги цивилизация вужудга келди ва бу Турк хоқонлиги даврида янада кучайди.

ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Набиев Х.Р., магистрант 2 курса НавГПИ
док. философии (PhD) Шамсиева Д.М., Узбекистан

***Abstract:** The article is devoted to the consideration of the actual problem of using computer technologies in the classroom of the Russian language and literature. The use of IT-technologies allows to optimize the teaching of orthoepy, orthography and punctuation, to increase the motivation of students of humanitarian specialties, to increase the efficiency of organizing students' independent work, to diversify the forms and types of activities in practical classes.*

²⁶² Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 50

²⁶³ Mavlonov O., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. T.: “Akademiya”, 2004. 16-19-betlar.

²⁶⁴ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 51

«Стремление овладеть современными знаниями, быть просвещенными и обладать высокой культурой должно стать для всех нас жизненной потребностью»²⁶⁵.
Ш.Мирзиёев

Использование информационных технологий в учебном процессе является актуальной проблемой современного занятия, так как «задачи модернизации образования не могут быть решены без оптимального внедрения информационных технологий во все его сферы»²⁶⁶. Возникает необходимость изменения таких методов и технологий обучения, которые формируют практические навыки анализа информации, самообучения, стимулируют самостоятельную работу обучающихся, формируют опыт ответственного выбора и ответственной деятельности. Применение информационных технологий в преподавании русского языка и литературы способствует совершенствованию практических умений и навыков, позволяет «эффективнее организовать самостоятельную работу и индивидуализировать процесс обучения, повышает интерес к урокам словесности, активизирует познавательную деятельность учащихся и развивает творческий потенциал»²⁶⁷.

Необходимость использования ИКТ в образовательном процессе продиктована самой жизнью: дети живут в технологическом пространстве и в школе, и дома. Современный урок не может быть эффективен и интересен без использования ИКТ, и авторитет учителя резко падает, если он не следит за современными педагогическими технологиями.

ИКТ дают возможность:

- повысить интерес к предмету, делая процесс обучения более увлекательным, запоминающимся;
- поставить в центре обучения самого обучающегося, его психологические особенности;
- расширить возможности для плодотворного сотворчества учеников и учителя, что положительно влияет на эмоциональную атмосферу на уроке;
- увеличить объем информации, сообщаемой ученику на уроке;
- помогает расширить кругозор учащихся, мотивировать детей самостоятельно искать информацию;
- активизировать организацию процесса познавательной деятельности школьника;
- активизировать умственную деятельность учащихся²⁶⁸.

С помощью ИКТ можно решать такие педагогические задачи, как:

- умение находить и обрабатывать нужную информацию, работать с дополнительной литературой, используя возможности компьютера, Интернета;
- умение самостоятельно анализировать, отбирать главное, использовать на уроке;
- повышение эффективности урока через использование цифровых образовательных ресурсов²⁶⁹.

Информационные технологии развивают новые формы и содержания традиционных видов деятельности, что ведёт к их осуществлению на более высоком уровне. Работа с компьютером должна быть организована так, чтобы с первых же уроков она стала «мощным психолого-педагогическим средством формирования потребностей мотивационного плана деятельности школьников, средством поддержания и дальнейшего

²⁶⁵ Ш.Мирзиёев, сайт <https://president.uz/ru/lists/view/3315>

²⁶⁶ Анцибор М.М. Активные формы и методы обучения. Тула, 2002. С.12

²⁶⁷ Объединение учителей русского языка и литературы. Методика проведения современного урока (7 выпуск). [Самара.2011].

²⁶⁸ Бабич И. Н. Новые образовательные технологии в век информации. Материалы XIV Международной конференции «Применение новых технологий в образовании» – 2003. — с.68–70.

²⁶⁹ Зенкина С. В. Информационно-образовательная среда как фактор повышения качества обучения. Педагогика. 2008- № 6 с. 22–28.

развития их интереса к изучаемому предмету»²⁷⁰. Правильно организованная работа с компьютером может способствовать в частности росту познавательного и коммуникативного интереса обучающихся, что будет содействовать активизации самостоятельной работы обучающихся по овладению русским языком как на уроке, так и во внеурочное время.

Компьютерные технологии обладают различными возможностями для создания благоприятных условий работы по осмыслению разделов «Орфография и пунктуация», «Орфоэпия». Готовые программные продукты «Фраза», «Уроки Кирилла и Мефодия», «IC: Репетитор. Русский язык»²⁷¹, электронные таблицы Т.Я. Фроловой позволяют решать проблемы, препятствующие формированию устойчивых навыков правописания и произношения. Использование интерактивной доски позволяет разнообразить работу на уроке: работа с текстом и изображениями, просмотр электронных энциклопедий и хрестоматий, коллективная работа с заданиями электронных образовательных программ «IC: Репетитор. Русский язык», «Фраза», «Ударения» работа с электронными образовательными ресурсами. Яркие образы, впечатляющие краски, безграничные возможности для фантазии позволяют обучающимся средних классов в форме игры легко усвоить учебный материал. В несколько раз повышается эффективность урока, исчезает монотонность в преподавании.

Современный учитель немыслим без знания информационно компьютерных технологий. Компьютер становится «незаменимым инструментом в работе, значительно облегчающим ее, повышающим эффективность и качество»²⁷². Средства коммуникации Интернет позволяет обмениваться опытом с коллегами во всем мире, ведь Интернет – самый универсальный источник педагогической и методической научной информации.

Таким образом, использование ИКТ на уроках русского языка и литературы значительно повышает не только эффективность обучения, но и помогает создать более продуктивную атмосферу на уроках. Информационные технологии развивают творческие, исследовательские способности учеников, повышает их активность, способствует более осмысленному изучению материала, приобретению навыков самоорганизации, самооценки и самоконтроля, активизируют познавательную деятельность учащихся, повышают интерес к предметам.

Литература:

1. Анцибор М.М. Активные формы и методы обучения. Тула, 2002. С.12
2. Бабич И. Н. Новые образовательные технологии в век информации. Материалы XIV Международной конференции «Применение новых технологий в образовании» – 2003. — с.68–70.
- 3.Зенкина С. В. Информационно-образовательная среда как фактор повышения качества обучения. Педагогика. 2008- № 6 с. 22–28.
4. Объединение учителей русского языка и литературы. Методика проведения современного урока (7 выпуск). [Самара.2011].
- 5.Поташник М. М. Как подготовить и провести открытый урок (современная технология) М.: Педагогическое общество России, 2013 г.- 144 с.
6. Матюха Г.А. Использование информационных технологий на уроках русского языка и литературы.

²⁷⁰ Матюха Г.А. Использование информационных технологий на уроках русского языка и литературы.

²⁷¹ Поташник М. М. Как подготовить и провести открытый урок (современная технология) М.: Педагогическое общество России, 2013 г.- 144 с.

²⁷² Актуальные проблемы обучения информатике в высшей и средней школе: материалы Всероссийской научно-практической конференции / науч. ред. И.А. Дудковская, ред. И.В. Ижденёва, А.Б. Шахматова. Новосибирск: ООО "Немо Пресс", 2011. С.223

7. Актуальные проблемы обучения информатике в высшей и средней школе: материалы Всероссийской научно-практической конференции / науч. ред. И.А. Дудковская, ред. И.В. Ижденёва, А.Б. Шахматова. Новосибирск: ООО "Немо Пресс", 2011. С.223
<https://president.uz/ru/lists/view/3315>

ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИ ВА АМАЛИЙ НАМУНАСИДА ИЖТИМОЙ ИЖОБИЙ ЎЗГАРИШЛАР

Рўзимуротова У.Х.- талаба. НавДПИ
Илмий Раҳбар: ф.ф.б. (PhD) в.б.доц. Нумонова Д.У.

REZYUME: In the course of the development of civil society, the role of parents is changing in the socio-political, economic and spiritual life, basic support for social and political life of activity women has been formed.

Key words: state, civil society, family, social activity.

Тарихга назар солсак, мавжуд бўлган инсон ҳақидаги қарашлар таҳлили бу жараёнларни серқирра эканлигини, у билан боғлиқ муаммоларга нисбатан ранг-баранг ёндашувлар мавжудлигини яққол намоён қилади. Натижада бундай кўринишлар нафақат ҳозирги даврда, балки келажакда ҳам инсон билан боғлиқ муаммолар фалсафанинг асосий масалаларидан бири бўлиб қолишини, инсоннинг ўзи эса энг олий кадрият объекти эканлигини кўрсатади. Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев ўзининг асарларининг 3-жилдида шундай деган: “Ҳаммамиз тушунамиз, “Меҳр-ҳаётнинг устун” деган сўзларда чуқур маъно ва мазмун мужассам.²⁷³”

Мамлакатимизда асосий муҳим омиллардан бири бу инсон ҳаёти ва фаолияти, жамиятдаги ўрни, бахтга қанчалик бойлиги, бу демократик характерга эга эканлиги, барча соҳаларни ривожланаётганлигидан далолат бериб турибди. Мамлакатимиздаги маънавий-интеллектуал тараққиёти учун иқтисодий замин яратиш қанчалик муҳимлиги, моддий фаровонликни таъминлаш учун маънавий-интеллектуал салоҳиятни кучайганлиги ва янада кучайтириш ҳам шунчалик муҳим жараёнлардан ҳисобланади. Бунда оилалардаги тадбиркорлик, фарзандларнинг ақли ва уддабурронлиги оналарнинг ҳамда оталарнинг ўрнини аҳамиятига боғлиқ. Ҳар бир инсон олдига қўйган мақсадини амалга ошириш учун қанчалик ҳаракат қилса, шунчалик муваффақиятларга эришади ва ҳаётида осойишталикка, ҳузур ҳаловатли кунларига ўз ўрнига, бахту камолига оиласидагилар олдидаги ҳамда Ватан олдидаги бурчини бажариш бахтига етишади. Ҳар бир инсон ўз олдига қўйган олий мақсадини амалга оширишда олийжаноб, ижобий хислатларга бой гўзалликлар яратиши лозим. Жамиятдаги ижтимоий жараёнлар таркибида ислохотлар кўламида инсонлар мафаатлари, инсонпарварлик талаблари ва меъёрлари ҳисобга олинishi лозимлигини англатадиган тушунчадир. Бундай боғлиқлик бузилган ҳолда, жамиятда сиёсий тизимга таъсир камаяди. Чунки фақат маънавий соғлом, кучли жамиятгина иқтисодий ва сиёсий ислохотларга тайёр бўлиши, уларни самарали амалга ошириши мумкин²⁷⁴. Ҳар қандай жамиятда барқарорликнинг узлуксизлигига эришиш, ундаги ижтимоий адолат тамойилларига риоя қилиниши билан узвий боғлиқдир. У жамиятда ҳаётидаги ҳодисалар, тартиб-қоидаларда асл инсоний идеалларга, ҳақиқат мезонларига қанчалик мос эканини англашда ҳамма замонларда ҳам асосий мезон бўлиб хизмат қилади.

“Ўз нафсини мағлуб этаолган марддир,

²⁷³ Шафкат Мирзиёев “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” Тошкент - “Ўзбекистон”-2019.105-бет.

²⁷⁴ Назаров Қ. Кадриятлар фалсафаси. Т.: “Академия”, 2011. 56-бет.

Ғийбатлардан узок кетолган марддир”.²⁷⁵

Жамиятнинг шахсга, шахснинг жамиятга ва бир шахснинг иккинчи шахсга муносабатида намоён бўладиган адолат тамойили ана шу муносабатларни баҳолашнинг ўзгармас мезонидир. Дарҳақиқат жамиятдаги адолатлилик оиладаги ҳам жамоадаги, ички ва ташқи адолатлиликлар, оилада ота ҳамда онанинг ўртасидаги, фарзандлар ўртасидаги, Ватан, жамият, ҳаёт ва дунё олдидаги адолат, барча-барчасининг адолати инсонлардаги шунингдек оиладаги масъулиятни ошишига олиб келади. Чунки, ҳар бир инсон ўз олдидаги бурчини ва масъулиятини адолат юзасидан англаши, бажариши ҳамда амалий намунасига амал қилиши, уни бахтга эриштиради. Гўзал турмуш, тинчлик, фаровон ҳаёт, дўстлик, тенглик, озодлик ва адолатлилик юксак инсоний қадрга эга бўлган эзгу тилаклар ҳамда умрбоқий бахт-саодатга эришишга нурли йўл очувчи қуёш мисолидир. Таълим-тарбия жараёнида кўз билан кўриши, эслаб қолиши, уларни ўзи анализ-синтез қилиши, айрим нарсаларга жуда эътиборли бўлиши, юксак самараларга олиб келади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Шафкат Мирзиёев “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” Тошкент -“Ўзбекистон”-2019.105-бет.
2. Қ. Назаров . Қадриятлар фалсафаси. Т.: “Академия”, 2011. 56-бет.
3. ”. Абу Абдуллоҳ Рудакий “Шарқ донишмандлари ҳикматлари”- “Шарқ” нашриёти –Матбаа Акциядорлик Компанияси Бош Таҳририяти Тошкент –2006.- 186 бет.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СКАЗУЕМОГО В БЕЗЛИЧНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЯХ

Намазов Р. А. – магистрант 2 курса НавГПИ
Узбекистан

Annotation: this article discusses the ways of expressing the predicate in impersonal sentences, the stylistic use of impersonal sentences in speech.

Безличные предложения - это односоставные предложения со сказуемым, которое обозначает действие или состояние без действующего лица. В безличных односоставных предложениях нет и не может быть подлежащего. Действие совершается как бы само по себе.

Главным членом безличного предложения является сказуемое, которое не предполагает даже опосредствованного указания на субъект действия. Грамматическая форма сказуемого не подсказывает предполагаемое действующее лицо, как например в определенно-личных предложениях. Сказуемое выступает в абсолютно независимой позиции и является предикативным центром безличного предложения. *Ночью Малике не спит-ся.*

В безличных предложениях сообщается, что происходит с лицом, предметом, окружающей средой. Они выражают:

- 1) процесс или состояние, независимые от активности деятеля, от его воли: *Мне не терпится;*
- 2) состояние природы: *На улице ветрено;*
- 3) действие косвенного субъекта: *Ветром сорвало крышу;*
- 4) отсутствие чего-либо: *Нет времени. Ни огонька, ни проблеска света;*
- 5) модальные значения (долженствования, необходимости, возможности, невозможности): *Нужно обсудить. Следует выспаться.*

²⁷⁵ ”. Абу Абдуллоҳ Рудакий “Шарқ донишмандлари ҳикматлари”- “Шарқ” нашриёти –Матбаа Акциядорлик Компанияси Бош Таҳририяти Тошкент –2006.- 186 бет.

В безличных предложениях имеется только один состав - состав сказуемого. Главный член предложения обозначает действие, а его поясняют второстепенные члены - дополнение и обстоятельство. В предложении может быть слово с предметным значением, но не в форме именительного падежа.

Мне (кому?) не спится.

Машины (что?) занесло на крутом повороте.

Чтобы определить безличное предложение, обращаем внимание на способы выражения сказуемого. В безличных предложениях сказуемое выражается словами различных частей речи и их сочетаниями.

Рассмотрим способы выражения сказуемого в безличных предложениях:

1. Безличный глагол

Быстро рассвело.

Уже смеркается.

Стемнело бы скорее!

Бабушке сегодня нездоровится.

2. Личный глагол в безличном употреблении

Сравните:

Поздняя осень несёт нам серые дни, туманы и непогоду.

Откуда-то несёт запахом сырости.

3. Слова «нет», «не было», «не будет»

Людей неинтересных в мире нет (Е. Евтушенко).

У нас иного выхода не было.

4. Слово категории состояния

Пусто и неуютно в осеннем поле.

Кажется, ему здесь тоскливо одному.

5. Глагол в неопределённой форме (инфинитив)

Нам не видать таких сражений! (М. Лермонтов)

6. Краткое страдательное причастие в форме среднего рода единственного числа прошедшего времени

В доме жарко натоплено.

У нас совсем еще не прибрано к празднику.

7. Безличный глагол и инфинитив

Нам пришлось потесниться на сиденье автомобиля.

8. Слово категории состояния и инфинитив

Что-то мне трудно дышать в этой комнате.

Безличные предложения отличаются особым разнообразием конструкций и их стилистическим применением в речи.

1) Среди них есть такие, которые типичны для разговорной речи: *Хочется есть; Больно!; Не спится; Морозит; Ни души; Нет денег; Пора домой;*

2) некоторые выделяются канцелярской окраской: *Воспрещается без согласия усыновителей... выдавать выписки из книг регистрации актов гражданского состояния; О сохранении правоотношений с одним из родителей... должно быть указано в решении об усыновлении;*

3) есть лирические по эмоциональной окраске, излюбленные поэтами конструкции: *И скучно и грустно, и некому руку подать (Л.); Все помнится, и кажется, и мнится, что осень прошлых лет была не так грустна (Бл.); Легко проснуться и прозреть, словесный сор из сердца вытрясть и жить, не засоряясь впредь (Паст.); Быть твоею сестрою отрадной мне завещано давней судьбой (Ахм.),*

4) есть предложения, используемые в публицистической речи, предназначенные для обычной информации: *Ответ надо искать всем заинтересованным организациям.*

Правда, журналисты черпают из состава безличных конструкций и эмоциональные, которые необходимы для усиления действенности речи: *Стоя приветствовали болельщики чемпиона, и не было конца восторгам; Нужно было бы искать ему [спортсмену] замену, а достойных кандидатов в сборной нет; На равных бороться ему не по силам; Побеждать всегда приятно, но не разумнее ли отвлечься на время от дня сегодняшнего и заглянуть чуть дальше?*

5) Отдельные группы безличных предложений постоянно используются в научном стиле: *Известно, что...; Приходится признать, что...; Начинать опыт следует с вливания наименее концентрированного раствора и переходить к более концентрированным; За один опыт рекомендуется применять не более 7-10 раздражений кислотой.* Отличающий этот функциональный стиль безличный принцип изложения обуславливает сравнительно частое использование безличных предложений со сказуемыми, выражающими различные оттенки долженствования, необходимости: *При установлении исходного функционального состояния организма следует обратить внимание на объективные физиологические данные; С подобной неоднозначностью приходится сталкиваться при всех прямых методах решения структур.*

Использованная литература

1. Абрамова Е.В. Безличное предложение в кругу синтаксических синонимов / Е. В. Абрамова // Русское слово и высказывание: рациональное и эмоциональное: межвуз. сб. науч. тр. -М., 2006. С. 148-153. Абрамова 2006.
2. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. Логико-семантические проблемы / Н. Д. Арутюнова. Изд. 3-е. - М.: Едиториал УРСС, 2003. - 383 с. Арутюнова 2003.
3. Барамыгина КБ. Личные значения безличных предложений / И. Б. Барамыгина // Словарь, грамматика, текст в свете антропоцентрической лингвистики. Вып. 1. -Иркутск, 2000. Барамыгина 2000.
4. Калинин А.Ф. Безлично-инфинитивные предложения среди других типов простого предложения / А. Ф. Калинин // Русский язык в школе. М., 2000. - № 4. - С.84-87. Калинин 2000.
5. Лекант П.А. Семантика эмоционального состояния в форме безличности / П.А. Лекант // Объект исследования - безличность : сб. статей. - Архангельск, 2004. - С.4-6. Лекант, 2004.
6. Русский язык. Большой справочник для школьников и поступающих в вузы / Т.М.Воителева, К.А.Войлова, Н.А.Герасименко и др. – М.: Дрофа, 2000. – 848 с.

ЮСУФ ҲАМАДОНИЙНИНГ “ИНСОН ВА КОИНОТ ҲАҚИДАГИ РИСОЛА”СИДАГИ БУНЁДКОР ҒОЯЛАР

**Нурматова Н.У.- доцент. БухМТИ
Сафоев Ж.Н.- талаба БухМТИ**

Summary: This article analyzes Yusuf Hamadoni's treatise on “Man and the Universe”. This work analyzes 11 constructive ideas that justify the need for a strong balance between man and nature. It also reveals the educational value of studying this work.

Юсуф Ҳамадоний “Инсон ва коинот ҳақидаги рисола”сида инсон бутун мавжудотлар ичида энг улуғ, азиз ва муқаррам зот эканлигига урғу бериб, коинот (борлик)даги неъматлар инсон учун яралганлигига эътиборни қаратади, инсоннинг бахтли, соғлом, фаровон яшаши учун ўз меъерини билиши ва бутун борлик билан уйғун ҳаракатда бўлиши лозим, деган бунёдкор ғояни илгари суради.²⁷⁶ Алломанинг фикрича, инсоннинг камолотга эришувида коинот билан унинг ўртасидаги муносабат меъерида бўлиши жуда

²⁷⁶ Наврўзова Г., Нурматова Н. Юсуф Ҳамадоний - етти пирнинг табаррук устози. Т., “MASHUR-PRESS”, 2016 й.

муҳим.²⁷⁷ Муаллиф ўз асарида инсон билан коинотнинг бир – бирига муҳтожлигини, лекин инсон ундан эҳтиёжидан кўра кўпроқ фойдаланса ўзини ҳам, коинотни ҳам, хатарга қолдиришини таъкидлаб, шундай ёзади: - “Дарҳақиқат, коинот ожиздир, чунки, у сизнинг хизматингизга топширилган, сиз ҳам ожиз ҳожатмандсиз. Фойдаю манфаатга, яроқли нарсаларга муҳтож бўлганингиз учун дунё сизларга бўйсундирилди. Коинотнинг қадр – киммати ва устунлиги очиқ – ойдин маълум. Зеро, у сиз учун фойдалидир. Сизнинг коинотдаги устунлигингиз ҳам очиқ – ойдин равшан. Чунки, унинг фойдали ва завқли жиҳатларидан фойдаланишингиз мумкин. Шу боис коинот бир томондан ожиз бўлса, бир томондан Саид Хожадир, яъни устундир. Сиз ҳам бир жиҳатдан бошқарувчисиз, иккинчи жиҳатдан ожизу муҳтожсиз. Коинотнинг ожизлиги сизга муҳтож бўлгани сабаблидир. Устунлиги эса сенинг коинот ва унинг хизмати туфайли ҳаёт кечира олишингдир”²⁷⁸. Коинот, оддий қилиб айтганда, инсон ва уни ўраб турувчи борлиқ, олам ва ундаги мавжуд бўлган барча нарсалар, ҳодисалар, наботот ва ҳайвонот оламидир. Ундаги барча нарсалар бир – бири билан ҳамма вақт узвий равишда боғлиқдир. Юсуф Ҳамадоний инсон ҳаёти ва камолотини коинот билан узвий боғлиқ эканлигини уқтиради. Демак, инсон бутун борлиқ билан чамбарчас боғлангандир. Буни у қуйидагича таъкидлайди:

1. “Коинот бир таомдир. Сен уни еб, ўзингда ҳазм қиласан. Коинот ичимликдир. Уни ичиб тугатасан. Коинот кийимдир. Сен уни кийиб эскиртирасан. Коинот маскан – уйдир. Сен унда яшайсан”²⁷⁹. Емоқ, ичмоқ, кийинмоқ, манзил-макон сифатида коинотдан фойдаланишда меъёрга эътибор бериш лозим. Бизни ўраб олган наботот, ҳайвонот олами, боғу роғлар инсон хизматида. Лекин, инсон улардан меъёрида фойдаланишга одатланиши лозим ва бу унинг камолотига ёрдам беради.

2. “Коинот иссиқлик ва совуқликдир”²⁸⁰. Бундан ҳам ҳар бир инсон ўз эҳтиёжи ва мижозига кўра фойдаланиши лозим. Коинотдаги йил фасллари, барча ўсимлик, ҳайвонот олами ўзига хос иссиқлик ва совуқлик табиатига эгадир. Инсон табиатдаги ушбу иссиқлик ва совуқликка муносабатни англаши ва ўзининг табиатига мос ҳолда фойдалана олиши тана ва руҳ камолоти учун муҳимдир. 3. “Коинот нур ва оловдир”²⁸¹. Нур ва оловдан ҳам киши тўғри фойдаланиши лозим. Агар биз кўз нурини мисол қилиб олсак, ҳар бир инсон шу кўз нурини ўзига ва халкига, керакли нарсаларга ишлатса, кераксиз, беҳуда, ножўя нарсалардан олиб қочса, албатта унинг кўз нури камаймайди ва у эзгуликка хизмат қилади. Комил инсон нурий (нурли) инсондир. У ғазаб, нафрат, кина каби норий (нурсиз) одамга хос иллатлар устидан ғолиб бўлиб, нур ва олов қувватларидан тўғри фойдалана олади. 4. “Коинот сув ва тупроқдир”²⁸². Инсон организми сув, тупроқ ва бошқа унсурлардан иборат, бунда ҳам ҳар бир инсон, хоҳ у олим бўлсин, хоҳ у бошқа касб соҳиби, сув ва тупроқдан ўз эҳтиёжига яраша фойдаланса, инсон саломатлиги учун жуда фойдалидир. Сув, ҳаво ва тупроқни асраш бугунги кунда ҳам долзарбдир.

5. “Коинот ҳаво ва шамолдир”²⁸³. Булардан ҳожатинг доирасида ишлатсанг, сенга фойдалидир. Лекин ҳожатдан ортиб кетса, сени ўлдиради, маҳв этади, ҳалок қилади. Сен улардан тасарруфинг доирасида фойдаланиб, яшашинг учун ишлат, ҳожатингдан ортигини тарк этгин, дейди Юсуф Ҳамадоний.

²⁷⁷Қаранг: Наврўзова Г., Зоиров Э.Х., Юнусова Г. Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ институти”, 2006 й., 133 б.

²⁷⁸Ҳожа Юсуф Ҳамадоний. Инсон ва коинот ҳақида рисола. \\\ Хожа Абдуллоҳиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний.Т: Янги аср авлоди, 2003. 84-85 бет. ; Хожа Юсуф Ҳамадоний. Рутбат ул-ҳаёт (Ҳаёт мезони).-Т., “Ozbekiston”, 2019.107-бет.

²⁷⁹Ҳожа Юсуф Ҳамадоний. Инсон ва коинот ҳақида рисола. 85 - бет.

²⁸⁰Ҳожа Юсуф Ҳамадоний. Инсон ва коинот ҳақида рисола. 85 -бет.

²⁸¹Ўша жойда

²⁸²Ўша жойда

²⁸³Ҳожа Юсуф Ҳамадоний. Инсон ва коинот ҳақида рисола. 85- бет.

6. “Коинот оила куриш ва никоҳланишдир”²⁸⁴. Агар ҳар бир инсон буни тўғри тушуниб оиласига соғлом фикр билан қараса у инсон учун манфаатли, завқли ва лаззатли бўлади. Бироқ оиласига нисбатан носоғлом фикрларга ва номақбул ишларга ҳаддан ошса, аллома фикрича, ундай инсоннинг қалбига, баданига ва ақлига зиён етади. Инсон ўзига берилган бу имкониятдан наслини давом эттириш, фарзанд кўриш каби эзгулик учун фойдаланиши лозим.

7. “Коинот инсонлар билан бирга бўлиш, халқ билан аралашидир”²⁸⁵. Бунда ҳам ҳар бир инсон гапириши, юриш туриши ва ҳар бир қилаётган ишининг меъёрини билиши лозим. Агар бу ишлар меъёридан ошса у баданни эритиб, қалбни куйдиради.

8. “Коинот уйқу ва уйғоқликдир”²⁸⁶. Бадан ва руҳ камолоти учун уйқу ҳамда уйғоқлик жуда фойдалидир. Уйқу ва уйғоқлик масаласи баданнинг ривож ва инсон табиатининг янгилиниши – тозаланиши учун зарурдир. Уйқу меъёрида бўлса инсон соғлом, чаққон ва тетик бўлади. Меъёрида ухламаслик тана ва руҳни толиқтиради. Сурункали уйқусизлик – касаллик ҳисобланади.

9. “Коинот ейиш, ичиш, эшитиш, ҳидлаш, сўз, иш, ҳаракат ва тўхташдир”²⁸⁷. Агар ҳар бир инсон шулардан ҳам табиати кўтарадиган даражада фойдаланса у инсон учун фойдали ва лаззатлидир.

10. “Коинот тафаккур ва ботиний ишларда мушоҳада юритишдир”²⁸⁸. Инсонга бошқа мавжудотлардан фарқли равишда ақл билан фикрлаш, тафаккур қилиш қобилияти берилган. Шунинг учун инсон ҳар бир қилаётган ишини тафаккур қилиши, яъни шу иш тўғрими ёки нотўғрилигини билиши, ҳар бир сўзини ўйлаб гапириши, оқибати ижобий ёки салбий бўлишини англаши лозимдир.

11. “Коинот ирода ва истакдир”²⁸⁹. Инсон ўз хизматидаги ҳар бир нарсага ҳукмрон. Инсон ўзига берилган ирода ва истакни эзгуликка ишлатса яшаши, борлиги ва барқарорлигини сақлайди. Аксинча, у ўзининг ирода ва истакни ёвузликка ишлатса, албатта ўзига ҳам, коинотга ҳам, атрофидагиларига ҳам, зиён келтиради. Ундай кишилар ҳам руҳан, ҳам жисмонан соғлом бўлолмайдилар.

Демак, Юсуф Ҳамадоний, бир томондан, инсон учун яралган коинотни тафаккур этишга чақирса, иккинчи томондан, инсонни шу катта оламнинг кичик нусхаси эканлигини, коинотдаги барча нарсалар унинг танасида мавжудлигини ва шунинг учун инсон коинотни тафаккур этиб, ўзини англаши ва ўзини билиб Ҳақни таниши лозимлигини таъкидлайди. Умумбашарий муаммолардан бири сифатида экологик муаммолар инсониятнинг бахтли ҳаёт кечиришига хавф солаётган бир вақтда Юсуф Ҳамадонийнинг “Инсон ва коинот ҳақида рисола”сида кўрсатилган инсон ва коинот ўртасидаги муносабатнинг 11 жиҳатини ўрганиш, мазмун - моҳиятини ёшлар онгига сингдириш аҳамиятлидир. Бу рисола ёшларнинг экологик онгининг юксалишига, ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини куриш жараёнида юзага келадиган муаммоларнинг олдини олишда тарихий манба ва тарбиявий восита сифатида муҳим аҳамият касб этади.

²⁸⁴Ўша жойда.

²⁸⁵Ўша жойда.

²⁸⁶Ўша жойда. 86 -бет

²⁸⁷Ўша жойда.

²⁸⁸Ўша жойда.

²⁸⁹Ўша жойда

КОМИЛЛИККА ЕТАКЛОВЧИ МУҲИМ МАНБА
Нурматова Н.У.- доц. БухМТИ
Ўзбекистон

Summary: This article analyzes the work of Yusuf Hamadoni "Rutbat ul - Hayot", one of the works that teach people the secrets of a peaceful, quiet, and tranquil way of living. He encourages a man to be one of the beloved servants of Allah. On the one hand, this work helps a person to understand his identity, on the other hand, it teaches him how to live physically and mentally in peace and tranquility.

Президентимизнинг ўз вазифаларига киришиш маросимида қилган нутқларида Ҳаракатлар стратегиясидан- Тараққиёт стратегияси сари тамойил асосида Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси етти йўналишдан иборат этиб белгиланиши таъкидланди. Мазкур йўналишлардан бири сифатида маънавий ва маърифий соҳаларда амалга оширилаётган ислохотлар ғоят муҳим аҳамият касб этиши қайд этилди. Бу борада - тафаккур дунёсини бойитишда маънавий меросимизга мурожаат қилиш долзарблик касб этади. Бухорои шарифдаги Етти Пирнинг табаррук устози бўлган Юсуф Ҳамадонийнинг асарларини ўрганиш, кенг китобхон халқимизга тақдим қилиш борасида муҳим ишлар амалга оширилмоқда.²⁹⁰ Мазкур мақолада, инсонларга тинч, сокин, хотиржам яшаш сирлари, йўлларини ўргатувчи асарлардан бири Юсуф Ҳамадонийнинг “Рутбат ул - ҳаёт” асари ҳақида фикр–мулоҳаза юритишни лозим топдик, зеро мазкур асар ўзликни англаш, ахлоқни, инсон ички оламини тузатиш, қалб имкониятларига йўл очиш, маърифат сиридан воқиф бўлиб, сайру сулукни камолга етказиш каби масалалардан баҳс юритади. Инсонни Аллоҳнинг суюкли бандаларидан бўлишга даъват этади.

Юсуф Ҳамадонийнинг “Рутбат ул - ҳаёт” асари илк бора Сайфиддин Сайфуллоҳ ва Нодирхон Ҳасанлар томонидан ўзбек тилига таржима қилиниб, бир неча марта нашр қилинди²⁹¹ ва халқимиз бу нодир меросдан баҳраманд бўлди. Юсуф Ҳамадонийнинг “Рутбат ул - ҳаёт” асари дин ва тасаввуфнинг нозик саволларига жавоб тарзида ёзилган. Ўн тўртта саволга жавоб бериш жараёнида инсон камолоти учун муҳим бўлган тушунчалар – инсон, унинг танаси, нафси, қалби, руҳи, ислом, иймон, эҳсон, зикр, фикр, амал, дунё ва охират билан боғлиқ масалалар атрофлича таҳлил этилган. Юсуф Ҳамадоний мазкур асарида инсонни барча махлуқотлар ичида энг улуғ хилқат эканлигини таъкидлайди. Аммо, гўзал тақвимда яратилган инсонда камол топиб, илоҳийлик даражасига юксалиш бахти билан бирга таназзулга учраб, ҳайвоний даражага тушиб қолиш хавфи ҳам мавжудлигидан огоҳлантиради. Муаллиф асарда “инсонийлик” ва “ҳайвонийлик” сифатларига, белги ва хусусиятларига тўхталади. Дастлабки шарт сифатида нафсни жиловлашга, у билан мужоҳада этишга ундайди. Ҳалол ва ҳаром, моддийлик ва руҳият, дунё ва охират, тубанлик ва юксаклик каби тушунчаларни атрофлича таҳлил қилиб, сабаб ва оқибатларига тўхталади.

Асарда инсон ҳаётини уч босқичга: ислом билан яшаш, иймон билан яшаш ва эҳсон билан яшашга ажратади ва ҳар бир даража учун хос бўлган мазкур асослар таҳлил этилади. “Тирик (жонли) ким ва тириклик (ҳаёт) нима?” – деб берилган саволга Юсуф Ҳамадоний: “Билгинки, басират ва яқин аҳли қошида тирик – бу тинч – осуда кишидир. Тириклик эса тинчлик - хотиржамликдир”,²⁹² дея таъкидлайди. Юсуф Ҳамадоний асарда инсонларнинг бир қисми дунё, яъни моддий нарсалар билан осуда, тинч ва сокиндир, иккинчи қисми эса

²⁹⁰ Наврўзова Г. Нурматова Н. Юсуф Ҳамадоний - етти пирнинг табаррук устози. Т., “MASHUR-PRESS”, 2016 й.

²⁹¹ Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-ҳаёт).-Т., “Янги аср авлоди”, 2003 й; Хожа Юсуф Ҳамадоний. Рутбат ул-ҳаёт (Ҳаёт мезони).-Т., “Ozbekiston”, 2019 й.

²⁹² Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-ҳаёт).-Т., “Янги аср авлоди”, 2003 й.,10-11 бет.

илохий, маънавий нарсалар билан хотиржамдир, деб ёзади. Биринчи гуруҳ дунё моли, безакларини жамлаш, тўплаш билан яшайди. Бундай ҳаёт тарзини Юсуф Ҳамадоний алданиш, жуда қадрсиз ва тубан даража, деб таърифлайди ва чунки, бундай одам ҳайвон, хашарот, қушлар билан баробардир, улар каби эрта-ю кеч қорнини тўйдириш ғамидадир, дея изоҳлайди. Муаллиф инсонни онгли, фаҳм-фаросатли қилиб яратилганлигини таъкидлаб, у инсонийлик даражасида яшаши лозимлигини уқтиради. Ҳайвонийлик даражасидан юқорига чиқа олмаган кишиларни ғофил деб атайди ва аксинча, ўзини англай олган ҳамда инсонийлик даражасига юксалганларни огоҳ ва хушёр кишилар дея таърифлайди.

Юсуф Ҳамадоний “Рутбат ул – ҳаёт” асарида нафс масаласига алоҳида эътибор қаратади. У нафсни – “Инсон вужудининг ҳаммоли ва вужуд ишларини бажарувчи улов”,²⁹³ - дея таъриф беради. Муаллиф фикрича, инсон бу моддий оламда қисқа муддат яшаб ўтувчи мавжудот эмас. Бу олам инсон учун охиратнинг зироатгоҳидир. Яъни, инсон ҳаёти давомида қилган ҳар бир эзгу ва хайрли амаллари охират учун заҳира бўлиб йиғилиб боради. Шунинг учун инсон ўз нафси ва истакларига ўз эҳтиёжи даражасида ҳамда меъёрда муносабатда бўлиши лозим. Инсон ҳамиша ўз нафсини жиловлай олиши лозим. Юсуф Ҳамадоний инсоншунос олим. У ҳар бир инсоннинг эҳтиёжлари турлича бўлишини, тана хусусияти ва миждози билан фарқ қилишини асослаб беради. Тана инсонга эзгу ва хайрли ишлар учун хизмат қилиши лозим. Ҳою ҳавасларга берилиб, нафс истаклари учун яшайдиган кишининг танасини Юсуф Ҳамадоний қароқчи ва йўл тўсарларнинг оти ҳамда туясига ўхшатади.

Ислом тинчлик, хотиржамлик, аҳилликка чорловчи диндир. Юсуф Ҳамадонийнинг фикрича, агар инсон танаси эзгулик йўлида хизмат қилса, ислом билан яшаш ҳисобланади. Бундай ҳаёт тарзи натижасида тана покланиб қалб поклигига эришилади. Покиза қалбда иймон гавҳари яшайди ҳамда эзгу ниятлар ҳосил бўлади. Ана шундай яшаш тарзини аллома иймон билан яшаш дея таърифлайди. Шунингдек, аллома Аллоҳ инсонни кўриб тургани каби ва инсон ҳам унинг мавжудлигини ҳис қилиб ҳаракатда бўлишини эҳсон билан яшаш дея таъкидлайди.

“Рутбат ул - ҳаёт” да Юсуф Ҳамадоний ғазаб хусусида куйидагича таъриф беради: “Ғазаб шундай бир иллатки, на тадбиркор ақл ва на буюрувчи қалб унга бас келаолмайди”²⁹⁴. Ғазаб илллати инсоннинг нуруни ўчириб, ҳайвоний ҳис-туйғулар оловида ёндиради. Асарда Юсуф Ҳамадоний ғазаб иллатидан қутулиш йўллари кўрсатади. Инсон тинч-хотиржам яшаши учун ғазаб қуввати устидан ғолиб чиқиши керак. Мазкур асар инсоннинг ўзлигини англаши йўлидаги муҳим тушунчаларни - тана, қалб, руҳ, сир каби мураккаб тушунчаларни илмий ўрганиш борасида қимматли манба ҳисобланади. Юсуф Ҳамадоний инсон танасининг сўзи ва бажарадиган ишларини бодом ёки ёнғоқнинг пўстлоғига, қалб тафаккурини уларнинг мағзига, инсон руҳи ва сирни эса бодом ёғига ўхшатади. Муаллиф асарнинг яна бир бошқа жойида баданнинг сўз ва амалларини юлдузга, қалбда уйғонадиган фикр ва тушунчаларни ойга, инсон руҳи ва сирини қуёшга ўхшатади. Инсон руҳига аслларнинг аслидир, дея таъриф беради. Тадқиқотларда хотиржамлик инсон баркамоллигининг мезони эканлиги баён этилади²⁹⁵. Дарҳақиқат, тинчлик ва хотиржамлик инсоннинг ўзидаги бор имкониятларини эзгу ишларга сафарбар этишига ёрдам беради. Руҳий осойишталик, тана саломатлиги, қалб сокинлиги учун ҳам тинч – осуда ҳаёт зарурдир.²⁹⁶

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Юсуф Ҳамадонийнинг “Рутбат ул-ҳаёт” асарини

²⁹³ Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-ҳаёт).-Т., “Янги аср авлоди”, 2003 й.,14 - бет.

²⁹⁴Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-ҳаёт).-Т., “Янги аср авлоди”, 2003 й., 33 - бет

²⁹⁵Наврўзова Г., Юнусова Г. Ўзликни англашда хотиранинг ўрни ва роли. Т.: “Чашма Принт” 2013 й.,105-109-бетлар.

²⁹⁶ Зоиров Э., Алимова М. Саломатлик фалсафаси. Т.: “Турон замин зиё”, 2015 й. 90-96 бетлар.

муҳим манба бўлиб, уни ўрганиш ва мазмун - моҳиятини ёш авлод онгига сингдиришнинг аҳамияти каттадир. Чунки, бу асар бир томондан, инсоннинг ўзлигини англашга ёрдам берса, иккинчи томондан унга ҳам жисман, ҳам қалбан, ҳам руҳан осойишта, тинч, хотиржам яшаш йўлларини ўргатади. Юсуф Ҳамадонийнинг мазкур асари ахборот хуружи авж олган глобаллашув шароитида ислом динини ниқоб қилиб олган қора кучларнинг вайронкор ғояларидан ёшларимизни ҳимоя қилувчи, бир сўз билан таърифлаганда, инсонни комиллик сари етакловчи муҳим манбадир.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT HAQIDA STANDARTLAR

Axmedov J.X. p.f.b.ф.д.(PhD), JizPI
Nurov O`X. 2-magistr , JizPI

Annotation: Information is a set of signs, details, instructions that reduce the level of uncertainty about an object, a specific part of the environment, or a specific process. Communication, in turn, is a form of presentation of information that includes speech, text, images, graphics, tables, video, sound, etc. expressed in the form of informatization of the production process also leads to profitability.

Axborot - so'zi lotinchasi «informatio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tushuntirish, tanishtirish, bayon etish degan ma'nolarni anglatadi. Axborotning o'zini esa biror ob'ekt, atrof - muhitni ma'lum bo'lagi yoki ma'lum jarayon haqidagi, aniqlik darajasini kamaytiradigan belgilar (parametrlar), tafsilotlar yo'riqlar va h.k. majmuasi deyish mumkin. O'z navbatida xabar axborotni tasvirlash formasi bo'lib, u nutq, matn, tasvir, grafik, jadval, videotasvir, tovush va h.k. ko'rinishida ifodalanadi. Umuman, zamonaviy mazmunda olganda -axborot bu odamlar orasidagi, odamlar bilan jonli va jonsiz tabiat, xususan EHM orasidagi ma'lumot almashinuvi bo'lib, keng ma'nodagi ilmiy tushunchadir. Informatika -bu insoniyat faoliyatining bir sohasi bo'lib, u axborotni hosil qilish, saqlash va kompyuter yordamida ularni qayta ishlash, shu bilan bir qatorda tadbir muhiti bilan o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlarning aloqadorliklarini o'z ichiga oladigan ko'nikma va vositalar tizimidir.

Informatika atamasi 60 yillar oxirida Fransiyada vujudga keldi. U axborot (information) va avtomatika (automatique) so'zlarini birlashtirishdan hosil bo'lib, «ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash» degan ma'noni bildiradi. Ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarda kompyuter fani Computer science deb ataladi.

Informatika keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida axborotni kompyuter va telekommunikatsiyalar yordamida qayta ishlash, saqlash, uzatish bilan bog'liq bo'lgan sohadir. Tor ma'noda informatika 3 qismdan iborat: texnik vositalar, programmalar va algoritm. Shuningdek, informatikani xalq xo'jaligining, fundamental fanning va tatbiqiy fanning bir tarmog'i deb ko'rish mumkin.

O'z navbatida insonning ixtiyoriy faoliyati doirasi, shu bilan birga fanning har bir tarmog'i, xoh tabiiy, xoh ijtimoiy bo'lsin, undagi axborot o'zining maxsus tomonlari bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodiyot, yuridik, filologiya va jurnalistika axborotlari haqida aytadigan bo'lsak, bu shu soha mutaxassislarining xizmat burchlari muvaffaqiyatli bajarishlari uchun zarur bo'lgan, doimo yangilanib turuvchi bilim va ma'lumotlar to'plami bo'lib hisoblanadi. Xususan, axborotning eng asosiy turlaridan biri - iqtisodiy axborot hisoblanadi. Uning farqli tomoni shundaki, u odamlarning katta jamoalari bilan, tashkilotlar bilan, korxonalar va shu singari boshqa iqtisodiy strukturalardagi boshqarish jarayonlari bilan bog'liqligidir. Iqtisodiy axborot - bu ishlab chiqaradigan va ishlab chiqarmaydigan sohalardagi, odamlar jamoasidagi ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi va ularni boshqarish uchun xizmat qiluvchi ma'lumotlar to'plamidir. Ko'p hollarda axborot jumlasini o'rniga berilganlar degan ancha farq qiluvchi jumla

ishlatiladi. Axborot bu - aniq va amalda ishlatiladigan xabardir. Berilganlar esa - bu xabarlar, kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Biror zarurat bo'yicha imkoniyat tug'ilganda, masalan, narsa to'g'risidagi bilimni oshirish paytida u axborotga aylanadi. Axborotning amalda qo'llanilishi zarur sharti uning o'z vaqtidaligi va adekvatligidir. Adekvatlik bu olingan axborot asosida qurilgan obrazning haqiqiy ob'ektga qanchalik mosligini beradi va u uchta formada ifodalanadi:

Sintaktik adekvatlilik -bu axborotni uzatish tezligi, aniqligi, kodlashtirish tizimi, tashqi ta'sirlarning mavjudligi va shu kabi jarayonlardan iborat.

Semantik adekvatliliigi -uzatiladigan axborotning ma'naviy tarkibi, ob'ekt obraziga va haqiqiy ko'rinishiga mos kelishligi hisobga olinadi.

Pragmatik adekvatlilik -olingan axborotning asosiy boshqariladigan jarayon bilan mos kelishini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, bir tomondan eng xaridorgir tovar yangi ma'lumotni yaratish, qayta ishlash va uzatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib yetishish, talablarga bo'lgan mutaxassislarni shakllantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan bu maqsadga erishishda ularga sharoitlarni ta'minlash vazifasidir. Kompyuterlar imkoniyatlari takomillashuvi hamda ishlab chiqarish va hayotni turli sohalariiga intensiv tarzda kirib borishi mos fan sohasini informatika fani predmetini bir necha bor tubdan yangilanishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kompyuter va unga mos programmaviy ta'minot bazasi imkoniyatlari bu fanni o'qitishda har bir soha mutaxassislariiga muayyan bilim va ko'nikmalar majmuasini belgilash imkonini beradi va taqozo qiladi. Shu bois biz informatika fani programmasini mutaxassisliklarga ko'ra uch turga ajratishni taklif etamiz: fizika-matematika, mexanika va muhandislik kasblari, tabiiy fanlar, jumladan tibbiyot va iqtisodiyot fanlari hamda gumanitar fanlar uchun alohida. Informatsiya, axborot yoki ma'lumot kabi tushunchalar bizga kundalik hayotimizda tanish bo'lishiga qaramasdan, informatsiya tushunchasining qat'iy ta'rifi mavjud emas. Biror o'rganilayotgan jonli yoki jonsiz ob'ekt to'g'risidagi yi g'ilgan og'zaki, yozma (matn, jadval, rasm chizma, sxema) yoki bosh qa turli ko'rinishdagi ma'lumotlar (axborotlar) yoki berilgan to'plamni, biz odatda informatsiya deb qabul qilinadi.

Informatsion texnologiyalarning asosiy apparat vositasi elektron hisoblash mashinasidir. Hisoblash texnikasining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan b o'lsak, uning quyidagi bir necha muhim davrlarni o'z ichiga olishini ko'rish mumkin:

ibtidoiy hisoblash vositalari va hisob ch o'tlar davri;

mexanik mashinalar davri;

elektro-mexanik mashinalar davri;

elektron hisoblash mashinalari davri.

Dasturiy maxsulotlar bozori mavjudligi sharoitlarida muxim xususiyatlar quyidagilardir:

sotilgan maxsulot soni;

bozorda turish vakti (savdo davomiyligi);

firma-ishlab chikaruvchi va dasturlari mashxurligi;

xuddi shunday dasturiy maxsulotlarning mavjudligi.

Ommaviy tarkatiladigan dasturiy maxsulotlar bozor extiyoji va kongyunkturasini (rakiblar dasturlari mavjudligi va narxlari) hisobga oluvchi narxlarda sotiladi. Firma olib boradigan marketing ishlari katta ahamiyatga ega, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bozorni egallash uchun narx-navo siyosatini shakllantirish;

dasturiy maxsulotni keng reklama kilish;

dasturiy maxsulotni sotish uchun savdo tarmoqlarini barpo etish (dillerlik va distribyuterlik markazlari deb ataladi);

dasturiy maxsulot foydalanuvchilarini o'qitish.

Inson omilini hisobga olish oxirgi foydalanuvchi uchun dustona interfeysni ta'minlash, dasturiy vosita tarkibida kontekstli-bog'liq holda aytib beruvchi yoki o'qituvchi tizim, dasturiy vositaga kiritilgan funksional imkoniyatlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish uchun yaxshi

me`yoriy xujjatlar mavjudligini anglatadi.

Adabiyotlar:

1. N.V. Makarova tahriri ostida Informatika. Toshkent –“Talqin”-2005.
2. A.R Madrahimov, S.I.Rahmonqulova, Internet va undan foydalanish asoslari. Toshkent-2001.

ХОЖАГОН ТАРИҚАТИДА “ИНСОН ДЕГАН НОМГА МУНОСИБ БЎЛМОҚ” ХУСУСИДА

Шарипова О.Т.- ф.ф.н., доц. БухДУ Ўзбекистон

Annotation: This article analyzes the spiritual and moral teachings of the founder of the Sufi tariqah of Hodjaqon – Naqshband, Abdukhalik Gizhdvani. As well as his ethical views on science, creativity, humanity, conscience, spiritual purity, noble deeds, spiritual exaltation. He pushed the ideas of helping the society, lightening their burdens, and raising the spirituality and morality in life through good deeds.

Key words: Sufism, contemplation, science, honesty, patriotism, social life, moral maturity, wisdom, good deeds

Хожагон тасаввуфий тариқатининг асосчиси Абдуҳолик Ғиждувоний таълимотида инсон деган номга муносиб бўлиб ижтимоий ҳаётда фаолият кўрсатиш ҳам диний, ҳам дунёвий нуқтаи назардан фарз эканлигига эътибор қаратилади.

Инсон руҳий жиҳатдан боқий яшаш учун бу дунёдаги ҳаётдан фойдаланиши, маънавий жиҳатдан юксалиши лозим. Бунинг учун эса, хўжагон аҳлининг айтишларича хилват, холи, кимсасиз жойда яшаш эмас, жамиятда бўлиб, покланиш, софланиш воситаси билан руҳий бойлик, мангу ҳаётга ўтиш мумкин. Ғиждувоний фикрича ҳақиқий тақводор пок шахс ўз ҳаётида эҳсонли бўлишни, яшашида яхшилик қилишни, хайрли аъмолни содир этишни ўз олдига асосий маънавий-ахлоқий мақсад қилиб қўймоғи лозим. Хожаи Жаҳон Абдуҳолик Ғиждувоний томонидан айтилган инсондўстлик ғоялари, улуғ ҳикматлари ҳаёт қонуни ҳисобланади. “Ёмонларга ҳам яхши муносабатда бўлиш”, “доимо халқга хизмат қилиш, уларнинг оғирини енгил қилиш қўлдан келмаса, зарар ҳам келтирмаслик” каби ўғитлар берилади. Барчага яхшилик қилиш, хайрли амолли бўлиш йўли билан маънавий-ахлоқий ҳаётни юксалтириш, ҳақиқий инсоний ҳаёт даражасига етиш мумкиндир.

Хўжаи Жаҳон Абдуҳолик Ғиждувонийдан “Маърифатнинг камоли нимада?”-деб сўраганларида, у киши куйидагича жавоб беради: “Худованд сенга кўз берди-кўриш қувватини ато этди. У тил берди ва ширин сўзлашиш қудратини ато этди. Улардан тўғри фойдаланиш, саодатга элтишга сабаб бўлади, уларни нотўғри гуноҳ йўлида ишлатиш эса, шақоват-яъни бахтсизликни келтириб чиқаради. Шу юқоридаги латоифларнинг тўғри, Ҳақ йўлида ишлаши инсонда комил маърифат борлигидан дарак беради. Маърифатнинг чегараси нафси бошқариш ва бунинг тадбири ҳалол нарсалардангина баҳраманд бўлмоқни одат қилмоқдур ²⁹⁷ - дейди. Доимо андишали бўлиб, ҳамма ишни фикр билан қилиш керак. Шунингдек, Хўжа Абдуҳолик Ғиждувоний биродарликка қабул қилинаётган кишига қўйиладиган бешта талаб, хислатнинг иккинчиси - илми дунё ишларидан юқори кўядиган бўлиши керак. Ўз илмини бойитиб боришга ҳамиша вақтни топиши керак. Ҳар бир қиладиган ишнинг илмини билиши лозим. Инсоннинг камолга етишида илм асосий омил эканлигини таъкидлаб, Ғиждувоний илм ва маърифатнинг қадрини доимо баланд тутишни таъкидлаган. Мутасаввиф диннинг таракқиётида фаннинг ролини билган ва ботиннинг камол топишида зоҳирий илмлар - илми қолнинг ўрнини муҳим деган.

1. Абдуҳолик Ғиждувоний Маслак ал орифин. – В. 176.

Абдухолиқ Гиждувоний илмни бағоят теран ва ҳар томонлама ўрганишга даъват қилади, илм амалга ҳаётий. Ҳар қандай амални қалбдан, ихлос билан адо этиш кераклигини қуйидаги ўғитларларида таъкидлайди.

Шунингдек, Хўжаи Жаҳоннинг илмни юксак қадрлашларини устозлари Юсуф Ҳамадоний ҳақида гапирганларида, у кишининг ҳам илм тарғиботчиси эканликларини фахр билан тилга олади.

Мутасаввиф доимо ҳар қандай ҳолатда ҳам ақлга мувофиқ иш кўришни таъкидлаган. “Ақлнинг яхшилиги иймондандур. Иймон-юрракда Худонинг борлигидир. ҳар бир тоат-иймондур”²⁹⁸ деб иймон ҳақидаги фикрларни баён этган.

Хўжа Абдухолиқ Гиждувоний ҳар бир инсон ҳаётида яшар экан, заррача бўлса ҳам гуноҳ қилмаслиги, агар оз бўлса ҳам бунга йўл қўйса, қалбининг саҳифасини қоронғу қилишини, иймонни камайтиришини таъкидлайдилар. “Ҳар бир гуноҳким иймоннинг қувватини камайтиради. Шайтон васвасаси билан дил қафасида сақланаётган имон куши ташқарига чиқади”²⁹⁹.

Хўжаи Жаҳон ўз муриду шогирдларига, ҳамсуҳбатларига доимо жамиятда эҳсону хайрли иш, амал қилишни таъкидлаган. Ҳатто ёмонлар сенга нисбатан бирон зарарли амал содир этган бўлса ҳам, унга нисбатан раҳмли бўл, зероки унинг ёмонлиги унинг ўзи учун етарли жазодир. Ёмон қилмиши туфайли уни ўз виждони ботиний жиҳатдан қийналади, бундай ҳолатда виждон азобидан қутула олмайди деган.

Мўътабар инсоншунос халқ манфаатлари йўлида хизмат этишга, унинг ҳаётини энгиллаштириш, уни иложи борича ҳар томонлама кўмаклашиш, ёрдамлашишга чақиради. Агар одам бу ишга қодир бўлмаса, ўз юкини халқ устига ташламай, бирор касбни эгаллаб, ҳалол меҳнат билан яшаши керак. “Хожа Абдухолиқ Гиждувоний... айтибдурларки, “халқдин оғирликни кўтармак керак ва бу муяссар бўлмас магар ҳалол касб била. “Даст ба кору, дил ба ёр” деган сўз хўжагон... тариқатларида амри муқаррар (яъни бажарилиши шарт иш) турур”[5:30-31]³⁰⁰ “Васиятнома”да шунингдек, халққа нисбатан мужодала ҳолатида бўлмаслик, иложи борича кишидан ҳеч нарса талаб этмаслик, ўзга кишига хизмат буюрмаслик, ҳамма фақиру бечораларга меҳру-шафқат кўзи билан қараш ва ҳар бир одам, айрим кишиларни паст ҳисобламаслик ва бошқа инсонпарварлик, инсондўстлик ғоя-фикрлар ўз аксини топгандир.

Яхшиликларни ҳеч нарса талаб қилмасдан қиладиган инсонлар бировлар учун доимо эзгу ишларни бажарадилар. Уларга доимо мададкор бўладилар, бировларнинг ташвишлари билан яшаб, доимо бир савоб ишни бажаришга ҳаракат қиладилар. Бу эса ҳақиқий ахлоқий сифатдир. Уни пок, холис, ҳақиқий яхшилик дейиш мумкин. Бундай кишиларни покиза, ахлоқий пок инсонлар деймиз. Уларнинг қалби мангу, ўлмас, абадий, ҳар қандай салбий сифат ва хусусиятлардан ҳолидир. Хўжаи Жаҳон шундай кишиларни “ҳар қандай ҳолатда ҳам ҳақиқий инсонлар” дейди. Ана шундай хислатли кишиларгина “камолотга” етишадилар. Хўжаи Жаҳон “камолот аҳлининг юксак даражаси покизалик хислатидир” деб уқтиради. Ҳақиқий инсонлар ҳаётларида доимо ҳақиқатга эришиш учун ҳаракат қиладилар. Бундай ҳаракатнинг маъноси таркидунёчилик эмас, табиат ато этган ақл идрок, фаҳм фаросат билан, ҳам диний ирфон, ҳам жамиятда, оилада, кишилар орасида ҳамжиҳатлик, бахтли саодатли ниҳоятда покиза ҳаётни қуриш, хайрли, савобли, ишлар қолдириш, яхшилик, эзгуликни кўпайтириб, ярамаслик, ёвузликка барҳам бериш, Ватан учун фидокорлик кабилардир.

Умуман олганда доимий рвишда хожагон-нақшбандия таълимотида устивор ғоя

²⁹⁸ Хожа Муҳаммад Ориф ар Ревгарий. Орифнома. Форс – тожик тилидан Садриддин Салим Бухорий, Исроил Субҳоний таржимаси. – Т.: Навруз. 1994. – Б. 4.

²⁹⁹ Абдухолиқ Гиждувоний Маслак ал орифин. – В. 16 б.

³⁰⁰ Абдухолиқ Гиждувоний. Васиятнома. – 309-316..

ҳисобланган “Дил ба ёру, даст ба кор” биз учун жамиятда яшаш қоидаси бўлган.

Мамлакатимизда маърифий исломни ривожлантириш, буюк алломалар қадамжоларини обод қилишга қаратилган эътибор халқаро миқёсда тан олинмоқда.

Абдухолиқ Ғиждувоний, Баҳоуддин Нақшбанд, Ориф Ревгарий, Али Ромитаний, Бобойи Самосий, Маҳмуд Фағнавий, Саййид Амир Кулол меъморий мажмуаларини ўз ичига олган “Етти пир” зиёратгоҳини замон талаблари даражасида реконструкция қилиш ва уларни боғловчи янги сайёҳлик йўналиши ташкил этиш бўйича улкан ишлар қилинди..

Шунга мувофиқ, “Етти пир” зиёратгоҳларида кенг кўламли бунёдкорлик ишлари амалга оширилмоқда. Жумладан, Абдухолиқ Ғиждувоний мажмуасида янги масжид ва ёзги айвон, ҳазира ёдгорлиги ва зиёратгоҳ қошида меҳмонхона қурилмоқда, мажмуа атрофи ободонлаштирилди..

Муҳтарам Президентимиз бу борадаги чийишларида бундай маънавий хазина бошқа ҳеч қаерда йўлигини, бу хазинани мукамал ўргани, одамларга, ёшларга осон тилда етказиш лозимлигини, мақсадимиз ёшларимиз ўзимизнинг алломаларга эргашсин, меросини билсин, улар билан фахрланиш туй-уси билан шаклланиши лозимлигини таъкидлайдилар. .

Хулоса қилиб айтганда, Абдухолиқ Ғиждувоний таълимотида, - инсон деган номга муносиб бўлиб жамият ҳаётида фаолият кўрсатиш ҳам диний, ҳам дунёвий нуқтаи назардан фарз эканлиги, доимо жамиятга хизмат қилиш, уларнинг оғирини енгил қилиш, барчага яхшилик қилиш, хайрли амолли бўлиш йўли билан маънавий-ахлоқий ҳаётни юксалтириш, ҳақиқий инсоний фазилат эканлиги кабилар буюк мутасаввиф тариқатининг маънавий негизи ҳисобланади.

Бундай маънавий мерос билан тарбияланиб, улғайиб келаётган ёш авлод янги Ўзбекистоннинг бунёдкорлари бўлиши шубҳасиздир.

ПРЕПОДАВАНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА

Олимова С. А.- преп. НавГПИ
Узбекистан

Annotation. The article discusses the relevance of the introduction of innovative methods in the process of teaching the Russian language in the universities of Uzbekistan. The question is raised that the functional principle of teaching becomes the main thing in teaching the Russian language, and the communicative competence of students is also in the center of attention. The article deals with the intensive search for new approaches, forms and innovative methods of teaching the Russian language.

Keywords: teaching methodology, education, innovative, individualized, grammar, communicative competence

Вступление

Тенденция к созданию национальных образовательных стандартов в последние годы характерна для систем образования многих стран мира. Аналогичными документами в Узбекистане с такой широкой сферой применения являются Конституция и законы, в частности, Закон Республики Узбекистан "Об образовании". Мечтой и желанием каждого студента, а также любого человека, изучающего иностранный язык, является умение правильно говорить и выражать свои мысли на интересующем его языке.

Основная часть

Преподавание любой дисциплины требует от преподавателя и обучаемого ряда обязанностей и усилий. В обязанности преподавателя входит выбор конкретной методики и подходящего метода обучения, подбор заданий для каждого вида учебной деятельности, учебных пособий с учетом уровня знаний обучаемых и многое другое. От слушателей

требуются усилия, серьезность и ответственность. Разница между преподаванием иностранных языков и других дисциплин заключается в том, что через язык мы выражаем наши мысли и чувства. Наши мысли и чувства не ограничены в классе, в лаборатории, в исследованиях, они всегда и везде с нами. Это также говорит о том, что вы должны не только правильно изучать иностранные языки, но и правильно выражать свои мысли на родном языке. "Если развитие родного языка начинается со свободного спонтанного использования речи и заканчивается осознанием речевых форм и овладением ими, то развитие иностранного языка начинается с осознания языка и добровольное овладение им и заканчивается спонтанной речью" [2, с.58]. Родной язык усваивается одновременно с присвоением социального опыта. В узбекских университетах программа изучения русского языка, как и других иностранных языков, включает углубленное изучение грамматики, фонетики и лексического состава языка, все больше внимания уделяется преподаванию языковой системы и в основном грамматики. Как и прежде, основными трудностями являются отсутствие активной устной практики у каждого студента группы, изучение русского языка должно основываться на развитии речевых навыков студентов в результате устных упражнений, а теоретическое изучение должно уступить место развитию практических навыков. Необходимо обучать студентов не только основам русского языка, но и учить их с интересом и правильно общаться на другом языке как в рамках профессиональных тем, так и в повседневных жизненных ситуациях. Преподавание русского языка как иностранного – это в настоящее время проводится в контексте глобальных изменений во всей системе образования - изменились цели изучения языка, потребности студентов, условия обучения. Следует признать, что также произошел переход количественных изменений в качественные, работа с массами студентов трансформировалась в более индивидуализированную работу, когда студенты сами стали определять не только языковую, но и культурную составляющую процесса обучения [3, с.115]. Основная цель обучения иностранному языку это не столько обучение языковой системе (лингвистической компетенции), сколько овладение коммуникативной компетенцией, т. е. способностью человека осуществлять речевое общение в определенной сфере деятельности с помощью изучаемого языка. Основой коммуникативной компетенции является комплекс языковых знаний и речевых навыков и умений, которые формируются во время занятий [4, с.154]. Приоритет отдается самостоятельной работе студента, которая предполагает, во-первых, тщательное изучение дополнительных теоретических материалов и образовательных интернет-ресурсов для каждой темы, самоконтроль с помощью вопросов и тестов, приведенных в конце темы, а также обязательное выполнение практических заданий. Что касается остальных 50 %, в зависимости от учащихся, следует отметить, что каким бы новым инновационным методом учитель ни воспользовался выбирайте для студента, чтобы повысить его практическое владение языком, многое зависит от него, от его усердия, трудолюбия и изобретательности. Ибо самый содержательный и вдохновляющий урок не сможет продлиться более полутора часов. В конце урока студент остается наедине со своим усердием и воображением за дверями аудитории и университета. Исходя из вышесказанного, студентам можно посоветовать следовать известной поговорке "Повторение - мать учения". Чем больше они будут повторять пройденный материал, углубляясь в него, тем лучше они смогут его запомнить. Это связано с появлением рынка труда, конкуренцией в Узбекистане для специалистов отечественных и зарубежных профессиональных учебных заведений с целью доведения уровня выпускников отечественных учебных заведений до уровня профессиональной компетентности иностранного специалиста.

Вывод

Современная методика преподавания русского языка в вузах Узбекистана признает,

что трудности овладения словами, с одной стороны, связаны с особенностями лексической системы самого русского языка, а с другой стороны, со спецификой словарного запаса родного языка студентов. Поскольку слова в русском языке существуют не изолированно, а в связи с другими, студенты изучают лексику во взаимосвязи, в сравнении, что облегчает процесс овладения материалом. В процессе обучения большое место следует уделять семантике слов, так как она связана с правильным пониманием слова и его употреблением в речи. Живое слово преподавателя, его прямое обращение к ученикам, возможность постоянной обратной связи - все это имеет несомненные преимущества. Всегда следует помнить: какие бы технические средства мы ни использовали, учитель остается центральной фигурой в учебном процессе, и ему необходимо тщательно следить за своей речью, иметь хорошее, четкое произношение и избегать грамматических и стилистических ошибок.

Список литературы:

1. Закон Республики Узбекистан "Об образовании"//
2. Гармонично развитое поколение является основой прогресса Узбекистана. Ташкент: Шарк, 2017. 63 с.
3. Выготский А.П. Мышление и речь// Ибр.психол. исследование М., 2016. 517 с.
4. Митусова Б.А. Лингвистическая составляющая модели современного специалиста// Строительство-2017: материалы Международной Научно-практической конференция. Ростов Н./Д.: РГСУ, 2017. стр. 114-118.
5. Щукин Н.А. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Москва: Икар, 2015. С.154-157.

“ИҚТИСОДИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА КИЧИК ГУРУХЛАРДА ДАРС ЎТИШ МЕТОДИНИНГ ЮТУҚЛАРИ ВА КАМЧИЛИКЛАРИ”

**Савриева М.Х.-Навоий шаҳар касб-хунар мактаби
“Махсус фанлар” кафедраси иқтисод фан ўқитувчиси
savrievamadina@gmail.com**

Annotation: One of the most successful methods of teaching economics is teaching students in pairs or small groups. To achieve the expected result, it is necessary to develop two components: a mechanism for motivating the group and a sense of personal responsibility and a system of incentives. In a small group lesson, the teacher is not the only informant, reviewer, or evaluator. He went from being a subject teacher to a planner and organizer of lessons.

Keywords: small group, component, personality, independent thinking, motivation, responsibility.

Иқтисодий фанларни ўқитишда муваффақиятли равишда қўлланилаётган методлардан бири талабалар гуруҳларини жуфтлик ёки кичик гуруҳларга бўлиб дарс ўтишдир. Бу услубда асосий масъулият талабалар зиммасига юкланади, улар фаоллигини оширишга қаратилади. Илғор мамлакатлар, шунингдек мамлакатимиз педогогларининг тажрибаси кичик гуруҳлар туфайли таълим олувчилар ўртасида анча мустақкам муносабат ўрнатилишини кўрсатади.

Кичик гуруҳларга бўлиб дарс ўтиш самарали бўлиши учун қуйидаги қоидаларга амал қилиш зарур:

1. Дарс материалани ўзлаштириш жараёнида талабалар жамоа бўлиб ишлаши керак.
2. Ҳар бир гуруҳда албатта аълочилар бўлиши, кичик гуруҳ таркиби аралаш бўлгани (қизлар, йигитлар) маъқул.
3. Бутун гуруҳ ва алоҳида талабани тақдирлаш тизими кўзда тутилган бўлиши лозим.

Тадқиқотлар яна шуни кўрсатадики, ўқувчи, талабаларни кичик гуруҳларга бўлиб дарс ўтишни ташкил этишнинг ўзи етарли эмас экан. Кутилган натижага эришиш учун яна икки компонент: **гуруҳни** рағбатлантириш ва **шахсан** масъулиятни ҳис қилиш механизми ва уни рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш керак экан. Агарда гуруҳ миқёсида рағбатлантириш етарли бўлмаса, гуруҳ аъзолари ўз ўртоқлари ўтилаётган дарсни ўзлаштиришига унча аҳамият бермай кўяди.

Гуруҳларни кичик гуруҳларга бўлишни қандай қоидалар ёки тамойиллар асосида амалга ошириш лозим, гуруҳлар қандай тузилганда юқори самара беради деган саволга аниқ жавоб, универсал қоида йўқ. Гуруҳларни кичик гуруҳларга бўлишда:

- а) кўйилган таълим мақсадлари, шакли, натижаси;
- б) бериладиган топшириқ, технологик харита бўйича қўллашни мўлжаллаган таълим методи ва усуллари ҳисобга олишимиз керак.

Гуруҳдаги талабалар сони бўйича ўқитувчи ҳар бир командага 5 ёки 6 тадан талабани жалб қилади. Ҳар бир команда таркибидаги талаба сонига қараб, 5-6 савол ёки қисмдан иборат материални ўрганиш учун топшириқ берилади. Ҳар бир командадан бир киши битта қисмни ёки саволни ўрганади.

Турли командалардан шу қисм ёки саволни олган талабалар бирга йиғилиб, ўқув топшириғини муҳокама қиладилар. Бу гуруҳларни эксперт гуруҳлари деб аталади. Асосий гуруҳларни алфавитдаги ҳарфлар билан талабаларни рақамлар билан белгилаймиз.

Айтайлик, гуруҳ 30 та талабадан иборат. Ўқитувчи уларни 6 тадан 5 та гуруҳга (А, Б, В, Г, Д) бўлади. Биринчи гуруҳ А, ундаги талабалар А1, А2, А3, А4, А5, А6, иккинчи гуруҳ Б, ундаги талабалар Б1, Б2, Б3, Б4, Б5, Б6 ва ҳоказо тарзида бўлиниди. Ҳар бир талаба ўзининг рақами бўйича асосий командасидан, яъни ҳарф бўйича ўқув материалнинг маълум қисмини ёки саволни ўрганиш бўйича топшириқ олади. Сўнгра мутахассислар гуруҳида (рақамлар бўйича) барча 1 ёки 2 ва ҳоказо рақамлар асосида янги гуруҳ ташкил бўлади. Яъни мутахассислар командаси А1, Б1, В1, Г1, Д1, иккинчи команда А2, Б2, В2, Г2, Д2 ва ҳоказо тарзида янги команда ҳосил бўлади. Ҳар бир асосий командадан бир ҳил рақамдаги, лекин ҳар ҳил команда аъзолари тўпланиб, ўзларига берилган савол, топшириқни муҳокама қиладилар. Сўнгра ҳар ким экспертлар гуруҳидан ўзининг асосий гуруҳига қайтади. Гуруҳнинг ҳар бир қатнашчиси экспертлар гуруҳида ўзи ўрганган масалани гапириб беради. Гуруҳнинг ҳар бир қатнашчиси диққат билан ўртоқларининг фикрини эшитишга ҳаракат қилади. Чунки берилган топшириқни бажаришнинг ягона йўли ўртоқларининг фикрини диққат билан тинглаб, таҳлил қилиб, сўнгра гапириб беришдир. Ундан ташқари, ҳар бир талабада ўз топшириғини муфассал бажариш учун стимул мавжуд. Сабаби, у берилган савол, топшириқни ўртоқлари қай даражада ўзлаштиришларига масъул. Кичик гуруҳларга бўлиб дарс ўтишдаги тўртинчи модел аввалги моделлардан бирмунча фарқланади. Бу моделда кичик гуруҳдаги ҳар бир талаба берилган топшириқни аввал алоҳида ўзи бажариб, фикрини семинар дафтарида ёзади. Сўнгра гуруҳ биргаликда ҳамманинг фикрини ўрганиб чиқади. Кичик гуруҳ номидан ягона жавоб тайёрланади, дарсда барча гуруҳларнинг жавоблари эшитилади ва гуруҳни эришган натижаси баҳоланади.

Гуруҳ билан ишлашнинг мақсади талабаларнинг билимини оширишдир. Услубни кўллаш натижасида талабалар томонидан:

- биргаликда ишлаш шаклланади;
- нутқ сўзлаш ва ўз фикрини асослаб беришга, ҳимояланишга ўрганади;
- мустақил фикрлаш ва муаммоларни ечишга иштиёқ шаклланади;
- ўрганишга, ишлашга кўникма ҳосил бўлади.

Кичик гуруҳларга бўлиб ўтилган дарсда ўқитувчи ягона ахборот берувчи, тақриз қилувчи, баҳоловчи шахс сифатида марказда турмайди. У мавзунини ўргатувчидан дарсни тайёрловчи ва ташкил этувчига айланади. Кичик гуруҳларда берилган топшириқ бўйича мавзунини

интенсив ўрганишга тўғри келади. Кўшимча адабиётлар билан ишлаш, уларни чуқур ўзлаштиришга ҳаракат қилиш натижасида олинган билимни узоқ муддат ёдда қолишига эришилади. Жуфтлик ёки кичик гуруҳларга бўлиб дарс ўтишининг муваффақиятли бўлиши кўп жихатдан унга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишга боғлиқ. Кичик гуруҳларда ишлаш фақат қўйилган топшириқни эмас, балки унинг натижасини муҳокама қилишни ҳам ўз ичига олади. Бунда доскадан, техник воситалардан фойдаланиш мумкин.

1. Тайёргарлик кўриш :

- ❖ мақсад қўйиш;
- ❖ материал танлаш;
- ❖ кичик гуруҳларга топшириқни чушунтириш;
- ❖ зарур материаллар билан таъминлаш;
- ❖ қўйилаётган топшириқни, масалани ўқитувчининг ўзи ечиши зарурлиги.

2. Ахборот билан таъминлаш :

- ❖ кичик гуруҳлар қандай топшириқ оладилар, уни бажаришга қанча вақт ажратилади;
- ❖ қандай қоидаларга риоя қилиш керак кабилар эълон қилинади.

3. Топшириқ устида ишлаш :

- ❖ кичик гуруҳ топшириқни олгач, вазифаларни бўлишиб олиши мумкин;
- ❖ кичик гуруҳлар ўзининг топшириғини бажаради;
- ❖ кичик гуруҳдан битта талаба (докладчи) эришган натижани қисқача доклад қилади;

Ўқитувчининг роли:

- ❖ қарор қабул қилади;
- ❖ дарсни ташкил қилади ва бошлайди;
- ❖ назорат қилади ва зарур бўлганда аралашади;
- ❖ таҳлил қилади ва баҳолайди.

Кичик гуруҳда ишлашнинг ахамиятли жихати кичик гуруҳ, охир – оқибат умуман бутун гуруҳнинг ишини унумли бўлшини таъминлашдир. Бунинг учун ўқитувчи аввалдан ҳамма дарс жараёнини режалаштириши керак ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Нишоналиев У. Турсунов И. «Педагогика курси» дарслик. Т. «Ўқитувчи» 2003. – 231 б.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: «Меҳнат», 2004. – 672 б.
3. Хўжаев Н., Хошимова М., Ҳақимова М. ва бошқалар. Педагогика. (дарслик) – Т.: ТДИУ, 2007
4. Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси фанини ўқитиш методикаси. Т.: «Молия», 2003. – 181 б.

JISMONIY MADANIYAT TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TA'LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH Pirimova N.A.-NavDPI O'zbekiston

RESUME. In this article, the topical issue of the day is the introduction of advanced innovative pedagogical and information technologies into the education system, as well as the introduction of modern methods, means and technologies of teaching physical culture in the education system.

Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan masalalarni hal etishga qaratilgan. Buning muhim jihatlaridan biri yuksak ma'naviy va ahloqiy salohiyatga ega

bo'lgan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Buning uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydigan ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonini davr talablari asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini oshirish uchun uning yo'nalishlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish lozim xisoblanadi. Zero, Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot, oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murrakab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimini aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyo qarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch xosil qilamiz". Shaxsni shakllantirishda oliy ta'lim faqat ilm-fan muassasalari emas, balki mamlakat mintaqalarining madaniy-ta'limiy, ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy markazlaridir. O'zbekiston ta'lim tizimi mustaqillik yillarida jiddiy tarkibiy, tashkiliy va ma'no mazmun o'zgarishlarga yuz tutdi. Ayniqsa ta'limda zamonaviy, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, dars mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish bugungi kunda o'ta kechiktirib bo'lmaydigan muhim masaladir.

Yoshlarni har tomonlama sog'lom, barkamol bo'lib yetishishida jismoniy madaniyat ta'limini milliy qadryatlarga tayangan holda zamonaviy ko'rinishda tashkil etish, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy kamolot, jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda yangicha yondashuv asosida o'tkazishni taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiyaning vazifasi sog'liqni saqlash, jismoniy sifatlarni o'stirish, yosh avlodni aqliy va jismoniy mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashdir. Bu g'oya azal-azaldan ota bobolarimizning ma'naviyatida aks etib kelmoqda. Jumladan, xalq ijodida "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi bir qancha dostonlarda ham o'z ifodasini topgan. Shaxsning jismoniy kamoloti tarixiy taraqqiyotning barcha jabxalarida ulug'langan va qadrlangan. Jismoniy madaniyat tushunchasi - xalq madaniyatining bir qismi sifatida qaraladi. Jismoniy madaniyat kishilik jamiyati tomonidan to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi, undan kishilarning kamoloti uchun foydalaniladi.

Ta'lim texnologiyalarini jismoniy madaniyat ta'limi jarayoniga joriy etish, balki o'qituvchilar jamoasi pedagogik mahoratini doimiy oshirib borishni, o'quv-tarbiya jarayonini yuksak nazariy-uslubiy darajada amalga oshirishga tayyorlashni, o'qitish va tarbiyalashning ilg'or usullari, shakllari va vositalarini qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Biroq, kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ta'lim muassasasi o'qituvchi -murabbiylarida «Pedagogik texnologiya» tushunchasining yagona shakl-tamoyilini shakllantirishda va kadrlar tayyorlash tizimida uning o'rnini, ta'lim jarayonining yaxlitligiva har bir aniq mashg'ulotdan yaxshi natijaga erishish va uni tushunish qiyin kechmoqda.

Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal muammolarga bo'ydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, axloq, davlatni boshqarish sohasidagi, shuningdek, oiladagi va boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko'payib, rivojlanib hamda ularning o'zgarib borishi natijasida vujudga keladi. Uzoq davrlar mobaynida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo'lgan narsaga o'xshab ko'rinadi. Shu muammolarni yechish va o'z ehtiyojlarini kondirish maksadida kishilar turli yo'nalishlarda, sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, ularning yashashi, kamol topishini ta'minlaydigani sog'lik va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan faoliyatdir.

Pedagogik texnologiya – yoshlarga zamonaviy mehnat, zamonaviy kasb tanlash ishlarini amalga oshirishning zaruriy negizining metodologik va tashkiliy-metodik jihatini to'liq ta'minlaydi. O'quvchilarda nazariy bilimlarni turli-tuman muammoli ta'lim usullaridan foydalanish ijobiy natijalarni beradi va jismoniy tarbiya masalalarining yechimini topishda qo'l keladi.

Innovatsion usullar orqali nazariy bilimlarni oshirish o'quvchilarda bilimdonlikni va

madaniyatni qaror toptirishga qaratilgan. O'quvchilarda innovatsion («yangilik elementlari orqali») nazariy bilimlarni pedagogik faoliyat, shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib real pedagogik jarayonni vujudga keltiradi va bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilishi, ta'lim tizimi muassasalarida tadbiiq etilmokda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ta'lim tizimida ilg'or innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shunday ekan jismoniy madaniyat ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy usul, vositalari hamda texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ФОРОБИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИ ВА УНИНГ АВЛОДЛАР МАЪНАВИЯТИДАГИ АҲАМИЯТИ.

**Ражабов А.Ш.- БухДу.Педагогика институти Ижтимоий
фанлар кафедраси ўқитувчиси**

**Муртазов Ш.Э. БухДу.Педагогика институти Ижтимоий
фанлар тарих йўналиши 1-курс талабаси. Ўзбекистон**

Annotation: In the works of Al-Forabi, special attention is paid to the issue of the role of laws in the life of society, as well as to study the essence of the doctrine of the scientist and show him ways to achieve happiness on this basis.

Ал-Форобий ўз асарларида қонунларнинг жамият ҳаётида тутган ўрни масаласига алоҳида эътибор қаратган. Чунки аллома таълимотининг мохиятини инсонни ўрганиш ва шу асосида унга бахт-саодатга эришиш йулларини кўрсатиш масаласи ташкил этади. Бу муаммони ҳал этиш олимнинг фикрича давлатнинг ва қонуннинг асосий вазифасидир. Форобий қонуннинг аҳамиятига юксак баҳо берди. Унинг таъкидлашича қонунлар жамиятнинг барча аъзолари учун фойдали ва адолатли бўлиши. Уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини бир хилда ҳимоя қилиши, барқарор бўлиши ҳамда бир неча авлодлар учун хизмат қилиши керак. Қонуннинг вазифаси фуқаролар ўртасида тартиб ўрнатиш, уларни ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатлаш, муҳофаза қилиш, уй-жой, мол-мулк, оила ва никоҳ, иш ҳақи ва бошқа барча масалаларда вужудга келган зиддиятларни олдини олиш, уларни адолат юзасидан ижобий ҳал этишдир. Шунинг учун дейди Форобий, -“Қонун ишлаб чиқарувчилар шаҳар аҳлини яхши одатларга ўргатадилар. Бу ҳар бир қонун ижодкорининг мақсадидир. Агар кимки бунинг уддасидан чиқа олмаса ўз мақсадига етиша олмайди мағлубиятга учрайди”. Демак адолатли қонунларсиз “Демократик ҳуқуқий давлат, инсонпарвар жамият” барпо этиб бўлмайди. Қонунларни бу тартибда жорий этиш жамиятнинг мўътадил ҳаёти ва ижтимоий тараққиётнинг муҳим шартларидан биридир. Аммо бу қонунлар давр ва шарт-шароитга қараб ўзгартириб турилиши, зарур бўлган ҳолларда эса такомиллаштириб борилиши зарур. Давлат раҳбари ва ҳуқуқий ташкилотлар қонунларнинг амалда адолатли бажарилишини қаттиқ назорат қилиб боришлари шарт. Ана шундагина Форобий орзу қилган жамият қарор топади. Шу сабабли мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев ўз нутқларида доимо “Халқимиз бой маданий меросини изчиллик билан ўрганишга, ундан ёшлар маънавиятини шакллантириш ва ривожлантиришда фойдаланишга даъват этиб келмоқдалар. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун аждодларимизнинг маданий-маънавий бойлигини чуқур ва ҳар томонлама ўрганишимиз даркор”.¹ Унинг фикрича барча маънавий ахлоқий сифат фазилатлардан маҳрум бўлган ўз меҳнат фаолияти давомида уларга риоя қилмайдиган кишилар уюшмаси «жоҳиллар» жамоаси деб аталади. Бундай жамоанинг азолари ҳам ёмон ахлоқли ва хулқ атворли кишилардир. «Фазилатсиз шахарларнинг одамлари ёмон феъллари, табиатлари

туфайли кўнгиллари руҳлари ҳам, ёмонлашиб бораверади. Шу туфайли улар ўзларига ёқадиган ёмон ишлардан хузур ҳаловат оладилар»², дейди Форобий.

1. "Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини барпо этамиз". Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий мажлис палаталари кўшма мажлисидаги нутқи. Т.Ўзбекистон. 2016. 14-бет

2. Абу Наср Форобий. «Фозил одамлар шаҳри». Тошкент. А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 166-бет

Бу жамиятларда яшовчи кишиларнинг асосий мақсади, турли хил бойликларни қўлга киритиш, ўз мақсадлари ва манфаатларини қондириш учун барча имкониятларни ишга солиш, керак бўлса қонунлардан ҳам ўз манфаатлари йўлида фойдаланишдир. Улар турли хил жиноятларни ва ҳақиқий инсонга хос бўлмаган ҳаракатларни яшашнинг асосий йўли ва воситаси деб биладилар. «Зеро фозил бўлмаган жамиятларда юқори табақа ўзига ҳоким бўлиб, масъулият ўрнига дахлсизликка эгадир. Бундай жамиятларда аслзодалар озми -кўпми қонундан ҳам кўра баландроқ жойни эгаллаб, қонунларни ўз манфаат ва мақсадлари нуқтаи назаридан тафсир қилиб, уни ўзгартирадилар ва баъзан кўрмасликка, тан олмасликка бориб етадилар».¹ Шу боис жаҳолатдаги шаҳарларнинг бошлиқлари ҳам худди шу шаҳар аҳолиси каби ўз истакларини, тубан майилларини тинимсиз қондиришга интиладилар. Бундай шаҳар аҳолисининг машғулотлари ҳам юқорида айтилган мақсадларга хизмат қилади. Бундай кишилар ахлоқи замонавий социологияда девиант ахлоқ, дейилади. Шу боис бундай феъл - атворли кишиларни тарбиялаш ва жамиятни турли иллатлардан озод қилиш қонуннинг муҳим вазифаси деб ҳисоблайди Форобий.

1. «Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида». Тошкент. «Ёзувчи». 2002. 62-бет.

«Баъзи шаҳар (ёки мамлакатлар бўладик, дейди Форобий, уларда бутун халқнинг фикри — зикри, ақл- идроки бойлик тўплаш мол-дунё орттиришга қаратилган бўлади. Улардан чиққан ҳукмдорлар ҳам раҳбарликни мол — дунёни кўпайтиришда деб биладилар. Шунинг учун ҳам улар эртаю – кеч мол дунё тўплаш ҳаракатида бўладилар. Бундай раҳбарларнинг қўл остида ишлайдиган шаҳар халқларида турли бузуқ одатлар, шаҳвоний нафс, бир – бирларини кўролмаслик, бир-бирларини талаш, душманлик, низо жанжаллар пайдо бўлади. Ана шундай шаҳар халқларидан майиллари турлича бўлган авлод туғилади».¹ Улар маънавиятсиз маърифатсиз кимсаларга бошқача айтганда жиноятчиларга, ҳатто фанатикларга айланадилар. Шунинг учун қонунларнинг кучи билан бундай жиноятларнинг олдини олиш жамиятни ва ҳар бир фуқарони эркин ривожланишини таъмин этиш шарт, чунки инсоният жамияти вужудга келиб шакллана бошлагандан бери одамзот ҳаётнинг бир ҳақиқатига амал қилиб келмоқда, яъни, азалдан қонунлар инсоният учун ёзилган ва жамият учун хизмат қилиб келган, ҳар бир давлат ўз қонунига адолат мезони сифатида қараган. Шу боис дейди Форобий, қонуннинг ривожланишини ва эркин амал қилинишини таъминлаган давлат энг яхши давлатдир. Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятининг асосини эса қонун устиворлиги ташкил этади. Зеро жамиятнинг барқарор ривожланишида тинчлик ва осойишталикни таъминлашда баркамол шахсни шакллантиришда қонуннинг аҳамияти беқиёсдир.

1."Абу Наср Форобий, «Фозил одамлар шаҳри». Тошкент. А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 190-191 бетлар.

ОПИСАНИЕ ЭМИРА БУХАРЫ САЙИДА АБДУЛАХАДХАНА В ТРУДАХ САДРИ ЗИЁ

Ражабова Д. Я.—базовый докторант., БухГУ

Узбекистан

dilnoza.rajabova@mail.ru

Annotatsion: a given article provided reveals some profound investigation on the scientific basis about the life, artistic creative activity and personal library of the poet and one of the founders of the scientific literary environment of the Bukhara Emirate of the late 19th and early 20th centuries, Sadri Ziyo. Also, his poetic work "Tazkori ash'or" has been studied in detail, in which special attention is paid to the personality and political activity of Emir Seid Abdul Ahad Khan (Sayyid Amir Abdulahadxon) and the classification of his reforms.

Key words: Sadri Ziyo, tazkira (anthology), poets, bayaz (collection of poems by various authors), literary environment, library, scientific heritage, Emir Abdul Ahad Khan, pseudonym.

Сила каждого государства коренится в его интеллектуальном потенциале, то есть общество с высоким научным уровнем может стать основой сильного государства. В конце XIX - начале XX веков Бухарский эмират управлялся правителями из династии мангытов, и в жизни эмирата начали происходить многочисленные изменения. В этот период, когда своеобразное развитие научной литературной среды было неразрывно связано с личностью эмира Сайида Абдулахадхана (1885-1910), наряду с проведением просветительских реформ, интенсивно развивалась и литературно-творческая деятельность.

На научных заседаниях, организованных Бухарской интеллигенцией, обсуждались религиозные и светские вопросы, были представлены новые образцы творчества, а также обсуждались вопросы образования будущего поколения. Позднее на этих собраниях стали зарождаться и первые идеологические корни джадидских движений, требовавших реформ в области образования, судебной-правовой (шариат) и политического управления, выражавших восприятие цели государства. Но коренной характер этих процессов заключался в том, что в эмират начали проникать светские обновления, и цивилизационные изменения стали необходимостью эпохи.

Эмир Сайид Абдулахадхан был одним из правителей династии мангытов, который писал как в поэзии, так и в прозе, был организатором научных литературных вечеров и просветительских реформ, а также политическим реформатором государства. Эта статья посвящена личности и творчеству Мухаммада Шарифжона ибн Абдушукура, одного из видных учёных Бухарского эмирата, который под руководством эмира Абдулахадхана писал свои произведения и вёл плодотворную творческую деятельность.

Из поэтов и авторов, известных своим многогранным художественным творчеством в научной литературной среде этого периода, до нас дошли произведения таких авторов, как Сайид Абдулахад³⁰¹, Мухаммед Сиддик Хашмат³⁰², Ахмад Дониш³⁰³, Абдулрахман Тамкин Бухари³⁰⁴, Абдуллахходжа бин Мухторходжа³⁰⁵, Хаджи Абдулазим³⁰⁶, Афзал Махдум Пирмасти³⁰⁷, Хаджи Нематулло Мухтарам³⁰⁸, Дервиш Мухаммед аль-муфтий

³⁰¹ Точный перевод дневника его светлости эмира Бухарского. Представляет И.Гаспринский из Бахчисарая. Казань, 1894.;2. Бухоро амири ҳазратларининг кундаликлари. Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари,1998. №3.

³⁰² Хашмат Мирсиддик. Тазкират уш-шуаро, ЎзФАШИ, №2729.

³⁰³ Дониш А. Рисола ёхуд мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Йўлдошев Қ. таржимаси. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2014.

³⁰⁴ Мулла Абдурахмон Тамкин Бухаройи, Жароид ЎзФАШИ, №2877.

³⁰⁵ Абдулхўжа бин Мухторхўжа. Тазкираи шуарои мутаҳаккирини Бухоро, ЎзФАШИ, №67.

³⁰⁶ Хўжи Абдулазим. Тазкират уш-шуаро, ЎзФАШИ, №3396/III.

³⁰⁷ Афзал Махдум Пирмасти. Афзал ут-тазкор фи зикри аш-шуаро ва ал-ашъор, ЎзФАШИ, №1336/1917-1918.

³⁰⁸ Нёматуллох Мухтарам. Тазкират уш-шуаро, ЎзФАШИ, №2252/II.

Аль-Балхи³⁰⁹, Кари Рахматулла Возих³¹⁰, Шарифжон Махдум Садри Зиё³¹¹. Несмотря на то, что их рукописные и псалмопечатные труды не были активно введены в научный оборот, при изучении социокультурного мировоззрения эпохи нельзя упускать из виду ссылки на эти источники.

С культурной средой эпохи господства мангытов и связанные с ней исторические исследования провели целый ряд таких учёных, как Р.Ходизода, С.Сиддигов, М.Шакуров, Р.Рахматов, Ш.Вохидов, З.Чориев, К.Раджабов, Х.Тураев, Р.Холикова, А.Джуманазаров, Д.Янгибоева, Д.Жамолова, О.Клычев. В их научных работах освещена историческая, политическая деятельность, реформы и образовательные процессы бухарских эмиров.

Среди писателей-летописцев, выходцев из Бухарской литературной среды конца XIX - начала XX веков, особое место занимает Мухаммад Шарифжон Махдум ибн Абдушукур (1867-1932), известный как Садри Зиё. Он с юных лет получил очень высокое воспитание. Его отец, Мухаммед Абдушукур (псевдоним “Аят”), получил образование в медресе во время правления эмира Насруллахана (1827-1860). Позже он сам стал преподавателем (мударрисом) различных медресе, и вместе с этим интересовался шариатской наукой. По этой причине эмир Музаффархан (1860-1885) не только назначил его судьёй нескольких областей, но и в 1878-1879 годах он занимал должность судьи-председателя (кози-раис) Бухарского эмирата, а затем и должность верховного судьи (кози-калон), где он оставался в этой должности до 1889 года. У него также был кружок, в котором было много учеников, где он учил их тому, что сам знал. Среди последователей (мюридов) верховного судьи Абдушукура были преподаватели бухарских медресе и служащие эмирской канцелярии, то есть учёные Бухарского народа.[1-12]

Жизненный путь Садри Зиё. Период деятельности Садри Зиё в системе управления Бухарским эмиратом начался с простого провинциального судьи, который прошел престижный путь от судьи Бухарского эмирата до верховного судьи. Первоначально в 1893 году он был судьёй Хайдарабадского района, входившего в состав Бухарского эмирата. После того как он стал судьёй бекств Пешку, Вангози, Гиждувана, Янги Кургана, Чарджоу, Карши, Шахрисабза, в 1912 году он стал судьёй города Бухары, а затем и верховным судьёй. В 1917 году из-за действий “младобухарцев”, выступавших против реформ эмира, его деятельность была приостановлена, но через некоторое время он был снова назначен судьёй в Карши. После событий 1918 года в Колесове, в эмирате были приговорены к наказанию все, кто сочувствовал джадидам. Садри Зиё и его близкие также были арестованы, их имущество конфисковано, а его библиотека сожжена. Но опять же, когда невиновность Садри Зиё была подтверждена, он был назначен судьёй Шахрисабзского бекства. И даже после свержения эмиратского режима в 1920 году Садри Зиё продолжал работать на различных государственных должностях. Но из-за значительно ослабленного здоровья он в большинстве случаев уходил с работы и занимался ремонтом своих книг.[1-20]

В 1932 году Садри Зиё умер от болезни в тюремном заключении во время ещё одного тяжелого испытания по допросу политики Советского Союза. Его могила находится в комплексе мавзолея Ходжи Исмата Бухари в городе Бухаре.

О его произведениях и творчестве. До нас дошло несколько рукописных трудов Садри Зиё, научное наследие которого является важным источником для освещения историко-литературной среды конца XIX-начала XX веков, а также для изучения вопросов историографии и источниковедения этого периода. Он был известен в своё время многочисленными историко-географическими, научными, художественными трактатами.

³⁰⁹ Дарвиш Мухаммад ал Балхий. Мажма ул ғаройиб, Бухоро, №27802/11.

³¹⁰ Қори Раҳматулло Воиз. Тухфат ул аҳбоб фи тазкират ал-аҳбоб, Ибн Сино кутубхонаси, Бухоро, Тошбосма, №400.

³¹¹ Шарифжон Махдум Садри Зиё. Тазкори ашъор. Мусаххих С.Сиддикий. Техрон: Суруш, 1380= 2002.

В его доме устраивались вечера состязания поэтов, где наряду с молодыми поэтами Шохиним Шамсиддином Мухаммадом, Нозимом, Хайратом, Айни обучались многие каллиграфы и любители книгопечатания.[1-14]

Основываясь на данных о творчестве Садри Зиё из научного наследия С.Айни, Н.Мухтарам и Р.Ходизаде, известно 72 его произведения, из которых шестнадцать рукописей хранятся в фонде восточных рукописей Узбекистана. До сих пор было проведено несколько исследований его творчества и его личной библиотеки.[1-25]

В своих работах “Рузнома”[2] и “Наводири Зиёия”[3] автор даёт объективную оценку социально-политических взглядов своего времени, процесса государственного управления в государстве, экономико-культурного положения в бекствах и образа жизни местного населения. Его исторические работы, такие как “Тарих”, “Мунтахаб аль-таварих”, “Зикри салтанат и подшохи амир Олимхон”, “Силсилаи хони гитиситан Чингисхан и байёни ахволоти салотини он”, “Мунтахаби салотин ва шахриёрон”, “Силсилаи салотини мангития”, до сих пор не изучены.[1-30]

Садри Зиё является автором таких художественных произведений о научной среде своего времени, как “Баёз”, “Тазкори ашъор”, “Тазкират уль-хукамо”, “Тазкират аль-хаттотин”, “Тазкират уш-шуарои мутаахирын”. В них подробно описана культурная жизнь и творчество Бухарского эмирата, его литературный мир.

Садри Зиё в конце своей жизни написал книгу “Фихрист” (Асоми ал кутубхонаи хусусии Шарифжон махдум), в которой перечислены все книги его личной библиотеки. Он последовательно перечисляет ценную информацию о периоде жизни авторов и содержании около 280 произведений арабской, персидской и тюркской литературы, содержащейся в его библиотеке.[1-33]

О его бесценном научном наследии говорят источники, в которых хранится более тысячи томов трудов. Наличие печати сына эмира Сиддикхана Хашмата в одном из источников также указывает на то, что его книги были приобретены Садри Зиё перед его отъездом в Афганистан. Часть дошедшего до нас ценного духовного богатства хранится в музее бухарских рукописей, другая часть – в Фонде восточных рукописей имени Беруни, а также в Душанбе.

Тазкира (антология). “Тазкори ашъор” – это тазкира (антология), в которой Садри Зиё привёл образцы творчества поэтов в Бухарском эмирате и который был написан в назидательном стиле.[4-57] Но не совсем ясно, кто и в каком году написал это напечатанное произведение.[5] Однако в его второй части “истории Посланника Аллаха” упоминается, что он был переписан бухарским каллиграфом Абду Фаттахханом ибн Махдиханом в 1344 году хиджры – 1925 году нашей эры. По нашему мнению, по признанию Р.Ходизоды, произведение было написано в 1907-1910 годах [6-37], которое пострадало после событий 1918 года, и к 1925 году Садри Зиё переписал его. Другой экземпляр был научно аналитически изучен Сахабиддином Сиддиковым и опубликован в Тегеране. Существуют различия между некоторыми его мыслями о составе его работ и копией в Бухаре.[7] То есть из 49 поэтов, приведённых С.Сиддиковым в анализе “Тазкори ашъор”[1-32, 5-57], 30 были подробно описаны в этом бухарском экземпляре.

Информация автора о каждом поэте состоит из 4-х частей: описание, жизненный путь поэта, описание псевдонимов, примеры из его творчества и заключение. Предисловие начинается с биографического рассказа о самом авторе, а затем посвящается деятельности эмира Бухары Сайида Абдулахадхана. Затем автор в стихотворном порядке даёт сведения об интеллигенции и современниках Бухарского эмирата, а также о поэтах, прибывших из других мест, но занимающихся творчеством в Бухарском эмирате: мавлоно Абдушакур, Мирзо Азим Мирохур Сомий, Ходжи Мулла Икром, Махдум Пирмасти, Кори Мухаммад Амин, Мулла Абдулкарим Бухари, Абдулкадирходжа Урак, Мулла Абдуллаходжа, Мулла Гиёсиддин Олим Садр, Джамалиддин Махдум Тошкургани, Ахмаджон Махдум Хамди,

Сайид Нуриддинхан-Тура, Мухаммад Садик Махдум Хайрат, Абдурахим Пешкуйи, Абдулмажид Зуфунун, Дарси Ходжа Роджи, Абульфазл Садр Олам Балхи, Сайид Мирсиддик-Тура, Ходжи Азим Раис, Абдулвахид Садр Балхи, Сухандон Мирзошох, Эшон Узбекходжа, Нияз Мухаммад Муфтий, Иноятулло аль-Бухари, Садриддинходжа Айни.

Отношение к эмиру. В научном наследии Садри Зиё особое место занимает отношение к правлению последних мангытских эмиров Музаффархана, Абдулахадхана и Алимхана. Это нашло отражение и в его произведении “Тазкори ашъор”, где автор, после предисловия о себе, начал описание поэта своего времени эмира Сайида Абдулахадхана и его творчества. Автор начал с пролога “*Огози ин нусха дилпазир ба зикри шаханшохи беназир аз гуфтани Зиё хакир паришон замир*” (от имени скромного Зияда я начну с настоящего человека и бесподобного шаха всех шахов) [5-6] и о самом Абдулахадхане: “Когда я начал свою книгу о поэтах с бесподобного шаха, он начал свою коронационную деятельность с упорядочения налога на имущество. Затем он реорганизовал управление и стал благородным правителем, а также творческим руководителем под псевдонимом Оджиз (беспомощный). Садри Зиё писал, что Абдулахадхан был достойным правителем эмирата из рода Сайидов, он отменил суровую смертную казнь, был покровителем поэзии, религии и науки, из-за чего у него были противники. Автор также признаёт, что его справедливая политика улучшила жизнь после эмира Музаффара, что он сделал страну лучше, что он управлял Бухарой из Карманы, что он начал делать добрые дела, что в султанате стабилизировался мир, возросло внимание к науке и просвещению, что вокруг него были сосредоточены учёные, что открылись рынки для торговли и обмена товарами со всеми четырьмя сторонами мира, что развивались строительство и промышленность. Он также пишет, что эмир имел своё место и влияние среди правителей всего мира, и несмотря на то, что он был сильным правителем, он как и Садий Шерази был утончённой натурой с псевдонимом Оджиз (беспомощный). Он даёт справедливое определение: “Во всём отдавая предпочтение справедливости, он стремился проводить мудрую политику, хотя и в тени русской политики”.

Талантливое творчество Садри Зиё находит своё отражение как в прозе, так и в стихах об эмире:

Агар шеър шаҳр аст Султон ӯааст,
Агар шеър инсон буд жон вой аст
Агар шеър шер аст шиккор аз ӯааст,
Агар зар буд сикка зар аз ӯааст...[5-9or]

(Если стихотворение - это город, то это его султан,
Если стихотворение - это человек, то это его душа,
Если стихотворение лев, то это его охотник,
Если поэзия - это богатство, то это её подлинность.)

Хотя традиционный стиль заключается в том, что автор дал самое длинное и позитивное определение в произведении правителю своего времени, тот факт, что произведение было переписано таким образом позже, также может быть объяснён тем фактом, что взгляды Садри Зиё не изменились по отношению к Абдулахадхану.

Далее идёт эмир Абдулахад с 6 газелями и 7 рубаями под псевдонимом Оджиз (беспомощный). Творчество эмира, его назидательный талант и художественное мировоззрение должна рассматриваться как отдельная тема для научного исследования. Есть ещё один примечательный аспект этого произведения, когда в тазкире (антологии) появился ещё один поэт Мулла Абдулходжа под псевдонимом Тахсин, который также написал касыду “Амир уль-муминин Абдулахадхан”. [5-35]

Амир Абдулахадхан в 1894 году переехал из Бухары в Карману, где он на расстоянии возглавлял правительство. О том, что он устраивал творческие вечера в построенных им великолепных садах, упоминается и в исторических источниках.

Соответственно, эта работа также еще больше подтверждает его научные взгляды.

В работах Садри Зиё прослеживается очень позитивный подход к личности и творчеству эмира Абдулахата. Потому что, несмотря на то, что его произведения сильно пострадали из-за событий 1918 года, впоследствии автор их восстановил и упорядочил, но и в этих восстановленных и дополненных изданиях прежние определения сохранились без изменений. Он не отказался от своих позитивных взглядов, как некоторые авторы своего времени. Это говорит о том, что отношение Садри Зиё к политике и культурным реформам Абдулахадхана не изменилось и впоследствии.

Произведение “Тазкори ашъор”, являясь редким образцом научной литературной среды конца XIX-начала XX веков, даёт ценную информацию о политической, социальной, экономической жизни того времени. Садри Зиё не только мастерски излагает мировоззрение своего времени в назидательных отрывках, но и показывает высокий научный потенциал своих современников. В таком прогрессивно настроенном обществе с сильными религиозными убеждениями также начинают признаваться обновления мировой цивилизации. Идеи реформ, поднятые интеллигенцией под руководством самого эмира, впоследствии встретят ожесточённое сопротивление бухарской верхушки мусульманского духовенства. Амир Абдулахадхан стремился к умеренности в отношениях между верхушкой мусульманского духовенства, военной верхушкой, сторонниками прогресса и внешними представителями Российской империи. Потому что независимость управления эмира имела важное значение во внутренней политике Бухарского эмирата. По толкованию Садри Зиё “мудрый правитель, царь религии и государства” [5-10] личность эмира Сайида Абдулахадхана имеет сложный и своеобразный характер.

Использованная литература:

1. Ш.Вохидов, З.Чориев. Садри Зиё и его библиотека. Ташкент, 2007.
2. M.Shakuri Buxori. Ro‘znomai Sadri Ziyo. Tehron, 1382. (перс.)
3. Sadri Ziyo. Navodiri Ziyoiya. Toshkent, “Bayoz”, 2019.
4. R.E.Xoliqova. Amirzoda Hashmat va qozikalon Sadri Ziyoning tazkiralari haqida. O‘zMU xabarlari, №1/3, 2015.
5. Садри Зиё. Тазкори ашъор. Бухарский исторический музей, №1681.
6. Р.Хадизода. Источники к изучению таджикской литературы второй половины XIX и начала XX века. Сталинабад, 1956.
7. С.Сиддикий. Зиё Садр Шарифчон Махдум. Тазкори ашъор. Шарҳи ҳоле барҳе аз шоирони муассири Тоҷикистон ва намунаҳое аз ашъори онон / Бо тасхеҳи Саҳобиддини Сиддиқи. Техрон: Суруш, 1380=2001.

ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ЎҚИТУВЧИ-МУРАББИЙНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ

Розиқов Н.Э., Маманазаров А.Х.-НавДПИ Ўзбекистон

***Annotation:** in this article, the physical culture is widely covered the pedagogical skills of the teacher-coach, the high level of pedagogical culture, the form of its manifestation in life, the developed psychological and pedagogical mentality of pedagogical skills, professional pedagogical knowledge, skills and skills, emotional and willpower of self-expression.*

***Keywords:** Physical Culture, Sports, pedagogy, skill, teacher, coach, skills, qualification, profession, knowledge.*

Педагогик маданиятнинг юқори даражаси, унинг ҳаётда намоён бўлиш шакли педагогик маҳоратдир. Педагогик маҳорат ривожланган психологик-педагогик тафаккур,

касбий педагогик билимлар, кўникма ва малакалар, ўзини ифода этишнинг ҳиссий-иродавий воситалари синтездан иборат.

Ўқитувчи-мураббийнинг маҳорати унинг фаолиятида кўринади. Ўқитувчи-мураббий, аввало, педагогик жараённинг қонуниятлари ва механизмларини яхши эгаллаган бўлиши лозим. Маҳорат – бу алоҳида кудрат. Педагогик маҳоратга етишиш ўқитувчининг муайян шахсий сифатлари билан амалга ошади ҳамда ўқув-тарбиявий муаммоларни муваффақиятли ҳал этишга имкон беради.

Педагогик маҳорат юксак даражадаги педагогик фаолиятнинг тараққий этишини, педагогик техникани эгаллашни, педагог шахси, унинг тажрибаси, фуқаролик ва касбий мавқеини ифодалайди.

Педагогик жараённинг ўзига хослиги унинг тузилиши ва мазмуни, ўқитувчи-мураббийнинг шаклланишига туртки бўлади. Ўқитувчи-мураббий ўқувчи-ёшларга жисмоний тарбия ва спорт соҳаси бўйича таълим (ўргатиш) бериш, тарбиялаш ва соғломлаштириш каби вазифаларни бажаради.

Педагогик маҳорат педагогик маданиятнинг асосий компоненти ҳисобланиб, у ҳам ўз навбатида мураккаб тузилишга эга. У қуйидаги тўртта қисмдан иборат:

1. Педагогик технология
2. Педагогик маҳорат
3. Предметни билиш
4. Педагогик услуб

Ўқув фанини, унинг тархини, назарияси, методикаси ва замонавий амалиётни билиш педагогик маҳоратнинг асосини, фундаментини ташкил этади. Фаннинг барча соҳаларининг жадал тараққиёти ва янгиланиш даврида касбий компетентлик (салоҳият)нинг муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ҳозирги кунда ўзгариб бораётган ташкилий восита, шакл, методлар ва ижтимоий шарт-шароитлар ўқитувчи-мураббийларга янги талаблар қўймоқда.

Маълумки, юқори жисмоний-амалий тайёргарлик ўқув-тарбиявий жараённинг сифати ва самарадорлигини белгилайди. Жисмоний тарбия соҳасида ва уни ўқитиш методикаси соҳасида ўқув фанини пухта билиш, бу билимларнинг юқори даражадаги спорт унвонига ва шахсий тажрибага асосланганлиги (масалан, спорт устаси) ижодий ёндошишга имкон яратади.

Тадқиқотларда таъкидланишича, агар мутахассис янги ахборотларга эга бўлмаса, унинг малака маҳорати 20-25% пасаяди. Шу боис, у шахсий вақтининг 20 фоизини илғор илмий ютуқлар билан танишишга сарфлаши керак.

Ўқитувчининг таълим ва тарбия соҳасида орттирган тажрибаси, педагогик-психологик тадқиқотларини янги ютуқларини эгаллашдаги салоҳияти (бу унинг илмий малака маҳоратида намоён бўлади) илгарилаб боровчи касбий тафаккурни таъминлайдиган истиқболли таълимни амалга оширишга имкон яратади.

Педагогик ижодиёт – педагогик маҳоратнинг муҳим ва сезиларли таркибий қисмидир. Унинг моҳияти таълим ва тарбиянинг юқори натижаларида намоён бўлади. Бу эса “ўқитувчи-таълим олувчилар” тизимининг ўзаро таъсири оқибати юзага келади.

Педагогик ижодиёт турли муаммоли вазиятларнинг келиб чиқиши ва уларни ўқитувчи ўзининг тасавури ҳамда ностандарт йўл билан ҳал қилишга интилиши билан белгиланади.

Педагогик маҳорат компонентларини ҳосил қиладиган қуйидаги малака гуруҳлари фарқланади:

1. Лойихалаш;
2. Конструкциялаш;
3. Ташкилотчилик;
4. Мулоқот;

5. Билиш ва рефлексивлик.

Педагогик маҳоратнинг асоси педагогик билимдонликдир. Педагогик билимдонлик деганда аниқ тарихий даврда қабул қилинган (нормалар, стандарт) ва талабларга мувофиқ педагогик вазифани бажаришга қобиллик ва тайёрлик билан белгиланадиган интеграл касбий-шахсий тавсифнома тушунилади.

Педагогик билимдонлик педагогик соҳада маҳорат билан ишлаётган кишининг таълим ва тарбия ишида инсоният тўплаган барча тажрибалардан рационал фойдаланиш қобилиятини кўзда тутар экан, у етарли даражада педагогик фаолият ва муносабатларнинг мақсадга мувофиқ усуллари ва шакллари эгаллаши лозим.

Ҳақиқий ижод ахборотнинг тўлалигига, илмий башоратга таянади. Шунингдек, у ўқитувчининг таълим-тарбия жараёнида педагог таъсирнинг изчил метод, шакл ва воситаларининг турли комбинацияларини ҳал гал янгича ва самарали қўллаш кўникмасига асосланади.

Педагогик услуб – муайян давр (мактаб) педагоглариининг ўзига хос фикр ва ҳаракатлар мажмуасидан иборат бўлиб, бошқа давр (мактаб) педагоглариининг қарашларидан фарқ қилади. Ҳар бир педагогнинг иш услуби такрорланмас, индивидуалдир.

Юқорида кўрсатилган маълумотлар жисмоний тарбия ўқитувчи-мураббийларнинг педагогик маҳоратига эга бўлишига ва унинг касбий маҳоратини эгаллашга муносиб хизмат қилади ҳамда ўқув-тарбиявий вазифаларни ҳамкорлик асосида муваффақиятли ҳал этишга имкон беради.

Адабиётлар рўйхати

- 1.Абдуллаева Ш. А., Ахатова Д. А., Сайитов С. С. ва б.қ. Педагогика // Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2004. – 198 б.
- 2.Абдуллаев А. Талаба ва спорт // Қўлланма. – Т.: Молия, 2015. – 168 б.
- 3.Абдуллаев А. Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти // Дарслик. – Т.:, 2005. – 168 б

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ АКАДЕМИЧЕСКОГО КАЧЕСТВА СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК.

Рахматова П., студентка НавГПИ.

Науч. рук. и.о.доц.Марданова Ф.Б. Узбекистан.

Resume: This article describes the use of digital learning technologies in the framework of teaching humanities, provides teachers with expanded opportunities to organize training sessions in the context of digitalization of education and has a positive educational effect on the quality of the educational process as a whole, the quality of knowledge, skills and abilities acquired by students, on the competitiveness and demand for future specialists.

Key words: multimedia technologies, distance learning, intelligent learning systems, virtual reality, hyper-text learning systems, information modeling technologies.

Сегодня цифровые технологии активно входят в жизнь общества и различные сферы жизнедеятельности современного человека. Применение цифровых и информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе профессиональных образовательных организаций позволит подготовить конкурентоспособных и востребованных специалистов.

Активное вхождение цифровых технологий во все сферы жизни людей, требует подготовки соответствующих специалистов, а это, в свою очередь, приводит к значительным изменениям в системе образования.

Цифровое образование может создать новые возможности для обучения, внедряет персонализированные образовательные программы, появляются привлекательные стратегии обучения школьников.

Информационные технологии могут применяться на разных этапах образовательного процесса: для подачи материала, проверки полученных знаний, закрепления материала, самообучения. Так, уже сегодня, существование образовательных организаций высшего образования не предоставляется возможным без наличия цифровой образовательной среды, которая, в свою очередь, обеспечивает доступность и интерактивность образовательного процесса. При этом работа по цифровизации образовательной организации проводится всеми участниками образовательного процесса, но в большей степени, непосредственно, преподавателями дисциплин и руководителями практик, которые активно внедряют цифровые технологии в процесс преподавания дисциплин, а также разрабатывают методические рекомендации по их эффективному применению.

Информационные технологии (ИТ) в образовании в настоящее время являются необходимым условием перехода общества к информационной цивилизации. Современные технологии и телекоммуникации позволяют изменить характер организации учебно-воспитательного процесса, полностью погрузить обучаемого в информационно-образовательную среду, повысить качество образования, мотивировать процессы восприятия информации и получения знаний. Информационные технологии становятся неотъемлемым компонентом содержания обучения, средством оптимизации и повышения эффективности учебного процесса, а также способствуют реализации многих принципов развивающего обучения.

К числу компьютерных информационных технологий предъявления учебной информации относятся:

- мультимедиа технологии;
- дистанционного обучения;
- интеллектуальные обучающие системы;
- виртуальная реальность;
- гипертекстовые обучающие системы;
- технологии информационного моделирования.

В обучении информационные технологии могут быть использованы, во-первых, для предъявления учебной информации обучающимся, во-вторых, для контроля успешности ее усвоения. С этой точки зрения информационные технологии, используемые в обучении, делятся на две группы: технологии предъявления учебной информации и технологии контроля знаний.

Автоматизированная обучающая система на основе гипертекстовой технологии позволяет повысить усвояемость не только благодаря наглядности представляемой информации. Использование динамического, т.е. изменяющегося, гипертекста дает возможность провести диагностику обучаемого, а затем автоматически выбрать один из оптимальных уровней изучения одной и той же темы. Гипертекстовые обучающие системы дают информацию таким образом, что и сам обучающийся, следуя графическим или текстовым ссылкам, может применять различные схемы работы с материалом. Все это позволяет реализовать дифференцированный подход к обучению.

Следует выделить основные дидактические требования, предъявляемые к ИТО, с целью повышения эффективности ее применения в образовательном процессе. К ним относятся:

- мотивированность в использовании различных дидактических материалов;
- четкое определение роли, места, назначения и времени использования;
- ведущая роль педагога в проведении занятий;

- тесная взаимосвязь конкретного класса с другими видами применяемых технологий;
- введение в технологию только таких компонентов, которые гарантируют качество обучения;
- соответствие методики компьютерного обучения общей стратегии проведения учебного занятия;
- учет того, что введение в комплект учебных средств требует пересмотра всех компонентов системы и изменения общей методики обучения;
- обеспечение высокой степени индивидуализации обучения;
- обеспечение устойчивой обратной связи в обучении и другие.

Современный период развития цивилизованного общества характеризуется процессом информатизации, одним из приоритетных направлений которого является информатизация образования. Существенным компонентом процессов информатизации является разработка и использование педагогических программных средств, базирующихся на различных информационных технологиях. В последнее время одним из актуальных становится направление, базирующееся на использовании в педагогических программных средствах компьютерных сетей.

Таким образом, применение компьютерных сетей в процессе обучения различным учебным дисциплинам требует от преподавателя знаний как в области подготовки сценария учебного курса с учетом возможностей инструментальных средств разработки программ, так и знаний в области методики преподавания конкретной дисциплины. Это объясняется широкими возможностями применения компьютерных коммуникаций и сетей в практической деятельности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Васенин В.А. Российский Интернет и новые технологии в образовании: Докл. на Втором Междунар. конгр. ЮНЕСКО "Образование и информатика" М., 2006.
2. Домрачев В.Г., Ретинская И.В. О классификации компьютерных образовательных информационных технологий // Информ. технологии. 2003. № 2.
3. Бурцев Д.С. Проблемы правления образовательным процессом при использовании цифровых инструментов в высших учебных заведениях / Д.С. Бурцев, Е.С. Гаврилюк, Д.И. Шаугараева // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. – 2020. – № 2. С.121 – 130.
4. Егорова Е.М. Теоретические основы цифровизации в профессиональном образовании / Е.М. Егорова // Вопросы педагогики. – 2020. – № 6-1. – С.100-109.

ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

РузиеваЗ.М. старший преп. НГПИ Узбекистан

Annotation: The article deals with the problem of introducing digital technologies into the educational process. An approach to organizing the process of teaching humanitarian disciplines using digital technologies is presented.

Key words: digital technologies, professional education, Internet resources.

Цифровые технологии быстрыми темпами входят практически во все сферы жизнедеятельности человека, требуют подготовки высококвалифицированных специалистов. Нельзя представить без современных средств информационно-коммуникационных технологий и сферу образования.

Использование цифровых и информационно-коммуникационных технологий в

образовании способствует подготовке конкурентоспособных и востребованных на рынке труда специалистов³¹².

В словаре-справочнике терминов нормативно-технической документации понятие «цифровые технологии» означает «технологии, которые используют компьютеры или другую современную технику для записи кодовых импульсов и сигналов в определенной последовательности и с определенной частотой»³¹³.

Большая часть исследователей представляют цифровые технологии в образовании как способ организации современной образовательной среды, основанной на цифровых и информационно-коммуникационных технологиях.

В настоящее время деятельность образовательных учреждений высшего образования невозможно без присутствия цифровой образовательной среды, обеспечивающей доступность и интерактивность образовательного процесса. Работа по цифровизации осуществляется всеми участниками образовательного процесса.

Интуитивный поиск по Интернет-ресурсу, легкость и наглядность представления и усвоения информации, быстрый доступ к необходимым материалам стали частью образовательной сферы. Профессия педагога тоже проходит через процесс информатизации, «приобщается» к информативно-коммуникативным возможностям современных технологий.

Гуманитарные дисциплины имеют важное значение в подготовке специалистов в системе высшего профессионального образования и направлены на формирование и развитие универсальных и общепрофессиональных компетенций.

Применение ресурсов Всемирной паутины позволяет развивать речевые навыки и профессионально необходимые компетенции, решать проблемы индивидуализации, повысить интерес к работе, экономить время, создать благоприятные условия для достижения поставленной цели.

Информационные технологии способствуют воссозданию реальной картины мира посредством цвета, графики, звука, дают студенту возможность наглядно обучаться в любой точке мира, выбрать интересующий материал, объем информации, метод изучения, темп работы, периодичность занятий и другие. Интернет-технологии также позволяют преподавателю за небольшое количество времени проверить знания студентов, в свою очередь, студент может сам повторить плохо усвоенный материал. Также присутствие аудио- и видеоматериала помогают понимать содержание текста без необходимости понимания каждого отдельного слова. Для совершенствования навыков и умений обучающихся преподаватель может вовлечь в проектную работу по интересующей теме.

С помощью цифровых образовательных технологий преподаватель учит студентов творчески мыслить, развивает их интеллектуальную сообразительность и логику, навыки самостоятельной работы, имеет возможность индивидуальной работы.

Исходя из функций и целей применения в обучении цифровых образовательных ресурсов³¹⁴, следует отметить электронную библиотеку, предоставляющую возможность сохранять и эффективно использовать электронные издания, справочники, энциклопедии, содержащие огромное количество информации по различным областям знаний, тренажеры, практикумы, позволяющие самостоятельно подготовиться к занятиям, объективно оценить свои знания.

Составление схем, таблиц, создание мультимедийных презентаций позволяет

³¹² Егорова Е.М. Теоретические основы цифровизации в профессиональном образовании / Е.М. Егорова // Вопросы педагогики. – 2020. – № 6-1. – С.100-109.

³¹³ Словарь – справочник терминов нормативно-технической документации [Электронный ресурс] – URL: http://normative_reference_dictionary.academic.ru

³¹⁴ Вартанова Е. Л. Индустрия российских медиа: цифровое будущее / Е. Л. Вартанова, А. В. Вырковский и др. – М. : МедиаМир, 2017. – 160 с.

эстетично оформить и компактно распределить учебный материал, сократить время изложения нового материала на занятии, применить высвободившееся время для закрепления и тренировки. Использование кроссвордов, иллюстраций, рисунков, различных занимательных заданий, тестов, воспитывают интерес к занятию. Применение цифровых образовательных ресурсов делает занятие интереснее и ярче.

Образовательная организация, создавая цифровую образовательную среду, позволяет преподавателям использовать ее возможности в учебном процессе.

Многие образовательные учреждения в качестве одной из систем управления курсами используют платформу Moodle, являющейся веб-приложением и предоставляющей возможность создавать авторские онлайн-курсы.

Занятия различного типа, организуемые в условиях дистанционного обучения, целесообразно проводить в системе Zoom, которая способствует повышению уровня интерактивности. Преимуществом данной системы является и то, что она дает возможность студентам и преподавателю общаться в реальном режиме, обсуждать актуальные вопросы, выполнять работу в малых группах.

Интерактивные технологии на занятиях помогают использовать и такие элементы онлайн-курсов на платформе Moodle, как «Чат» и «Форум». Использование названных элементов позволяет преподавателям обсуждать разные моменты учебного процесса³¹⁵, организовывать совместное обсуждение актуальных проблем дисциплин.

На занятиях по дисциплинам «Современный русский литературный язык», «Стилистика русского языка и культура речи» использование цифровых технологий позволяет не только дать широкий иллюстративный материал, но и соединить текст, видео, звук и иллюстрации в единую логически законченную композицию, включить в неё тексты, задания на проверку внимания, памяти.

Через элемент системы «Задание» студенты могут отправлять выполненные работы для проверки. В свою очередь, преподаватель проверяет присланные работы, оценивает их и комментирует.

Текущие, промежуточные и итоговые контроли по дисциплинам «Современный русский литературный язык», «Стилистика русского языка и культура речи» можно организовывать на платформе Moodle с помощью элемента «Тест». Данный элемент значительно облегчает процесс оценивания; оценка выводится автоматически сразу после завершения теста и видна студентам. Использование интерактивных тестов помогает преподавателю гуманитарного цикла не только экономить время, но и дает возможность обучающимся самим оценить свои знания.

Систематическое взаимодействие со студентами в условиях цифровизации возможно посредством мессенджеров Telegram, WhatsApp. Данные программные обеспечения создают условия для обмена текстовыми сообщениями, изображениями, видео, аудио, а также организации общения по видеосвязи.

При помощи онлайн-инструмента Google Forms преподаватель, отправляя ссылку, может проводить исследования, опросы различного характера.

Для контроля знаний, умений и навыков, самостоятельной работы студентов можно посредством бесплатного и несложного конструктора Online Test Pad создавать тесты, задания, задачи, кроссворды, опросы, диалоги, логические игры различных типов.

В процессе преподавания гуманитарных дисциплин, в том числе и дисциплин «Современный русский литературный язык», «Стилистика русского языка и культура речи» преподаватели могут использовать в учебном процессе ресурсы открытых образовательных платформ, где размещены онлайн-курсы ведущих вузов страны.

³¹⁵ Уваров А.Ю. Технологии виртуальной реальности в образовании / А.Ю. Уваров // Наука и школа. – 2018. – №4. – С.108-117.

Изучение онлайн-курсов поможет студентам обстоятельно изучить интересные аспекты изучаемых дисциплин.

Использование цифровых образовательных технологий в преподавании гуманитарных дисциплин оказывает положительный образовательный эффект на качество учебного процесса в целом, качество приобретаемых знаний, умений и навыков студентов, на конкурентоспособность и востребованность будущих специалистов на рынке труда.

Список литературы

1. Вартанова Е. Л. Индустрия российских медиа: цифровое будущее / Е. Л. Вартанова, А. В. Вырковский и др. – М. : МедиаМир, 2017. – 160 с.
2. Егорова Е.М. Теоретические основы цифровизации в профессиональном образовании / Е.М. Егорова // Вопросы педагогики. – 2020. – № 6-1. – С.100-109.
3. Словарь – справочник терминов нормативно-технической документации [Электронный ресурс] – URL: http://normative_reference_dictionary.academic.ru
4. Уваров А.Ю. Технологии виртуальной реальности в образовании / А.Ю. Уваров // Наука и школа. – 2018. – №4. – С.108-117.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШДА УЛАРНИНГ ГЕНДЕР ФАРҚЛАРИНИ ЎРГАНИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ

Мансурова С. – НавДПИ Ўзбекистон

Annotation: *The article discusses the issue of differentiation of the educational process with children of preschool educational institutions, taking into account the relationship between gender differences with interhemispheric functional asymmetry of the brain.*

Key words: preschool education, gender difference, interhemispheric functional asymmetry, differentiation of the educational process.

Соғлом бола тарбияси давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишига айланганлиги ҳамда жамиятимиз тарққиётида алоҳида ўрин тутган. Бугун олдимизда турган ўта муҳим, улкан вазифалардан яна бири бу ёш авлод вакиллари замонавий билим ва тафаккурга эга бўлган авлодларга таълим-тарбия беришдир. Бу борада Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ушбу масаланинг аҳамиятини алоҳида таъкидлаб, “миллатнинг соғлом генофондини тайёрлаш, аввало мактабгача таълим тизимидан бошланади”, - деганлар.³¹⁶ Республикамизда Мактабгача таълим соҳасида олиб борилаётган ислохотларнинг бош мақсади – келажакимиз бўлган ёш авлод вакилларига таълим-тарбия бериш, ўқитиш ва тарбиялаш жараёнида замонавий таълим дастурлари ва услубларини жорий этиш, болаларнинг ҳар томонмала ривожланишлари учун шароит яратишдан иборатдир³¹⁷.

Бунинг учун мактабгача таълим ташкилотларининг тарбиячилари болалар тарбиясига янгича ёндашишлари – болаларни ҳар томонлама ва чуқур билишлари, уларнинг таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда бош мия яримшарлари функционал асимметриясининг ўзига ҳосликларини ҳисобга олишлари керак бўлади. Чунки инсон бош мияси яримшарларининг ҳар иккаласи ҳам мураккаб когнитив жараёнларда иштирок этсада, бироқ уларнинг фаолият стратегияси бир-биридан сезиларли даражада фарқ қилади. Мана шу фарқ ҳар бир инсондаги ўзига ҳосликни келтириб чиқаради. Мактабгача таълим ташкилотида болаларнинг бош мияси яримшарлари функционал ташкил


³¹⁶Интернет саҳифаларидан.

³¹⁷Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз-Т.: “Ўзбекистон”, 2017.-Б.157-158.

этилишини ҳисобга олиш эса уларнинг билиш жараёнини жадаллаштиришга ижобий таъсир кўрсатади.³¹⁸

Тарбиячи-педагог **болаларга онгли равишда ёндашишнинг** мақсади таълим-тарбияни ривожлантириш, уни берилган стандарт ва босим остида “ўзгартириш эмас”, балки уни қандай бўлса, шундайлигича қабул қилиш учун шароит яратишни кўзлайди. Мажбурламасдан ўқитиши, ўз-ўзини таҳлил қилиш, гуруҳнинг интеллектуал фони, тарбиячи ва ота-оналар ҳамкорлигини йўлга қуйиш орқали ҳам эътиборни қаратиш лозимдир.³¹⁹ Таъкидлаш жоизки, мактабгача таълим ташкилотларида болаларни мактабга тайёрлаш уларда ёшига мос равишда қийин бўлмаган бирламчи билим, кўникма ва малакаларини эгаллашларига қаратилган бўлиши билан бирга, уларда нутқ, тафаккур ва ахлоқий сифатлари ривожлантириш билан ўзаро уйғунликда амалга оширилишини тақозо этади. Чунки бу босқич болаларни ўта мураккаб психикага эга бўлган инсонга айланаётган даври бўлиб, бу давр уларнинг билимларини ўзлаштириши ҳамда билиш фаоллиги билан боғлиқ бўлган бир қатор ўзига хосликларга эга. Ушбу ўзига хосликлардан бири – бош мия яримшарлари асимметрияси типининг инсон жинсига ҳам боғлиқ эканлигидандир. Бу ҳол фанда “гендер хусусият” деб номланади.

Инглиз тилида “гендер” тушунчаси “жинс” маъносини англатади. Тадқиқотчилар бола нутқи ва тафаккурини ривожланишида бош мия яримшарлари фаолиятининг бола жинсига ҳам боғлиқ эканлигини исботлаганлар. Болалар ҳаётининг биринчи йилларданок ҳулқи ва психикаси унинг жинсига ҳам боғлиқлиги билинади. Ўғил ва қиз болаларда илк ёшлигиданок бош мия фаолияти бир-биридан фарқ қилганлиги туфайли, психик жараёнларнинг кечиши ҳам бир-биридан ажралиб туради.³²⁰ Болаларнинг бош мия яримшарлари фаолиятининг гендер фарқлари билан ўзаро боғлиқлигига оид илмий тадқиқотлар натижалари таҳлилига таяниб, уларни тарбиялаш ва ўқитиш жараёнини ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Яъни:



³¹⁸ Гулямов Д.Р., Нурбоев Қ.М., Хамидова Ф.Т., Турсунова Ф.О. Нейропедагогика асослари / ўқув қўлланма. – Навоий: ФА Навоий бўлими, Навоий ДПИ, 2020. –Б. 6.

³¹⁹ Қодирова Ф.Р. ва бошқ.. Мактабгача педагогика. Дарслик. Тафаккур нашриёти. -Тошкент, 2019. –Б. 62.

³²⁰ Бышева М.В. Половая идентификация дошкольников в контексте социального познания/ Урал.ГПУ.–Эл. научно-образовательный журнал ВГПУ, 2009.№3.(4)

1-расм. Тарбиялаш ва ўқитиш жараёнини ташкил этиш.



Бош мия яримшарларининг фаолияти ва функционал типологияси бола жинсига боғлиқ бўлганлиги боис таълим жараёнини ташкил этишда педагог болаларнинг гендер хусусиятларини қабул қилиш, тафққур ва эмоциялари турлича бўлган ўғил ва қиз бола турганлигини ҳисобга олиш керак.³²¹

Хулоса ўрнида шунни айтиш жоизки, бугунги кунда педагогика фанида эришилаётган энг муҳим ютуқлардан бири гендер фарқлар асосида таълим бериш имкониятларининг очилаётганлигидир. Бу ҳодиса таълимни инсонпарварлаштириш нуқтаи назардан ҳам алоҳида қимматга эга. Мазкур мақсадни амалга ошириш жараёнидамактабгача таълим ташкилотларидаўғил ва қиз болаларнинг таълим ва тарбиясига, энг аввало нутқива тафққурини ривожлантириш масалаларига дифференциал ёндашиш мақсадга мувофиқ ҳисобланали. Бунда ўғил ва қиз болаларни алоҳида гуруҳларга ажратиш эмас, балки уларга бериладиган ўқув маълумотларни тайёрлашда шу ўзига хосликларни ҳисобга олиш зарур. Бундай таълим жараёни янги ўқув воситалари –замонавий ўқув-услубий материаллар ва дидактик ишланмалар яратишни талаб этади.³²²

Фойдаланилганадабиётлар:

1. Мирзиёв Ш.М. Буёқ келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. -Тошкент: “Ўзбекистон”,2017.
2. Бывшева М.В. Половая идентификация дошкольников в контексте социального познания / УралГПУ,Электронный научно-образовательный журнал ВГПУ, 2009. - №3.(4).
3. ҚурбоноваГ.М. Таълим технологиялари журнали. 59-62б. cyberleninka.ru.
4. Гулямов Д.Р., Нурбоев Қ.М., Ҳамидова Ф.Т., Турсунова Ф.О. Нейропедагогика асослари: ўқув қўлланма. –Навоий: ФА Навоий бўлими, Навоий ДПИ, 2020..
5. Р.Қодирова ва бошқ.. Мактабгача педагогика / Дарслик. Тошкент:**Тафққур нашриёт 2019** – 62б.

³²¹Гулямов Д.Р., Нурбоев Қ.М., Ҳамидова Ф.Т., Турсунова Ф.О. Нейропедагогика асослари / ўқув қўлланма. – Навоий: ФА Навоий бўлими, Навоий ДПИ, 2020.. –Б. 73.

³²²Г.М.Қурбонова. Таълим технологиялари журнали. cyberleninka.ru.

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДАГИ МАИШИЙ АҲАМИЯТГА ЭГА БЎЛГАН ҚАДИМИЙ СУВ ИНШОТЛАРИНИНГ ЦИВИЛИЗАЦИОН МОҲИАТИ (Нурота туманидаги коризлар мисолида)

Савриев Ж. Ф.-Кармана туман касб-хунар мактаби директори.
Мустақил тадқиқотчи, Ўзбекистон

Abstract. It should be noted that although written sources and legends of different periods speak about the antiquity of Nurota, artificial water structures, sewage, the history of their creation has been little studied from a scientific point of view. Short-term scientific research of a scientific group led by Y.Gulyamov. Korizy is an ancient innovative hydraulic engineering structure and a unique example of the agricultural art of our ancestors. Our short-lived scientific research of ancient reservoirs is a drop in the ocean of the history of the region and will require further research in the future.

Key words: Mirab, desert, Koriz, Sardoba, well, irrigation, stone well, depth, depression, pit, sarzhina, jug size, water clock, khambaz, mundi, aryk.

Қадимий Нуротанинг, халқаро аҳамиятга молик бўлган, Буюк ипак йўлидаги сув иншоотларидан бири бу коризлар ҳисобланади. Ушбу иншоотлардан қадимда кенг фойдаланилган бўлиб, Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидан Самарқанд, Бухоро, Нурота каби шаҳарларида 200 га яқин коризлар турлари учрайди³²³. Навоий вилояти Нурота туманидаги Мастон номли коризда 280 та қудук бўлиб, бош қудуқнинг чуқурлиги 14 м ва тунелнинг узунлиги 3 км бўлган. Тахминимизча, баъзан узоқ чўл ҳудудларида жойлашган сардобаларга ҳам ушбу коризлар орқали сув етказилган бўлиши мумкин. Коризларнинг маиший аҳамияти шундан иборатки, аҳоли ўз ақл-заковати туфайли яратган дастлабки инновациянинг қадимий кўринишларидан бири бўлиб, табиий иншоотларидан, қадим замонлардан, то ҳозирги кунгача фойдаланиб келмоқда. Табиий ирригация техникасининг бу қадимги тури кенг тарқалган туманлардан бири Нурота ҳисобланади³²⁴.

Нуротанинг қадимги коризларидан жуда кўпи кўмилиб кетган бўлса ҳам, ҳозирги вақтда Мастак, Зулм, Зулфикар, Мозор, Хайробод, Султон, Кунчи, Бегли, Тайла, Коризча сингари бир қанча коризлардан қишин ёзин сув оқиб туради³²⁵. Маҳаллий халқ туманда мавжуд бўлган коризларнинг бир қисми Искандарий коризлар деб саркарда Искандар номи билан боғлайди³²⁶. Улар: Товбой, Қайнар, Бошкориз, Мазор, Қувандиқ, Кўнчи, ал-Бухорий (Алпухори), Сатилғон, Мири, Ялок, Тайлок, Султон, Мастон, Мастак, Комбой, Зулфиқор, Калта-кориз бўлиб уларнинг номлари йиллар ўтиши мобайнида эҳтимол ўзгарган. Биз кўйида яна Нурота коризларининг номларини келтирамиз: Тошлоқ, Гажобод, Савробод, Қизил қанда, Сатторобод, Тошқудук, Хайробод, Ямон туркман, Қум кориз, Чучқок кориз, Зулмкориз, Дангал кориз, Жанжалобод, Нуробод, Сахти, Шеробод, Гўробод, Қуллол, Коризи Қалон, Коризча ва бошқалар. Нурота коризларининг ҳар биридан ўрта ҳисобда секундига 40-50 литр сув оқиб чиқиб, 40-50 гектаргача ер майдонини суғорган³²⁷.

Маълумки, коризлардан бир меъёрда сув оқиб туриши учун улар ҳар йили

³²³ Ҳасанов А.О. Буюк ипак йўлидаги сунъий сув иншоотлари хусусида. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. Проблемы архитектуры и строительства. Самарқанд. 2016. Б 8-13. №1. –Б-12-13.

³²⁴ Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.: Фан.1959.-Б-59.// Қурбонов Х., Аҳмедов Р., Исмоилзода Ш., Нарзуллаев У., Тоғаев З. Нурота тумани (Кеча ва Бугун). Т.: Sahnof. 2021. –Б-87-88.

³²⁵ Диссертантнинг дала ёзувлари: Нурота туманининг “Дехибаланд” қишлоғида яшовчи кекса педагог, ҳаваскор ўлкашунос Избосаров Шукур томонидан баён қилинди. 05.06.2020.// Тошев Х. XIX аср охири-XX аср бошларида Зарафшон ўзбекларининг хўжалиги ва ижтимоий турмуши. Тошкент: Фан. 1987. Б-16-17.

³²⁶ Батафсил қаранг: Суюнов С. Нурота коризлари ўрганиш. // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд. 1992.

³²⁷ Муҳаммаджанов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. Т.: Фан. 1972.-Б-35-36. Ғуломов Ғ.Ғ. Хонбанди. Ўзбекистоннинг суғорилиш техникаси тарихидан. Фан ва турмуш. 1958, №4. Суюнов С. Нурота коризлари ўрганиш.// Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд. 1992.

тозаланиб турилган, таъмир этилган. Кориз тозалаш энг оғир ва машаққатли ишлардан ҳисобланган. Чунки кориздор деҳқонлар ҳар йили эрта баҳорда 20-30 кун коризнинг тоннели ичида сув кечиб, лаҳм ва қудуклар ичига чўккан лойқаларни қазиб чиқарганлар. Кўпинча коризнинг пуштаси чўкиб, лаҳмнинг каттагина қисмини босиб қолиб фалокатли ҳолатларга ҳам сабаб бўлган³²⁸. Бундай ҳолларда лаҳмнинг босиб қолган қисми қайта қазилиб, ўпирилган жойларига ёғоч ёки тошлар қўйиб мустаҳкамланган³²⁹. Кориз ковлаш, шунингдек, коризни тартибли сақлаш учун, уни таъмир этишда бажариладиган қўл меҳнатининг ниҳоятда оғирлиги туфайли кориздор деҳқонлар бундай ер ости иншооти билан боғлиқ бўлган барча ишларни жамоа-жамоа бўлиб, биргаликда амалга оширишган. Нурота коризларининг кўпи охириги марта XVI-XVIII асрларда қурилган бўлиб, ҳатто айрим коризларнинг номларидан уларнинг қазилиши тарихи йили келиб чиққанлигини кўришимиз мумкин.³³⁰ Шуниси характерлики, ҳозирги вақтда охириги марта қазилган кўпгина коризларнинг ёнида, уларга параллел равишда баъзан икки, баъзан уч қатор кўмилиб, суви қуриб қолган кўхна коризларнинг ўзанлари жойлашган. Бу қуруқ ўзанлари, шубҳасиз, асрлар давомида Нурота коризларининг бир неча бор ишдан чиқиб, қайта тикланганлигининг гувоҳидир. Кориздан оқиб чиқадиган сув миқдори айтарлик кўп бўлмаган. Шунинг учун ҳам ҳар бир жамоадаги кориз сувидан фойдаланувчи деҳқонларнинг сони қатъий белгили бўлган. Масалан, кичикроқ коризларда кориздор жамоа 24 кишидан ва каттароқ коризларда 36 кишидан ошмаган. Ҳар бир кориз 24 ёки 36 деҳқондан иборат жамоанинг кучи ёки маблағига қурилгани учун, у шу жамоанинг жамоа мулки ҳисобланган. Шунга асосан кориздан фойдаланишда бу жамоа аъзолари тенг ҳуқуқли бўлиб, кориз суви ҳам, ундан суғориладиган ер майдони ҳам улар ўртасида баб-баравар тақсимланган. Кориз суви билан деҳқончилик қилишда ҳар бир кориздор жамоа 10 ёки 12 та майда гуруҳларга бўлинган. Ҳар бир гуруҳ майда коризларда икки деҳқондан ва катта коризларда уч деҳқондан иборат бўлган. Нуроталиклар бундай гуруҳларни —ҳамбоз³³¹, яъни шерик деб атаган. Кориз суви билан суғориладиган ер майдони ҳам ҳамбозларнинг сонига қараб бўлинган. Нуротанинг соҳибкор деҳқонлари, сув танқислиги туфайли, чашма сувидан унумли фойдаланиш учун ҳар бир деҳқоннинг ер майдонига қараб сувни вақт ҳисобига тақсимлаганлар.

Вақт белгилашда соат бўлмагани учун улар оддий “сув соати” – кўзани кашф этишган. Нуротанинг хусусий ер хўжаликларида чашма сувини сотиш кенг ёйилган бўлиб, у ҳам “кўза” ҳисобига баҳоланган. “Тарихи Сасимий” асарида келтирилган маълумотларга қараганда, бир кўза чашма сувининг баҳоси Бухоро кумуш тангасида минг тангадан бир ярим минг тангагача бўлган. Нуротанинг кекса ирригаторларидан Хидиров Қаххорнинг айтишича якка хўжалик даврида Нурота чашмасининг бир кўза суви учун 60 ботмон, яъни 480 пуд (2) ғалла берилган³³². Суғориш мавсумида чашма ёки ариқда оқаётган сувни кўза билан ўлчаб, хусусий деҳқон хўжаликлари ўртасида тақсимлаш, фақат Нурота аҳолиси учунгина эмас, балки сувга танқис бўлган худудлар, Кашқадарёда “мунди”, Жиззахда “кўза” номлари билан юритилган. Бу оддий сув соати баъзан чилим

³²⁸Шавкат Исмоилзода. Нурота тарихидан саҳифалар.Т.: Уздавматбуотли нашриёти.2010. Қурбонов Х., Аҳмедов Р., Исмоилзода Ш.,Нарзуллаев У.,Тоғаев З.Нурота тумани (Кеча ва Бугун).Т.: Sahhof. 2021. –Б- 90-91. Пардаев М., Гофуров Ж., Қорабоев С. Ғарбий устуришонанинг ер ости сув чиқариш иншоотлари ҳақида// Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихидан. Самарқанд. 2011.

³²⁹ Пардаев М., Гофуров Ж., Қорабоев С. Ғарбий устуришонанинг ер ости сув чиқариш иншоотлари ҳақида// Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихидан. Самарқанд. 2011.-Б-215.

³³⁰ Суюнов С. Нурота коризлари ўрганиш // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд. 1992.-Б- 121-123.

³³¹ Ҳамбоз- Кориз суви билан деҳқончилик қилишда ҳар бир кориздор жамоа 10 ёки 12 та майда гуруҳларга бўлинган . Ҳар бир гуруҳ майда коризларда икки деҳқондан ва катта коризларда уч деҳқондан иборат бўлиб, нуроталиклар бундай гуруҳларни “ ҳамбоз “ яъни шерик деб аташади . Мухаммедов А. Қ. Бегматов.И.А. Сув Хўжалиги ва Мелиорацияга Кириш. Тошкент – Тошкент ирригация ва мелиорация институти босмаҳонасида чоп этилди. 2008-Б-109-110.

³³² Мухаммаджонов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. Тошкент. Ўзбекистон. 1997.-Б-88.

ковокдан ҳам ясалган. Шундай қилиб, кўза фақат сув идишигина бўлиб қолмай, балки сопол кўза ва чилим қовоқлардан ясалган соддагина “сув соати” бўлиб, сув тақсимоли мавсумида мироблар кўлида дехқонлар ҳақобасини ўлчаб берадиган асбоб вақтни белгилловчи соат сифатида ҳам хизмат қилган³³³. Йўл бўйи иншоотларидан яна бири сифатида тадқиқ этилаётган карвонсаройлар фақат қадимги карвон йўлларининг йўналишларини аниқлаштиришга ёрдам берибгина қолмасдан, балки халқимиз меъморчилиги тарихини, бу соҳадаги ютуқларини, ўтмишидаги меъморий услубларини, аҳолини маиший муҳитини ўзида акс эттирган муҳим тарихий иншоотлардан бири ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Ҳасанов А.О. Буюк ипак йўлидаги сунъий сув иншоотлари хусусида. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. Проблемы архитектуры и строительства. Самарқанд. 2016. Б 8-13. №1. –Б-12-13.
2. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т.: Фан.1959.-Б-59.// Қурбонов Х., Аҳмедов Р., Исмоилзода Ш.,Нарзуллаев У.,Тоғаев З.Нурота тумани (Кеча ва Бугун).Т.: Sahnof. 2021. –Б-87-88.
3. Диссертантнинг дала ёзувлари:Нурота туманининг “Дехибаланд” кишлоғида яшовчи кекса педагог,ҳаваскор ўлкашунос Избосаров Шукур томонидан баён қилинди.05.06.2020.//Тошев Х.ХІХ аср охири-ХХ аср бошларида Зарафшон ўзбекларининг хўжалиги ва ижтимоий турмуши.Тошкент:Фан.1987.Б-16-17.
4. Батафсил қаранг: Суюнов С. Нурота коризлари ўрганиш. // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда.Самарқанд. 1992.
5. Муҳаммаджанов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. Т.: Фан. 1972.- Б-35-36. Ғуломов Ғ.Ғ. Хонбанди. Ўзбекистоннинг суғорилиш техникаси тарихидан. Фан ва турмуш. 1958, №4. Суюнов С. Нурота коризлари ўрганиш.// Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд. 1992.
6. Шавкат Исмоилзода. Нурота тарихидан саҳифалар.Т.: Уздавматбуотли нашриёти.2010. Қурбонов Х., Аҳмедов Р., Исмоилзода Ш.,Нарзуллаев У.,Тоғаев З.Нурота тумани (Кеча ва Бугун).Т.: Sahnof. 2021. –Б- 90-91. Пардаев М., Ғофуров Ж., Қорабоев С. Ғарбий устуришонанинг ер ости сув чиқариш иншоотлари ҳақида// Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихидан. Самарқанд. 2011.
7. Пардаев М., Ғофуров Ж., Қорабоев С. Ғарбий устуришонанинг ер ости сув чиқариш иншоотлари ҳақида// Ўзбекистоннинг моддий маданияти тарихидан. Самарқанд. 2011.-Б-215.
8. Суюнов С. Нурота коризлари ўрганиш // Ўзбекистон - қадимда ва ўрта асрларда. Самарқанд. 1992.-Б- 121-123.
9. Ҳамбоз- Кориз суви билан дехқончилик қилишда ҳар бир кориздор жамоа 10 ёки 12 та майда гуруҳларга бўлинган . Ҳар бир гуруҳ майда коризларда икки дехқондан ва катта коризларда уч дехқондан иборат бўлиб, нуроталиклар бундай гуруҳларни “ ҳамбоз “ яъни шерик деб аташади . Муҳаммедов А. Қ. Бегматов.И.А. Сув Хўжалиги ва Мелиорацияга Кириш. Тошкент – Тошкент ирригация ва мелиорация институти босмаҳонасида чоп этилди. 2008-Б-109-110.
10. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. Тошкент. Ўзбекистон. 1997.-Б-88.

³³³Муҳамедов А.Қ. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш. 1. Костяков А.Н. “Основы мелиорации”. М. Сельхозгиздат. 1960.-Б-624. Раҳимбаев Ф.М., Хамидов М.Х. “Қишлоқ хўжалик мелиорацияси”. Тошкент. “Мехнат”.Муҳамедов А.Қ. “Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш” фанидан ўқув қўлланма.Тошкент. ТИМИ босмаҳонаси. 2008. Муҳаммаджонов А. “Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари”. Тошкент. Ўзбекистон. 1997. Ирригация Узбекистана. I-IV том. Ташкент. “Фан”. 1981. Хамидов М.Х., Шукурлаев Х.И., Маматалиев А.Б. “Қишлоқ хўжалиги гидротехникамелиорацияси”. Тошкент. “Шарқ”. 2008. Тошкент. Тошкент ирригация ва мелиорация институти босмаҳонаси. 2008.

11. Мухамедов А.Қ. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш. 1. Костяков А.Н. “Основы мелиорации”. М. Сельхозгиздат. 1960.-Б-624. Рахимбаев Ф.М., Хамидов М.Х. “Қишлоқ хўжалик мелиорацияси”. Тошкент. “Мехнат”. Мухамедов А.Қ. “Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш” фанидан ўқув қўлланма. Тошкент. ТИМИ босмахонаси. 2008. Мухаммаджонов А. “Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари”. Тошкент. Ўзбекистон. 1997. Ирригация Узбекистана. I-IV том. Ташкент. “Фан”. 1981. Хамидов М.Х., Шукурлаев Х.И., Маматалиев А.Б. “Қишлоқ хўжалиги гидротехника мелиорацияси”. Тошкент. “Шарк”. 2008. Тошкент. Тошкент ирригация ва мелиорация институти босмахонаси. 2008.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ИЛМИЙ-МАДАНИЙ МЕРОСИНИНГ ЦИВИЛИЗАЦИОН МОҲИЯТИ: ЗАМОНАВИЙ ИЛМИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Саъдиев С.Т.-катта ўқитувчи, НавДПИ Ўзбекистон

Annotation - To further strengthen the ancient friendship and spiritual unity between our peoples, taking into account the growing cooperation between the states and peoples of Central Asia based on culture, enlightenment, language, science and spiritual values, as well as the appeals of intellectuals and the general public.

Keywords: *Culture, enlightenment, language, science, spiritual value, alliance, scientific and cultural heritage, international community, peace and tranquility, Eastern scholars and thinkers, modern civilization, science centers, new technologies and developments, modern science and an innovative approach*

Марказий Осиё давлатлари ва халқлари ўртасида маданият, маърифат, тил, илм-фан ва маънавий қадриятларга асосланган ўзаро ҳамкорликнинг тобора ривожланиб бораётгани ҳамда ушбу минтақа зиёлилари ва кенг жамоатчиликнинг мурожаатларини инобатга олиб, халқларимиз ўртасидаги қадимий дўстлик ва маънавий бирликни янада мустаҳкамлаш мақсадида, Вазирлар Маҳкамасининг ҳам қарори мавжуд.

Бу нимадан далолат, 30 йил мобайнида қўшничилик муносабатларининг таранглашиши натижасида, халқларимиз ўртасидаги иттифоқчилик, қариндошлик ришталарининг узилишига олиб келди. Минг шукурлар бўлсинки юртбошимизнинг оқилона юритаётган сиёсати туфайли, бу узилган ришталар яна уланди. Марказий Осиё халқлари илмий-маданий меросларининг асраб авайланиши, уни келажак авлодларга бус-бутун етиб боришини таъминлаш ҳозирги вазифаларимиздан биридир. Бу борада халқларимизнинг бирлашуви асосий мақсадлардан биридир. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки Ш.М.Мирзиёевнинг бу борадаги сиёсати бутун дунё ҳамжамияти эътирофга сазавор бўлди.

Жумладан Президент Шавкат Мирзиёев 21 сентябрда БМТ Бош Ассамблеяси 76-сессияси умумий мунозараларининг биринчи кунини видеомурожаат билан сўзга чиқди.

Давлат раҳбари халқаро ҳамжамиятга минтақа ва глобал кун тартибидаги долзарб масалалар, БМТнинг замонавий таҳдид ва хатарларга қарши биргаликда чора кўришдаги роли юзасидан ўз нуктаи-назарини тақдим этди ҳамда қатор таклиф ва ташаббусларни илгари сурди.

Давлат раҳбари сўзи аввалида COVID-19 пандемиясига тўхталиб, пандемия ва унинг ижтимоий-иқтисодий ҳамда маънавий-сиёсий оқибатлари Ўзбекистон ҳукуматининг диққат марказида эканлигини маълум қилди.

Бундан ташқари, глобал ҳаракатларга ёшларни жалб этиш мақсадида, Самарқандда мунтазам ўтказилаётган, Инсон ҳуқуқлари мулоқотлари доирасида Глобал таълим форуми ташкил этилишини маълум қилди.

Давлат раҳбари қўшни ва ёндош минтақалар билан ўзаро алоқаларни кучайтириш масаласида Афғонистондаги вазиятга алоҳида эътибор қаратди.

«Бу давлатда тинчлик ва осойишталик ўрнатилишидан нафақат биз— қўшни мамлакатлар, балки бутун дунё манфаатдордир»,— дея таъкидлади президент.

Ўзбекистон БМТнинг «ҳеч кимни эътиборсиз қолдирмаслик, ҳамма учун ва барча жойда» тамойили асосида вакциналардан тенг ва адолатли фойдаланиш имкониятини яратишга доир ёндашувини тўлиқ маъқуллашини қайд этди. Шунингдек, COVAX глобал платформаси доирасида кўрсатилаётган амалий ёрдам учун миннатдорчилик изҳор этди.

“Ҳозирги қийин даврда Афғонистонни яққалаб, уни муаммолар гирдобига ташлаб қўйиш мумкин эмас. Афғон масаласида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг таъсири ва овози ҳар қачонгидан ҳам кучлироқ янграши лозим”- дея қўшимча қилди.

Шуни таъкидлаш жоизки биринчи Президентимиз Ислом Каримов “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқида: “...Ўрта асрларда Шарқ оламида яшаб ижод этган буюк аллома ва мутафаккирларнинг илмий меросини чуқур муҳокама қилиш ва англаш, унинг замонавий цивилизация тарихида тутган ўрни ва ролига баҳо беришдан иборат. Ана шу бебаҳо илмий меросни янада теран тадқиқ этиш ва оммалаштиришга қаратилган саъй-ҳаракатларга янги туртки бериш, Шарқнинг улуғ алломалари томонидан амалга оширилган кашфиётлар замонавий илм-фан ва тараққиёт учун нақадар долзарб ва зарур эканини очиқ беришнинг аҳамияти ҳам шунчалик муҳим деб ҳисоблайман”.

Ўрта асрлар Шарқ тарихи шундан далолат берадики, маданият ва таълим-тарбия, тиббиёт, адабиёт, санъат ва архитектура соҳаларидаги бекиёс юксалиш, илмий мактабларнинг вужудга келиши, янги-янги истеъдодли авлодлар тўлқинининг пайдо бўлиши ва вояга етиши — буларнинг барчаси, биринчи навбатда, иқтисодиёт, қишлоқ ва шаҳар хўжалигининг анча жадал ўсиши, ҳунармандчилик ва савдо-сотикнинг юксак даражада ривожланиши, йўллар қурилиши, янги қарвон йўлларининг очилиши ва авваламбор нисбий барқарорликнинг таъминланиши билан бевосита боғлиқ бўлган.

Тинчлик ва барқарорлик бўлсагина илм-фан соҳасида ўсиш, тараққиёт ҳукм суради. Тинчлик ва барқарорлик бор мамлакатда илм-фан марказлари, таълим муассасалари равақ топади. Энг асосийси, таълим-тарбияни ривожланишига эътибор янада кучаяди. Милодгача бўлган II асрдан милодий XV асрга қадар қадимий халқаро транспорт артерияси вазифасини бажариб, Хитой, Ҳиндистон ва Марказий Осиё, Ўрта ва Яқин Шарқ, Ўрта Ер денгизи минтақаси каби ҳудуд ва мамлакатларни боғлаб келган Буюк Ипак йўлининг аҳамияти бекиёс бўлган. Буюк Ипак йўлининг аҳамияти қуйидагиларда намоён бўлади: Хитой, Ҳиндистон ва Марказий Осиё, Ўрта ва Яқин Шарқ, Ўрта Ер денгизи минтақаси каби ҳудудлар ўртасида нафақат савдо-сотик алоқаларини, балки қитъалар ва давлатлар ўртасида ахборот алмашинувини таъминлашга хизмат қилди;

янги технология ва ишланмаларнинг (ипак, чинни буюмлар, порох, қоғоз ва бошқа қўплаб маҳсулотлар) тез тарқалишида, қишлоқ хўжалиги экинлари ва агротехнологиялар ҳамда маданий қадриятларнинг ривожланишида муҳим восита вазифасини бажарди; шу тариқа цивилизациялараро мулоқот ва технологиялар алмашуви учун шарт-шароитлар яратди. Бу даврларда турли мамлакатлар халқларининг илмий билим ва ютуқлар билан бир-бирини бойитиб боришида, Буюк ипак йўли алоҳида роль ўйнади.

Хулоса шуни айтиш жоизки, ҳар бир жаҳада *замонавий илмий ва инновацион* ёндошув бўлсагина, албатта ўз самарасини бермай қўймайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Президент Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеяси 76-сессиясида сўзлаган нутқи. 22 сентябрь 2021, 08:24 Иқтисодиёт Жамият
2. Л.Ў. Мингишов, катта илмий ходим-изланувчи, ЖИДУ. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2015 йил
3. И.А.Каримов “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожигаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи Тошкент – 2014
4. С.Т.Саъдиев ХЛШ Международная научно-практическая конференция “Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования” 2018 г 25-26 Март (Америка Бостон).
5. А.Н.Эшмуродов Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) (Double Blind Refereed & Peer Reviewed international Journal).
6. Г.Х.Хамидова Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) (Double Blind Refereed & Peer Reviewed international Journal).
7. www.вестник-науки.рф
8. www.tdpu.uz
9. www.Ziyonet.uz

ВОСПИТАНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ – ВАЖНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ СЧАСТЬЯ СЕМЬИ И РОДИНЫ.

Рахматова М.Ш.- преп. НГПИ Узбекистан

Annotation: This article examines social relations, the activities of parents, makhallas and their place in the upbringing of comprehensively developed youth with independent thinking and worldview, free from negativity and vices.

Каждый родитель мечтает о том, чтобы его ребенок был счастлив, духовно здоров, перспективен, был финансово самостоятелен в будущем. Для достижения этой цели родители тратят всю свою жизнь. В настоящее время это качество, которое укоренилось в сердцах нашего народа.

Согласно учению ислама, ребенок является великим благословением, дарованным Всевышним Аллахом. Забота о том, чтобы ребенок был воспитан, физически здоров, гармонично развит, является одной из повседневных обязанностей каждого родителя. Здоровая окружающая среда и правильное воспитание в семье служат основой для дальнейшего становления его как личности, приобретения ребенком знаний и профессий. Взрослые должны понимать и учитывать интерес ребёнка к выбранной им профессии, только тогда ребёнок достигнет высот в своей деятельности. Важно не забывать о том, что молодые люди, оставшиеся без внимания взрослых, могут преследовать корыстные цели, ступить на неправильный путь, и здесь начинается пренебрежение к национальным и религиозным ценностям, дорога к вредным порокам, которые полностью противоречат нашим национальным и религиозным ценностям. Отец должен оставить своему ребёнку хорошее наследство – прекрасное воспитание.

Было бы хорошо, если бы каждый родитель задавался вопросом, как дети проводят своё свободное время, с кем они общаются, чем занимаются. Каждый родитель обязан быть примером для своего ребёнка, отказаться от вредных привычек, читать книги вместе со своим ребёнком, наставлять детей на правильный путь, говорить с ним о смысле жизни.

Представители нашей священной религии - верующие – мусульмане, гуманные и трудолюбивые люди. В коране достаточно аятов и хадисов, которые говорят, что заниматься наукой и просвещением - это важно как и читать намаз. В них говорится: "Аллах возвысит тех, кто уверовал и получил знания. Даже если наука находится в Китае, овладейте ею, потому что требование получения знаний является долгом для каждого

мусульманина". Большую часть населения нашей страны составляют молодые люди. Наше государство создало все необходимые материальные и духовные условия для развития молодого поколения, построены спортивные сооружения, места отдыха, всё это в распоряжении молодежи. Регулярно проводятся спортивные соревнования, олимпиады и конкурсы, вдохновляющие молодёжь на победы.

Во всей стране созданы большие возможности и условия для детей, особенно для их здоровья, получения знаний, получения профессии. Молодежное общественное движение «Камолот», «Соглом авлод», «Мехр нури» ведут особую просветительскую деятельность. Несомненно, родители, семья, махалля, школа играют важную роль в их воспитании детей. Долг государства - воспитание образованной, интеллигентной, культурной молодёжи. Необходимо с юных лет прививать детям интерес к науке, образованная молодёжь принесёт пользу своему народу и своей Родине.

Мы, взрослые, должны участвовать в образовательном процессе, быть внимательными к нашим детям, помогать им получать знания. Необходимо создавать условия для того, чтобы молодёжь развивалась. Создавать источники вдохновения, интересные места для отдыха. Каждый родитель обязан призывать своих детей к хорошему поведению, приносить пользу государству, в котором мы живём.

Иногда матери стараются скрыть ошибки и недостатки своих детей, не рассказывают отцу о провинностях ребёнка. В результате этого, поведение и воспитание ребенка постепенно может измениться, ребёнок, почувствовав безнаказанность, становится грубым и безнравственным. Поэтому роль матери так же необходима и важна для ребенка.

Необходимо воспитывать наших детей, чтобы они были верны своим предкам, своей истории, Родине, родному языку, великим людям нации, традициям священной исламской религии. Потому что образованный, человек найдет свое место в жизни. Наука о жизни, полученная в просвещенном обществе необходима как вода и воздух.

По мере того, как их дети растут, они становятся более внимательными, могут ценить подлинное вдохновение, которое высоко ценят взрослые, взрослые являются наставниками для своих детей, примером в поведении, приобретении детьми знаний и профессий. Мы должны воспитывать своих детей в духе сопричастности к происходящим вокруг событиям, переменам, должны быть опорой и жить с большой верой в светлое будущее. В заключении, можно сказать, что общественные отношения, деятельность родителей, махаллей и их место в воспитании всесторонне развитой молодежи с самостоятельным мышлением и мировоззрением, свободным от негатива и пороков является действительно важной и необходимой.

МАДАНИЙ ҚУРИЛИШДА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР.

Тоғаев К. Х.-НавДПИ, Ўзбекистан

Annotation: Such versatility of the activities of the cultural and educational worker places high demands on the personality of the cultural and educational worker, his moral image.

Keywords: cultural and educational worker should have deep ideological, theoretical and professional training, love and devotion to their profession, loyalty, vigilance, perseverance at work, self-assertion, prestige, pedagogical upbringing, interesting, attractive, dry reading speech, debate, pity for time spent in vain.

Маданий-маърифий соҳа ходими фаолияти тарбиявий фаолият ҳам ҳисобланади, лекин у тарбиявий ишларни мактаб ва ўқув юртлари педагогик жамоаларида бўлганидек бир хил ёшдаги, бир хил тайёргарликка эга бўлган ўқувчилар ёки талабалар билан эмас,

балки ёши, касби, билим даражаси, қизиқиш ва эҳтиёжлари турлича бўлган кишилар орасида олиб боради. ўқув юртларида тарбия жараёни мажбурий машғулотлар орқали амалга оширилса, маданий-маърифий соҳа ходимлари кишиларнинг бўш вақтини мазмунли уюштириш, маънавий эҳтиёжларини қондириш, қобилият ва истеъдодларини ривожлантириш мақсадида маданий-маърифий муассасаларда ташкил этиладиган хилма-хил оммавий тадбирлар ўтказиш йўли билан ҳал қиладилар.

Маданий-маърифий соҳа ходими фаолиятининг яна бир хусусияти маданий-маърифий тадбирларда кишиларнинг ақл-идроки билан бирга уларнинг ҳиссиётига ҳам таъсир кўрсатиш лозим. Маданий-маърифий муассасаларда ўтказиладиган ҳар бир тадбир чуқур мазмунли, юксак даражада ғоявий бўлибгина қолмай, қизиқарли, жозибали, одамларни мафтун этадиган ҳам бўлиши керак. Жонсиз, куруқ ўқилган маъруза, пухта тайёрланмай кўрсатилган концерт, баҳс-мунозара кечаси ёки бошқа тадбирлар қатнашчиларни қизиқтирмайди, бекор ўтказган вақт учун ачиниш ҳиссини уйғотади.

Маданий-маърифий соҳа ходимининг касбий (профессионал) фаолияти ўз моҳияти билан тарбиявий иш эканлигини биз юқорида таъкидлаган эдик. Унинг асосий вазифаси ҳар томонлама камол топган шахсни шакллантиришдан иборатдир. У кишиларнинг маданий дам олиш, ўз маънавий эҳтиёжларини қондириш, истеъдод ва қобилиятларини ўстиришга қаратилган ижтимоий-фойдали фаолиятни уюштирувчидир. Маданий-маърифий соҳа ходими омманинг педагог-тарбиячиси, улар орасида ўтказиладиган ижтимоий-фойдали ишларнинг ташаббускори, хаваскорлик жамоаларининг раҳбаридир.

Маданий-маърифий соҳа ходими фаолиятининг бундай кўп қирралилиги маданий-маърифий соҳа ходими шахсиятига, унинг ахлоқий қиёфасига юксак талаблар қўяди.

Мустақил давлатимиз маданий-маърифий соҳа ходими чуқур ғоявий-назарий ва касбий тайёргарликка эга бўлиши, ўз касбига меҳр-муҳаббатли, садоқатли бўлиши керак. ўз касбига содиқлик, хушёрлик, ишда қатъийлик, ўзига талабчанлик, ишда қатъийлик, ўзига талабчанлик маданий-маърифий соҳа ходимининг асосий хислатларидандир. Шунингдек, ишга ижодий ёндошиш, ташаббускорлик, янгиликка интилиш хислатлар ҳам хос бўлиши керак. Буларсиз у маданий-маърифий ишларнинг мазмуни, шакл ва усулларини тўхтовсиз такомиллаштириб боришдек муҳим вазифани муваффақиятли бажара олмайди.

Кишилар билан ва кишилар учун ишлашга даъват этилган маданий-маърифий ходимининг қиёфасини ватанпарварлик, инсонпарварлик каби юксак ахлоқий сифатларсиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Чунки маданият уйидаги ҳар бир оммавий тадбир, тўғарак машғулотлари кишиларни ўз она юртига, халқига чуқур меҳр-муҳаббат туйғуларини шакллантиришга, ватанпарварлик ҳиссини мустаҳкамлашга ёрдам бериш керак. Бу эса маданий-маърифий соҳа ходимининг ўзида ватанпарварлик туйғулари қанчалик чуқур ва мустаҳкам ўрин олганлигига, ўтказиладиган тадбирлар мазмунини ягона мақсадга йўналтира билишига боғлиқ.

Ҳаётда синовдан ўтган бир нақл бор: «Бошқаларни тарбиялайдиган кишининг ўзи яхши тарбияланган бўлиши керак». Маданий-маърифий соҳа ходими фаолиятига бўлган талабалар мана шу педагогик ҳақиқатдан келиб чиқади.

Билимлар тарғиботчиси, омманинг бўш вақтини мазмунли ўтказишга мутасадди бўлган маданий-маърифий соҳа ходими юксак даражадаги дунёқараш маданиятини, яъни ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва фалсафий билимлар мажмуини эгаллаган бўлиши керак. чунки маданий-маърифий соҳа ходимининг онг-билим даражаси у иш олиб бораётган кишилар билимидан, савиясидан юқори бўлиши керак.

Маданий-маърифий соҳа ходими учун энг зарур билим тармоқларидан бири-бу педагогик билимлар ҳисобланади. Педагогика маданий-маърифий соҳа ходимига олиб бориладиган ишларнинг мазмуни ва моҳиятини чуқур тушуниб олишда, кишиларга

тарбиявий таъсир ўтказишнинг янги-янги усуллари ўзлаштириб олиб, улардан оқилона фойдаланиш йўллари ўрганишда ёрдам беради. Педагогик одоби-ўзини жамоатчилик орасида қандай тутиши, қандай гапириш ва хоказоларни эгаллаб олиш, таълим-тарбия ишларини уддалай билиш ҳам талаб қилинади.

Маданий-маърифий соҳа ходими касбий маданиятининг яна бир муҳим кўрсаткичи бу психологик (руҳиятшунослик) билимларидир. Руҳиятшунослик жараёнлари қонуниятларини чуқур ўзлаштириб олиш, ишни уюштиришда маданий-маърифий муассасалардаги тарбиявий жараённи тўғри уюштириш ва унинг самарали бўлишини таъминлаш мумкин.

Маданий-маърифий ходимининг ташкилотчилик қобилиятлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

-Коммуникатив хусусиятларни, яъни кишилар билан тезда тил топишишни улар билан алоқа боғлашни, бир-бирларини тезда тушунишни, жамоанинг ҳар бир аъзосининг имкониятларини, унинг ижтимоий топшириқни бажаришга лаёқатини тўғри аниқлай олишини;

-Вужудга келган вазиятни тез ва тўғри баҳолашни, муайян ҳолатда тўғри йўл топиб, уни зудлик билан ишга сола билишни;

-Ишга ижодий ёндошишни, тадбиркорликни янги, самаралироқ иш шакллари ва усуллари тезда топиб, маданий-маърифий иш амалиётига жорий қила билишни;

-Ишни амалда ташкил этишни, мақсадга интилган ҳолда тез ҳаракат қилишни, топширилган ишнинг ижросини назорат қила ва текшира билишни.

Кўрсатиб ўтилган фазилатларнинг кўпчилиги кишида болалик чоғидан бошлаб ўқиш, айниқса жамоат ишларида қатнашиш жараёнида намоён бўлади ва ривожланиб боради. Махсус ўқув юртлари-коллеж ва институтларидаги таълим бу сифатларнинг янада ривож топишига ёрдам беради. Лекин маданий-маърифий соҳа ходимининг ташкилотчилик қобилиятларини ўстириш ва шакллантиришда унинг оммавий фаолияти ҳал қилувчи роль ўйнайди. Маданий-маърифий соҳа ходимининг ташкилотчилик қобилиятларини шакллантиришда ўз-ўзини тарбиялаш усуллари орқали маданий-маърифий соҳа ходими ўзида ишчанликни, бошланган ишни охирига етказа билишни эгаллаб олиши мумкин. Ўз-ўзини тарбиялаш бошқа кўп ижобий сифатларни ўстиришга, салбий сифатлардан қутулишга ёрдам беради.

Маданий-маърифий соҳа ходими доимо кишилар билан алоқада бўлади. Маданий-маърифий муассага келувчиларнинг, ўзи билан бирга ишлайдиган ҳамкасбларининг «диққат марказида» туради. Шунинг учун ҳам у ҳар бир ишда ибрат бўлишга интилиши, одамларни ўз шахсий намунаси, юксак одоби, хулқи билан ишонтириши ва тарбиялаши керак.

Ибратли сифатларга эга бўлган маданий-маърифий ходимгина жамоа орасида обрў қозонади. Обрўнинг ўзи нима? Обрў - куч, ҳокимият, таъсир маъноларини билдириб, улар мажбур этишга эмас, балки шахс ёки жамоанинг ахлоқий кадр-қимматини жамоатчилик томонидан ихтиёрий тан олишга асосланган бўлади. Обрўнинг даражаси маданият ходими билимларининг ўткирлиги, виждондан ишлаши, ижтимоий-сиёсий активлиги, ахлоқий киёфаси билан белгиланади.

Маданий-маърифий соҳа ходими фаолиятини таъсирчинлигини оширадиган омиллардан яна бири бу маданият ходимининг педагогик одобидир.

Маданий-маърифий ходимининг педагогик одоби-бу унинг муайян вазиятда шахсга ёки жамоага тарбиявий таъсир этишнинг мақсадга мувофиқ усуллари ва йўллари танлай ва қўллай билдириш. Педагогик одоби амалий фаолиятда, кишилар билан мулоқотда бўлиш жараёнида намоён бўлади ва мустаҳкамланади. Одоблиқнинг ривожланиши маданий-маърифий ходимнинг умумий маданияти, шахсий сифатларга боғлиқ бўлади.

Педагогик одоби аввало кишилар билан муомалада, у билан самимий, ростгўй бўлишда намоён бўлади.

Ишдан бўш вақтда ўз билимларини бойитиш, қобилиятларини ўстириш, маънавий эҳтиёжларини қондириш учун мадний-маърифий муассасага келувчиларга меҳрибонлик, ғамхўрлик кўрсатиш маданий-маърифий ходим педагогик одобининг муҳим хусусиятларидир.

Педагогик одоби кишига ҳурмат билан карашни назарда тутаяди, лекин бу унга талабчан бўлишни истисно этмайди, адолатли талабчанлик ҳамма вақт тарбиячининг обрўйини кўтаради.

Эътибор билан караб, ўз диққатини бошқа нарсаларга чалғитмасдан, уринсиз саволлар билан суҳбатдошининг сўзини бўлмасдан, эшита билишлилик ҳам маданий-маърифий соҳа ходимининг муҳим хусусиятидир.

Юмор, ҳазил, аския-булар суҳбатдошга, тингловчиларга эмоционал таъсир этишининг кучли воситасидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И.А. *Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз*. Т., “Ўзбекистон”, 1994.
2. Каримов И.А. *Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари*. Т., “Ўзбекистон”, 1997.
3. Каримов И.А. *Ўзбекистон – буюк келажак сари*. Т., “Ўзбекистон”, 1998.
4. Каримов И.А. *Маънавий юксалиш йўлида*. Т., “Ўзбекистон”, 1998.
5. Каримов И.А. *Истиқлол ва маънавият*. Т., “Ўзбекистон”, 1998.
6. Каримов И.А. *Миллий мафкура ҳақида*. Т., “Ўзбекистон”, 2000.
7. Каримов И.А. *Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз*. Т., “Ўзбекистон”, 2001.
8. Мирзиёев Шавкат Миромонович. *Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиши тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ* / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - 56 б. (.pdf 17.6Мб)

ТАЪЛИМ - ТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ.

Тўраева Г. Э., -Термиз Давлат Университети Ўзбекистон.

ANNOTATION: *The principles of didactics in the educational process through the use of computer technology, such as consistency, coherence, scientificity, demonstration, are described.*

KEYWORDS: *technology, practice, goal, supply, situation, task, thinking, training, collaboration, interview, education, knowledge, skill, competence, management, tool.*

Компьютер технологиялари – бу талабаларнинг билиши, кўникмаси, малакаси ва компетенцияларини ривожлантирадиган, уларнинг техника ва ижтимоий жараёнларни бошқариш бўйича имконияларини кенгайтирадиган маълумотларни ташкил этиш, сақлаш, ишлаб чиқиш, тиклаш, узатиш методлари ва техник воситаларидир. Шунингдек компьютер технологиялари деганда, маълум бир мақсадга эришиш учун амалий амалга ошириладиган жараёнлар занжиридан иборат яратувчи фаолият тушунилади.

Компьютер технологиялари ва техник воситалар самарасини белгиладиган дидактик материаллардан кенг қамровда фойдаланиш инновацион педагогик технологияларнинг асосий белгиларидан бири.

Компьютер технологиялари инсоният тараққиётининг турли босқичларида мавжуд бўлиб, ҳозирги замон компьютерлашган жамиятнинг ўзига хос хусусияти шундаки, компьютер технологиялари барча мавжуд технологиялар, хусусан, инновацион таълим

технологиялари орасида етакчи ўринни эгалламоқда.

Ахборотли воситалар (компьютер, электрон почта, радио, телевидения)дан фойдаланиш даражаси иккита омил билан аниқланади:

1. Ўқув тарбиявий жараён учун ахборотли воситалар самара берадиган мавзулар юзасидан дидактик материалларни ишлаб чиқиш.

2. Ўқувчиларнинг ўз амалий фаолиятларида техник воситалар ва дидактик материаллардаги методик жиҳатдан тўғри фойдалана билиш тайёргарлигини текшириш.

Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурда таълим-тарбия жараёнини бошқаришнинг бу муҳим воситасига алоҳида урғу берилган. Компьютер таълими жараёни олдиндан педагогик лойихалангандагина кўзланган мақсадга эришиш мумкин. Педагогик жараённи компьютерлаштириш асосий йўналишлардан бири ва замонавий компьютер технологияларининг шуғулланиши лозим бўлган соҳаси.

Компьютер технологиялари дастурли ўқитиш ғояларини ривожлантиради, замонавий компьютерлар ва телекоммуникацияларнинг ноёб имкониялари билан боғлиқ таълимнинг хали тадқиқ қилинмаган янги технологик вариантларини очади. Таълим-тарбиянинг компьютер технологиялари – бу ахборотни тайёрлаш ва уни таълим олувчига узатиш жараёни бўлиб, уни амалга ошириш воситаси компьютер, яъни:

а) талабада ахборот билан ишлаш маҳоратини шакллантириш, уларнинг коммуникатив қобилиятини ривожлантириш;

б) “ахборотли жамият” талаба шахсини тайёрлаш;

в) таълим олувчиларнинг ўзлаштириш имконияти даражасидаги ва етарли миқдорда ахборот билан таъминлаш;

г) талабаларда тадқиқотчилик маҳоратини, оптимал қарорлар қабул қилиш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш.

Шундай қилиб, таълим-тарбия жараёнига инновацион компьютер технологияларининг жорий этилиши қуйидагиларга олиб келади:

1. Таълим-тарбия жараёнини, талабанинг аниқ тайёргарлик даражасини, қобилиятини, янги материални ўзлаштириш суръатини, қизиқиш ва майлларини ҳисобга олиб кўпроқ индивидуал ҳолда ёрдам бериш.

2. Талабанинг билим фаолиятини кучайтириш, унинг ўз-ўзини ривожлантириш, таълим-тарбия ва касбга қизиқишини ҳамда интилишини қўллаб қувватлаш ва ривожлантириш.

3. Таълим-тарбия жараёнида фанлараро алоқаларни кучайтириш, борлиқ ходисаларни мажмуавий ўраганиш.

4. Таълим-тарбия жараёнининг мослашувчанлиги, омилкорлиги, ташкил топиш шакллари ва методларини такомиллаштириш ҳисобига уни доимий ва динамик янгилаб бориш.

5. Олий таълим муассасаларида ўқитишнинг компьютер воситаларидан ҳамда виртуал стендлардан фойдаланиш.

6. Таълим-тарбия жараёнининг технологик база(негизи)сини ҳозирги замон техник воситалари асосида жорий этиш йўли билан такомиллаштириш.

Адабиётлар.

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Народное образование, 1998.

2. Питюков В. Ю. Основы педагогической технологии. Москва : Гном – Пресс, 1999.

3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Издательство Института профессионального образования Министерство образования России, 1995.

4. Поульсен С. Введение в современную методику преподавания. Пер.с датского яз.-Б.: Кесип, 2007.

ҲАМКОРЛИҚДАГИ ТАРБИЯНИНГ ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТЕХНОЛОГИЯСИ

Тўраева Г. Э.,-Термиз Давлат Университети Ўзбекистон.

ABSTRACT: This article is based on the experience of well-known Uzbek, Russian and foreign educators, namely: A. Avloni, Fitrat, H. H. Niyazi, K. D. Ushinsky, N. P. Pirogov, L. N. Tolstoy, Ya. Korshak, V.A. Sukhomlinsky, K.D. Makarenko, S.T. Shatsky, Y.A. Kamensky, J.J. Russo, K. Rodgers, E. Bern and others.

KEYWORDS: - Education, training, outcome, efficiency, culture, process, activity, opportunity, collaboration, idea, technology, problem, attitude, success, communication, knowledge, skill, qualification, competence, ability, quality, factor, approach, content.

Ҳамкорликда тарбия бериш машғулотларининг асосий жараёнлари: ҳамкорликда фикр алмашиш, суҳбат, таҳлил, мунозара, музокара, амалий топшириқлар бериш, амалий фазибалар бажариш, бирор нарсани яшаш (қуриш) ва бошқаларни ўз ичига олади. Ҳамкорликда тарбия бериш машғулотларини ташкил қилишда: ўқитувчи-аудитория, ўқитувчи-гуруҳ, ўқитувчи-катта гуруҳ, ўқитувчи-талаба, талаба-талаба (жуфтликда ишлаш), кичик гуруҳ-кичик гуруҳ, кичик гуруҳ-аудитория ва бошқа ташкилий шакллар қўлланилади.

Ҳамкорликда тарбия бериш – бу ўқитувчининг таълим-тарбия жараёнида талабалар гуруҳи, яққа ва бутун гуруҳ билан ўзаро самарали ҳамкорликни ташкил қилиши билан биргаликда, талабаларнинг ҳам ўзаро қўллаб-қувватловчи ҳамкорлигини амалга оширишдаги инструктаж ва интерфаол жараёнларни ифодаловчи оммалашган ибора. Талабалар ҳамкорликда академик топшириқлар кичик гуруҳларда ишлашади, ўзларига ва ўз гуруҳларидаги ўртоқларига биргаликда ёрдам беришади.

Ҳамкорлик педагогикаси 4 та асосий йўналиш бўйича амалга оширилади:

- шахсга инсон, шахс сифатида ёндашув;
- диалектик фаоллаштирувчи ва ривожлантирувчи мажмуа;
- тарбия концепцияси;
- атроф-муҳитни таълим-тарбияга мослаш.

Ҳамкорликда тарбия бериш методлари қуйидаги 5 та хусусиятга эга:

1. Талабалар биргаликда, умумий топшириқ ёки ўқитилаётган фаолият устида ишлашади, бу гуруҳий иш орқали яхши ўзлаштирилади.

2. Талабалар 3-5 нафар аъзодан иборат таркибда кичик гуруҳларда биргаликда ишлашади.

3. Талабалар умумий вазифаларнинг ечимларини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолиятини амалга ошириш учун гуруҳ томонидан ишлаб чиқилган ҳамда ижтимоий қабул қилинган ҳулқ-атвор мезонлига риоя қилишади.

4. Талабалар ижобий ва мустақил бўлишади. Умумий вазифалар ечимини топишга эришиш ёки ўрганиш фаолияти бўйича ишларни ташкил этиш, талабаларнинг бир-бирларига қўмаклашишлари талаб этилишини ҳисобга олган ҳолда тузилган бўлади.

5. Талабалар ўз ишлари натижасига ёки бошқача айтганда, ўқишга, таълим-тарбия олишга, шахсан масъулиятли ва жавобгар.

Ҳамкорликда тарбия бериш қуйидаги натижаларга эришиш имконини беради:

- Таълабанинг тарбияланиш жараёнини бойитади;
- Талабаларга улар ўртасида тақсим қилиниб, ўзлаштирилган когнитив ахборотлар тўпламини беради;
- Талабаларда материални ўрганишга иштиёқ ўйғотади;
- Талабаларнинг ўз шахсий билим, кўникма, малака, компетенция ва дунёқарашларини шакллантириш имкониятларини кенгайтиради;
- Ахборотларни икки томонлама алмашиш самарадорлигини оширади;

- Талабаларга мустақил ҳаётга тайёрланишлари учун зарур таълим-тарбияни беради;
- Турли хил маданият ва ижтимоий-иқтисодий гуруҳлар ўртасида ижобий ўзаро муносабатларни олдинга суради.

Ҳамкорлик – шундай ҳолатки, объект ва субъект бирлашиб фойда қилади, ўртоқлик, ўзаро ёрдам, жамоатчилик юзага келади.

Ҳамкорлик педагогикасининг асоси қуйидагилардан иборат:

- Талаба шахсини ҳар томонлама билиш;
- Талаба шахсига инсонийлик нуқтаи назаридан ёндашиш;
- Жамоатчилик тарбияси;
- Ўқитувчининг юқори касбий салоҳияти;
- ОТМга жамоа диққат-эътиборини қаратиш;
- Ҳамкорлик педагогикасини илғор педагогиканинг қўринишларидан деб қараш.

Талаба, ўқитувчи, ОТМ раҳбари, ота-оналар ва маҳалла ҳамкорлиги – ҳамкорлик педагогикасининг асоси. Ҳамкорлик педагогикасининг таснифи қуйидагилар:

- 1) Метатехнология - замонавий таълим технологиясининг умумий дастури.
- 2) Фалсафий асосий – инсонпарварлик ва инсон фалсафасидан иборат.
- 3) Методологик ёндашув: коммуникатив, шахсга йўналган, ижтимоий-маданий, ишчанлик.
- 4) Ривожланишнинг етакчи омиллари: биологик-ижтимоий-психологик.
- 5) Мазмуни: таълим берувчи, тарбияловчи, яратувчи, инсонпарварлик, умумкасбий, умумтаълим-тарбиявий ғояларни илгари суриш.
- 6) Ижтимоий педагогик фаолият: тарбиявий, психологик, педагогик, ижтимоий.
- 7) Ўқув-тарбия жараёнини бошқариш типи: кичик гуруҳ ва якка тартибда.
- 8) Ўзаро муносабат тарбияловчи тавсиф ва талабага ёндашув: инсоний ва шахсий.
- 9) Методлар: муаммоли-изланувчан, ижодий, диалог, ўйин.
- 10) Дастурнинг йўналиши: инсонпарвар ва демократия асосида.

Педагогик ҳамкорликда мақсадли йўналишлар:

1. Педагогик талабдан педагогик муносабатга ўтиш.
2. Талабага инсоний ва шахсий ёндашув.
3. Таълим-тарбия бирлиги қонуни

Шахсга ёндашувнинг 6 та йўли бўлиб, улар қуйидагилар:

а) севиш; б) тушуниш; в) қабул қилиш; г) қарашиш; д) ҳамдардлик; е) ёрдам бериш.

Бугунги тез ўзгарувчан ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаёт талабалар дунёқарабини шакллантиришда янги педагогик интерфаол методлардан кенг фойдаланишни тақозо қилади. Анъанавий машғулотлар олиб бориш секин-аста ўз ўрнини интенсиф ва интерфаол методларга, ноанъанавий дарс ўтиш ишларига бўшатиб бермоқда.

Билим қанчалик мустаҳкам бўлса, талаба дунёқараши, интеллектуал салоҳияти шунчалик ривожланади ва камол топади. Ҳозирги кунда талабалар учун информацион саводхонлик таълим-тарбия самарадорлигини оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Узлуксиз таълим тизимининг бешинчи бўғини бўлган олий таълим муассасалари олдида қўйилган ДТС талабларига мувофиқ, мазкур таълим муассасалари таълим-тарбия жараёни самарадорлигини ошириш, илм-фаннинг сўнгги ютуқларини амалиётга жорий этиш орқали ижодкор, ижтимоий фаол, юксак маънавиятли, касб-хунарли, она ватанга садоқатли, миллий ва умуминсоний қадриятларни ардоқлайдиган, ижодий ва мустақил фикр юрита оладиган, давлат, жамият ва оила олдида ўз бурчи ва жавобгарлигини ҳис этадиган баркамол шахсни камолга етказиш, уларнинг онги ва қалбига миллий ғояни сингдириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш назарда тутилади.

Ушбу вазифаларни муваффақиятли ҳал этиш таълим-тарбия жараёнида замонавий таълим технологияларидан фойдаланишни тақозо этади. Таълим-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш, энг аввало, педагогик муносабатларни

инсонпарварлаштиришни талаб этади. Чунки уни амалга оширмай туриб қўлланган ҳар қандай технология кутилган самарани бермайди.

Адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон далатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. “Халқ сўзи” газетаси, 2015 йил, 15 декабр.
3. Питюков В. Ю. Основы педагогической технологии. М.: Гном – Пресс, 1999.
4. Поульсен С. Введение в современную методику преподавания. Пер.с датского яз.- Б.: Кесип, 2007.
5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Народное образование, 1998.

АБУ НАСР ФОРОБИЙ ФАЛСАФАСИДА КОМИЛ ИНСОН ҒОЯСИ

**Узоқов Б.- Жиззах политехника институти
Ўзбекистон**

Resume: This article digests the significance and place of the rich philosophical legacies of our ancestors in the creation of a real democratic state and civil society in Independent Uzbekistan, in particular the value of the teachings of Abu Nasr Farabi on a fair society, a truly developed person in educating the new generation. The article reveals the significance of the currently socially-philosophical teaching of one of the great thinkers of Central Asia, in particular Abu Nasr Farabi is about a fair society, a comprehensively developed person.

Keywords: Perfect man, morality, society, perfection, philosopher, moral maturity, youth policy, education.

Инсоннинг моҳияти, унинг ҳаётдаги ўрин ва вазифалари, асосий мақсади, бахт-саодатга эришиш йўллари, инсон ва жамият муносабатлари, инсон ва жамият манфаатлари уйғунлиги масаласи ҳақида файласуфларни қизиқтириб келган ва ушбу йўналишда улар ўз таълимотларини яратишган. Ана шундай алломалардан бири буюк бобокалонимиз Абу Наср Форобийдир. Буюк алломанинг фалсафий қарашларида, ёзиб қолдирган фалсафий асарларида, хусусан “Фозил шаҳар аҳолисининг қарашлари” асарида инсон шахси улуғланади ва “Инсон - ақл нури билан чароғон энг олий комил мавжудот”, деб таъкидланади.

Шу жиҳатдан олганда, буюк файласуф Абу Наср Форобий илгари сурган ва шу билан бирга бугунги мустақиллик даврида биз учун ғоят қадрли бўлган комил инсон ғояси – ҳам миллий, ҳам умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзодга ҳос энг юксак маънавий ва жисмоний мукамалликни ўзида мужассам этган, уни ҳақиқат эзгуликка ундайдиган олижаноб ғоядир.

Абу Наср Форобий фозил шаҳар аҳолиси ҳақидаги ғояларини илгари сурар экан, шахснинг маънавий камолотини адолатли жамият қуришнинг асосий шarti, деб ҳисоблаган. Шу нуқтаи назардан олганда, бугунги кунда ўз олдимизга қўйган фуқаролик жамиятини барпо этишдек эзгу мақсадлар йўлида комил инсон ғояси миллий мафкурамизнинг асосий ғояларидан бири сифатида алоҳида аҳамиятга эга.

Абу Наср Форобий фикрича, инсон бахт – саодатга эришиши учун билим олиши керак, усиз ҳеч бир кимса етук бўла олмайди, демакки, бахт – саодатга эришиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам Форобий илм аҳли, файласуфларнинг ахлоқий фазилатларига алоҳида эътибор қаратади ва уларнинг ақлли, билимдон, адолатпарвар, инсонпарвар, ор – номусли, диёнатли бўлишларини талаб қилади. “Чунки, дейди у, агар файласуфлар, илм – билим аҳли тубан ахлоқ эгаси бўлса, кишилар нафақат ундан, балки унинг илмидан, у тарқатадиган билимдан ҳам юз ўгиради. Илм – билимдан юз ўгирса, халқ, жамият ҳеч

качон бахт – саодатга эриша олмайди”.

Агар тарихга назар ташласак, буюк алломанинг фикрлари нақадар тўғри эканлигига ишонч ҳосил қиламиз. Ҳақиқатан ҳам, буюк шахсларнинг фаолияти мохир ташкилотчилик, теран билимлилик билангина эмас, балки уларнинг ахлоқи ва одоби билан ҳам юксак маъно – мазмун касб этган. Одобрлик бошқаларнигина эмас, балки, ўзини ҳам ҳурмат қилиш деганидир. Айниқса, бизнинг миллий анъаналаримизга кўра, инсоннинг комиллиги, аввало, унинг ахлоқий етуклигида, аждодлар меросини чуқур ўрганиб, уни бойитиш, катта – кичикка эҳтиром кўрсатиш борасидаги ҳаракатларида кўзга кўринади. Комиллик даражасини ҳар ким ўзича белгилай олмайди. Ҳар бир шахсдаги комиллик ўзидан кўра бошқаларга яхшироқ маълум бўлади. Комил инсон – қуллик, мутелик, боқимандаликдан батамом халос бўлган инсондир. Агар инсон бировга қулдек эргашса, демек, ижтимоий жиҳатдан у ҳеч нарсага эришмаган бўлади. Демак, комил инсон ўз маслаги, Ватани, халқи манфаатларига ёт, зарарли ғояларни тарқатаётган кимсалар ортидан кўр – кўрона эргашиб кетавермайди, огоҳ ва фаол бўлади.

Мутафаккир бобокалонимиз Абу Наср Форобий ибораси билан айтганда, “аҳолиси хушхулққа эга бўлмаган мамлакатда ҳокимиятга эҳтиёж сезилади”. Демак, жамиятнинг демократлашуви инсон эрки ва ҳуқуқларининг тўла таъмин этилиши, энг аввало, мамлакат аҳолисининг феъл – атвори, маданий – ахлоқий ва руҳий камолатига боғлиқ бўлади. Агар аҳоли ўз ҳуқуқи меъёрлари доирасида амал қилинаётган қонунларга бўйсуниб яшашни турмуш тарзига айлантирса, ўз хатти – ҳаракатини маълум қонунлар йўналишига тушира олса, юксак ақл – идрок, одоб ва ахлоқ категорияларини ҳаётнинг ҳар бир дақиқасида намоён қилиб борсагина жамиятнинг маънавий қиёфаси баркамол бўлади.

Шу жиҳатдан олганда, Абу Наср Форобийнинг комил инсон ғояси бугунги кунда ёш авлодни миллий истиқлол ғояси руҳида тарбиялашда улкан аҳамият касб этади.

Бугунги кунда Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев раҳномалигида ёш авлодга таълим-тарбия беришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чунки таълим-тарбия билангина жамиятда ўз тарихи, ўз халқи, ўтмиши ҳақида ҳақиқатларни билиб олган, иймони бутун, хулқ-атвори намунали комил инсонлар шаклланади.

Бу ҳақда тўхталиб Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев шундай таъкидлайди: “Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар самараси аввалом бор юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, Ватанимиз тақдири ва истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ёш кадрлар сафини кенгайтиришга бевосита боғлиқ”. Зеро, фақат комил инсонгина буюк эзгуликлар қилишга қодирдир.

Фойдаланилган дабиётлар:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017.
- 4.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.

ЖАМИЯТНИНГ ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТИ: ТИЗИМЛИ ФУНКЦИОНАЛ ТАҲЛИЛ

Саидназаров У.А.- тадқиқотчи, УрДУ Ўзбекистон

Resume:

This article discusses an effective way of forming physical culture, leading a healthy life style, keeping one's body fit, forming readiness for social duties and at the same time focuses on issues as health, fitness, physical strength, training the body as the main aspects of healthy life

style.

Жисмоний маданият инсоният генезисига тааллуқли онтологик ва морфофизиологик жараёнлар билан боғлиқ муаммо сифатида азалдан мавжуд. Жисмни, вужудни асраш инсонни, унинг ҳаётини асраш эканини илк одамлар яхши билишган. Қадимги давр босқичида турмуш кечириётган қабилалар ҳаётини ўрганган М.Мид уларда соғлиқ, саломатлик, вужудни чиниқтириш, табиатдаги ўзгаришларга мослаштириш, маълум бир жисмоний ричуал машқларни бажариш тарзида келишини қайд этади.³³⁴ Бундай инстинктив муносабат инсондаги табиий эҳтиёж эди, чунки у ёввойи табиат қўйнида яшай туриб унинг салбий таъсирларини енгиши, ўз ҳаётини асраб қолиши керак эди. Мазкур инстинктив ва ҳаётий эҳтиёж даврлар ўтиши, цивилизация таъсирида анланган, махсус уюштириладиган, тарбиявий усуллар билан шакллантириладиган воқеликка айлантирилди.

Жисмоний тарбия цивилизациянинг таркибий, зарурий қисмига айланди, янги даврда Я.А.Коменский ва А.Дистерверг, кейинроқ П.Ф. Лесгафт, М.Сеченов, И.Павлов таълимотлари асосида жисмоний тарбия алоҳида йўналишга айланди. XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб валеология, саломатлик, соғлом турмуш тарзи, жисмоний етуклик масалаларига оид фан сифатида шаклланди.³³⁵

Жисмоний маданият тўғрисида гап кетганида, у қайси жиҳатлари ёки функцияларига кўра алоҳида воқелик, унинг фалсафий-валеологик асослари нималардан иборат? Жисмоний маданият тажриба (машқ, машғулот)ми ёки назарий таълимот? Шахс камолотида улардан қайси бири муҳим? деган саволлар туғилади.

Жисмоний маданиятнинг алоҳида воқелиги унинг функцияларида намоён бўлади. Уларни қуйидагиларга классификация қилиш мумкин:

- организмни тетик, бақувват тутишнинг махсус технологиясидир;
- саломатликни турмуш тарзига айлантириш имконига эга;
- ҳар бир шахсни жисмоний тарбиялашга йўналтирилган;
- тарбиянинг оммабоп, арзон ва самарали усули;
- шахсни ижтимоий фаол шаклланишига хизмат қилади;
- халқаро имиджнинг шаклланишига ёрдам беради;
- шахсда альтруизм, мардлик ва жасурлик фазилатларини шакллантиради;
- “соғ танда соғлом ақл” тамойилига мувофиқ ижтимоий интеллектуал фазилатларни тарбиялайди.

Мазкур йўналишларнинг ҳар бири алоҳида мавзу сифатида тадқиқ этилиши, жисмоний маданиятни шакллантиришнинг самарали йўналиши бўлиши мумкин. Улар марказида шахсни соғ-саломат яшаш, организмни тетик тутиш, ижтимоий вазифаларни бажаришга тайёр туришни шакллантириш туради. Агар ахлоқий маданият шахсда ижтимоий-ахлоқий, сиёсий маданият жамият ва давлат ишларини бошқаришга оид, иқтисодий маданият иқтисодий ҳаётда ва муносабатларда манфаат, фойда, ўсиш жараёнлари талаб этадиган фазилатларни тарбияласа, жисмоний маданият юриш, организмни бақувват тутиш технологиясига ўргатадиган алоҳида воқеликдир. Саломатлик, тетиклик, бақувватлик, организмни тарбиялаш, соғлом турмуш тарзи унинг асосий соҳаларидир.

Жисмоний маданиятнинг фалсафий-валеологик асослари ушбу функцияларга мувофиқдир. Бироқ улар функцияларни такрорлашдангина иборат эмас, улар функцияларни умумлаштиради, ижтимоий моҳият ва илмий йўналтирилганлик бахш этади. Объект (предмет)нинг функцияларини аниқлаш, белгилаб олиш яхши, бу мавзу

³³⁴ Мид М. Культура и детство. Москва. Гл.ред.вост.лит-ры. 1989.108-134с.

³³⁵ Қаранг: Попов В.С. Валеология. Москва. Выш.школа. 1999.

негизидаги ва хусусиятидаги белгиларни тўлароқ англаш, қамраш имконини беради. Бироқ илмий ёндашув уларнинг ижтимоий-фалсафий муаммоларига диққат қилишни сўрайди. Фалсафий-валеологик ёндашув ана шу жиҳати билан эътиборлидир.

“Вужуд фароғати саломатликда, ақл фароғати билимдадир”, деган эди Фалес³³⁶. Вужуд фароғати билан ақл фароғати бир-бирига яқин воқеликлар сифатида тилга олинмоқда. Фароғат, хушнудлик, мамнунлик негизи саломатликда. Файласуф назаридасаломат вужуд ҳаётнинг, тирикликнинг фароғат эканини билади. Тўғри, саломат киши ҳаётининг, тирикликнинг фароғат экани устида ўйлаб ўтирмайди, уни саломатлиги хавф остига қолгач сеза бошлайди. Аслида эса фалсафий-валеологик ёндашув саломатликни фароғат эканини соғлом пайтда англатишга интилади. Саломатлик мудом хавф остида чунки ҳар қандай тасодиф саломатликни шубҳа остига қўяди. Бундай тасодифларни ҳеч ким ҳимояланган, қафолатланган эмас.

Аристотелнинг “ҳаракат ҳаёт манбаи” деган фикри илмий адабиётларда кўп келтирилади.³³⁷ Бу фикр кенг талқинга эга бўлгани учун саломатлик асоси сифатида ҳам қайд этилади. Шу билан Аристотелнинг шакллар ўзгариши, макондаги ҳаракатлар, ҳатто гимнастика машқлари тўғрисида ҳам фикрлари мавжуд. У Спарта тажрибасини ҳурмат билан тилга олади.³³⁸ Спарта ўғил болаларни жисмоний машқлар билан чиниқтириш технологиясини яратган, шу сабабли “спарталик” ёки “спарта тарбия усули” деган ибора қўлланилади. Энг муҳими жисмоний тарбия Спарта тажрибаси туфайли рационал ташкил этиладиган, махсус машқларга қурилган воқеликка айланди, десак бўлади.

Антик давр мутафаккирлари саломатлик аввало шахснинг ўз иши эканини тўғри англаганлар. Жисмоний маданиятга ўргатиш олийжаноб вазифа, аммо бу вазифада шахс фаол қатнашиши, саломатликни асрашни бурчи сифатида билиши керак. “Агар одам, дейди Сукрот – ўз саломатлигини кузатиб борса, унинг ўзидан бошқа ҳеч ким унга табиблик қилолмайди”³³⁹. Мазкур фикрни замонавий тиббиёт ҳам такрорлайди.³⁴⁰ Фалсафий-валеологик нуқтаи назардан қараганда, саломат яшаш инсон ҳаётининг экзистенциал моҳиятини ташкил этади. Мазкур моҳиятсиз инсон амаллари, фаолияти турлари, изланишлар ўз қимматини йўқотади. Соғ-саломат юришда, академик М.Н.Амосов айтганидек ҳаётга “тонус” берувчи, инсонни фаолликка ундовчи қувват бор, айнан ушбу қувват ҳаётни янги-янги мазмунлар билан тўлдиради. Саломат юриш бебаҳо неъмат, аммо унинг экзистенциал моҳият билан тўлдирувчи ижтимоий фаоллик билан безатиш янада гўзал фазилатдир. Жисмоний маданиятнинг фалсафий-валеологик асослари борасида буюкзаминдошимиз Абу Али ибн Сино жисмоний машқларнинг инсон организмига таъсирини тиббиёт, аксеология, физиология, диетология, тарбия нуқтаи назаридан кенг асослади. Унинг фикрича, жисмоний машқлар саломатлик шартидир.³⁴¹ Бу ўринда у буюк устози Гиппократнинг “ҳаракат, иш саломатлик манбаи” деган қондасига эрашади. Ибн Синонинг еб-ичишда, лаззатга берилишда, ҳатто ғазабда меъёрини сақлашга оид фикрлари ҳозир ҳам қимматлидир. Вужуднинг саломатлиги инсоннинг ўз қўлида, меҳнат ва дам олиш, очлик ва овқатланиш, тоза ҳаво ва табиий неъматлардан завқланиш Ибн Сино тадқиқ этган ижобий ва салбий томонларини очиб берган мавзулардир.³⁴²

Саломат юриш объектив зарурият – бу аксиома. Аммо ушбу аксиома ички ва ташқи таъсирлар остида ўзгариб туради, гоҳо у унутилади. Ички омилларга кишининг ўз саломатлигига муносабати, тиббий физиологик қарашлари, соғлом яшаш истаги, меҳнат ва дам олишни рационал ташкил этиши, узоқ яшашга ундовчи идеаллар ва нормаларни

³³⁶ Фрагменты древнегреческих философов. Москва. Наука. 1974.с.244.

³³⁷ Овруцкий Н.О Крылачыне латинские изречения в литературе. Москва. Просвещение.1989.С.9.

³³⁸ Аристотель. Сочинения в 4 томах. Том 2. Москва. Мысль 1976с.431-442.

³³⁹ Мудрость здоровой жизни. Москва. Медицина. 1986.с.34.

³⁴⁰ Амосов М.Н. Раздумье о здоровье. Москва. Мол. гвардия.1971 с.12-41.

³⁴¹ Абу Али Ибн Сино. Ҳикматлар. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 2019. Б. 98-99.

³⁴² Қаранг : Абу Али Ибн Сино. Ҳикматлар. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр. 2019.

танлаши, хуллас, ҳаётининг жўшқин паллаларини ижодга, изланишга, кексалик паллаларини соғ-саломат турмуш кечиришга бағишлаши кабилар киради.

ОРИЕНТАЛИСТСКИЕ (БУДДИСТСКИЕ) ТЕМЫ В ТВОРЧЕСТВЕ Н. ГУМИЛЕВА

Умарова М.,- магистрант 1 курса НавГПИ

Научный руководитель: доц. Рахманова А.Х.Узбекистан

Resume: This article examines the features of the manifestation of the oriental theme in the works of the genius Russian poet N. Gumilyov, notes the motives that are most clearly manifested in his Orientalist texts.

Key words: East, orientalism, Buddhism, wheel of life, samsara, search for truth, psychologism

В русской литературе тема Востока всегда занимала особенное место. Ориенталистские мотивы, стилизация в восточном духе имели место, наряду с серьёзным изучением китайской, индийской и других восточных культур. Большое внимание уделял этой теме и талантливый русский поэт 20 века - Н. С. Гумилёв. В творческой биографии поэта найдётся немало фактов, свидетельствующих о любви к Востоку. Во-первых, это его удивительные путешествия, в ходе которых Гумилев не просто открывал для себя новые страны, но и познавал особую культуру и ментальность Востока. Во-вторых, широко известно увлечение Гумилева восточным искусством, дающее ему много радости. Наконец, многие мотивы и образы поэзии Н. Гумилёва следует рассматривать в контексте ориентальной традиции. И это, помимо переводов, самое очевидное свидетельство интереса автора к восточной культуре. Современники поэта часто истолковывали его увлечение Востоком односторонне — как модный неоромантический «экзотизм» [3,134]. В толковании этого вопроса обратимся к более широкому научному обоснованию. То, что Гумилёв испытывал не любительский, а исследовательский интерес к восточной культуре, можно подтвердить рядом биографических фактов. Достаточно ярко об этом свидетельствует перевод вавилонского эпоса «Гильгамеш», при первоначальной работе над которым поэту помогал его друг, ассириолог В. К. Шилейко. В статье «Николай Гумилёв и Восток» Р. Тименчик сообщает о беседах поэта с египтологом Б. А. Тураевым и арабистом И. Ю. Крачковским. [2,142] Среди друзей Н. Гумилёва были художники М. Ларионов и Н. Гончарова, воспринимавшие Восток как «первоисточник всех искусств» [5,164]. А сам Н. Гумилёв «высшей степенью современного русского искусства» называет Н. Рериха, который «ищет влияния скандинавских, византийских и индийских, но всех преображённых в русской душе».[4,13]

К теме Востока поэт обращается на протяжении всего творческого пути. Начиная с 1910 года, практически в каждом поэтическом сборнике появляются отдельные восточные, буддийские мотивы и символы. Не говоря уже о замысле написать пьесу «Жизнь Будды», осуществить который автор, к сожалению, не успел. [6,107] Одним из центральных положений буддизма является учение о сансаре — круговороте в колесе жизни, который продолжается до тех пор, пока человек не задумается о смысле жизни, и лишь тогда он обратится к учению Будды. Буддизм рассматривает вопрос сансары как пути - блуждания индивида до его просветления, обретения познания, т.е. до погружения его в нирвану, что считается конечным пунктом совершенствующего движения.[7,101] Данная теория оказалась близка мировосприятию Н. Гумилёва, который неоднократно в ряде стихотворений обращается к теме метемпсихоза (переселения душ) и истолковывает её именно как блуждания одинокой души, утратившей первичную гармонию, целостность, то есть, по представлению буддистов, связь с абсолютным.

И вот вся жизнь!
Круженье, пенье,
Моря, пустыни, города,
Мелькающее отраженье
Потерянного навсегда.

От сна, я снова буду я —
Простой индеец, задремавший
В священный вечер у ручья?
«Прапамять» /Т.1,С.220/
И понял, что я заблудился навеки
В слепых переходах пространств и времён.
А где-то струятся родимые реки,
К которым мне путь навсегда запрещён.
«Стокгольм» [1, 218]

Причину подобных изнуряющих блужданий поэт указывает в согласии с буддийским учением: невежественность души, отсутствие просветлённости, «сладкого», «странного» знания, тоска по нему («О день, когда я буду зрячим / И странно знающим, спеши!» — стих. «Вечное»).

В вышеперечисленных произведениях прослеживается один из наиболее значимых для Гумилёва мотивов — мотив пути. Причём в рамках буддийского контекста он функционирует в нескольких модификациях, сочетаясь с мотивом сна-пробуждения — как мотив бесполезных блужданий и пути-возвращения. Согласно буддийскому учению наша жизнь и есть сон, а пробуждение (или озарение) понимается не только как открытие истины, но и как возврат к первичному недифференцированному существованию, т.е. — слияние с абсолютom. Само слово «Будда» является производным от санскритского корня «будх» (будить, пробуждаться) и обозначает переход от спящего, затемнённого сознания к пробуждению, к просветлённому сознанию.[4,14]

Сочетание двух указанных мотивов (пробуждения от сна и пути-возвращения) прослеживается в частично процитированном стихотворении «Прапамять», где говорится именно о возвращении в прежнее состояние, а не о переходе к чему-то новому («я снова буду я»). Но гораздо большей структурно-семантической значимостью характеризуется сочетание данных мотивов в стихотворении, которое так и называется «Возвращение». Сон здесь символизирует профанический уровень бытия, а конечная цель пути лирического героя персонифицируется в образе Будды.

На белом пригорке, над полем чайным
У пагоды ветхой сидел Будда,
Пред ним я склонился в восторге тайном
И было так сладко, как никогда.

Так тихо, так тихо над миром дольным,
С глазами гадюки, он пел и пел
О старом, о странном, о безбольном,
О вечном, и воздух вокруг светлел.
[1,18]

Таким образом, мы наметили ряд важнейших идей и мотивов, составляющих буддийский контекст творчества Н. Гумилёва. Однако тема гумилёвской ориенталистики

далеко не исчерпана. Отметим лишь, что обращаясь к теме Востока, поэт выступал в авангарде эпохи, одной из характернейших тенденций которой стало стремление к диалогу, синтезу, как в русле философской, так и эстетической мысли.

Литература

1. Гумилёв Н. Собрание сочинений в 3 т. — М. — 1991. — Т.3, С.216.
2. Каган М. С., Хильтухина Е. Г. Проблема «Запад — Восток» в культурологии. — М.— 1994. — С.142.
3. Тименчик Р. Д. Николай Гумилёв и Восток.// Памир. — 1987. — №3 — С.123-136.
4. Чудинова Е. К. К вопросу об ориентализме Н. Гумилёва.// Филологические науки. — 1988. — №3 — С.9-15.
5. Слободнюк С. Л. Элементы восточной духовности в поэзии Н. С. Гумилёва.// Гумилёв Н. Исследования. Материалы. Библиография. — СПб. — 1994. — С.164-183.
6. Материалы международной конференции «Н. Гумилёв и русский Парнас». — СПб.— 1995. — С.105-106.
7. Пупышев В. Н. О природе сансары: Психологический экскурс.// Буддизм и культурно-психологические традиции народов Востока. — Новосибирск. — 1990. — С.81.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ИЛМИЙ-МАДАНИЙ МЕРОСИНИНГ ЦИВИЛИЗАЦИОН МОҲИЯТИ

Ф.Б.Аслонов, Ш.Н.Чориев-НавДПИ Ўзбекистон

Annotation - To further strengthen the ancient friendship and spiritual unity between our peoples, taking into account the growing cooperation between the states and peoples of Central Asia based on culture, enlightenment, language, science and spiritual values, as well as the appeals of intellectuals and the general public.

Keywords: *legal-democratic, rapid development of innovations, national economy, international competitiveness, mercantilism, Classical school, socio-cultural.*

Кейинги ўн йил давомида Марказий Осиё давлатлари иқтисодиёти дунёнинг энг яхши иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига эришиб, хорижий сармояларнинг янги тўлқинларини фаол жалб қилиб келмоқда. Бугунги кунда Марказий Осиё давлатлари бундан 20-25 йил олдинги ҳолатидан ҳам ижтимоий-иқтисодий, ҳам сиёсий жиҳатдан тубдан фарқ қилади. Шу давр мобайнида ҳудуд давлатларида ҳуқуқий-демократик давлат барпо этиш йўлида кенг кўламли ишлар, миллий иқтисодиётида тузилмавий ўзгаришлар амалга оширилди ва уни модернизация қилиш жараёнлари давом этмоқда.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви, интеграцион жараёнларнинг кучайиши, инновацияларнинг жадал ривожланиши миллий иқтисодиёт олдида халқаро рақобатбардошликка эришиш ва жаҳон бозорида мустаҳкам мавқега эга бўлиш вазифаларини қўймоқда. Бу эса, ўз навбатида, катта хомашё салоҳиятига эга бўлган Марказий Осиё мамлакатлари миллий иқтисодиёти рақобатбардошлигига салбий таъсир кўрсатаётган омилларни ўрганиш ва бу борада мавжуд муаммоларни бартараф этиш йўллари ишлаб чиқишни талаб этади. Жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг турли босқичлари халқаро рақобатбардошлик назарияларининг эволюцияси пайдо бўлишига олиб келди. Тарихан биринчи марта меркантилизм намёндалари томонидан халқаро айирбошлашдан фойда олиш ёки йўқотишлар бўйича назарий тушунчалар киритилиб, халқаро савдонинг мамлакат иқтисодий ўсишидаги аҳамиятига катта эътибор қаратилган. Улар миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини оширишни ташқи савдони тартибга солиш билан боғлашган. Меркантилизм-нинг асосий ғояси – “Мамлакат бойлиги унда мавжуд бўлган олтин ва кумуш миқдорига асосланади”, деган фикрга таянади. Шунинг

учун маҳсулотнинг экспорти давлат учун фойдали, импорти эса зарар деб ҳисобланган. Меркантилизмнинг охириги, классик иқтисодий мактаб дастлабки босқичида иқтисодчи олимлар мамлакатларнинг ташқи савдоси ва уларнинг ички иқтисодий ривожланиши ўзаро чамбарчас боғлиқлигини кўрсатиб беришди. Хусусан, Д. Юм мамлакатга олтиннинг кириб келиши орқали савдо баланси, ижобий сальдосига эришилиши, мамлакатда пул таклифини ошириб, нарх ва иш ҳақи ўсишига олиб келишини, ўз навбатида, мамлакатнинг халқаро рақобатбардошлигининг пасайишига олиб келиши мумкинлигини қайд этади.

Классик мактаб намоёндалари томонидан ишлаб чиқариш омиллари ҳисобланган ер, меҳнат, капитал ва табиий ресурслар кўрсаткичларидан фойдаланиб, миллий рақобатбардошликнинг баҳоланиши иқтисодиёт илмида рақобат назарияларининг ривожланишида жиддий қадам бўлди. А. Смит мутлақ афзаллик назариясини ишлаб чиқиб, ҳар бир мамлакат бошқа бир мамлакатга нисбатан айрим маҳсулотларни ишлаб чиқаришда мутлақ афзалликка эга, яъни уни бошқа мамлакатларга нисбатан камроқ харажатлар билан ишлаб чиқара олади, деган фикрни илгари сурди. Халқаро айирбошлаш моделини ўзининг нисбий устунлик назарияси билан тўлдирган Д. Рикардо мамлакатларнинг халқаро рақобатбардошлигини маҳсулотларнинг миллий иқтисодиёт ичида ишлаб чиқариш қиймати дифференциацияси белгилашини асослаб берган. Бунда асосий омил сифатида ишлаб чиқариш самарадорлиги ва меҳнат сифати ўртасидаги фарқни келтириб ўтади.

Тадқиқотларимизга кўра, миллатнинг меҳнат самарадорлиги назария-лари замонавий рақобат назариялари ривожланишига асосий туртки бўлган. 1951 йилда Д. Макдугал томонидан ўтказилган, Д. Рикардо назариясининг эмпирик текширувида, 1937 йил бўйича Буюк Британия ва АҚШнинг экспорти ҳамда ушбу мамлакатларнинг меҳнат самарадорлиги кўрсаткичлари таққосланиб ўрганилган.

XX аср давомида иқтисодчи олимлар мамлакатлар рақобатбардош-лигини изохлашга сезиларли ҳисса кўшишди. Хусусан, Й. Шумпетер макро даражадаги рақобатбардошликни таъминлашда инновацион фаолиятнинг муҳим аҳамиятга эга эканлигини, инновациянинг моҳияти ва уни қўллаш мумкин бўлган соҳаларни, тараққиётни оширишда тадбиркорлар фаолиятини ривожлантириш заруратини кўрсатиб берди. Р. Солоу эса иқтисодий ўсиш омилларида технологик инновациялар ва ноу-хауни кўпайтиришга алоҳида эътибор қаратди. 1965 йилда америкалик иқтисодчилар Р. Фармер ва Ричмен рақобатбардошликни миқдор жиҳатдан қиёсий аниқлашда дастлабки тадқиқотни амалга оширди. Бунда улар матрица усулидан фойдаланишни таклиф этишди. “Афтаном ўзгарувчи” сифатида 4 та асосий соҳани ажратиб олишди. Хусусан, улар сиёсий-ҳуқуқий, таълим, ижтимоий-маданий ва иқтисодий соҳалар ҳисобланади. Ажратиб олинган соҳалар режалаштириш, маркетинг ва ишлаб чиқариш каби функциялар билан мужассамлаштирилди. Ушбу концепция замонавий методологияларни ишлаб чиқишга йўл очиб берди. Кейинчалик бу концепция бошқа иқтисодчилар ва ташкилотлар, хусусан, Европа форумида менежментни ривожлантиришда фойдаланилди.

Мамлакатлар рақобатбардошлиги муаммоси бўйича хорижий муаллиф-ларнинг энг муҳим илмий асарлари орасида Гарвард университети профессори М. Портернинг «Мамлакатлар рақобатли устунликлари» китоби алоҳида ажралиб туради. Унда муаллиф глобал миқёсда мамлакатлар рақобатли устунликлари эволюцияси, халқаро рақобатда мамлакатлар рақобатли устунликлари динамикасини, ўз ичига оладиган мамлакатлар рақобатли устунликлари, янги назариясининг кенгайтирилган концепциясини ишлаб чиқди. У мамлакат компаниялари муваффақиятини таъминлаб берувчи қулай муҳитни яратиш қуйидаги тўртта муҳим кўрсаткичга боғлиқлигини таъкидлайди: - ишлаб чиқариш омиллари билан таъминланганлик; - талаб кўрсаткичлари; - яқин ва хизмат кўрсатувчи (ёрдам берувчи) тармоқлар; - рақобат муҳити ва фирма стратегияси.

Ушбу муҳит доирасидаги миллий компанияларнинг самарали фаолияти

мамлакатнинг рақобатбардошлик рейтингини белгилаб беради. Бундан ташқари, мамлакатдаги вазиятга жиддий таъсир кўрсатадиган яна иккита кўшимча ўзгарувчи мавжуд. Бу тасодифий ходисалар, яъни фирма раҳбарияти назорат қила олмайдиган ва давлат сиёсатидир. М. Портернинг асосий фикри шундан иборатки, истиқболли рақобатли устунликлар ташқаридан эмас, балки ички бозорларда яратилади. Мутахассислар мамлакатнинг рақобатбардош-лигини аниқлаш учун 340 дан ортиқ кўрсаткичлар ва 100 дан ортиқ усуллардан фойдаланишади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Л.Ў. Мингишов, катта илмий ходим-изланувчи, ЖИДУ: «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2015 йил
2. С.Т.Саъдиев XIII Международная научно-практическая конференция «Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования» 2018 г 25-26 Март (Америка Бостон).
3. А.Н.Эшмуродов Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) (Double Blind Refereed & Peer Reviewed international Journal).
4. Г.Х.Хамидова Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) (Double Blind Refereed & Peer Reviewed international Journal).
5. www.вестник-науки.рф
6. www.tdpu.uz
7. www.Ziyonet.uz

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ КАК РЕАЛИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Аликулова Х. Б.-Ст. преп. НГПИ, Узбекистан

Annotation: In the article, the author presents interactive learning as the best innovative method of the educational system. Indicates obvious shortcomings of the traditional method. Through examples, he shows what a modern teacher of New Uzbekistan should be like

Использование интерактивных методов обучения на занятиях со студентами в высших учебных заведениях – семинары в диалоговом режиме, групповые дискуссии, компьютерные симуляции, деловые и ролевые игры, анализ кейсов и конкретных ситуаций, психологические тренинги, разбор результатов научной работы в студенческих исследовательских группах, анализ выступлений ученых на научных вузовских или межвузовских конференциях, включая внеаудиторные работы, формирующие и развивающие в свою очередь профессиональные навыки обучающихся, являются инновационным подходом учебного процесса.

По мнению Кпарина М. В., «Интерактивное обучение ((«Inter» - это взаимный, «act» - действовать) – это **взаимодействие** педагога со студентом в режиме диалога, беседы и игры.»[1]. Это обучение (специально или спонтанно), организованное на взаимодействии обучаемых с учебным окружением, также на собственном опыте участников. В традиционном обучении педагог является и субъектом, и объектом педагогических отношений, не принимая во внимание обратную связь: «студент – полученные знания – педагог». На интерактивных занятиях задача преподавателя сводится к раскрытию творческого потенциала студента, на достижение целей занятия посредством активной деятельности самих студентов.

Интерактивное обучение – это такая специально организованная форма деятельности, в которой студент изучает учебный материал посредством увлекательных, интересных и легко доступных упражнений и заданий. Цель в таком виде обучения

конкретна и прогнозируема – это создание комфортных и достижимых условий обучения, при которых студент чувствует успешность, интеллектуальную состоятельность, что в свою очередь повышает продуктивность самого процесса обучения.

Такой вид обучения пробуждает у студентов интерес к занятиям, способствует эффективному усвоению учебной программы, приучает к самостоятельному поиску нужной информации, установлению творческой и соревновательной атмосферы в группе, умению работать в команде, проявлению терпимости к другим точкам зрения, уважать чужое мнение.

Поэтому, применение и использование интерактивных форм обучения – одно из важнейших требований подготовки современных студентов во всех вузах страны. Теперь педагогу недостаточно быть компетентным только в области своих знаний, например, математики или физики. Он должен быть хорошим специалистом и в области педагогики, психологии, истории, философии и так далее. Совместная деятельность педагога и студента означает, что каждый вносит свой особый индивидуальный вклад, в ходе работы идет обмен знаниями, идеями, способами деятельности. Такой метод обучения основан на принципах взаимного действия, активности участников, опоре на групповой опыт и обязательной обратной связи. Опытный преподаватель вместе с новыми знаниями ведет студентов к самостоятельному поиску. Активность преподавателя уступает место активности студентов, его задачей становится создание условий для их инициативы. Преподаватель отказывается от роли своеобразного фильтра, пропускающего через себя учебную информацию, и выполняет функцию помощника в работе, одного из источников информации. При использовании интерактивных форм роль преподавателя резко меняется, перестаёт быть центральной, он лишь регулирует процесс и занимается его общей организацией, готовит заранее необходимые задания и формулирует вопросы или темы для обсуждения в группах, даёт консультации, контролирует время и порядок выполнения намеченного плана. Участники обращаются к социальному опыту – собственному и других людей, при этом им приходится вступать в коммуникацию друг с другом, совместно решать поставленные задачи, преодолевать конфликты, находить общие точки соприкосновения, идти на компромиссы.

Как пишет Алексеева В. В., «Для реализации инновационного подхода могут быть использованы разные интерактивные формы:

- круглый стол (дискуссия, дебаты)
- мозговой штурм (брейнсторм, мозговая атака)
- деловые и ролевые игры
- case-study (анализ конкретных ситуаций, ситуационный анализ)
- мастер класс и др.»[2].

При разработке интерактивного занятия целесообразно учитывать определенные принципы работы:

- занятие – не лекция, а общая работа.
- все участники равны независимо от возраста, социального статуса, опыта, места работы.
- каждый участник имеет право на собственное мнение по любому вопросу.
- нет места прямой критике личности (подвергнуться критике может только идея).
- все сказанное на занятии – не руководство к действию, а информация к размышлению.

Интерактивное обучение позволяет решать одновременно несколько задач, главной из которых является развитие коммуникативных умений и навыков. Данное обучение помогает установлению эмоциональных контактов между студентами, обеспечивает воспитательную задачу, поскольку приучает работать в команде, прислушиваться к мнению своих товарищей, обеспечивает высокую мотивацию, прочность знаний, творчество и фантазию, коммуникабельность, активную жизненную позицию, ценность индивидуальности, свободу самовыражения, акцент на деятельность, взаимоуважение и

демократичность. Использование интерактивных форм в процессе обучения, как показывает практика, снимает нервную нагрузку обучающихся, дает возможность менять формы их деятельности, переключать внимание на узловые вопросы темы занятий.

Использованная литература

1. Кпарин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках - М., 2004, стр 14.
2. Алексеева В. В., Ронжина М. А. Инновационные технологии в образовательном процессе. Курск, 2015, стр 16.

МЕХРИБОНЛИК УЙИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ Хайдарова Ш.Н.- катга ўқит. НавДПИ Ўзбекистон

Annotation: This article covers the history of orphanages around the world, an analysis of the preparation of children from this institution for family life.

Жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида етим болаларни табиий, оилавий муҳитда тарбиялаш, кичик ёшдаги болаларни интернат типдаги муассасаларга жойлаштирмаслик, институционаллашувнинг тарбияланувчи учун салбий оқибатларини аниқлаштириш бўйича назарий илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Болаларни давлат интернат типдаги муассасаларидан қондош оиласига қайтариш ёки тутинган оиллага жойлаштириш, шунингдек, тарбияланувчиларни оилавий ҳаётга мослаштириш, ота-она ва бола муносабатлари, қариндошлик алоқаларини тиклашни тақозо этмоқда.

Оила болани табиий биологик ва ижтимоий муҳофаза қилиш институти сифатида ҳаёт тажрибасини болага ўтказишда манба ва воситачи бўғин вазифасини бажаради. Оиланинг йўқолиши кичик инсон ҳаётидаги энг оғир фожеа бўлиб, унинг қалбида чуқур из қолдиради ва тақдирини, унинг атрофидаги дунёга муносабатини тубдан ўзгартиради.

Минг афсуслар бўлсинки, ҳозирги кунда Мехрибонлик уйларида тарбияланаётган болаларнинг ҳаммаси ҳам чин етим ёки ота-онасининг қармоғисиз қолган болалар эмас.

Маълумки, етимлик ижтимоий ҳодиса сифатида узоқ тарихга эга. XX асрдаги ижтимоий ғалаёнлар ижтимоий етимлик деган янги ҳодисага сабаб бўлди. Ижтимоий етимлар ота-оналари ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум этилганлиги, қамоқда эканлиги, жиддий, жумладан, руҳий, гиёҳвандлик, алкоголизм ёки бошқа сабаблар туфайли касалликларга чалинганлиги туфайли ота-она қармоғисиз қолган 18 ёшга тўлмаган болалардир.

1. Шарипова Д. Ота-оналар ўртасида тиббий-педагогик билимларни тарғиб қилиш // Монография. – Т.: Ибн Сино номидаги нашриёт, 1994. – 127
2. Сунцов Н. С. Диагностирование в учебном коллективе // Педагогика. – М.: 2003. – № 4. – С. 40-50.
3. Тажибаев С.С. Ўсмир яққакурашчиларнинг комплекс тайёргарлигида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикасини илмий-педагогик асослаш // 13.00.04 – Жисмоний тарбия ва спорт машғулоти назарияси ва методикаси. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Чирчиқ, 2019. – 77 б.

OLIIY TA'LIMDA LANDSHAFTSHUNOSLIK FANINI O'QITILISHI MASALALARI
Ergasheva M. K.,- tayanch doktorant, BuxDU
O'zbekiston

Annotation: In this article, landscape science and its development in Uzbekistan, the order of landscape science in geography sciences and its development stages as well as some problems are expressed.

Keywords: Conception of landscape, landscape science, morphology of landscape, geochemistry of landscape, geophysics of landscape, biota of landscape, paleo-landscape science, historical landscape science, practical landscape science, meliorative landscape science, agro-landscape science.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzasida – Mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liq. Bunda esa, tabiiyki, ajdodlarimiz faoliyati, hayoti, o'lmas merosi yuksak marralarni ko'zlagan yoshlarimiz uchun ibrat maktabidir”³⁵⁴ deb - ta'kidladi.

Bugun bu muammolar yanada serqirra, murakkab va har doimgidek dolzarbdir. Ularning turli jabhalari bilan bir qator tabiiy, ijtimoiy va texnika fanlari o'z tadqiqot predmeti doirasida shug'ullanmoqda. Ammo ularning birortasi bu muammoni to'laligicha qamrab ololmaydi. U fanlararo muammodir. Bu borada landshaftshunoslikning o'rni va ahamiyati o'ziga xosdir. Chunki landshaftshunoslik inson yashaydigan va o'z xo'jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni, o'zaro ta'sirlarni shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini ham o'rganadigan fandır. Shuning uchun landshaft tushunchasi va ta'limotini yaratilishi, rivojlantirilishi bilan bog'liq tadqiqotlarda faol bo'lgan olimlarning faoliyatini o'rganish nihoyatda dolzarbdir.

Geografiya fani tarixini o'rganish muhimligini akademik K.K.Markov (1973) o'zining bir maqolasida: “Biz geografiya fani tarixi bilan kam shug'ullanmoqdamiz, bu balki u bilan qanday shug'ullanishni bilmayotganligimizdandır. Bizda hozirgi geografiya faniga barqaror qarashlar yo'q, demak geografiya fanining o'tmishiga nuqtai nazar yo'q... Bizga geografiya fanining tarixi va ayniqsa, geografiya fani nazariyasining tarixi kerak” – deb yozgan [2].

Landshaftshunoslik ham kompleks tabiiy geografiyada bo'lgani kabi umumiy landshaftshunoslik va regional landshaftshunoslikka bo'linadi. Umumiy landshaftshunoslik Yerning landshaft sferasining tuzilishi, dinamikasi, rivojlanishi, mavjudlik faoliyati kabi umumnazariy masalalar bilan shug'ullanadi.

Landshaftshunoslik ham o'z navbatida, quyi pog'onada landshaftlar morfologiyasi, landshaftlar geokimyosi va landshaftlar geofizikasi kabilarga bo'linadi. Keyinchalik, landshaftshunoslik tarkibida landshaftlar morfologiyasi kabi landshaftlar dinamikasi, landshaftlar mavjudlik faoliyati kabi bo'limlar paydo bo'lishi mumkin.

Landshaft geografik qobiqning ajralmas qismidir, boshqacha qilib aytganda landshaft geografik qobiqning bo'lagi emas o'zagidir, ya'ni insonning yashashi, xo'jalik faoliyati ana shu kichik hududlarda kechadi, tabiat va inson munosabatlarining ijobiy va salbiy oqibatlar ham mazkur makonda namoyon bo'ladi. Ona yer tabiatining musaffoligi, moddiy va nomoddiy salohiyati ana shu kichik hududlarda geoeologik vaziyat bilan bevosita bog'liqdir. Joylardagi ekologik vaziyatni tabiiy resurslarni ayniqsa (yer, suv, biologik) baholashda landshaftlar tabiiy-hududiy asos bo'lishi zarur.

O'zbekistonda landshaftshunoslik fanining ham o'ziga xos asosiy muammolari bor. Mazkur

-
1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
 - 2.

muammolar kompleks xususiyatga ega bo'lib, mazmun-mohiyatiga ko'ra 2 guruhga ajratish mumkin.

Birinchisi, "Landshaftshunoslik" tabiiy geografik fanlar sistemasiga kirishi ko'p bor qayd qilinganiga qaramay uning o'zak tushunchasi bo'lgan "Landshaft" atamasining mazmuni va ko'lami haqidagi fikr-munozaralar bahsli va turlichadir.

Ikkinchidan, Rossiya, Gruziya, Belarus va Ukraina landshaftshunosligida landshaftlardagi modda va energiya almashinish jarayoniga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'lib, landshaftlar geokimyosi va geofizikasi yo'nalishlarini shakllandi. O'zbekistonda landshaftshunoslik fanida esa landshaftlar geokimyosi va geofizikasi yo'nalishlari sust rivojlanmoqda. Bu yo'nalishning eng asosiy xususiyati landshaftshunoslikning ob'yektini geokimyofani tadqiqot usullar bilan o'rganishdir.

Landshaftlar geokimyosi yo'nalishining keyingi taraqqiyoti asosan A. I. Perelman va M. A. Glazovskayalarning ilmiy izlanishlari bilan bog'liq bo'ldi.[1] Ko'pgina universitetlarda landshaftlar geokimyosi bo'yicha maxsus kurslar o'rgatila boshlandi. Chunki, xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida, jumladan foydali qazilmalarni izlab topishda, yangi yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirishda, tabiat muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishda landshaftlarning geokimyoviy xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati katta ekanligi ayon bo'lib qolgan edi. Bu yo'nalish landshaftshunoslikning amaliyot bilan yaqinlashishida juda qo'l keldi. Masalan, geologiya-qidiruv ishlarida landshaftlarga insonning xo'jalikdagi faoliyati ta'sirini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Bugungi kunda zamonaviy landshaftshunoslik deganda nazariy landshaftshunoslik, landshaft metodologiyasi va amaliy landshaftshunoslik e'tirof etilmoqda. Ular ham o'z navbatida tarkibiy qismlardan iborat. Jumladan, nazariy landshaftshunoslik – umumiy landshaftshunoslik, landshaft morfologiyasi, landshaftlar tipologiyasi va tasnifi, landshaft geofizikasi, landshaft geokimyosi, landshaft biofizikasi, landshaft estetikasi, landshaft ekologiyasi, paleolandshaftshunoslik, akval landshaftshunoslikdan iborat bo'lsa, landshaft metodologiyasidala landshaft tadqiqotlari metodlari, landshaftshunoslikdagi matematik metodlar, landshaftshunoslikda GAT texnologiyasini o'z ichiga oladi [3]. Amaliy landshaftshunoslik tarkibiga esa meliorativ landshaftshunoslik, agrolandshaftshunoslik, landshaft monitoringi, geoeologik ekspertiza va landshaft dizayni kiradi.

Tabiiy geografiyaning bugungi holatini baholash va kelajakdagi rivojlanishini bashoratlash (chamalab ko'rish) uchun ham uning tarixini bilish lozim. Fanning o'zi qanchalik muhim bo'lsa, uning tarixini bilish ham shunchalik muhim hisoblanadi. Landshaftshunoslik inson yashaydigan va o'z xo'jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni, o'zaro ta'sirlarni shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini ham o'rganadigan fandır. Landshaftshunoslik tabiiy geografiya fanining rivojlanish mahsuli, tahlil va sintez darajasiga ko'tarilgan pog'onasidir.

Joylardagi ekologik vaziyatni tabiiy resurslarni ayniqsa (yer, suv, biologik) baholashda landshaftshunoslik fani nazariyasi asos bo'lishi zarur. Madaniy landshaftlar ayni joyda yashaydigan xalq, millatning madaniyati ma'naviyatiga, qadriyatlariga xos bo'lmog'i, ya'ni millatning mentalitetini aks ettirib turmog'i kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Тошов Х.Р. Табиий география: тарихи ва баъзи назарий масалалари. Монография. Бухоро. – “Дурдона” нашриёти. 2021. – 520 бет.
2. Tashov Kh.R., M.K.Ergasheva Content and significance of primary works on fine geography. *Ekonomika i sotsium. Jurnal.* ISSN 2225-1545 №:9(76). 2020. –S. 71-74.
3. Ergasheva M.K., Toshov Kh., R. Rakhimov O. K Landscape doctrine and its importance in the scientific and practical study of natural resources of regions. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government* Vol.27, No. 2,2021 <https://cibg.org.au/P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903> DOI: 10.47750/cibg.2021.27.02.560. 5533-5540.

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С СЕМЬЯМИ ВОСПИТАННИКОВ

Худойбергенов Нодиржон Шакирович
Кокандский государственный педагогический институт,
Преподаватель кафедры начального образования.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу взаимодействия детского сада и семьи. В статье рассматриваются вопросы об общих понятиях работы дошкольного учреждения и семьи. Работа по взаимодействию детского сада с семьёй характеризуется с точки зрения таких аспектов как: содружество, сотворчества, объединения. Статья раскрывает содержание понятия «формы взаимодействия», которое получает всё более широкое распространение и приобретает актуальность в дошкольном образовании.

Ключевые слова: семья, взаимодействие, сотрудничество, содружество, формы взаимодействия, детский сад.

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalar bog'chasi va oilaning o'zaro ta'siri masalasiga bag'ishlangan. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasasi va oila ishining umumiy tushunchalari haqidagi savollar muhokama qilinadi. Bolalar bog'chasining oila bilan o'zaro aloqasi quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: hamdo'stlik, birgalikda yaratish, birlashtirish. Maqolada maktabgacha ta'limda tobora keng tarqalgan va dolzarb bo'lib borayotgan "o'zaro ta'sir shakllari" tushunchasining mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, o'zaro ta'sir, hamkorlik, hamjamiyat, o'zaro aloqa shakllari, bolalar bog'chasi.

Annotation: This article is devoted to the issue of interaction between kindergarten and family. The article discusses questions about the general concepts of the work of a preschool institution and a family. The work on the interaction of the kindergarten with the family is characterized in terms of such aspects as: commonwealth, co-creation, unification. The article reveals the content of the concept of "forms of interaction", which is becoming more and more widespread and becomes relevant in preschool education.

Keywords: family, interaction, cooperation, commonwealth, forms of interaction, kindergarten.

Семья для маленького человека - это самая первая школа, где ребенок получает свой первый опыт общения, учится любить, радоваться, сочувствовать. Семья - это мир, где его окружают любимые люди: мама, папа, бабушка и дедушка. Родители являются первыми педагогами. Они обязаны заложить первые основы физического, нравственного и интеллектуального развития личности ребенка в раннем возрасте». Однако, не все родители владеют педагогическими знаниями, и порой воспитывают ребенка «вслепую», полагаясь только на свою интуицию. Здесь-то и приходит на помощь детский сад.

Работа с родителями воспитанников должна иметь дифференцированный подход, учитывать социальный статус, микроклимат семьи, родительские запросы и степень заинтересованности родителей деятельностью ДОО, повышение культуры педагогической грамотности семьи.

Деятельность педагогического коллектива детского сада не может оставаться в стороне от изменяющейся ситуации в социуме. Работа с семьей должна учитывать современные подходы к этой проблеме.

Несмотря на то, что информацию по вопросам воспитания ребенка можно получить сейчас разными путями. Это и периодические издания, и интернет, и многочисленная популярная литература для родителей. Но только воспитатель ежедневно общается с детьми и родителями, видит проблемы, трудности, а также положительный опыт каждой семьи, оказывает помощь родителям в различных формах.

Как бы не были хороши педагогические методики образовательного учреждения,

решающим фактором становления личности является семья. Ценностные установки и атмосфера семьи, ее традиции, культура взаимоотношений становятся почвой для созревания личности и основой ее жизненных ориентиров. А родители должны стать активными и равноправными участниками воспитательно-образовательного процесса.

Для этого педагогам необходимо вовлечь родителей в сферу педагогической деятельности, заинтересовать, помочь понять, что участие в воспитательно-образовательном процессе совершенно необходимо для их собственного ребенка, используя при этом, как традиционные формы работы с семьей, так и новые, основанные на традициях семейного воспитания[1].

Самые популярные традиционные формы, которые относятся к информационно-ознакомительным:

- невозможно представить детский сад без красиво и оригинально оформленного родительского уголка, где размещена полезная для родителей информация: режим дня, сетка непосредственно образовательной деятельности, меню и т.д. оформление которых зависит от выдумки и творчества воспитателей;

- выставки детских рисунков, аппликаций, поделок из пластилина, природного материала и многое другое, по которым родители могут увидеть результаты освоения детьми области художественно-эстетического развития;

- информационные листы или объявления для родителей;

- папки передвижки формируются по сезонным изменениям, правилам дорожного движения, пожарной безопасности;

- досуговые формы, традиционные совместные праздники помогают создать эмоциональный комфорт, сблизить участников педагогического процесса;

- выставки работ родителей и детей, в которых принимают участие все группы;

- совместные посещения театров, музеев - основная цель, которых укрепление детско-родительских отношений, начало патриотического воспитания, воспитывается любовь к родному городу к искусству;

- мастер-классы на различные темы.

Особой популярностью, как у педагогов, так и у родителей пользуются нетрадиционные формы общения. Они направлены на установление неформальных контактов с родителями, привлечение их внимания к детскому саду. Сегодня изменились принципы, на основе которых строится общение педагогов и родителей. Оно строится на основе диалога, открытости, искренности, отказе от критики и оценки партнера по общению.

Нетрадиционные формы взаимодействия с семьей важны и для улучшения отношения между родителями и детьми[2]. Родители учатся любить ребенка таким, какой он есть, безоговорочно. Они могут увидеть ребенка в обстановке, отличной от семейной, наблюдать за его общением со сверстниками, педагогами.

У педагогов и родителей есть единые задачи: сделать все, чтобы дети росли счастливыми, активными, здоровыми, жизнелюбивыми, общительными, чтобы они стали гармонически развитыми личностями. Современные дошкольные учреждения много делают для того, чтобы общение с родителями было насыщенным и интересным. С одной стороны, педагоги сохраняют все лучшее и проверенное временем, а с другой — ищут и стремятся внедрять новые, эффективные формы взаимодействия с семьями воспитанников, основная задача которых — достижение реального сотрудничества между детским садом и семьей. Практика показывает, что эффективной является любая совместная деятельность родителей и педагогов. Например, коллективное обсуждение проблемы позволяет родителям почувствовать, что другие мамы и папы тоже столкнулись с похожими проблемами и сумели найти из них выход. А это рождает ощущение: любые трудности разрешимы.

Литература:

1. Е.В. Пляскина Современные формы работы с родителями в дошкольном учреждении: методические рекомендации.. – : РМК, 2018. – 60 с.

1. Н.П. Гришаева Современные технологии эффективной социализации ребенка в дошкольной образовательной организации. – М.: Вентана – Граф, 2015. – 184 с.;

FAN VA TA'LIMNING VIRTUALLASHUVI TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

A.Sh.Shukurov

O'zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-bosqich tayanch doktorant

Annotatsiya: Har qanday holat va har qanday sharoitda ham insonlar kelajagi, farovon turmushi fan va ta'limning sifati va uzluksizligi bilan bevosita bog'liq sanaladi. Dunyoda hukm surayotgan koronavirus pandemiyasi esa, bizni barchasiga tayyor turishga undadi. Shunday murakkab bir holatda fan va ta'limning virtuallashuvi optimal yechim sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Fan, ta'lim, virtuallashuv, COVID-19, pandemiya, laboratoriya.

Annotation: In any situation and under any circumstances, the future of human beings and their well-being are directly related to the quality and continuity of science and education. And the prevailing coronavirus pandemic in the world makes us ready for it all. In such a complex situation, the virtualization of science and education is presented as the optimal solution.

Keywords: Science, education, virtualization, COVID-19, pandemic, laboratory.

Аннотации: В любой ситуации и при любых обстоятельствах будущее людей и их благополучие напрямую связаны с качеством и непрерывностью науки и образования. И преобладающая в мире пандемия коронавируса готовит нас ко всему этому. В такой сложной ситуации виртуализация науки и образования представляется оптимальным решением.

Kalit so'zlar: Наука, образование, виртуализация, COVID-19, пандемия, лаборатория.

So'nggi bir yil insoniyatga katta saboq berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Qanchalik ilm-fanimiz taraqqiy etgan bo'lmasin, imkoniyatlarimiz qanchalar kengaygan bo'lmasin, hali aqlimiz ojiz sohalar borligini, yechilishi lozim bo'lgan muammolar borligini angladik. COVID-19 pandemiyasi atigi bir yil ichida kishilik jamiyatining ko'pgina ojiz nuqtalarini ko'rsatib berdi. Bu muammolar asosan, davlatlar va millatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonida, sog'liqni saqlash tizimlarida, insonlarning tafakkur tarzida o'z aksini topdi.

COVID-19 koronavirusning juda yuqumli xususiyati sababli butun dunyo mamlakatlarida uning ijtimoiy darajadagi tez tarqalishini oldini olish uchun, ijtimoiy masofani saqlash uchun birin-ketin karantin va lokdaunlar e'lon qilina bordi. Qisqa muddat davomida ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy tashkilotlar va tizimlar faoliyati to'xtab qoldi. Xususan, ta'lim tizimi ham. Ana shunday murakkab bir vaziyatda davlatlar tomonidan oqilona yechim sifatida faoliyatni masofaviy elektron shaklda davom ettirish lozim deb topildi. Yurtimizda ham xuddi shunday masofaviy elektron shaklda davom ettirish maqbul yechim sifatida ko'rildi. Faqat muammo shunda ediki, biz texnik-texnologik jihatdan tayyor emas edik. Va bu o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlar va talabalarning faqatgina ma'lum bir qismi ta'limni masofaviy elektron shaklda davom ettirish imkoniga ega bo'ldi. O'quvchi-yoshlar va talabalarni masofaviy elektron shaklda o'qitishga to'liq qamrab olinmaganligi sababli odatiy, an'anaviy o'qitish shakliga bosqichma-bosqich qaytildi. Biz ushbu pandemiyadan yetarlicha xulosa chiqarishimiz lozim deb hisoblayman, fan va ta'lim tizimini virtuallashtirish hamda mamlakatning axborotlashuv jarayonini takomillashtirish maqsadida moddiy-texnik bazani yaxshilash zarur va shart.

Fan va ta'limning virtuallashuvi har qanday holatda ham kishilik jamiyati rivojlanishining to'xtab qolmasligini ta'minlaydigan muhim omil sifatida ko'rishimiz kerak. Ayni shu maqsadda masofaviy ta'lim yondashuvlari, shu jumladan onlayn kurslar, jonli efir, virtual o'qitish va simulyatsiya qilingan laboratoriyalar xavfsiz masofada qolish vaqtida uydin ilm o'rganishning eng yaxshi alternativ vositasi bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi bir necha o'n yilliklar ichida fanlarni o'qitishning maqsadi va uslublarida tub o'zgarishlar yuz berdi, chunki "Muammoli ta'lim" haqiqatan ham paydo bo'ldi, bu yerda muammoni faqat faktlar emas, balki o'quv kursining bir qismi sifatida o'zlashtirilishi va hal qilinish kerak edi. [1].



1-rasm. Pandemiya vaqtida uy sharoitida ta'lim jarayoni. COVID-19 keng tarqalgani sababli, shaxsiy o'quv mashg'ulotlari va laboratoriya kurslari butun dunyo bo'ylab ma'lum muddatga to'xtatib qo'yildi. Ushbu inqiroz davrida elektron ta'lim manbalari, virtual ma'ruzalar va simulyatsiya qilingan laboratoriyalar uy sharoitida fanni o'rganishning eng yaxshi alternativ usullari sifatida qo'llanildi

nechta og'ir nosozliklar umumiy aholi yoki noan'anaviy va noqulay o'quvchilar kuzatilgan bo'lsa ham. (Xansen va Reyx 2015; Emanuel 2013).

Umuman olganda, yuqori sifatli onlayn o'quv resurslari va video ma'ruzalar, o'z salohiyatlarini rivojlantirishni istagan oddiy maktab, kollej va universitet talabalari uchun foydalidir. Bundan tashqari, o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar jonli efirda o'tkazish ko'plab talabalarni qamrab olishi mumkin va o'qituvchi ularning savollariga jonli ravishda javob berishlari mumkin, bu allaqachon Skype va Zoom yordamida kichik guruhlar uchun yaxshi qo'llanilgan. Qizig'i shundaki, ushbu COVID-19 davrida institutlarning muntazam o'quv dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan onlayn kurslar va virtual darslar juda samarali xizmat qilmoqda.

Elektron darslarni muntazam ravishda olib borish laboratoriya tajribalari yoki ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha yetarli ko'nikma va bilimlarni ta'minlay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, virtual laboratoriyalar veb-raqamli ta'limni yangi bosqichga olib chiqdi [7/8]. Virtual laboratoriyalar - bu kecha-kunduz mavjud va o'quvchilarga ilm-fanning amaliy ko'nikmalarini taqdim etishi mumkin bo'lgan real laboratoriyalarning osonlikcha taqlid qilingan nusxasi. Bunday simulyatsiya qilingan laboratoriyalar o'quvchilarga har qanday toksik kimyoviy moddalar yoki patogen moddalar bilan to'g'ridan-to'g'ri fizik aloqasiz, xavf-xatarsiz muhitda real hayot tajribalari to'g'risida bilim olishga imkon beradi [9]. Quyidagi jadvalda biologik fanlarning turli

Onlayn o'qitish hamda virtual o'qitish fan va muhandislik ta'limi uchun yangi yo'llar sifatida paydo bo'lib, u ta'lim resurslarining global miqyosda tarqalishini tezlashtirdi [2]. Xususan, masofaviy ta'lim va onlayn o'qitish yondashuvlari resurslari cheklangan rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada samarali ekanligi isbotlangan, bu yerda talabalar soni mavjud tajribali o'qituvchilarga yoki yuqori darajada jihozlangan o'quv institutlari va laboratoriyalarga qaraganda ancha yuqori [3/4]. Ilm-fan, muhandislik va texnologik ta'lim bo'yicha ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) ko'plab mamlakatlarda katta shuhrat qozondi [5/6], garchi ularning bajarilish tezligi va erishish qobiliyati jihatidan bir

ilg'or yo'nalishlarida tanlangan bir nechta virtual laboratoriyalarning namunalari keltirilgan (Jadval 1).

Jadval 1.

MIT Opencourseware - hayot fanlari, Massachusetts Texnologiya Instituti, AQSh (https://ocw.mit.edu/courses/life-sciences/)
HHMI BioInteractive - Xovard Xyuz Tibbiyot Instituti, AQSh (https://www.biointeractive.org/)
Virtual ommaviy spektrometriya laboratoriyasi - Karnegi Mellon universiteti, AQSh (https://svmsl.chem.cmu.edu/vmsl/default.htm)
Insonning virtual aloqasi laboratoriyasi - AQSh, Stenford universiteti (https://vhil.stanford.edu/)
Learn.Genetika - Yuta universiteti, AQSh (https://learn.genetics.utah.edu/)
Analitik fanlarning raqamli kutubxonasi — Milliy ilmiy raqamli kutubxona (https://www.asdlib.org/)
Virtual biotexnologiya muhandislik laboratoriyalari - Ta'lim bo'yicha milliy missiya, Hindiston (https://www.vlab.co.in/broad-area-biotechnology-and-biomedical-engineering)
Glencoe virtual laboratoriyalari (https://www.biologycorner.com/worksheets/virtual_labs_glencoe.html)
McGraw-Hill Biology virtual laboratoriyalari (https://www.mhhe.com/biosci/genbio/virtual_labs_2K8/)
Virtual laboratoriya - London universiteti kolleji, Buyuk Britaniya (https://www.ucl.ac.uk/~ucbcdab/simulations.htm)

Virtual laboratoriyalar o'qituvchilar uchun foydali bo'lib qolmoqda, chunki akademik sharoitda qimmat va murakkab laboratoriya jihozlarini joylashtirish ko'pincha moddiy-texnik qiyinchilik tug'diradi, ayniqsa rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda, ta'lim byudjeti cheklangan. Bir necha yil oldin molekulyar biologiya (proteomika) bo'yicha rivojlangan intizom bo'yicha simulyatsiya qilingan laboratoriyalar ishlab chiqilgan edi, ushbu virtual laboratoriyani kollej va universitet talabalari hamda dastlabki bosqich tadqiqotchilari juda yaxshi qabul qilishgani ahamiyatlidir[10]. Shuni ta'kidlash kerakki, bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, virtual va jismoniy laboratoriyalar o'rtasida o'quv natijalarida sezilarli farq yo'q. Virtual laboratoriyalar talaba yoki tadqiqotchini laboratoriyada haqiqiy mashg'ulot yoki tadqiqotga kelishdan oldin yaxshiroq tayyorlab qo'yishi mumkin va har qanday qimmatbaho analitik vositalar yoki toksik materiallarni topshirishni talab qiladigan laboratoriya kurslari uchun zarur shart bo'lib xizmat qilishi mumkin. Virtual laboratoriyalar haqiqiy hayotdagi fizik laboratoriyalarni to'liq o'rnini bosa oladimi, bu munozarali savol bo'lib qolmoqda, ammo ikkalasining kombinatsiyasi, shubhasiz, ilmiy ta'limda qadrlanadi.

Virtual laboratoriyalar COVID-19 blokirovkalari o'rtasida muntazam ravishda laboratoriya asosida olib boriladigan ilmiy ta'limni boshqarish uchun foydali manbalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, o'zlarining tegishli o'quv kurslaridan tashqarida bilim olishni istagan talabalar yoki hatto noan'anaviy o'quvchilar ham ushbu blokirovka bosqichida vaqtni yaxshiroq va samarali ishlatish uchun ushbu simulyatsiya qilingan eksperimental ish oqimlari bilan o'ynashlari mumkin.

COVID-19 epidemiyasining hozirgi tendensiyasi bilan talabalarning talabalar shaharchasiga qaytishi ko'plab mamlakatlarda juda qiyin kechmoqda. Shu sabab rejali imtihonlarni doimiy jadvalga muvofiq o'tkazish ham juda qiyin. Ushbu pandemiya, shuningdek,

ta'limni virtuallashuvi masofadan turib onlayn imtihonlarni (hatto ochiq kitob imtihonlarini) va magistrnlarni yoki doktorlik himoyasi seminarlarini o'tkazishda davom etishi mumkinligini o'rgatdi. Imtihon jarayonlari sezilarli darajada kechiktirilmaligi uchun O'zbekiston va chet eldagi ko'plab universitetlar bunday tashabbuslarni amalga oshirmoqdalar.

Shunga qaramay, ta'limdan tashqari, SARS-CoV-2 bo'yicha bir qator yuqori darajadagi tadqiqot ishlari ham Internetdan va virtual muhitdan foydalanib uydan masofadan turib olib borilmoqda. Muhimi, bir qancha ma'lumotli qo'lyozmalar COVID-19 orasida nashr etilgan bo'lib, unda barcha ishlar elektron resurslardan, mavjud ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda va turli xil videokonferentsaloqa platformalaridan foydalangan holda virtual uchrashuvlar yordamida amalga oshirilgan.

Dunyo miqyosidagi aksariyat ta'lim institutlari juda oz sonli o'quvchilarni tark etib, talabalarning bilim olishiga katta ta'sir ko'rsatadigan ushbu kutilmagan tanazzulni yengish uchun kurashmoqda. Bunday vaziyat davom etishi mumkin, chunki COVID-19 uzoqroq davom etishi mumkin. Bir kecha-kunduzda ta'lim missiyalarini to'liq virtuallashtirish oson ish emas. Shunday qilib, akademiklarda kundalik ilmiy ta'lim kurslarini virtuallashtirishda ko'proq vaqt, kuch va mablag' sarflashimiz kerakmi degan muhim savol tug'iladi? Bunday tashabbuslar nafaqat yuqori sifatli ta'limning global miqyosda tarqalishini kuchaytiradi, balki ilgari ko'rilmagan bunday noxush ofatlarni chetlab o'tishga yordam beradi. Shu sababli, COVID-19 sharoitida ushbu ta'lim tanazzulini bartaraf etish uchun tajriba va resurslarni milliy va global darajada birlashtirish uchun juda muhim bo'lgan hamkorlik tashabbuslari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. DiCarlo SE. Cell biology should be taught as science is practised. *Nat Rev Mol Cell Biol.* 2006;7:290–296. doi: 10.1038/nrm1856. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
2. Waldrop MM. Online learning: Campus 2.0. *Nature.* 2013;495:160–163. doi: 10.1038/495160a. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
3. Srivastava S, Özdemir V, Ray S, Panga JR, Noronha S, Nair B, et al. Online education: e-learning booster in developing world. *Nature.* 2013;501:316. doi: 10.1038/501316c. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
4. Ray S, Koshy NR, Diwakar S, Nair B, Srivastava S. Sakshat labs: India's virtual proteomics initiative. *PLoS Biol.* 2012;10:e1001353. doi: 10.1371/journal.pbio.1001353. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
5. Waldrop MM. Education online: the virtual lab. *Nature.* 2013;499:268–270. doi: 10.1038/499268a. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
6. King C, Robinson A, Vickers J. Online education: targeted MOOC captivates students. *Nature.* 2014;505:26. doi: 10.1038/505026a. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
7. Nilsson T. Virtual laboratories in the life sciences. A new blueprint for reorganizing research at the European level. *EMBO Rep.* 2003;4:914–916. doi: 10.1038/sj.embor.embor952. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
8. Huang C. Virtual labs: e-learning for tomorrow. *PLoS Biol.* 2004;2:e157. doi: 10.1371/journal.pbio.0020157. [[PMC free article](#)] [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
9. Jones N. Simulated labs are booming. *Nature.* 2018;562:S5–S7. doi: 10.1038/d41586-018-06831-1. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]
10. de Jong T, Linn MC, Zacharia ZC. Physical and virtual laboratories in science and engineering education. *Science.* 2013;340:305–308. doi: 10.1126/science.1230579. [[PubMed](#)] [[CrossRef](#)] [[Google Scholar](#)]

TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TA'LIM JARAYONINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Berdiyeva Dinora Erkinovna
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya

Raqamli texnologiyalar jamiyatning ko'plab sohalariga jadal kirib bormoqda. Bu jarayonda ta'lim sohasi ham yetakchilardan hisoblanadi. Maqolaning maqsadi ta'lim jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, elektron ta'limning afzallik va kamchiliklarini o'rganishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Annotation

Digital technologies are rapidly penetrating into many spheres of society. The education sector is also one of the leaders in this process. The purpose of the article is to analyze the possibilities of digital technologies in the study of priority areas of the educational process, the advantages and disadvantages of e-learning.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar turli sohalarga faol kirib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida barcha yoshdagi foydalanuvchilar zamonaviy jamiyatda duch keladigan o'zlarining muammolari to'g'risida tasavvur hosil qilish va hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab universitetlarni va barcha ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vosita va imkoniyatlar beradi.

Raqamlashtirish to'plangan tajriba va bilimlarni almashish uchun foydalanuvchilarga ko'proq ma'lumot olish, o'zlashtirish imkonini beradi.

Elektron ta'lim tizimi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Asosiy imkoniyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta'limning ommaviylik muammolarini hal qilinishi;
- ta'lim shakllarini tanlash imkoniyatlarini kengayishi;
- axborotni uzatish vositalarining xilma-xilligini oshirish.

Raqamlashtirish tufayli bugungi kunda ilgari faqat mutaxassislar va olimlar uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlardan har bir ta'lim oluvchi foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o'rni va roli tushunchasi – ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarining metodologiya va didaktika sohasidagi yangi zamonaviy tadqiqotlarda o'z aksini topishi kerak.

Shu o'rinda raqamli ta'lim texnologiyalariga ham ta'rif berib o'tsak. Raqamli ta'lim texnologiyalari ta'lim maqsadlari uchun mo'ljallangan, raqamli, elektron, "kompyuter" shaklida taqdim etilgan alohida ob'yektidir.

Raqamli ta'lim texnologiyalari – o'quv jarayonida foydalanish uchun qo'llaniladigan raqamli shakldagi ma'lumotlar to'plami. Elektron qurilmalarda namoyish etish, foydalanish uchun ishlatiladigan o'quv materiallari – elektron ta'lim texnologiyalari deb ataladi. Eng umumiy holatda, elektron ta'lim texnologiyalari o'quv videofilmlari va yozuvlar, ularni ijro etish uchun yetarli uy yozuvchisi yoki CD-pleerlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim uchun eng zamonaviy va samarali elektron ta'lim texnologiyalari kompyuterda namoyish etiladi.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish – talabalarning o'quv materiallaridan foydalanishlarini osonlashtirishga imkon beradi, o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi, fanlarning o'zlashtirilishi va o'quv jarayonini nazorat qilishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, bu jarayon ta'lim xizmatlari turlarini va foydalanish doirasini kengaytirishda sezilarli darajada yordam beradi.

– Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda yuzaga kelishi mumkin: mavjud o'quv materiallarini, ma'ruzalar, taqdimotlar, darsliklar, shu jumladan, mustaqil ta'lim topshiriqlarini, bilimlarni nazorat qilish vositalarini elektron ko'rinishga o'tkazish orqali;

– ta’lim oluvchi va pedagoglarning interfaol elektron ta’lim muhitini shakllantirish, shu jumladan, o’qituvchilar elektron kabinetini yaratish, webinar, munozara, forumlar o’tkazish orqali;

– yangi ta’lim vositalari turlarini yaratish orqali: elektron darsliklar, elektron topshiriqlar, video ma’ruzalar, o’rgatuvchi kompyuter o’yinlari;

– elektron muhi imkoniyatlaridan foydalangan holda o’qotishning tizimli yangi shakllarini yaratish: axborotni obrazli yetkazib berish imkoniyatining kengayishi, rolli o’yinlarni o’tkazish jarayonida turli holatlarni modellashtirish orqali;

– ta’lim jarayonida sun’iy intellect imkoniyatlaridan foydalanish orqali.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirishning muhimligini bir nechta faktorlar orqali tushuntirib o’tishimiz mumkin.

Birinchi. Hozirgi kunda deyarli barcha talabalar “raqamli texnologiyalar” avlodi hisoblanadilar va ular o’zlarining doimiy hayot tarzida ham yangi axborot texnologiyalariga moyillikni namoyon etadilar. Bunda ayniqsa, internet va kompyuter texnologiyalarining o’rni juda kattadir.

Ikkinchi. Oliy o’quv yurtlari orasida raqobat o’sib bormoqda. Globallashuv jarayonini hisobga olgan holda talaba uchun kurash endi bir mamlakat yoki mintaqa doirasida emas balki, xalqaro darajaga yetib kelmoqda. Shu o’rinda esa, oliy ta’lim muassasasining o’z o’rnini saqlab qolishi uchun ko’plab elektron ta’lim resurlariga ega ekanligi katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Uchinchi. Ta’lim muassasasi bo’limlarining o’zaro hamkorligi samaradorligini oshirish uchun ichki jarayonlarni raqamlashtirish ehtiyoji ortib bormoqda. Yangi ta’lim modeliga o’tish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ko’plab konferensiyalar, innovatsion va madaniy tadbirlar tashkil qilinishi muhim talablardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Махамов Х.Т., Турдиев Э.Ж., Таълимда ахборот-коммуникация ва инновацион технологиялар, “Таълим ва технология” илмий-услубий мақолалар тўплами, 3-қисм. Термиз, 2018, 31-бет.

2. Хамдамов Р., Taylaqov N., Begimqulov U., Sayfiev J. Elektron universitet, elektron vazirlik, masofaviy ta’lim texnologiyalari. Uslubiy qo’llanma, –Toshkent, 2011. – 17-19b.

3. Шефер.Е.А., Использование цифровых технологий в образовательном процессе / — // Молодой ученый. — 2021. — №16(358). — С.22-25

4. Надеева М.И., Место и роль цифровых технологий в современном образовании, Казанский педагогический журнал №5, 2019. С.14-18.

JALOLIDDIN RUMIY ADABIY MEROSINING YOSHLAR MA’NAVIYATINI

KAMOL TOPTIRISHDAGI O’RNI

Po’latova Zubayda Abduravupovna

Daminova Mashhura Zafar qizi

NavDPI Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o’qituvchilari

Resume

Ushbu maqolada Jaloliddin Rumi adabiy merosining yoshlar tarbiyasi hamda yosh avlodni ma’naviy jihatdan yuksak topishida ahamiyati haqida so’z yuritilgan.

Resume

This article discusses the role of Jalaliddin Rumi's literary heritage in educating the youth and raising the spiritual level of the younger generation.

Insoniyat paydo bo’libdiki, ma’naviy barkamollik masalasi har bir davr uchun birdek muhim bo’lib kelgan. Bugun biz shiddat bilan taraqqiy etayotgan, ma’naviy evrilishlar davrida yashayapmiz. Shubhasiz, axborot xurujlari tufayli tobora dolzarb bo’lib borayotgan bizning bu asrimizda ma’naviyat masalasi, qolaversa, yosh avlodni ma’naviy jihatdan yuksak tarbiya

topishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Bugungi kunda o'tmish madaniy-ma'rifiy merosini o'rganish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chunki ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosda barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ilg'or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyot uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'tmishdagi buyuk mutafakkirlarimizning merosi insonning yashashdan maqsadi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, tarbiyasi, hayoti haqidagi purma'no fikrlari yuksak tafakkur mahsulidir. Ular xalqimizning ma'naviy dunyosini yanada boyitishda, shaxsni kamol toptirishda, mustaqil davlat fuqarosining dunyoqarashini yuksaltirishda amaliy yordam berib kelmoqda.³⁵⁵ Sir emaski, mustaqillikka erishganimizdan keyin jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning ma'naviy merosiga katta e'tibor berila boshlandi. O'rta asr musulmon Sharqining ulug' siymolaridan biri Jaloliddin Rumi ham ana shunday zotlardan hisoblanadi. Jaloliddin Rumiyning falsafiy-ma'rifiy qarashlarini milliy istiqlol g'oyamizning asosini tashkil qiladigan komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatga ega.

Jaloliddin Rumi merosining islom madaniyatidagi o'rnini tadqiq qilishda avvalo, o'rta asrlar musulmon Sharqining muazzam ta'limotlaridan bo'lmish tasavvufga e'tiborimizni qaratishga to'g'ri keladi. Tasavvuf islomning botiniy jihatlarini qamrab olib, uning bosh g'oyasi Alloh taoloning rizoligiga erishish uchun nafsni poklab go'zal axloq sohibi bo'lishga intilmoq, ya'ni Muhammad payg'ambar (s.a.v.) xulqi bilan axloqlanishdir. Qur'oni Karim va hadisi sharifga tayangan tasavvuf islom ilm-fani va madaniyatidan munosib o'rin olgan Jaloliddin Rumi uchun ham ma'naviy yetuklik pillapoyasi bo'lib xizmat qilgan. Mavlono Rumi shaxsiyati va ijodi borasidagi tadqiqotlarda Mavlono fikr va aqida jihatdan Qur'onga tayanganligi uqtiriladi. Xususan, Mavlono Rumiyning «Masnaviy» asari haqida N. Komilov quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Masnaviy»da bir necha yuz hikoyat va rivoyatlar keltirilgan. Qur'oni karimning yuzlab oyati tilga olinib, tafsir etilgan, 690 hadisga rumiyona sharh berilgan. Ko'z oldimizda ham Kalom ilmining ulug' bilimdoni, ham tasavvuf ta'limotini sarbaland cho'qqiga olib chiqqan orif inson, ham muqtadir daho shoir g'aydalanadi. Oddiy latifalar, hikoyatlardan Rumi favqulodda falsafiy so'fiyona ma'nolar chiqaradi, teran doiradan doiraga, darajadan darajaga ko'tarilib boradi. “Qur'onning uch qabat botiniy ma'nosi bor”, deb qayd etadi u va ana shu ma'nolarni izchil bizga tushuntiradi³⁵⁶”.

Haqiqatan ham Mavlono Rumiyning barcha asarlari islom dinining mohiyati asosida yozilgan bo'lib, olam va odam mohiyatining ma'naviy sir-asrorlaridan voqif qiladi. Mutafakkir insonning bu dunyodagi ahvoli, ruhiyati xususida ta'kidlab shunday fikrlarni bildiradi: «Insonda shu qadar ulkan ishq, hirs, orzu va dard bordirki, yuz minglarcha olam o'ziniki bo'lsa ham, ko'ngli tinchimaydi. U ishda, san'atda, ilmu nujumda, hakimlikda mashg'ul. Biroq bularning hech biridan huzur topolmaydi. Chunki istagan narsasini qo'lga kiritolmagan. Yor dilorom, ya'ni ko'ngilni tinchlantiruvchi demakdir. Shunday ekan, ko'ngil boshqa nima bilan qanday xotirjam bo'lsin? Zavq va orzular zinapoyaga o'xshaydi. Zinapoyalar o'tirib dam olishga moslashmagan, aksincha usti bosib o'tiladi, xolos. Umrni shu zinalarda behuda o'tkazmaslik uchun g'ofillikdan tez uyg'ongan va ahvolining mohiyatini anglab yetgan zot qanday baxtli».

Quyida Rumi hazratlarining ba'zi purma'no hikmatlari va ularning izohiga to'xtalamiz:

Qof tog'i qadar buyuk bo'lsang-da kafanga sig'adigan qadar kichiksan .

³⁵⁵ Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna. Jaloliddin Rumi tasavvufiy ta'limotida inson ma'naviy kamoloti masalasi. Bitiruv malakaviy ish. Namangan 2014.

³⁵⁶ Jaloliddin Rumi. Hikmatlar & Baxtiyor Karimov. Jaloliddin Rumi ma'naviy merosining umuminsoniy madaniyatda tutgan o'rni. Tasavvuf tarixi, va adabiyoti 27.04.2016

Bu hikmatda inson hayotda qancha yuqori martabaga, shon-shuhratga ega bo‘lmasin, bundan havolanib ketmasligi, o‘zining oqib banda ekanligini, abadiy yashamasligini, o‘limni tez-tez eslash orqali inson o‘zining hatti-harakatlarini idora etmog‘i kerakligi aytilgan bo‘lsa ajabmas.

Hamma zohirga bezak bermoqqa kirarkan, sen botinga bezak bermoqqa shoshil. Hamma birovlar aybini aytib g‘iybatga ketarkan, sen o‘zingni xatolaring, ayblaring bilan mashg‘ul bo‘l³⁵⁷.

Bu hikmat aynan hozirgi kunimizga mos keladi. Ba’zi yoshlarimiz faqat tashqi go‘zalikka e’tibor berib, qancha mollarini va qimmatbaho vaqtlarini o‘tkinchi hoyu-havaslariga sarflaydilar, mashaqqat chekadilar. Aksincha esa inson ichki dunyosi go‘zal bo‘lishiga e’tibor berishi, qalbn go‘zalligiga erishish uchun esa inson ko‘p bilimga ega bo‘lishi, uni hayotda tadbiiq etishi, noma’qul odatlar va xususiyatlarni tark etishi zarur. Birovni g‘iybat qilish o‘rniga o‘z xatolarini tuzatishga harakat qilishi kerak.

Insonlarni yaxshi tani, har insonni yomon bilib, qutulmoqqa shoshilma. Har insonni yaxshi bilib ham ovunma.

Yuqorida berilgan Rumiyniing so‘zlaridan shuni bilishimiz mumkinki, bugungi kunda yoshlarimiz insonlar bilan muloqot qilganda tezlik bilan qaror qabul qilmasdan ya’ni insonning tashqi ko‘rinishiga, so‘zlariga qarab aldanib qolmasligi kerakligi, fikr-mulohaza qilgan holda qaror qabul qilishi kerak.

Hayot senga orqama-orqa to‘siqlar, sinovlar yuborsa, bu tikanlardan saqlan. Xavotir olma: yaqin kunlarda bu tikanlar gulini xam ko‘rsatadi.

Ushbu hikmatdan inson hayoti turli xil sinovlardan iborat bo‘lishi, o‘g‘ir kunlarda inson sabr-toqatli bo‘lish kerakligi hamda umid bilan oldinga harakat qilganda albatta yorug‘ kunlar yetishishini aytib o‘tilgan.

Shunday qilib, Jaloliddin Rumiyniing ma’naviy merosi yoshlar ma’naviyatida yuksak o‘rin tutadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati markazida insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash va tarbiyalashning dolzarb ahamiyatini ko‘rishimiz mumkin. Mutafakkir jamiyatning taraqqiyotini diniy-axloqiy komillikda ko‘rgan. Shuning uchun insonlarni komillik sari eltuvchi o‘ziga xos qarashlarni ilgari surgan. Bu qarashlar zamirida tarbiya muhim o‘rin tutib, bu tarbiya islom ma’naviyati asosida qurilganini ko‘rishimiz mumkin.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ДЕТСКОГО САДА

Гулбоев Акбар Тухтаевич

Бухарский государственный университети, Дотцент Педагогической кафедры .

Аннотация: В статье обоснована актуальность применения цифровых технологий в образовательной среде детского сада и описаны особенности их использования.

Ключевые слова: цифровые технологии, образовательная среда, мультимедиа, интеллектуальное развитие ребенка, цифровизация.

Annotation: The article presents materials on the use of digital and multimedia technologies in the educational environment of a kindergarten.

Keywords: digital technologies, educational environment, multimedia, intellectual development of the child, digitalization.

Annotatsiya: Maqola bolalar bog'chasining ta'lim muhitida raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligini asoslaydi va ulardan foydalanish xususiyatlarini tavsiflaydi.

³⁵⁷ Жалолиддин Румий.ҲИКМАТЛАР.Муслимбек Мусаллам таржималари. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mavlono-jaloliddin-rumiy-hikmatlari>

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim muhiti, multimediya, bolaning intellektual rivojlanishi, raqamlashtirish.

В современных условиях трансформации системы образования меняются требования к учителю новой формации, который должен, помимо общекультурных и профессиональных компетенций, обладать еще и компетенциями в области информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Умения педагога в части владения ИКТ-компетенциями становятся не только потребностью, но и настоятельной необходимостью в условиях перехода нашей страны на повсеместную цифровизацию всех сфер экономики, включая сферу образования. В этих условиях задачей учителя наряду с привитием ученикам необходимых знаний по своему предмету является также формирование их цифровой культуры, обеспечивающей качественное образование в условиях модернизации детских садов и школы, связанной с цифровизацией и широким внедрением ИКТ в об С момента рождения у ребенка идет освоение окружающего мира. Сама природа позаботилась об этом. Через свои ощущения мозг ребенка получает знания и помогает ему адаптироваться в сложнейшем мире взрослых. Но чтобы этот процесс был более эффективным, дошкольника необходимо обучить приемам учебной деятельности, поэтому детям нужен индивидуальный подход, усиленное внимание, помощь учителей и родителей, причём помощь своевременная, квалифицированная, систематическая.

Современное образование представляет собой многоуровневую, интенсивно развивающуюся структуру, пронизанную сложными социальными, политическими, экономическими процессами и взаимосвязями. Сфера образования динамична, а, следовательно, подвержена постоянным изменениям. Одним из актуальных изменений сегодня является цифровая трансформация образования.

Под цифровой трансформацией (цифровизацией) образования понимается достижение высоких образовательных показателей на базе использования цифровых технологий, искусственного интеллекта, средств виртуальной реальности, а также обеспечение широкого доступа к интернету и создание цифровой образовательной среды персонализированного обучения[1].

Цифровизация как инновационная практика в сфере образования преобразует субъекта, познающего в субъект действующий, меняет взаимодействие «педагог-обучаемый» на диалогическое сотрудничество, трансформирует традиционное обучение в интерактивное[2].

Цифровые технологии (ЦТ) стали важным инструментом, позволяющим работать с любыми видами информации. И именно поэтому они сегодня так актуальны в сфере образования. Тому есть несколько подтверждений. Во-первых, ЦТ – это неисчерпаемое средство хранения, использования и передачи данных (облачные хранилища), цифровые источники информации. Во-вторых, - это высокоскоростной Интернет, осуществляющий прорыв в коммуникационной составляющей образовательного процесса. В-третьих, - это общепользовательские программы, такие как текстовые, графические редакторы, электронные таблицы, средства презентаций и видеомонтажа, вычислительные, чертежные программы, почта, коммуникаторы, геоинформационные программы. И наконец, - это обучающие программы, массовые онлайн- курсы, адаптивные тренажеры, различные учебные среды.

Цифровая трансформация коснулась сегодня не только школы и высшего образования. Современное дошкольное образование также претерпевает ряд изменений, обусловленных внедрением инноваций и созданием новой дошкольной подготовительной ступени[3].

Использование ЦТ в дошкольном образовании – одна из актуальных инновационных проблем современности. Детский сад не остается в стороне от тенденций современного цифрового общества.

Отечественный и зарубежный опыт свидетельствует о том, что возраст, с которого дети начинают знакомство с новыми информационными технологиями, неуклонно снижается: уже в дошкольном возрасте малыши получают доступ к персональным компьютерам и интернету.

Поэтому процесс формирования и развития информационно-компьютерной грамотности и культуры должен начинаться еще в раннем возрасте, и наилучшие результаты в этом процессе будут достигнуты тогда, когда вокруг ребенка будет создано единое информационное пространство, основным компонентом которого является компетентность педагогов в области новых информационных технологий. В связи с этим остро встает вопрос о качестве подготовки будущих воспитателей к профессиональной деятельности в условиях информатизации и компьютеризации общества, то есть о компьютерной компетентности.

Компьютеризация дошкольного образования является неотъемлемой составляющей информатизации общества, отражает общие тенденции глобализации и мировых процессов развития, выступает как определяющий информационный и коммуникационный базис образования и гармоничного развития личности. Современные компьютерные и информационно-коммуникационные технологии, внедряясь в образовательный процесс дошкольных образовательных учреждений, обеспечивают его оптимизацию и технологичность.

Развитие информационного общества предполагает широкое применение компьютерных технологий в области дошкольного образования и определяется многими факторами, а именно:

- активное и эффективное внедрение компьютерных технологий в дошкольное образование является важным фактором создания новой системы образования, которая отвечает современным требованиям общества и процесса модернизации традиционной системы образования;
- современные компьютерные технологии повышают интерес детей, а значит, и качество обучения, позволяют личности успешно и быстро адаптироваться к окружающей среде и социальным изменениям.

Мировой опыт свидетельствует, что решение проблем дошкольного образования начинается с профессиональной подготовки будущих воспитателей. Практика показывает, что овладевая навыками интерактивного обучения, педагог постепенно переносит их в свою практическую деятельность, обучая детей умению самостоятельно добывать знания, делать выбор в пользу активной деятельностной позиции в их освоении. Поэтому каждому будущему воспитателю нужна основательная подготовка в сфере современных компьютерных технологий.

Tarixiy bilim doimo jamiyatning o'zini anglashining omillaridan biridir. Bugungi tarixni faqat tarixiy istiqbolda tushunish mumkin. Shaxs ongida fuqarolik his-tuyg'usi uyg'onishi uchun tabiiyki, u o'z millatini o'tmish tarixini bilishi lozim bo'ladi. Mustaqillikning birinchi kunlaridayoq, hukumatimiz, tarixchi olim-pedagoglar oldiga tarix fanini zamon talablariga mos holda fanlar orasidagi munosib o'rnini tiklash, tarix ta'limini millat va jamiyat taraqqiyoti xizmatiga qo'yish vazifasini belgilab berdi.

Mustaqillik davridan boshlab tarix va tarixiy bilim haqidagi turli konsepsiyalar va yondashuvlar, ijtimoiy taraqqiyot natijasida uning rivojlanishi, tarixiy ongning milliy o'zlikni anglashdagi o'rni, tarixiy ong va milliy ong mushtarakligi va mustaqillik sharoitida uni amalga oshirish omillari haqida keng ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek "tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'la olmaydi. taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi"¹. I.A.Karimov 1998-yilda tarixchi olimlar bilan uchrashuvida tarix fanining metodi, metodologiyasini rivojlantirish, tarix ta'limini mazmun mohiyatini vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qilishi zarurligini ko'rsatdi. Shuningdek, bir necha metodologik muammolarga tarixchilarni e'tiborini qaratdi. Tarix ta'limini uning barcha bosqichlarida qayta qurish uchun qilinadigan ishlarni belgilab berdi.

Allomalar millatning mustaqil, erkin yashashi uchun va boshqa millatlar qatori yuqori darajada taraqqiy etishlari uchun eng avvalo millatning o'zligini anglashi lozimligini belgiladilar. Bu dolzarb muammoni yechishda tarix fanini o'qib o'rganish asosida shaxs va millat ongida tarixiy ong, tarixiy xotirani singdirish muhim ekanligini ular tushunib yetgan edilar. Ular tarix fanini, ayniqsa, millatimiz tarixini o'rganishni ilmiy nazariy asoslashga harakat qildilar. M. Behbudiy shunday yozgan edi: "Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo'lish uchun o'z vatani va o'z tarixini o'rganish da'vati bilan chiqish lozim". Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida millatimizning ilg'or ziyolilari, jadidchilik namoyondalari buni yaxshi anglab yetgan edilar. O'rni kelganda imkoniyat darajasida qarshilik ko'rsatgan ham edilar (A. Fitrat, M. Behbudiy, M. Abdurashidxonov va boshqalar).

Milliy o'zligini anglash millatning shakllanishi shart-sharoitlarini va chuqur o'zgarishlar jarayonlarini aks ettiradi. Milliy o'zligini anglash millatning ijtimoiy, jumladan, xalqaro munosabatlarda egallaydigan obyektiv milliy manfaatlarini ifodalashga qaratilgan. "Люди делают свою историю вовсе не затем, чтобы шествовать по заранее начертанному пути прогресса, и не потому, что должны повиноваться законом какой-то отвличенной эволюции. Они делают ее, стремясь удовлетворит свои нужды". Bu qanday ehtiyoj edi? Albatta, bu milliy borliqqa kirish ehtiyoji, tarixiy bilimlardan o'zini milliy jihatdan anglashda oladigan ma'naviy ozuqa sifatidagi ehtiyojlar. Hamda yetilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolarni yechish ehtiyojidir. "Millatni uyg'otish uchun, uning tarixini uyg'ot"

iborasi hozirgi kunda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi hukumatimizning o'zbek xalqi tarixiy tafakkurini yuksaltirishdek oliyjanob ishlarida tom ma'noda o'z ifodasini topmoqda. So'ngi yigirma yilda milliy tarixiy tafakkur to'plagan bilimlar zahirasi o'zlashtirila boshlandi. Milliy tarixiy tafakkurni rivojlantirish, milliy tarixiy ong, tarixiy xotiraning genezisini ilmiy-falsafiy, tarixiy tahlil qilish boshlandi.

I.A.Karimovning: "Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissalarini sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda" degan so'zlari hozirgi kunda tarixiy ongning milliy o'zlikni anglashdagi o'rni naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

XXI asrda dunyo taraqqiyotidagi globallashuv jarayoni yanada chuqurlashdi. Turli integratsion jarayonlar yangi-yangi hududlarni qamrab oldi. Mamlakatlar o'rtasidagi chegaralar yuvilib ketmoqda. O'zbekiston ham ushbu globallashuv va integratsiya jarayonlaridan chetda qolmadi. Globallashuvning ijobiy tomoni u millat va davlatlarning milliy iqtisodiyot va madaniyatlarining yaqinlashuviga, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Globallashuvning salbiy tomoni u ko'plab rivojlanmagan etnoslari millatlarning tili, madaniyati katta millatlarning madaniyatlari va tillar bilan raqobatlasha olmay o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, til so'zlash hayotidan chetga chiqib qoladi. Biz bu ziddiyatli dunyoda erkin va mustaqil yashash uchun, millatimizni saqlab qolish uchun globallashuvning salbiy tomonlaridan immunitetni shakllantirish lozim. Buning uchun ta'lim tizimi yosh avlodni milliy o'zligini anglash ruhida tarbiyalab vatanparvarlik milliy g'ururni shakllantirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarishda tarix ta'limi yetakchi o'rin egallaydi. Tarix ta'limi o'rta maktabdan boshlanadi. Abdulla Avloniy shunday takidlagan edi: "...Har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarning ilm va ma'rifatga, hunar va san'atiga bog'liqdur"³⁸⁹. Haqiqatdan ham, mamlakatimizning bo'lg'usi taraqqiyoti hozirgi kunda maktab partasida o'tirgan millionlab o'quvchi yoshlarga bog'liq. Maktab tarix ta'limini samarali tashkil etish kelajak taraqqiyotimizga qo'shilgan munosib hissa bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent.: "Akademiya". 1999-yil. 16-bet.
2. Isoqova M., Ahmedov S., Rizayev Sh. Vatan va millat muqaddasdir: (Milliy uyg'onish davri ijodkorlarining e'tiroflari) – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000-yil. 57-bet.
3. Зиёмухаммадов Бури Педагогик маҳорат асослари. Тошкент – "ТИБ-КИТОБ" - 2009

ЗАМОНАВИЙ ИЛМИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАРДА АБДУХОЛИҚ ҒИЖДУВОНИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Б.Б.Дехқонов -Бухоро Давлат Университети докторанти

Аннотация: Мақолада Хўжа Абдухолик Ғиждувоний таълимотида ёшларга энг биринчи вазифа сифатида илм олиш лозимлиги таъкидланади. Ҳақ йўлида ишлаши инсонда комил маърифат борлигидан дарак беради. Абдухолик Ғиждувоний илмни бағоят теран ва ҳар томонлама ўрганишга даъват қилади.

Annotation: The article emphasizes that in the teachings of Hodja Abdukholik Gijduvani, the first task for young people is to acquire knowledge. His work in the way of truth shows that man has perfect enlightenment. Abdukhaliq Gijduvani calls for a very deep and comprehensive study of science.

Бугунги таълимнинг энг муҳим жиҳатларидан бири унинг инсонийлиги ва инсонпарварлигидадир. Таълим жараёнининг инсонга йўналтирилганлиги, бу жараёнда таълим олаётган ҳар бир ўқувчининг интеллектуал ва жисмоний имониятлари, руҳий ҳолати ҳамда ҳар томонлама ривожланишининг ҳисобга олиниши бу тамойилнинг асосидир. Хўжа Абдухолик Ғиждувоний таълимотида ёшларга энг биринчи вазифа сифатида илм олиш лозимлиги

³⁸⁹ Isoqova M., Ahmedov S., Rizayev Sh. Vatan va millat muqaddasdir: (Milliy uyg'onish davri ijodkorlarining e'tiroflari) – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000-yil. 57-bet.

таъкидланади. Зеро киши илм билан ўз олдига қўйган барча эзгу мақсадларига эришади. Қуръони Каримда илмли билан илмсиз ҳеч вақт баробар бўла олмаслиги таъкидланган. Каломи шариф оятлари “ўқи” деган хитоб билан бошланади ва бошқа оятларида ҳам илм олиш ва ўрганишга даъват қилинади. Ҳадис китобларида мусулмон шахс учун илмнинг бекиёс зарурлиги баён этилган ҳикматлар беҳисоб: “Бешиқдан то қабргача илм ўрган” деб, илм ҳар нарсадан юқори эканлиги, ҳеч нарса ундан юқори бўла олмаслиги таъкидланган.

Хўжа Абдухолиқ Ғиждувоний таълимотида тарғиб этиладиган юқорида тилга олинган барча умуминсоний, ахлоқий қадриятлар ушбу муқаддас “Ҳақ Таолонинг ҳужжати” билан асослаб қўйилган. Ғиждувоний Қуръони Каримни “қўрқув ва йиғи билан ўқиш”ни таъкидлайди. Бундай дейилишига сабаб шуки, бутун ҳаёти давомида яхши амалларни амалга ошириб, қисқа ғанимат умрнинг қадрига етиб, уни яратганни эсдан чиқармасдан, бу ёруғ дунё унинг марҳамати туфайли эканлигини, нотўғри амаллари билан унинг қаҳрига дучор бўлишдан қўрқиб яшаган киши яхши ҳаёт кечиради. Ундан жамиятга зарар бўлмайди. Ғиждувоний буюрдиларки, “ҳаёти вақтида уни яратгандан қўрқиб яшаган кишида охиратда азоб бўлмайди”¹. Шунинг учун доим андишали бўлиб, фикр билан ҳамма ишни қилиш керак.

“Илм қидиришдан бир қадам ҳам узоклашма, ҳадис илмини ўрган” дейди мўътабар Хўжаи Жаҳон. Ҳақиқатдан ҳам илм ва ҳаёт тажрибаси билан шуғулланмаслик, узоклашиш ҳаётда яшашда ноқулайлик, нохушлик, қийинчиликларни келтириб чиқаради.

Тасаввуф аҳли дунёвий ва шариат илмларини “зоҳирий илмлар” деб атаганлар. Маърифат “ботиний илм” деб юритилган. Тасаввуф аҳли зоҳирий билимни Тангрини билишнинг биринчи босқичи, дейдилар. Аллоҳни билиш дунёни билишдан бошланиши керак. Чунки дунё-Тангрининг ижоди, унинг сифатлари, қудратини намоён этиб турадиган кўзгу. Хўжаи Жаҳон Абдухолиқ Ғиждувонийдан “Маърифатнинг камоли нимада?”-деб сўраганларида, у киши қуйидагича жавоб беради: “Худованд сенга кўз берди-кўриш қувватини ато этди. У тил берди ва ширин сўзлашиш қудратини ато этди. Улардан тўғри фойдаланиш, саодатга элтишга сабаб бўлади, уларни нотўғри гуноҳ йўлида ишлатиш эса, шақоват-яъни бахтсизликни келтириб чиқаради. Маърифатнинг камоли улдурки, шу сабабларни ёмонлик йўлида ишлатмасин. Шу юқоридаги латоифларнинг тўғри, Ҳақ йўлида ишлаши инсонда комил маърифат борлигидан дарак беради. Маърифатнинг чегараси нафсни бошқариш ва бунинг тадбири ҳалол нарсалардангина баҳраманд бўлмоқни одат қилмоқдур”², - дейди ҳазрат.

Шайхи Акбар Ибн ал Арабий инсон билимларини учга бўлган: биринчиси: ақлий, ҳиссий билимлар, иккинчиси: ҳол илми. Учтинчиси: сирру асрор илми. Биринчи илм зоҳирий фанлар билан шуғулланадиган кишилар илми бўлса, иккинчи илм-ҳол мартабасига кўтарилган сўфийлар илми ҳисобланади. Учтинчи илм авлиёлар илми. Бу илм муқаддас руҳлар орқали келади, шуъла нур кўринишида қалбга киради.

Шунингдек, Хўжа Абдухолиқ Ғиждувоний биродарликка қабул қилинаётган кишига қўйиладиган бешта талаб, хислатнинг иккинчиси-илмни дунё ишларидан юқори кўядиган бўлиши керак. Ўз илмини бойитиб боришга ҳамиша вақтни топиши керак. Ҳар бир қиладиган ишнинг илмини билиши лозим. Инсоннинг камолга етишида илм асосий омил эканлигини таъкидлаб, Ғиждувоний илм ва маърифатнинг қадрини доимо баланд тутишни таъкидлаган.

Шунинг учун Абдухолиқ Ғиждувоний ҳам диннинг тараққиётида фаннинг ролини билган ва ботиннинг камол топишида зоҳирий илмлар-илми қолнинг ўрнини муҳим деган.

Ғиждувоний ўғитларига амал қилиб, таълимотларини давом эттирган мўътабар сўфий Ориф ар Ревгарий ўзининг “Орифнома” асарида “Ориф эмас ул кишиким, илм ва маърифатни пулдор, дунёпараст ва бадавлат одамлар олдига “дастурхон”, бозор, балки хор айлағай!”⁴, деб илмнинг қадрини пастга урувчилардан норози бўлади. Абдухолиқ Ғиждувоний илмни бағоят теран ва ҳар томонлама ўрганишга даъват қилади, илм амалга ҳаётий. Ҳар қандай амални

¹ Абдухолиқ Ғиждувоний. Мақсад ас-солиқин.11-б.

² Абдухолиқ Ғиждувоний. Маслак ал орифин.-В.18а.

⁴ Хожа Муҳаммад Ориф ар Ревгарий. Орифнома.-Т.: Наврез. 1994.

қалбдан, ихлос билан адо этиш кераклигини куйидаги ўғитларларида таъкидлайди. “Ислом асоси уч нарасадур: биринчиси; ҳар тоате ибодатким айларсиз-анинг илмидан воқиф бўлинг!, иккинчиси; ҳар илмники ўрганибсиз-унга амал қилинг!, учинчиси, ҳар амалники этгайсиз-сидку ихлос билан этинг!”³⁹⁰⁵. Шу учта жумланинг ўзида олам-олам маъно мужассам. Дарҳақиқат, ҳозирда қилаётган тоат-ибодатининг маъносига бормайдиган, унинг илмидан беҳабар кишилар анчадир. Илмдан хабарсиз кишининг унга амал қилиши ҳам, ихлоси ҳам шунга ярашади. Беш вақт намозни қанда қилмай ўқийдиган, аммо бутун ҳаёти давомида яхши амалларни бажармайдиган кишилар бор. Абдуҳолиқ Гиждувоний дейдики: “Эй фарзанд, илм ўрган, унга амал эт. Тақволи бўл!”. Бу ҳикмат пайғамбар алайҳиссаломнинг насиҳатлари, илмнинг имон билан бир-бирига жуда яқинлиги, улар бир-бирисиз дуруст эмаслигига бағишлаб битилган ҳадислари ҳосиласидир.

Яхши хулқ атворлилик бу-ҳақиқий инсонийлик, олийжаноб, меҳрибон, камтарин, саҳий, ватанпарвар, ҳалол, меҳнатсевар, ор - номусли, дўст, мард ва бошқа фазилатларга эга бўлиш демакдир. Бундай инсон табиийки жамиятга фақатгина наф келтиради, унга зарар етказмайди, оғирини енгил қилади. Худди мана шу жамиятга хизмат этиш, ўша муқаддас вазифа-Аллоҳга яқинлашишнинг муҳим йўли эканлигини Хўжаи Жаҳон доимо таъкидлайди.

Демак, дунёга тўла қизиқиб, нафсга берилса, унга етади, лекин “охиратдан” яъни адабийликдан маҳрум бўлади, агарда бу дунёда ҳалол яшаб, охиратни ўйлаб, ҳар бир ишнинг оқибатини ўйлаб, яхши амаллар содир этиб яшаса, охиратга, яъни абадийликка эришади. Шу ўринда Хўжаи Жаҳон “Маслак ал орифин” асарида шундай назм келтиради:

Эй, дар ин хокдони зулмони

Номи кас карда аз мусулмони .

Таржимаси:

Эй, зулматли тупроқда турган банда

Инсонлик номинг мусулмонлигинг биландир.

Яъни “хокдон”-жисм, тупроқдан ясалган киши, “зулмони” зулмот шундаки, қачонки сен шу тупроқдан ясалган жисминг билан қониқсанг, бу зулмотда, қоронғиликда туриш билан баробар. Инсоннинг асли бўлган руҳ асли томон интилади, яъни мусулмон бўлади-ўзининг яратувчисига итоатда бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, одамлар дилига эзгулик ва покликни сингдириш ташкил этган диний қадриятларнинг одамларни тарбиялашдаги қанчалик буюк аҳамиятини англаб Гиждувоний ўзининг тасаввуфий-ирфоний таълимотида диний қадриятларга катта эътибор берган.

ФАН, ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Бердиева Гулмира Аминовна - Бухоро муҳандислик-технология институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси, тарих фанлари номзоди. Ўзбекистон

Нариманова Ирода Махмуджон қизи - Бухоро муҳандислик-технология институти

“Технологик жараёнларни бошқарув тизимлари” факультети

701-18 ТЖБ гуруҳи талабаси. Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада бугунги кунда илм-фан соҳасида эришилаётган улкан кашфиётлар ва уларнинг ишлаб чиқаришга кенг миқёсда жорий қилиниши олимларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳаётдаги ролини кучайтириб бориш кераклиги ҳақида фикр юритилган. Кенг қўламли ислоҳотларнинг муҳим бўғини – инновациялар бугун ҳар бир соҳада бўлгани каби таълим тизимида ҳам ўзининг афзалликларини намойиш қилмоқда.

Annotation: The article argues that the great discoveries made in the field of science today and their large-scale introduction into production should strengthen the role of scientists in social and

⁵ Ориф Ревгарий. Орифнома.-Б. 6.

6.Шаҳобиддин ибн бинту Амир Ҳамза. Макрмати Амир Кулол.-Б.38.

economic life. An important link in large-scale reforms - innovations are showing their advantages in the education system today, as in any field.

Жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари тажрибаларидан маълумки, мамлакат тараққиётини тامينлашда интеллектуал салоҳиятнинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон мустақилликка эришган кунларданок интеллектуал салоҳиятни оширишнинг муҳим қисми бўлган кадрлар тайёрлаш сиёсатига алоҳида эътибор қаратди. Айниқса, илм-фан соҳасини ислоҳ қилиш тараққиётимиз учун муҳим аҳамиятга эга. Бугунги кунда илм-фан соҳасида эришилаётган улкан кашфиётлар ва уларнинг ишлаб чиқаришга кенг миқёсда жорий қилиниши олимларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳаётдаги ролини кучайтириб бориш керак.

Таъкидланганидек, ҳозирги вақтда “инновация” тушунчаси жуда кенг қўлланилиб, ёшларга замонавий билим бериш ва уларда амалий кўникмани ривожлантиришда инновацион технологияларнинг ўрни бекиёс. Илғор педагогик технологияларни қўллашда замонавий ахборот технологиялари кенг имкониятлар яратмоқда. Таълимда инновацион технологиялар ҳамда замонавий услублар таълимнинг сифат ва самарадорлигини ошириб, рақобатдордош кадрлар тайёрлашга хизмат қилади. Мазкур инновацияларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан таълим муассасасида амалга оширилаётган инновацион фаолиятнинг тўғри ташкил этилганлигига боғлиқдир.

Таълим тизимини ислоҳ этиш масалалари – замонавий давлатнинг изчил ва барқарор тараққиёти, авваламбор, унинг иқтисодий ривожланиши йўлидаги муаммоларни ечиш билан бевосита боғлиқ эканлигига алоҳида урғу берилди.

Таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири, шу вақтгача анъанавий таълимда талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологияларда эса, уларни эгаллаётган билимларни ўзлари кидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, хатто хулосаларни ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади. Муҳими, таълим жараёнида талаба асосий бўғинга айланади. Педагог бу жараёнга шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради.

Кенг қўламли ислохотларнинг муҳим бўғини – инновациялар бугун ҳар бир соҳада бўлгани каби таълим тизимида ҳам ўзининг афзалликларини намойиш қилмоқда. Инновациялар долзарб, муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бир тизимда шаклланган янгича ёндашувлардир. Улар ташаббуслар ва янгиликлар асосида туғилиб, таълим мазмунини ривожлантириш учун истикболли бўлади. Шунингдек, умуман таълим тизими ривожига ижобий таъсир кўрсатади. Инновация – маълум бир фаолият майдонидаги ёки ишлаб чиқаришдаги технология, шакл ва методлар, муаммони ечиш учун янгича ёндашув ёки янги технологик жараённи қўллаш, олдингидан анча муваффақиятга эришишига олиб келиши маълум бўлган охирги натижадир.

Ҳозирги замон шароитида, юқори малакали кадрларни тайёрлашда, ўқитишнинг ҳозирги замон тизимлари ва янги педагогик технологиялари асосида амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Янги педагогик технологияларни хислати шундаки, унда қўйилган мақсадларга эришиш кафолатини берувчи ўқув жараёни режалаштирилади ва амалга оширилади. Дарҳақиқат, машғулотларнинг муваффақиятли ўтишининг 80 фоизи таълим жараёнини тўғри лойиҳалаштириш, ташкил этиш ва уни амалга оширишга боғлиқдир.

Таълим тизимидаги ҳар қандай янгилик инновация бўла олмайди. Шу сабабли “новация” ва “инновация” тушунчалари ўртасидаги асосий фарқларни кўрсатиб ўтиш зарур. Бунинг учун ислохот фаолиятининг аниқ шакли, мазмуни ва кўлами асос бўлиб хизмат қилади. Агар фаолият қисқа муддатли бўлса ва яхлит тизим хусусиятига эга бўлмаса, ўз олдига муайян тизимдаги фақат баъзи элементларини ўзгартиришни вазифа қилиб қўйган бўлса, у ҳолда биз новация хусусида фикр юритаётган оширилаётган бўлса ва унинг натижаси ўша тизим

ривожланишига ёки унинг принципиал ўзгаришига олиб келса инновация деган тушунча шаклланади.

Таълим жараёнидаги инновацион ўзгаришлар, тизимга ҳар қандай янгиликнинг киритилиши бевосита ўқитувчи фаолиятини янгилаш ва ўзгартириш орқали амалга оширилиши ҳам атрофлича ўрганилган. Инновацион фаолият-бу узлуксиз равишда янгиликлар асосида ишлаш бўлиб, у узоқ вақт давомида шаклланади ва такомиллашиб боради. Инновацион фаолият-янги ижтимоий талаблар билан анъанавий меъёрларнинг мос келмаслиги ёхуд амалиётнинг янги шаклланаётган меъёрнинг юзага келган меъёр билан тўқнашувчи натижасида вужудга келган қатор муаммоларни ечишга қаратилади.

Инновациялар доимий равишда педагогик фаолият янгиликлар олиб кириш орқали таълим ривожига ҳисса қўшади, педагогик фаолияти ижобий таъсир кўрсатади.

Замонавий педагогик технология ўзининг педагогика ва бошқа фан ютуқлари билан боғлиқ хусусий назариясига эга: у биринчи галда ўқув-тарбиявий жараённи илмий асосда қўришга йўналтирилган: ўқитишнинг ахборотли воситаларидан, дидактик материаллардан, фаол методлардан кенг фойдаланишга асосланган ўқитувчи ва талабаларнинг биргаликдаги фаолиятига замин яратади.

Таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири, шу вақтгача анъанавий таълимда талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўрнатилган бўлса, замонавий технолонияларда эса, уларни эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади. Педагог бу жараёнга шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Таълим жараёнида талаба асосий бўғинга айланади.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан, интерактив методлардан тўлиқ фойдаланилади.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ўқитувчи ва талаба фаолиятга янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан, интерактив методлардан тўлиқ фойдаланилади. Интерактив методлар – бу жамоа бўлиб, таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагогик ва талабаларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади.

Ҳозирги шароитда илмий кадрлар тайёрлаш жараёнини тобора жадал ривожлантириш ва сифатини ошириш, иқтидорли ёшларни илм-фанга кенг жалб қилиш, олий таълим ва илмий муассасаларнинг илмий салоҳиятини мустаҳкамлаш, ундан республиканинг инновацион ривожланишида самарали фойдаланиш масалалари алоҳида аҳамият касб этади. Келажакда таълим тараққиётининг ҳаққоний ҳаракатлантирувчи куч сифатида ўқитувчи фаолиятини янгилашга, таълим-тарбия жараёнини мақбул қўришга, талаба ёшларда хур фикрлилик, билимга чанқоқлик, Ватанга содиқлик, инсонпарварлик туйғуларини шакллантиришга ижобий таъсир кўрсатади.

АБДУЛХОЛИҚ ҒИЖДУВОНИЙ ВА БАҲОУДДИН НАҚШБАНД ЕТТИ ПИР ЗАНЖИРЛАРИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ИЛМИЙ-МАДАНИЙ МЕРОСИ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ

Дехқонов Бехзод - Бухоро давлат университети докторанти

Аннотация: Мақолада Хожаи Жаҳон мўътабар китобларда “шайхушшуоҳ” (шайхлар шайхи) унвони билан таърифланадилар. Бундай унвон Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий томонидан Хўжа Юсуф Ҳамадоний, Хўжа Аҳмад Яссавий, Хўжа Абдулхолик Ғиждувоний каби пирларга нисбатангина қўлланилган. Хожа Абдулхолик Ғиждувоний бутун оламга донғи

кетган Ҳазрат Баҳоуддин Балогардоннинг маънавий устозларидирлар.

Annotation: In the article, Khojai Jahon is described in the books as "sheikhushshuyux" (sheikh of sheikhs). This title was used by Abdurahman Jami and Alisher Navoi only in relation to such pirs as Khoja Yusuf Hamadoni, Khoja Ahmad Yassavi, Khoja Abdulkhaliq Gijduvani. Hoja Abdulkhaliq Gijduvani is the spiritual teacher of the world-famous Hazrat Bahauddin Balogardon.

Шамга ўхшагин, токи ҳаммага равшанлик бағишла, ўзинг эса қоронгида бўл. Ҳою ҳавас ва нафс аҳллари тутган ишлар асосининг барчаси залолат (адашув)дан иборатдир.

Баҳоуддин Нақшбанд

ЮНЕСКО Бош конференциясининг 31-сессияси ташаббусини қўллаб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2002 йил 4 декабрда 423-сонли ҳамда вилоят ҳокимлиги 2002 йил 23 декабрда 127-сонли “Абдулҳолиқ Ғиждувонийнинг 900 йиллигини нишонлаш тўғрисида” қарор қабул қилди. Бу қарор асосида Абдулҳолиқ Ғиждувоний таълимотини чуқур, ҳар томонлама ўрганиш бошланди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуслари билан 2018 йил сентябр, октябр ойларида бу зотларнинг яъни, Абдулҳолиқ Ғиждувонийнинг 915, Баҳоуддин Нақшбанднинг 700 йиллик юбилейлари тантанали равишда ўтказилиши бу бизнинг буюк сиймоларимизга бўлаётган юксак ҳурмат ва эҳтиром намунасидир.

Хожа Абдулҳолиқ Ғиждувоний (1103-1179 йй.) буюк мутасаввуф хожагон тариқатининг асосчиси, соҳиб каромат авлиё, Хўжаи Жаҳон номи билан ислом дунёсида машҳурдирлар. “Хўжаи Жаҳон” ўзбекчада “Жаҳон Хўжаси” мазмунини беради. Ул зоти бобаракотнинг падари бузрукворлари Имом Молик (713-795 йй.) авлодларидан бўлиб, исми шарифлари Имом Абдулжамилдир. Волидаи мухтарамалари подшоҳ авлодидан бўлганлар.

Хожаи Жаҳон Бухоро вилоятининг Ғиждувон шаҳрида туғилиб, шу ерда вафот этганлар. 2003 йилда ушбу кўҳна ва навқирон шаҳарда шарқ оламининг мутафаккири Хожа Абдулҳолиқ Ғиждувоний таваллудининг 900 йиллик тўйи нишонланди.

Хожаи Жаҳон мўътабар китобларда “шайхушшуюх” (шайхлар шайхи) унвони билан таърифланадилар. Бундай унвон Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий томонидан Хўжа Юсуф Ҳамадоний, Хўжа Аҳмад Яссавий, Хўжа Абдулҳолиқ Ғиждувоний каби пирларга нисбатангина қўлланилган.

Хожа Абдулҳолиқ Ғиждувоний Ҳазрат Хизр Алайҳиссалом, Юсуф Ҳамадоний, Имом Садриддин, Ниёз Хоразмий (Бобойи Лақлақаги)лардан таълим олганлар. Бу зот Ҳазрати Хизрнинг зикри хуфия таълимотини ўрганган бўлсалар, Юсуф Ҳамадоний хожага сўфийлик хирқасини кийгизганлар.

Хожа Абдулҳолиқ Ғиждувонийдан “Рисолаи Соҳибия”, “Рисолаи шайхушшуюх, Ҳазрат Хўжа Юсуф Ҳамадоний”, “Мақомоти Хўжа Юсуф Ҳамадоний”, “Васиятнома” каби асарлар ёдгор қолган. Аммо, ҳали бу меросни халқимиз ўзлаштириб, маънавий мулкига айлантира олганича йўқ.

Абдулҳолиқ Ғиждувонийнинг Хожа Сиддик, Хожа Авлиёи Кабир, Хожа Сулаймон Карманий, Хожа Ориф ар-Ревгарий (Хожа Ориф Моҳи Тобон) исмли халифалари бўлган. Ул зоти шарифнинг муридларидан Садр ал Кабир Бурхониддин Бухородаги масжиди Баланд ва Сўзангарон масжидини қурдирган эканлар.

Хожа Абдулҳолиқ Ғиждувоний бутун оламга донғи кетган Ҳазрат Баҳоуддин Балогардоннинг маънавий устозларидирлар. Ул зоти шарифнинг руҳи поклари Баҳоуддин Нақшбандийни тарбият қилганлиги учун Баҳоуддин “Увайсий” лақаби олмишдир.

Абдулҳолиқ Ғиждувоний юксак даражадаги шайх, орифлигини исботловчи далиллардан бири унинг Баҳоуддин Нақшбанднинг устози эканлиги масаласидир.

Баҳоуддин Нақшбанд номи билан машҳур бўлган Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Бухорий ҳаётига оид Жомийнинг “Нафаҳот ул унс”, Алишер Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат”, Ас-Сафийнинг “Рашаҳот айнул ҳаёт” каби манбаларда “алар увайсий эдилар” деб ёзилган. Баҳоуддиннинг увайсий эканлигини исботи учун у кишини Абдулҳолиқ

Ғиждувонийдан таълим олганлари қайд этилган. Увайсийлик Увайс Қараний номи билан анъана бўлиб келгандир. Чунки Увайс Қараний Муҳаммад пайғамбарни кўрмай илоҳий иноят билан у кишидан руҳий таълим олганлар. Шунинг учун Оллоҳнинг ўзи ўтганларнинг руҳи билан кимни тарбият этса уни увайсий деганлар. Баҳоуддин Нақшбанд 1318-1389 йилларда яшаганлар. Абдулҳолиқ Ғиждувоний 1220 йилда рихлат этганлар. Баҳоуддин Ҳожаи Жаҳондан руҳий таълим олганда орадан юз йиллар ўтган бўлади. Дунёдан ўтганига юз йил бўлган одам бировни тарбиялай оладими? Бу қандай воқеъ бўлади? Бу нимадан далолат беради? Бу воқеа бўлганми ёки муболағами? Дарҳақиқат, руҳий оламнинг ақл доирасига сиғмайдиган чексиз ва чегарасиз томонлари жуда кўпдир. Лекин руҳнинг қуввати қанча кучли бўлса у тушда кўриниши, моддий либос кийиб намоён бўлиши мумкинлиги ҳақида исботлар билан тадқиқотлар ўтказилган.

Абдулҳолиқ Ғиждувоний ўзлари ҳали ҳаёт бўлган даврларида намоз вақтида Каъбага бориб келганлар. Шом шаҳрида у кишининг кўп муридлари бўлган. Ҳолбуки ўзлари жисмонан Ғиждувонда бўлганлар. Демак, инсон жуда чексиз имкониятларга эга бўлган илоҳий сифатли мавжудот. У руҳини камолотга етказса сув устида юриш, ҳавога учиш, масофани тез босиб ўтиш, ёмғир ёғдириш каби ғайриоддий кароматларни амалга ошириши ҳеч гап эмас. Баҳоуддин Нақшбандга ҳам 100 йилдан кейин Абдулҳолиқ Ғиждувонийнинг келиб таълим беришлари у кишининг кароматларидандир. Баъзи манбаларда Абдулҳолиқ Ғиждувоний Баҳоуддин Нақшбанднинг тушларига келиб тарбия берган десалар, иккинчилари Баҳоуддин у кишини кўрган ва таълим олган деб ёзадилар.

Тушдами ёки қалб кўзи биланми Баҳоуддин Нақшбанд Ҳожаи Жаҳонни аниқ кўрганлар ва овозларини ўз қулоқлари билан эшитиб, у кишидан олган сабоқларига амал қилиб шундай юксак мартабага эришганлар. Чунки, манбалар Нақшбандни Муҳаммад Бобои Самосий, Амир Кулол, Ориф Деггароний, Қусам Шайх, Халил ота каби пирлардан бевосита, жисмонан ва маънан учрашиб, зоҳир юзидан таълим олганлигини қайд этсада, лекин аслида ҳақиқат юзидан у киши увайсий эдилар ва Абдулҳолиқ Ғиждувоний руҳидан тарбия топганлар деб таъкидланади. Баҳоуддин Нақшбанд Абдулҳолиқ Ғиждувонийни кўрганини шундай тасвирлайдики, “Пире кўрдим-нуроний, салом қилдим. Жавоб бердилар ва сўзларни сулуқ мабдаида ва васатида ва охирида керакликдур менга баён қилдилар ва дедиларки, ул чироқларки, ул кайфият билан сенга кўргуздилар ишорату башоратдур сенга бу йўл қобилият ва истевдодидин. Аммо истевдод фатиласин ҳаракатга келтурмак керак, то ёруғай ва асрор зуҳур қилғай ва яна буюрдилар ва муболаға қилдиларки, барча аҳволу ақдомда барча амру наҳий жодасига қўйғил ва азимат била амал қил ва суннатни бажо келтургил ва руҳсатлар ва бидъатлардин йироқ бўл ва доимо Мустафо с.а.в. ва асҳоби киром р.а. аҳбору осорига мутафаҳҳис ва мутажассис бўл”³⁹¹.

Демак, Абдулҳолиқ Ғиждувоний, биринчидан, Баҳоуддин Нақшбандга тариқат йўлининг боши, ўртаси ва охирида бажариш зарур бўлган амалларни ўргатганлар. Иккинчидан, Баҳоуддин Нақшбанднинг қобилият ва истевдоди борлигини кўриб уни ҳаракатга келтириш зарурлигини таъкидладилар. Учунчидан, доимо амру наҳй-амал қилиш зарур ва инкор этилган нарсаларга эътибор бериш лозимлигини қайд этганлар. Тўртинчидан, руҳсат ва бидъатлардан узоқда туришни буюрганлар. Бешинчидан, ҳадисларни ўрганиш, саҳобаларни аҳбору осорларни тадқиқ этишни ўғит берганлар. Буларга амал қилиб Баҳоуддин комил инсон даражасига етган. Бу эса Абдулҳолиқ Ғиждувонийнинг юксак даражада руҳан камол топган инсон эканликларидан далолат беради. Шу билан биргаликда Нақшбандия таълимотидаги хуфия зикр Абдулҳолиқ Ғиждувонийдан мерос қолган.

Хулоса. Абдулҳолиқ Ғиждувоний ва Баҳоуддин Нақшбанд бу икки буюк сиймолар Ҳожагон тариқатининг асосий устунларидан десак адашмаган бўламиз. Буларнинг бизга қолдириб кетган бой маънавий меросини ўсиб келаётган ёш авлодга тўлаи-тўқис етказиш асосий вазифаларимиздан бўлиб ҳисобланади. Чунки инсонни қалби, маънавияти бой бўлса у албатта ҳаётда ўз ўрнини топа олади.

³⁹¹ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 17 - Т., 2001. 262-бет.

ФАН-ТАЪЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ТАЪЛИМ – ТАРБИЯНИНГ РОЛИ

Латофат Султанова- Бухоро муҳандислик-технология институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси., Ўзбекистон

Ахроров Аббос- Бухоро муҳандислик-технология институти “Нефт-газ технологияси” факультети 204-19 НГТ гуруҳи талабаси. Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада бугунги кунда таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини таъминлашда педагог-тарбиячиларнинг касбий маҳорати муҳим ўрин тутиши ҳамда методик хизматнинг ўқитувчи эҳтиёжига асосланган янги шакллари яратиш, таълим сифатини баҳолаш жараёнига ахборот-коммуникация технологияларини кенг татбиқ этиш ҳам муҳим вазифаларимиздан ҳисобланиши ҳақида тўхталиб ўтилган.

Annotation: The article emphasizes that today the professionalism of teachers plays an important role in ensuring the quality and effectiveness of education, as well as the creation of new forms of methodological services based on teacher needs, the widespread use of information and communication technologies in the quality assessment process.

Жамият тараққиёти, миллий фаровонлик ҳамиша ёш авлоднинг таълим-тарбияси, замонавий билимларни чуқур эгаллаган янги кадрлар, уларнинг юксак малакаси билан боғлиқ бўлиб келган. Таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини таъминлашда педагог-тарбиячиларнинг касбий маҳорати муҳим ўрин тутди. Айни пайтда халқ таълими тизимида педагогларнинг касбий ва маънавий савиясини янада юксалтириш борасида қандай ишлар олиб борилмоқда.

Дарҳақиқат, ёш авлодга замон талаблари асосида билим бериш учун, табиийки, ўқитувчи-педагоглар малакаси ва маҳорати юксак бўлмоғи лозим. Айниқса, бугун ёшлар жуда илғор фикрламоқда. Дарсларни уларнинг талабига мос, юқори даражада ташкил этиш учун ўқитувчи мунтазам равишда ҳар бир машғулотга алоҳида тайёргарлик кўриши зарур. Шу нуқтаи назардан, халқ таълими тизимига янги ва замонавий таълим технологияларини, ўқув дастурларини жорий этиш билан бирга, педагогларнинг касбий маҳоратини изчил ошириб бориш мақсадга мувофиқдир.

Албатта, таълим муассасаларида дарсларни самарали ташкил этишда, юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, етук кадрлар билан бир қаторда таълимга доир меъёрий ҳужжатлар, ўқув-методик таъминотнинг ўрни ҳам бениҳоят аҳамиятлидир. Президентимиз томонидан ўқитишнинг замонавий методологиясини яратиш ва амалиётга жорий этиш, ўқувчиларнинг онгли равишда касб-ҳунар танлаш иштиёқини кучайтириш, дарсликларни яратишга бутунлай янгича ёндашиш каби долзарб вазифалар айнан шу мақсаддан келиб чиқилган ҳолда қўйилмоқда. Ҳақиқатан ҳам, глобаллашув жараёнининг жадаллашуви ўқув дастурларимизни тубдан қайта кўриб чиқишни, кенг билимга эга бўлган, мантиқий фикрлай оладиган ёшларни вояга етказишга хизмат қиладиган, такомиллашган меъёрий ҳужжатлар, ўқув-методик мажмуаларни яратишни тақозо этмоқда.

Методик хизматнинг ўқитувчи эҳтиёжига асосланган янги шакллари яратиш, таълим сифатини баҳолаш жараёнига ахборот-коммуникация технологияларини кенг татбиқ этиш ҳам муҳим вазифаларимиздан ҳисобланади.

Бу каби ишларнинг йўлга қўйилиши, ўйлайманки, айни пайтда аҳолининг ҳақли эътирозига сабаб бўлаётган бир қатор муаммолар, жумладан, ўқув муассасаларидаги таълим-тарбия жараёнидаги камчиликларнинг барҳам топишига хизмат қилади.

Уларнинг мазмуни таҳлил этилиб, энг кўп ариза, шикоят ва таклифлар келиб тушаётган масалалар - иш билан таъминлаш, таълим муассасасига ўқишга кириш ва жойлаштириш, мактабгача таълим муассасалари фаолияти, таълим-тарбия мазмунини такомиллаштириш, мактабларда дарс тақсимоли бўйича муаммоларнинг олдини олиш

чоралари кўрилмоқда. Шунингдек, мурожаатлар нисбатан кўп келиб тушаётган ҳудудларда қабул кунлари, очиқ эшиклар куни ўтказилаяпти.

Ушбу саъй-ҳаракатларнинг амалга оширилиши натижасида болаларни мактабгача таълимга қамраб олиш 1,5 баробар ортади. 2021 йилга келиб, республикада мактабгача таълим муассасалари 1 миллион 109 минг нафардан ортиқ болаларни қамраб олиш имкониятига эга бўлди.

Дастурда тарбиячи-педагоглар салоҳияти, малакаси ва тажрибасини оширишга ҳам эътибор қаратилган. Мактабгача таълим муассасалари учун педагог кадрларни тайёрлаш ҳамда улар малакасини оширишда, биринчи навбатда, ўқув режа ва дастурлар илғор педагогик технология ҳамда методларни инobatга олган ҳолда такомиллаштирилади. Бугунги кунда тизимда фаолият олиб бораётган 55 мингдан зиёд педагог ходимларнинг малакаси замонавий ўқув режа ва дастурлар асосида босқичма-босқич оширилади.

Таъкидлаш керакки, бугунги кунда болалар чет тилларни шу соҳага оид янги давлат таълим стандартлари ҳамда ўқув дастурларига мос дарсликлар асосида катта қизиқиш билан ўрганмоқда. Айни пайтда 1-4 синф ўқувчилари учун замонавий дарслик-мажмуалар ишлаб чиқилиб, ўқувчи ва ўқитувчилар дарсликлар билан юз фоиз бепул таъминланган. Чет тили таълими самарадорлигини ошириш мақсадида мактабларга барча зарур жиҳоз ва инвентар етказиб берилган.

Эътиборлиси, мактаб ўқувчиларига чет тилини ўргатиш борасида ўзига хос ёндашувлар танланди. Хусусан, болалар тил ўрганиш баробарида, миллий қадрият ва анъаналаримизга солиштирган ҳолда тили ўрганилаётган халқ маданияти билан танишади. Дарсликларга ўзбек ҳамда жаҳон адабиёти ижодкорлари ижодидан намуналар ҳам киритилганки, бу болаларда мутолаа маданиятини шакллантиришга хизмат қилади.

Китобхонлик маданияти халқнинг маънавий қиёфасини белгилайди. Шу боис бугун юртимизда аҳолининг, айниқса, ёш авлоднинг китобхонлик маданиятини юксалтиришга катта эътибор қаратилмоқда.

Шунингдек, ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш ҳамда рағбатлантириш мақсадида таълим муассасаларида “Китоб тақдироти”, “Адабиёт кунлари”, “Китобим-офтобим” номли маърифий тадбирлар, ота-оналар иштирокида “Бир фарзандга-уч китоб” акциялари ва “Энг яхши китобхон ўқувчи” ҳамда “Китобхон мактаб” танловларини ўтказиш йўлга қўйилган.

Мактаб кутубхоналари ва ахборот-ресурс марказларида миллий ҳамда жаҳон болалар адабиётларига, замонамиз қаҳрамонлари образи очиб берилган ёшларбоп янги асарларга эҳтиёж катта. Шуни ҳисобга олган ҳолда, ўқувчиларда китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш бўйича чора-тадбирлар дастурининг лойиҳаси ишлаб чиқилди. Унда кўзда тутилган тадбирлар, албатта, бадий диди ҳамда савияси юқори, чин инсоний фазилатларга, кенг дунёқараш ва юксак маънавиятга эга авлодни тарбиялашга замин яратади.

Бугун биз замонавий талаблар асосида жиҳозланган, барча шарт-шароитларга эга ўқув бинолари билан ҳақли равишда фахрлана оламиз. Мустақиллик йилларида туғилиб вояга етган фарзандларимизнинг ўқишда, илмий ижодкорликда, маданият, санъат ва спорт соҳаларида эришаётган ютуқлари қалбларимизни фахр-ифтихор туйғулари билан тўлдиради. Улар замонавий технологияларни, компьютерда лойиҳалаштириш ва бошқариш илмини, бир неча тилларни мукамал эгаллаган ёшлардир. Бу ютуқлар муҳтарам Юртбошимиз раҳбарлигида истиқлолимизнинг дастлабки йилларида таълим-тарбия соҳасида танлаган йўлимизнинг нақадар тўғри эканлигини яққол исботлаб турибди.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ИЛМИЙ-МАДАНИЙ МЕЪМОРЧИЛИГИДА ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР

Латофат Султанова- Бухоро муҳандислик-технология институти
“Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси, Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада Марказий Осиё халқлари хусусан ўзбек халқи доим янги кашфиётлар ва янги ғояларни ҳаётга тадбиқ этиб бориш борасида дунёнинг етакчи давлатлар қаторига кирган. Бу даврда диний ва дунёвий асосан тасаввуф илмининг ривожланишида Юсуф Ҳамодоний, Хўжа Аҳмад Яссавий, Абдуҳолиқ Ғиждувоний, Нажмиддин Кубро каби тасаввуфшуносларнинг хизмати бениҳоядир.

Annotation: In the article, the peoples of Central Asia, especially the Uzbek people, are always among the world's leading countries in the implementation of new discoveries and new ideas. The contribution of mystics such as Yusuf Hamadoni, Khoja Ahmad Yassavi, Abdulkholiq Gijduvani, Najmiddin Kubro in the development of religious and secular mainly mystical science during this period is invaluable.

Кейинги ўн йил давомида Марказий Осиё давлатлари иқтисодиёти дунёнинг энг яхши иқтисодий ўсиш кўрсаткичларига эришиб, хорижий сармояларнинг янги тўлқинларини фаол жалб қилиб келмоқда. Марказий Осиё халқлари хусусан ўзбек халқи доим янги кашфиётлар ва янги ғояларни ҳаётга тадбиқ этиб бориш борасида дунёнинг етакчи давлатлар қаторига кирган. Буни биз бутун ўзбекчилик тарихида кузатишимиз мумкин. Айниқса IX-XII асрларда мамлакатимиз халқлари меъморчилигида бу ҳолни кузатиш мумкин.

IX-XII асрларда ҳукмронлик қилган сулолалар сиёсий нуқтаи назардан келиб чиқиб, илм-фан тарақиётини ҳар томонлама қўллаб-қувватларилар. Илм соҳиби илм раҳнамолари вазирликга тайинланган эдилар. Бу ўз навбатида сарой аёнларининг маданият ва санъат ривожига диққат беришига олиб келди. Вазирлар эса сарой ишларига олиму фузалоларни жалб эта бошлади. Умуман олганда маданиятнинг ривожланишига халқнинг қўллаши кучли бўлди. Ўз навбатида Дамашқ, Қоҳира, Бағдод, Куфа, Басра ва бошқа катта шаҳарларда Ўрта Осиёдан бориб фан маданият тарақиётига ўз хиссасини қўшган авлод-аждодларимиз кўпая борди. IX-XII асрларда Жаҳон цивилизациясига беназир ҳисса қўшган буюк алломалар Ал Хоразмий, Абу Наср Фаробий, Ал Фарғоний, Наршахий, Абу Райхон Беруний, Абу Али Ибн Сино ва бошқалар ўз хиссаларини қўшдилар. Маданият тарақиётига буюк ипак йўлининг Ўрта Осиёдан ўтганлиги катта аҳамиятга эга бўлди. Бадиий адабиёт ривожига ҳисса қўшган Махмуд Қашғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Юғнагий, Хўжа Аҳмад Яссавий, Абу Абдуллоҳ Рудакий ва бошқаларнинг хизмати катта бўлди. IX-XII асрларда Ислом дини Ўрта Осиё халқлари давлатчилиги тарихида катта рол ўйнай бошлади. Бу даврда Ислом таълимотига бебаҳо ҳисса қўшган Имом Ал Бухорий ва Исо Ат Термизий каби кўплаб иламолар етишиб чиқдилар. Тасаввуф илмининг ривожланишида Юсуф Ҳамодоний, Хўжа Аҳмад Яссавий, Абдуҳолиқ Ғиждувоний, Нажмиддин Кубро каби тасаввуфшуносларнинг хизмати бениҳоядир. Ишлаб чиқариш шаҳар кучларининг ўсиши, ҳамда савдо-сотикнинг ривожланиши шу билан бирга Мовароуннаҳр ва Хуросондаги шаҳарларнинг ривожланишига олиб келди. Шаҳарлар аста-секин ўз қиёфасини ўзгартира бошлади, Бухоро, Самарқанд, Марв шаҳарларида ўзгариш жуда катта бўлди. Барча шаҳарлар марказида бозорлар шаклланди. 849 йилда янги шаҳар деворлари қад кўтарди, Бухоронинг ҳамма томонидан шаҳарга қирадиган 11 та дарвозалари қурилди.

X асрларга келиб Бухоро, Самарқанд шаҳарлари дунёга ном чиқарган шаҳарлар сарасига кирди. Барча шаҳарларда кутубхоналар ташкил қилинди. Ибн Синонинг таъкидлашича “Бухорода шундай катта кутубхона бор эдики, мен ҳали умрим бино бўлиб бунча китоб кўрган эмасман”

Дамашқ Коҳира, Бағдод, Куфа, Басра ва бошқа шулар сингари катта шаҳарларда Ўрта Осиёдан бориб фан, маданият тарақиётига ўз хиссасини қўшган авлод-аждодларимиз бу даврга келиб кўпая борди. Бағдод шаҳри Шарқнинг илм-фан маркази сифатида оламга танилди, чунки IX асрда бу ерда “Байт ул-хикма” (“Донишмандлар уйи”) Шарқнинг фанлар

академияси ташкил этидди. Бунга монанд ҳолда X аср охирларида Хоразмда ҳам ҳалифа Маъмун даврида (995-997 йй) “Донишмандлар уйи”-“Байт ул-хикма”-“Маъмун академияси” (Хоразм академияси) ташкил бўлди. Бу икки илм уюғларида Шарқнинг машҳур ва маълум олим-алломалари тахсил кўрганлар. Улар орасида Аҳмад Фаргоний, ал-Хоразмий, Беруний, Ибн Сино ва бошқа буюк алломаларнинг номлари бор.

IX-XII асрларда ўлкада марказлашган йирик давлатларнинг шаклланиши ва уларнинг ривожини, давлатчиликнинг мустақамланиши, маънавий ҳаёт, илм-фаннинг ривожланишигагина эмас, балки моддий маданиятнинг ҳам ривожланишига асос бўлди. Самарқанд, Бухоро, Урганч, Термиз, Ўзган ва Марв каби шаҳарларда саройлар, масжид, мадрасалар, миноралар, мақбаралар, тим ва карвонсаройлар кўплаб қурилади бошлади.

Бу давр Ўрта Осиё меъморчилигида ижтимоий шароитдан келиб чиқиб, қурилиш материали сифатида пахса, хом гишт ва пишиқ гишт ҳамда боғловчи элемент сифатида ганчдан фойдаланиш кенг йўлга қўйилган эди. Бу вақтда синч қадаб қуриладиган уй-жойлар ва умум аҳамиятга эга бўлган бинолар, саройлар, масжидлар, мадрасалар қурилишида ёғоч ҳам муҳим ўрин эгаллар эди.

X асрларга келиб бинокорликда қурилиш тартиби ҳам ўзгара бошлади, маҳаллий хунарамандлар Маҳобатли қурилишда томи гумбаз билан ёпилган куб шаклидаги бинолар муҳим аҳамиятга эга бўла бошлади. Бухорода қурилган Исмоил Сомоний қабри устига пишиқ гишт билан қурилган гўзал мақбара фикримизга мисол бўла олади. Бу бино туртбурчак шаклида бўлиб, томи гумбаз қилиб ёпилган. Туртбурчакдан найзали равоглар ёрдами билан саккиз қиррали шаклга ўтилган. Шу билан бирга бу бино тўрт фасадлидир. Унинг тўрт тала томони ҳам бир хил, олд томонидек безатилган. Оддий қилиб айтганда, бинонинг олди, ёни ва орқа томони йўқ Ҳамма томони бир хилда безатилган. Исмоил Сомоний мақбарасини қуришда ва безатишда араблардаги уша давр учун хос бўлган меъморий хусусиятлардан ҳам кўп фойдаланилган. Масалан, бинонинг ташки бурчакларига устунлар ўрнатиш. Бино ичидаги бундай шаклдаги, шунингдек думалок манзарали майдонлар ҳам исломгача бўлган ёдгорликларда учрайди.

IX-X аср меъморчилигининг ривожланиш йўллариининг сақланиб қолганлигини кўплаб масжидлар мисолида ҳам кузатиш мумкин. Ёзма манбаларда қайд қилинишича, сомонийлар давридаги кўпгина масжидлар ўз вақтида арабларгача бўлган ибодатхоналарнинг масжидга мослаштириш асосида қурилган. Улар бир хонали бўлиб, масжиднинг томлари устунга таяниб турган. Масжидларнинг томи одатда гумбаз шаклида бўлган. Масжидларда, Айниқса, меҳроблари шакли, ёзувли қилиб қирқилган киштлар, уйма ганчлар ва хатто тилла сувлар билан безатилган. Бу даврга оид масжидлар тўғрисида сўз юритилганда, Бухородаги Магоки Атторон, Пойканд масжиди, Термиздаги Чорустун, Шаҳристондаги Чилдухтарон масжидларини қайд қилиш мумкин. Бу ёдгорликлар Ўрта Осиёда диний меъморчиликнинг ривожланиш йўллариини кузатиш имкониятини берди.

БОШҚАРУВ КАДРЛАРНИ ТАЁРЛАШДА, ҚАЙТА ТАЁРЛАШДА ВА УЛАРНИ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ТАЖРИБАЛАРДАН Фойдаланиш

Тураев Лазиз Шокирович

Фавқулода вазиятлар вазирлиги Академияси ходими

Бошқарув кадрларини таёрлаш, қайта таёрлаш ва малакасини оширишда илғор хориж тажрибасини тадбиқ қилишни ўрганиш, мазкур соҳани замонавий ёндашувлар асосида такомиллаштириш ва янги босқичга чиқариш устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Давлат хизматчиларининг малакали корпусини яратиш, узлуксиз таълим концепциясини жорий этиш давлат хизмати тизими билан узвий боғлиқ масаладир.

Германия Федератив Республикасида таълим ва соғлиқни сақлаш тизими ходимлари, полиция, ҳарбий хизматчилар, суд-ҳуқуқ ва вазирликлар тизими, темир йўл ҳамда почта хизмати ходимлари ҳам давлат хизматчилари ҳисобланадилар. Германияда “давлат сектори

хизматчиси” тушунчаси ўз ичига далаат хизмати (Beamte), сектор ходимлари (Angestellte), шунингдек, давлат сектори ишчиларини (Arbeiter) олади³⁹²

Давлат хизматида мансаб бўйича ҳаракатланиш малакасини мажбурий тартибда ошириб бориш ва мансаб поғонаси бўйича кетма-кетликда ҳаракатланиш принциплари асосида амалга оширилади. Ушбу принципларга биноан мансабдор шахсинг бирон-бир мансаб бўйича кўтарилишида махсус синов ёки давлат имтиҳонини топшириш билан тасдиқланадиган мажбурий тартибдаги малакани ошириш, мансаб поғонасидаги барча мансабларни босиб ўтиши талаб этилади.

Германия Федератив Республикасида бошқарув кадрларини тайёрлаш ва малакасини ошириш учун алоҳида ўқув тизими мавжуд. Германия Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Давлат бошқаруви федерал академияси бу тизимда марказий ўрин эгаллайди. Академияда малака ошириш ва қайта тайёрлаш дастурлари аниқ ранг учун мос бўлган компетенцияларни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилгандир.

Шунингдек, Давлат ва маҳаллий бошқарув Федерал олий мактаби бошқарув кадрларини тайёрлаш ва қайта тайёрлашда алоҳида ўрин тутди. Давлат ва маҳаллий бошқарув Федерал олий мактабида ўқув жараёни 3 йил муддатгача чўзилади, уларнинг ярмини аудиторияларда ўқиш, ярмини эса жойларда амалиёт ўташ эгаллайди. 314 та Германия ОўЮларидан давлат хизмати учун бошқарув кадрлари тайёрлаш билан 26 та ўқув юртлари шуғулланадилар. Университетларда Германия талабалари умумий сонининг 76 фоизи, бошқарув кадрлари тайёрлаш бўйича олий мактабларда эса 3-5 фоизи ўқимокда.

Таъкидлаш жоизки, Жанубий Кореядан фарқли ўлароқ, Германияда кадрлар (давлат хизмати) масаласи билан шуғулланадиган алоҳида вазирлик ташкил этилмаган. Бунда ҳар бир давлат ташкилоти ва давлат бошқаруви органининг кадрлар бўлими муҳим рол ўйнайди.

Давлат бошқарувининг федерал тизими ҳамда номарказлашуви оқибатида Германиянинг ҳар бир ери (Land)да давлат хизматчилари малакасини ошириш бўйича таълим муассасаларининг фаолияти йўлга қўйилган. Аксарият ҳолларда улар “давлат бошқаруви академияси/мактаби/институти” деб номланиб, аниқ касбий кўникма ва компетенцияларни ривожлантиришга қаратилган.

Мисол учун, *Бавария Давлат бошқаруви мактаби (BVS)* 1920 йилда ташкил этилган бўлиб, ўрта бўғин давлат хизматчиларининг малакасини ошириш билан шуғулланади. BVS ўз ўзини молиялаштириш асосида фаолият олиб бориб, тингловчилар фақат тўлов асосида ўқишга қабул қилинади.³⁹³

Уч йилда бир марта BVS махсус аккредитация (узлуксиз таълим тизимида сифатни баҳолаш)дан ўтиши белгилаб қўйилган. Асосий штатда профессор-ўқитувчиларнинг сони атига 20 тани ташкил этади. Ўқув курсларининг амалий муаммоларни ечишга қаратиш мақсадида, турли ташкилотларнинг етакчи мутахассислари орасидан умумий ҳисобда 1,7 минг ўқитувчи соатбай тарзда таълим жараёнига жалб этилади. Бунда улар учун аввалам бор ўқитиш методикаси бўйича махсус малака ошириш курслари ташкил этилади.

BVSнинг Мюнхен, Хольцхаузен, Лауинген, Нойштадт ва Нюрнбергда таълим марказлари мавжуд. Йил давомида жами 2,2 минг ўқув курсларида (ишлаб чиқаришдан ажралган ва ажралмаган ҳолда) 32 минг давлат хизматчиси ўз малакасини оширади. Ўқув курслар қуйидаги мавзулар бўйича ташкил этилади: менежмент ва бошқарув, самарали мулоқот, офис-менежмент, пресса билан ишлаш, ахборт технологиялари, персонални бошқариш, бухгалтерия ва иқтисод, молия ва иқтисод, ижтимоий масалалар, соғлиқни сақлаш, таълим ва ҳ.к.

